

M 83 D e M O P A S S A N




Bel - Ami

1885- yildan beri
butun jahonda

1 000 000

dan ortiq adadda
chop etilgan



18+

Arizim
R O M A N

Guy De **MAUPASSANT**

Bel-Ami



G i D e M O P A S S A N

Arizim

ROMAN



Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent – 2020

Tarjimon
Ibrohim G‘afurov

M 74 **Mopassan, Gi de**

Azizim. [Matn]: roman / Gi de Mopassan; tarjimon I. G‘afurov. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2020. – 352 bet.

ISBN 978-9943-07-651-8

Mashhur fransuz mumtoz adibi Gi de Mopassan o‘n to‘qqizinchi asrda Fransiya da yashab, ijod etgan bo‘lsa-da, uning o‘tkir realistik ruhda yaratilgan hikoyalari, romanlari butun dunyoda mashhurdir. Ushbu roman o‘sha davr siyosatdonlarining va ular qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘lgan jurnalistlarning hayoti, siyosiy nayrangbozliklarini, fahsh va razolat bilan to‘lgan ichki dunyosini ayovsiz suratda ochib tashlaydi. Roman o‘z haqqoniyligi bilan siz, aziz kitobxonni ham maftun etishiga ishonamiz.

UO‘K: 821.133.1-31

KBK 84 (4 Fra)

© Ibrohim G‘afurov (tarj), 2018.

© «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.

ISBN 978-9943-07-651-8

SO'ZBOSHI

Gi de Mopassanning «Azizim»i yaratilgandan beri 120 yildan ko'proq vaqt o'tdi. Bu orada u dunyoda eng ko'p sevilib o'qiladigan, o'quvchilarni qaysi millatga mansub bo'lmasin, o'ziga doim jalb etib, rom etib turadigan romanlardan biri bo'lib qoldi. Mopassan Flober, Zolya kabi buyuk realist adiblarning suyukli shogirdi, Turgenev, Tolstoy qidirib, to'lib-toshib zavq bilan o'qigan yozuvchisidir. Turgenev uning har bir yangi asari darhol rus tiliga tarjima qilinishi, rus kitobxonlariga yetib borishi uchun tinimsiz qayg'ursa, jonkuyarlik qilsa, o'sha davming ulug' adiblariga uni, albatta, o'qishni tavsiya etsa, Mopassan ham yangi yozgan asarlarini, avvalo, unga o'qib bersa, Tolstoy Mopassanning rus tilidagi ilk saylanma asarlariga muhabbat bilan so'zboshi yozgan, uning «Portda» degan o'tkir hikoyasini o'zi rus tiliga o'g'irgan edi. Mopassan shunchalar suyukli edi. Uning «Azizim» romani Mopassanga buyuk shuhrat keltirgan «Do'ndiq» va «Hayot» romanlaridan so'ng dunyoga chiqdi.

XIX asrning 80-yillarida Yevropaning bir qator mamlakatlari singari Fransiyaning Uchinchi respublika hukumati ham Shimoliy Afrika va Osiyo mamlakatlarida o'lkalarni bosib olish uchun mustamlakachilik siyosatini yuritardi. Mustamlakachilik – nihoyatda olg'ir siyosat. U faqat olg'ir hukumat, olg'ir Vazirlar, biznesmenlar, olg'ir matbuot tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Olg'ir siyosat ommani chalg'itish, gangitish, sarob g'oyalar, sarob hayot qo'yniga tashlashni talab va taqozo etadi. Fransiyaning o'sha zamonlarda Marokash, Jazoir, Tunis, Hindixitoydagi siyosati shunday o'ta olg'irlik, firibgarlik, kazzoblik, mo'ltonilik bilan qorishib ketgan edi. Olg'ir siyosat yurituvchi olg'ir hukumat olg'ir odamlarni maydonga chiqaradi. Zero, hamma narsa bir-biriga

bogʻliq va biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Fransiya hukumatining oʻsha paytdagi siyosati Mopassan romanida tasvirlangan shiddatli voqealar, uning jurnalist Dyurua singari firibgar, olgʻir qahramonlarini tarix sahnasiga olib chiqdi. Mopassan ana shu oʻta olgʻir siyosatni zoʻr qudrat va mahorat bilan realistik tasvirladi. Parij siyosatdonlari, sotqin, malayga aylangan jurnalistlari, korchalonlari, aysh-u farogʻat, maishatbozlik tarafdorlarining axloqi, xulq-atvori, davlat, boylik egasi boʻlish yoʻlidagi rang-barang hiyla-yu nayrang, loʻttibozliklarini ayovsiz, benihoya oʻtkir kinoya, istehzo bilan ochib koʻrsatdi. Buzuqlikni – buzuqlik, telbalikni – telbalik, aynishni – aynish deb bilmay qoʻygan bashang, olifta toifalarning qaltis, xatarli sarguzashtlarini chaqmoqday til bilan tasvirladi.

Roman qahramoni oddiygina fransuz dehqoni, qovoqxonachisining oʻgʻli boʻlgan Jorj Dyurua – Azizim yirik moliya nahanglari, siyosat ajdaholaridan olgʻirlik, firibgarlikni oʻrgandi, oʻzlashtirdi. Tez fursatda ulardan ham oʻtib tushgan ustasi farang tovlamachiga aylandi. Uning oldida buyuk mansablarga koʻtarilish, eng davlatmand odam boʻlish choʻqqilari ochildi. Bu benihoya foje sarguzashtlarning bari xuddi «Ming bir kecha» fasih ertaklariday bosh koʻtarmay oʻqiladi. Har bir voqea, har bir soʻz asil yozuvchining oltin soʻziday qabul qilinadi.

Ibrohim GʻAFUROV

BIRINCHI QISM

I

Jorj Dyurua kassir xotinga besh frank uzatib qolgan pulni qaytib oldi-da, ko'cha eshikka qarab yurdi.

Unter-ofitser bo'lib yurgan chog'laridagidek qaddini g'oz tutgan g'oyatda xushqomat bu odam u yoq-bu yog'ini tuzatgan bo'ldi. odati bo'yicha azamatlarcha mo'ylovlarini burab qo'ydi-da, zalda orqayinroq o'tirib qolgan xo'randalarga bir himarilib qaradi. uning qarashlari o'lja poylagan qirg'iyмки kabi o'tkir, ko'rkam qaddi-qomatiga mos edi.

Xotinlar unga boshlarini ko'tarib qarashdi. Erlari bilan birga o'tirishgan uchta xotinning bittasi sochlari betartib to'zg'igan, pala-partish kiyingan, boshidagi shlyapasini chang bosgan, egnidagi ko'ylagi qiyshayib ketgan o'rta yoshlardagi musiqa muallimasi bo'lib, qolgan ikkitasi shu arzon oshxonaning doimiy mijozlaridan edi.

U ko'chaga chiqqach, endi nima qilsam ekan, deganday o'ylanib to'xtab qoldi. Bugun yigirma sakkizinchi iyun; oyning birinchi kunigacha kissasida atigi uch frank qirq santim pul qolibdi. Bunga ikki marta tushlik qilish mumkin, lekin unda nonushtadan mahrum bo'ladi yoki ikki marta nonushta qilsa, tushlik qilmasligi kerak bo'ladi. Qaysi biri xush kelsa, bu yog'i ixtiyoring. Nonushta bir frank o'n santimga tushadi, tushki ovqat esa bir yarim frank turadi. Modomiki shunday ekan, mabodo peshinda ovqatlanishdan voz kechilsa, unda bir frank yigirma santim tejaladi: bunga yana ikki marotaba kechqurun non bilan kolbasa yeyish va bulvarda ikki krujka pivo ichish mumkin. Pivo uni ancha chiqimdor qilib qo'ysa-da, lekin oqshom chog'lari u o'zini ana shu birdan-bir lazzatdan mahrum qilolmas edi. U Notr-Dam-de-Loret ko'chasidan yurib ketdi.

Bir zamonlar gusar libosida qanday yurgan bo'lsa, hozir ham uning qadamlari shaxdam edi: u ko'ragini baland tutib, oyoqlarini hozirgina otdan tushgan kishiday kerib tashlar edi. U ko'cha to'la odamlar orasidan hech kimni bir pulga olmay o'tib borar, o'tkinchilarni yelkalari bilan turtar, birovg'a yo'l bo'shatmasdi. Anchagina uringan silindrini chakkasiga qo'ndirib olgan, poshnalarini yerga taqillatib urar, o'zim xashaki odamlar ichiga tushib qolganday his qilib borayotgan bu shovvoz soldatning dimog'idan qurt yog'ardi. Uning butun yurish-turishi, vajohatidan hamma narsaga – uylar, odamlar, shaharingga tupurdim degan ma'noni o'qish mumkin edi.

Mana shu oltmish frankka sotib olingan arzonligina kostyumda ham u o'zini olifta, po'rim qilib ko'rsata olar, garchi uning bu po'rimligida nochorlik, tiyiqsizlik alomatlari zohir esa-da, bari-bir po'rim-po'rim-da. Uning baland ko'rkam jussasi, to'g'ri qilib taralgan jingalak malla sochlari, lablaridan gurkirab chiqqan shop mo'ylovlari, teshib yuboraman, deganday o'tkir va tik boqadigan tiniq moviy ko'zlari – bular barchasi bulvar romanlarida tasvirlanadigan xotinlarni yo'ldan uradigan suyuq odamni eslatib turardi.

Parijda havo yetishmaydigan dim yoz oqshomlaridan biri edi. Shahar baayni hammomning issiqxonasiga o'xshab qolgan, odamning nafasi qaytar, qora ter bosardi. Oqova suvlardan achimsiq, badbo'y hid ko'tarilar, uylarning pastki qavatlaridan, oshxonalarning pastak darchalaridan yuvindi. chiqindilarning sassiq isi anqirdi.

Uy qorovullari pidjaklarini yechib tashlab, darvozalar oldida kajava kursilarda chekib o'tirishardi, ularning oldilaridan oyoqlarini zo'rg'a ko'tarib bosayotgan yo'lovchilar sudralib o'tib borishardi.

Jorj Dyurua bulvarga yetgach, yana taysallanib to'xtab qoldi. Uning Yelisey maydonlariga, Bulon o'rmonzorlariga borgisi, daraxtzorlar ichida salqinlab kelgisi kelar edi. Biroq ko'ngli yana boshqa narsani ham tusamoqdaydi – u mahbubalar bilan birga bo'lishni istardi.

Lekin bunga qanday erishmoq kerak? Buni u bilolmas, lekin mana, uch oydirki, shunday bir uchrashuv bo'lishini mushtoqlik bilan kutadi, har kuni kutadi, har oqshom kutadi. Yana shunisi ham

sir emaski, xushsurat, tili shirin bu odam onda-sonda bir chimdim-yarim chimdim o'pich uzatishga muyassar ham bo'lib qolardi. biroq uning tilagani bu emasdi, u boshqacharoq narsani xayol qilardi. baland dorga osilgisi kelardi. Hamyon esa qup-quruq, biroq ishqibozlikning bu bilan ishi yo'q. ko'cha xotinlari burchak-burchakdan turib, «Men bilan yursang-chi, chiroyli yigit!» – deya shipshigan va unga badanini tekkizib o'tgan damlarda uning yuragi behol sust ketardi. Lekin ularga ergashgani yuragi dov bermas, cho'ntagi quruq edi. Buning ustiga u hamon boshqacharoq bir narsani, aziyat chekibroq erishiladigan bo'salarni intizor kutar edi.

Shunday bo'lishiga qaramay, u yengiloyoq qizlar ko'p to'planadigan joylarda – ular qatnashadigan ballar, restoranlar, ko'chalarda kezishni, ular orasida o'ralashib yurishni, ular bilan sensirab gaplashishni, ular sepgan o'tkir atirlar isini to'yib isকাশni, ular bilan birga bo'lishni yoqtirardi. Nima deganda ham bular xotin zotidan edi, ular sevgi, ishqibozlik uchun yaratilgan xotinlar edi. Bulardan u ayolmand erkaklar singari nafratlanib o'tirmasdi.

U Madlen ibodatxonasi tomonga yurdi va issiqdan behol bo'lgan odamlar ichiga qo'shilib ketdi. Kafelar ko'chagacha odam bilan liq to'lib ketgan, vitrinalarning yorug' chiroqlarida ichkarida o'tirganlar shundoqqina ko'zga tashlanib turishardi. O'tirganlarning oldilarida chorsi, aylana stollar ustida qizil, sariq, ko'k, qo'ng'ir tusli mulavvan ichimliklar bilan to'la qadahlar turar, grafinlarda esa ajib tiniq suvlar ichida muz parchalari yarqirab ko'rinardi.

Dyurua qadamini sekinlatdi – uning tomog'i qaqrab ketgandi.

Yozning dim kechalarida odam qattiq chanqaydi, lohas bo'ladi, u tashna bo'lib ketganidan o'zini behol sezdi, bo'g'zida muzdek pivoning ajib ta'mini xayolan tuyib, tamshanib qo'ydi. Biroq mabodo hozir ikki krujka pivo ichadigan bo'lsa, ertaga ochdan o'lmaslik uchun yeyiladigan kechki ovqatdan ham mahrum bo'lib qoladi. Oy oxirida och qoladigan kunlarini u yaxshi bilardi.

«Soat o'ngacha chidayman, keyin Amerika kafesida bir krujka ichaman, – deb o'yladi u. – Juda ham tomog'im qaqrab ketdi-ye!» U stollar atrofida o'tirib tashnaligini bosayotgan, ko'ngli qancha tusasa, shuncha icha oladigan odamlarga qarab borardi. U kafeda o'tirganlarga tik masxaraomuz qarab o'tar, ularning yuz ifodalari.

engil-boshlariga qarab, yonlarida qancha pullari borligini chamlab ko'rardi. Shunda uning ko'kragida maza qilib o'tirgan ushbu janoblarga nisbatan g'azab jo'sh urib ketardi. Ularning kissalarini kovlasang, oltin, kumush, mis, boringki, istaganingcha tanga topasan. O'rta hisobda har birining puli ikki luidordan kam emas, qaysi kafeni qarama, hozir kamida yuztadan odam o'tiribdi: ikki luidorni yuzga ko'paytirsak, ikki ming frank bo'ladi! «Ifloslar!» – deya to'ng'illadi u belini chayqab qadam tashlab borarkan. Bu afandilardan birontasi kechasi qorong'i ko'chalarda sobiq, un-ter-ofitserga yo'liqib qolsa bormi, sira ikkilanib o'tirmasdan uning bo'ynini qayirib tashlagan bo'lardi, u harbiy mashqlar paytida qishloqlarda tovuqlarning kallasini mana shunday qilib qayirib tashlayverardi.

Bexosdan Dyuruaniyga esiga Afrikada, Janubiy Jazoirning xilvat qal'alarida kechirgan yillari tushib ketdi. Bu yerlarda ko'pincha u arab xonadonlarini qiyratib ship-shiydam qilib ketaverardi. Bir voqea esiga tushib ketib, battol jilmayib qo'ydi: o'shanda uled-alan qabilasidan uchta arab narigi dunyoga ravona bo'ldi, o'rtoqlari bilan yigirmata tovuq, ikkita qo'y, tilla tangalarni qo'lga tushirishdi, buning ustiga yarim yilgacha mazax qilib kulib yurishdi.

O'shanda bu ishning aybdorlari topilmadi, – ularni jon kuydirib qidirganlari ham yo'q, – axir arab deganingiz ham qayog'ini o'girib qaramang, soldatning qonuniy o'ljasiday bir narsa-da.

Parijda esa unday emas. Yoningda qilich, qo'lingga revolver ushlab bimalol qaroqchilik qilolmaysan, huquq-puquq deb bosh og'rig'i qilishadi, o'zingni erkin sezolmaysan. Tobe mamlakatda yurib butunlay buzilib ketgan sobiq un-ter-ofitserning eski hissiyotlari junbishga keldi. Rost, qanchalar baxtiyor edi u paytlar. Negayam sahrani tashlab bu yerlarga keldi! Afsus! Ammo u, bu yerda ishlarim yurishib ketadi, deb umid qilgandi. Oqibatda esa... oqibat mana nima bo'ldi!

U og'zi qanchalar qaqrab ketganligini bilgisi kelganday tilini takillatib tanglayida aylantirdi.

Holdan toygan odamlar erinchoqlik bilan uning ikki yonidan o'tib borishar, u esa qarshidan kelayotganlarni turtib-surtib, sho'x hirgoyi qilganicha hushtak chalib o'ziga o'zi gapirib borardi: «Hayvonlar! Yana bu kaltafahmlarning hammasi puldor bo'lganiga

o'lasanmi!» U turtib o'tgan erkaklar so'kingancha nari ketishar, xotinlar esa uning orqasidan «o'l-e, surbet!» – deb qolishardi.

U Vodevil oldidan o'tib, Amerika kafesi qarshisida to'xtadi. Tashnalik uni adoyi tamom qilib qo'yganidan, kirib pivo ichib chiqsammikin degan xayolga bordi. Lekin bir qarorga kelishdan oldin ko'cha soatining kaftgiriga qaradi. To'qqizdan chorak o'tgandi. U oldiga pivo keltirishlari bilan shartta sipqorib tashlashini yaxshi biladi. Aytganday, soat o'n birgacha sabil qolgur vaqtni qanday qilib o'tkazsa ekan?

«Madlen ibodatxonasiigacha sekin borib, yana shoshmasdan qaytib kelaman», dedi u o'ziga o'zi.

Opera maydonining chorrahasida u to'ladan kelgan yigitga duch keldi, ko'ziga tanishday, uni qayerdadir uchratganday bo'ldi.

Xotirasini titkilagancha o'zicha g'o'ldirab uning orqasidan ergashdi:

– Jin ursin, qayerda ko'rishgan ekanman-a bu nusxa bilan?

U tozayam bosh qotirdi, shunda birdan xotirasi yalt etib yorishib ketdi, boyagi yigitni u gusar liboslari kiyib yurgan yosh yigit qiyofasida ko'z o'ngiga keltirdi, u paytlar bunchalik semiz emas edi.

– Iye, bu axir Forestening o'zi-ku! – qichqirib yubordi Dyurua va uni quvib yetib, yelkasiga bir tushirdi.

Yigit orqasiga o'girilib qaradi-da:

– Xizmat, afandim? – deb so'radi.

Dyurua kulib yubordi:

– Meni tanimayapsanmi?

– Yo'q.

– Jorj Dyurua, oltinchi gusar polkidan.

Foreste unga qo'llarini cho'zdi:

– Senmisan, og'ayni! Yaxshi yuribsanmi?

– Juda ham yaxshi, o'zing-chi?

– Men ham, yomonmas, tuzuk. Menga qara, ko'kragim xuddi patak bosib ketganday yilning olti oyini yo'talib o'tkazaman. Fransiyaga qaytib kelganimga mana, to'rt yil bo'layotibdi, Bujivaleda bir tomog'im og'rigancha haligacha tuzalmaydi.

– Buni qara-ya! Lekin ko'rinishing yaxshi.

Foreste qadrdon oshnasini qo'ltiqlab oldi-da, o'zining kasali, vrachlarning bergan maslahatlari, ish bilan qattiq band bo'lib qolib

ularning aytganlarini qilolmayotgani haqida gapira ketdi. Unga qish faslini janubda o'tkazing, deb maslahat berishibdi. lekin bunga iloj qayda? Uy, xotin tashvishi deganday, buning ustiga u jurnalist, o'ziga yarasha mavqeyi, obro'-e'tibori bor.

– Men «Fransuz hayoti»da siyosiy hayot bo'limini boshqaraman, «Xalos»da senat majlislari haqida hisobot maqolalar yozaman, «Sayyora»da adabiy hayot haqidagi maqolalarim bosilib turadi. Ko'rib turibsanki, ishlarim joyida.

Dyurua unga taajjub ichida tikilardi. Foreste juda o'zgarib ketibdi. Katta odam bo'lib qolibdi. Uning butun yurish-turishi, kiyinishi, qornining sapchadek bo'lib chiqqanidan o'ziga ishonchi zo'r ekanligi, ishlari g'oyatda o'ngidan kelganligi, yaxshi yeb, yaxshi ichayotganligi shundoqqina ko'rinib turibdi. U ilgarilari oriqqina, nozik, kelishgan o'spirin edi. Hammaga urishqoqligi, hovliqmaligi, baqirib-chaqirib yurishi, qo'nimi yo'qligi bilan otning qashqasiday tanilib qolgandi. Uch yil mobaynida Parij uni butkul boshqacha odam qilib qo'yibdi – garchi, yoshi hali yigirma yettidan oshmagan bo'lsa-da, u o'zini jiddiy va sipo tutar, badaniga jir bitgan, chakkalariga oq oralagan edi.

– Yo'l bo'lsin, qayerga ketyapsan? – so'radi Foreste.

– Shunday, o'zim, – deb javob berdi Dyurua, – uyqu oldidan biroz aylanib yuribman.

– Unday bo'lsa, balki, «Fransuz hayoti» tahririyatsigacha men bilan birga borarsan? Men ozgina korrekturani ko'rib beraman-u, keyin birga pivo ichamiz.

– Ma'qul.

Ular birga o'qigan, birga harbiy xizmatda bo'lgan odamlarga o'xshab tezda apoq-chapoq bo'lib ketishdi va gangur-gungur suhbatlashgancha qo'ltiqlashib yo'lga tushishdi.

– Ishlaring qalay? – so'radi Foreste.

Dyurua yelkasini qisdi.

– Rostini aytсам, ochlikdan o'lar holatga keldim. Xizmatim tugagandan keyin bu yerga... bu yerga tuzukroq bir ishning boshini tutarmikinman, deb kelgan edim, gapning po'stkallasi, Parijda yallo qilib yuraman degandim. Afsuski, mana yarim yildan beri Shimoliy temir yo'l boshqarmasida ishlayapman, yiliga atigi bir yarim ming frank pul olyapman.

– Juda ham nochor ekan-ku, jin ursin. – po'ng'illadi Foreste.

– Nimasini aytasan! Nima qilishimni bilmay, boshim qotib qoldi. Yolg'izlik jonimdan o'tib ketdi, tanish-bilish yo'q, kimga yorilishimni bilmayman. O'zingga qolsa shunday bo'lsin debmiding, qo'lim qisqalik qilib shu kunlarga tushdim.

Oshnasi unga boshdan-oyoq sinovchan ko'z bilan razm solib chiqdi-da, nasihatomuz so'zlay boshladi:

– Hammasi o'zingni qanday tutishingga bog'liq, bo'talog'im. Kallasi jindakkina ishlaydigan odanga boshliq bo'lishdan ham ko'ra Vazir bo'lish osonroq. Odamlarga o'zingni ko'rsata bilishing, ularga yalinib o'timasliging kerak. Biroq, nahotki, sira ham durustroq bir ish topolmagan bo'lsang!

– Boshimni tiqmagan teshik qolmadi, lekin foydasi bo'lmadi, – e'tiroz bildirdi Dyurua. – Aytganday, shu kunlarda bir ishning daragi chiqib turibdi: Pelereen manejiida menga ot minishni o'rgatadigan bir odam kerak, deb aytishdi. U yerda yiliga kam deganda uch ming frank ishlasam kerak.

– Bu tentaklikni sira qila ko'rma, – uning so'zini bo'ldi Foreste, – senga o'n ming frank va'da qilishgan chog'da ham rozi bo'lma. Bu bilan o'z yo'lingni o'zing to'sib qo'ygan bo'lasan. Idorangda esa, seni ko'pchilik yaxshi bilmaydi, bir kunmas bir kun ishing o'ngidan kelib qolsa, u yerdan ketib zo'r amalga minishing mumkin. Ot o'rgatuvchilik qilsang, ish rasvo bo'ldi deyaver. Bu butun Parij ovqatlanadigan restoranga metrdotel bo'lish bilan barobar. Sen aslzodalar yoki ularning bolalariga ot minishni o'rgata boshlaganingdan keyin ular seni o'z tenglari qatori ko'rmaydilar, mensimay qo'yadilar.

U so'zlashdan to'xtab, bir dam o'ylanib qoldi-da, keyin so'radi:

– Senda bakalavr diplomi bormi?

– Yo'q, men ikki marta yiqilganman.

– Agar o'rta bilim yurtini bitirgan bo'lsang, buning ziyoni yo'q. Sening oldingda gap Sitseron yoki Tiberiy ustida ketayotgan bo'lsa, buning mag'zini chaqishga aqling yetar deyman?

– Uncha-muncha.

– Shuning o'zi katta gap, o'n-o'n besh kallaxumni demasang, boshqalar ham shundan ortiq narsani bilmaydi, kallaxumlaring

ham bularni bilgani bilan aqlli bo'lib qolmaydi. Gapimga ishon. o'zingni bilag'on qilib ko'rsatishdan osoni yo'q. Hamma gap o'zingning nodonligingni boshqalarga oshkor qilib qo'ymasligingda. Dumingni tutqazma, gapni aylantir, chetga bur, xijolat chekiladigan vaziyatlarga tushma, to'siqlarni aylanib o't va nomuslarni ro'kach qilib boshqalarning og'ziga ur, misini chiqar. Odamlarning hammasi – g'irt omi va ahmoq, hech birining to'nkadan farqi yo'q.

Foreste hayotni biladigan odamlar kabi beozor kinoya bilan so'ylab borar, uchraganlarga qarab kulib qo'yardi. Lekin birdan uni yo'tal tutdi, to'xtab qoldi, yo'tali bosilgach, siniq ovoz bilan dedi:

– Shappa bo'g'zingdan tutadi, yaramas! Ayni yoz-a, bo'lmasa. Qish kelsa, Mentonaga davolangani bormasam sira bo'lmaydi. Sog'liging – davlating, boshqasi hech narsaga arzimaydi!

Ular Puasoner bulvariga kelib kattakon oynaband eshik oldida to'xtashdi, eshikning ichkari tomoniga gazeta yopishtirib qo'yilgan edi. Uch kishi tik turgancha uni o'qishmoqda edi.

Eshik tepasiga gaz naychalar bilan yirik-yirik qilib yozilgan «Fransuz hayoti» degan so'zlar ko'zm qamashtiradigan darajada porlab yonmoqda edi. Bu so'zlarning o'tkir shu'lasida o'tkinchilar bir zum ko'rinib, keyin yana shu zahoti qorong'ilik qa'riga g'oyib bo'lishardi.

Foreste eshikni itardi.

– Bu yoqqa, – dedi u.

Dyurua kirdi, ko'chadan ravon ko'rinib turadigan hashamatli, hozir esa iflos bo'lib yotgan zinadan va tepada oshnasiga salom berib qulluq qilgan ikki xizmatchining oldidan o'tib, is bosgan, ko'rimsiz qabulxonaga kirdi, – qabulxona devorlari rangi uniqib ketgan ko'k-sarg'ish trip bilan qoplangan bo'lib, uning hamma yog'ini dog'-dug' bosgan, xuddi sichqon kemirib tashlaganga o'xshardi.

– O'tirib tur, – dedi Foreste, – men besh daqiqadan keyin kelaman.

Shunday deb u qabulxonadagi eshiklardan biriga kirib ketdi.

Faqat taxririylatlarda bo'ladigan o'zgacha, ifodalash qiyin g'alati bir hid kelardi bu yerdan. Dyurua qisinib-qimtinish yo'g'-u, lekin angrayib turib qoldi. Allakimlar dam-badam uning yonidan

shoshilinch suratda u eshikdan bu eshikka kirib ketishar, shunchalar tez yurishardiki, Dyurua ularni tuzukroq ko'rishga ham ulgurolmasdi.

Hali g'o'rgina o'spirinchalar xuddi g'oyatda band odamlar kabi u yoqdan bu yoqqa chopishar. qo'llarida ko'targan qog'ozlari bukilib, shaldirab ketardi. Bosmaxona bo'yoqlari sachragan xalatlari tagidan xuddi aslzodalamikiday movut shimlari va oppoq ko'ylak yoqalari ko'rinib turgan harf teruvchilar yangigina terilgan, hali qurib ulgurmagan grankalarni avaylab ko'tarib o'tishardi. Goho haddan ortiq olifta kiyingan, beli haddan tashqari tor syurtuk, tor shim, tumshug'i ingichka botinka kiyib olgan bironta jikkakkinamuxbir kiborlarning hayotiga oid kechki oldi-qochdi gaplarni ko'tarib kelib qolardi.

Yana dimog'dor, g'oyatda basavlat boshqa bir odamlar ham kirib kelishar, ularning boshlariga chetlari yassi silindrlar qo'ndirilgan bo'lardi, – aftidan, ular shlyapamizning shunday turishining o'ziyoq bizni boshqacha, bachki odamlardan emasligimizni ko'rsatadi deganga o'xshab turardilar.

Nihoyat, Foreste ko'rindi, u o'rta yoshlardagi o'ziga bino qo'yan, ko'rinishdan surbetroq, qora frak kiyib olgan, qoramag'iz, baland bo'yli, qotma, shopmo'ylov bir janobni qo'ltiqlab olgandi.

– Xayr, omon bo'ling, muhtaram ustoz, – dedi Foreste.

Janob uning qo'lini qisdi.

– Xayr, azizim, xayr.

U hassasini qo'ltig'iga qistirib oldi-da, hushtak chalgancha zinalardan tushib kela boshladi.

– Kim u? – so'radi Dyurua.

– Jak Rival, – u mashhur feletonchi va duelboz odam, bilasanmi? U korrektura ko'rayotgan ekan. Garen, Montel va u – Parijning eng o'tkir jurnalistlaridan hisoblanadi. Qoyilmaqom, zo'r feletonlar shularning qalamidan chiqadi. Rival bizga har haftada ikkita feleton yozib beradi va yiliga o'ttiz ming frank oladi.

Ular xonadan chiqishib, zinapoyadan harsillab ko'tarilib kelayotgan past bo'yli, yo'g'on, sochlari to'zg'ib ketgan, isqirtroq bir odamga duch kelishdi.

Foreste unga ikki bukilib ta'zim qildi.

– Norber de Varen, shoir. «Soʻngan yulduzlar»ning muallifi, buning ham oʻvi yurgan. – tushuntirdi u. – Uning har bir hikoyasiga uch yuz frank toʻlashadi, eng uzun hikoyasi esa ikki yuz qator ham chiqmaydi. Menga qara, yur. Neapolitaniya kafesiga kiraniz, juda tashna boʻlib ketdim.

Ular joylashib oʻtirganlari hamon Foreste: «Ikki krujka pivo!» – deb qichqirdi va oʻz pivosini bir shimirishda ichib tashladi. Dyurua esa goʻyo juda ham noyob, kam topiladigan ichimlik ichayotgan kishiday taʼm olib, tamshanib, oz-ozdan hoʻplab lazzatlanar edi.

Uning oshnasi jim boʻlib qolgan, aftidan, nimanidir oʻylab oʻtirardi, keyin toʻsatdan soʻradi:

– Jurnalistik qilib koʻrsangmikin, aʼ?

Dyurua unga tushunmadim deganday qaradi.

– Biroq... gap shundaki... men hech yozib koʻrmaganman.

– Yozmagan boʻlsang, endi yozasan-da! Menga kerak boʻlib qolishing mumkin: menga maʼlumot topib berasan, amaldorlar bilan suhbat uyushtirasan, idorama-idora yurasan. Hozircha ikki yuz ellik frank olib turasan, yoʻl kira haqi bunga kirmaydi. Xoʻp desang, noshirimiz bilan gaplashib koʻraman.

– Jon derdim-a.

– Unda gap shundoq: ertaga menikiga mehmon boʻlib kel. Biznikida besh-olti kishi yigʻilmoqchi edi. Keladiganlar: xotini bilan xoʻjayinim janob Valter, sen hozir koʻrgan Jak Rival bilan Norber de Varen, keyin xotinimning dugonasi. Kelasanimi?

Dyurua ikkilanib turar, u qizarib ketgan, mulzamroq bir alfozga tushgandi.

– E, buni qaraya, e... egnimda tuzukroq kostyumim yoʻq edi, – dedi u tutilib, duduqlanib.

Foreste lol boʻlib qoldi.

– Frak yoʻq deysanmi? Ana xolos! Busiz hech kuning oʻtmaydi. Shuni yaxshi bilib qoʻyki, Parijda koʻrpa-toʻshaging boʻlmasa boʻlmasin, lekin frak boʻlishi shart.

U nimchasining kissasini kovlashtirib bir talay pul chiqardi-da, ikki luidor olib qadrdon oshnasining oldiga qoʻydi.

– Topganda qaytararsan, – dedi u doʻstona samimiyat bilan. – Vaqtincha kiyib turishga kostyum ol yoki boʻlib-boʻlib toʻlash sharti bilan ol. Bu sening ishing, lekin ertaga menikiga, albatta, ziyofatga yetib kel: ertaga soat yetti yarimda, Fonten koʻchasi, oʻn yettinchi uy.

Dyurua qattiq ta'sirlanib ketdi.

– Mehribon do'stim! – dedi u pulni cho'ntagiga solarkan, tal-movsiragan ohangda. – Ming rahmat senga! Umrim bo'yi unutmayman bu yaxshiligingni...

– Bo'ldi, bo'ldi! – chek qo'ydi Foreste. – Ke, yana bir kruj-kadan ichaylik, a? Garson, ikki krujka! – qichqirdi u.

Pivoni ichib bo'lishgach jurnalist dedi:

– Qalay, yana biron soat aylanmaymizmi?

– Jonim bilan.

Ular Madlen ibodatxonasi tomonga yurishdi.

– Xo'sh, nima qilsak ekan-a? – dedi Foreste. – Parijda vaqti bor kishi istagan narsasini qila oladi, deyishadi, lekin, aslida, undoq emas. Ba'zan oqshomlari biror yerga borging keladi, lekin qayerga borishingni bilmay boshing qotadi. Bulon o'rmonida xonimchani yoningga olib maza qilib o'ynaging keladi, lekin xonimlar har doim ham topilavermaydi. Kafeshantanlar bo'lsa mening aptekachim bilan uning xotiniga yarashadi, menga emas. Boshqa yana nima bor? Hech vaqo. Parijda Monso bog'iga o'xshaydigan yozgi bog' ochilsa yomon bo'lmasdi. U tun bo'yi ochiq bo'lsa, daraxtlar salqinida o'tirib muzdek ichimliklar ichsang, yoqimli kuylardan eshitib o'tirsang. Bunday joy o'yin-kulgi uchun emas, faqat sayr qilish uchun mo'ljallansa, yaxshi bo'lardi. Menga qol-sa, kirish haqini qimmat qilib qo'yardim, chiroyli xotinlarni jalb qilish uchun, o'shanda istasang, qum sepilgan, elektr chiroqlar bilan yoritilgan yo'lkalarda aylanib yur, bo'lmasa, yaxshi kuylardan eshitib o'tir. Bir mahallari shunaqa bir joy Myuzarda bor edi, faqat u yer biroz qovoqxonalarni eslatib turardi: raqs kuylarini haddan ziyod ko'p chalishardi, yayrab yurolmasding, daraxtlar siyrak, soya-salqin yerlar kam edi. Keng, go'zal bir bog' juda ham kerak ekan. Quling o'rgilsin ish bo'lar edi-da. Xo'sh, qayerga borishni istaysan?

Dyurua nima deyishini bilmasdi. Nihoyat, miyasiga bir fikr keldi:

– Men hali Foli-Berjerni ko'rganim yo'q. U yerga jon deb borgan bo'lardim.

– Nima? Foli-Berjer! – xitob qildi hamrohi. – E, u yerda tova-ga tushganday jizg'inagimiz chiqib ketadi-ku. Yana o'zing bilasan, har qalay bu fikr ham chakki emas.

Nizomiy nomli

T D P U

kutubxonasi

Shunday qilib, ular Fobur-Monmartr ko'chasiga o'tish uchun orqalariga qaytishdi.

Maishatgohning peshtoqlaridan butun chorrahaga yarqiroq elektr nurlari to'kilib yotardi. Atrofda son-sanoqsiz fayton aravalar tizilib turishardi.

Foreste to'g'ri eshikka qarab yurdi, lekin Dyurua uni to'xtatdi.

– Bilet olvolaylik.

– Men bilan birga yurganda bilet olmaydilar, – dedi takabburona Foreste.

Eshikda turgan uch kishi unga egilib ta'zim qilishdi. O'rtada turgan odam bilan jurnalist qo'l berib so'rashdi.

– Yaxshi o'rin bormi? – so'radi u.

– Albatta-da, janob Foreste.

Foreste o'ziga uzatilgan biletni olib, charm qoplamali eshikni ochdi, do'stlar ichkariga kirdilar.

Sahna va zalning uzoqroq burchaklari tamaki dudi ichra xira ko'rinardi. Son-sanoqsiz papiros va sigaralardan chiqqan tutun tuman kabi to'liqinlanib, burala-buralla shiftga ko'tarilar, tepaga ko'tarilgan sari quyuqlashib, qandil atrofini, ikkinchi qavatni bulut kabi qoplagan edi. Qator terilgan kursilar va parter o'rinlari tomonga o'tiladigan yarim doira yo'lka keng koridorga borib taqalar, bu yerda yasan-tusan qilib olgan satanglar qora kiyimdagi erkaklar orasidan dam u yoqqa, dam bu yoqda o'tib turishar, ichimlik va ishq xarid qilinadigan uchta joy bo'lib, u yerda uchta upa-elik surgan, ko'p baloni ko'rgan sotuvchi xotin savdo qilishar, ularning biri atrofida esa bir to'da ayol o'lja poylamoqdaydi.

Baland ko'zgularda sotuvchi xotinlarning yelkalari va zalga kirib kelayotgan tomoshabinlarning chehralari aks etib turardi.

Foreste odamlar orasidan chaqqonlik bilan yorib o'tib borar, ko'rinishdan xuddi bu yerni o'ziniki qilib olgan odamga o'xshardi.

U kapeldiner xotinning oldiga bordi.

– O'n yettinchi loja qayerda?

– Shu yerda, afandim.

Xotin ularni yog'ochdan maxsus ishlangan, ichi qizil mato bilan qoplangan qutichadek bir yerga kiritdi, bu yerga to'rtta kursi qo'yilgan bo'lib, ular shunchalar zich joylashgan ediki, orasidan o'tib bo'lmardi. Do'stlar o'tirishdi. Bulardan o'ng va so'l tomon-

larda ham taqa shaklidagi mana shunday mo'jaz xonalar joylashgan, ularda ham odamlar o'tirishar, ularning belidan yuqorisigina ko'rinar edi.

Sahnada triko kiygan, biri daroz, ikkinchisi o'rta bo'yli, uchinchisi pakana uchta yosh yigit trapetsiyada navbatma-navbat mashq ko'rsatmoqda edi.

Oldin sahnaga mayda qadam tashlab, tomoshabinlarga g'ayrat bilan bo'salar hadya qilgan, lablaridan tabassum arimagan holda daroz yigit chiqdi.

Qo'llari va oyoqlaridagi mushaklari triko tagidan aniq bilinib turardi. Qomining kattaligini bildirmaslik uchun u ko'ragini had-dan tashqari oldinga chiqarib olgan edi. Sochini ikki tomonga baravar ajratib taraganidan xuddi sartaroshga o'xshab qolgandi. U chiroyli bir harakat bilan trapetsiyaga sakrab osilib olgach, unda chir aylana boshladi. U kutilmaganda aylanishdan to'xtab qo'llarini cho'zib yubordi va dastakni kafti bilan mahkam siqib havoda bir necha soniya muallaq qotib qoldi.

Keyin u yerga sakrab tushdi, jilmaydi, chapak chalayotgan parterdagilarga ta'zim qildi va qayishdek baquvvat boldirlarini o'ynatib parda orqasiga o'tib ketdi.

Undan keyin chiqqan o'rta bo'yli, chorpahil yigit yana shu hunami takrorladi, undan keyin uchinchisi ham xuddi shularni birma-bir o'ynab ko'rsatdi, bu tomoshabinlarga xush kelib qoldi, chapaklar ham borgan sari quyuqroq chiqdi.

Lekin Dyuruaning ko'zlari boshqa yoqda edi: u erkaklar va fohishalar to'dalashib turgan koridordan ko'zlarini uzolmasdi.

– Parterning birinchi qatorlariga bir qarab qo'y, – dedi Foreste, – hammasi bola-chaqasi bilan kelgan kaltafahm meshchanlar. Lojalarda esa takasaltanglar, uncha-muncha rassomlar, bir necha o'rtamiyona satang xonimlar o'tirishibdi, orqa tomonimizda Parijning ajoyib-g'aroyib qurama toifasi joylashgan. Kim ular, bilasanmi? Ularga tuzukroq razm sol. Kimni istasang, shuni topasan, ularning ko'pchligi turli unvonlarga, amallarga ega kishilar, lekin aksariyat rezgi. Manovilar – bank, Vazirlik, savdo xizmatchilari, reportyorlar, o'ynash hisobiga kun kechiruvchilar, kishilik kiygan ofitserlar, frak ilgan olifta quruqlar – ular qovoqxonalarda yeb-ichib, Operada bo'lib, keyin bu yerga kelishgan, bundan chiqib

to'g'ri Italyanlarga jo'nashadi, xullas, hammasi mana shunday nurli-nursiz shaxslar. Xotinlarning-ku, bari bir go'r: bular kechki ovqatni Amerika kafesida qilib, bari vaqtlari bo'sh bo'ldi deguncha o'ynashlarini chaqiradiganlardan. Ularning manaman degani ikki luidor haq oladi, lekin ular ko'proq chet elliklarning payida bo'lishadi, nega desang, ulardan besh luidor undirish mumkin. Ular besh-olti yildan beri bu yerga mazaxo'rak bo'lib qolishgan, yil bo'yi har oqshom shu yerdan topasan ularni, hatto joylarini ham o'zgartirishmaydi, keyin Sen-Lazar yoki Lursinga borib davolanib kelishadi, o'shandagina bu yerda ko'rinmay qolishadi.

Dyuruaning es-hushi boshqa yoqda edi. Foreste ta'riflagan shunaqa xotinlardan biri bular o'tirgan lojaga suyanib olib, ko'zlarini undan uzmay tikilardi. Xotin lozar, sochlari qora, ko'zlariga surma tortgan, qoshlarini payvasta qilib bo'yagan, yuzlariga upa-elik surib olgandi. Uning bo'liq ko'kragi qora ipak ko'ylagi ostidan bo'rtib chiqib turar, qon silqib turgan jarohat kabi yoqut lablari men yondiraman, kuydiraman, ado qilaman, deganday bo'lib shahvat alangasini purkab, jozibasi bilan o'ziga rom qilib turardi.

U yonidan o'tib ketayotgan malla soch, upa-elik surib olgan dugonasini imlab chaqirdi-da, lojada o'tirganlarga atay eshittirib dedi:

– Manovini qara, judayam kelishgan ekanmi? U menga o'n luidor beraman desa ham ko'nardim.

Foreste Dyuruaga o'girilib qaradi-da, jilmayib uning tizzasiga shappatiladi:

– Senga gap otyapti. Ishing joyida bo'ladiganga o'xshaydi. Tabriklayman.

Sobiq unter-ofitser qizarib ketdi, u cho'ntagidagi ikki oltin tangani beixtiyor kafti bilan paypaslab qo'ydi.

Parda tushdi. Orkestr vals chala boshladi.

– Aylamb kelmaymizmi? – so'radi Dyurua.

– Mayli.

Ular lojadan chiqib ulgurmaslaridanoq o'zlarini sayr qiluvchilarning to'lqini ichra ko'rishdi. Tiqilinchda ularni turtib o'tishar, u tomondan bu tomonga sudrab ketishar, ko'zlariga shlyapalardan boshqa narsa ko'rinmasdi. Xotinlar juft-juft bo'lib kezishardi, ular

tirsaklar, yelkalar, ko'kraklar orasidan sirg'alib o'tib borishar, erkaklar orasida erkin harakat qilishardi, ularning bu yerni o'zlamiki qilib olganlari, ko'ngillari ko'chasiga keng erk berib qo'yganlari, erlar orasida o'zlarini suvdagi baliqdek sezayotganlari shundoq bilinib turardi.

Dyunua o'zida yo'q xursand, oqim sudragan tomonga jon deb borar, ko'kragini to'ldirib nafas olar, havo odam tanasining hidlari, satanglar sepgan atir-upa islari, tamaki tutuni bilan to'la ekanligiga e'tibor ham bermasdi. Biroq Foreste qora terga botgan, nafasi siqib, yo'tali tutmoqda edi.

– Yur, boqqa chiqaylik, – dedi u.

Ular chap tomonga yurgan edilarki, kattakon hashamatli ikki favvora suv purkab turgan ko'kalamzor bir yerga chiqdilar. Ulkan tuvaklarga o'tqazilgan tis va sarvga o'xshash daraxtlar tagiga qo'yilgan qo'rg'oshin stolchalar atrofida erkak-ayollar o'tirishib, muzdek ichimliklar ichishardi.

– Yana bir krujkadan olamizmi? – so'radi Foreste.

– Bajonidil.

Ular o'tirib atrofda odamlarni tomosha qila boshladilar.

Ba'zan ularning oldiga oyimchalar kelishar, omilkorlik bilan tabassum qilishib: «Afandim, meni nima bilan siylamoqchisiz?» deb so'rar, bunga Foreste: «Bir stakan fontan suvi bilan», deb javob berar, shunda oyimcha: «To'ng'iz!» – deya vishillagancha jo'nab qolardi.

Mana, nihoyat, boya ularning lojasiga suyanib turgan qora soch lobar xotin ko'rindi. U malla soch semiz juvonne qo'ltiqlab olgandi, ikki ko'zi tevarak atrofda olma-kesak terib borardi. Ular atay qilganday, bir-birlariga juda monand va chindan ham juda ko'hlik edilar.

Dyuruaga ko'zi tushishi bilanoq unga ajib bir tabassum hadya qildi. Ular bir-birlariga bir nigoh tashlagandayoq faqat ikkovlarigina tushunadigan, ikkovlarigagina taalluqli bo'lgan allanimalarnidir aytib ulgurganday edilar. Xotin kursi olib bimalol uning qarshisiga kelib o'tirdi, dugonasini yoniga oldi va qo'ng'iroqday ovoz bilan:

– Garson, ikkita suv! – deb qichqirdi.

– Buni qara-ya, juda tap tortmas ekansan-ku! – ajablanib dedi Foreste.

– Og‘ayning boshimni aylantirib qo‘ydi. – dedi xotin. – O‘lay agar juda barno yigit ekan. Uni deb hali es-hushimdan ayrilib qolmasam deb qo‘rqaman!

Dyurua qisinib nima deyishini bilmadi. U ipakdek mayin mo‘ylovini burab ishshayardi, xolos. Garson sharbat bilan suv keltirdi. Xotinlar uni bir ko‘tarishda siqqarib, o‘rinlaridan turishdi. Qora soch Dyurua tomonga qarab, do‘stona bosh silkidi, yelpig‘ichi bilan uning yelkasiga sekingina urib qo‘ydi.

– Rahmat, qo‘zichog‘im, – dedi u. – Afsus, ichimdagini top deydinganlar xilidan ekansiz.

Ular bellarini silkitgancha eshik tomonga qarab ketishdi.

Foreste kulib yubordi.

– Bilasanmi, do‘stim, senga bir gapni aytib qo‘yay. Sen rost-danham xotinlarning bosh-ko‘zini aylantirib qo‘yar ekansan. Bundan foydalanish kerak. Uzoqqa borish mumkin bu bilan.

U bir zum jimib qoldi, keyin xuddi o‘zi bilan o‘zi gaplashayotganday o‘ychan dedi:

– Bizni ko‘pincha mana shu ayollar odam qiladi.

Dyurua indamay kulib o‘tirardi.

– Sen qolasanmi? – so‘radi Foreste. – Men esa ketaman, jonimga tegdi.

– Biroz qolsam, devdim. Hali erta, – ming‘irladi Dyurua.

Foreste turdi.

– Unda, xayr. Ertagacha. Unutmadingmi? Fonten ko‘chasi, o‘n yettinchi uy, soat yetti yarimda.

– Yaxshi. Ertagacha. Tashakkur.

Ular bir-birlarining qo‘llarini siqishdi, so‘ng jumalist ketdi.

Foreste ketgach, Dyurua o‘zini yengil his qildi. U cho‘ntagidagi oltin tangalarni mamnun bo‘lib yana bir siypalab qo‘ydi-da, o‘midan turib odamlar orasidan kimnidir qidira boshladi.

Sal o‘tmayoq erkaklar orasida tiqilinchda kibrli qashshoq ayollarga o‘xshab yurgan boyagi xotinlarni ko‘rib qoldi.

Dyurua ularga qarab yurdi, lekin yaqin borgach, yuragi po‘kil-lay boshladi.

– Qani, tiling yechildimi endi? – so‘radi qora soch.

– Dog‘uli! – g‘o‘ldiradi Dyurua, tiliga boshqa so‘z kelmadi.

Ular uchovlari yoʻlning oʻrtasida turishar, atroflaridan paydar-pay odam oʻtmoqda edi.

– Menikiga boramizmi? – kutilmaganda soʻradi qora soch.

Koʻngli sust ketib turgan Dyurua qoʻpolroq qilib dedi:

– Menda faqat bir luidorgina bor, xolos.

– Hechqisi yoʻq, – dedi xotin va yigitni endi oʻziniki qilib olgach, uning qoʻltigʻiga kirdi.

U bilan ketarkan, qolgan yigirma frankka ertaga, albatta, mehmondorchilik uchun frak topaman, deb oʻy oʻylab borardi Dyurua.

II

– Janob Foreste qayerda turadi?

– Chapda, toʻrtinchi qavat.

Shveytsarning ovozidan uning uy egasiga boʻlgan hurmati sezilib turardi. Jorj Dyurua zinadan yuqoriga koʻtarila boshladi.

U biroz qisqinibroq turar, yuragi gursillab urar, oʻzini qandaydir oʻngʻaysiz sezardi. Umrida birinchi marta frak kiyishi boʻlib, umuman, hozir oʻzining ust-boshidan koʻnglni toʻlinqiramadi. Oʻzidan oʻzi xavotir olmoqda edi. Koʻziga kiyimlarida kamchilik koʻpga oʻxshab koʻrinar, tuflisi juda xushbichim boʻlsa-da, loklanmagan deb oʻkinar, aytib qoʻyish kerakki, Dyurua chiroyli oyoq kiyimini yoqtirardi, ertalab Luvrdan toʻrt yarim frankka yupqa, koʻkragi qadama koʻylak sotib olgan, hozir endi u ezilib ketgan boʻlsa kerak deb xavotirlanardi. Eski koʻylaklari shu qadar toʻzib ketgan ekan-ki, ularning hatto eng tuzukrogʻini ham kiyishga jurʻat qilmadi.

Pochasi haddan tashqari keng tikilgan shimi halpillab turar, boldir tomoni gʻijimlangan, nochorlikdan xarid qilinganligi ayon koʻrinib qolgandi. Faqat frak unga quyib qoʻygandek loyiq kelgan, sumbatiga juda yarashgan edi.

U odamlarga kulgi boʻlishdan qoʻrqib, koʻngli buzilgan holda yuragini hovuchlab yuqoriga koʻtarildi. Shunda birdan uning qarshisida juda bashang, olifta kiyingan janob paydo boʻldi, u tik qarab turardi. Ular yuzma-yuz shunchalar yaqin kelib qoldilarki, Dyurua birdan choʻchib orqaga tisarildi va turgan yerida qotib qoldi: u oʻz aksiga tikilib turgan ekan. Ikkinchi qavatning kichkina sahnchasiga katta tosh oyna qoʻyilgan boʻlib, u koridorni goʻyo

juda uzunday qilib ko'rsatardi. Dyurua kamoli xursand bo'lib titrab ketdi, kutilmaganda o'ziga o'zi g'oyatda po'rim ko'rindi.

Uyda soqol olgan chog'larida u kichkina oynadan foydalanar, unda odamning bor bo'y-bastini ko'rib bo'lmasdi. Dyurua u yer bu yeriga oyna tutib ko'rgan, shunda usti boshining kamchiliklari ko'zlariga ortiq darajada bo'rtib ko'ringan va kulgi bo'lmasam edi, deb qattiq iztirobga tushgan edi.

Mana endi tasodifan o'zini katta oynada ko'rib, daf'atan, hatto taniyolmay qoldi, boshqa odam, kibor afandilardan biri bo'lsa kerak, deb o'yladi.

U o'ziga boshdan-oyoq diqqat bilan qarab chiqqach, chindan ham, ko'rinishdan ancha ko'rkam ekanman, deb qo'ydi.

Shunda u rol o'rganayotgan aktyorday oyna oldida turib mashq qila boshladi. U tabassum qilar, qo'lini uzatar, turli harakatlar qilib ko'rar, yuzida dam hayrat, dam huzur, dam ma'qullash kabi ifodalarni aks ettirib mashq olardi: u xonimlarda nazokatli va shovvoz jazman taassurotini qoldirishni istar, shunday taassurotlarga yo'l ochadigan tabassum va ko'z qarash usullarini topishga urinardi; u o'zini xonimlarga g'oyatda maftun bo'lib qolgan kishi qilib ko'rsatishi kerak, buning yo'lini topish kerak.

Pastda eshikning ochilib yopilgani eshitildi. Odamlar ko'ziga bu g'alati qiyshanglagan bir alfozda ko'rinish va masxara bo'lishdan qo'rqib ketgan Dyurua zinadan tez-tez yuqoriga ko'tarila boshladi.

Uchinchi qavatning sahnida ham oyna bor ekan, Dyurua yo'l-yo'lakay o'ziga yana bir nazar tashlash niyatida qadamini sekinlatdi. Ha, chindan ham u qomatdor yigit. Yurishlari ham o'ziga juda yarashgan. Shunda bir zum ichida u o'ziga nisbatan cheksiz bir ishonch hislari bilan to'ldi. Shunday qaddi-qomat, tirishqoqlik, mardlik, mustaqil fikr yuritishi bilan u o'z maqsadlariga, albatta, erishadi. U zinaning tepasiga hatlab-hatlab, chopib ko'tarilgisi keladi. Uchinchi qavat oynasi oldida to'xtab, mo'ylovini azamatchasiga burab qo'ydi, shlyapasini yechdi, sochlarini tekisladi va o'zicha «qoyil-e», deb shivirladi-da, qo'ng'iroqning tugmasini bosdi.

Hayal o'tmay eshik ochildi. Dyurua eshikni ochgan qora frak, yiltiroq tuflı kiygan, soqollarini qirtishlab olgan, bag'oyat po'rim va salobatli lakeyni ko'rgach, yuragi yana po'killay boshladi, uni

noxush, tushunib bo'lmaydigan bezovtalik qiynay ketdi: ehtimolki, u o'z ust-boshini beixtiyor lakeyning kiyimlari bilan solishtirib ko'rgandir. Dyurua paltosining dog' tekkan yerlarini bekitib buklab, qo'lga tashlab olgandi. lakey uning qo'lidan paltosini olarkan so'radi.

– Kim deb aytishni buyuradilar?

Keyin dahlizni mehmonxonadan ajratib turgan qalin pardani ko'tardi-da, uning nomini eshitilari qilib e'lon qildi.

Dyuruada boya tug'ilgan ishonchdan asar qolmadi, u esankirab qattiq hayajonlanganidan bazo'r nafas olardi. U yangi bir olamga qadam ranjida qilmoqda edi, qachonlardan beri shuni orzu qilib kelgandi. Mana, nihoyat, uning orzusi ushalmoqda va mana, u kirib bormoqda. Rango-rang o'simliklar bilan to'la keng charog'on xonaning o'rtasida oppoqqina yosh bir juvon turardi.

Dyurua serrayib qoldi. Yopiray, tabassum qilib turgan bu xonim kim bo'lsa ekan? Shunda u Forestening uylanganligini esladi. Nafis va barno bu juvon do'stining xotini ekanligi uni dovdiratib qo'ydi.

– Xonim afandim, men... – pichirlay oldi u.

Xonim unga qo'lini uzatdi.

– Bilaman, afandim. Sharl menga kecha uchrashib qolganlaringizni aytib berdi, u sizni uyimizga taklif etib, bizni ham g'oyatda baxtiyor etdi.

Dyurua nima deb javob berishini bilmay qizarindi, o'ziga boshdan-oyoq zingil solib ko'rayotganlari, baho berayotganlari, o'rganayotganliklarini his qilib turdi.

U ust-boshining nochorligi uchun afv so'ramoqchi, buning sabablarini tushuntirmoqchi bo'ldi-yu, lekin gapni nimadan, qanday boshlashini bilmay, nihoyat, indamay qo'ya qolganim ma'qul degan fikrga keldi.

U beka xonim ko'rsatgan kresloga o'tirdi, o'tirdi-yu, o'rindiq yumshoq ekanligini ko'rib, unga qulayroq o'mashib oldi, orqasiga yastandi, o'zini barqutning yumshoq og'ushida ko'rgach, butunlay yangi bir hayot quchoqlariga kirganday bo'ldi, o'zini haddan tashqari yoqimli narsaning xo'jasidek his qildi. Ha, endi u ham odam qatoriga kirdi, endi unga ham son bitadi. Shunda u o'zidan ko'zlarini uzmay qarab turgan Foreste xonimga nigoh tashladi.

Xonim och havorang kashmiri ko'ylak kiygan, ko'ylak uning chikka beli hamda baland ko'kraklariga yopishib turardi. Ko'ylagining yoqasidan beligacha oppoq ko'pirib turgan to'rga chulg'angan, kalta yengi ham to'rdan bo'lib, bo'yni va yalang'och qo'llari shu to'rlar ichidan chiqib turardi. Uning sochlari baland qilib turnaklangan, bo'ynidagi jingalak sochlari esa ukparmisol yoyilib yotardi.

Uning qarashlari Dyurua kuni kecha Foli-Berjerda ko'rgan qora soch juvonning ko'z qarashlariga nimasi bilandir o'xshab ketar, bu ko'zlar Dyuruani dadilroq bo'lishga undab turar edilar. Xonimning ko'zlari ko'kimtir kulrang bo'lib, o'zgacha joziba bor edi. Burni chimdib qo'yilganday, nozik dudoqlari to'lg'in, dahani momiqday, lekin sal go'shtdorroq, umuman, pichagina bichimsizroq, ammo bag'oyat latofatli, go'zal chehra edi bu; unda hiyla makr ifodasi ham yo'q emasdi. Uning chehrasidagi har bir ifoda o'zgacha bir ma'no va nafosat bilan to'la ediki, ular salgina o'zgarib ketsalar, xuddi bir narsani so'ylab turgan yoki yashirayotgan kabi tuyulardilar.

Biroz jimlikdan keyin xonim so'radi:

– Anchadan beri Parijdamisiz?

– Bir necha oy bo'ldi, xonim afandim, – deb javob berdi u asta o'ziga kelar ekan. – Men temir yo'lda xizmat qilaman, biroq Forreste yordam beraman, jurnalistlik qilasan, deb umidvor qilyapti.

Juvon jilmaydi, bu safar uning tabassumi ochiq va samimiy edi, u ohista shivirlab dedi:

– Men bilaman.

Yana qo'ngiroq chalindi. Lakey ovoz berdi:

– De Marel xonim.

Nozikkina, qorachadan kelgan juvon kirdi, bunaqa xotinlar haqida qisqagina qilib, ofatijon, deb qo'ya qolishardi.

U qadam tashlaganda xuddi hozir uchib ketadiganga o'xshardi. Odmigina qoramtir matodan tikilgan ko'ylagi butun jismiga yopishib turardi.

Qora sochlariga qistirib qo'yilgan qizil gul ohanraboday o'ziga tortib turar, uning chehrasiga o'zgacha bir latofat bag'ishlar, g'oyatda jozibador va dilbar qilib ko'rsatardi.

Uning yonida kalta ko'ylak kiygan qizcha ham bor edi. Forreste xonim ularni quchoq ochib qarshi oldi.

– Salom, Klotilda.

– Salom, Madlena.

Ular bir-birlarini o'pib qo'yishdi. Qizcha xuddi katta odamlarga o'xshab o'ziga ishonch bilan manglayini o'pichga tutdi.

– Salom, xolajon, – dedi u.

Foreste xonim uni o'pib erkalab qo'ydi-da, mehmonlarni bir-birlariga tanishtira boshladi.

– Janob Jorj Dyurua, Sharlning qarddon do'sti: De Marel xonim, mening dugonam va uzoq qarindoshim.

Keyin Dyuruaga qarata dedi:

– Biz oddiygina chaqchaqlashib o'tirsak devdik. Siz qarshi emasmisiz?

Jorj ta'zim qildi.

Yana eshik ochilib, sanamarastaday xushqomat va chiroyli xotin bilan qo'ltiqlashib olgan allaqanday semiz, dum-dumaloq, kaltabaqay bir odam kirib keldi, xonimning jussasi unga qaraganda tikroq, o'zi ham xiylagina yosh ko'rinardi, uning xatti-harakatlarida o'zgacha bir nazokat sezilib turar, adil qomati o'ziga jalb qilardi. Bular «Fransuz hayoti»ning noshiri, deputat, sarmoyador, davlatmand savdogar, janub yahudiylaridan janob Valter bilan uning rafiqasi – Bazil-Rivalo degan bankirning qizi edi.

Keyin oldinma-кетин juda po'rim kiyingan Jak Rival bilan Norber de Varen kirib kelishdi. Norber de Varen frakining yoqasi sochlari ishqalanaverib yiltirab ketgan, boshida qazg'og'i to'zg'ib yotar, eskirib qolgan galstugini beo'xshovgina qilib bog'lab olgandi. U qirriq oliftalar kabi Foreste xonimning oldiga tamanno bilan yurib bordi-da, uning qo'llarini o'pdi. U engashganda uzun sochlari xonimning yalang'och qo'llari uzra yoyilib ketdi.

Hammadan keyin Foreste keldi va kechikkani uchun uzr so'radi. Morelning gazetada ertangi chiqishi yuzasidan ushlanib qolgan ekan. Radikal deputatlardan bo'lgan Morel Jazoimi bosib olish uchun talab qilingan kredit yuzasidan Vazirlikdan tushuntirish so'rabdi.

– Ovqat tayyor, – deb xabar qildi xizmatkor.

Hammalari yemakxonaga o'tdilar.

Dyuruani de Marel xonim bilan uning qizchasi o'rtasiga o'tqazib qo'ydilar. Jorj yana o'ng'aysizlana boshladi: u vilka, qoshiq,

qadahlarni qanday ishlatish kerakligini bilmas. odobdan tashqari ish qilib qo'yamanmi. deb cho'chirdi. Uning oldiga to'rtta qadah qo'yishdi. qadahlarning biri esa nechundir havorang edi. Qiziq, unda nima ichishar ekan-a?

Suyuq oshni indamay ichdilar, keyin Norber de Varen so'radi: – Siz Gotye ishi haqida o'qidingizmi? Antiqa voqea! Shundan keyin hammalari tuhmat va tahdid bir-biriga aralashib ketgan bu voqeani muhokama qila ketdilar. Bularning gapi oilada gapiriladigan, gazetalardan ma'lum gaplarga sira o'xshamasdi, ular kasal haqida vrach va rezavor haqida ko'kchi qanday so'zlasa, shunday gap yuritardilar. Ularning hech qaysisi voqeaning o'zidan ajablanmas, uni qoralab tashlamas, faqat o'z kasblariga xos sinchkovlik va qiziquvchanlik bilan jinoyatning aynan o'ziga e'tibor bermasdan, uning chuqur va yashirin asoslarini qidirar edilar. Ular xatti-harakatlarining tag omillarini aniqlash, fojiani keltirib chiqargan ruhiy holatlarni tahlil qilish, topishga urinardilar, fojining o'ziga esa ilmiy asosda tushuntirish mumkin bo'lgan alohida bir hissiyotning natijasi deb qarar edilar. Ushbu tahlil va tadqiqotlarga xonimlar ham o'z hissalarini qo'shdilar. Xuddi shuningdek, shunga o'xshash bo'lib o'tgan hodisalar ham inson masxarabozliklari bilan satrma-satr savdo qiluvchi xabarchilarning nuqtai nazaridan baholab o'tildi, talqin va tadqiq qilindi, sohibkorlik bilan o'ng-tersini ag'darib tekshirildi, asl qimmatiga ko'ra o'lchab ko'rildi, bularning bari molni pullashdan oldin uning u yoq bu yog'ini ag'darib chamalab ko'rayotgan do'kondorning qilig'iga juda ham o'xshashib ketardi.

Keyin suhbat bo'lib o'tgan bir duel ustiga ko'chdi. Endi Jak Rival hammaning og'zini o'ziga qaratib oldi. Duel xususida gap ketadigan bo'lsa, uning oldiga tushadigan odam topilmasdi.

Dyurua miq etgani ham jur'at etolmasdi. Biqinida o'tirgan xonimning ko'zga yaqin joylariga ko'ngli sust ketganicha ko'z qirini tashlab o'tirardi. Xonimning quloqlarida yumalab tushayotgan bir tomchi suvdek billur oltin ipda osilib turardi. U hammani o'ziga qaratib, kuldirib o'tirardi. Uning so'zlari yoqimtoy, dilbarona, kutilmaganda qiziq gaplarga boy edi, uning hazil-mutoyibalari hamma narsaga yengil-yelpi qaraydigan, uncha-muncha gapga ko'pda ishonavermaydigan, hech narsani yuragiga yaqin olmaydigan sho'x, beparvo qizaloqning hazillariga o'xshardi.

Dyurua uni bir maqtab qo'ymoqchi bo'lib, nima desam ekan deb o'ylanib o'tirdi, lekin miyasiga tuzukroq bir fikr kelmagani-dan keyin uning qizchasi bilan gaplashib o'tirdi. U qizchaga vino qo'yib berar, taomlardan uzatar, ishqilib, uni zeriktimaslik payida bo'lardi. Onasiga qaraganda ancha siporoq bo'lgan qizcha boshini omonatgina silkib, tashakkur aytar, bosiqlik bilan: «Siz juda ilti-fotli ekansiz, afandim», deb qo'yar va yana kattalarning gaplariga jiddiyat bilan quloq sola boshlardi.

Ziyofat juda ajoyib bo'lib, hammalari tahsin va tashakkurlar bildirishardi. Valterning ishtahasi kamay bo'lib ketgan, bir o'zi o'n odamning ovqatini tushirar, og'zi taomdan bo'shamasdi: har yangi lagan keltirganlarida bunisi qanday ekan deganday ko'zoynagi tagidan qarab qo'yardi. Norber de Varen ham Valterdan asti qo-lishmas, ba'zan ko'kragiga qayla sachratib yuborar edi.

Forestening labidan tabassum arimas, iltifotli chehra bilan hammadan xabardor bo'lib turardi, xotini bilan ma'nodor ko'z urishtirib olardi. U xotiniga qo'li gul yordamchim deb qarar, go'yo har ikkovlari mushkul, biroq ko'ngildagiday davom etayotgan bir ishni boshqarayotganday edilar.

Bora-bora yuzlar alanga oldi, tovushlar dadilroq chiqa boshla-di. Xizmatchi esa dam sayin quloqlariga shivirlab turardi:

– Kortonmi? Shato-Larozmi?

Dyuruaning og'ziga korton yoqib qoldi va paydar-pay qadahni bo'shata boshladi. Uning tomirlariga o't yugurganday bo'ldi, qal-bida shodon va yoqimli tuyg'ular jo'sh ura boshladi, a'zoyi badani qizib ketdi. U o'zini butkul bir farog'at, lazzatli farog'at og'ushida his qildi, u butunlay shu lazzat daryosiga g'arq bo'ldi, tani ham, ruhi ham shavq bilan to'ldi.

Uning gapirgisi, odamlarning e'tiborini o'ziga tortgisi kelar, hammani o'z og'ziga qaratishni istar, bu yerda hozir bo'lgan kishi-lar o'rtasida qanday muomala bo'layotgan, ularning gap-so'zlari qanday qarshi olinayotgan bo'lsa, unga ham shunday qarab, shun-day munosabatda bo'lishlarini xohlardi.

Suhbat borgan sari qizigandan qizir, bir gap ketidan ikkinchisi boshlanib ketar, arzimagan sabab bilan mavzu dam bog'ga, dam tog'ga ko'chardi; kecha – bugun ro'y bergan barcha yangiliklar til-ga olinib, ming turli masalalar o'rtaga tashlanib bo'lgach, nihoyat,

suhbat mavzusi yana Morelning Jazoirni mustamlaka qilib olish haqidagi fikriga qaytdi.

Idroki shoʻx va jonli, narsalarga koʻproq shubha koʻzi bilan boqadigan Valter ovqat orasida birmuncha kinoyali gaplarni oʻrtaga tashlab oʻtdi. Foreste ertangi songa ketadigan maqolasining mazmunini aytib berdi. Jak Rival mustamlakalarda harbiy hokimiyat tuzish, istilochi qoʻshinlar safida oʻttiz yil xizmat qilgan har bir ofitserga Jazoidan yer-mulk ajratib berish haqida gapirdi.

– Shu yoʻl bilan biz ishchan, gʻayratli jamiyat yaratamiz, – derdi u, – odamlar sekin-sekin u mamlakat bilan tanishadilar, unga mehr qoʻyadilar, u yerning tilida gaplashadigan boʻladilar hamda joylarda har qadamda chiqib turadigan, odamni boshi berk koʻchalarga kiritib qoʻyadigan koʻp chigal, chalkash masalalarni toʻgʻri hal qilishga layoqatli boʻlib qoladilar.

Norber de Varen uning gapini boʻldi:

– Ha... ular dehqonchilikdan boshqa hamma narsani biladigan boʻladilar. Ular arab tilida gaplashadilar-u, lekin lavlagi ekish bilan bugʻdoy sochishni hech qachon oʻrgana olmaydilar. Ular qilichbozlikka juda chapdast boʻlib ketarlar-u, lekin dalaga oʻgʻit solishga kelganda koʻzlarini pirpiratib turaveradilar. Ha, bu mamlakatnng darvozalarini unga borgisi kelganlarning hammasiga keng ochib qoʻyish kerak. Aqli hushi joyida boʻlgan odamlar u yerda oʻzlariga loyiq ishm topib oladilar. Boshqalari halok boʻlishadi. Jamiyatimizning qonuni shunday.

Sukunat choʻkdi. Hamma jilmayib turardi.

– U yerda yetishmaydigan birdan bir narsa hosildor yer, – deb toʻsindan gap boshlab qoldi Dyurua. U oʻz tovushini birinchi marta eshitayotgan kishiday ovoziga ajablanib quloq osdi. – Hosildor yerlar Fransiyada qanchalik qimmat boʻlsa, u yerda ham shunaqa qimmat. Bunaqa joylarni parijlik boylar sotib olishmoqda. Sarmoya ishlatishni foydali deb bilishmoqda. Yoʻqchilikdan bezib borganlarning koʻpchiligini esa, suvsiz, unumsiz choʻllarga siqib chiqarishmoqda.

Mana endi hamma unga qaradi. U oʻzining qizarib ketayotganligini sezdi.

– Siz Jazoirda boʻlganmisiz? – soʻradi Valter.

– Shunday, – javob berdi Dyurua. – Men u yerda ikki yildan ortiq turganman, uchala viloyatni ham borib koʻrganman.

Norber de Varen darhol Morel mavzusini bir chetga qoʻyib, Dyuruadan jazoirliklarning urf-odatları haqida surishtira ketdi, u bir ofitser bilan gaplashgan ekan, ayrim gaplarni oʻshandan eshitgan ekan. U Dyuruadan Sahroyi Kabirning eng jazira, suvsiz qismida vujudga kelgan kichkinagina Arab Respublikasi – Mzab haqida gapirib berishni soʻradi.

Dyurua Mzabga ikki marta borgandi, mana endi kezi kelganda Mzabning ajoyib-gʻaroyib tomonlari haqida jon-jon deb gapirib bera boshladi. Mzabda har tomchi suv oltin hisobida baholanar ekan. Uning odamlari jamoa ishlarida faol qatnashib, savdo-sotiq muomalasida dunyodagi eng madaniy xalqlardan ham insofliroq ekanlar.

Mayning kayfi, oʻtirganlarga yoqish ishtiyoqi unga dalda boʻldi. Endi u maqtanchoqlik bilan berilib soʻzlardi: polkda eshitgan latifalaridan, urushda boʻlib oʻtgan hangomalardan hikoya qildi: arablar turmushiga oid ayrim narsalarni oʻzicha tushuntirib oʻtdi. U zaʼfaronday sargʻaygan ovloq, koʻrimsiz, hamma narsa oftob tigʻida soʻxta boʻlib ketgan oʻlkani oʻtirganlar tuzukroq tasavvur qilsinlar deb, birmuncha chiroyli gaplarni ham ishlatib yubordi.

Xonimlar undan koʻzlarini uzisholmasdi. Valter xonim odati boʻyicha soʻzlarni choʻzib dedi:

– Sizning xotiralaringizni bir qancha chiroyli ocherk qilsa boʻlarkan.

Qariya Valter darhol oynakning tepasidan yigitga koʻz tashladi, u birovning yuzini tuzukroq koʻrmoqchi boʻlsa doim shunday qilardi. Ovqatlarga esa, odatda, oynak tagidan nazar tashlardi.

Foreste qulay fursatni qoʻldan bergisi kelmadi:

– Muhtaram ustoz, bugun sizga Dyurua haqida gapirib bergan edim, uni menga siyosiy axborot toʻplash yuzasidan yordamchi qilib tayinlasangiz degandim. Marambo bizdan ketib qolgandan beri mening shoshilinch va yashirin maʼlumot topib keladigan odamim yoʻq. Gazeta bundan ziyon koʻryapti.

Valter shu zahoti jiddiy tortdi va oynaklarini koʻtarib qoʻyib Dyuruaning koʻzlariga tik boqdi.

– Janob Dyurua, shubhasiz, boshqacharoq bir aql sohibi ekan. – dedi u. – Agar u kishiga ertaga soat uchda men bilan suhbatlashish ma’qul kelsa, biz bu ishni hal qilamiz.

Bir muddat jim qolgach, u bevosita Dyuruaning o’ziga qarata dedi:

– Hozircha bizga Jazoir haqida ikki-uchta o’qimishli ocherklar yozib bering. Xotiralarigizni bayon qilib chiqing-da, keyin hozirgina gapirib berganingizga o’xshatib, ularni mustanlakani o’zlashtirish masalalari bilan bog’lab yuboring. Ular gazetada dolzarb bir paytda bosilib chiqadi. Ayni muddao. O’ylaymanki, gazetxonlarimiz ham mamnun bo’ladilar. Lekin shoshilish kerak! Birinchi maqola menga ertaga kerak, juda bo’lmaganda, indinga. Palatada fikr almashuv tugamasdan burun biz bu masalaga avomning diqqatini jalb qilishimiz zarur.

– Mana, sizga chiroyli sarlavha ham topildi: «Afrika o’qchisining xotiralari», – deb qo’shimcha qildi Valter xonim odamni mahliyo qilib qo’yadigan, o’ziga g’oyatda yarashgan viqor bilan, – to’g’rimi, janob Norber?

Shuhrat tojini juda kech kiygan qari shoir havaskorlarni o’lgunday yomon ko’rar, ulardan cho’chirdi. U quruqqina qilib dedi:

– Sarlavha, chindan ham juda ajoyib, lekin shart shuki, sarlavhaning tagi ham unga yarasha bo’lishi kerak. Eng qiyin joyi ham o’zi shu. Uslub – musiqada mos ovoz topish bilan teng narsa.

Foreste xonim Dyuruaga mehribon, muruvvatli, hamdard bir nigoh bilan boqib turar, uning qarashlaridan «Senga o’xshaganlar aytganlarining ustidan chiqishadi», degan ma’noni uqish mumkin edi. De Marel xonim unga bir necha marotaba o’girilib qaradi, uning quloqlaridagi billur shaffof suv tomchisi yanglig’ titrab, uzilib turaman deb turardi.

Qizcha boshini tarelkaga engashtirgancha jimgina, osuda bi alfozda o’tirardi.

Bu orada lakey stol atrofini aylanib, havorang qadahlarni ioganisberg bilan to’ldirdi. Shundan so’ng Foreste Valterga ta’zim qildi-da, qadah ko’tardi:

– «Fransuz hayoti»ning gullab-yashnashi uchun!

Hammalari xo’jayinga ta’zim va qulluq qildilar. Valter kulimsirar, Dyurua esa ishlar jo’nashib ketganidan mast, qadahni bi

ko'tarishda sipqarib tashladi. U hozir bir xum may bo'lsa ichadigan, bir buzoqning go'shti bo'lsa yeb yuboradigan, bir arslon duch kelsa, tap tortmay saranjom qiladigan ahvolda edi. U o'zida favqulodda zo'r bir kuch uyg'onganligini sezmoqda edi, unda sindirib, bukib bo'lmas azm-u qaror bosh ko'targan, qalbi yorqin orzu-umidlar bilan to'lib-toshgandi. U mana bu odamlarning ichida o'z kishisi bo'lib qoldi, o'z mavqeyi va o'z o'rniga ega bo'ldi. U odamlar yuziga tik, benihoya dadil qaray boshladi va nihoyat, u yonidagi xonimga gap qotishga jur'at etdi:

– Ziragingiz g'oyatda go'zal ekan, xonim afandim, men bunaqasini sira ham ko'rmagandim!

Xonim tabassum bilan unga qaradi:

– Billumi tilla ipga osib qo'ysam, qanday bo'larkin deb o'zim o'ylab topdim. Uni xuddi shabnam tomchisi deb o'ylash mumkin, to'g'rimi?

O'z jur'atidan o'zi lol qolgan Dyurua yana ahmoqona bir gap aytib qo'ymay deb, sekin dedi:

– Juda noyob isirg'a, lekin sizning qulog'ingizgina uning chiroyini ochib turganga o'xshaydi.

Xonim unga shunday minnatdor nazar bilan boqdi, odatda, ayollarning bunday qarashlari odamning yurak-yuragigacha larzaga solib yuboradi.

Dyurua o'girilib qarab, yana Foreste xonimning ko'ziga ko'zi tushdi: u hamon yigitga muruvvat bilan boqar, lekin hozirgi qarashida sho'xlik va rag'batlantirish ma'nosi borday edi, har holda, Dyuruaga shunday bo'lib tuyuldi.

Endi erkaklar hammalari baravar gapira ketishdi, ular qo'llarini paxsa qilib silkitishar, ovozlari ham xiyla balandroq chiqmoqda edi: yer osti temir yo'lining ulug'vor rejaları muhokama qilinmoqda edi. Gap shirinliklar yeb bo'lingan chog'dagina nihoyasiga yetdi, hammalari Parijda aloqa vositalari imillab harakat qilishi, konkalarning noqulayligi, omnibuslardagi tartibsizlik va izvoshchilarning qo'polligidan shikoyat qildilar.

Keyin barchalari kofe ichgani mehmonxonaga o'tdilar. Dyurua hazilnamo alfozda qo'lini qizchaga taklif etdi. U malikalar misol tashakkur bildirib, oyoq uchida turdi-da, qo'lini o'z yigitining qo'ltig'iga tiqdi.

Mehmonxona Dyuruaga yana xuddi gulxonaga o'xshab ko'rindi. Xonaning qaysi burchagiga qaramang, baland palma daraxtlari shiftga qadar bo'y cho'zib, yaproqlarini atrofga chiroyli yoyib tashlagan, go'yo xona uzra yashil bir amoma hosil qilgan edi.

Kaminning ikki yonida xuddi ikki ustunday bo'lib kauchuk daraxtlari o'sgan, ularning yam-yashil uzunchoq yaproqlari bir-biriga qalashib ketgan edi. Fortepiano ustida esa allaqanday ikkita noma'lum butacha o'sib turar, ularning biri nim qizg'ish, boshqasi oppoq edi, ular sadaday g'uj bo'lib, shamaloqday gullab yotar, yasab qo'yilgan sun'iy gulga o'xshab tuyular, tirik gul bunchalar chiroyli bo'lishi mumkin emasday edi.

Mehmonxonaning havosi toza, u ilg'ab olish qiyin bo'lgan betimsol, mayin va nozik muattar hidlar bilan to'lgandi.

Dyurua endi butunlay o'zini o'nqlab oldi, u bemalol xonani ko'zdan kechira boshladi. Xona unchalar katta emasdi: o'simliklar va gullardan bo'lak bu yerda odamni qoyil qoldiradigan hech narsa yo'q edi, biroq bunda siz o'zingizni bemalol, xuddi uyda o'tirganday his qilishingiz mumkin edi. Bunda hamma narsa hordiq chiqarishga chorlar, odamni tinchlantirar edi. Xona sizni o'zining sokin va shinamligi bilan rom qilib olar, o'ziga tortar, jismingizni erkalab, yumshoq bir muhitga cho'mdirar edi.

Devorlarga qadimiy och binafsharang mato tortilgan, matoning o'ziga ipakdan za'faron chittigullar chatilgandi. Eshiklarda qalin och moviy darpardalar osilib turar, ularda qizil ipak bilan tikilgan chinnigullar ochilib yotardi. To'g'ri kelgancha o'rnatilgan mebellar – katta-kichik shezlonglar, g'alati hayhotday va mo'jazzgina o'rindiqlar, yostiqlar aksar Lyudovik XVI davridagiga o'xshash ipaklarga chirmalgan, qolganlari arg'uvoniy chiziqlar tortilgan za'faron barqut bilan qoplangandi.

– Janob Dyurua, kofe ichasizmi?

Foreste xonim hamon o'sha dilbar takalluf va tabassum bilan unga kofe tutdi.

– Rahmat, xonim, tashakkur.

Dyurua kofeni oldi. U qizcha uzatgan likobchaga xavotir ichida engashib kumush qisqichlar bilan qand olar ekan, xonim unga asta shivirladi:

– Valter xonimga beparvo bo'lmang.

U bunga javoban biron narsa deb ulgurmay, juvon undan yiroqlashdi.

U tag'in bexos gilamga to'kib yubormay deb cho'chib kofeni shosha-pisha ichib yubordi, shundan keyin yengil tin olib, yangi xo'jayinning xotini yoniga borish, u bilan suhbatda bo'lish payida bo'la boshladi.

Shunda u stoldan ancha olisda o'tirgan Valter xonim qo'lida-gi bo'shagan chinni idishni qayerga qo'yishini bilmay turganligini ko'rib qoldi. Dyurua shahdam uning qoshiga yurib bordi:

– Ijozat eting, xonim.

– Tashakkur.

Dyurua idishni oborib qo'yib, yana xonimning huzuriga qaytdi.

– Men sahroda yurgan kezlrimda «Fransuz hayoti» odamga qanchalar taskin berganligini bilsangiz edi, xonim! U chindan ham, Fransiya-dan uzoqda yurgan chog'larda o'qish mumkin bo'lgan birdan-bir gazeta, chunki u hammadan ko'ra qiziqarliroq, o'tkirroq va ko'pchilikning didiga mos keladigan gazetalardan. Undan ista-gan narsangizni o'qib bilib olishingiz mumkin.

Valter xonim quruqqina takalluf bilan jilmayib qo'ydi.

– Mening erim zamona talablariga javob beradigan gazeta chiqarish uchun juda ko'p ter to'kdi, – dedi u g'urur bilan.

Ular suhbatlasha ketishdi. Dyurua bachkana bo'lsa ham, lekin bahuzur gaplashish yo'lini bilardi; uning ovozi g'oyatda yoqimli, qarashlari benihoya jozibali, mo'ylovlarida esa allaqanday o'ziga rom qilib oladigan bir sehr bor edi. Bu mo'ylovlar juda chiroy-li, mayin, quyuq, oltinday tovlanib turar, yuqoriga qayrilib turgan uchlari esa mallarang tusda jilvalanardi.

Parij va uning atroflari, Sena sohillari, yozgi ermaklar, kurort-lar, – bir so'z bilan aytganda, tinmay valaqlab o'tirish mumkin bo'lgan odmi narsalar haqida gaplashishdi.

Ularning oldiga qadahda likyor ko'targan Norber de Varen kel-gan edi, Dyurua kamtarlik yuzasidan nari ketdi.

De Marel xonim Foreste xonim bilan gaplashib bo'lgach, uni o'z huzuriga chaqirdi.

– Shunday qilib, siz o'z baxtingizni jurnalistlik ishida sinab ko'rmoqchimisiz? – so'radi u to'sindan.

U o'z rejalari haqida u-bu degan bo'ldi. keyin hozirgina Valter xonim bilan qanday gaplashgan bo'lsa, shu yo'sinda suhbatlasha boshladi. Biroq endi u nima haqda so'zlashishni boyagidan yaxshiroq bilar, o'ziga ishonch bilan gapirar, yaqinligida boshqalar-dan eshitib olgan gaplarni ham xuddi o'zinikiday qilib so'ylar edi. So'ylayotganda u xonimning ko'zlariga tik boqar, bu bilan so'zla-rining salmog'ini oshirayotganday bo'lardi.

De Morel xonim o'z navbatida unga bir qancha latifalar aytib berdi. Odatda, o'zining nozik zehnli ekanligini biladigan va suhbatdoshini zeriktirmaslikka harakat qiladigan xotinlarga mana shunday dildorlik bilan biyron gaplashadilar. Xonim borgan sari ochilib, taltayib gaplashar. Dyuruaning yenglariga qo'llarini tek-kizib qo'yar, bo'lar-bo'lmasga shivirlashga tushar, chetdan qara-gan odamga ular juda nozik suhbat qurgandek bo'lib ko'rinar-dilar. Dyurua o'ziga ochiqdan-ochiq moyil bo'lib o'tirgan juvonning ol-dida qattiq hayajonlanmoqda edi. Shu sababdanmikin, u juvonga hozirning o'zidayoq, shu zahotiyoq sadoqatini namoyish etishni istar, nimadandir uni himoya qilgisi kelar, unga yaxshi ko'ringisi kelar, yaxshi tomonlarini ko'rsatgisi qistardi, u juvonning gapla-riga javob berishga shoshilmas, bu uning fikri yodi tamom boshqa narsada ekanligini ko'rsatib turardi.

Kutilmaganda de Marel xonim qizini chaqirdi:

– Lorina! – qizcha oldiga kelgach, unga dedi:

– Bu yerga o'tir, bolajon, oynaning oldida shamollab qolasan.

Dyurua qizchani juda ham o'pib qo'ygisi keldi, go'yo uni o'psa, nazarida onasini o'padiganday edi.

– Sizni o'pib qo'ysam maylimi, mademuazel? – iltifot bilan otalarcha so'radi Dyurua.

Qizcha hayrat to'la ko'zlari bilan boqdi. De Marel kulganicha dedi:

– «Afandim, buguncha mayli, ijozat, lekin ikkinchi marta qay-tarilmasin», deb ayt.

Dyurua o'tirdi va qizchaning qo'llaridan tutib tizzasiga o'tqiz-di, lablarini uning to'lqinlanib yotgan sochlariga bosdi.

Onasi hayron qoldi:

– Buni qarangga, o'tirishini! Yo tavba! U ko'pincha faqat ayollargagina o'pichga ruxsat berardi. Sizning joduingiz bor ekan, janob Dyurua.

Dyurua duv qizarib ketdi va indamay qizaloqni bir tizzasida chayqata boshladi.

Foreste xonim ularning oldiga kelib hayronlikdan chapak chaplab yubordi:

– O‘zimning ko‘zimmi shu? Lorina ham qo‘lga o‘rganibdi-ku! Ajoyib!

Og‘ziga sigara solgan Jak Rival ular tomonga kela boshladi, shunda Dyurua bexos biron gap aytib butun ishning pachavasini chiqarib qo‘ymay deb, o‘rnidan turib xayrlasha boshladi.

U ta‘zim qilib, xonimlar qo‘lini ohista siqar, erkaklar bilan mardona qo‘l olishardi. Xayrlasharkan, u bir narsani sezdi: Jak Rivalning so‘xta va qaynoq qo‘llari unga do‘stona javob qaytardi. Norber de Varenning nam tortgan sovuq barmoqlari Dyuruaning panjasidan ilondek sirg‘alib o‘tdi, Valterning qo‘li esa muzdek, latta kabi yumshoq, jonsiz, ifodasiz edi, Forestening qo‘llari esa ipakday mayin, issiqqina ekan. Do‘sti uning qulog‘iga shipshidi:

– Ertaga soat uchda, esingdan chiqmasin.

– Yo‘q, yo‘q, albatta, kelaman.

Dyurua shunchalar xursand bo‘lib ketgan ediki, zina oldiga chiqqanda undan chopib hatlab tushgisi keldi va u hatlab-hatlab pastga tushdi, lekin uchinchi qavatda oynadan chopib tushayotgan janobni ko‘rib qolib uyaldi va to‘xtadi, go‘yo jinoyat ustida qo‘lga tushgan odamday sezdi o‘zini.

Dyurua aksiga uzoq qarab turdi, keyin bu qadar xushqomat, kelishgan yigit ekanligidan xursand bo‘lib, oynadagi o‘z aksiga jilmayib qo‘ydi-da, go‘yo u bilan xayrlashayotganday bel bukib ta‘zim qildi, ta‘zim go‘yo muhtaram bir zotga berilganga o‘xshardi.

III

Jorj Dyurua ko‘chaga chiqqach xayolga toldi: u bir qarorga kelolmasdi. Uning shahar bo‘ylab kezgisi, orzu-xayollariga erk bergisi, kelajak rejalarini tuzgisi, yumshoq tun havosidan to‘yib-to‘yib nafas olgisi kelardi, Biroq Valter aytgan maqola uning kallasidan ko‘tarilmas, tinimsiz bezovta qilib turardi, shuning uchun ham uyga qaytib, paysalga solmay ishga o‘tirishga ahd qildi.

U chekka xiyobonlar halqasidan ildam yurib o'tdi-da, keyin o'zi turadigan Burso ko'chasiga burildi. U yigirmaga yaqin ishchi va xizmatchilarning oilalari yashaydigan yetti qavatli uyning bitta xonasini ijaraga olgandi. U iflos, axlat va chiqindilar, papiros qoldiqlari, parcha-parcha qog'ozlar sochilib yotgan zinalardan shag'am gugurt yoqib yuqoriga ko'tarilarkan, ko'ngli yomon ijjirg'anib borar, bu yerdan shu zahotiyoq ko'chib ketgisi va anov badavlat odamlar yashaydigan ozoda, gilamlar to'shalgan xonalarda istiqomat qilgisi kelar edi. Bu yer esa ovqat qoldiqlari, hojat joylarining og'ir qo'lansa isiga to'lgan, qoqilmagan, artilmagan chang, g'ubor, mog'or hidi anqir, bu badbo'y g'uborni ko'tarib yubora oladigan kuch dunyoda yo'qqa o'xshardi.

Oltinchi qavatda joylashgan uning xonasidan G'arbiy temir yo'lining ulkan xandaqlari ko'zga tashlanar, Batinol vokzaliga yetmasdan tunnel tugar va tunnelning og'zi tubsiz o'pqqon kabi qorayib ko'rinardi. Dyurua derazani ochib yubordi va zanglagan temir panjaraga suyandi.

Boyagi chuqur xandaqning tagida xuddi notanish bir maxluqning yirik ochilgan ko'zlariga o'xshash uchta qizil signal chiroqlari yonib turar, ularning orqasida yana shunday chiroqlar bo'lib, keyin ular borgan sari ko'payishib ketardi. Gudok sadolari dam kalta, dam uzoq yangrab, tun qo'ynini zirillatib yuborar, o'qtin-o'qtin Aner tarafdin parovozlarning ovozlari bazo'r quloqqa chalinib qolardi. Go'yo parovozlar emas, odamlar bir-birlarini chaqirayotganga o'xshardi. Mana, o'sha ovozlarning biri shitob bilan yaqinlashib kela boshladi, uning yordamga chorlaganday chinqirig'i dam sayin zo'rayib, ko'p o'tmay ulkan sariq chiroq ko'rindi, keyin olamni shovqin-suron, taraqa-turuqqa to'ldirib poyezd o'tib ketdi. Bir-biriga ulangan uzundan-uzoq vagonlarni tunnel birma-bir o'z komiga torta boshladi. Dyurua tomosha qilib turdi.

– Qani, endi ishga! – dedi u o'ziga o'zi va chiroqni stolga qo'yib, yozishga o'tirmoqchi edi, shunda xat yozadigan qog'ozdan boshqa qog'ozni yo'qligini bilib qoldi.

Hechqisi yo'q, pochta qog'ozining o'rtasini ochib o'shanga yozish mumkin. U qo'lga pero oldi-da, hafsala bilan chiroyli qilib sarlavha qo'ydi:

«Afrika o'qchisining xotiralari»

Keyin birinchi jumlani o'qiy boshladi.

U qo'lini chakkasiga tirab, oldidagi oppoq qog'ozga diqqat bilan tikilgancha o'tirardi.

Nimani yozadi? U ziyofat paytida o'zi hikoya qilgan narsalarning birontasini, na bir latifa va na bir bo'lgan voqeani eslay oldi, barini unutibdi. To'satdan xayoliga yarq etib bir jumla keldi: «Bu 1874-yil may oyining o'rtalarida, holdan toygan Fransiya mash'um yilning mashaqqatlaridan endigina nafas rostlab kelayotgan bir paytda ro'y bergan edi...»

Dyurua shularni yozdi-yu, to'xtab qoldi: bu jumlaning keyingi voqealar – dengizga chiqish, sayohat, ilk taassurotlar bilan qanday bog'lab yuborishni bilmay turardi.

O'n daqiqalardan keyin kirish qismini ertaga yozarman, hozircha Jazoimi tasvirlab ketaveray degan fikrga keldi.

– «Jazoir – oppoq shahar...» – deb boshladi u, biroq shundan nariga o'tolmadi. Uning tasavvurida yana chiroyli, shinam va ozoda, yapasqi tomli uylar, tog' bag'ri bo'ylab dengizga qarab jilg'adek burilib tushadigan chingiling shaharcha gavdalandi, biroq u ko'rganlari, boshdan kechirganlarini qog'ozga tushirish uchun so'z topolmasdi.

Uzoq kuchangandan keyin yana: «Shaharning yarim aholisi arablar...» degan so'zlarni qo'shdi. Keyin u peroni ulotqirib, o'midan turdi.

Yotilaverganidan o'rtasi cho'nqir bo'lib qolgan ensizgina temir karavotda uning kunda kiyadigan eskirib ketgan, ohori to'kilgan kiyimlari g'ijim-g'ijim bo'lib yotar, baayni o'likxonadan chiqqan irkit uvadalami eslatardi. Uning birdan-bir yumshoq silindri esa, kajava kreslodada to'ntarilgan holda xuddi sadaqa tilayotganga o'xshab yotardi.

Devorlarga yopishtirilgan, havorang guldastalar tasviri tushirilgan qog'ozlar xunuk eski dog'-dug'lar bilan qoplangan edi. Dog'lar ezib tashlangan kanadan yoki sachragan moydan qolganmi, bilib bo'lmas, bir qarasang, yog'li barmoq izlariga, bir qarasang, tosdan sachragan sovun ko'piklariga o'xshar, ularni bir-biridan ajratib olish qiyin edi. Hamma narsadan nochor qashshoqlikning, Parij mebelli xonalariga xos qashshoqlikning nuqsi kelib turardi. Shunda Dyuruaning yuragida o'zining bu muflisona hayotiga qarshi g'azab alanga oldi. Bu ahvoldan tezroq qutulish kerak, ertaning

o'zida bunaqa g'arib turmushni bir chekkaga uloqtirib tashlash zarur, deb o'yladi u.

Shu asnoda birdan yana ishga o'tirgisi kelib qoldi va stolga o'tirib Afrikaning darvozasi bo'lmish go'zal Jazoiming ta'rifi-ga mos so'zlar izlay boshladi, bu – kishi qadami yetmagan, sirli ma'no, bu – ko'chmanchi arablar va hali dunyoga nomi noma'lum negr qabilalari yashaydigan mamlakat, bu – hali o'rganilmagan, doimo o'ziga ajib bir jozibasi bilan tortib turadigan xayoliy mam-lakat, u yerlardan bizning shahar bog'lariga onda-sonda xuddi er-taklardagiday fusunkor va g'aroyib maxluqotlarni olib keltirishadi: tovuş deb ataladigan anvoyi tovuqlar, aql bovar qilmaydigan dara-jada nozik va nafis g'izol deb ataladigan echkilar, turqi g'oyatda xunuk jirafalar, ulug'vor tuyalar, dahshatli maymunlar, badbashara karkidonlar va nihoyat, odamzodning qo'rqinchli qardoshlari – go-rillalar shu mamlakatdan, Afrikadan keltiriladi.

Dyurua shu tobda tiniq fikrlolmay turardi, u ehtimol, bular-ni og'zaki boplab hikoya qilib berishi mumkin edi, lekin hozir qog'ozda ifodalab berishga ojizlik qilmoqda edi. Uning ikki chak-kasi lo'qillab ketdi, qo'llarini qattiq ter bosdi, qog'oz qarshisida ojizlikdan isitmasi ko'tarilgan holda u yana o'midan turib ketdi.

Dard ustiga chipqon deganday, bugun kechqurun qorovul tash-lab ketgan, kirchi xotinga to'lanadigan pul qog'ozini ko'rib dunyo ko'ziga qorong'i ko'rindi. O'ziga bo'lgan ishonch ham, kelajak or-zu-xayollari ham, xursandchiligi ham bir zum ichida barbod bo'ldi. Tugadi, u odam bo'lmaydi. U o'ziga rezgi, lab-lunji osilgan salohi-yatsiz, hech kimga keragi bo'lmagan, qashshoqlikka mahkum bir odam deb qaray boshladi.

U yana deraza oldiga keldi – shu on uning ko'zlari tunnel ichi-dan dahshatli vahima ko'tarib chiqib kelayotgan poyezdga tushdi. Poyezd dalalar va vodiylardan o'tib dengizga tomon borardi. Po-yezd ortidan qarab qolarkan, Dyurua o'zining ota-onasini esladi.

Ha, poyezd ularning uylaridan bir necha chaqirim naridan o'tib ketardi. Kantle qishlog'iga kiraverishda, keng Sena vodiysi bilan Ruanning yuqorisida – adirning tepasidagi uycha Dyuruaning ko'z o'ngida gavdalandi.

Dyuruaning ota-onasi kichikroq bir qovoqxona ochib, unga «Xushmanzara» deb nom berishgan, dam olish kunlari Ruan atrof-

laridan kelgan odamlar bu yerda ovqatlanishardi. O'g'limiz o'qib katta odam bo'lsin deb, chol-kampir uni kollejga berishdi. Jorj o'qishni tugatdi-yu, lekin bakalavrlilik imtihonlarini topshirmasdan harbiy xizmatga kirdi: u ofitser, polkovnik, general bo'lishni ko'ngliga tugib qo'ygan edi. Biroq besh yillik muddat tugamayoq harbiy xizmat butunlay me'dasiga tegib ketdi, u Parijda durustroq bir ishning boshini tutishni ko'zlay boshladi.

Mana, nihoyat, majburiy xizmat muddatini o'tab bo'lgach, bu yerga kelib joylashdi. Yonimizda qol, deb Xudoning zorini qilgan ota-onasining qiyin-qistovlariga ham qaramadi. U o'z saodatli yulduziga hamon ishonardi, bir kunmas bir kun g'alabaga erishaman, taqdirning g'ildiragini o'z ra'yimga ko'ra yuritaman deb o'ylagani o'ylagan edi.

Garnizonda xizmat qilib yurgan kezlari u anchagina ishqiy mojarolarni boshidan kechirgandi. U yengil-yelpi muomalalardan tashqari yuqoriroq doiradagi xotinlar bilan ham aloqa bog'lagan, moliya inspektorining qizini yo'ldan urgan, uni jinni qilib qo'yayozgan, bundan tashqari muxtor vakilning xotini uning ketishidan xabardor bo'lgach, o'zini qo'yarga joy topolmay, dengizga tashlamoqchi bo'lgan edi.

O'rtoqlari uni: «Pixini yorgan tullak, tegirmonga tushsa, butun chiqadi», deb yurishardi. Shuning uchun ham u o'ziga-o'zi bo'pti, ustasi farang, mug'ombir bo'lganim bo'lsin, deb so'z bergan edi. Afrika garnizonlarida yulg'ichlik, kafando'zlik, g'irromlik va harom bo'ylik orttirish odat tusiga kirib ketgandi, u mana shularning barini o'zlashtirgan. ayni zamonda, harbiy kishi sharafi, bachkana shuhratparastlik va jo'mardlik singari xislatlar ham qon-qoniga singib ketgandi. Shular va unter-ofitserlarning jasorati haqidagi uydirmalar uning ongida qattiq o'mashgan ediki, oqibatda, uning yuragi uch qavatli qutichaga o'xshab qolgan, voqean, undan istalgan narsani topish mumkin edi.

Lekin unda maqsadga yetish istagi kuchli edi.

Dyurua o'zi sezmaganda xayol surib ketdi. Har kuni kech-qurun u mana shunday xayolga cho'mib qolardi. Xayollari uni ajoyib-g'aroyib ishqiy sarguzashtlarga yetaklar va shu sarguzasht tufayli barcha tilaklari ro'yobga chiqar edi. U ko'cha-ko'yda bironta katta bankir yoki amaldorning qizini uchratib qoladi, uni

bir qarashda o'ziga asir qiladi va unga uylanadi. Dyurua inidan tashqariga otilgan quyonday tunneldan yugurib chiqqan va depoga tin olish uchun shitob bilan uchgan paravozning quloqni qomatga keltiruvchi chinqirig'idan u o'ziga keldi.

Shu on uning ko'ragida miltirab turgan noaniq, lekin quvonchli bir umid yana qanot yozdi, shunda u xayollarda ardoqlangan, notanish go'zal parivash yashaydigan allaqayoqlarga – qorong'i-lik sari g'oyibona o'pich yo'lladi, bu intizor kutilgan, omad sari yo'llangan o'pich edi. Keyin u derazani berkitdi, yechina boshladi. «Hechqisi yo'q, – deb o'yladi u, – ertalab turib xayolimmi joyiga qo'yib ishga o'tiraman. Hozir boshim g'uvillab turibdi. Sal ko'proq ichib qo'yganga o'xshayman. Bunaqada ishlab bo'lmaydi».

U yotdi, chiroqni o'chirdi va shu zahoti uxlab qoldi.

U barvaqt uyg'ondi, odatda, bir narsani ehtiros bilan kutganlar yoxud biron qattiq tashvish bilan yurganlar mana shunday erta turadilar – karavotdan sakrab turib derazani ochib yubordi, buni u bir ho'plam toza havo ichish deb yuritardi.

Temir yo'l xandag'idan naridagi Rim ko'chasida joylashgan uylar ko'tarilib kelayotgan oftob nurlarida yarqirab ko'rinar, ular xuddi oppoq tong nuridan yaratilganga o'xshardi. O'ng tomondan Arjanteyl tepalari, Sanua cho'qqilari va Orjemon tegirmonlari elas-elas ko'zga tashlanar, ular yengil och moviy tuman bilan chulg'angan, xuddi ufq uzra harir, parpiroq ro'mol tashlangandek edi.

Dyurua uzoqlarga havaslanib termilib turdi. «Bunaqa kunlarda u tomonlar juda ham chiroyli bo'lib ketsa kerak», deb pichirladi u. Keyin zudlik bilan ishga o'tirish kerakligini eslab qorovulning o'g'lini chaqirdi-da, unga o'n su berib, idoramga borib kasal bo'lib qoldi deb aytib kel, deb yubordi.

U stolga o'tirdi, peroni siyohga botirdi, qo'li bilan dahanini tirab o'ygacha cho'mdi. Lekin qancha urinmasin, foydasi bo'lmadi, miyasiga tuzukroq bir fikr kelmadi.

Biroq u shashtidan tushmadi. «Hechqisi yo'q, – deb o'yladi u, – bu ishga ko'nikish kerak. Hamma hunarga o'xshab buni ham o'rganib olish mumkin. Mening ilk qadamlarimga birov yordam berishi kerak. Forestening oldiga borib kelay-chi, u meni birpasda kerakli izga solib yuboradi».

U kiyinishga tutindi.

Ko'chaga chiqqandan keyin Forestelar kech turishsa kerak, kallai saharlab borish o'ng'aysiz, degan xayolga bordi va biroz xiyobonlarni aylanib turishga qaror berdi.

U suv sepilib muzdek qilib qo'yilgan Monso bog'iga kirdi, soat hali to'qqiz ham bo'lmagandi.

Skameykaga o'tirib yana o'z orzu-xayollariga berildi. Nariroqda bashang kiyingan bir yigit nari-beri yurib turar, aftidan, kimnidir kutayotganiga o'xshardi.

Mana, nihoyat, uning kutgan odami keldi, shlyapada, yuziga to'r tortilgan, u tez-tez yurib yigitning oldiga bordi, qo'l berib ko'rishdi, keyin uni qo'litiqlab oldi, so'ng ular uzoqlashib ketdilar.

Shunda Dyuruaning muhabbatga tashna qalbi gur etib yonib ketdi. Bu muattar, o'ta nozik va nafis ishqiy kechinmalarga bo'lgan chanqoqlik edi. U o'midan turib, yurib ketdi, Foresteni o'yladi. Rosa omadi chopgan ekan uning!

Dyurua uy oldiga kelganda, do'sti ko'chaga chiqib kelayotgan ekan.

– E, o'zingmisan? Muncha erta turmasang? Nima qildi?

Dyurua uni ko'chada uchratganidan qisinib ming'irladi:

– Mana shu... mana shu... hech maqolani eplashtirolmayapman, Jazoir haqidagi maqolani, esingdami, janob Valter menga aytgan maqola? Ilgari hech yozib ko'rmagan edim. Buniyan eplagan qilar ekan. O'rganish kerak. Men tezda qo'lim o'rganib ketishiga ishonaman, lekin nimadan boshlashimni bilmay turibman. Aytadigan gapim ko'p, biroq ularni ifodalab berolmayotibman.

U o'ng'aysizlanib jim bo'lib qoldi. Foreste unga mug'ombiro-na jilmayib qarab turardi.

– Boshimdan o'tgan.

– Menimcha, hammada ham shunaqa bo'ladi, shekilli, – deya ilib ketdi Dyurua. – Shuning uchun ham sening oldingga, iltimos... og'ir paytda yordam berarsan deb iltimos qilib keldim... Sen meni birpasda izga solib yuborasan, gapni nimadan va qanday boshlashni ko'rsatib berasan. Men uchun bu stilistikadan foydali dars bo'lardi, bir o'zim eplolmayman.

Foreste hamon sho'x jilmayib turardi. U o'z qadrdon oshnasining yelkasiga bir urdi-da, dedi:

– Xotinimning oldiga bor, bu ish uning qo'lidan ham keladi.

Men koʻzini pishitib qoʻyganman. Hozir bandman, boʻlmasa jonim bilan senga yordam berardim.

Dyuruaning yuragi birdan poʻkilladi: u ikkilanib turar, nima qilishini bilmasdi.

– Kallayi sahardan uni qandoq bezovta qilaman!

– Hechqisi yoʻq. U oʻrindan turgan. Mening kabinetimda oʻtirib maqolalarimni tartibga tushiryapti.

Dyurua hamon talmovsirab turardi.

– Yoʻq... iloji yoʻq...

Foreste uning yelkasidan tutib, eshik tomonga itardi.

– Boraversang-chi, afandi, bor, boraver! Yana toʻrtinchi qavatga chiqqim yoʻq, iltimosimni unga oʻzing aytsang ham boʻlaveradi.

Nihoyat, Dyurua borishga shaylandi.

– Xoʻp, boʻlmasa, rahmat senga, ketdim. Sen meni zoʻrlab yuborganingni unga aytaman.

– Ha, ha, xotirjam boʻl, u seni yeb qoʻymaydi. Muhimi, soat uchda kelish esingdan chiqmasin.

– Yoʻq, yoʻq, esimda.

Foreste shaxdam qadamlar bilan joʻnab ketdi. Dyurua esa qanday qabul qilarkin, deb tashvishlanib, asta-sekin yuqoriga koʻtarila boshladi, yoʻl-yoʻlakay, gapni nimadan boshlash kerakligini oʻylab bordi.

Eshikni xizmatkor ochdi. U koʻk fartuk tutib olgan, qoʻlida pol artadigan choʻtkasi bor edi.

– Janob Foreste uyda yoʻqlar, – dedi u savolni kutib oʻtirmasdan.

– Foreste xonimdan soʻrang-chi, meni qabul qila olarmikinlar, – dedi Dyurua, – aytingki, uning oldiga meni eri yubordi. Men hozir uni koʻchada uchratuvdim.

Dyurua javob chiqishini kuta boshladi. Xizmatkor qaytib kelib, oʻng tomondagi eshikni ochdi-da, dedi:

– Foreste xonim sizni kutmoqdalar.

Xonim yozuv stoli oldiga qoʻyilgan kresloda oʻtirgan ekan. Orasta xonaning chor atrofi qora yogʻochdan ishlangan javonlar uzra tartib bilan terilgan kitoblarga toʻla edi. Kitoblarning muqovalari qizil, sariq, koʻk, nim pushti, zangori, ishqilib, barcha ranglar-

dan bor edi. Ular qator terilgan jildlarni tashqaridan juda ham chiroyli qilib ko'rsatardi.

Foreste xonim o'zining odatdagi tabassumi bilan uni qarshilab, orqasiga o'girildi va unga qo'lini uzatdi, to'rlar bilan to'qilgan keng yengi ichidan qo'llari yelkasiga dovur ko'rinib ketdi.

– Muncha erta? – so'radi u va qo'shib qo'ydi: – Ta'na qilyapti, deb o'ylamang, bir omadi savolda.

– Xonim, – zo'rg'a gap boshladi Dyurua, – men kelmay desam, eringizni pastda uchratib qoluvdim, sira qo'ymadi, boraver deb. Shu qadar xijolatdamanki, nimaga kelganligimni aytishga ham yuragim betlamay turibdi.

Foreste xonim unga qo'li bilan stulni ko'rsatdi:

– O'tiring, ayting, nima gap ekan.

U qo'lidagi pat qalamni ikki barmog'i orasida ustalik bilan aylantirib o'tirar, uning oldida yotgan yarmigacha yozilgan katta varaq Dyurua kelib unga xalal berganligini ko'rsatar edi.

U ish stoliga o'rganganligi, ishlagan paytida qiynalmasligi, mehmonxonada o'zini qanday hur tutgan bo'lsa, stolga o'tirganda ham erkin o'tirib ishlashi, bu unga odat bo'lib ketganligi ayon edi. Uning penyuaridan hozirgina qilingan ertalabki yasan-tusaning yoqimli, toza bo'ylari anqimoqda edi. Dyurua uning nafis ko'ylagi tagidagi yosh, tiniq, toza, bo'liq va qaynoq jismini tasavvur qilishga urinar, shu boisdan ko'z o'ngida gavdalanayotganday bo'lar edi.

– Qani, ayting bo'lmasa, nima gap o'zi? – Dyuruaning gapirolmay turganligini ko'rib so'radi u.

– Bilasizmi... – boshladi Dyurua o'zini yo'qotgan ko'yi. – Rostdanam juda xijolat bo'lyapman... Gap shundaki, kecha men tuni bilan o'tirib... bugun esa... azondan beri janob Valter so'ragan Jazoir haqidagi maqolani yozdim... Lekin hech narsa chiqara olmayapman... Men hammasini yirtib tashladim... Bunaqa ishni birinchi marta qilishim, shuning uchun Forestedan iltimos qiluvdim... bu safar endi u menga yordam bersin deb...

Xonim bu so'zlardan quvonib, yashnab, gul-gul ochilib ketdi, juda mamnun holda kula-kula dedi:

– U sizni menga jo'natdimi?... Juda soz qilibdi-da...

– Shunday, xonim. U xotinim senga mendan ham yaxshi-roq yordam beradi... Men esa, istamovdim, jur'at etmovdim. Tushunyapsizmi meni?

Xonim o'rnidan turdi.

– Bu hamkorlik juda yoqimli bo'ladiganga o'xshaydi. Sizning fikringiz menga juda yoqdi. Gap shunday: mening o'rimga o'tirib bo'lmasa, tahririyatda mening yozuvimni tanib qolishadi. Hozir siz bilan maqola yozamiz, maqola bo'lganda ham zo'r maqola! Niyatimiz – yo'ldoshimiz.

Dyurua o'tirdi, peroni oldi, bir varaq qog'ozni oldiga qo'yib, yozishga shaylandi.

Foreste xonim tik turgancha uning barcha harakatlarini kuzatib turdi, keyin kamin ustidan papiros olib chekdi.

– Papirossiz ishlay olmayman, – dedi u. – Xo'sh, nimalarni hikoya qilib bermoqchisiz.

Dyurua unga hayron bo'lib qaradi.

– Shuni bilmaganim uchun ham bu yerga keldim-da.

– Xo'p, mayli, unda men ko'maklashib yuboray. Qaylasini o'zim tayyorlayman, lekin menga masalliq kerak.

Dyurua nima deyishini bilmay qoldi.

– Men o'z sarguzashtimni bir boshdan aytib bermoqchi edim... – botinmay so'yladi u.

Xonim stolning naryog'iga o'tib, unga ro'parama-ro'para o'tirdi va uning ko'ziga tik boqib dedi:

– Unday bo'lsa, avval menga, yolg'iz menga aytib bering, tushunyapsizmi? Shoshilmay, hech narsani tushirib qoldirmang, keyin o'zim keragini tanlab olaman.

Dyurua nimadan boshlashini bilmasdi, shunda xonim tavba qilayotgan kishini so'roqqa tutayotgan ruhoniya o'xshab unga savollar bera boshladi. Savollari shu qadar aniq va ravshan ediki, ular Dyuruaning xotirasiga turtki bo'ldi, u unut bo'lib ketgan voqealarni barcha tafsilotlari bilan eslay boshladi, ko'z o'ngida uchrashuvlar, bir ko'rgan odamlarining qiyofalari gavdalana boshladi.

U shu tariqa chorak soatlar chamasi hikoya qilgach, xonim birdan uni to'xtatdi.

– Endi boshlaymiz. Siz o'z taassurotlaringizni o'rtog'ingizga so'zlab berayotganday bo'ling, bu ko'nglingizdagi barcha gaplarin-

gizni aytaverishingiz uchun imkoniyat beradi, orada boshqa gaplarni ham qistirib ketaverasiz, hikoyangizning tabiiy va maroqli chiqishi-ga erishasiz. qani, bular qo'limizdan kelamikin, yo'qmi? Yo'zing:

«Azizim, Anri, sen Jazoir qanday diyor ekanligini bilishni is-tamaysanmi? Marhamat, aytib bera qolay. Bekorchilikda nima qilishimni bilmay, o'zim istiqomat qilayotgan g'aribona kulbadan turib, senga kundaliklarga o'xshash bir narsa yozib yuborish fikri-ga keldim, unda o'zimning bunda kechgan hayotimni kunma-kun, soatma-soat hikoya qilib beraman. Ehtimolki, hikoyam ba'zan qo'polroq chiqar, nima ham derdim, biroq sen ularni tanish xonim-larga ko'rsatib o'tirmaysan-ku...»

Xonim o'chib qolgan papirosini yondirib olish uchun to'xtadi, shu zahoti qitirlayotgan patqalamning ham uni o'chdi.

– Davom etamiz, – dedi xonim.

«Jazoir – hali yaxshi o'rganilmagan Sahroi Kabir, Markaziy Afrika singari ulkan mamlakatlarning sarhadida joylashgan fran-suzlarning katta mustamlakasidir.

Jazoir – bu oq darvoza, g'aroyibotlarga to'la bir qit'aga olib kiradigan oppoq go'zal darvozadir.

Lekin bu darvozani ko'rish uchun avval unga yetib olish kerak, bu hammaga ham birday yoqavermasligi mumkin. Mening cha-vandozlikda qanchalar mohirligimni bilasan, men polkovnikning o'zi minadigan otlarni sovutib beraman. Biroq azamat otliq askar bo'la turib, yomon dengizchi bo'lish hech gap emas ekan. Buni men o'z boshimdan o'tkazdim.

Polkimizning vrachi Sembret esingdadir? Um hammamiz dok-tor Kuskuro deb atardik. Qaysi birimiz ushbu muqaddas o'lkada dam olishga o'lguday zor bo'lib qolganimizda, gospitalda orom olish uchun uning qabuliga borar edik.

Uning alvon ishtoni, semiz sonlari hamon ko'z o'ngimdan ket-maydi. Mana, u kursida oyoqlarini kerib, ikki mushtini ikki soniga tirab, qo'llarini buklab, tirsaklarini chiqarib, baqraygan ko'zlarini o'ynatib, oqargan mo'ylovlarini tishlab o'tiribdi.

Uning qanday muolaja qilishlari yodingdadir:

– Bu soldatning ichi buzilgan. Unga mening retseptim bo'yicha uchinchi raqamli qayt qildiradigan dori berilsin, so'ngra o'n ikki soat to'la dam olsin, sog'ayib ketadi.

Uning qustiradigan dorisi juda o'tkir, tez ta'sir qilar edi. Shunga qaramasdan, biz uni ichardik, nega desang, o'zga choramiz ham yo'q, edi-da. Ammo doktor Kuskuroning dorisini ichib bo'lgach, o'n ikki soat hordiq chiqarish juda maza edi-da o'zi.

Mana shunaqa gaplar, jon do'stim, agar Afrikaga keladigan bo'lsang, qirq soat mobaynida ta'sir qiladigan boshqa bir qayt qildiradigan dorining kuchini sinab ko'rishing mumkin. Bu dori-ning retseptini Transatlantika kema kompaniyasi ishlab chiqqan».

Foreste xonim mamnun bo'lib, qo'llarini ishqab qo'ydi.

U o'midan turib, ikkinchi papirosni olib tutatdi-da, xonani kezib yana aytib yozdira boshladi, u goho-goho labini cho'ch-chaytirib tutun chiqarar, tutun tik yuqoriga ko'tarilib, so'ng ohis-ta yoyilib ketar, ba'zan tutun u yer bu yerda tuman parchasi kabi to'dalashib qolar, keyin chuvalangan mayin ko'kimtir iplar mezon uchganday bo'lib tarqalar edi. Xonim o'qtin-o'qtin havoda mual-laq qolgan ushbu harir chizgilarni kaftlari bilan to'zg'itib yuborar yoki ko'rsatkich barmog'i bilan ularni ikkiga ajratib tashlar, so'ng to'zg'igan pag'alarning parokanda bo'lib borishini xayolchan ku-zatib qolardi.

Dyurua esa uning barcha xatti-harakatlarini kuzatib turar, tu-tunni ernak qilib, ayni choqda fikri bo'linmay ishlayotgan xonim-ning chehrasidan, qaddi-qomatidan ko'zlarini uzolmasdi.

Xoim endi yo'ldagi sarguzashtlarni to'qishga tushdi, qayoqda-gi bo'lmagan hamrohlarning qiyofalarini chizdi va erining oldiga ketayotganda piyoda qo'shinlar kapitanining xotini bilan bo'ladi-gan ishqiy mojaroning uchini chiqardi.

Keyin o'tirib olib Dyuruadan Jazoirning tabiati, foydali qazil-malari, konlari, boyliklari haqida surishtira boshladi, bu narsalardan u butkul bexabar ekan. Sal fursat o'tmasdan u ularni Dyuruadan qolishmaydigan darajada yaxshi bilib oldi. Endi u Dyuruaga Ja-zoirining iqtisodiy-siyosiy ahvoli haqida butun bir bobni bemalol yozdira olardi. Shunday qilinsa, o'quvchilar keyingi maqolalarda ko'tariladigan murakkab masalalarga osonroq tushunib olgan bo'lardilar.

Keyin Oran viloyatiga qilingan safar haqida yozildi: safar, al-batta, to'qib chiqarildi. Bunda gap xotinlar – zanj, juhud, ispan ayollari haqida bordi.

– Gazetxonlar faqat mana shunaqa narsalarga oʻch boʻlishadi. – deya izoh berdi Foreste xonim.

Bu sarguzashtlarni u baland yassi togʻlar etagidagi Said manzili-
lida tugatdi. unter-ofitser Jorj Dyuruaning alfa¹ qayta ishlanadigan
ainelxojar fabrikasida isnan ishchi xotin bilan sevishib qolgan-
larining shoirona tasvirini chizib ham ketdi. U sevishganlarning
tunda boʻlgan uchrashuvlarini yalangʻoch qoya togʻlar ichida, itlar
akillab, chiyaboʻrilar uvlab, sirtlonlar chinqirib yotgan ovloq mas-
kanlar quchogʻida tasvirladi.

– Davomi ertaga! – shoʻxlik bilan dedi Foreste xonim va kur-
sidan turar ekan, qoʻshimcha qildi: – Maqola degan mana bundoq
yoziladi, onhazratim. Dastxatlarini yozib qoʻysinlar.

Dyurua ikkilanib qoldi.

– Imzo qoʻying deya pman!

Dyurua kulib yubordi-da, sahifaning tagiga «Jorj Dyurua» deb
imzo chekdi.

Xonim yana papirosini tutatib, xonani keza boshladi, Dyurua
esa, qalbi minnatdorchilik hislari bilan toʻlib-toshgan holda un-
dan koʻzlarini uzolmay oʻtirar, uning qilgan yaxshiligi uchun
tashakkurini ne soʻz bilan ifodalashni bilmas, shu goʻzal xotin
qarshisida turganligidan boshi koʻkka yetgan, oʻzgacha bir laz-
zat ogʻushiga choʻmgandi. Lazzat esa oʻrtalaridagi munosabat
tobora iliqroq boʻla borayotganligidan tugʻilib kelmoqda edi.
Dyuruaga bu yerdagi hamma narsa, hattoki, qator kitoblar devor-
gacha xonimning uzviga aylanib ketganga oʻxshab koʻrinardi.
Xonaning sarishta-saranjomligida, havoda kezib yurgan tamaki
islarida allaqanday takrorlanmas, yoqimli, dilbar, diltortar bir ruh
hokim ediki, bularning bari xonimning farishtali xotin ekanligini
koʻrsatar edi.

– Mening dugonam de Marel xonim haqida qanday fikrdasiz? –
kutilmaganda soʻradi xonim.

Bu savol Dyuruaning oʻylantirib qoʻydi.

– Nima desam ekan... menimcha, u kishi... dilkash xotin.

– Rostdanmi?

– Albatta-da.

¹ Alfa – Ispaniya va Shimoliy Afrikada oʻsadigan chalov oʻsimligi. Undan
kanop va qogʻoz olinadi.

Dyurua: «Siz undan xam dilbarroqsiz», demoqchi edi, lekin uyaldi.

– Uning qanchalik aqlli xotin ekanligini bilsangiz edi! – davom etdi Foreste xonim. – Juda topilmas, antiqa xotin. Shuning uchun ham eri uni xushlamaydi. Har tomondan ayblaydi, qadriga yetmaydi.

De Marel xonimning eri borligi Dyuruaga g'alati tuyuldi. Biroq buning hech bir hayron qoladigan joyi yo'q edi.

– Shunday deng... uning eri bor deng? – so'radi u. – Eri qanaqa odam o'zi?

Foreste xonim qoshi bilan yelkalarini bilinar-bilinmas uchirib qo'ydi, uning xatti-harakatlari allaqanday ma'noga to'la, nimaga-dir shama qilayotganday edi.

– U Shimoliy temir yo'lining revizori. Har oyda bir haftaga Parijga kelib ketadi. Bu kelib ketishi xotini o'zi uchun burch, o'lpon, ehtiros haftasi deb ataydi. U bilan yaqindan tanishib olsangiz, qanchalar zukko va dilbar xotin ekanligiga amin bo'lasiz. Shu kunlarda uning oldiga bir kirib o'ting.

Dyurua o'zining ketadigan vaqti bo'lganligini unutgan, nazarida, butunlay shu yerda qoladiganday, o'z uyida o'tirganday edi.

Biroq, eshik ohista ochilib qandaydir sersavlat janob so'ramasdan kirib keldi.

Notanish erkakni ko'rib u to'xtab qoldi. Foreste xonim bir soniya g'alati bo'lib ketdi, keyin yuzi andak qizarinqiraganiga qaramasdan, odatdagicha ovozi o'zgartirmay dedi:

– Kiring, kiring, aziz do'stim, kiring! Bu kishi Sharlning yaqin oshnasi, bo'lajak jumalist Jorj Dyurua.

Keyin boshqacha bir tovush bilan dedi: – Bizning eng yaqin va ajoyib qadrdonimiz – graf de Vodrek.

Ular bir-birlariga ta'zim qilishdilar. Ko'zlariga tik boqdilar, keyin Dyurua xayrlasha boshladi.

Uni ushlab o'tirishmadi. U hayajonlana-hayajonlana minnatdorchilik bildirib, Foreste xonimning qo'lini siqdi, kiborlarga xos kekkayib, beparvo turgan mehmonga yana bir karra ta'zim qilib, xuddi nojo'ya ish qilib qo'ygan odamday o'ng'aysizlanib, ko'ngli g'ash tortib chiqib ketdi.

Ko'chada u juda ma'yus bo'lib qoldi, o'zidan o'zi g'ijinib, dili qorong'i bo'ldi. U oyog'ining tagiga qaramay borar, bu g'ashlik ko'ngliga qachon cho'kkanligini anglashga harakat qilardi. Lekin buning tagiga yetolmas, ko'z o'ngidan esa, yoshi ancha o'tib qolgan, sochlari oqargan, odamga g'oyatda takabburona va osoyishta boqadigan, o'z qadrini biladigan, juda badavlat bir janob bo'lmish graf de Vodrekning jiddiy chehrasi nari ketmasdi.

Aloha, u Foreste xonim bilan bo'layotgan qizg'in suhbatlarni ustidan shu notanish odamning chiqib qolgani yuragini muzlatib, umidsizlik kayfiyatini berayotganini angladi. Biz birovning qayg'usini ko'rganimizda, tasodif bilan biror arzimagan so'z eshitganimizda yoxud boshqa biror sabab bilan dilimiz mana shunday ma'yus tortib qoladi.

Buning ustiga u odamning o'zi ham Dyuruani Foreste xonimning huzurida ko'rib qattiq g'ijingani va hayron bo'lib qolgani yuzida aks etib turgandi.

Dyuruaning soat uchgacha qiladigan tayinli bir ishi yo'q edi, hozir esa hali o'n ikki ham bo'lmagan. Uning kissasida olti yarim frank puli qolgandi, u Dyuvaleda ovqatlanib olgani jo'nadi. Keyin xiyobonlarni aylanib yurdi va soat roppa-rosa uch bo'lganda keng zinadan ko'tarilib «Fransuz hayoti» tahririyatsiga kirdi.

Xizmatchilar topshiriq kutib skameykada qo'l qovushtirgan-cha o'tirishar, minbarga o'xshagan kontorka ichida qorovul yangi kelgan pochtani ko'rmoqda edi. Bu yerga birinchi kelgan odamni tahririyatning suri bosardi. Xizmatchilar obro'li gazeta tahririyatsida bekorga ishlamayotganliklarini namoyishkorona ko'rsatib turishar, ularning yurish-turish, o'zlarini tutishlarida dimog'dorlik va kekaymachoqlik sezilar, ularning har biri ham eshikdan kirib keluvchini o'z ulug'vor salobati, muomalasi bilan hayratga solardi.

– Janob Valterni ko'rsam bo'ladimi? – so'radi Dyurua.

– Janob noshir kengash o'tkazyaptilar, – dedi qorovul. – Iltimos, kuting.

U odam bilan liq to'la qabulxonani ko'rsatdi.

Bu yerda ordenlar taqqan kattazang amaldorlar ham, ko'ylaklaridagi jug'rofiy xaritalar kabi dog'-dug'larni yashirish payida bo'lib syurtuklarining tugmalarini yoqasigacha qadab olgan bechorahol kishilar ham bor edi. Kutayotganlar ichida uchta xonim

ham o'tirishardi. Ularning biri tuzukkina bo'lib, labidan kulgi ari-
mas, yasan-tusan qilib olgan, aftidan, qichiq xotinlar toifasidan
edi. Uning yonida o'tirgan ayolning g'ussador yuzlarini ajin bos-
gan, kiyimlari oddiy, biroq ayni choqda ko'rkam, o'zi aktrisalarga
o'xshardi, turqi tarovatida allanechuk bir notabiiylik, o'tmish, ach-
chiq muhabbatning izlari bor edi, allanechuk o'tin bo'lib qolganiga
qaramay, o'zini hamon olma-o'rik qilib ko'rsatishga intilib turgan-
day edi.

Uchinchi xotin motam libosida bo'lib, butun qiyofasidan
beva-bechora ekanligi bilinib turardi. Nafaqa so'rab kelgan bo'lsa
kerak, deb o'yladi Dyurua.

Yigirma daqiqadan ko'p vaqt o'tgan bo'lishiga qaramay,
hamon qabuldan darak yo'q edi.

Birdan Dyuruaning kallasiga bir fikr keldi. U yana qorovulning
oldiga bordi.

– Janob Valter soat uchda, albatta, uchrashing deb tayinla-
gan edi, – dedi u. – Bir qarab ko'ring-chi, u yerda do'stim Foreste
yo'qmikin?

Uni shu zahoti uzun koridordan kattakon zalga olib o'tdi-
lar, bu yerda to'rtta janob keng yashil stolga o'tirib olib yozish
bilan mashg'ul edi. Foreste kamin oldi-da papiros chekib turar,
bilboke¹ o'ynamoqda edi. U yaxshi o'ynar va har safar sariq
shamshodan ishlangan kattakon sharni kichkina yog'och mixga
tushirar edi.

– Yigirma ikki, yigirma uch, yigirma to'rt, yigirma besh, –
sanab borardi u.

– Yigirma olti, – dedi Dyurua.

Foreste qo'llari bilan bir zaylda harakat qilishdan to'xtamay
unga qaradi.

– E, senmisan? Kecha men ketma-ket ellik yetti marta urdim.
Sen-Potendan keyin eng zo'r o'yinchi o'zimman bu yerda. Sen
xo'jayinga uchrashdingmi? Qari kalamush Norberning qanday
o'ynashini bir ko'rsang eding, kulaverib o'lib qolasan. U og'zini
katta qilib ochib oladi, xuddi sharni naq yutvoradi deysan.

Xodimlardan biri unga dedi:

¹ *Bilboke* – iring'itib o'ynaladigan soqqali o'yin.

– Menga qara, Foreste, qora daraxtdan ishlangan ajoyib bilbo-ke bor joyni bilaman. Aytishlaricha, u ispan qirolichasiniki ekan. Oltmish frankka sotmoqchi. Unchalik qimmat emas.

– Qayerdaykan? – soʻradi Foreste.

Oʻttiz yettinchi urishda nishonga tushirolmagach, u javonni ochdi. Dyurua javon ichida ajib kolleksivaning buyumlari kabi tartib bilan raqamlariga qarab terib qoʻyilgan yigirmatacha juda ham chiroyli sharlarni koʻrdi. Foreste qoʻlidagi sharni oʻz oʻmiga qoʻydi-da, yana qaytadan soʻradi:

– Aytgan antiqa narsangni qayerdan olsa boʻladi?

– Vodevilga bilet sotadigan chayqovchidan, – javob berdi jurnalist. – Agar istasang, ertaga olib kelishim mumkin.

– Olib kel. Yaxshi boʻlsa, olaman. Kerakli toshning ogʻiri yoʻq. Keyin u Dyuruaga qarab dedi:

– Qani yur, xoʻjayinning oldiga kirib chiqaylik, boʻlmasa, soat yettigacha oʻtiraverasan.

Qabulxonada hamma boyagicha holatda oʻtirardi. Yosh xotin bilan keksa aktrisa Foresteni koʻrib, shosha-pisha oʻrinlaridan turib uning oldiga kelishdi.

Foreste ularni birma-bir deraza oldiga olib borib gaplashdi, ular juda ham sekin shivirlashib turganlariga qaramay, Dyurua oʻz doʻsti har ikkala xotin bilan ham sensirab muomala qilayotganligini eshitdi.

Nihoyat, Foreste bilan Dyurua qoʻsh qavatli charm eshikdan noshirning kabinetiga kirib borishdi.

Kengash-pengash degani bekor ekan: bu yerda Dyurua kuni kecha koʻrgan, cheti yassi silindr kiygan janoblardan uch-toʻrtta kishi Valter bilan bir soatdan beri ekarte¹ oʻynab oʻtirishardi.

Noshir qoʻlidagi kartalarga diqqat bilan qarar, juda ehtiyotkorlik bilan oʻynar, sherigi esa uning aksi boʻlib, yengil rangdor kartalami ustalik bilan suzar, bosib tushar, aylantirar, bularning barini usta oʻyinchilar kabi chaqqon, tez, juda kelishtirib ado etardi. Norber de Varen noshirning oʻmiga oʻtirib olib maqola yozmoqda edi. Jak Rival esa divanga uzala tushib yotgancha, koʻzlarini qisib sigaret tutatardi.

¹ *Ekarte* – kartaning bir turi.

Kabinetning havosi dimiqqan, undan charm o'rindiqlar, achimsiq tamaki va tipografiya bo'yoqlarining ishlari anqirdi. Bu har bir jurnalistga yaxshi tanish tahririyatlarning o'ziga xos hidi edi.

Misdan o'ymakor ishlangan qora yog'och stol ustida xatlar, vizit qog'ozlari, hisob-kitoblar, jumallar, gazetalar, turli-tuman nashrlar g'aram bo'lib yotardi.

Foreste karta o'ynayotganlarning atrofini qurshab olib, o'zaro bahs boylashayotgan kishilar bilan indamay birma-bir ko'rishib chiqdi. O'zi ham o'yinni tomosha qila boshladi. Valter partiyanı yutishi bilan unga qarab dedi:

– Mana, do'stim Dyurua.

– Maqolani olib keldingizmi? – so'radi ko'zoynak ustidan yigitga yalt etib qaragan noshir. – Temimi qizig'ida urgan ma'qul, hali Morel qo'ygan masala yuzasidan muzokaralar davom etib turibdi.

Dyurua cho'ntagidan to'rt buklangan varaqlarni chiqardi.

– Mana, marhamat.

Xo'jayinning yuzidan mamnuniyat aks etdi.

– Yaxshi, yaxshi, – dedi kulib u. – Siz so'zingizda turar ekan-siz. Buni men ko'rishim kerakmi, Foreste?

– Hojati yo'q, janob Valter, – dedi shosha-pisha Foreste. – Biz u bilan birga yozdik. Qanday yozish kerakligini unga ko'rsatdim. Juda yaxshi maqola bo'ldi.

– Unda ko'p ma'qul ish bo'libdi, – dedi quruqqina qilib noshir so'l qanot deputati, baland bo'yli, oriqlanib suzayotgan kartalarni ochib ko'rar ekan.

Biroq Foreste Valter yangidan o'yinga tushib ketmasin deb, gapini aytib qoldi:

– Siz menga Dyuruani Maramboning o'rniga tayinlayman, degan edingiz, – egilib noshirning qulog'iga shipshidi. – Uni o'sha shart bilan ishga olishga ijozat berasizmi?

– Ha, albatta.

O'yin davom etdi, jurnalist do'stining qo'ltig'idan oldi, ular kabinetdan chiqa boshladilar.

Norber de Varen boshini ko'tarmadi: aftidan, u payqanagan yohud tanimagan edi. Jak Rival esa, aksincha, uning qo'llarini atayin qattiq qisib qo'ydi, uning bu harakatidan menga ishon, har qanday paytda ham yordamga tayyorman, degan ma'noni uqish mumkin edi.

Foreste bilan Dyurua qabulxonaga chiqqanlarida hammaning ko'zi ularga qadaldi, shunda jurnalist atay barchaga eshittirib yosh xotinga dedi:

– Noshir sizni tezda qabul qiladi. U byudjet komissiyasining ikki a'zosi bilan kengashyapti.

Keyin u shu zahoti go'yo o'zini davlat miqyosiga ega ishlar kutib turgan odamday tashvishli chehra bilan g'oz yurib o'tib ketdi.

Tahririyat zaliga kelgach, Foreste yana bilboke o'ynagani tushdi, o'yin orasida to'xtab-to'xtab so'zlay boshladi:

– Gap shunday: sen bu yerga har kuni soat uchda kelasan, men seni ma'lumot yig'ib kelishga jo'nataman, menga gap topib kelasan, kunduzimi, kechqurunmi, ertalabmi, ishqilib, aytilgan vaqtga. Bir! Senga politsiya idorasining birinchi bo'lim boshlig'iga ko'rsatish uchun xat qilib beraman. Ikki! U seni o'zining yordamchilaridan birining oldiga yuboradi: sen u bilan eng muhim ma'lumotlarni oladigan paytni kelishib olasan. Uch! Albatta, uning beradigan ma'lumotlari rasmiy, ba'zan esa g'ayirasmiy bo'ladi. Buning tafsilotlarini va boshqa mayda-chuyda gaplarni Sen-Potendan bilib olasan, u hammasini biladi. To'rt! Uni kutib tur, bo'lmasa, ertaga gaplashasan. Hammadan muhimi, men tayinlagan odamlardan kerakli gaplarni bilib olishga, bilmaguncha qo'ymaslikka o'rgan. Besh! Sen kirolmaydigan teshik, o'tolmaydigan eshik bo'lmasligi kerak. Olti! Buning evaziga sen oyiga ikki yuz frank maosh olasan, bundan tashqari, qiziqarli gap topib kelsang, yana har qatoriga ikki su haq to'lanadi. Yetti! Yana tahririyatning topshirig'i bilan turli mavzularda maqolalar yozib berasan. Ularga ham har bir qatoriga ikki su haq olasan. Sakkiz!

Keyin u butunlay o'yinga berilib ketdi va shoshilmay sanashda davom etdi:

– To'qqiz, o'n, o'n bir, o'n ikki, o'n uch... O'n to'rtinchida jurnalist xato qildi.

– Qurib ketsin, yana o'n uch! – to'ng'illadi u. – Yaramas raqam! U doim menga baxtsizlik keltirgani keltirgan. O'lsam ham o'n uchinchi sanada o'lsam kerak.

Xodimlardan biri ishini to'xtatib javondan o'z sharlarini oldi. Uning yoshi o'ttiz beshlarda edi, lekin jimitgina bo'yiga qarab uni yosh bola deb gumon qilish mumkin edi. Yana bir qancha jurna-

listlar kirishdi. ular ham bittadan bilboke olishdi. Endi olti kishi birdan o'ynay ketdilar. ular bir-birlari bilan yonma-yon turib devorga orqa o'girganlaricha yog'ochiga qarab qizil, sariq, qora sharlarni bir zaylda itqitar edilar. O'yin musobaqa tusini olgach, ikki xodim ishlarini tashlab, sudyalik qilishga tushdilar.

Foreste boshqalarga qaraganda o'n bir ochko oshiqcha urdi. Boyagi bolaga o'xshagan jimit odam yutqizdi. U yugurdakka qo'ng'iroq qildi, yugurdak kelgach, dedi:

– To'qqiz krujka pivo.

Ichimlik kelguncha yana o'yinni davom ettirdilar. Dyurua o'zining yangi kasbdoshlari bilan pivo ichgach, Forestedan so'radi:

– Endi nima qilishim kerak?

– Buguncha bo'shsan, – dedi Foreste. – Istasang, ketishing mumkin.

– Maqola... bizning maqolamiz... kechqurun ketadimi?

– Ha, korrekturani o'zim to'g'rilayman, tashvishlanma. Ertaga davomini tayyorlab qo'y va bugungiday soat uchga olib kel.

Dyurua xodimlarning hammasi bilan, garchi ularning ismlarini hali bilmasa ham, qo'l berib xayrlashdi. keyin baxtiyor holda yuragi quvonch bilan to'lib-toshib hashamatli zinadan pastga tushib ketdi.

IV

Jorj Dyurua tun bo'yi mijja qoqmay chiqdi: ertaga chiqadigan maqolasini o'ylab ko'z yummasdi. Kun yorishi bilanoq o'midan turdi, hali gazetchilar kioskadan kioskaga yugurib gazeta tashiydigan vaqt ham bo'lmasdan ko'chaga chiqdi.

U «Fransuz hayoti» hammadan burun kelsa kerak deb, Sen-Lazar vokzaliga qarab yurdi. Lekin hali juda barvaqt edi, vokzalga kelib yo'lkalarda kezindi.

Dyurua sotuvchi xotin oynaband do'konni ochganligini, keyin ikki buklangan gazetalarni dastlab boshida ko'targan odam paydo bo'lganligini ko'rdi. Dyurua uning oldiga chopib bordi, biroq bular «Figaro», «Jil Blaz», «Golua», «Kun yangiliklari» va yana boshqa bir qancha gazetalar bo'lib, ularning orasida «Fransuz hayoti» ko'rinmasdi.

Dyurua tashvishlanib qoldi. «Afrika o'qchisining xotiralari»ni ertaga qoldirgan bo'lsa-ya? Yana qariya Valter birdan aynab, maqolani o'tkazmay qo'ygan bo'lsa-ya?

Dyurua orqasiga qaytmoqchi bo'lib turganida birdan ko'zi gazetaga tushdi. Gazetani qachon keltirganlarini ko'rmay ham qolibdi. U kioska oldiga yugurgilagancha qaytib keldi-da, uch su to'lab gazeta oldi va darhol birinchi sahifaning sarlavhalariga ko'z yugurtirdi. Ko'rinmaydi-ku! Yuragi dukillab urib ketdi. U boshqa sahifani ochdi va ustunlardan birining tagida «Jorj Dyurua» deb quyuq terilgan harflarni ko'rdi. Yuragi hapriqib ketdi. Bosishibdi! Qanday yaxshi!

Shodlikdan uning boshi aylanar, shlyapasini chakkasiga qo'ndirgancha ketib borarkan, duch kelgan odamni to'xtatib. «Hoy, odamlar! Manovi gazetadan olinglar, ajoyib gazeta! Unda mening maqolam bosilgan», deb yuborgisi kelardi. U oqshom chog'lari bulvarlarda qichqirishgan kabi: «Fransuz hayoti»ni o'qinglar! Jorj Dyuruaning «Afrika o'qchisining xotiralari» maqolasini o'qimagani o'qisin!» deb jar solishni istardi. Birdan uning o'z maqolasini o'zi o'qigisi va ayniqsa, odamlarning ko'zi tushadigan biron kafe-safeda o'tirib o'qigisi keldi. U ertalab ochiladigan restoranlarni qidira boshladi. Shaharni ancha aylandi. Nihoyat, mayxonaga o'xshagan bir joy topdi, bu yerda ancha-muncha odamlar bor ekan. u stolchaga o'tirib, o'ziga rom chaqirdi. U absent chaqirishi ham hech gap emasdi, hozir qay vaqt ekanligini shunchalar unutgan edi.

– Garson, menga «Fransuz hayoti»ni bering! – qichqirdi u.

Oq etak tutgan garson yugurgilab keldi:

– Bizda siz so'ragan gazeta yo'q, afandim. Biz «Nido», «Asr», «Mash'al» va «Parij varaqasi»ni olamiz.

Dyuruaning jahli chiqib ketdi.

– E, qanaqa Xudo urgan joy o'zi bu! – dedi u g'azab bilan. – Yo'q, bo'lsa, menga tezda «Fransuz hayoti»ni keltirib bering.

Garson gazeta keltirib berdi. Qo'shni stollarda o'tirganlarni qiziqtirish, ularning diqqatini o'ziga tortish uchun Dyurua o'z maqolasini o'qirkan, damba-dam:

– Qoyil! Yashavor!– deb xitob qilib qo'yardi. Ketar ekan, u gazetani stol ustida qoldirdi. Kafe xo'jayini uni orqasidan chaqirdi.

– Afandim, hov, afandim, gazetangiz qoldi!

– Mayli, sizga qolaversin, men o'qib bo'ldim,– dedi Dyurua. – Juda qiziq bir maqola bosilgan ekan.

U qanaqa maqola ekanligini aytmadi, lekin keta turib xo'randalardan biri uning stolidagi gazetani olganligini ko'rdi.

«Endi nima qilsam ekan?» – deb o‘yladi Dyurua va idoraga borib bir oylik maoshini olib, ishdan bo‘shashini aytib kelishga qaror qildi. U boshlig‘i bilan kasbdoshlari qay ahvolga tushishlarini ko‘z o‘ngiga keltirib, quvonchdan qiyqirib yuboray, dedi. Ayniqsa, boshliqni bir boplayman, deb qo‘ydi u.

U ohista yurib borar, chunki kassa soat o‘nda ochilar, o‘ndan ilgari borishning foydasi yo‘q edi.

Idora qish bo‘yi gaz bilan isitilaverganidan qorayib ketgan kattakon bir xonadan iborat edi. Uning derazalari torgina hovliga qaragan bo‘lib, boshqa idoralarning derazalariga taqalib turardi. Shu xonaning o‘zida sakkiz xizmatchi ishlar, burchakda to‘siqning orqasida boshliq o‘rinbosari o‘tirar edi.

Dyurua hammadan burun kassining qutisida sariq konvertga solib qo‘yilgan bir yuz o‘n sakkiz frank yigirma besh santim mo‘yanasini cho‘ntagiga solib oldi-da, keyin mag‘rur qadam tashlab qanchadan-qancha kunlari o‘tgan katta xonaga kirdi.

Boshliq o‘rinbosari janob Potel unga to‘siq ortidan turib qichqirdi:

– E, keldingizmi, janob Dyurua? Boshliq sizni ko‘p so‘radi. Vrachning ruxsatisiz u ikki kundan ortiq kasal bo‘lishga ijozat etmaydi, bilasiz-ku.

Dyurua gapi hammaga eshitilarli bo‘lsin uchun xonaning o‘rtasida to‘xtadi. Keyin:

– Tupurdim men uning ijozat-pijozatiga! – dedi ovozi bilan ko‘tarib.

Xizmatchilar dong qotib qolishdi. To‘siq orqasidan janob Potelning qo‘rqib ketgan basharasi ko‘rindi. Bu to‘siqni u yelvizakdan saqlanish uchun qurdirib olgandi: bod kasali bor edi. Xodimlar ishini kuzatib turish uchun undan ikkita teshik ham yasatib olgandi.

Pashsha uchsa bilinadigan jimlik cho‘kdi.

– Nima dedingiz? – qo‘rqa-pisa so‘radi o‘rinbosar.

– Nima derdim, tupurdim dedim. Men bo‘shayman, deb keldim. Men «Fransuz hayoti» tahririyatsiga ishga kirdim, oyiga besh yuz frank haq to‘laydi, yozganingga yana boshqa haq beradi. Bugungi sonda mening maqolam bosilgan.

U gapni anchaga cho‘zmoqchi edi, lekin sabri chidamay hammasini birdaniga aytib yubordi.

G'olibo, uning gaplari yashinday ta'sir qildi. Hamma qotib, taxta bo'lib qoldi.

– Men hozir janob Pertyui bilan gaplashib chiqaman. – qo'shimcha qildi Dyurua, – keyin sizlar bilan xayrlashib ketaman.

U hali kirib ulgurmasdanoq boshliq unga qichqira ketdi:

– Ha, kelar ekansiz-ku, yaxshi yigit! Yo'l qo'ymayman bu naqaga, men...

– Ko'p dag'-dag'a qilavermang, kekirdagingiz uzilib ketadi, – dedi o'z boshlig'iga xizmatchi.

Xo'ppa semiz, xo'rozning tojisiday qip-qizil janob Pertyui kamoli hayratga tushib, tomog'ini qirib yo'talib qo'ydi.

– Bu hujra juda jonimga tegib ketdi, – deya davom etdi Dyurua, – bugun men birinchi marotaba jurnalistika sohasida qalam tebratdim. Yaxshi ish topdim. Xayr.

U shu so'zlarni aytdi-yu, chiqib ketdi. U qasdini oldi.

Dyurua idoraga qaytib, o'rtoqlarining qo'llarini siqib xayrlashdi, lekin hamkasblari boshliqning ko'ziga yomon ko'rinmaslik uchun gapni qisqa qilib qo'ya qoldilar. Ular yarim ochiq turgan eshikdan hamma bo'lib o'tgan gapni eshitgan edilar.

Dyurua cho'ntakda maosh – ko'chaga chiqdi. O'zi bir-ikki borgan, ovqatlari arzon va sifatli restoranga kirib yaxshilab qomini to'yg'izdi, «Fransuz hayoti»dan yana bitta sotib olgan edi, uni ham stol ustiga tashlab chiqdi. U bir qancha magazinlarga kirib, turli mayda-chuydalar xarid qildi. Unga bu narsalarning aytarli zarurati ham yo'q edi, lekin olingan buyumlarni uyga eltib berishlarini buyurib, ketidan «Jorj Dyurua» deb qo'yish unga o'zgacha bir rohat bag'ishlardi. U yana «Fransuz hayoti»ning xodimi, deb qo'shib ham qo'yardi.

Ayni choqda, u ko'cha va uyning nomerini aytar ekan, ta'kidlab shunday derdi:

– Qorovulga berib qo'ysangiz, bas.

Uning vaqti hali bermalol edi, Dyurua ishni birpasda qilib beradigan litografiyaga kirib, o'ziga yuztacha vizit qog'oz yasattirdi, qog'ozga familiyasini va yangi vazifasini yozdirdi.

Keyin tahririyatga yo'l oldi.

Foreste unga o'z xizmatchisiday qarab, kalondimog'lik bilan qarshi oldi.

– E. keldingmi? Juda soz. Senga bir qancha topshiriqlar bor. O'n daqiqacha kutib tur. Ishlarimni tugatib olay.

U xat yozishga tushdi.

Katta stolning narigi burchida rangi zahil, po'la, yuzlari xalta-xalta bo'lib qolgan, tuk qolmagan oppoq boshi yiltirab turgan pak-pakana bir odam o'tirib (ko'zi olisni yaxshi ko'rmasa kerak), tumshug'ini qog'ozga tiragancha nimanidir yozmoqda edi.

– Menga qara, Sen-Poten, – dedi unga Foreste, – sen qachon intervyu olgani borasan?

– Soat to'rtida.

– O'zing bilan birga manovi yigitchani ham ola ket, unga huningning sirlarini o'rgatib qo'y.

– Xo'p bo'ladi.

– Jazoir haqidagi maqolaning davomini olib keldingmi? – so'radi o'rtog'idan Foreste. – Boshi ancha tuzuk bo'ldi.

– Yo'q, – dedi gangib Dyurua, – men unga ertalab o'tirmoqchi edim... lekin ishlarim shunchalar ko'payib ketdiki, hech ulgurolmadim...

Foreste norozi bo'lib yelkasini qisdi.

– Bunaqada ishingni mazasi bo'lmaydi. Qariya Valter sening materialingni kutib o'tirgan edi. Men unga maqola ertaga tayyor bo'lar ekan, deb aytaman. Agar sen qo'lm sovuq suvga urmay mo'may pul topaman, deb o'ylayotgan bo'lsang, xato qilasan.

Biroz jimlikdan so'ng u dedi:

– Jin ursin, temirni qizig'ida bosish kerak.

Sen-Poten o'rmidan turdi.

– Men bo'ldim, – dedi u.

Foreste topshiriq berishdan oldin kresloga yastanib olib, o'zi-cha tantanavor tus berdi.

– Xo'sh, – dedi nihoyat u Dyuruaga ko'z tashlab. – Ikki kun burun Parijga Xitoy generali Li Chan-fu bilan roja Tapo sohib Ramaderao Pali kelishgan. General «Kontinental»ga, roja «Bristol» mehmonxonasiga tushishgan. Ikkovingiz ulardan intervyu olishingiz kerak.

Keyin u Sen-Potenga o'girildi.

– Men senga aytgan asosiy gaplar esingdan chiqmasin. General bilan rojadan Angliyaning Uzoq Sharqdagi g'alamisliklari,

mustamlaka qilish va ularni boshqarish yo'llari, idora usullari haqida so'ra. Ular Yevropaning, xususan, Fransiyaning aralashuviga umid bog'laydilar, yo'qmi, bilib ol.

– Gazetxonlarimiz Hindiston bilan Xitoyning hozirda ijtimoiy fikrni to'liqlantirib turgan masalalarga munosabatlari qanday ekanligini bilishga juda qiziqadilar, – deb qo'ydi u biroz sukutdan so'ng xuddi o'ziga-o'zi gapirganday.

Keyin yana Dyuruaga qarab dedi:

– Sen-Potenning qanday ishlashini yaxshilab kuzat. U juda o'tkir reportyor. Ana-mana deguncha istagan odamingni avra-astarini ag'darib tashlaydi.

Keyin u yana gerdayib yozishga tutindi. Bir paytlar bir polkda xizmat qilishgan o'rtog'iga, hozirda esa qo'l ostidagi xodimga u sen o'z o'mingni bilib ol, chegaradan chiqib ketma, o'ramizda yer bilan osmoncha farq bor, demoqchi bo'ldi shekilli, bu muomalasi bilan.

Ular eshikdan ko'chaga chiqishgan zamon Sen-Poten Dyuruaga kula-kula dedi:

– Voy, qiyshiq-ey! Bizga ham dimoq-firoq qiladi-ya. Ichida bizni ham gazeta o'quvchisi deb o'ylasa kerak.

Ular xiyobondan yurib ketdilar.

– Biron narsa ichmaymizmi? – so'radi reportyor.

– Jonim bilan. Issiqni qarang!

Kafega kirib, muzdek ichimlik so'rashdi. Shunda Sen-Potenning tili yechildi. Tahririyat ishlari, odamlari, bordi-keldilari haqida tinmay javrashiga qaraganda, u haddan tashqari ko'p narsalardan xabardor edi.

– Xo'jayinmi? – dedi u. – G'irt yahudiy! Ming uringaning bilan yahudiyni boshqacha qilib bo'lmaydi. Odam bo'ldi-yu, bular ham!

Sen-Poten Valter xasis odam deb, bir qancha voqealarni aytib berdi, bani Isroil farzandlarining hammasi bir go'r, bir tiyin ustida qaltiraydi, o'larday savdolashadi, ozgina kamaytiring, deb yalinaladi, kezi kelganda sudxo'rlik qilib foyda undiradi, dedi.

– Shunga qaramay, u juda dilkash odam, hech narsaga ishonmaydi, hammani laqillatib burniga qarmoq solib yuradi. Uning chiqarayotgan gazetasi hammabop, rasmiy desangiz, ras-

miy, katolik desangiz, katolik, liberallarga liberal, jumhuriyatchilarga jumhuriyatchi, ya'ni nima desangiz shu. Uning gazetasi qatma-qat qilib pishirilgan pirogga o'xshaydi. Bu do'kon unga birja operatsiyalari va boshqa katta ishlarni yuritishda qulay yordamchi, vosita, xolos. Foyda olishga u juda ustasi farang bo'lib ketgan, aksioner jamiyatlar orqali millionlab foyda undiradi, jamiyatning o'zida esa, tiyin ham bo'lmaydi...

Sen-Poten tinmay valaqlar, Dyuruaga «qimmatli do'stim», deb murojaat qilardi.

– Shunisi ham borki, bu qurumsoqning og'zidan ba'zan balzakona iboralar ham chiqib turadi. Men, eski qumg'on Norber va zamonamizning Don-Kixoti – Rival bir kuni uning kabinetida o'tirgan edik, bizning boshqaruvchimiz Montlen o'zining butun Parijga mashhur saxtiyon portfelini ko'tarib kirib qoldi. Valter unga qarab: «Qanday yangiliklar bor?» – deb so'radi. Montlen soddadillik bilan: «Hozirgina qog'ozdan qarzimiz o'n olti ming frankni to'lab keldim», – dedi. Xo'jayin o'rnidan bir sakrab tushdi. «Nima dedingiz?» «Men janob Privaga qarzimizni to'ladim». «Siz jinni bo'lib qolibsiz!» – «Nega?» «Nega... nega... nega?...» Valter ko'zidan oynagini olib, shishasini artdi-da, mug'ombirona jilmayib qo'ydi, u achchiq yoki bironta o'tkir gap aytmoqchi bo'lsa, semiz jag'larini ochib mana shunday kuladi. Kenin xuddi masxara qilayotganday gap qaytarib bo'lmaydigan ohangda dedi: «Nega? Negaki, biz bunda to'rt ming, ehtimolki, besh ming frank kamroq to'lashimiz, ular bizga narxini sal tashlab berishlari mumkin edi». Montlen hayron bo'ldi: «Qanday qilib, janob Valter, axir, hamma hisob-kitobimiz tayin-ku, o'zim tekshirib chiqqanman, sizga ko'rsatganman...» Shunda xo'jayin jiddiy turib dedi: «Juda sodda ekansiz. Shuni esingizda tutingki, janob Montlen, avval qarzlarni ko'paytirish kerak undan keyin qashlab-qashlab keli-shish kerak».

Sen-Poten boshini ko'tarib, bilag'on odamday qo'shimcha qildi:

– Qalay? Balzakdan nimasi kam?

Dyurua, garchi Balzakni o'qimagan bo'lsa ham, ishonch bilan tasdiqladi:

– Xuddi o'zi!

Reportyor, Valter xonimni semiz g'ulg'ultovuq, deb. Norber de Varenni chipqon yara. Rivalni – Farvakning chala nusxasi deb atadi. Keyin yana Forestega ko'chdi:

– Xotindan omadi bor ekan qistaloqning.

– Xotini o'zi qanaqa?

– O, unga taraf yo'q. Juda nozik xilqat! – qo'llarini ishqagan-cha dedi Sen-Poten. – U Vodrek degan toychaning, graf de Vodrekning o'ynashi. De Vodrek unga sep qilib berib erga uzatgan...

Birdan Dyuruaning eti jimirlab ketdi, badanida qaltiroq turdi, bu mahmadonani so'kib yuborgisi, og'ziga qarab solgisi keldi. Lekin gapni boshqa yoqqa chalg'itdi:

– Sen-Poten sizning chinakam familiyangizmi?

– Yo'q, mening nomim Toma, – soddalik bilan javob berdi u. – Sen-Poten deb menga tahririyatda nom qo'yishgan.

– Vaqtimiz bo'lib qoldi, shekilli, – dedi ichkilikning pulini to'lar-kan Dyurua, – biz hali ikki kishi bilan uchrashishimiz kerak-ku.

Sen-Poten xaxolab kulib yubordi:

– Yangi odam ekanligingiz darrov bilindi! Siz chindan ham meni hind bilan xitoyning oldiga borib, Angliya haqida fikringiz qanday, deb so'rab o'tiradi, deysizmi? Be, men «Fransuz hayoti»ning gazetxonlariga yoqish uchun ular nima deyishlarini ularning o'zlaridan ko'ra ham yaxshiroq bilaman. Men shu kungacha bunaqa xitoy, fors, hindi, chili, yaponlardan besh yuztasidan intervyu olganman. Menimcha, ularning hammasi bir xil gapni aytadi.

Shunday bo'lgach, o'zimning bulardan oldin kelgan mehmonlar haqidagi maqolamni olaman-da, uni so'zma-so'z ko'chirib chiqaman. Faqat sarlavhani, nomi, unvoni, yoshi, atrofidagi odamlarning nomlarini o'zgartiraman, xolos. Xuddi mana shunda ehtiyot bo'lish kerak. Bo'lmasa, «Figaro» yoki «Golua» yolg'onchi deb urib qoladi. Biroq, men bunaqa gaplarni «Kontinental» va «Bristol»ning shveysarlaridan besh daqiqada to'la-to'kis bilib olaman. Biz u yerga bittadan sigaret chekib, yayov yurib boramiz. Tahririyatdan esa yo'l haqiga besh frankdan undiramiz. Mana shunaqa, qimmatli do'stim, uddaburon odamlar bilan yursangiz, os-hig'ingiz doim olchi bo'ladi.

– Bundan chiqdi reportyor bo'lish yaxshi ekan-da?– so'radi Dyurua.

– To‘g‘ri, lekin eng yaxshisi – xronika, bu – pardalangan reklama, – dedi sirli qilib Sen-Poten.

Ular o‘rinlaridan turishdi va bulvarlardan Madlen ibodatxonasi tomonga qarab yurishdi.

– Menga qarang, – dedi to‘sindan Sen-Poten, – agar boshqa zarur ishlaringiz bo‘lsa, sizni ovora qilib o‘tirmayman.

Dyurua uning qo‘lini siqib xayrlashdi.

Uni kechqurun yozaman, deb qo‘ygan maqola qattiq tashvishga solmoqda edi, yo‘l-yo‘lakay nimani yozsam ekan, deb o‘ylanib bordi. U allaqancha latifalarni esladi, ko‘rganlari, kuzatganlari va fikrlarini bir yerga jamlashga, xulosalar chiqarishga harakat qilib ko‘rdi, shu tariqa Yelisey maydoniga yetganini ham sezmad, bu yerda sayr qiluvchilar siyrak edi, voqean, issiq avjga mingan kunlar Parij huvillab, bo‘shab qoladi.

Dyurua Etual maydonidagi Zafar arki oldida joylashgan mayxonaga kirib ovqatlandi, keyin tashqi bulvarlar halqasidan aylanib o‘tib, uyiga keldi, yozgani o‘tirdi.

Biroq oldida katta oppoq varaq paydo bo‘lishi bilanoq birdan kallasi bo‘m-bo‘sh bo‘lib qoldi, miyasi xuddi parlanib ketganday edi. U voqealarni uzuq-yuluq xotirlar, ularni miyasida saqlab qolishga urinar, lekin endi tartibga solib qog‘ozga tushirmoqchi bo‘lganda yana hammasi chap berib qochar, ko‘z o‘ngidan hamma narsa lip etib o‘tib, yana g‘oyib bo‘lardi, ularni qanday qilib ushlab olish, qay tarzda qog‘ozga tushirish, nimadan boshlashni bilolmay boshi garang bo‘lardi.

Bir soatcha o‘tirib, besh varaq qog‘ozni birinchi jumlaning turli variantlari bilan to‘ldirib tashlagach, u o‘ziga o‘zi: «Hali qo‘lim qalamga o‘rganmabdi. Yana bitta dars olishga to‘g‘ri keladi», dedi. U Foreste xonim bilan yolg‘iz qolib qanday birga ishlashini, u bilan uzoq o‘tirib sirli suhbat qurishni o‘ylab, buni ko‘z oldiga keltirib, yuragi sabrsiz qaltiroq, hayajonga to‘ldi. Yana maqolaga o‘tirs, birdan ish yurishib ketishidan cho‘chigan Dyurua apil-tapil to‘shakka yotdi.

Ertalab u Foreste xonim bilan bo‘ladigan shirin visol damlarini o‘ylab anchagacha o‘midan turmadi, bu damlar qancha uzoq cho‘zilsa, shuncha shirin bo‘ladiganday edi.

U tanish eshik oldiga kelib, qo'ng'iroq tugmasini bosganda soat o'n bir bo'lib qolgan edi.

– Janob Foreste bandlar, – dedi xizmatkor.

Dyurua eri uyda bo'lishi mumkin-ku, deb o'ylamagan ekan.

Shunday bo'lsa ham, u yana qaytanib aytishga majbur bo'ldi:

– Ayting, unda zarur ishim bor.

Besh daqiqadan keyin u kechagina ajoyib damlarni boshidan kechirgan o'sha xonaga kirdi.

Xalat, shippak kichkina ingliz qalpoqchasi kiygan jurnalist kecha Dyurua o'tirgan kresloga cho'kib nimadir yozar, Foreste xonim bo'lsa, o'sha-o'sha oq penyuarda kaminga tirsagi bilan suyanib, og'ziga papiros qistirib olgan, eriga nimalarnidir aytib yozdirmoqdaydi.

Dyurua ichkariga kirmay to'xtadi.

– Ma'zur ko'ringiz, men xalal berdim chog'i?

Foreste unga yeb yuborguday bo'lib qaradi.

– Nima deysan yana? – xushlamay dedi u. – Tezroq bo'l, vaqtimiz yo'q.

– Yo'q, mayli, kechir, – qimtindi Dyurua.

Foreste yonib ketdi.

– Gapirsang-chi, nega cho'zasan?! Bir qulluq qilib chiqay deb, eshik turmini buzmagandirsan, axir?

– Undaymas... – dedi o'zini biroz o'nglab olgan Dyurua. – Bilasanmi, maqola yana yaxshi chiqmay qiynab turibdi... sen... sizlar o'tgan safar... qilgan yaxshiliklaringiz... umid qiluvdimki... kelganimning boisi...

– Nima, bizni masxara qilmoqchimisiz? – uning gapini cho'rt kesdi Foreste. – O'z o'zingga meni ishlatib kun ko'rmoqchisan, shekilli. Topibsan rosa ahmog'ingni!

Foreste xonim jimgina papirosini tutatar, g'alati qilib jilmayar, nazokatli tabassumi tagida istehzo yashirinib yotganday edi.

– Uzr, uzr... o'ylovdimki... xomkalla... – qip-qizarib dedi Dyurua, keyin to'sindan ravshan qilib gapirdi: Meni kechirishingizni o'tinib so'rayman, xonim, kecha menga yozib bergan maqolangiz uchun yana bir karra rahmat.

U ta'zim qildi. Sharlga qarab dedi:

– Soat uchda tahririyatda bo‘laman.

Chiqib ketdi.

Uyga qarab shitob bilan ketib borarkan, o‘ziga-o‘zi ming‘irlab: «Mayli, hozir o‘zimiz yozib tashlaymiz, ko‘rarsiz hali...» – derdi.

Jahl ustida xonasiga kirib borgan Dyurua shu zahoti ishga o‘tirdi.

U Foreste xonim chizgan voqea chizig‘idan borib, bulvar romanlardan o‘zlashtirilgan tafsilotlar, aql bovar qilmaydigan hodisalar, chuchmal, xashaki tasvirlarni bir-biriga qalashtirib tashladi, uning tili maktab bolasiniki kabi to‘mtoq, ayni choqda unter-ofitserning jargonlari bilan liq to‘la edi. Bir soat ichida u maqolani bitkazdi va hosil bo‘lgan bo‘tqani tahririyatga ko‘tarib jo‘nadi.

Bu yerda birinchi ko‘ziga tushgan odam Sen-Poten bo‘ldi. U Dyuruaning qo‘lini mahkam siqib, xuddi sirdosh odamday:

– Hindi bilan xitoydan olgan suhbatimni o‘qidingizmi? – deb so‘radi. – Qiziq ekanmi, a? Butun Parij maqoladan xursand. Men bo‘lsam, ularni hatto ko‘rganim ham yo‘q.

Dyurua hali gazetani ko‘rib ulgurmagandi, u darrov gazetani olib, «Hindiston va Xitoy» deb atalgan uzun maqolani ko‘zdan kechira boshladi, Sen-Poten esa unga qo‘li bilan eng qiziq joylarini ko‘rsatib turdi.

Ishchan, tashvishli bir chehra bilan harsillagancha Foreste kirib keldi.

– Shu yerdamisizlar? Ayni muddao. Menga ikkovingiz kerak bo‘lasiz.

Keyin ularga o‘ziga qandaydir siyosiy tusdagi ma‘lumotlar kerakligini, ularni kechgacha topib kelishlari zarurligini tushuntirdi.

Dyurua unga qo‘lyozmasini uzatdi.

– Jazoir haqidagi maqolaning davomi.

– Juda yaxshi, qani, qani, men xo‘jayinga ko‘rsataman.

Shu bilan gap tugadi.

Sen-Poten yangi hamkasaba do‘stini olib ketdi, koridorga chiqqanlarida u so‘radi:

– Kassaga kirdingizmi?

– Yo‘q. Nimaga?

– Nimaga bo‘lardi. Pul olishga. Moyanani bir oy burun olib qo‘ygan ma‘qul. Odam ertaga nima bo‘lishini bilmaydi.

– Xayr, nima ham derdik mayli...

– Sizni kassir bilan tanishtirib qo'yaman. Tixirlik qilib o'tirmaydi. Yaxshi haq to'lashadi.

Dyurua ikki yuz frank oylik va kechagi maqola uchun yigirma sakkiz frank oldi, – boya idora bergan pulning qolgan-qutgani bilan hammasi bo'lib uch yuz qirq frankka yetdi.

U qo'lga hech qachon bunchalar ko'p pul ushlamagan edi, nazarda, bu boylikni yeb-ichib sarflab ado qilib bo'lmaydiganday edi.

Sen-Poten menga kerakli ma'lumotlarni boshqalar oldinroq qo'lga kiritishgan bo'lsa ajab emas, so'rab-surishtirib, miyalarini qo'llariga qoqishtirib berib, hammasini ulardan oppa-oson bilib olaman deb, Dyuruani bir-biriga o'xshamagan turlicha gazetalarining tahririyatlariga boshladi.

Dyurua kechga borib ishni bitirdi, keyin Foli-Berjerga borgisi kelib qoldi. Amallab kirib olarman degan xayolda to'g'ri kontrol-yorga qarab yurdi:

– Men «Fransuz hayoti» tahririyatsidan keldim. Jorj Dyurua bo'laman. Yaqinda men bu yerga janob Foreste bilan kelgan edim, u menga ruxsatnoma olib beraman, degandi. Ishqilib, unutmagan bo'lsin-da.

Ro'yxatga qarashdi. Uning familiyasi ko'rinmadi. Shunga qaramay nazoratchilar iltifot bilan uni kiritib yuborishdi.

– Mayli, kiravering, afandim, – dedi nazoratchi, – faqat shaxsan direktorning o'ziga uchrashing. U, albatta, sizga yo'q demaydi.

Jorj Dyurua kirgan zamon Rashelni ko'rdi – bu o'tgan safar u bilan birga ketgan o'sha xotin edi.

Xotin uning oldiga keldi.

– Salom, jonim. Yaxshimisiz?

– Juda yaxshi. O'zing-chi?

– Yomon emas. Bilasanmi, seni ikki marta tushimda ko'rdim.

Dyurua taltayib ketdi.

– Oh, oh! Buning sababi nimada ekan, a? – so'radi u iljay-gancha.

– Sababi shuki, jinnivoy, sen menga juda yoqasan, qachon istasang, yana birga bo'lishim mumkin.

– Xo'p, desang, bugun.

– Jon-jon deymen.

– Bo‘pti, lekin bilasanmi?..

Dyurua yamlanib qoldi, aytay desa andak uyalib turardi.

– Gap shundaki, pulning mazasi yo‘qroq: klubga boruvdim, yutqizib, qip-yalang‘och bo‘lib qoldim.

Erkaklarning bunaqa paytlarda qurumsoqligi tutadigan odatlarini yaxshi bilgan tajribakor xotin uning yolg‘on gapirayotganligini sezdi, ko‘zlariga tik boqdi.

– Voy, yolg‘onchi-cy! – dedi u. – Menga bunday deyishing yaxshimas.

Dyurua uyalib jilmaydi:

– Bor-yo‘g‘i o‘n frank pulim bor, xo‘p desang, olaqol.

Xotin tantiq, lekin tama qilmay shipshidi:

– Jonginam, baribir, seni deymen.

Rashel uning murtlariga havaslanib boqarkan, sevganini topib olganday erkanib uning qo‘llariga osildi.

– Oldin suv ichaylik – dedi u. – Keyin ozgina aylanamiz. Sen bilan juda teatrqa borgim keladi, odamlarga, mana mening qandoq yigitim bor, deb ko‘z-ko‘z qilishni istayman. Saldan keyin menikiga boramiz, xo‘pmi?

Dyurua unikida uzoq qolib ketdi. U yerdan chiqqanda tong yorishgandi, darrov «Fransuz hayoti»ni olish kerakligi esiga tushdi. Qo‘llari hayajondan titrab gazetani ochdi – maqola yo‘q edi. U maqola bordir deb, gazetaga ko‘z yugurtirgancha yo‘lkada uzoq vaqt qolib ketdi.

Birdan og‘ir tosh osilganday ko‘kragi sirqirab ketdi. U kechasi bilan uxlamay toliqqan, buning ustiga manovi dilxiralik qo‘shilib ko‘nglini butkul vayron etgandi, u o‘zini baxtsiz, deb his qildi.

Uyiga kelib, yechinib ham o‘tirmay o‘zini o‘ringa tashlab, uxlab qoldi.

Bir necha soatdan so‘ng u tahririyatga kelib noshiming kabinetiga kirdi.

– Bugungi sonda mening Jazoir haqidagi ikkinchi maqolam chiqmabdi. Janob Valter, men juda hayron bo‘lib qoldim.

Noshir boshini ko‘tarib, quruqqina qilib dedi:

– Men do‘stingiz Forestega maqolani ko‘rib chiqishini aytdim. U maqoladan qoniqmadi. Qaytadan ishlang.

Dyuruaning jon-poni chiqib ketdi: u xonadan indamay chiqdi-da, borib Forestega yopishdi:

– Nega bugun mening maqolamni chiqarmading? Jurnal kresloga yastanib olgancha, oyoqlarini stol ustidagi oʻz qoʻlyozmasiga qoʻyib papiros chekib oʻtirgan ekan. U yuzini burishtirdi, goʻyo hech narsa boʻlmaganday yer qatidan kelayotganga oʻxshash boʻgʻiq ovoz bilan dona-dona qilib dedi:

– Xoʻjayin uni yaramaydi, deb aytdi. Boshqatdan ishlasin deb, menga qaytarib berdi. Mana, ol.

U press-pape tagida yotgan qoʻlyozmani koʻrsatdi.

Dyurua kamoli xafa boʻlganidan nima deyishini bilmay qoldi, u qoʻlyozmani olib, choʻntagiga tiqdi. Foreste esa davom etdi:

– Bu yerdan chiqib toʻgʻri prefekturaga borasan...

U kirib chiqish zarur boʻlgan yana bir qancha joylarning nomini aytdi, oʻziga bugun kerak boʻladigan maʼlumotlarni sanab berdi. Dyurua Foresteni nima deb chandib olishini bilmay, dami ichida, indamay chiqib ketdi.

Ertasiga u yana maqolani olib keldi, uni yana qaytarib berishdi. Maqolani uchinchi marta ham qayta ishlab oʻtkazolmagandan keyin, u shoshilganini, bu yoʻldan faqat Forestening etagida yurgan taqdiridagina kosasi oqarajagini angladi.

U «Afrika oʻqchisining xotiralari» haqida boshqa churq etib ogʻiz ochmadi, bundan keyin ehtiyotkorroq boʻlish kerak ekan, deb diliga tugib qoʻydi, kelajakda bir narsaga erishaman desang, hozircha oʻzingning reportyorlik vazifalaringni gʻayrat bilan ado etishing zarur, dedi u oʻziga-oʻzi.

U teatr va siyosatning ichiga kirib bordi, deputatlar palatasi-ning sirlarini oʻrgandi, davlat arboblarning qabulxonalarida boʻldi, muhim topshiriqlarni bajaradigan amaldorlarning turqi tarovatlariga sinchiklab razm soldi, badqovoq, uyqu bosgan shveytsarlar bilan oson til topdi.

U Vazirlar, qorovullar, generallar, aygʻoqchilar, knyazlar, xotinbozlar, ermak xotinlar, elchilar, yepiskoplar, qoʻshmachilar, nomdor muttahamlar, jamiyat odamlari, izvoshchilar, ofitsantlar, firibgarlar bilan muomalada boʻlar, ularga oʻzini doʻst tutar, ichidagini sirtiga chiqarmasdi. Yuragining tubida esa ularga

sovuqqonlik bilan qarar, ularning har biri bilan kun sayin, soat sayin uchrashib, o'ziga kerakli gaplarni bilib olar, ayni choqda hammasini tarozining bitta pallasiga qo'yib tortar, bir xil ko'z bilan qarar, nazarida ular bir-birlaridan farq qilmaydiganday, hammasi bir go'r edi. O'zini esa turli vinolarni ichib ko'rishga majbur bo'lgan va oxirida shatomargoni arjanteyl¹dan ajratolmay qolgan odamga o'xshatardi.

Qisqa muddatda u o'z axborotining aniqligiga zarracha shubha qoldirmaydigan ajoyib muxbir bo'lib yetishdi, uning zehni o'tkir-lashdi, epchil, chapdast bu odam shu tariqa gazeta uchun chinakam xazinaga aylandi. Illo, xodimlarni besh qo'lday biladigan qariya Valter uni shunday deb atar edi.

Shunga qaramasdan u hamon har qatoriga o'n santim olar, maoshi ikki yuz frankdan oshmagan edi, kafe, restoranlar juda qimmatga tushganligidan u muttasil pulsiz qolar, yo'qchilikdan dali dunyosi qorong'i bo'lib ketardi.

U ba'zi bir hamkasblarining cho'ntaklari doimo tilla bilan qappayib yurishini ko'rib: «Buning siri qayerda ekan?» – deb o'ylar, ularning qanday yo'l bilan to'q, farovon yashayotganlari ustida bosh qotirar, lekin kalavaning uchini topolmas edi. Uning ich-etini g'ashlik kemirib borar, nazarida qandaydir odam tusiga kirib ketgan g'ayriqonuniy, shubhali ishlar bo'layotganga o'xshar, qo'lning kirini qo'l yuvadi zaylida sizdan ugina, bizdan bugina qilishib, bir-birlarining cho'ntaklarini to'ldirishib yurishgandir, degan xayolga borar, bularning baridan quruq qolayotgan kabi kuyib o'rtanardi. Yo'q, bunaqasi ketmaydi, qanday bo'lmasin u siming tagiga yetishi kerak. Ular bilan imi-jimida til biriktirishi, o'ljani bo'lishni istamayotganlarni nari-beri surib qo'yishi kerak.

Oqshomlari derazadan turib o'tib borayotgan poyezdlarni tomosha qilar ekan, u uzoq rejalar tuzadigan bo'lib qoldi.

V

Ikki oy o'tdi. Sentyabr yaqinlashib qoldi, lekin Dyurua orzu qilgan shuhratning toji hali qorasini ko'rsatganicha yo'q edi. Uni hali ko'pchilik tan olmagan, bu uning izzat-nafsiga qattiq tegar, lekin

¹ *Shatomargo, arjanteyl* – may turlari

u o'zini hayotining yuksak cho'qqilariga ko'tarishi kerak bo'lgan yo'lni topolmay turardi. O'ziga o'zi qo'ldan oddiy muxbirlikdan boshqa ish kelmaydigan noshudgina odam bo'lib ko'rinardi. Uni qadrlashar, lekin mensishmas edilar. O'lib-tirilib xizmatini qilishga qaramay, hatto Foreste ham uni boshqa biron marta ziyofatga taklif qilmadi, ular hamon sensirashib gaplashishar, lekin Foreste unga o'z xodimi debgina qarardi.

To'g'ri, Dyurua maqola chiqarish imkoniyati tug'ilganda, ora-sira qo'ldan bermasdi. Xabarlar yozaverib, qalami charxlandi. Jazoir haqidagi ikkinchi maqolani yozgan kezlari yetishmagan narsalarning bariga endi erishdi, u hozir maqolalarim chiqmay qolsa-ya, deb qayg'urib o'tirmas, ularning yaxshiligiga ishonardi. Lekin xabar yozish boshqa-yu, xayolga keng o'rin berish mumkin bo'lgan ocherk yoki bilag'on odam tomonidan yozilgan siyosiy maqola boshqa. Oddiy aravakashning Bulon o'rmonida ot haydab borishi bilan shu otlarning sohibi bo'lib, ularni boshqarish o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Uni hammadan ham yuqori doiralarning eshiklari o'zi uchun yopiqligi g'oyat azobga solar, shundan o'ziga o'zi parixta, qadr-qimmatini yo'q odamga o'xshab ko'rinar edi. Hech kim uni o'ziga teng ko'rmas, xotinlardan ham tuzuk tanish-bilishlari yo'q edi. Faqat ahyon-ahyonda taniqli aktrisalar nimadandir umidvor bo'lib uni bemalol qabul qilar edilar.

U o'z tajribasidan barcha dongdor kibor xotinlar-u uchinchi darajali aktrisalarining hammasi uni ko'rganda boshqacha bo'lib ketishlarini bilar, ularni bir zumda o'zimga og'dirib ola bilaman, deb o'y-lardi. Shuning uchun Dyurua tushovlangan tulporday nurli cho'qqilar tomon eltadigan go'zal xonim sari intilar edi.

U Foreste xonimning huzuriga yana borgisi kelar, biroq o'tgan safar borganda tahqirlangani esidan chiqmagan, shu uni tutib turardi, bundan tashqari, eri taklif qilsa, boraman, deb kutardi. Nihoyat, u de Marel xonimni esladi, u keling, deb taklif qilgandi, shuning uchun ham bir kuni bo'sh paytini topib, kunduzi xonimnikiga bordi.

«Soat uchgacha doim uyda bo'laman», degandi de Marel xonim o'shanda.

Dyurua soat ikki yarimda eshik tugmasini bosdi.

Xonim Verney ko'chasida, beshinchi qavatda turarkan.

Unga navjuvon. sochlari to'zg'igan xizmatkor qiz peshvoz chiqdi, u boshiga ilgan qalpoqchasini to'g'rilarkan, dedi:

– De Marel xonim uydalar, faqat turdilarmi, yo'qmi, bilmayman.

U shunday deb, mehmonxonaga kiriladigan yarim ochiq eshikni ochdi.

Dyurua kirdi. Xona ancha keng, jihozsizroq, yaxshi yig'ishtirilmagan edi. Devor yoqalab eski, ranglari to'zib qolgan kreslolar qator qo'yilgandi, aftidan, xizmatkor qizning o'zi o'z didi bilan shunday qilganga o'xshar, voqean, uyda saranjom-sarishta ayolning chevar va mehribon qo'li sezilmas edi. To'rtta nochorgina surat chizimchalarga baland-past qilib osib qo'yilgan, ularda daryoda suzib borayotgan qayiq, dengizdagi kema, daladagi tegirmon va o'rmonzorda daraxt kesuvchi tasvirlangandi. Ularning osib qo'yilganiga necha zamonlar bo'lgani va uy bekasi ularga qaramay qo'ygani ko'rinib turardi.

Dyurua o'tirib kuta boshladi. Ancha kutishga to'g'ri keldi. Nihoyat, eshik ochilib, chopqillagancha de Marel xonim kirib keldi, uning egnida pushti kimono, kimonoga tilla ip bilan manzaralar tushirilgan, manzaralar ichida moviy gullar va oppoq qushlar tasvirlangandi.

– Buni qarang, hali o'rimdan turmagan edim, – dedi u. – Ko'rgani kelibsiz, qanday yaxshi. Meni unutib yuborgansiz, deb o'ylagandim.

U gul-gul yashnagan chehra bilan Dyuruaga ikkala qo'lini uzatdi, shunda Dyurua bu kamsuqumgina xonada o'zini ancha erkin his qildi va xonimning qo'llarini olib, xuddi bir vaqtlar Norber de Varen qilgandek bittasini o'pdi.

De Marel xonim uni o'tqazdi.

– Judayam o'zgarib ketibsiz! – xitob qildi xonim Dyuruaga boshdan-oyoq razm solib chiqarkan. – Rang-ro'yingiz yaxshi. Parij yoqibdi sizga. Qani, endi yangiliklardan gapirib bering.

Shundan keyin ular xuddi qadrdonlarday undan-bundan gaplashib o'tirdilar, ikkalasi ham kutilmaganda oralarida tug'ilgan oddiy, samimiy munosabatdan lazzatlanishar, yuraklarida bir-birlariga tobora yaqinlik tuyib oralarida o'zaro ishonch paydo bo'layotganidan, yulduzlari yulduzlariga to'g'ri kelib turganligidan

xursand edilar. Odatda, mana shularga ko'ra ikki ruhan o'xshash, yoshlari bir-birlariga munosib kishilar ko'z ochib yumguncha qalin do'st bo'lib ketadilar.

To'satdan de Marel xonim suhbatni bo'ldi.

– Qiziq, siz bilan o'zimni juda boshqacha his qilaman, – dedi u hayratomuz ohangda. – Nazarimda, sizni xuddi o'n yildan beri taniydigandekman. Men do'st bo'lib ketishimizga ishonaman. Istaysizmi?

– Juda ham, – javob qildi Dyurua.

Biroq uning tabassumi do'stlikdan ham boshqacharoq bir narsani istayotganligini anglatib turmoqda edi.

Harir va porloq ko'ylakda xonim g'oyat jozibador edi, albatta. U oppoq penyuar kiygan Foreste xonim bilan nafislik va latofatda, balki, bellasholmas. u kabi so'lim ko'rinmasdi, biroq undan ko'ra jazbi zo'rroq, so'liqildoqroq, malohatliroq edi.

Foreste xonimning tabassum arimagan chehrasi bir paytning o'zida «Siz menga yoqasiz», deb turganday, ayni choqda «Hushyor bo'ling!» deb tahdid qilar, tabassumining asl ma'nosini uqib bo'lmas. u o'ziga birda rom qilib tursa, birda hurkitar edi. Shu tabassumni ko'rganda Dyurua o'zini uning oyoqlariga tashlagisi, etaklarini o'pgisi, to'r bilan to'silgan ko'kraklaridan kelayotgan anbarin islardan to'yib-to'yib is olgisi kelardi. De Marel xonimga qaraganda esa, u jismida shavq va hirs alanga olayotganligini his qilar, nafis ipak ichra to'liqinlanib turgan badan ko'zlarini kuydirar, qo'llari qaltirab ketardi.

Xonimning og'zi gapdan tinmas, gap orasida qiziq-qiziq so'zlardan qo'shib qo'yardi. Ba'zi usta-hunarmandlar boshqalar qilib bo'lmaydi, deb o'ylagan narsalarni odamlarning ko'z o'ngida mana shunday qoyil qilib bajarib qo'yadi. Dyurua uni tinglab tirarkan: «Bularni eslab qolinsa yomon bo'lmasdi. Uning gapirayotgan gaplaridan Parijning bir kuni haqida zo'r maqola tayyorlasa bo'ladi», – deb o'ylardi.

Kimdir eshikni ohista bilinar-bilinmas qitirlatdi.

– Kiraver, qo'zim! – qichqirdi de Marel xonim. Qizcha eshikdan to'g'ri Dyuruaga peshvoz yurdi va borib unga qo'lini uzatdi.

– O, bu chinakam g'alaba, – deb shivirladi hayratda qolgan onasi... – Men Lorinani tanimay qolyapman.

Dyurua qizchani o'pib qo'ydi-da, uni o'z yoniga o'tqazib, erkalovchi bir ohangda, ayni choqda jiddiy turib undan nima ishlar qilayotganligini so'ray boshladi. Qizcha uning savollariga kattalarday sipolik bilan javob berar, tovushi nay sasiday ingichka edi.

Soat uchga bong urdi. Dyurua o'midan turdi.

– Tez-tez kelib turing, – dedi de Marel xonim, – bugungiday undan-mundan gaplashib o'tiramiz, sizdan juda xursandmiz. Aytmoqchi, nega siz Forestelarnikiga bormay qo'ydingiz?

– Nima desam ekan, – deb javob berdi u. – Shu kunlarda juda band edim. Tez kunlarda u yerda uchrashib qolsak ham ajabmas.

Shundan so'ng u bir olam allaqanday umid bilan to'lgan holda chiqib ketdi.

U Forestega o'zining mehmonga borgani haqida churq etib og'iz ochmadi.

Lekin u bu suhbatni anchagacha eslab yurdi – eslaganda ham, xuddi nazarida o'sha xotin doimo yonida turganday, u bilan gaplashayotganday bo'lib tuyulaverdi. Go'yo uning nimasinidir o'zi bilan qo'shib olib ketganday edi: u ko'z o'ngidan ketmas, u bilan allaqanday ichki bir unsiyat topib olganday ko'rinar edi. Sevgan odaming bilan oydin visol onlarini boshdan kechirganingdan keyin uning qiyofasini mana shunday unutolmay, uni yuragingning tubida asrab yurasan. Bu juda g'alati, mubham, xufiya, hayajonli, o'zining sirliligi bilan odamni to'lqinantiradigan giriftorlikning o'zginasi edi. Ko'p o'tmay u yana bordi.

Xodima qiz uni ichkariga olib kirishi bilan Lorina chiqib keldi. Bu safar u qo'lini uzatib o'tirmay, unga o'zining manglayini tutdi.

– Oyimlar hozir chiqadilar, – dedi Lorina. – O'n besh daqiqa kutar ekansiz, endi kiyinyaptilar. Siz bilan o'tirib turaman.

Lorinaning sertakalluf muomalasidan Dyurua zavqlanarkan, dedi:

– Juda ham xursandman, oyim, men bu vaqt ichida siz bilan suhbatlashishdan g'oyat baxtiyor bo'laman. Faqat siz meni juda jiddiy va sipo odam ekan deb o'ylamang. Men kuni bo'yi o'ynab yuraman. Shuning uchun sizni mushuk-sichqon o'yiniga taklif qilaman.

Qizcha hayratlanib boqdi. U katta xotinlar g'alati ahvolga tushib hayron bo'lib qolganlarida qanday jilmaysalar, shunaqa qilib tabassum qildi, so'ng sekingina dedi:

– Uyda o‘ynash mumkin emas.

– Bu gapning menga aloqasi yo‘q, – deb e‘tiroz bildirdi Dyurua. – Men istagan joyimda o‘ynayman. Qani, tutib oling meni! – Shundan so‘ng u Lorinani o‘yinga qiziqtirib, stol atrofiga aylanib chopa boshladi, qizcha esa sipolik bilan jilmaygan-cha uning ketidan ora-chora botinmaygina unga qo‘lini tekkizib qo‘yar, biroq hamon uning ortidan chopishga jur‘at etmasdi.

Dyurua to‘xtab cho‘k tushar, lekin qizcha ishonqiramay unga yaqinlashishi bilan u xuddi qutichadan otilib chiqqan shaytonvachaday mehmonxonaning narigi boshiga borib qolardi. Bundan qizchani kulgisi qistar, nihoyat, u o‘zini kulgidan to‘xtata olmay jindak xavfsirab, ayni choqda shodon qichqirgan-cha uni quva ketdi, har safar uni ushlab olay ushlab olay deganda qiyqirib kulardi. Dyurua qizchani yo‘lini kursi qo‘yib to‘si bolar, qizcha uning atrofidan bir necha bor aylanib chopishga majbur bo‘lar, keyin u bunisini qo‘yib, boshqa kursini tutardi. Yangi o‘yinga qiziqib qolib, loladay qizarib ketgan Lorina endi xonani chir aylanib quvalar, charchoq nimaligini bilmas, Dyuruani sho‘xliklari, ayyorliklari, aldoqchiliklarini ko‘rib xonani boshiga ko‘tarib qah-qah urardi.

Aloha u Dyuruani mana-mana ushlab olaman deb turganda, Dyurua qizchani tutib oldi-da, shiftga ko‘tarib qichqirdi:

– Ushladim!

Qizcha qo‘ldan chiqishga urinib, oyoqlarini tipirlatar, o‘zida yo‘q shodlanib qiyqirardi.

De Marel xonim kirib keldi va ularga hayrat izchida tikilib qoldi:

– Voy Xudoyim-ey, Lorina!.. Lorina o‘ynayapti... Siz sehrgar-ning xuddi o‘zi ekansiz, afandim...

U qizchani pastga qo‘ydi, onasining qo‘lini o‘pdi, shunday so‘ng ular Lorinani o‘rtalariga olib o‘tirishdi. Bir-birlari bilan juda gaplashgilari kelib turar, biroq, odatda, jimgina o‘tiradigan Lorina bugun hayajonlanib, tinmay bidirlagani bidirlagan edi, – aloha uni bolalar xonasiga chiqarib yuborishga to‘g‘ri keldi.

Qizcha indamadi, lekin chiqib ketayotganda ko‘zlarida yosh g‘iltilladi.

Ikkalalari xoli qolishgach, de Marel xonim ovozini pasaytirib dedi:

– Bilasizmi, men ajoyib bir ishni o'yladim, unda siz ishtirok etishingiz kerak. Gap bundoq: men har haftada Forestelarnikida mehmon bo'lasan. Shuning uchun o'z navbatida men ham vaqti-vaqti bilan ularni restoranga taklif qilib turaman. Men uyda mehmon kutishni yoqtirmayman, bunga odatlanmaganman. Buning ustiga ovqat-povqat, xo'jalik ishlaridan mutlaqo xabarim yo'q, hech vaqo bilmayman. Tarala bedod qilib yurganim yurgan. Shunaqa, men ularni vaqti-vaqti bilan restoranga taklif qilib turaman, lekin uch kishi bo'lganda uncha yaxshi chiqmaydi, ulfati chor – anda maza bor, mening tanishlarim esa ularga to'g'ri kelmaydi. Bularni nega menga gapiryapti, deb hayron bo'lmang, sizga ta'alluqli joyi bor. Sizdan mening ziyofatimda birga bo'lishingizni so'rayman. Biz shanba kuni soat yetti yarimda Rish kafesida yig'ilamiz. Qayerdaligini bilasizmi?

U jon-jon deb rozi bo'ldi.

– To'rt kishi bo'lamiz – juft-jufti bilan, – deb davom etdi u. – Bunday ziyofatlar biz xotinlar uchun yaxshi ermak: unga endi-endi odatlanib kelyapmiz, axir.

Xonim egniga qo'ng'ir tusli ko'ylak kiygan, ko'ylak uning bel-lari, ko'krak yelkalariga chip yopishib turar, odamning havasini keltirardi. Uning nozik, did bilan kiyinishi-yu, mehmonxonaning qarovsizligi o'rtasida allaqanday nomuvofiqlik bo'lib, Dyurua bundan hayron bo'lar, dilida o'zi ham anglamagan qandaydir o'ng'aysizlik sezar edi.

Uni nimaiki kiygan bo'lsa, nimaiki badaniga yopishib turgan bo'lsa, bari juda ham nozik diddan darak berib turar, g'oyatda nafis ko'rinardi. Uning, aftidan, shulardan boshqa hech narsa bilan ishi-hushi yo'q edi.

Dyurua u bilan xayrlashib ketdi-yu, biroq nazarida u hamon yonida turganday edi, hamon suhbatlari davom etardi. U, aytilgan kunni juda intizor bo'lib kutdi.

U, mablag'i hali yetarli bo'lmaganligidan yana qarzga frak oldi va hammadan burun kelishilgan vaqtdan bir necha daqiqa ilgari restoranga keldi.

Uni uchinchi qavatga, devorlariga qizil mato qoplangan, bittagina derazasi xiyobonga qaragan mo'jazzgina xonaga olib chiqishdi. To'rt kishi uchun mo'ljallangan stolga tashlangan dasturxon xuddi

loklanganday yaraq-yaraq qilardi. Ikki baland qandilga o'rnatilgan o'n ikkita shamning porloq nuri stol ustiga terilgan qadahlar, kumush idishlarda jilvalanib o'ynardi.

Deraza ro'parasida daraxt o'sgan bo'lib, uning yaproqlari xonalardan tushgan yorqin nur ichida birlashib zumrad parcha bo'lib ko'rinardi. Dyurua devorlardagidek qimmatli mato qoplangan pastakkina divanga o'tirdi, divanning tag simlari bo'shashib qolgan ekan, o'tirayotganda xuddi chuqurga tushib ketayotganday bo'ldi.

Bu ulkan imorat ari iniday g'alati g'uvillab turardi, koridorlardan yelib-yugurib turgan lakeylarning gilamlardan chiqqan bosiq qadam tovushlari, kumush idishlarning jarangi, bir zumga ochilgan eshiklarning g'ichirlashi va alohida-alohida xonalarga kirib olgan xo'randalarning ahyon-ahyon eshutilib qolgan ovozlari qo'shilib katta restoranlarga xos bo'lgan bir shovqin ko'tarilar edi.

Foreste kirdi, uning qo'lini do'stona samimiyat bilan siqdi, lekin «Fransuz hayoti» tahririyatida u hech qachon bunday samimiyat ko'rsatmas edi.

– Xonimlar birga kelishadi, – dedi u. – Restoranlardagi bu naqa o'tirishlarni juda yaxshi ko'raman!

U stolni ko'zdan kechirib chiqdi. Xira yonayotgan gaz chiroqni o'chirdi. Shamol kirmasin deb, derazaning bir tavaqasini yopdi va yelvizak tegmaydigan joyni o'tirishga tanlab, dedi:

– Men juda ehtiyot bo'lishim kerak. Tuppa-tuzuk yurgan edim, yana o'zimni yomon sezyapman. Seshanba kuni teatrdan chiqa turib shamolladim, shekilli.

Eshik ochilib, metrdotel yetakchiligida xotinlar kirib kelishdi. Ularning shlyapachalaridagi to'r yuzlariga tushirilgan, kamtarin, kamsuqum ko'rinishardi. Odatda, barcha xonimlar xavfli va g'alati uchrashuvlarga to'la bunday joylarda o'zlarini mana shunday ajoyib sirli bir ravishda tutadilar.

Dyurua Foreste xonimga peshvoz yurdi, xonim biznikiga bormay qo'ydingiz, deb undan gina qila ketdi.

– Bilaman, bilaman, sizga de Marel xonim ko'proq yoqadi, – dedi u tabassum bilan dugonasiga qarar ekan, – unga kelganda, siz doimo vaqt topasiz.

Hammalari o'tirganlari hamono metrdotel Forestega vinolarining xillari yozilgan qog'ozni uzatdi.

– Erkaklar bilganlarini qilishsin, – dedi hayajonli tovush bilan de Marel xonim. – lekin bizga eng yaxshi hamda shirin shampan keltiring, muzdek bo'lsin, tushunarlimi? Boshqasi bilan ishim yo'q.

Metrdotel ketgach, u asabiy kulib dedi:

– Bugun to'yib ichaman. Bazmi jamshid qilamiz, chinakam bazmi jamshid.

Foreste, aftidan, uning gaplarini eshitmadi.

– Derazani yopib qo'ysam maylimi? – so'radi u. – Bir necha kundan beri ko'kragim og'rib yuribdi.

– Bemalol. bemalol.

U deraza oldiga borib, uning ikkinchi tavaqasini ham berkitdi-da, chehrasi ochilib joyiga borib o'tirdi.

Uning xotini fikr daryosiga g'arq bo'lib jimgina o'tirardi. U ko'zlarini pastga qadab olgan. Qadahlarga masxaraomuz tabassum bilan sirli tikilardi. Kichkina quloqchalarga o'xshaydigan mayda, moylik ostend chig'anoqlar¹ keltirishdi – ular og'izda sho'rtak konfetga o'xshab erib ketardi.

Keyin suyuq osh berishdi, so'ng xuddi qiz bolaning badaniday qizg'imgir forel tortildi. Suhbat boshlandi.

Gap juda ko'p shov-shuvlarga sabab bo'lgan bir ishkali voqea ustida bordi. Kiborlarga mansub bo'lmish bir xonim allaqanday bir xorijlik shahzoda bilan alohida xonada suhbat qurayotganlarida, erining do'sti ularning ustidan chiqib qoladi. Gap-so'z tarqaladi.

Bu sarguzashtni eshitib, Foreste qotib-qotib kuldi, biroq xonimlar gap tashib yurgan g'iybatchining qilg'ini pastkashlik va ablahlik deb baholadilar. Dyurua ularning tarafida bo'ldi va erkak odam bunaqa paytda kim bo'lishidan qat'i nazar asosiy aybdormi, tasodifiy guvohmi yoki sherikmi, baribir, miq etib birovga og'iz ochmasligi kerak dedi.

– Bir-birlarimizga bemalol ishonish mumkin bo'lganda, bu dunyoda yashash naqadar ajoyib bo'lar edi-ya! – deb xitob qildi u. – Ko'pincha juda ko'p paytlarda ayollar qilg'iliklari oshkora bo'lib qolishidan qo'rqib, bunday ishlardan o'zlarini tiyadilar. Axir shun-

¹ *Moylik ostend chig'anoq* – Belgiyaning Ostend shahridan keltiriladigan xushxo'r chig'anoqlar.

day emasmi? – davom etdi u jilmaygan holda. – Agar xotin kishi bir onli baxtiyor damlar uchun achchiq ko'z yoshlar to'kib bir umr sharmisor bo'lib o'tishdan cho'chimaganda edi, u o'zini xayolida g'ujg'on o'ynagan g'aroyib ishqiy mojarolar quchog'iga tashlagan, birdan alanga olib ketgan ehtiroslariga bo'ysunib, o'tkinchi ho-yu havaslarga boshi bilan sho'ng'igan bo'lardi!

U xuddi bironi, balki, o'zinimi himoya qilayotganday ishonch bilan kuyib-yonib so'zlar, go'yo bu so'zlari bilan: «Menga ishoninglar, bunaqa ishlarda sinab ko'rishlaringiz mumkin», deyayotganday bo'lardi.

Xonimlarning har ikkovlari ham uning gapini ma'qullab qarab qo'yishar, oraga gap qo'shmaganlariga qaraganda, ularning parijlik xonimlarga xos jiddiy xulqi sir saqlanishiga ishonch tug'ilgan taqdirda jiddiylikka ko'pda rioya qilavermasligini anglatardi.

Foreste bir oyog'im tagiga olib divanda yonboshlab yotar, frakni iflos qilmaslik uchun oldiga sochiq tutib olgandi.

– O'-ho'! Ularga erk ber-chi, ko'rsan nima hangomalar ko'rsatishlarini! – gapga aralashdi u hayosizlik bilan hiringlarikan. – Sho'ring qurg'ur erlar!

Sevgi haqida gaplashishdi. Dyurua abadiy sevgi borligiga ishonmas ekan. Lekin kishi bir-biriga ishonsa, uzoq muddat chin yurakdan do'st bo'lishi mumkin. Jismoniy yaqinlik qalblarni bir-biriga yanada jipsroq qilib bog'lab qo'yarkan. Biroq u gap rashk janjallari, og'ir azob-uqubatlari, yalinish, iltijo, ta'nalarga kelganda juda g'azablanib so'zladi.

U gapini tugatganda, de Marel xonim xo'rsinibgina dedi:

– Ha, muhabbat umrning birdan-bir quvonchi, biroq har xil talblar qo'yaverib, biz o'zimiz uni rasvo qilamiz.

– Ha... ha... sevilish qanday yaxshi... – deb uni tasdiqladi Foreste xonim.

Biroq uning basharasidan orzulari bundan ham yiroqlarda qanot qoqayotgani, u o'zi hech qachon gapirishga jur'at qilmaydigan narsalarni o'ylayotgani ko'rinib turardi.

Navbatdagi taom tortilguncha hammalari shampan ichishib, kursillama nondan og'izlariga solib o'tirdilar. Bora-bora qultum-qultumlab ichga tushib qonni jo'sh urdirayotgan, aqlarini

o'g'irlayotgan xuddi mana shu may kabi muhabbat ham ularning butun fikrlarini qamrab oldi, ishq ularni maxmur qildi, iskanjasi-ga oldi.

Nihoyat qalin qilib solingan mayda sarsabil mevasining ustiga g'oyatda sershira, mayin qo'y etidan qilingan qiyma do'lma qo'yib keltirildi.

– Qurmagur, juda antiqa narsa-da! – deb xitob qildi Foreste.

Hammalari mayin go'shtning ta'midan g'oyatda lazzatlanib unga sarsabilning moyli mevasidan aralashitirib ohista tamshanib yedilar.

– Men birovni yaxshi ko'rib qolsam, dunyodagi hamma narsani unutaman, – deb yana gap boshladi Dyurua.

U buni to'liq ishonch bilan aytdi: ishq lazzati haqidagi o'y shirin taom lazzatiga qo'shilib uni butkul to'qlinantirib yubordi.

Foreste xonim odatdagicha chehrasida loqaydlik ifodasi bilan ohista dedi:

– Ilk bora qo'l berishib ko'rishgandagi quvonchga hech narsa teng kelolmaydi: shunda bir qo'lingiz «Siz meni sevasizmi?» deb so'raganda, ikkinchi qo'l «Ha, men seni sevaman», deb javob beradi.

De Marel xonim qadahdagi shampanni bir ko'tarishda sipqardi-da, bo'sh idishni stolga qo'yarkan, sho'xlik bilan dedi:

– Men esa gapning o'gil bolasini yaxshi ko'raman.

Kimdir buni ma'qullab kuldi, ko'zlarda shavq o'ti o'ynay boshladi.

Foreste divanga bemalol yotib oldi, qo'llarini ikki yoniga tashlab yostiqlarga yastandi. Keyin jiddiy ohangda gap boshladi:

– Ochiq gapirganingiz yaxshi. Gapdan ko'ra ish yaxshi dey-digan xotimlardan ekanligingiz ko'rinib turibdi. Lekin bitta savolim bor, ruxsat eting: bu masalada janob de Marelning fikri qanday?

Xonim yelkalarini ohista uchirib o'zining beqiyos nafratini ifoda qildi va biyron qilib dedi:

– Janob de Marelning bu masalada o'z fikri yo'q. U kishim... o'zlarini ayaydilar.

Mana, nihoyat, ishqning peshtoqi baland nazariyalaridan gap yengil shamalarning gullagan bog'iga ko'chdi.

Tillar yechildi va xuddi ayol kishi etagini ko'targanday o'rtadan parda ko'tarildi, imo-ishoralar, nozik pardalangan erkin gaplar,

ibosiz munofiqlik pardalangan, pardasiz shamalar pallasi boshlandi. Shunday bir gaplar aytilardiki, ular kishi ko'z o'ngida oddiy gap bilan tushuntirib bo'lmaydigan narsalarni yaqqol gavdalantirib qo'yardi. Kiborlar mana shunday imo-ishoralar bilan nozik va sirli ishq o'yinini o'ynaydilar, hayosiz orzularga beriladilar. O'zlarini buzuq xayolning shahvat qaynagan quehog'iga tashlaydilar, shahvat to'shagida ro'y beradigan va hammadan yashiriladigan uyat narsalarni behad huzurlanib birma-bir xotiralarida jonlantiradilar.

Qovurdoq keltirildi – kaklik va bedanalar ustiga ko'k no'xat solingandi, keyin qiyma pashtet tortildi, pashtetni qo'shib yeyish uchun katta idishda to'la ko'k salat berildi. Suhbatdoshlar endi g'oyatda gapga berilib ketgan, taomni boyagiday tamshanib, mazasidan lazzatlanib emas, shunchaki yeb o'tirardilar.

Har ikkala xonim ba'zan-ba'zan qaltis gaplar ham qilib qo'yishar, bu hazillar de Marel xonimni tili botir, xonzodaxon ekanligidan darak bersa, Foreste xonim sipolik va bosiqlik bilan so'zlar, uning sipoligi o'ziga juda ham yarashar, ovozida, gaplarining ohangida, tabassumida, qiliqlarida allaqanday ibo sezilib turar, lekin bu ibo uning ibosiz gaplarini yumshatmas, balki yana-da o'tkirroq qilib ko'rsatar edi.

Foreste yostiqlarga yastanib olgancha xandon tashlab kular, ishtaha bilan ovqat tushirar, goho-goho gap orasida sho'xroq yoki sharmsizroq bir fikr qistirib qo'yar, shunda xonimlar andak uning qo'polligidan, lekin ko'proq odob yuzasidan o'zlarini uyalganday qilib ko'rsatar edilar.

– Shunaqa, shunaqa, bolalarim, – derdi u bironta uyatsizroq gapdan so'ng. – Agar shu zaylda ketaversanglar, sizlardan hali bundan ham zo'rroqlari chiqadi.

Desert, so'ng kofe tortildi. Likyor otashin ulfatlarning kayfiyatiga yana kayfiyat qo'shdi, ularning boshlari ancha aylanib qoldi.

De Marel xonim aytganida turdi: u chindan ham kayf qildi. U mast bo'lib qolganligini sho'xlik bilan tan olar, mehmonlarga qiziq ko'rinish uchun o'zini yanada mastroq qilib ko'rsatayotgan quvnoq ayollarga o'xshar, mastligida ham latofatini yo'qotmasdi.

Foreste xonim indamay qoldi, balki, ehtiyot bo'layotgandir. Dyurua nojo'ya bir qiliq qilib qo'ymay deb, hayajonini ustomonlik bilan yashirishga urinardi.

Papiros chekishdi, shunda birdan Foresteni yoʻtal tutdi.

U koʻkragi yirtilguday boʻlib yoʻtalardi. Peshonasidan ter chiqib ketdi. U sochiqni ogʻziga bosib turar, yoʻtalning zoʻridan oʻpkaday qizargan, boʻgʻilib qolay derdi.

– Yoʻq, ziyofatlardan chiqib qolibman, – dedi u sal oʻziga kelgach xafalanib. – Ish rasvo!

Betoblighi csiga tushib, uning kayfiyati buzildi, boyagi xushnudligidan asar ham qolmadi.

– Yuringlar ketamiz, – dedi u.

De Marel xonim lakeyni chaqirib, hisob soʻradi. Unga hisobni talab qilgan zamoni berishdi. Xonim unga koʻz tashlashi bilan harflar chirillab aylana boshladi, u hisob qogʻozini Dyuruaga uzatdi.

– Menga qarang, men uchun toʻlab qoʻying, hech narsani koʻrmayapman. Juda mast boʻlib qolibman.

U shunday deb, hamyonini berdi.

Hammasi boʻlib bir yuz oʻttiz frank boʻlibdi. Dyurua hisobni bir boshdan tekshirib chiqdi, ikkita qogʻoz pul uzatdi. Qaytimini olar ekan, xonimdan shivirlab soʻradi:

– Kuzatib qoʻyishga ijozat berarsiz?

– Albatta. Bir oʻzim uyga yetib borolmayman.

Ular Forestelar bilan xayrlashdilar, keyin Dyurua de Marel xonim bilan aravaga oʻtirdi.

U xonimning yonida, uning shundoq biqinida oʻtiribdi, ekipajning ichi qorongʻi va toʻrt tomondan berk, faqat onda-sonda unga koʻcha chiroqlarining yorugʻi tushib qoladi. U kiyimining ustidan xonimning yelkalaridan oʻtayotgan issiqni his qilib turar, miq etib ogʻiz ochishga jurʻat etmas. Qani endi tiliga bir soʻz kelsa. Uning fikri yodi ayolni quchoqlash bilan band. Shu istak uning butun borligʻini qamrab olgandi.

«Bir urinib koʻrsammikin?» – oʻylardi u. Oʻtirganlarida aytilgan gaplarni eslab, kel, tavakkal qilib koʻray, deb oʻylar, lekin janjal chiqishidan qoʻrqib yana oʻzini tiyar edi.

Xotin ham burchakka qisilib olib qimir etmas, ovoz chiqarmas edi. Mundoq qaraganda, u uxlab qolganga oʻxshar, ammo koʻcha chiroqdan yorugʻ tushgan chogʻlarda uning koʻzlari yiltillab ketardi.

«Nimani o'ylayapti?» Bunday paytlarda Dyurua jimlikni buzmaslik kerakligini bilar, chunki bir og'iz so'z, birgina so'z hammasini chippakka chiqarishi hech gap emasdi. Chapdast va dadil harakat qilishga esa yuragi dov bermay turardi.

Kutilmaganda xonim oyog'ini ohista qimirlatdi. Bo'la qol-sang-chi, degan ma'noda sharttasiga qilingan bu bilinar-bilinmas, asabiy, sabrsiz harakat, balki, nimagadir chaqiriq ediki, bundan Dyuruaning butun jismi jo'sh urib ketdi va daf'atan unga o'girilib, talpindi, lablari ila uning dudoqlarini, qo'llari ila bellarini izladi.

Xotin sekingina qichqirib yubordi, o'zini tiklashga, uning qo'lidan chiqishga harakat qildi, uni itarib yubormoqchi bo'ldi, biroq qarshilik ko'rsatishiga majoli qolmagandan, nihoyat taslim bo'ldi. Ko'p o'tmay kareta xonimning uyi oldida to'xtadi, shoshib qolganidan Dyuruaning tiliga xotinlarni erkalaydigan bironta so'z kelmadi. U xonimga minnatdorchilik bildirmoqchi, unga tashakkur aytmoqchi, sizni sevaman, sizni boshimga ko'tarib yuraman, demoqchi edi. Illo, xonimning o'zi ham ro'y bergan voqeadan qotib qolgan, qimir etmasdan o'tirardi. Foytunchida shubha tug'dirmaslik uchun u karetdan birinchi bo'lib sakrab tushdi va xonimga qo'lini uzatdi.

Xonim salgina gandiraklab aravadan indamay tushdi. U eshik qo'ng'irog'ini chaldi. Dyurua chiqib eshikni ochgunlaricha shuni so'rab ulgurdi:

– Qachon ko'rishamiz?

– Menikiga nonushta qilgani keling, – eshitilar-eshtilmas darajada bazo'r shivirladi xonim va og'ir eshikni to'p otganday qilib gumburlatib yopgancha ichkariga kirib ketdi.

Dyurua foytunchiga besh frank berdi va shodligidan o'zini qo'yarga joy topolmay uyga yugurdi.

Mana, endi quling o'rgilsin xotinni qo'lga kiritdi! Yana kiborlardan-a! Chinakam kibor xotin! Parijlik xotin! Hammasi kutilmaganda o'z-o'zidan bo'ldi-qo'ydi!

Avvallari u bunday hurliqo xotinlarni qo'lga kiritish juda qiyin bo'lsa kerak, bir dunyo sabr-qanoat, ustalik ishlatish kerak, deb yurgan ekan. Arqonni uzun tashlab qo'yib, sekin aylantirish, bosh-ko'zini tindirish, ishqibozlik qilish, shirin so'zlar aytish, siz-

siz turolmayman deb ko'kraklariga urish va nihoyat, sovg'alar berish kabi choralarni ado etish zarur deb o'ylagan ekan. Lekin u birinchi uchratgan xotin salcha zo'r berishi bilanoq taslim bo'ldi, yana bu shunchalar tez ro'y berdiki, mana, haligacha u o'ziga kelolmay garang.

«U mast edi, – deb o'yladi u, – ertaga ashulani boshqacha qilib oladi. Yig'i-sig'i bo'lsa ajabmas». Bu fikr uni xavotirga solib qo'ydi, lekin shu zahoti o'ziga o'zi: «Mayli, mayli! Endi u meni-ki, men uni gah desa qo'lga qo'nadigan qilib oladigan odamman». O'zining shon-shuhrat, baxt-iqbol, davlat, muhabbat haqida surgan xayollarining sarobiy tumanlari ichra birdan juda badavlat, g'oyatda latif, qo'llarini qayerga uzatsa yetadigan go'zal xotinlarning safini ko'rdi, ular xayoli sahnasida bir dam paydo bo'lib, so'ng uning umidlaridan to'qilgan oltin bulutlar izdihomi ichra tabassumlar qilib, birin-birin g'oyib bo'lardilar.

Tuni bilan g'alati tushlar ko'rib chiqdi.

Ertasiga pillapoyadan de Marel xonimnikiga ko'tarilarkan, yuragi dukillab urardi. Uni qanday qabul qilarkin? Umuman, uyga kiritmasa-chi? Qabul qilmasa-chi? Agar hammasini oqizmay-tomizmay... Yo'q, buni aytib berish uchun yuzni sidirib tashlash kerak bo'ladi. Shunday bo'lgach, g'alaba uning qo'lida deb hisoblash mumkin.

Navrastagina xodima eshikni ochdi. Uning boqishlari odatdagiday edi. U xodima eshikni unga ro'yxush bermay ochishini kutgandi, xayriyatki, unday bo'lmadi. Dyuruaning ko'ngli joyiga tushdi.

– De Marel xonim tuzukmilar? – so'radi u.

– Yaxshilar, afandim, har doimgiday, – deb javob berdi xodima va uni mehmonxonaga boshladi. U o'zining engilboshiga qarash uchun kamin oldiga keldi va oyna oldida galstugini to'g'rilar-kan, to'satdan yotoqxona bo'sag'asidan unga tikilib turgan de Marel xonimni ko'rib qoldi.

U xonimni ko'rmaganga soldi o'zini va yuzma-yuz bo'lgunlaricha oynadan bir-birlariga ehtiyotkor sinchkovlik bilan nazar solib turishdilar.

Mana, nihoyat, u o'girilib qaradi. Xonim o'rnidan jilmadi – u nimanidir kutayotganga o'xshardi. Shunda u o'zini xonimga otib shivirladi:

– Sizni juda sevaman! Juda ham sevaman sizni!

Xonim quchoqlarini ochdi, uning to'shiga boshini qo'ydi, keyin ko'zlariga qaradi. Uzoq bo'sa olishdi.

«Men kutgandan ham jo'ngina chiqdi, – deb o'yladi u. – Ishlar yurishib ketdi».

Nihoyat, bir-birlarini qo'yib yuborishdi. Dyurua o'zining cheksiz muhabbatini ko'rsatish uchun unga jimgina kulib boqar, boqib, go'yo to'ymasdi.

Xonim ham jilmayib turar – xotinlar rozi bo'lganlarida, istak bildirganlarida, o'zlarini bag'ishlaganlarida mana shunday jilmayadilar, odatda.

– O'zimiz yolg'izmiz, – shipshidi u. – Lorinani nonushta qilgani o'rtog'inikiga jo'natdim.

– Tashakkur, – dedi uning qo'llarini o'parkan Dyurua so'lish olib. – Sizni jonimdan suyaman.

Xonim uni xuddi o'z eriday ko'rib, qo'lidan ushlagancha divanga olib keldi va ular yonma-yon o'tirdilar.

Endi unga nozik hayajonli ishq suhbatini boshlab yuborish fasli kelgandi. Lekin u gapni nimadan boshlashini bilmay, sekin ilmoq tashladi:

– Sizni xafa qilib qo'ymadimmi?

Xonim uning lablariga kaftini bosdi.

– Qo'y, gapirma!

Ular bir-birining qaynoq qo'llarini qisishgancha termulishib jimgina o'tirishdi.

– Sizni shunday sog'ingandimki! – dedi Dyurua.

– Gapirma – dedi u yana.

Oshxonada xodimaning likopchalarni taraqlatayotgani shundog' eshitilib turardi. Dyurua o'midan turdi.

– Sizning yoningizda o'tirolmayman. Boshimni yo'qotib qo'yyapman.

Eshik ochildi.

– Ovqat tayyor.

Dyurua xonimni tantanali suratda dasturxonga olib bordi.

Ular bir-birlariga ro'parama-ro'para o'tirishdi, nigohlarini bir-birlaridan uzisholmas, lablaridan mayin tabassum arimas, butun borliqlarini bir-birlariga nisbatan sevgi va mehr qamrab kel-

moqdaydi. Ular nima yeyayotganlarini ham bilishmasdi. Shunda to'sindan, u stol tagida nozik oyoqlar tipirchilab uning oyog'iga tekkanini sezdi. Dyurua uning oyoqlarini ikkala oyog'i orasiga olib qattiq qisdi va boshqa qo'yib yubormadi.

Xodima kirib-chiqib turar, taomlar keltirar, bo'shagan idishlarni olib ketar, ko'rinishidan shu qadar osuda ediki, go'yo hech narsani sezmasdi.

Nonushtadan so'ng ular mehmonxonaga qaytib kirishdi va yana divanga yonma-yon o'tirishdi.

Dyurua unga borgan sari yaqinroq surilib borar, uni quchoqlashga intilar edi. Lekin xonim erkalik bilan o'zini olib qochardi.

– Ehtiyot bo'ling, kirib qolishlari mumkin.

– Qachon yolg'iz o'zimiz qolamiz? – shivirladi Dyurua. – Sizni qanchalar sevishimni qachon ko'rsatsam bo'ladi?

Xonim uning qulog'iga egilib shivirladi:

– Shu kunlarda siznikiga birov kirib o'taman.

U o'zining qizarib ketayotganini sezdi.

– Lekin men... mening uyim... oddiy.

Xonim tabassum qildi:

– Buning ahamiyati yo'q. Men uyingizni tomosha qilishga emas, sizni ko'rgani boraman.

Dyurua undan qachon borishini aniq bilib olgisi keldi. Xonim yanagi haftaning oxirida dedi. Dyurua uning qo'llarini siqib, burarkan, tezroq uchrashishlarini so'radi, yalindi, yolvordi, u hayajonlanib poyma-poy so'zlar, ko'zlari shavq o'ti bilan yonar, ikki yuzini istakning alangasi qoplab olgan, bunday so'ndirib bo'lmas istaklar esa, odatda, faqat ikki kishi yolg'izlikda ovqatlangandagina bo'ladi.

Bu alangali yolvorishlar ayolga yoqar va u borgan sari uchrashuvni bir kunlab yaqinroqqa sura bormoqda edi. Lekin Dyurua qo'ymasdi.

– Ertaga... Ertaga deng... Nihoyat, u rozi bo'ldi.

– Xo'p. Ertaga. Soat beshda.

Dyuruaning ko'krigidan shodon xo'rsinish toshqini otilib chiqdi. Shundan so'ng ular xuddi yigirma yildan beri tanish odamlar kabi undan-bundan gaplashib o'tirishdi.

Qo'ng'iroq sadosi eshitildi. Ikkovlari ham cho'chib tushishdi va bir-birlaridan nariroq surilib o'tirishdi.

– Lorina keldi, shekilli, – deya shivirladi xonim.

Qizcha kirdi va kamoli hayratlanib, to'xtab qoldi, keyin o'zida yo'q quvonch bilan chapak chalib yubordi va Dyuruaning oldiga chopqillab keldi.

– Voy, Azizim! – qichqirib yubordi u.

De Marel xonim kulib yubordi.

– Nima deysan? Azizim? Lorina sizga nom berib qo'yibdi-ku! Menimcha, bu juda ham ajoyib laqab. Men ham sizni Azizim deb chaqiraman!

Dyurua qizchani tizzasiga o'tqazdi va o'zi o'rgatgan hamma o'yinlarni o'ynab chiqdilar.

Soat yigirma daqiqai kam uchda ular xayrlashdilar va Dyurua tahririyatga qarab yo'l oldi. Ketar ekan u pillapoyada yarim ochiq eshikka qarab yana bir karra shipshib qo'ydi:

– Ertaga. Soat beshda.

De Marel xonim uning lablarining qimirlashidan nima demoqchi bo'lganligini angladi-da, jilmayib «ha», dedi va ichkariga kirib ketdi.

Tahririyatdagi ishlarini bitirgach, u ma'shuqasining kelishiga uyni qanday qilib qo'ysam ekan, deb bosh qotira boshladi. Miyasiga uyning devorlariga yapon bezaklaridan osib qo'yaman degan fikr keldi. Besh frankka turli kichkina yelpig'ichlar, suratlar, rangli matolar sotib olib devorlardagi dog'lar ustiga osib chiqdi. Deraza oynalariga esa, daryodagi kemalar, qizg'imtir osmonda uchib ketayotgan anvoyi qushlar, balkonlarga chiqib turgan qora tanli xotinlar va qor bosgan dalalardan borayotgan qop-qora odamlar tasvirlangan harir suratlarni yopishtirib qo'ydi.

Uning torgina xonasi ko'p o'tmay har turli suratlar solib tashlangan qog'oz fonarga o'xshab qoldi. Qilgan ishidan ko'ngli yorishib, u kechga dovur rangli qog'ozlardan qirqilgan qushchalarni shipga yopishtirib chiqdi.

Keyin parovozlarning chinqiriq sadolari ostida uxlab yotdi.

Ertasiga u ishdan barvaqtroq qaytdi va uyga baqqollikdan bir savatchada pirojniy, bir shisha madera keltirdi. Sal o'tmay yana tashqariga chiqib ikkita taqsimcha bilan ikkita stakan olib keldi. Kichkina stolcha ustiga sochiq tashlab, kirini berkitdi-da, taomlarni shuning ustiga qo'ydi. Tos bilan ko'zani esa pastga yashirdi.

Shundan so'ng kuta boshladi.

Xonim beshdan chorak o'tganda keldi va ko'zni qamashtiradigan yaltir-yultir rasmlarni ko'rib, hayratidan beixtiyor chapak chalib yubordi:

– Muncha yaxshi uyingiz! Faqat tashqarida odam juda ko'p ekan.

Dyurua uni quchoqlab oldi va hirsning zo'ridan hansirab, xoninning shlyapasi ostidan chiqib turgan sochlarini to'r pardasi ustidan yutoqib o'pa boshladi.

Bir yarim soatdan so'ng u xonimni Rim ko'chasidagi foytun to'xtaydigan joygacha kuzatib qo'ydi. U foytunga o'tirgach, Dyurua unga shipshidi:

– Seshanba kuni, o'sha vaqtda.

– O'sha vaqtda, seshanba kuni, – deb tasdiqladi xonim. Qorong'i govjum bo'lib qolgandi va xonim karetaning ochiq eshigidan turib uning boshini o'ziga tortdi-da, lablaridan o'pib oldi. Aravakash qamchini ko'tardi, xonim xayrlashdi:

– Ko'rishguncha, Azizim!

Shundan so'ng oq ot qo'shilgan eskigina fayton horg'ingina yo'rtib ketdi.

Dyurua uch hafta mobaynida ikki-uch kun oralatib de Marel xonimni qabul qilib turdi. Uchrashuvlari ba'zan ertalab, ba'zan kechqurun bo'lar edi.

Bir kuni kunduzi uni kutib turgan edi, zinadan qattiq-qattiq gapirgan, qichqirgan ovozlar kelib qoldi, u eshik tagiga borib quloq soldi. Bolaning yig'isi eshitildi. Erkak odam jahl bilan allanimalar dedi:

– Voy jinnivoy-ey, nega yig'layapsan?

– E, anov jurnalstning oldiga kelib yuradigan qanjiq Niko-lamizni yiqitib ketdi. Men bo'lsam, bu suyuqlarni qadam bostirmas edim, oyog'ining tagidagi bolani ko'rmaydi-ya!

Dyurua vahimasi kelib eshikdan nari ketdi, uning qulog'iga shoshilinch qadam tovushlari, ipak liboslarning shildirashi chalindi. Sal o'tmay u hozirgina yopib qo'ygan eshik taqilladi. U eshikni ochdi va xonaga harsillagancha darg'azab de Marel xonim otilib kirdi.

– Eshitdingmi? – bazo'r tili kalimaga kelib so'radi u.

U o'zini hech narsadan xabarsiz qilib ko'rsatdi.

– Yo'q, nimaydi?

– Kunim so'kish eshitishga qoldimi-a?

– Kim so'kdi?

– Bir qavat pastda turadigan ablahlar.

– Yo'g'-ey! Nima bo'ldi, ayt?

Xonim javob berish o'miga yig'lab yubordi.

Dyurua uning shlyapasini oldi, korsetini yechdi, karavotga yotqizib, nam sochiq bilan chakkalarini ishqaladi. Xotin bo'g'ilib hansirardi. U saldan so'ng biroz o'ziga kelgach, g'azabi qaynab tosha boshladi.

Xonim unga hozirning o'zida pastga tushib ularni do'pposlab chiq, urib o'ldir, deb qistalang qildi.

– Qo'y-e, bular oddiy ishchilar-ku, qo'pol odamlar, – deb qaytarardi uni bu yo'ldan Dyurua. – O'ylab ko'rgin, sudga berishga to'g'ri keladi. Seni bilib qolishlari, qamashlari mumkin axir. Unda ishing rasvo bo'ladi. Bunaqa odamlardan yaxshisi nariror yurgan ma'qul.

Xonim boshqa gapni o'rta soldi:

– Qanday qilsak ekan? Men boshqa bu yerga kelmayman.

– Buning yo'li oson, – deb javob berdi Dyurua. – Men boshqa kvartiraga ko'cha qolaman.

– Ha... – shivirladi xonim. – Lekin bunga ancha vaqt ketadi.

Birdan uning kallasiga bir fikr kelib qoldi.

– Yo'q, yo'q, menga qara, – dedi u birdan tinchlanib, – yo'lini topdim. Hammasini o'zim qilaman, sen tashvish chekib o'tirma. Ertaga ertalab senga ko'k xat yuboraman.

«Ko'k xat» deb u shahar ichida yuboriladigan telegrammalarini aytardi.

U o'zi o'ylagan narsadan chehrasi gul-gul ochildi, lekin buning nimaligini Dyuruaga aytmadi. Shu kuni u qattiq hirs qo'yib ishqibozlik qildi.

Shundoq bo'lsa ham u zinadan tushayotganda, hayajondan oyoqlari chalishib ketdi va butun og'irligini jazmanining qo'liga tashladi.

Yo'llarida hech kimni uchratmadilar.

Dyurua juda kech turardi. ertasiga ertalab u hali o'rinda yotarkan, soat o'n birda pochtalon kecha va'da qilingan «ko'k xat»ni keltirdi. Dyurua uni ochib o'qidi:

«Uchrashuv bugun soat beshda. Konstantinopol ko'chasi, 127. Dyurua xonim tomonidan ijaraga olingan kvartirani ochib berishlarini ayt. Seni o'pib, Klo».

Roppa-rosa soat beshda u mebelli xonalar ijaraga beriladigan kattakon uyning qorovulxonasiga kirdi.

– Dyurua xonim shu yerda ijaraga uy oldimi? – so'radi.

– Ha, afandim.

– Marhamat qilib, menga ko'rsatib qo'ysangiz. Qaltis vaziyatlarni ko'p ko'rgan qorovul juda ham ehtiyotkor bo'lib qolgan, shekilli, unga diqqat bilan tikildi va kattakon bog'lamdan kalitni olarkan, so'radi:

– Janob Dyurua siz bo'lasizmi?

– Xuddi o'zida!

Sal o'tmay Dyurua shundoq qorovulxona qarshisidagi ikki xonali kvartiraga qadam ranjida qildi.

Kvartiraning katta xonasining devorlariga ozodagina rang-barang qog'ozlar yopishtirilgan, qizil og'ochdan ishlangan mebellar qo'yilgan, mebellarga sariq yo'llari bor ko'kimtir reps qoplangan bo'lib, xona sathiga yupqagina nimdoshgina guldor gilam to'shalgandi, gilam tagida polning taxtalari bilinib turardi.

Mo'jazgina ikkinchi xonaning uchdan ikki qismini hayhotday karavot egallagandi. Karavot ustiga qip-qizil yumshoq adyol tashlangan, adyolning har joy har joylarida g'alati dog'-dug'lar ko'zga tashlanardi. Karavot qalin havorang reps darpardalar bilan to'silgan bo'lib, u butun ichkari devor tomonni egallagandi.

Dyurua norozi bo'lib, tashvishga tushdi. «Bu uycha toza pul yeydi, – deb o'yladi u. – Yana qarzga botishga to'g'ri keladi. Shunaqa ham ahmoqlik bo'ladimi?!»

Eshik ochilib, xonaga ipak kiyimlarini shildiratib quchoqlarini keng ochgancha Klotilda yelib kirdi. U o'zida yo'q xursand edi.

– Yaxshi, to'g'rimi, yaxshi-a? Keyin yuqoriga ko'tarilishning keragi yo'q. Ko'chadan to'g'ri kirib kelaverasan. Derazadan oshib tushsang ham bo'ladi. Qorovul ko'rib o'tiribdimi? Ikkovimiz maza qilamiz bu xonada!

Dyurua tilining uchida turgan savolni berishga jur'at qilmay, uni sovuqqina o'pdi.

Klotilda xonaning o'rtasida turgan doira stolga katta paket qo'ydi. Uni ochib ichidan sovun, atir suvi, badan surtmalar, sungir, bir quti shpilka, tufliga ilgak, peshanaga tushib ketaveradigan soch tolalarini qistirib qo'yadigan kichkina to'g'nag'ichlar oldi.

U o'zini yangi ko'chib kelgan xotinday tasavvur qilishni, har bir narsaning o'z o'rnini topib joylashtirishni yaxshi ko'rardi.

Tortmalarni ochib yoparkan, u tinmay so'ylagani so'ylagan edi:

– Har ehtimolga qarshi bu yerga biroz kiyim-kechak ham keltirib qo'yish kerak. Vaqti-bevaqt kiyimni almashtirish mumkin bo'ladi. Juda qulay bu. Agar ko'chada jala tagida qolsam, qochib bu yerga kirishim mumkin. Senda ham, menda ham o'z kalitimiz bo'ladi, uchinchi kalit qorovulda turadi. Agar o'zimiznikini esdan chiqarsak undan olamiz. Men uch oyga ijaraga oldim. Albatta, se-ning nomingga. O'zimiznikini aytolmayman-ku, axir.

– Sen qachon pulini to'lash kerakligini menga aytarsan? – chidolmay so'radi Dyurua nihoyat.

– Allaqachon to'lab qo'yilgan, jonim, – dedi sodda xotin.

– Meni qarzdor qilib qo'yibsan-da, a? – ijkilab so'radi u.

– Qo'ysang-chi, bo'talog'im, buning senga aloqasi yo'q, ko'nglim shunday qilishni tusab qoldi.

Dyurua o'zini jahli chiqqanday qilib ko'rsatdi.

– Kechir, bunaqasi ketmaydi! Men bunga yo'l qo'ymayman.

Xonim iltijoli bir nigoh bilan qo'llarini uning yelkalariga tash-ladi:

– Iltimos, jonim Jorj. Men uchun xo'p de. Men uchun xo'p de. Bizning shu uyachamiz meniki bo'lishini juda-juda istayman. Bir o'zimizniki bo'lsin. Sen xafa bo'lmaysan, a, to'g'rimi? Bu sevgimiz haqi qilgan hadyam bo'lsin. Ke, roziman deb ayta qol, jonim Jorj, roziman de!..

Xotinning butun nigohi iltijoga aylangan, dudoqlarida shu ilti-jo, butun jismida shu iltijo hukmron edi hozir.

Dyurua yana anchagacha yalintirib turdi, yuzlarini bujmaytirib ko'nmagan kishi bo'ldi, biroq hech iloji qolmagandan so'ng aloha rozilik berdi: yuragining tubida shunisi tuzuk deb o'yladi u.

Juvon ketgach, qo'llarini bir-biriga ishqab, «Har holda juda yoqimtoy xotinda», deb qo'ydi.

Nega u haqda bugun shunday fikrga keldi. buning tagini chur o'ylab o'tirmadi.

Bir necha kundan keyin u yana ko'k xat oldi:

«Bugun kechqurun bir yarim oylik reviziyadan keyin erim qaytib keladi. Bir hafta ko'risholmaymiz. Shuni o'ylab yuragim siqilib ketyapti, jonim.

Seniki bo'lgan Klo».

Dyurua hayratga tushdi. Shu paytgacha uning eri borligini bilmagan ham ekan. Bu zotning qandayligini bir ko'rib qo'yilsa, aftidan, yomon bo'lmasdi.

Dyurua uning ish bilan ketishini sabr-toqat bilan kuta boshladi, shunday bo'lsa ham, yana ikki kechani Foli-Berjerda o'tkazdi. Rashel yana uni o'zinikiga olib ketdi.

Bir kuni ertalab tag'in telegramma keldi, unda to'rttagina so'z bor edi: «Bugun soat beshda. Klo».

Xotin uchrashuvga vaqtdan oldin keldi. U o'zini hirsning shiddati bilan yigitning quchoqlariga otdi. Dyuruaning yuzlaridan qaynoq bo'salar oldi, keyin dedi:

– Bir-birimizga to'yganimizdan so'ng meni biron yerga ovqatlantirgani olib borasan, xo'pmi? Endi erkin qushman.

Hali oyboshi edi. Dyurua esa moyanasini oldidan olib ishlatib bo'lgan, hozir qarz-qavola qilib tirikchiligini o'tkazib turgan payti edi, lekin bum qarangki, tasodifan bugun cho'ntagida puli bor edi. Shuning uchun ham unga andak pul sarf qilish imkoniyati tug'ilganidan xursand bo'ldi.

– Albatta, azizam. Qayerni istasang, shu yerga olib boraman, – dedi u.

Soat yettiga yaqin ular tashqi xiyobonlarga chiqishdi. Klotilda Dyuruaning qo'liga osilib olgancha uning qulog'iga shivirladi:

– Sen bilan qo'ltiqlashib yurishni qanchalar yaxshi ko'rishimni bilsayding, yonimda yurganingdan qanchalar baxtiyorligimni anglasayding!

– Xohlaysanmi, Latyuilga boramiz? – so'radi undan Dyurua.

– Yo'q, u yer juda hashamdor, – e'tiroz bildirdi juvon. – Men oddiyoq, quvnoqroq joy bo'lsa devdim, ishchi-xizmatchilar bo-

radigan biron odmiroq restoran bo'lsaydi. Men qovoqxonalami yaxshi ko'raman! Qaniydi endi, shahardan tashqariga chiqib ketganimizda!

Bu atrofda Dyurua uning didiga mos biron yerni aytolmadi. Ular yo'llarida ovqatlanish uchun alohida zali bor bir mayxonaga duch kelgunlaricha xiyobonlarda ancha kezib yurishdi. Klotilda derazadan ikki harbiy bilan o'tirgan boshlari ochiq qizlarni ko'rib qoldi.

Ipsiz, uzunchoq xonaning ichkarisida uch izvoshchi o'tirib ovqatlanishardi. Yana bir basharasi shubhali odam stulga yastanib olib, qo'llarini kamarining orasiga qistirgancha, trubka tutatardi. Uning kurtkasida dog tegmagan sog' yer qolmagandi. Shalviragan cho'ntaklaridan esa shishaning og'zi, non bo'lagi, gazetaga o'ralgan allanarsa va chizimchaning uchi chiqib turardi. Uning sochlari quyuq, jingala, hurpaygan, kir edi. Polda, stolning tagida uning furajkasi yotardi.

Kelishgan, chiroyli kiyingan xonimning kirib kelishi bu yerda butunlay kutilmagan taassurot qoldirdi. Boyagi juft-juft bo'lib o'tirganlar shivir-shivimi to'xtatishdi, izvoshchilar janjallarini bas qilishdi, shubhali nusxa esa og'zidan trubkasini olib, polga tupurdi va boshini sal burib qo'ydi.

– Bu yer juda soz ekan! – shivirladi Klotilda. – Maza qilishimiz turgan gap. Kelasi safar men xizmatchilarday kiyinib olaman.

U yog' bosib yaltiragan, pivo to'kilgan, garson chopib kelib, naridan-beri artgan og'och stolga sira tortinmay, irganmay bemalol o'tirib oldi. Dyurua g'alati bir alfozda qolib, biroz qisinib silindrini qayerga ilishini bilmay turdi. Osgani qoziq topolmay, oxiri uni shundoq stul ustiga tashlab qo'ya qoldi.

Qo'zi go'shtidan ragu, jigo va salat keltirishdi.

– Men shunaqa ovqatlarni yoqtiraman, – dedi Klotilda. – Dim qursin, shunaqaroq. Ingliz kafesidan ko'ra bu yer menga ko'proq ma'qul.

Keyin qo'shib qo'ydi:

– Agar meni juda ham xursand qilaman desang, tansa zali bo'lgan qovoqxonaga olib bor. Shu yaqin o'rtada bitta shunaqasi «Oq malika» deb ataladi.

– Seni u yerga kim olib borgan? – hayron qolib so'radi Dyurua.

Unga qarab juvonning qizarib ketganligini payqadi, kutilmagan bu savol, aftidan, uning yodiga qachonlardir bo'lib o'tgan xufiyona bir suhbatni tushirdi, shekilli. Klotilda hamma ayollar kabi jindak ikkilanib turgandan keyin shunday deb javob berdi:

– Do'stlarimdan biri...

U birpas indamay turdi-da, qo'shimcha qildi:

– U o'lgan.

Uning chehrasiga qayg'u ko'lka solib o'tdi, ko'zlarini yerga qadadi. Ana shundagina Dyurua birinchi marta uning o'tmishi haqida hech narsa bilmasligini o'yladi. Albatta, uning o'z oshiq-lari bo'lgan, lekin kimlar, qaysi doiradan? Dyuruaning yuragida o'zi anglab yetmagan allaqanday rashk hissi bosh ko'tardi, nimadandir g'ijindi, bu – juvon haqida bilmagan narsalardan tug'ilgan g'ashlik edi, bu – juvonning hayotida Dyuruaga tegishli bo'lmagan narsalar borligidan tug'ilgan g'ijinish edi. U juvonga achchig'i kelib qarab o'tirar, yuziga tikilib, uning barcha sirlarini bilib olmoqchi bo'lardi. Ehtimol, xuddi mana shu tobda u boshqa birovni, boshqalarni mahzun xayollar ichra eslayotgandir. Dyurua uning xotiralari ichiga kirishni naqadar istardi, qaniydi ularni kovlashtirsa, hammasini bilib olsa, hammasini o'rgansa!..

– Xo'sh, «Oq malika»ga boramizmi? – yana qaytalab so'radi u. – Men uchun bu chinakam bayram bo'lardi.

«E, nima, uning o'tmishini boshimga uramanmi! Bo'lmagan gap deb kayfiyatini buzib nima qildim!» – o'yladi u va tabassum bilan javob berdi:

– Albatta, boramiz, jonim.

Ko'chaga chiqqach, xonim bekitiqcha bir narsani aytayotganday unga sirli qilib shivirladi:

– Men shu paytgacha bir narsani sendan so'rashga botinmagan edim. Lekin men faqat bo'ydoqlar boradigan va ayol kishilar borishdan tortinadigan yerlarga bosh tiqib ko'rishni juda ham sevaman. Karnaval kunlari maktab bola kiyimini kiyib olaman. Maktab kiyimida juda antiqa ko'rinaman.

Ular tansa zaliga kirganlarida, u qo'rqibgina, lekin mamnun bir qiyofada unga suykandi. U o'yinboz kishilar va yengil xotinlarga hayratlanib tikilardi. Goho-goho xavf tug'ilib qolgan taqdirda himoya qiladigan odamni qidirganday Dyuruaga qimir etmay turgan

devqomatli politsiyachini ko'rsatib: «Savlatini qara, ot hurkadi-ya!» – deb qo'yardi. Chorak soatlardan so'ng bularning bari uning joniga tegdi. Keyin Dyurua uni uyiga kuzatib qo'ydi.

Shundan so'ng ular yana bir necha marta avom xalq yig'iladigan joylarga borishdi. Shunda Dyurua daydi, erkin, tartibsiz hayot kechiradigan odamlarning hayoti o'zining ma'shuqasi uchun antiqa bir hayot bo'lib ko'rinishini bildi. Klotilda uchrashuvga polotno ko'ylak kiyib, boshiga vodevilda o'ynaydigan artistkalar iladigan ro'mol o'rab kelardi. Uning kiyimlari nafis, noyob, ayni choqda odmi bo'lardi. Buning ustiga u bilaguzuklar, uzuklar, sirg'alar ham taqar, Dyurua undan bularni taqma deb qanchalar so'rashiga qaramasdan, doimo bir gapni aytardi:

– Bo'lmagan gap! Hamma bularni oddiy tosh deb o'ylaydi.

Shu maskarad kiyim-kechak uning didiga g'oyatda o'tirishgan edi, aslini olib qaraganda esa, uning niqoblanishi tovusnikidan farq qilmasdi, Klotilda ushbu libosga chirmanib, yomon dong'i ketgan buzuqxonalarga borar ekan, u Dyuruadan ishchi kiyimini kiyib olishni so'rar, biroq Dyurua o'z egniboshini tark etishni istamadi, bunday ustboshni hashamatli restoranlarda kanda qilmay qatnab turadigan odamlar kiyar, shuning uchun u hatto silindrini yumshoq to'r shlyapaga almashtirishni ham xohlamadi.

– Mayli, odamlar meni badavlat xonadonning xodimasi ekan, aslzoda yigit uning boshini aylantirib yurgan ekan, deb o'ylasha qolsinlar, – o'zini ovuntirdi Klotilda Dyuruani hech ko'ndirolmagach.

Bu masxarabozlik unga chinakam huzur bag'ishlar edi.

Ular arzonigina qovoqxonalarga kirib, nim qorong'i, tamaki tutunlariga to'lgan xonaning oxiriga borib, liqillab turgan stol-stullarga o'tirishardi. Xona achchiq dim tutunga to'lgan, tutunga qovurilgan baliqning dudi aralashgan bo'lardi. Keng kalta ko'ylak kiyib olgan erkak kishilar stakanlarda may tortib, g'ovur-g'uvur qilib o'tirishardi. Garson ushbu g'alati juftga hayron bo'lib qarab, ularning oldiga ichiga olcha arag'i solingan ikki qadah qo'yib ketardi.

Hurkkan, qilpillagan, lekin baxtiyor bo'lgan juvon atrofga cho'g'day ko'zlarini yugurtirib, olazarak nigoh tashlagancha qizil ichimlikdan oz-ozdan totinib o'tirardi. Yutgan har bir olchasi unga nazarida bir jinoyat bo'lib ko'rinar, alangali va xush isli ichimlik-

ning har qultumi ichiga tushganda, u o'zini allaqanday uyat, man etilgan ish qilganday sezib, shu sezgidan joni beqiyos bir o'tkir huzur ichra cho'mardi.

Keyin u ovozini pasaytirib derdi:

– Yur endi, ketamiz.

Shundan so'ng ular bu yerdan chiqib, ketishardi. U ko'zlarini yerga qadagancha, xuddi sahnadan chiqib ketayotgan aktrisalarga o'xshab mayda qadamlar bilan tez-tez yurib stollarga tayanib qolgan mast-alastlar orasidan o'tib borar, ular juvonnei sergak tortib, yov qarash qilib kuzatib qolar edilar. Ostonadan o'tgan hamono u xuddi og'ir xatardan qutulgan odamday erkin nafas olardi.

Ba'zi kezlar u dag'-dag' titragan bir alfozda yo'ldoshiga qarata derdi:

– Mana shunday joylarda meni haqorat qilib qo'ysalar, nima qilarding?

Dyurua chiranib, ko'kraklariga urib derdi:

– Eh-he, seni qanday himoya qilishni o'zim bilaman!

Uning gaplaridan dili charaqlab ochilgan Dyuruaning qo'llarini siqar, ehtimolki, ko'nglining tubida o'zini haqorat qilishlari va shundan so'ng himoya etishlarini istar, uning oshig'i qanday bo'lmasin, erkaklar bilan u tufayli jang qilishini xohlardi.

Biroq haftasiga ikki-uch bor takrorlanadigan bu sayillar Dyuruaning jomiga tegdi. Buning ustiga har safar ichimlik va izvosh uchun pul topish borgan sari og'irlashib ketmoqdaydi.

Shu kezlar u qattiq muhtojlikda yashar, muhtojlik temir yo'l boshqarmasida ishlagan paytlaridagidan ham battarroq edi, zotan, jurnalistlik qila boshlagandan beri birinchi oylarda u keyin katta-katta topaman degan umid bilan pulini rejasiz, hisobsiz sarflab qo'ydi va axiyri barcha mablag'larini yeb bitirib, o'ziga pul topish yo'llarini berkitib tashladi.

Kassadan olib turay desa, yo'l yo'q, to'rt oylik moyanani oldindan olib qo'ygan, buning ustiga bo'lajak gonorar hisobidan yana olti yuz frank qarz ham ko'targandi. Forestedan yuz, hamyoni hamma uchun ochiq Jak Rivaldan uch yuz, bulardan tashqari undan-mundan besh-o'n frankdan olaverib, boshdan-oyoq qarzga botgandi.

U maslahat so'rab Sen-Potenga murojaat qilgan edi, bunaqa ishlarni do'ndirib tashlaydigan do'sti ham qayerdan yuz frank olib

tursam ekan. deb ancha bosh qotirdi-yu, baribir chora topolmadi. Shunda bunday muhtojlikka qarshi Dyurua qalbida g'alayon boshlandi, chunki chorasiz bo'lib qolgan, ehtiyojlari avvalgilarga qaraganda ancha zo'rayib ketgan, biroq unumning tayini yo'q edi. Uning yuragida yashirin qahr-g'azab orta bordi. Olam ko'zlariga xunuk va qorong'i ko'rindi. Arzimagan narsalardan tez jahli chiqadigan, tajang bo'ladigan bo'lib qoldi.

Ko'p mahallar u o'ziga o'zi savol berib ko'rardi: ortiqcha katta yeb, katta ichayotgani, ko'ngliga nima kelsa, shuni qilayotgani yo'g'-u, nega endi oyiga o'rtacha ming frankka yaqin sarf bo'lib ketmoqda? Biroq bundoq o'tirib hisoblab ko'rsa, shularni aniqladi: zo'r bir restoranda qilinadigan nonushta sakkiz frank turadi. Tushlik – o'n ikki frank, demak, bir luidor bo'ldimi, endi kuniga mayda-chuydaga behisob suvdek oqib ketadigan xarajatlarga o'n frank ajratsak, hammasi bo'lib o'ttiz frank bo'ladi. Kuniga o'ttiz frankdan ketganda, oyiga to'qqiz yuz frank bo'ladi. Bunga hali kimyim-kechak, ularni yuvdirish va hokazolar kirmasdi.

Shundan qilib, o'n to'rtinchi dekabrga kelib uning cho'ntagida bir pul ham qolmadi. Kimdan qarz olsamikin deb qancha bosh qotirmasin, baribir qarz olib bo'ladigan odam topolmadi.

Xuddi ilgari paytlaridagidek, u nonushta qilolmay qoldi va kun bo'yi tashvishga tushgan, darg'azab bo'lgan holda tahririyatda o'tirdi.

Soat to'rtlarda u ma'shuqasidan ko'k xat oldi: «Birga tushlik qilamiz, istaysanmi? Keyin biron yerga o'ynagani boramiz».

Dyurua shu zahoti: «Hech iloji yo'q», deb yozib jo'natdi. Keyin u bilan o'tkaziladigan ajoyib damlardan qochib o'tirish bema'nilik-ku, deb o'yladi-da, yana qo'shimcha qilib qo'ydi: «Soat to'qqizda seni o'zimizning uyimizda kutaman».

Telegrammaga tanga sarflab o'tirmaslik uchun xatni tahririyatning yugurdaklaridan biriga berib jo'natdi. Keyin qayerdan pul topsam ekan deb, yana xayolga toldi.

Soat yetti ham bo'ldiki, u hamon bir fikrga kelmagandi. Kamoli ochqaganidan qorni pastga osilib ketayotganday bo'ldi. Shunda u nima bo'lsa bo'ldi, deb so'nggi qarorga keldi: hamma tahririyat xodimlari chiqib ketishini kutib o'tirdi-da, keyin qo'ng'iroq chaldi. Boshliqning binoni qo'riqlash uchun qolgan qorovuli keldi.

Uni ko'rib Dyurua asabiy suratda cho'ntaklarini kovlashtira boshladi.

– Menga qarang. Fukar – dedi u parvosizlik bilan, – men hamyonimni uyda qoldirib kelaveribman. Hozir Lyuksemburg bog'iga shoshilinch ziyofatga borishim kerak. Menga izvoshga ellik su berib turing.

Qorovul nimchasining cho'ntagidan uch frank chiqardi-da, so'radi:

– Boshqa kerakmasmi, janob Dyurua?

– Yo'q, yo'q, yetadi. Katta rahmat.

Dyurua kumush tangalarni ola solib zinalardan pastga yugurdi. Qora kunlarida o'zi doim ovqatlanib yuradigan oshxonaga borib tamaddi qildi.

Soat to'qqizda u o'zlarining mo'jazgina mehmonxonalarida oyoqlarini kaminda isitib, ma'shuqasini kutib o'tirardi.

U xandon-xushxon, quvnoq, sovuqdan qizarib ketgan holda kirib keldi.

– Oldin bir aylanib kelmaymizmi? – deb taklif qildi Klotilda. Soat 11 lardan keyin uyga qaytardik? Havo biram ajoyib.

– Qo'ysang-chi. Shu yeming o'zi ham yaxshi-ku, – dedi Dyurua po'ng'illab.

– Oyning qanaqaligini aytmaysanmi, bir ko'rsayding! – shlyapasini yechmagan ko'yi davom etdi Klotilda. – Bunday kechada sayr qilishning o'zgacha gashti bor.

– Bo'lsa bordir, lekin mening sayilga tobim kelmay turibdi.

Uning ko'zlari qahrli yiltirab ketdi. Klotilda ajablandi. Xafa bo'ldi.

– Nima qildi? – so'radi u. – Shu ham muomalami? Mening aylangim keldi, xolos, shunga shuncha zardami?

Dyurua sakrab turib ketdi.

– Zarda qilayotganim yo'q! – tajang dedi u. – Jonimga tegib ketdi hammasi. Gap shu!

De Marel xonim birovning qaysarligini yoqtirmaydigan, qo'polligini ko'tarolmaydigan ayollar toifasidan edi.

– Men bilan bunday gaplashishga yo'l qo'ymayman, – dedi u Dyuruaga nafratomuz nazar tashlab qahr bilan. – Men bir o'zim boraman. Xayr!

Ish chatoqlashib borayotganligini ko'rgan Dyurua o'zini unga otdi va qo'llarini o'pa boshladi.

– Kechir, jonim, kechir, – deb g'o'ldirardi u, – bugun negadir juda kayfiyatim buzuq, sal narsaga jahlim chiqib ketyapti. Ishim qanchalar og'irligini o'zing bilasan...

– Buning menga sira daxli yo'q, – hali ham jahldan tushmagan, lekin birmuncha yumshagan holda dedi juvon. – Alamingizni mendan olishingizni sira ham istamayman.

Dyurua uni quchoqlab, divanga olib keldi.

– Menga qara, shakarim, seni sira ham xafa qilmoqchi emasdim. Men o'ylamay gapirib yuboribman.

Uni zo'rlab o'tqazib, o'zi uning oldida tiz cho'kdi.

– Sen meni kechirding, a? Kechirdim, de.

– Yaxshi, lekin ikkinchi bu qaytarilmasin, – sovuqqina qilib dedi Klotilda va o'midan turdi. – Endi yur, o'ynab kelamiz.

Dyurua hamon tiz cho'kib o'tirgancha, uning oyoqlarini quchoqlab turar va g'o'ldirab derdi:

– Iltimos. Shu yerda qolaylik. Yalinaman. Bir marta aytganimga kir. Bu oqshomni sen bilan shu yerda, kamin oldida o'tirib qarshi olaylik. Xo'p de, iltimos. Xo'p de.

– Yo'q, – aniq va qat'iy qilib dedi jonon. – Men sayr qilmoqchiman, men sening injiqliklaringni eshitib o'tirmoqchi emasman.

– Yalinib so'rayman sendan, – qo'ymasdi Dyurua ham. – Sababi bor, juda jiddiy sababi bor...

– Yo'q, – cho'rt kesdi jonon. – Istamasang, sening ishing. Men bir o'zim boraman. Xayr.

U Dyuruaning qo'lidan yulqinib chiqdi-da, eshikka qarab yurdi. Dyurua o'midan turib mahkam quchoqlab oldi.

– Quloq sol, Klo, jonajonim Klo, quloq sol, bir gal mayli de...

Juvon boshini yo'q, deb sarak-sarak qilar, uning o'pichlaridan o'zini olib qochar, quchoqlaridan bo'shanib chiqishga intilardi.

– Klo, azizim, mehribonim Klo, tushunsang-chi axir, sababi bor...

Juvon to'xtab uning yuziga qaradi.

– Aldayapsan... Qanday sabab?

Dyurua qizarib ketdi, u nima deyishini bilmasdi.

– Ko‘rib turibman aldayotganingni... Yaramas! – qattiq norozi bo‘lib dedi Klotilda.

U yulqinib uning qo‘llaridan chiqdi. ko‘zlarida yosh g‘iltillardi.

Qiyinalib ketgan, bor gapni aytib berishga qaror qilgan Dyurua, ishqilib, Klotilda ketib qolmasin deb, yana uning yelkalaridan tutdi va iztirob ichida dedi:

– Axir, mening bir tiyinin ham yo‘q... Ana!

Juvon o‘g‘irilib qaradi va to‘g‘ri so‘zlayaptimi, yo‘qmi, deganday, ko‘zlariga tikildi.

– Nima deding?

Dyuruaning lavlagisi chiqib ketdi.

– Bir tiyin ham pulim yo‘q. Tushundingmi? Bir tiyin, agarda kafega kiradigan bo‘lsak, bir ryumka likyorga ham to‘laydigan pulim yo‘q. Meni uyaltirib, shuni aytishga majbur qilding. Sen bilan ko‘chaga chiqib stolga o‘tirgandan keyin narsa chaqirtirib, keyin xuddi hech narsa bo‘lmaganday ko‘zimni lo‘q qilib senga, pulim yo‘q, deymasdim-ku, axir.

– Shunday degin... Rostdanmi?

Dyurua ko‘z ochib-yumguncha shimi, nimchasi, pidjagining cho‘ntaklarini ag‘darib tashladi.

– Bo‘ldimi... xursandmisan endi? – tishlarini g‘ijirlatib so‘radi u.

Juvon quchoqlarini ochib, mehri jo‘sh urib o‘zini uning bag‘riga otdi, bo‘ynidan quchoqlab oldi.

– O, sho‘rlikkinam, sho‘rlik bolajon! Sho‘rlikkinam!.. Men bilsaydim! Nega bunday bo‘ldi?

Klotilda uni o‘tqizdi, o‘zi uning tizzasiga o‘tirdi va bo‘ynidan mahkam quchoqlab, tinimsiz murti, lablari, ko‘zlaridan o‘pa boshladi, qanday qilib, bu ahvolga tushib qolganini aytib berishini so‘radi.

Dyurua birpasda odamning xo‘rligini keltiradigan bir gap to‘qidi: otamga yordam berishim kerak bo‘lib qoldi, unga hamma pullarimni berdim, qarzga botdim.

– Kamida yarim yil och yurishimga to‘g‘ri keladi, barcha mablag‘larim tugadi, – dedi u. – Mayli, zarari yo‘q, hayotda bunday voqealar bo‘lib turadi. Bir kanim pul deb, xafa bo‘lib o‘tirishim kerakmi?

– Senga pul qarz berib tursam maylimi? – uning qulogʻiga shivirladi Klotilda.

– Sen juda ham oq koʻngilsan, jonim, – gʻurur bilan javob berdi Dyurua, – bas, bu haqda boshqa gaplashmaymiz, iltimos. Xafa boʻlaman.

Klotilda jim boʻlib qoldi.

– Seni qanchalar sevishimni bilsayding! – dedi sal oʻtmay juvon uni quchoqlariga bosib erkalarkan.

Shu kecha ularning bir mehrlariga oʻn mehr qoʻshilgan kecha boʻldi.

Ketishga otlanarkan, Klotilda jilmayib turib dedi:

– Sening ahvolingga tushib qolgan odam toʻsindan choʻntaklarining bir burchiga tushib ketgan pulni topib olsa qanchalar quvonib ketarkin. Toʻgʻrimi?

– Toʻgʻri boʻlganda qandoq! – rostdan shunga ishonib dedi Dyurua.

Klotilda havo juda ham ajoyib, degan bahona bilan uygacha yayov ketadigan boʻldi. Yoʻl boʻyi osmondagi oyni maqtab bordi.

Kecha tiniq va sovuq edi – bunday kechalar qish boshlanishida boʻladi. Otlar va odamlar yengilgina sovuqdan qadamlarini tezlatgandilar. Yoʻlkalardan poshnalarning toʻqillagani aniq jaranglab eshitilardi.

– Indinga uchrashamiz, maylimi? – soʻradi Klotilda xayrlasharkan.

– Ha, albatta.

– Oʻsha soatdami?

– Oʻsha soatda.

– Xayr endi, jonim.

Ular yuraklari sevgi bilan toʻlib, oʻpishib xayrlashdilar.

Dyurua roʻy bergan ahvoldan qanday qutulish, ertaga nimalar qilish mumkinligini oʻylab, uyga katta-katta qadamlar bilan yurib ketdi. Lekin oʻz xonasining eshigini ochib, nimchasining choʻntagidan gugurt izlarkan, barmoqlariga tanga ilinib, hayron boʻldi.

U chiroqni yoqdi, tangani qoʻliga olib qaradi. Bu yigirma frankli tilla tanga edi!

Nazarida, esdan ogʻayotganday boʻldi.

U tangam u yoqdan bu yoqqa aylantirib ko'rar, uning qayerdan kelib qolganligini bilmoqchi bo'lardi. Osmondan tushmagan-dir-ku, axir!

Nihoyat, bildi va jon-poni chiqib ketdi. Haligina ma'shuqasi aytuvdi-ya, ba'zan tanga cho'ntakning bir burchiga tushib ketib, keyin odam topib olsa suyunib ketadi, deb. Demak, unga sadaqa tashlab ketibdi-da. Sharmandalik!

U so'kindi:

– Yaxshi! Shoshmay tur, indinga kuningni ko'rsataman! Bir-pas joningni olmasammi sening!

U darg'azab bo'lgan, haqoratlangan holda uxlagani yotdi.

Ertalab kech uyg'ondi. Ochlikdan ichi tatalanib ketmoqdaydi. U soat ikkidan burun turmaslik niyatida yana yotib uxlamochi bo'ldi. Keyin o'ziga dedi:

– Shu ham gapmi, nima bo'lganda ham pul topishim kerak.

Ko'chada boshimga bir fikr kelib qolar, degan umidda otlanib uydan chiqdi.

Baribir kallasiga bir fikr kelmadi, restoranlar yonidan o'tganda esa og'zidan so'lakayi oqdi. Kun peshinga borganda, boshqa chorasi qolmadi: «Mayli, yigirma frankdan ozroq ishlatib turaman. Ertaga o'mini to'ldirib qaytarib beraman».

Dyurua pivoxonaga kirib ikki yarim frank sarflab chiqdi. Tahririyatga kelgach, qorovulga qarzini qaytardi.

– Oling, Fukar, kecha sizdan izvoshga oluvdim.

Soat yettigacha ishladi. Keyin ovqatlangani bordi va yana uch frank ishlatdi. Kechki ikki krujka pivo bilan hammasi bo'lib bir kunlik sarf-xarajati to'qqiz frank-u o'ttiz santimga yetdi.

Bir kunning o'zida buncha pulning o'mini to'ldirib qo'yish yoki tirikchilik uchun yangi bir manba topishning iloji yo'q edi, shuning uchun ertasiga u yana yigirma frankning olti yarim frankini ishlatishga majbur bo'ldi. U yigirma frankni kechqurun qaytarib berishga jazm qilgandi, biroq kechqurun uchrashuvga kelganida cho'ntagida bor-yo'g'i to'rt frank-u yigirma santim pul qolgandi, xolos.

U chayon chaqib olganday gezarib, jahl otiga minib turdi, ma'shuqasi bilan orani ochdi qilib olmoqchi bo'ldi. U taxminan shunday demoqchi edi: «Sen cho'ntagimga solib ketgan yigirma

frankni topib oldim. Men uni senga bugun qaytarolmayman, chunki ahvolim o'sha-o'sha. O'zgargani yo'q, negaki, pul masalasi bilan shug'ullanishga sira vaqtim yo'q. Lekin kelasi safar senga, albatta, qarzimni qaytaraman».

Klotilda eshikdan kirishi bilan unga mayin, hurkak, shu bilan birga yalinchoq nazar tashladi. Uni qanday qabul qilarkin? Gapmi nariroqqa surish uchun uni uzoq o'pdi.

Dyurua esa bu payt shunday deb o'ylardi: «U bilan hali bu haqda gaplashib ulguraman. Bahona topilsa bo'lgani».

Lekin qancha urinmasin, bahona topilavermadi va unga hech narsa demadi: aftidan, puldan gap ochishga jur'at qilolmas edi.

Klotilda bo'lsa endi sayr qilamiz, deb xarxasha qilmas, qaytaga ko'p dilbarliklar ko'rgazmoqdaydi.

Ular kelasi haftaning chorshanba kuniga uchrashuv tayin qilib, yarim kechaga yaqin xayrlashdilar. Kelasi hafta uni ketma-ket bir qancha ziyofatlarga taklif qilishgan ekan.

Dyurua ertasiga restoranda ovqat qildi, u lakey bilan hisob-kitob qilish uchun cho'ntagiga qo'l suqqan edi, kechagi qolgan to'rt tanga o'miga qo'lga beshta tanga chiqdi. Tag'in tangalarning biri tilla edi.

Birinchi kallasiga kelgan gap kecha qaytim bilan birga yanglishib tilla tanga berib yuboribdilar, deb o'yladi, biroq sal o'tmay gap nimadaligini tushundi va yuragi o'ynab ketdi – tilanmagan bu sadaqa naqadar odamni yerga urar edi.

Nega kecha uni boplamadi! Sal achchiqroq gapirganimdami, bunday qiliqni ikkinchi marta takrorlamagan bo'lardi.

U to'rt kun urinib besh luidor topishga harakat qilib ko'rdi, biroq udda qilolmadi, aloha Klotildaning ikkinchi luidorini ham ishlatishga majbur bo'ldi.

Ular uchrashganlaridan so'ng Dyurua darhol unga po'pisa qilib qo'ydi: «Menga qara, bu qiliqlaringni bas qil. Bo'lmasa qattiq xafalashib qolamiz». Biroq u ketayotganda shimining cho'ntagiga yana yigirma frank solib ketibdi.

Bu pulni ko'rib, Dyurua: «Shayton!» – deb g'udrandi. Biroq uning karmonida bir santim ham bo'lmaganidan u pullarni shimidan olib nimchasining kissasiga solib qo'ydi: qo'l ostida bo'lgani yaxshi-da, harqalay.

«Unga hammasini bir qilib qaytaraman, – deb yupatardi oʻz vijdonini u. – Qarz olayotgandayman hisobi».

Kassir nihoyat uning yalinib-yolvorishlariga chidolmay, har kuni besh frankdan berib turadigan boʻldi. Bu yeb-ichishiga yetib turar, lekin oltmish frankka chiqib ketgan qarzni toʻlashga sira ham imkon bermasdi.

Bu orada Klotilda yana Parijning barcha pastqam qovoqxonalari tunda kezish ishtiyoqiga tushib qoldi, ushbu xavfli sarguzashtlardan soʻng choʻntagidan tilla tanga topib olsa, Dyurua endi xafa boʻlmas, tangalar goh choʻntagidan, goh botinkasining ichidan, goh soatining gʻilofidan chiqib qolardi.

Hamonki, u xonimning koʻnglini ololmayotgan ekan, bu nagʻmalardan voz kechish oʻrniga pullarni xonimning oʻzi toʻlayotgan ekan, buning nimasi yomon?

Shunday boʻlsa ham, Dyurua Klotilda berayotgan pullarni hisoblab yurar, vaqti kelib bir kun qaytaraman deb oʻylardi.

Bir kuni kechqurun Klotilda unga dedi: – Bilasanmi, men biron marta ham Foli-Berjerga borganim yoʻq. Boramizmi?

Dyurua nima deyishini bilmasdi: u Rashel bilan duch kelib qoʻlishdan qoʻrqib turardi. Lekin shu zahoti: «Mayli! Nima, mening xotinimmidi? Meni koʻrsa, oʻzi tushunar, gap qoʻzgʻab yurmas. Buning ustiga biz lojada oʻtiramiz-ku, axir», deb oʻyladi.

Uning rozi boʻlishiga yana bir sabab bor edi: u shuning bilan de Marel xonimni teatr lojasiga taklif qilish sharafiga muyassar boʻlgan va buning uchun hech narsa toʻlamas ham edi. Undan tashqari Klotilda qilayotgan yaxshiliklarga andak boʻlsa ham yaxshilik bilan javob qaytarganday boʻlardi bir hisobda.

Dyurua Klotildani karetda qoldirib, oʻzi kontramarka olgani ketdi.

Klotilda ichkariga kirish uchun pul toʻlanmaganligini bilishini istamasdi. U qaytib kelgandan keyin taʼzim qilib turgan kotrolyorlar oldidan ichkariga kirib ketishdi.

Foye toʻla odam edi. Ular erkaklar va shavaqi xotinlar izdihomi orasidan bazoʻr oʻtib olishdi. Nihoyat, gʻuvillab yotgan galerka jimjit parter orasida siqilib qolishdi.

De Marel xonim sahnaga qaramas, u loja ortlarida kezib yurgan satanglardan ko'zlarini uzmas edi. Ularga ha desa o'girilib qarar, boshdan-oyoq razm solar, ularni ushlab ko'rgisi, korsajlari, yuzlari, sochlarini paypaslab bu g'alati mavjudotlar nimalardan yasalganini bilmoqchiday bo'lardi.

Kutilmaganda u Dyuruaga qarab dedi:

– Anov semiz qoracha xotin nuqul bizga qaragani qaragan. U xuddi biz bilan gaplashgisi kelayotganga o'xshaydi. Ko'zing tushdimi?

– Yo'q, senga shunday tuyulayotgandir, – e'tiroz bildirdi Dyurua.

Lekin u allaqachon Rashelni ko'rgandi. Rashel ularning lojasi atrofidan ketmas, ko'zlari yovuz yiltirar, tilidan alamli qarg'ishlar otilay deb turganga o'xshardi.

Dyurua hozirgina u bilan ro'para kelib qolgan. Rashel unga sekingina «Salom» degan, mug'ambirona qisilgan ko'zlari esa, «tushunib turibman» degan ma'noni anglatganday edi. Biroq ma'shuqasidan qo'rqib unga javob bermagan, boshini baland ko'tarib, lablarini takabburona qisgancha sovuqqina o'tib ketgandi. Anglashilmas bir rashkning so'ziga kirgan Rashel uning orqasidan borib, yelkasiga turtgan va ovozini endi balandroq ko'tarib:

– Salom, Jorj, – degan edi.

Dyurua yana javob bermagandi. Shunda Rashel nima bo'lmasin o'zini tanitish maqsadi-da salomlashish uchun qulay fursat kutib ularning atrofida aylana boshlagandi.

De Marel xonim qarayotganligini sezgandan keyin u Dyuruaning oldiga kelib, uning yelkasiga qo'lini tekkizdi.

– Salom. Ahvollaring yaxshimi?

Dyurua hatto o'girilib ham qaramadi.

– Nima, darrov kar bo'lib qoldingmi?

Dyurua unga javob berib o'tirmadi, o'zining shu nafratomuz boqishida bu pastarin maxluq bilan muomala qilib o'tirishni lozim ko'rmaganligini bildirib turardi.

Rashel zaharxanda tashlab xoxoladi:

– Iye, sen hali soqov ham bo'lib qolibsan-ku? – tilini tiymasdi u. – Nahotki manovi xonimcha tilingni tishlab olgan bo'lsa?

Dyurua pashshani haydagan kabi harakat qildi.

– Men bilan bunday gaplashgani nima haqqingiz bor? – darg‘azab bo‘lib baqirdi u. – Jo‘nang bu yerdan, bo‘lmasa, aytaman, ushlab olib ketishadi.

– Hali shunaqamisan?! – ko‘zlarini yaltillatib qichqirdi Rashel quturgancha. – Voy, ablah! Men bilan yotishni bilasan-u salomlashishni bilmay qoldingmi? Bugun boshqasini yetaklagan bo‘lsang, meni tanimay qolarkansan-da, a? Oldingdan o‘tayotganimda boshingni shundoq silkib qo‘ya qolsang, nima, asakang ketarmidi? Men ham indamas edim. Burningni ko‘targaningni qara-chi! Qilig‘ing qursin! Senga ko‘rsatib qo‘yaman! Hali shundaymi! Sen salomlashmay ham o‘tding-a, men bilan...

U hali ancha nadomat qilmoqchi edi, lekin de Marel xonim lojadan chiqib qocha boshladi, eshikni axtarib, o‘zini u yoqdan bu yoqqa urdi.

Dyurua uning orqasidan chopdi.

Rashel ular qochib qutulmoqchi bo‘lganlarini ko‘rib, masxara qilib qichqirdi:

– Ushlanglar uni! Ushlanglar! U mening o‘ynashimni o‘g‘irlab ketdi!

Odamlar ichida kulgi ko‘tarildi. Ikkita erkak Klotildani ushlab chetga sudramoqchi, o‘pmoqchi bo‘ldi. Biroq Dyurua unga yetib olib Klotildani ularning qo‘lidan tortib oldi va ko‘chaga olib chiqdi.

Klotilda yon ko‘chada turgan bo‘sh ekipajga o‘zini urdi. Dyurua ham uning ketidan sakrab chiqdi. Izvoshchining: «Qayerga yurayin, janob?»,– degan savoliga: «Istagan yeringizga», – deb javob berdi.

Kareta ohista joyidan jildi, g‘ildiraklar ko‘cha toshlariga tegib sakray boshladi. Klotilda yuzlarini qo‘llari bilan to‘siib oldi, u xuddi hushsiz qolganga o‘xshardi. Unga havo yetishmas, bo‘g‘ilib, zo‘rg‘a nafas olmoqda edi. Dyurua nima qilishini, nima deyishini bilmasdi. Nihoyat, uning yig‘layotganini eshitib g‘o‘ldiradi:

– Quloq sol, Klo, jonim Klo, senga tushuntirib beraman! Men aybdor emasman... Men u xotin bilan uchrashganimga ancha zamonlar bo‘lib ketdi... men unda endigina...

Klotilda yuzidan qo'llarini shart oldi: uning butun vujudini qahr, sevgan va aldangan ayollarda bo'ladigan dahshatli qahr chulg'ab oldi. U tili kalimaga kelgan zahoti qisqa-qisqa nafas olib tez-tez, uzuq-yuluq so'zlay boshladi:

– Voy ablah... ablah... Pastkash!. Meni qara-ya... Sharmandalik!.. O, Xudoyim, qanday sharmandalik!..

Uning ongi tiniqlashgan, aqli o'ziga kelgan sayin qahr-g'azabi ham ortib borar, borgan sari uning sha'niga og'ir ta'na toshlarini otardi.

– Unga mening pullarimdan to'lab turgan bo'lsang kerakda, a? Yana unga pul berib yuribman-a... oyimtilla uchun... oh, ablah!..

U bir necha daqiqa yana ham og'irroq ta'sir qiladigan so'z qidirganday jim bo'lib qoldi, lekin bunday so'zni topolmadi, shekilli, birdan xuddi uning yuzlariga tupurmoqchi bo'lganday, vajo-hat bilan qarg'ay boshladi:

– Voy, to'ngiz, to'ng'iz. Mening pullarim bilan uni xursand qilibsan-da... To'ng'iz, to'ng'iz!..

Uning og'ziga boshqa so'z kelmas, nuqul bir so'zni qaytarardi:

– To'ng'iz, to'ng'iz...

Kutilmaganda u darchadan bosh suqib aravakashning yengidan ushladi-da, qichqirdi:

– To'xtang!

Eshikni ochib ko'chaga otilib tushdi.

Jorj ham uning ketidan apil-tapil tushmoqchi bo'lgan edi:

– Tushma izvoshdan! – deb shunday qattiq baqirib berdiki, natijada atrofiga birpasda odam yig'ildi.

Dyurua janjal chiqmasin deb, izvoshdan tushmayoq qo'ya qoldi.

Klotilda hamyonchasini olib, chiroqning yorug'ida ikki yarim frank sanab izvoshchiga uzatdi-da, hayajondan qaltiragan ovoz bilan tutilib-tutilib dedi:

– Mana... oling... Men to'layman... Men uchun manovi lakalov muttaha'mni Burso ko'chasiga, Batinolga eltib tashlang.

Tomosha qilib turganlar xaxolab kulishdi.

– Yasha, jonon! – dedi qandaydir bir janob. Ko'chada yurgan bolalardan biri esa, izvosh zinasiga sakrab chiqib, ochiq qolgan eshikdan boshini suqdi-da, chinqirib dedi:

– Oq yo‘l. Bibi!

Shundan so‘ng izvosh odamlarning qiyqirig‘i ostida yo‘lga tushdi.

VI

Ertasiga ertalab Jorj Dyurua o‘rnidan dili g‘ash bo‘lib turdi.

U shoshilmasdan kiyindi, deraza oldiga borib o‘tirdi-da, xayolga toldi. U o‘zini xuddi urib dabdala qilib tashlangan odamday yomon his qilar, badani shol-shol bo‘lib ketganga o‘xshardi.

Pulsizlik yana uni qamchilagandan ko‘chaga chiqishga majbur qildi. U Forestening oldiga yo‘l oldi.

Oshnasi kabinetida o‘tirib, oyog‘ini kaminga qo‘yib isitayotgan ekan.

– Kallayi saharlab birov quvib kelyaptimi seni?

– Muhim ish. Yigitlik qarzi.

– Karta desang-chi?

– Karta, – deb ta’kidladi biroz ikkilanib turgandan so‘ng Dyurua.

– Qancha? Kattami?

– Besh yuz frank!

Uning qarzlari faqat ikki yuz sakson frank edi.

– Kimdan qarz bo‘lib qolding? – ishonqiramay so‘radi Foreste.

Dyurua birdan nima deb javob berishini bilmay dovdiradi.

– Janob... janob... janob... e... de Karlevildan.

– Haa! U qayerda turarkan?

– Ko‘chasi... Xah! Ko‘ehasi...

Foreste xaxolab kulib yubordi.

– «Borsa kelmas» ko‘chasidan desang-chi, to‘grimi? Bilaman u janobni. Gap bundoq, azizim: senga yigirma frank berib turishim mumkin, lekin boshqa so‘rama.

Dyurua undan tilla tangani oldi.

Keyin u barcha tanishlarinikiga birma-bir kirib chiqdi, soat beshga borib zo‘rba-zo‘r sakson frank to‘play oldi.

Yana ikki yuz frank yetmay turardi, biroq u hozircha to‘xtab turishga qaror berdi, yiqqan pullarini berkitarkan, o‘ziga-o‘zi: «Tupurdim bariga, qandaydir bemaza xotin deb ich-etimni yeyishim

qoluvdimi endi! Qo'linga pul tushganda oborib beraman», deb qo'ydi.

U o'zini ancha qo'lga oldi: ikki hafta mobaynida o'zini ko'p narsalardan siqdi, ishga to'g'ri borib, to'g'ri kelib yurdi. Keyin yana hirs g'alayon qila boshladi. Nazarida, xuddi ayol kishini ko'rmaganiga bir necha yillar bo'lib ketganga o'xshardi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ko'cha-ko'yda xotin kishining etagini ko'rsa, yer ko'rgan matrosday boshi aylanib ketaverdi.

Bir kuni kechqurun u Rashelni ko'rish maqsadi-da yana Foli-Berjerga yo'l oldi. Rashel deyarli hamma vaqtini shu yerda o'tkazar, shuning uchun ham Dyurua ichkariga kirishi bilanoq ko'zi unga tushdi. Dyurua lablarida tabassum bilan unga peshvoz yurdi va qo'llarini uzatdi. Rashel unga boshdan-oyoq sarasof solib chiqdi.

– Menda ishingiz bormi?

Dyurua kulishga urimb ko'rdi.

– Bo'ldi, bo'ldi, jinni bo'lma.

Rashel orqasini o'girib oldi.

– Hezalaklarga tobim yo'q.

Rashel uni qattiq haqorat qildi. Dyurua qip-qizarib ketdi. Foli-Berjerdan yolg'iz chiqdi.

Tahririyatda esa kasal, holdan toygan, asov yo'tal bo'lib qolgan Foreste o'z hol joniga qo'ymasdi: go'yo atay qilganday nuqul unga eng bemaza topshiriqlarni berardi. Bir kuni uni qattiq yo'tal tutdi, dunyo ko'zlariga qorong'i ko'rmidi, shunda Dyuruadan so'ragan ma'lumotlarini ololmagach, po'ng'illadi:

– E, attang-a, men o'ylagandan ko'ra ham ahmoqroq bo'lib chiqding-ku.

Dyurua uning basharasiga solib yuborishdan o'zini bazo'r tutib qoldi va ketarkan, pichirladi:

– Shoshmay tur, hali senga ko'rsataman.

Kutilmaganda xayoliga bir fikr keldi.

– Boshingga muguz ilib qo'yaman hali, og'aynijon, – deb qo'shimcha qilib qo'ydi.

Keyin qo'llarini bir-biriga ishqagancha chiqib ketdi.

U o'z rejasini tezroq amalga oshirish fikriga tushdi. Ertasigayoq Foreste xonimning huzuriga yo'l oldi.

Xonim divanda kitob o'qib yotgan ekan.

Dyuruani ko'rgandan keyin ham o'midan turgani yo'q. Faqat boshini unga o'girib, qo'lini uzatdi.

– Salom, Azizim, – dedi u.

Dyuruaning nazarida yuziga tarsaki bilan tushirganday bo'ldi.

– Nega meni unday deyapsiz?

– O'tgan hafta men de Marel xonimni ko'rgan edim, u menga sizga shunday laqab berganlarini so'ylab berdi, – jilmaygancha dedi u.

Foreste xonimning nazokatli gap ohanglaridan uning ko'ngli joyiga tushdi. Nima, uning qo'rqadigan joyi bormi?

– Siz uni juda erkalab yubordingiz, – davom etdi xonim. – Mening oldimga esa xuddi kelishib olganday yilda bir kelasiz.

Dyurua o'tirdi va uni qiziqish bilan, antiqa narsalar yig'ib yuruvchi odamning o'zgacha bir qiziqishi bilan ko'zdan kechira boshladi. Bu oqpari, sochlari nafis va mayin juvon chindan ham faqat erkalash uchungina yaratilganga o'xshardi. «Bu chindanam anoviga qaraganda zo'rroq», – deb o'yladi u. Dyurua ishi o'ngidan kelishiga ishonardi. Mundoq qaraganda, qo'lingni uzatsang bas, o'zi pishgan mevaday uzilib kaftingga tushib turganga o'xshaydi.

– Sizning oldingizga hadeb kelavermaganim ma'qulroq ko'rinadi, – dadil gap boshladi u.

Xonim tushunmadi.

– Qanday qilib? Nega?

– Nega? O'zingiz bilmaysizmi?

– Yo'q, chin so'zim.

– Negaki, sizni yaxshi ko'raman... o, asta-sekin sizning ko'yingizda tamoman oshiqi beqaror bo'lib qolishdan qo'rqaman.

Xonim, aftidan, bundan na hayron bo'ldi, na ranjidi, na ko'ngli o'sdi. U hamon o'zining sipo tabassumi bilan jilmayib, xotirjam javob berdi:

– Baribir, menikiga kelib tursangiz bo'ladi-ku. Meni uzoq yaxshi ko'rib bo'lmaydi.

Dyurua uning so'zlaridan ham burun gapining ohangidan hayron qoldi.

– Nega?

– Chunki buning foydasi yo‘q va men to‘g‘risini aytib qo‘ya qolaman. Agar siz menga shu dardingizni avvalroq aytganingizda, men sizni bu yo‘ldan qaytargan va aksincha, mening oldimga tez-tez kelib turishni maslahat bergan bo‘lardim.

– Sezgilaringiz bizga bo‘ysunsa koshkiydi! – dedi Dyurua ko‘tarinki ohangda.

Xonim yuzini unga qaratdi.

– Qadrdon do‘stim, men oshiqi beqaror erkakni tan olmayman. U tentak bo‘lib qoladi: bundan ham ortiq – u xavfli odamga aylanadi. Meni ayol sifatida yaxshi ko‘radiganlar yoki atay o‘zini shunday ko‘rsatadiganlar bilan hamma munosabatlarimni to‘xtataman. Birinchidan, ular me‘damga tegib ketishadi. Ikkinchidan, ulardan quturgan itdan qo‘rqqanday qo‘rqaman, doim odamga tashlanaman, deb turishadi. Men undaylarni anchagacha o‘zimga yo‘latmay qo‘yaman, keyin ular tuzalib qolishadi. Shuni esingizda tuting. Men yaxshi bilaman, muhabbat sizga ochlikka o‘xshagan bir holat, men uchun esa u ruhiy munosabatga o‘xshash bir narsa, siz erkaklar bunga ishonmaysizlar. Sizlar ishqning zohiriy ko‘rinishiga e‘tibor berasizlar, menga esa uning ruhiy jihati kerak. Qani... mening ko‘zimga to‘g‘ri qarang-chi...

U endi kulmasdi. Chehrasida sovuq va xotirjam bir ifoda kezar, so‘zlari dona-dona eshitildi:

– Men hech qachon, eshityapsizmi, hech qachon sizga ma‘shuqa bo‘lmayman. Qaysarlikning foydasi yo‘q, hatto bu siz uchun zararli ham. Ana endi... operatsiyamiz tugadi... va biz do‘st, yaxshi do‘st bo‘lib qolishimiz mumkin. Lekin do‘st bo‘lganda ham chinakam, beg‘araz do‘st bo‘laylik. Xo‘pmi?

Dyurua hukm qat‘iy ekanligini, boshqa harakatlari zoe ketajagini angladi va taqdirga tan berdi, qaytaga o‘ziga shunday ittifoqchi va hamkor orttirayotganligidan quvondi-yu, sira ikkilanmasdan unga ikkala qo‘lini uzatdi:

– Kaminani o‘z ixtiyoringizda deb biling.

Foreste xonimga uning bu gapi samimiy bo‘lib eshitildi va u ham qo‘lini berdi.

Dyurua uning qo‘llarini o‘pdi va ko‘zlarini unga tikib yuragidan chiqarib dedi:

– Qasamyod qilamanki, agar sizga o'xshagan ayolni uchratganimda unga, albatta, uylangan bo'lardim!

Ayollar, odatda, Dyuruanikiga o'xshagan bunday maqtovlarni yuraklariga yaqin oladilar, shuning uchun ham xonim bu gapdan erib ketdi va unga shunday bir minnatdor qarash bilan boqdi, bu-naqangi qarash siz-u bizni o'ziga qul qilib oladi.

Keyin uning nima deb gap boshlashini bilmay turganligini ko'rib, xonim qo'llarini uning yelkasiga tekkizdi va mehribonlik bilan dedi:

– O'zimning do'stlik burchimni ado etishga o'taman. Siz atrofingizga e'tibor bermay qo'yibsiz...

Xonim yamланib qoldi.

– Siz bilan ochiqchasiga gaplashsam bo'ladimi?

– Ha.

– Rostmana, a?

– Rostmana.

– Gap bunday. Valter xonimni bir ko'rgani boring. Siz haqingizda u juda ham yaxshi fikrda. Unga yoqishga harakat qiling. Ana u yerda sizning maqtovlaringiz o'rinli bo'ladi, shunisi ham borki, u juda ham yaxshi xotin, eshityapsizmi, g'oyatda dilbar xotin. Shunday... u yerda ham otni qichaganingiz bilan hech narsaga erishmasligingiz mumkin. Biroq o'zingiz haqingizda yaxshi taassurot qoldirsangiz, ko'p narsaga erisha olasiz. Tahririyatda haliyam oshig'ingiz olchi bo'lib ketmaganidan xabarim bor. Bundan qisib o'tirmang. Ular barcha xodimlarini yaxshi kutib olishadi. Gapimni yerga tashlamay uning oldiga boring, xo'pmi?

– Qulluq, xonim, – dedi u tabassum bilan, – siz farishtasiz, siz mening xaloskor farishtamsiz.

Shundan so'ng suhbat boshqa mavzularga ko'chdi.

Dyurua bu yerda uzoq qolib ketdi, xonimning suhbatini o'zi uchun qanchalar yoqimli ekanligini yana bir karra ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ldi, shekilli, keta turib u yana so'radi:

– Shunday qilib, biz do'stimiz?

– Ha.

Dyurua boyagi maqtovi Foreste xonimga qanchalar ta'sir qilganligini payqagan edi, hozir shu taassurotni yanada mustahkamlash maqsadi-da qo'shib qo'ydi:

– Agar kezi kelib beva qolsangiz, meni o‘z ixtiyoringizda deb bilgaysiz.

Shunday dedi-yu, uning jahli chiqishini kutib turmasdan, xayrlashib jo‘nab qoldi.

Valter xonimnikiga tashrif buyurgani Dyurua qisinib yurardi: u Dyuruani sira taklif qilmagan, shundoq borishga esa, suykanib kelganini qara, degan gap bo‘ladimi deb istihola qilardi. Ikkinchi tomondan, boshliq uni hurmat qilar, xodim sifatida qadrlar, ko‘pincha eng mas‘uliyatli topshiriqlarni uning zimmasiga yuklardi, – shunga qaraganda, nega endi uning iltifotidan foydalanmasligi kerak, shu iltifot uning uyi eshigini ochishga kalit bo‘lolmaydimi, axir?

Shunday qilib, bir kun ertalab barvaqt turib Dyurua bozorga borib o‘n frankka yigirmata sara nok sotib oldi. Ularni savatchaga go‘yo olisdan keltirilganday qilib yaxshilab joyladi-da, Valterlarnikiga bordi va uni vizit xati bilan birga qorovulga tashlab keldi. Xatchaga shunday deb yozib ham qo‘ydi:

«Jorj Dyurua

Valter xonimdan rijoi ojizona tilaymankim, bugun erta bilan Normandiya dan keltirilgan ushbu tar mevalarni qabul aylasalar!»

Ertasiga u o‘zining tahririyatdagi pochta qutisida Valter xonimning vizit xati solingan konvert topdi, Valter xonim o‘z xatida «janob Jorj Dyuruaga alangali tashakkurlar» bildirgan va o‘zining «shanba kunlari qabul qilishini» ma‘lum qilgandi.

Shanba kelishi bilanoq Dyurua unikiga qarab ravona bo‘ldi.

Valter Malzerb bulvarida istiqomat qilar, uning o‘z shaxsiy uyi bo‘lib, ishbilarmon odam bo‘lganligidan uyining bir qismini ijara qo‘yib yashardi. Uyning birdan-bir qorovuli cherkov so‘filariga o‘xshagan g‘oyatda qomatdor kimsa bo‘lib egnidagi livreyining tugmalari tilladan, qaytarma yoqalari qirmizi, yo‘g‘on oyoqlarida oq paypoq bilan qo‘sh tavaqa eshik orasida turar, eshikni uy sohiblariga ham, ijarachilarga ham ochib berib turar, shundanmi, bu uy asilzodalarning hashamatli saroylariga o‘xshab ketardi.

Mehmon kutiladigan zallar ikkinchi qavatda bo‘lib, ularga eshiklariga darpardalar osilgan, devorlari gilamlar bilan qoplangan peshuydan o‘tib borilardi. Bu yerda ikki lakey stullarda mudrab o‘tirishardi. Ulardan biri Dyuruaning paltosini oldi, ikkinchisi

qo'lidagi asoni oldi va eshikni ochib, oldinga o'tdi-da, bo'sh zalga qarab uning ismini aytdi, keyin chetlanib unga yo'l berdi.

Dyurua talmovsirab atrofga alanglab turgan edi, shunda birdan oynada besh-oltita suhbatlashib o'tirgan odamlarni ko'rdi, ular go'yo juda uzoqda turganday bo'lib tuyuldilar. Avval u oynaga qarab adashib boshqa joyga borib qoldi, keyin ikkita bo'sh zaldan o'tib, o'ziga xos bezatilgan bir xonadan chiqdi. Xona gir aylantirib moviyrang ayiqtovon chechaklar solingan ipaklar bilan o'ralgandi. Bunda to'rt xonim dumaloq stolcha atrofida o'tirgancha choy ichib suhbatlashmoqda edilar.

Dyurua markazda yashab, kasbi yuzasidan turli mashhur odamlar bilan uchrashib, o'zini beparvo tutishga o'rgangan edi, biroq mana bu hashamatli xonalar ichiga kirib, ikki bo'm-bo'sh zaldan o'tgach, birmuncha dovdirab qoldi.

– Xonim afandim, men jur'at etib... – pichirladi u va ko'zlari bilan uy bekasini qidirdi.

Valter xonim unga qo'lini uzatdi. Dyurua uning qo'llarini siqdi. Shunda beligacha bukilib ketdi.

– Afandim, iltifot ko'rgazib kelganligingizdan juda minnatdormiz, – dedi xonim Dyuruaga o'tirgani kreslo ko'rsatib. Kreslo Dyuruaga juda baland ko'ringandi, lekin o'tirgach, pastga cho'kib ketdi.

Jimlik cho'kdi. Nihoyat, xonimlardan biri tilga kirdi. U, kunlar juda sovuq bo'lib qoldi, lekin bu sovuq ich terlama tarqalishining oldini oladigan darajada qattiq emas, konkida ham tuzukroq uchib bo'lmaydi, dedi. Shundan so'ng barcha xonimlar Parijda turgan sovuqlar-u yilning qaysi fasli yaxshiroq ekanligi xususida gapga tushib ketdilar, bu ezmaliklar hammasi siyqa, xonaga o'tirgan chang kabi miyalariga o'mashib qolgandi.

Eshik eshitilar-eshtilmas g'irchilladi. Dyurua o'girilib qaradi va amalgama qoplanmagan ikki oynadan yaqinlashib kelayotgan gavdali bir xonimni ko'rdi. U xonaga kirib kelishi bilan o'tirganlarning biri o'midan turib, hammaning qo'lini siqib xayrlashdi va chiqib ketdi. Dyurua bo'm-bo'sh zallardan o'tib borayotgan bu xonimning injular qadalgan kabi yiltillab jilvalanib borayotgan qora libosini ko'zlari bilan kuzatib qoldi.

Yangi mehmon tufayli qo'zg'algan hayajon bosilgach, gap aylanib o'zidan-o'zi Marokashdagi voqealarga. Sharqda borayotgan urushlarga va Janubiy Afrikada Angliya duch kelayotgan qiyinchiliklarga ko'chdi.

Bu masalalarni muhokama qilisharkan, xonimlar sahnada ko'p marta o'ynalgan, axloq-odob doirasidan chiqmaydigan kiborlar komediyasini ko'rsatayotganday bo'lishar, hammaning o'z rolini suv qilib ichib yuborgani shundoq bilinib turardi.

Yana mehmon keldi. Bu, kichkinagina, sochlarini jingalak qildirgan juvon edi. U kelgandan keyin baland bo'yli, qotmaroq yoshi o'tganroq xonim chiqib ketdi.

Line haqida gap ketdi, u akademik bo'la oladimi, yo'qmi, muhokama qildilar. Yangi kelgan xonim ajoyib «Don Kixot» she'riy dramasi muallifi Kabanon Leba Linening yo'lini to'sib chiqadi, deb qattiq ishonar ekan.

– Bilasizmi, qishda uning asarini Odeon qo'ymoqchi!

– Rostdan-a? Albatta, borib ko'raman – u chinakam san'at asari.

Valter xonimning ovozi ravon, iltifotli va loqayd edi: u hech qachon aytadigan so'zlarini o'ylab o'tirmas, – u doimo boshqalardan eshitilgan, qolipi tayyor gaplarni aytardi.

Xonaga qorong'i tushdi. Valter xonim lakeyni chaqirib, chiroqlarni yoqishni buyurdi, shu orada u bo'lajak ziyofat uchun litografiyaga taklifnomalar buyurtirish yodidan ko'tarilganini eslatdi, ayni choqda jilg'aday shildirab oqayotgan suhbat maromiga ham quloq solardi.

Biroz to'lishib qolgan, biroq hamon chiroyini yo'qotmagan Valter xonim ayollarni o'tin qilib qo'yadigan xavfli bir yoshning arafasida edi. U o'ziga qattiq e'tibor bilan qarar, xavfli narsalarning oldini olar, badantarbiya bilan shug'ullanar, taniga anvoyi narsalardan surtib turardi. Shularga ko'ra u o'zini ancha saqlashga muvaffaq bo'lgandi. U ko'rinishdan juda bosiq, o'zini tutib olgan xotinlarga o'xshardi, u oqila, hamma narsani o'ylab, o'lchab qiladigan ayollar toifasidan bo'lib, ichki dunyosi kesib, butab, tartibli qilib qo'yilgan fransuz bog'larini eslatardi. Bu bog'da sizni hayratga soladigan hech narsa yo'q, lekin uning o'ziga xos

jozibasi bor. Unda keng xayol yoʻq edi, lekin buning oʻrnini oʻtkir, tiyrak bir aql bosar edi. Uning feʼli keng edi, kishiga tez elakishardi, marhamat va muruvvat tuygʻulariga begona emasdi, barchaga birday qarardi.

Dyurua shu paytgacha miq etib ogʻiz ochmagani uning nazari-dan qochib qutulmadi. Chindan ham Dyurua bilan hech kim gaplashmas, u oʻzini juda noqulay sezmoqda edi. Nihoyat, barcha xonimlar oʻzlarining sevimli mavzulari boʻlgan akademiyaning gʻiybati bilan band ekanliklarini koʻrib, Valter xonim unga mu-rojaat qilib, dedi:

– Siz-chi, siz nima deysiz, janob Dyurua, axir siz bu ishlarni boshqalardan yaxshiroq bilasiz-ku?

– Men, xonim afandim, bunday paytlarda nomzodlarning odam unchalik ishonqiramaydigan fazilatlaridan koʻra, ularning yosh-lari va sihat-salomatliklariga koʻproq ahamiyat berib qarayman, – oʻylab oʻtirmasdan javob qaytardi u. – Men ularning koʻrsatgan xizmatlari haqida emas, qanday kasalliklarga chalinganlari haqi-da maʼlumot toʻplagan boʻlar edim. Men ulardan Lope de Vegani sheʼriy yoʻl bilan tarjima qilib berishni emas, jigar, oʻpka, buyrak, orqa miyasi qay ahvolda ekanligini soʻragan boʻlardim. Nazarim-da, johil xalqlarning sheʼriyatida vatanparvarlik motivlari haqida-gi tom-tom mulohazalardan koʻra, yurakning kengayishi, qorason yoki bulardan ham maʼqulrogʻi, mushaklarning quruqshab qolishi kabi kasalliklar koʻproq ahamiyatga molik deb qaraladi.

Uning soʻzlari hammani ajablantirib qoʻydi, lekin hech kim indamadi.

– Nega unday deb oʻylaysiz? – soʻradi Valter xonim.

– Chunki men qayerda boʻlmay, nima qilmay xotinlarga yoqa-digan narsalarni topishga harakat qilaman. – deb javob berdi. – Akademiya, xonim afandim, shunday bir joyki, u akademiklardan bi-rontasi oʻlgan kezlardagina sizning eʼtiboringizni jalb qiladi. Ular qancha koʻp oʻlsa, siz uchun shuncha yaxshi. Lekin ular tez-tez oʻlib tursin desangiz, iloji boricha eng qarilari va ramaqijon boʻlib qolganlarini saylamoq kerak.

Xonimlar, aftidan, uning nimaga shama qilayotganligini angla-may turar edilar, buni sezgan Dyurua oʻz fikrini tushuntirib berish-ga kirishdi:

– Rostini aytganda, Parij xabarlari ichida biron akademik va-fot etibdi, degan darakni eshitsam, o'zimdanda o'zim xursand bo'lib ketaman. Men shu zahoti o'zimga savol beraman: «Xo'sh, endi uning o'rniga kim bo'ladi?» Men nomzodlar tanlashga kirishaman. Bu juda ajoyib ermak, ermak bo'lganda ham, umri boqiy kishilar-dan biri o'lganda barcha Parij salonlarida o'ynaladigan ermak o'yin, uni «ermak o'lim va qirq qariya» deb atash ham mumkin.

Xonimlar hamon hali uni to'la anglab yetmagan holda, lekin ichlarida uning gaplariga tasanno o'qigancha tabassumlar qilishdi.

– Sizlarning o'zlaringiz, muhtaram xonimlar, – dedi u o'rnidan turarkan. – Ularni saylaganda ham, tezroq o'lsinlar, deb saylaysiz-lar. Shunday bo'lgach, qarilarning eng qarilarini, g'oyatda qarta-yib, butkul puturdan ketib qolganlarni saylangizlar, qolganlari bilan ishlaringiz bo'lmasa ham bo'laveradi.

Shundan so'ng Dyurua hammaga kiftini keltirib ta'zim qil-di-yu, chiqib ketdi.

– Antiqa yigit ekan, – dedi ortidan xonimlardan biri. – U kim edi?

– Xodimlarimizdan biri, – deb javob berdi Valter xonim. –Ho-zirchalik u gazetaning mayda ishlari bilan band, lekin uning tezda o'sishiga imonim komil.

Dyurua xursand, kayfiyati ko'tarilgan holda Malzerb bulva-ridan oyoqlarini kerib tashlab borar va o'ziga-o'zi: «Boshlanishi yomon bo'lmadi», deb qo'yardi.

Kechqurun u Rashel bilan yarashib oldi.

Keyingi haftada uning hayotida ikki muhim voqea ro'y berdi: u xronika bo'limining mudiri qilib tayinlandi va Valter xonimnikiga ziyofatga taklif qilindi. Bu voqealar bir-biri bilan bog'liq ekanli-gini u darhol fahmladi.

Savdogar Valter uchun matbuot ham, deputatlik unvoni ham tayanch nuqtalari kabi xizmat qilar, «Fransuz hayoti» esa, eng av-valo, savdo ishlari bilan bog'langan edi. Valter o'zini soddalikka solar, kishilar ko'ziga doimo o'zini oqko'ngil, shod-xurram qilib ko'rsatar, ayni choqda, o'zining turli-tuman maqsadlarini amalga oshirishda faqat sinovdan o'tgan, ishonsa bo'ladigan, chaqqon, g'ayratli, chapdast, ishbilarmon, tegirmonga tushsa butun chiqadi-gan odamlardan foydalanardi. U Dyuruaga ko'pdan nazar solib yu-

rar edi. mana endi bu chapdast yigit xronika bo'limining boshlig'i sifatida ko'p ish berishi mumkin degan fikrga kelgandi.

Shu paytgacha xronika bo'limini eski jurnalist, o'z ishiga puxta, aytgan gapdan chiqmaydigan, xuddi kichkina amaldorlar kabi jur'atsiz tahririyatning kotibi Buarenar boshqarib turgandi. O'ttiz yil mobaynida u o'n bitta turli gazeta tahririyatlarida sekretar bo'lib ishlagan, shu bilan birga o'z fikrlari, dunyoqarashi, yashash tarzini o'zgartirmagan edi. U bir tahririyatdan ikkinchisiga bir restoran-dan boshqasiga o'tgan kabi o'tib turar va bunda har joyda taomni har xil usulda tayyorlashlarini sezmasdi. Siyosat va diniy masalalar unga butunlay yot edi. U qaysi gazetada xizmat qilmasin, qo'rqqanidan emas, vijdonan ishlar, o'z bilimlari va qimmatli tajribasini ayamas edi.

U hech narsani ko'rmaydigan basir, hech narsani eshitmaydigan kar odam kabi, hech narsani gapirmaydigan gung kimsa kabi ishlar edi. Shular bilan bir qatorda u kasbiga ko'ra g'oyatda halol odam bo'lib, qalamkashlik sha'niga dog' bo'lib tushishi mumkin bo'lgan har xil nojo'ya ishlardan doim yiroq yurar, sofdil, barchaga barobar, olijanob edi.

Boshliq uni qadrlasa ham, lekin o'zi gazetaning yuragi deb ataydigan xronika bo'limini kimga olib bersam ekan, deb bosh qotirib yurardi. Axir yangiliklarni tarqatadigan, mish-mishlarni uchirma qiladigan, afkor ommaning ongiga ta'sir qiladigan, birja ishlarini nazardan qochirmaydigan bo'lim shu xronika bo'limi sanalardi-da. Bunda kiborlarning ermaklari haqidagi ikki maqolacha orasiga kishi bilmas muhim bir gapni suqib yuborish, to'g'rirog'i, sha'ma qilib o'tish san'atini bilish kerak edi. Satrlar bunda tagli gaplarga to'liq bo'lishi, bir narsaga raddiya bildirilganda, shov-shuvlar bundan yanada haqiqatga yaqinroq gap kabi tuyulishi, tasdiqlaganda esa, shunday voqeaning bo'lganligiga hamma shubha bilan qarashi lozim edi. Xronika ishni shunday olib borishi kerak ediki, har bir odam uning ichida o'zi uchun kerakli gaplarni topishi, o'zini qiziqtirgan so'zlarga duch kelishi lozim edi. Shundagina xronikani odamlar o'qishlari mumkin. Bunda hech kim, hech narsa esdan chiqmasligi, jamiyatning barcha tabaqalari, barcha kasblar, butun Parij, Parij atroflari, viloyatlar, harbiylar va rassomlar, ruhoniylar va universitet, amal egalari va satanglar hayoti aks etmog'i zarur edi.

Bu bo'limning boshlig'i – reportyorlar batalonining komandiri doimo hushyor turishi, voqealarni sergaklik bilan kuzatishi zarur edi. U hamma narsaga ishonavermasligi ehtiyoqkor, usta, chaqqon, chapdast, og'zidagini oldirmaydigan, tulkiday ayvor, ustomon, sezgir va ziyrak, haqiqatga to'g'ri keladigan gaplarni haqiqatdan viroq gaplardan tez ajrata biladigan, nima deyish kerag-u, nima demaslik zarurligini yaxshi tushunadigan, u yoki bu xabarning gazetxonlarga qanday ta'sir qilishini, ularda qanday fikrlar uyg'otishini tasavvur qila oladigan odam bo'lmog'i lozim edi. Bulardan tashqari u hamma narsani ta'sirchan, o'qimishli qilib bera bilishi zarur edi.

Uzoq yillar tahririyatlarda xizmat qilgan bo'lishiga qaramasdan, Buarenarda mahorat va yorqin xayol yetishmasdi. Muhimi, unda tug'ma ishbilarmonlik qobiliyati yetishmas, shuning uchun, ko'pincha, boshliqning xayolidagi yashirin niyatlarning fahmiga yetib ish ko'rolmas, kosa tagida nimkosa borligini bilmasdi.

Dyurua bu ishni juda boplab ado eta olar, Norber de Varenning gapiga ko'ra, «savdo-sotiqning chuqurliklari va siyosatning sayozliklarida suzayotgan» ushbu gazeta tahririyatsiga uzukka ko'z qo'yganday yarashib turar edi.

«Fransuz hayoti»ning haqiqiy redaktorlari olti deputat bo'lib, ular noshir yuritadigan turli shubhali ishlarda ishtirok etishar, noshirlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlashardi. Palatada ularni «Valter to'dasi» deb atashar va ularning Valter bilan hamtovoq bo'lib o'marayotgan boyliklariga havaslanib qarashardi.

Siyosiy hayot bo'limini Foreste boshqarar, biroq u mana shu korchalonlar qo'lidagi o'yinchoq bo'lib, ularning chizgan chizig'idan chiqmasdi. U bosh maqolalarni uyda o'tirib, o'zining aytishiga qaraganda, «tinchgina o'tirib» yozib kelar, lekin yozganda ularning ko'rsatmasi bo'yicha yozardi.

Gazetaga markaziy tus berib, uni salmoqli qilish uchun tahririyat ikkita adibni ishga tortgan, bular o'z sohalarida tanilgan odamlar bo'lib, ularning biri Jak Rival kunning dolzarb masalalarini yoritadigan maqolalar yozar, shoir Norber de Varen esa badiiy ocherk va yangi uslubda yozilgan hikoyalari bilan qatnashib turardi.

Bulardan tashqari pul desa o'zini tomdan tashlaydigan turli toifadagi qalamkashlardan arzon-garovga adabiy, musiqa, teatr tan-

qidchilari yollangan. sud va uloq bo'yicha ham muxbirlar tayinlangandi. Yuqori tabaqadan bo'lgan ikki xonim biri «Pushti domino», ikkinchisi «Oq panja» laqablari bilan kiborlar hayotidan yozishar, yangiliklardan xabardor qilishar, kiborlar axloqi, qoidalari, muomalalari haqida maqolalar berishar, oqsuyak xonimlarning go'riga g'isht qalab chiqishardi.

«Fransuz hayoti» shu tariqa turli darajadagi darg'alar tomonidan «chuqurliklar va sayozliklarda» boshqarib borilardi.

Dyurua hali yangi vazifaning quvonchidan o'ziga kelib ulgurmasdan, kichkina taklif xati oldi. Unda: «Janob Valter hamda Valter xonim janob Jorj Dyuruani 20-yanvar payshanba kuni bo'ladigan ziyofatlariga taklif qiladilar», deyilgandi.

Birinchi iltifot izidanoq yetib kelgan bu e'tibor nishonasi uni shunchalar suyuntirib yubordiki, taklifnomani xuddi ishqiy xat olgan kabi lablariga bosdi. Keyin chalkash moliya masalasini hal qilgani kassir oldiga ketdi.

Odatda, xronika bo'limining mudiri o'z sarf-xarajatiga ega bo'ladi. Shunga ko'ra o'ziga kerakli barcha yaroqli-yaroqsiz axborotlarni xuddi ko'kehiga rezavor yetkazib beradigan dehqonga o'xshab, yetkizib keltiradigan muxbirlarga haq to'lardi.

Boshlamasiga Dyuruaga bunday xarajatlar uchun oyiga bir ming ikki yuz frank mablag' ajratishdi, lekin buncha pulning asosiy qismini u o'z cho'ntagiga urish niyatida edi.

Dyurua talab qilgach, kassir hozircha to'rt yuz frank berib turishga rozi bo'ldi. U avval ikki yuz sakson frankni de Marel xonimga yuborsammikin, dedi, lekin qo'lida qolgan bir yuz yigirma frankka ishni yaxshi yo'lga qo'yib bo'lmasligini o'ylab, qarzni keyinroq to'larman, degan qarorga keldi.

Ikki kun yangi vazifani o'zlashtirishga ketdi. Butun tahririyat joylashgan kattakon xonaning bir chekkasida uning endi alohida stol va xat-xabarlar olinadigan qutilari bor edi. Xonaning bir burchida uning o'zi, ro'parasida esa, qop-qora to'sdek sochlari jingalak bo'lib pastga osilib tushgan, ancha yoshga borib qolgan bo'lishiga qaramasdan hali ularga oq oralamagan Buarenar qo'lyozmalardan bosh ko'tarmaygina o'tirardi.

Xonaning o'rtasidagi uzunchoq stol «uchqur» xodimlar uchun qoldirilgan edi. Odatda, bu stol o'rindiqlik vazifasini bajarardi: xo-

dimlar uning ustiga yo ovoqlarini osiltirib, yo chordona qurgan holda o'tirib olardilar. Ba'zan besh-olti odam stol ustiga qo'nqayib o'tirgancha soqqa o'yiniga tushib ketishardi.

Bora-bora Dyurua ham bu o'yinga qiziqib ketdi. Sen-Poten unga o'rgatib turdi. tezda qo'li ham qovusha qoldi.

Foreste kundan kunga qurbdan ketib borar, shuning uchun u antil yog'ochidan ishlangan g'oyatda ajoyib, biroz zalvarliroq soqqasini Dyuruaga taqdim etdi, endi Dyurua kattakon cho'ng soqqani chizimchasidan baquvvat qo'llari bilan tortarkan, pichirlab sanab borardi:

– Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti...

U Valter xonimnikiga ziyofatga boradigan kuni birinchi marta yigirma ochko urdi. «Yaxshi kun, – deb o'yladi u, – omadim kelib turgan ekan». «Fransuz hayoti» tahririyatsi xodimlarining nazarida esa soqqa o'yinini yaxshi o'ynay bilish anchagina hurmat-e'tiborga sazovor qilar edi.

U kiyimlarini almashtirib ulgurish uchun tahririyatdan barvaqtroq qaytdi. London ko'chasidan ketayotganida uning oldida bo'ychangina bir xotin ketib borardi, uning qaddi-qomati de Marel xonimga g'oyatda o'xshar edi. Dyuruaning issig'i chiqib ketdi, yuragi dukillab ura boshladi. Dyurua unga yaxshiroq nazar solish uchun ko'chaning narigi tomoniga o'tdi. Xotin ham to'xtadi – u ham ko'chaning narigi tomoniga o'tmoqchi edi. Xayriyate, boshqa ekan. Dyurua yelkasidan tog' ag'darilganday yengil nafas oldi.

U o'ziga-o'zi, agar uni uchratib qolsam, o'zimni qanday tutishim kerak, deb savol berardi. Ta'zim qilish kerakmi yoki o'zini ko'rماغanga olsinmi?

«O'zimni ko'rماغanga olaman», deb o'yladi u.

Kun sovuq edi, ko'lmaklar muzlab qolgandi. Yo'lkalari gaz chiroqning yog'dusida quruq va bo'zrang bo'lib cho'zilib yotar-dilar.

Uyga kelgach, xayoliga bir fikr keldi: «Uyni o'zgartirish kerak. Endi bu yerda turishim joiz emas». Uning dimog'i chog' edi, tomlarga chiqib chopgisi kelardi, deraza bilan karavot orasida u yoqdan bu yoqqa borib kelarkan, ovozini chiqarib hadeb:

– Omadmikin, bu? Omad! Otamga yozishim kerak, – deb takrorlardi.

Ahyon-ahyon u otasiga xat yozib turar va uning xatlari Ruan va Sena oralig'idagi keng vodiya da baland adir uzra yo'l yoqasida joylashgan normand qovoqxonasining keksa sohiblari qalbiga bir olam quvonch olib kelardi.

Onda-sonda o'g'il ham titragan barmoqlari bilan yirik-yirik qilib yozilgan ko'k konvert olar va otasining xatlari doimo quyidagi so'zlar bilan boshlanardi:

«Qimmatli o'g'lim, shuning bilan senga ma'lum qilamankim, bizlar, men va onang sog'-salomat yuribmiz. O'sha o'zing ko'rgan-daymiz. Illo, yana shuni ma'lum qilamankim...»

Dyurua qishloq yangiliklarini ko'ngliga yaqin olar, qo'shnilari, ekin va hosilning ahvoli haqidagi gaplardan hayajonga tushar edi.

U kichkinagina oyna oldida turib oq galstugini bog'larkan, yana xayolga cho'mdi: «Ertagayoq otamga yozib yuboraman. Bugun kechqurun qayerga borayotganimni bilsa, chol qoyil qoladi. Ziyofatda esa meni cholning hatto yetti uxlab tushiga kirmagan noz-ne'matlar bilan mehmon qilishadi». U shu payt xo'randalar uchun mo'ljallangan bo'm-bo'sh xona biqinidagi o'zlarining is bosgan o'choqboshisini ko'z oldiga keltirdi. Devor yoqalab kistryulkalar terilgan, ularda sarg'ish yog'du jilvalanadi, o'choq oldida mushuk mudraydi, yog'och stol eskirib ketganidan va narsalar to'kilaverganidan yaltirab, chirk bosgan, tovoq ichida xo'rda bug'lanib turadi va ikki tarelka o'rtasida sham yonadi. U yana chinakam dehqon odamlardan ota-onasini ko'z o'ngiga keltirdi, ularning suyuq oshni oz-ozdan xo'plab ichayotganlarini tasavvur qildi. Ota-onasining yuzlaridagi har bir ajin, qiladigan harakatlari, qiliqlari unga besh qo'lday ma'lum edi. Hatto har kuni kechqurun chol-kampirning taom chog'ida ro'baro' o'tirishib olib bir-birlariga aytadigan gaplarini ham yoddan bilardi.

«Ularni vaqt topib bir ko'rib kelmasam bo'lmaydi», deb o'yladi Dyurua. U kiyinib, taranib bo'lgach, chiroqni o'chirdi-da, zinadan pastga tushdi.

Tashqi bulvarlardan borarkan, fohishalar o'rab olib holi joniga qo'yishmasdi. «Tinch qo'yinglar meni!!» – derdi u jahl bilan qo'llarini siltab, buni shunday g'azabnok ohangda aytar ediki, go'yo ular o'zini tahqirlayotganday, xo'r'lamoqchi bo'layotganday... Bu yaramaslar uni kim deb o'ylashyapti o'zi? Nima, mening kimligimni

ular ko'rishmayaptimi? U egniga frak kiygandi, badavlat, e'tiborli, qo'lini qayga uzatsa, shu yerga yetadigan odamlarnikiga ziyofatga bormoqda – bularning bari, nazarida, uni butunlay boshqacha qilib qo'ygan, boshqacha dunyoga olib kirgan, dunyoning zo'r kishilari qatoriga qo'shgandi.

U baland qandillardan charog'on qabulxonaga shaxdam qadamlar bilan kirib bordi va yugurib kelgan ikki lakeyiga palto hamda tayoqchasini bunga odatlanib ketgan odamday qilib uzatdi.

Hamma zallar charog'on yoritilgandi. Valter xonim mehmonlarni ikkinchi katta zalda qabul qilmoqdaydi. Dyuruani u maftunkor bir tabassum bilan qarshi oldi. Dyurua o'zidan ilgari kelgan ikki erkak mehmon bilan salomlashdi – bular janob Firmen va janob Larosh-Mate bo'lib, tahririyatda ham shu boisdan uni juda hurmat qilardilar. Payti kelib uning Vazir bo'lishiga hech kim shubha qilmasdi.

Xotini bilan Foreste kirdi: uning jozibador xotini pushti ko'ylak kiygandi. U har ikkala deputat bilan ham apoq-chapoq gaplashdi. Bu Dyurua uchun yangilik edi. Besh daqiqami, balki, undan ortiqroq xonim kamin oldida Larosh-Mate bilan pichirlashib turdi. Sharlning holi g'oyatda yomon edi. So'nggi oylar ichida u ozib-to'zib ketgan, tinimsiz yo'talar va: «Qishda janubga ketmasam bo'lmaydi», deb takrorlagani takrorlagan edi.

Jak Rival va Norber de Varen birga kirib kelishdi, sal o'tmay zalning ichkari eshigi ochilib, ikki qizini boshlab Valter paydo bo'ldi – qizlarning biri xunuk, ikkinchisi ko'hlikkina edi. Ularning biri o'n sakkiz, ikkinchisi – o'n olti yoshda edi.

Dyurma boshlig'ining qizlari borligini bilar, shunday bo'lsa ham u ajablanib qo'ydi. Shu paytgacha u noshirning qizlari haqida yetib bo'lmas olis mamlakatlar haqida o'ylagan kabi bir tasavvurda edi. Bundan tashqari ularni juda kichkina, deb yurardi. Shuning uchun hozir yetilgan qizlarni ko'rib hayron qoldi. Kutilmagan bu voqeadan u birmuncha hayajonlandi ham.

Uni opa-singillar bilan tanishtirishgach, qizlar unga birma-bir qo'llarini uzatdilar. Keyin, aftidan, ular uchun atay qo'yilgan bo'lsa kerak, kichkina stolga o'tirdilar va savatchadagi ipak ip o'ramlarini chuviy boshladilar.

Yana kimdir kelishi kerak edi. Hamma shunday ziyofatlar oldida bo'ladigan bir qisinish ichida jim qoldi, hammalari kun bo'yi o'z tashvishlari bilan bo'lib kelgan, undan tashqari bir-birlariga unchalik sirdosh ham bo'lmaganlaridan bu jimlik tushunarli edi.

Dyurua zerikib ketganidan ko'zlarini devorlarga yugurtira boshladi. Buni sezgan Valter maqtangisi keldi, shekilli, uzoqdan turib unga qichqirdi:

– Mening suratlarimni tomosha qilyapsizmi? – U «mening» so'zini ta'kidlab, o'zgacha urg'u berib aytdi. – Men o'zim sizga ularni ko'rsataman.

U mehmonga suratlarini yaxshiroq ko'rsatish uchun qo'lga chiroq oldi.

– Bu yerda manzara suratlar, – dedi u.

O'rtada Gilmening katta polotnosi osilgan edi – unda qora bulutlar bosgan, chaqmoqlar chaqayotgan Normandiya sohili tasvirlangandi. Pastroqda – Arpini o'rmoni va Giyome mo'yqalamiga mansub ufqda tuya bilan Jazoir cho'llari tasvirlangandi – tuyaning oyoqlari uzun-uzun bo'lib, ko'rmishdan g'alati haykalga o'xshardi.

Boshqa devorlarga o'tar ekan, Valter xuddi tovachilardek e'lon qildi:

– Ulug' rassomlar.

Bunda to'rt polotno: Jerveksning «Kasalxonada qabul kuni», Basgen-Lepajning «O'roqchi», Bugroning «Beva» va Jan-Pol Lorransning «Qatl» asarlari qo'yilgandi. Keyingi suratda «Ko'klar» otryadi tomonidan cherkov devori tagida otilayotgan Vandey ruhoniysi tasvirlangan edi.

Yana boshqa bir devorga o'tar ekan, Valterning jiddiy chehrasida tabassum jilvalandi:

– Bular yengil janrlar.

Bu yerda hammadan burun Jan Beroning «Yuqoridan va pastdan» deb nomlangan surati diqqatni jalb qilardi. Lobargina parijlik qiz yurib ketayotgan konining zinasidan chiqib borayotibdi. Uning boshi ikkinchi qavatga yetay deb qolgan, skameykalarida o'tirgan erkaklar o'rtalarida paydo bo'lib qolgan bu yoshgina ko'hlik chehraga suq bilan tikilib qolganlar, ayni zamonda pastdagi

sahnachada turgan erkaklar uning oyoqlaridan ko'zlarini uzolmay turar, ularning nazarlarda hirs va o'kinch aks etardi.

– Xo'sh qalay? Zo'rmi? Zo'rmi? – qo'lida chiroq ushlagan-cha sho'x kulib takrorladi Valter.

Keyin u Lamberning «Cho'kayotganni qutqarish» suratiga chiroq tutdi.

Ovqatlanadigan stoldan barcha idish-tovoqlar yig'ishtirib olingan. Stol ustida mushuk bola o'tiribdi. U ko'zlarini stakan ichidagi suvga tushgan pashshaga hayrat ichida tikkan. Mushuk pashshani tezgina ushlab olish uchun panjalarini yuqoriga ko'targan. Biroq u hali ikkilanib turibdi. Biror qarorga kelgani yo'q. Oxiri nima bo'larkin?

Keyin Valter Degamyanning «Dars» suratini ko'rsatdi: kazarmada soldat itni baraban chalishga o'rgatmoqda.

– Boplagan! – deb qo'ydi xo'jayin.

Dyurua ma'qullab kular, o'zining qoyil qolganligini bildirar edi:

– Ajoyib, ajoyib, ajo...

U hozirgina kirib kelgan de Marel xonimning ovozini eshitib, tilini tishlaganday jimib qoldi.

Xo'jayin suratlarini ko'rsatishda davom etar, ularning mazmunini so'ylab borardi.

U chiroqni Moris Leruarning «To'siq» degan suratiga tutdi. Ko'chaning o'rtasida ikki devday-devday yigit olishib yotibdi. Ularning janjalidan portshez o'tib ketolmaydi. Portshezning darchasidan dilbar bir qiz qarab turibdi. Uning chehrasida na sabrsizlik va na qo'rquv bor... U ta'bir joiz bo'lsa, ikki so'qimning olishuviga qiziqish bilan boqadi.

– Boshqa xonalarda ham mening suratlarim bor, – dedi Valter, – faqat ular hali nom qozonmagan rassomlarning qalamiga mansub. Bu yer esa mening «Katta zalim». Shu kunlarda men faqat yosh rassomlarning, juda ham yoshlarning suratlarini sotib olmoqdaman va hozircha ularni orqa xonalarda saqlab turibman – ularning mashhur bo'lib ketishlarini kutyapman. Hozir rosayam surat sotib oladigan payt keldi, – dedi u ovozini pasaytirib, keyin qo'shib qo'ydi. – Musavvirlar ochdan o'lmoqda. Ularning bir tiyini yo'q, bir tiyini...

Biroq endi Dyuruaning ko'zlariga hech narsa ko'rinmas, quloqlariga gap kirmas, anglamas edi. De Marel xonim shu yerda, uning orqasida turibdi. Nima qilish kerak? Unga ta'zim qilsam, yana orqasini o'girib olsa, bu ham yetmaganday gap bilan uzib-uzib olsa-chi? Agar uning yaqiniga yo'lamay qo'ya qolinsa-chi, qanday bo'larkin?

«Har holda to'qnashuvni sal orqaroqqa surib turgan ma'qul», degan qarorga keldi Dyurua. U shunchalar to'lqinlanib ketgan ediki, bir xayoli mazam qochib turibdi, deb uyga ketvorishni ham o'yladi. Suratlar ko'rib bo'lindi. Valter chiroqni stolga qo'yib, yangi kelgan mehmonni qarshilagani yurdi. Dyurua xuddi ulardan ko'z uzolmay qolganday yana suratlarni tomosha qila boshladi.

Uning boshi g'ovlab ketdi. Nima qilsa ekan? Qulog'iga uzuq-yuluq ovozlari chalinar, chala gaplar eshitilardi.

– Menga qarang, janob Dyurua, – unga murojat qilib dedi Forreste xonim.

Dyurua hayallamay uning huzuriga bordi. Xonim uni o'zining bir dugonasi bilan tanishtirmoqchi ekan. U xonim bal berayotgan bo'lib, bal haqida «Fransiya hayoti» xabar bersa degan tilakda ekan.

– Albatta, bo'ladi, xonim afandim, albatta... – ming'irladi Dyurua.

De Marel xonim endi uning shundoq yonginasiga kelib qolgandi.

Orqasiga o'girilib nariroq ketishga uning yuragi dov bermadi. Shunda birdan u esdan og'ib qolayozdi.

– Yaxshimisiz, Azizim, – dedi dona-dona qilib de Marel xonim. – Meni tanimay qoldingizmi?

U tez o'girilib qaradi. Xonim chehrasi ochilgan, shod tabassum qilgan holda uning qarshisida turardi. U Dyuruaga qo'llarini cho'zdi.

Dyurua uning qo'llarini yuragi bir orziqib tushib oldi, u hamon bir kori hol ro'y berib qolmasaydi, deb cho'chib turardi.

– Sizga nima bo'ldi? Anchadan beri ko'rinmaysiz? – dedi xonim samimiylik bilan.

– Men juda band edim, xonim afandim, hech qo'lim ishdan bo'shamay qoldi, – poyma-poy qilib so'ylay boshladi u, o'ziga

kelishga harakat qilar ekan. – Janob Valter, menga yangi vazifa yuklab qo'ydilar, ishim juda ko'payib ketdi.

De Marel xonim hamon ko'zlarini uning yuzlaridan uzmay turar, biroq Dyurua uning chehrasiga qancha zehn solmasin, o'ziga ixlosdan boshqa narsani uqmaydi.

– Bilaman, – dedi xonim. – Biroq bundan do'stlarni unutib yuboring, degan ma'no kelib chiqmaydi.

Ularning suhbatlarini hozirgina kirib kelgan, yelkalari keng ochilgan, to'la semizdan kelgan xonim buzdi, bu xonimning qo'llari, yonoqlari qip-qizil edi, u juda ohanjama bilan kiyingan sochlarini g'alati qilib o'rgan, tamannosi zo'r edi. Uning qadamlari zalvorli tushar, shundan oyoqlari qanchalik yo'g'onligini tasavvur qilish mumkin edi.

Dyurua hammalari u bilan juda izzat-ikromda muomala qilayotganlarini ko'rib, Foreste xonimdan so'radi:

– Bu kishi kim bo'ladilar?

– Vikontessa de Persmyur, «Oq panja» laqabi bilan yozadigan xotin.

Dyurua ko'zlariga ishonmay qaradi, uning xaxolab yuborishiga oz qoldi.

– Oq panja! Oq panja! Men bo'lsam, uni siz tengi yosh juvon bo'lsa kerak, deb yurardim. Oq panja shu kishi deng? Qoyil, qoyil, taraf yo'q!

Eshikda xizmatkor ko'rinib:

– Taom tayyor, – deb ma'lum qildi.

Odatdagiday quvnoqlik bilan ovqatlandilar. Hamma esiga kelgan narsani gapirar, biri bog'dan kelsa, biri tog'dan kelardi. Dyurua Valterning to'ng'ich qizi xunukkina Roza bilan de Marel xonim o'rtaida o'tirgandi. U de Marel xonimning yonida o'tirganidan qisinar, tortinchoqlik qilardi. Xonim esa beparvogina gangur-gungur suhbatlashib o'tirar, qiliqlari g'oyatda begidir, tabiiy edi. Avvaliga Dyurua xuddi notadan adashib ketgan musiqachi kabi o'zini noqulay sezib, hayajonlanib o'tirdi, nimadandir cho'chidi. Lekin asta-sekin o'zini tutib oldi, shundan so'ng ularning bir-birlariga savolomuz qarab qo'yishlari, bir-birlariga qaramasdan o'tirolmasliklari bilindi, bu nigohlar avvalgiday faqat ikkovlarigina anglashlari mumkin bo'lgan ma'nolarga to'la, dil rozlari aks etib turgan qarashlar edi.

Shunda to'sinidan Dyuruaning oyog'iga nimadir tegib ketganday bo'ldi. Dyurua oyog'ini ohista uzatib de Marel xonimning oyog'ini topdi, u oyog'ini tortib olmadi. Bu damda har ikkovlari ham o'z qo'shnilari bilan chaqchaqlashib o'ttirar edilar.

Dyuruaning yuragi qattiq urib ketdi, u tizzasini yana ozgina chiqardi. Unga yengil turtki bilan javob berdilar. Shunda u o'rtalaridagi ishqiy munosabatlari yana qaytadan izga tushajagini angladi.

Ular keyin bir-birlariga mimalar dedilar? Aytarli hech narsa, biroq nazarlari har safar bir-birlariga tushganda, dudoqlari titrab ketardi.

Shuning barobarida Dyurua boshliqning qizimi ham unutmas, vaqti-vaqti bilan unga ham gap tashlab qo'yardi. Qiz ham onasiga o'xshab, unga o'ylanib o'tirmasdan shartta javob qaytarardi.

Valterning o'ng yonida malikalarday bo'lib Vikontessa de Persmyur viqor bilan savlat to'kib o'tirardi. Dyurua har safar unga qaraganda o'zini bazo'r kulgidan tiyardi.

– Yana bittasi bor-ku, «Pushti domino» degani. U kim? Bilasizmi? – sekin so'radi u de Marel xonimdan.

– Baronessa de Livarmi? Bilganda qandoq.

– U kishi ham bu kishimga o'xshaydilmami?

– Yo'q. Lekin shunaqa ajoyib. Oltmish yoshli kampirni tasavvur qiling. Eti suyagiga yopishgan, sochlari ulama, tishlari yasama, odatlari esa Restavratsiya davrining odatlari va qiliqlari.

– Bu topilmasxonlarni qayerdan kavlab olishdi.

– Yangi boylar doimo asilzodalarning qolgan qutganlarini yig'ishtirib biqinlariga olib yurishadi.

– Balki, boshqa sabablari bordir?

– Boshqa hech qanday sababi yo'q.

Shundan keyin xo'jayin, har ikkala deputat, Jak Rival va Norber de Varen siyosat haqida bahslashga ketishdi, bu bahs to'yengil taomlar tortilgunga qadar davom etdi.

Barcha mehmonlar mehmonxonaga o'tishgandan so'ng Dyurua de Marel xonimning oldiga keldi-da, uning ko'zlariga tikilib turib so'radi:

– Sizni kuzatib qo'yishimga ijozat etasizmi?

– Yo'q.

– Nega?

– Chunki qo‘shnim Larosh-Mate har safar bu yerda ziyofatda bo‘lganimdan so‘ng meni uyga eltib qo‘yadi.

– Qachon endi ko‘rishamiz?

– Ertalab nonushta qilgani keling.

Boshqa bir-birlariga bir so‘z demay ajralishdilar.

Mehmondorchilik Dyuruaga juda zerikarli tuyulib ketdi va saldan so‘ng u jo‘nab qoldi. Zinadan tushib borarkan u Norber de Varenni quvib yetdi. Keksa shoir uni qo‘ltiqlab oldi. Ular turli sohalarda ish ko‘rishar, shuning uchun ham Norber de Varen uni endi o‘ziga raqib deb bilmas va unga otalarcha mehribonlik bilan qarar edi.

– Balki, siz meni biroz kuzatib qo‘yarsiz? – so‘radi u.

– Jonim bilan, muhtaram ustoz, – deb javob berdi Dyurua.

Shundan so‘ng ular Malzerb bulvari bo‘ylab sekin-sekin yurib ketdilar.

Tun sovuq. Parij kimsasiz edi, mana shunday kechalarda osmon kengayib ketganday, yulduzlar nihoyatda balandga chiqib olganday tuyuladi va shunda shamolning muzday nafasi juda-juda olislardan, olis makonlardan, sayyoralardan ham yiroqroq manzillardan allanimalarnidir o‘z qanotida olib kelayotganga o‘xshab tuyuladi.

Bimuncha vaqt jimgina bordilar.

– Larosh-Mate juda aqlli, bilimdon odamga o‘xshab ko‘rinadi, – dedi Dyurua oradagi jimlikka barham berish niyatida.

– Rostdanmi? – po‘ng‘illadi keksa shoir.

– Rost, – ishonqiramay dedi Dyurua. – Axir, uni palataning eng ko‘zga ko‘ringan a‘zolaridan deb hisoblashadi-ku.

– Bo‘lsa bordir. Bulbul yo‘g‘ida zog‘ bulbul bo‘lgan ekan. Bilasizmi, birodar, bular hammasi juda aqli qisqa odamlar, ular siyosat bilan boylik orttirishdan boshqa narsani bilmaydilar. Bular shu qadar tor odamlarki, hatto ular bilan yozilib gaplasholmaysan, siz bilan men uchun qimmatli bo‘lgan gaplar ularga begona. Ularning aqlini balchiq bosib ketgan, to‘g‘rirog‘i, ifloslanib qolgan. Sena Anerga borganda mana shunday iflos bo‘lib oqadi.

Xayoli dengiz sohillari kabi keng va dengiz havosi kabi toza odamlarni topish juda qiyin bo‘lib ketdi! Men shunday odamlarni bilardim, lekin ular o‘lib ketishdi.

Norber de Varen dona-dona qilib, lekin ovozi ko'tarmay so'zlar, shoir atay shunday qilayotgani bilinib turar, bo'lmasa uning ovozi kecha tinchligida guldinib chiqqan bo'lar edi. Shoir hayajonda edi: yuragini dard ezib yotganga o'xshar, shu dard qalbining barcha torlarini chalayotganga, titratayotganga o'xshardi. Qora sovuq zaminni o'z iskanjasiga olganda u mana shunday titrab ketadi.

– Shunisi ham borki, – deb davom etdi u, – sening talanting bormi, yo'qmi – baribir emasmi, oxirida hammasi yo'q bo'ladi!

U jimib qoldi.

Dyurua bugun o'zini qushday yengil sezmoqda edi.

– Bugun kayfiyatingizning mazasi yo'q, muhtaram ustoz, – deb qo'ydi Dyurua jilmayib.

– Mening kayfiyatim doim shunaqa, bo'talog'im, – e'tiroz bildirdi Norber de Varen. – Shoshmay turing: bir necha yildan so'ng siz ham mendek bo'lib qolasiz. Umr – tog'. Ko'tarilib borarkan-san, o'zingni baxtiyor sezasan, cho'qqilarga nazar tashlaysan, lekin cho'qqiga chiqib ulgurmasingdan darrov pastga tushadigan vaqt bo'lib qoladi, oldinda esa faqat o'lim bor. Chiqqanda sekin chiqasan, tushganda birpasda o'zingni pastda ko'rasan. Sizning yoshingizda biz hammamiz sho'x-quvnoq edik. Ko'ngillarimiz umidlar bilan to'la edi, lekin umidlar ro'yobga hech qachon chiqmas ekan, doimo armon bo'lib qolaverarkan. Odam mening yoshimga yetgandan keyin hech narsa kutmay qo'yadi... o'limdan boshqa.

Dyurua kulib yubordi:

– Jin ursin, badanlarim jimirlashib ketdi.

– Yo'q, – dedi Norber de Varen, – siz hozir meni tushunmay-siz, lekin bir kun kelib mening gaplarimni eslab yurasiz.

Bilasizmi, shunday kun keladiki, ko'plar uchun u tezda keladi, unda siz kulgi nimaligini ham unutib qo'yasiz, o'shanda qayerga qaramang, nimaga nazaringiz tushmasin, barining ortida o'lim turganligini ko'rasiz.

O, siz hali «o'lim» so'zining o'zi nima ekanligini anglamaysiz! Sizning yoshingizda bu so'z havoyi bir narsaday ko'rinadi. Menga esa u juda dahshatli bo'lib tuyuladi.

Ha, bir kun kelib hech narsadan hech narsa yo'q birdan u xayolingda gavdalanadi, uni tushuna boshlaysan, shunda butun ha-

yoting o'zgarib, o'zgacha ma'no kasb etadi. Mana o'n besh yildirki, u ich-etimni qurtday kemirib yotibdi. U meni kunba-kun, soatma-soat yemirib, kishi bilmas payimni qirqib keladi, mana endi men qulay-qulay deb qolgan imoratga o'xshab qoldim. U meni shunchalar ham abgor qilib tashladiki, endi o'zimni o'zim tanimay qolyapman. Men o'ttiz yoshimda sog'lom, baquvvat, tarallabedod yigit edim, endi bulardan menda urvoq ham qolgani yo'q. O'lim qahhordir, u mana, necha yildirki, asta-sekin hech adashmay qop-qora sochlarimni oppoq qilib qo'ydi! U mening butun vujudimni so'rib oldi, bujmaytirib tashladi, tishlarim, mushaklarim, yigitlik quvvatimni tortib oldi, yolg'iz faryod chekib yotgan g'arib jonimni qoldirdi, um ham qo'ymaydi, tezda ilib ketadi.

Ha, meni butun kemirib tashladi, u nobakor, butun vujudimni uzoq zamon bilintirmay, bir soniya bo'lsin tinmay dahshatli suratda vayron qilib bordi. Mana endi nimaga qo'limni urmay, go'yo o'lim yoqamdan olib turganday. Har bir qadamim bilan unga yaqinlashib bormoqdaman, mening har bir harakatim, har bir olgan nafasim u g'alamisga ko'mak. Yemoq, ichmoq, nafas olmoq, yotmoq, ishlamoq, orzular qilmoq – bu o'limga bormoqdir. Yashamoqning asl ma'nosi ham o'lmoqdir!

O, bular hammasi o'zingizning boshingizga ham tushadi! Agar siz bu haqda ozginagina o'ylab ko'rganingizda edi, siz uni ko'rgan bo'lardingiz.

Nimani kutib turibsiz? Muhabbatmi? Yana bir qancha bo'sarlardan so'ng lazzatlardan mahrum bo'lasiz.

Yana nima? Pulmi? Nimaga? Xotinlarni qo'lga kiritish uchunmi? Hayf! Sullohlik bilan ovqat yeyish, semirish va kechalari bodning og'rig'iga chidolmay baqirib chiqishgami?

Yana nima qoldi? Shuhratmi? Lekin sevgidan mahrum bo'lganingizdan keyin shuhratning sizga nima keragi bor?

Shunday bo'lgach, yana sizga nima kerak? O'lim – haq.

Goho uning nafasi shundoq, yuzimga uriladiki, qo'limni uzatib nariga itqitib yuborgim keladi. U zamin sathini gilamdek enlab yotibdi, u makonlarni to'ldirib turibdi. Ko'zlarim uni har yerda ko'radi. Yo'l o'rtasida majaqlanib yotgan qora qo'ng'iz, obiyati ketgan yaproqlar, do'stimning soqolidagi oq tola – bularning bari yuragimni yaralaydi va: «Mana u!» – deb ko'rsatadi.

U, nimaga urinmay, ko'zlarining shuni xunuk qilib qo'yadi, nimaga nigohim tushsa, nimani yeb-ichayotgan bo'lsam, nimani sevsam: oyning ziyosimi, tongning otishimi, bepoyon dengizlarni, to'lib oqayotgan daryolarni, salqin yoz kechalarining orombaxsh havosimi, nafas olib, qarab to'ymaydigan narsalarning barini zaharlab turadi!

Shoir hansirab qoldi, shuning uchun qadamini maydalab tashlamoqda edi. U yonidagi hamrohini ham sezmay, go'yo o'zi bilan o'zi gaplashib borardi.

– Hech bir zot u yerdan qaytib kelmaydi, hech kim... – davom etardi u. – Haykallar, narsalar quyilgan qoliplarni asrab qolish mumkin, narsalarni ularga solib yana boshqatdan yasash mumkin, biroq mening jismim, mening chehram, mening xayollarim, istaklarimni boshqa tiriltirib bo'lmaydi. Shunisi ham borki, yana millionlarcha, milliardlarcha xuddi menikiga monand bir necha kvadrat santimetr sathga joylashadigan burni, ko'zlari, manglayi, yonoqlari, dudoqlari bo'lgan mavjudotlar dunyoga keladi, ularning jonini ham mening jonimga o'xshagan bo'ladi, lekin faqat men qaytmayman va u son-sanoqsiz maxluqotlar, bir-biriga sira o'xshamagan, ayni choqda, bir-biridan sira farq qilmaydigan maxluqotlar mendan boshqa hech narsa ololmaydilar.

Nimaga suyansa bo'ladi? Kimga hasratlaringni yozsang bo'ladi? Nimaga ishonsak bo'ladi?

Dinlar – barchasi birday – safsata: ularga bolalargina ishonishi mumkin, ularning va'dalari xudbin va g'oyasi bema'ni.

Yolg'iz o'lim haq.

U to'xtab, Dyuruaning paltosini yoqasidan tutdi-da, sekin gapira boshladi:

– Bularni o'ylab ko'ring, yigit, kunlar, oylar-yillar o'ylang, shunda siz hayotga butunlay boshqacha nazar bilan qaraydigan bo'lasiz. Nimaiki ko'kragingizda toshdek osilib turgan bo'lsa, undan tezroq qutulishga harakat qiling, bir zo'r berib o'zingizni qo'lga oling-da, hali tirik ekansiz, o'zligingizdan keching, manfaatlarni uloqtirib tashlang, fikrlaringizdan qayting, odamzoddan o'zingizni chetga oling, narsalarning tub mohiyatiga nazar tashlang – ana shunda siz romantiklarning naturalistlar bilan olib bor-

gan bahslari, byudjet to'g'risidagi munozaralar ikki pulga qimmat ekanligini bilib olasiz.

U qadamini tezlatib olg'a yurib ketdi.

– Ayni zamonda siz hech narsadan umid yo'qligi va buning naqadar dahshatli ekanligini his qilasiz. Shunda siz ishtibohlar girdobida ko'rasiz o'zingizni va undan xalos bo'lib ketolmay pitirlab yota berasiz. Siz: «Yordam bering!» – deb faryod ko'tarasiz, biroq hech kimsa sizning faryodingizga quloq solmaydi. Siz najot istab qo'llaringizni cho'zasiz, yolvorasiz, sevgi, taskin, najot tilaysiz, lekin hech kimsa yordamga qo'l cho'zmaydi.

– Nega biz bunchalar azob chekib yashaymiz? Bu, ehtimol, shuning uchundirki, biz olamga ruhimiz ehtiyojlarini qondirgali emas, tanimizning talablarini bajo etgani kelamiz. Biroq biz tafakkur qobiliyatiga egamiz va bizning tobora kamol topib boradigan ongimiz tiriklikning turgan-bitgani ro'yo ekanligi bilan sira chiqisha olmaydi.

Odmi odamlarga qarang: ular boshlariga bir baxtsizlik tushmaguncha o'z taqdiralaridan g'oyatda mamnun yashaydilar, ular dunyoning g'amini chekib o'tirmaydilar. Maxluqotlar ham shunday, qayg'uni bilmaydilar.

U yana to'xtab qoldi va bir daqiqa o'ylab turgach, hammasiga tan berib qo'ygan, g'oyatda horgan odamning ovozi bilan dedi:

– Men tamom bo'lgan odamman. Mening na otam, na onam, na akam, na opa-singlim, na xotinim, na farzandim, na ollohim bor.

Keyin biroq jim turgach, qo'shib qo'ydi:

– Mening faqat qofiyam bor.

Shunda u to'lin oyning bo'z nurlari yog'ilib turgan osmonga ko'zlarini tikdi-da, she'r o'qidi:

*Men osmon qatidan hayot sirin izlayman,
Kezib oydin kechalar nelarnidir bo'zlayman.*

Ular ittifoq ko'prigidan o'tib, Burbon saroyi yonidan ketishdi.

– Uylaning, do'stinam, – yana gapga tushdi Norber de Varen, – mening yoshimdagi odam uchun yolg'izlik qanday bo'lishini hatto tasavvur ham qilolmaysiz. Yolg'izlik juda jonimdan o'tib

ketdi, meni tuganmas alamlarga giriftor qilmoqda. Kechqurun uyda yolg'iz o'tirib kamin oldida isinarkanman. butun olamda yolg'iz o'zim qolganday, hech kimim yo'qday tuyuladi. Buning ustiga boshimga allaqanday noma'lum xatarlar bostirib kelayotganday, sirli va qo'rqinchli narsalar bor kabi ko'rinaveradi. Meni notanish yon qo'shnimdan ajratib turadigan devor go'yo bizning o'rtamizdagi masofani yulduzlar qadar uzoqlashtirib yuborganday bo'ladi. Shunda men o'zimni qo'yarga joy topolmay qolaman, qo'rqinch va chorasizlikdan dag-dag qaltirayman, meni devorlarning soqov nigohi vahimaga soladi. Qanchalar g'amzadalik bilan to'lib-toshgan bu yolg'iz go'sha! Sening jismingnigina emas, butun ruhingni ham jimjitlik qamrab oladi va stul sal g'ijirlab ket-sa, qo'rquvdan dir-dir titraysan, zotan, bu kulfat to'la go'shada hat-to sas ham g'alati eshitaladi.

U biroz jim qolgach, qo'shib qo'ydi:

– Harqalay qarigan chog'da farzandlaring borligiga ne yetsin!

Ular Burgund ko'chasining yarmini bosib qo'ydilar. Baland bino oldida to'xtagan shoir qo'ng'iroq chaldi.

– Qarib aljib qolgan bu odamning gaplarini unuting, yigit. Yoshingizga munosib yashayvering. Xayr! – o'z hamrohining qo'lini siqib dedi u va qop-qorong'i yo'lakka kirib ketdi.

Dyurua yuragi siqilib yo'lida davom etdi. Nazarida, u o'lgan odamlarning suyaklari to'lib yotgan o'raga qaraganday bo'ldi, – bir kunmas bir kun bu o'raga o'zi ham tushadi, albatta.

– Qurib ketsin!– deb pichirladi u. – Uning uyi qandayligi-ni tasavvur qilish mumkin. Yo'q, men u kishi o'zining fikrlarini ko'rikdan o'tkazayotgan chog'da birinchi qatorda o'tirishni ista-mas edim. Kaminalarini bundan ozod etingiz.

Shunda u karetdan tushib uyiga kirib ketayotgan atir-upa sep-gan xonimga yo'l berdi, havoda gulsafsar va tizimgul islari anqib ketdi. Dyurua bu iforlardan to'yib nafas oldi. O'pkasi yutoqib, bu anbarin hidlarni shimirdi, yuragi shodon tepa boshladi. U ertaga de Marel xonimni ko'raman, deb o'yladi va uni eslagan zamoni butun vujudiga issiq yugurganday bo'ldi.

Hamma narsa unga kulib boqmoqda, hayot uni alqamoqda. Umidlaring yo'ldosh bo'lsa qanchalar soz!

U o'zini tengsiz bir farog'at og'ushida his qilib uyquga yotdi va visol damlaridan oldin Bulon xiyobonlarini kezish uchun barvaqtroq turdi.

Shamol endi boshqa tomondan esmoqda edi, kechasi bilan havo yumshoq bo'lib qolgan, oftob xuddi aprel oyi kelganday isitar, kun iliq edi. Bulon o'rmonining oshiq-lari erkalovchi, tiniq osmon chorlab kelganday sayr qilib yurardilar.

Dyurua xuddi ko'klam ko'katlariday toza va barra havodan to'yib-to'yib shimirib, ohista borardi. Zafar arkidan o'tgach, otulov uchun mo'ljallangan yo'lning yonidagi keng xiyobon bo'ylab ketdi. U otlarini kim yo'rttirib, kim choptirib borayotgan badavlat kiborlarga, erlar va xotinlarga qarab borarkan, ko'nglida jindek g'ash va havas uyg'onib ketardi. Uning reportyorlik hunari dovruqli odamlarning barchasi bilan to'qnashtirgan, u ularning manzil-kalendariga, barcha Parij janjallarining qomusiga aylanib qolgandi, bu janoblarning barchasini u ismlarigacha, qancha mulk-davlati borligigacha, turmushining ko'pchilikka qorong'i bo'lgan tomonlarigacha besh qo'lday bilardi.

Uning yonginasidan engillariga yopishib turgan movut kostyum kiygan suvora xonimlar o'tib borishar, ularning butun saxe-sumbatidan otga mingan ko'pchilik xotinlarda paydo bo'ladi-gan kubarolarcha kekkaymachoqlik aks etib turardi. Dyurua shunda o'ziga ermak topib oldi: u xuddi cherkov alyorchisi kabi past ovoz bilan ularning o'ynashlari, deb hisoblangan odamlarning ism-familiyalari, unvonlarini atay boshladi, ba'zan u: «Baron de Tankle, knyaz de la Gur-Engeran...» deb sanab kelardi-da, birdan boshqa bir sanoqni boshlab yuborardi. «Bular esa, Lesbos oroliga mansub xotinlardan: Vodevildan Luiza Misho, operadan Roza Marketen».

Unga o'zining bu ermagi juda xush yoqib ketdi: ular o'zlarining dimog'dor ko'rinishlari bilan o'taketgan pastkashliklarini niqoblamoqchi bo'lardilar, Dyuruaning bunga ishonchi komil edi. U bundan mamnun edi, yuragi bundan taskin topar, bu uni ilhomlantirar edi.

– Munofiqlar! – dedi u ovozini baland qilib va eng xunuk mish-mishlar tarqalgan odamlarni ko'zlari bilan qidira ketdi.

Suvoriylar orasida g'irrom qimorvozlar ham oz emasdi, nima demang, qimorxonalar ularga birdan-bir tuganmas boylik orttirish manbasi bo'lib hisoblanardi.

Ularning ba'zilar qanchalar mashhur bo'lishlariga qaramasdan faqat xotinlarining mablag'lari bilan kun ko'rishar va bu hech kimga sir emasdi, boshqa birlari esa, biladigan odamlarning aytishlariga qaraganda, ma'shuqalarining hisobiga kun kechirar edilar. Ularning ko'plari o'z qarzlarini to'lab qo'yishgandi (tasanno deging keladi), lekin hech kimsa ular bu pullarni qayerdan olganliklarini aytib berolmasdi (odam uncha ishonmaydigan sir). Dyuruaning ko'z oldidan zo'r puldorlar o'tib turishar, ularning hozirgi afsonaviy davlati oddiy o'g'irlikdan boshlangandi, lekin shunga qaramasdan, ularni har yerda qabul qilishar, eng yaxshi xonadonlarning eshiklari ular uchun ochiq edi. Bunda yana shunchalar hurmatli shaxslar ham bor ediki, ularni ko'rganda mayda burjular shlyapalarini qo'llariga olishar, vaholanki, jamiyatni tag zaminidan kuzatib yurgan kishilar ularning g'oyatda yirik davlat tashkilotlarini ichdan o'marib yotganlarini yaxshi bilishardi.

Lablarini kibr-u havo bilan qimtib olgan, yuzlarida surbetlik ifodasi aks etib turgan bu janoblar bari g'oyatda kalondimog' edilar: ular bakenbard qo'ygan bo'lsalar yoki bakenbard o'miga murt o'stirgan bo'lsalar – buning ahamiyati yo'q edi.

Dyurua masxara qilib kulib borardi.

– Aftingdan olgurlar-e! – takrorladi u. – Hammasi olg'ir, hammasi muttaham! Bari bir go'r bularning.

Shu on pastakkina, usti ochiq chiroyli kolyaska o'tib qoldi, kolyaskaga yol va dumlari hilpirab borayotgan ikkita oq ot qo'shilgan edi, otlarni yoshgina, g'oyatda nozik, sochlari kumushsimon bir juvon boshqarib ketmoqda, uning orqasida ikki malayi ham bor, bu dong'i ketgan ermak xotinlardan edi. Dyurua to'xtadi – o'z ishini qoyil qilib yuqori tabaqalar ichiga kirib olgan, ishq bozorini chaqqon qizitib yuborgan va barcha munofiq asilzodalar sayrga chiqqan bir paytda o'zining ko'rpasi tagidan topilgan yaltiroq hasham-hushamini namoyish qilayotgan ushbu zeb-ziynat sohibasiga qulluq qilib qo'yishni istardi. Balki, u o'zi bilan bu xotin o'rtasida qandaydir o'xshash tomonlar borligini, xotinning tabiatida o'ziga yaqin bir narsalar mavjudligini sezgandir, ikkovlari bir toifada,

yuraklari bir-birlariga hamohang ekanligini va o'zi ham oldiga qo'ygan maqsadlariga xuddi uning singari odamni lol qiladigan yo'llar va vositalar bilan erishajagini fahmlab qolgandir.

U shoshmasdan orqaga qaytdi, vujudini allaqanday mamnunlik va qoniqish hislari chulg'adi, lekin qancha sekin yurmasin, ma'shuqasining huzuriga andak barvaqtroq kirib bordi.

Xonim uni qarshilab olarkan, go'yo o'rtalarida hech vaqo bo'lmaganday lablarini bo'saga tutdi. Hatto u bir necha daqiqaga o'z uyida turganligi, ehtiyot bo'lish zarurligini ham unutib qo'ydi, boshqa paytlarda u uyda jo'shgan ehtiroslarim jilovlashga harakat qilardi.

– Bilasanmi, jonim, attang deydigan bir ish bo'lib qoldi? – dedi xonim Dyuruaning shop mo'ylablarining uchidan o'parkan. – Sen bilan o'zimning ajoyib asal oyimni o'tkazmoqchi bo'lib tursam, tomdan tarasha tushganday erim kelib qolsa bo'ladimi, unga otpuska berishibdi. Biroq men seni shuncha ko'rmay yurib yana bir yarim oy ko'rmasdan turolmayman, shuning uchun xayolimga bir fikr keldi: unga sen haqingda bir gapirgandim. Gap shuki, dushanba kuni biznikiga mehmon bo'lib kelasan va sizlami tanishtirib qo'yaman.

Dyurua ikkilandi: boshi qotib turganining sababi, u hali bi-ron marta xotini bilan don olishib, ustiga eri bilan ulfatchilik qilib ko'rmagandi. U arzimagan narsadan o'zimni fosh qilib qo'yamanmi, deb qo'rqardi.

– Yo'q, – deb g'o'ldiradi u, – ering bilan tanishgim yo'q.

Dyuruaning ko'zlariga tong qolib tikilar ekan, sodda xotin qistalang qildi:

– Nega unday deysan? Bo'lmag'ur gap! Hamma shunday qiladi! Seni aqlli yigit deb o'ylovdim.

Bu uning qitiq patiga tegib ketdi.

– Mayli, bo'pti, dushanba kuni kelaman.

– Men Forestelami ham chaqiraman, unda nur ustiga nur bo'ladi, – deb qo'shib qo'ydi de Marel xonim. – Uyimda mehmon kutish jinim suymasa ham mayli.

To dushanba kelguncha Dyurua bo'lajak uchrashuv haqida o'ylagani yo'q. Biroq u de Marel xonimnikiga zinadan ko'tarilarkan, yuragini allanechuk bir bezovtalik chulg'adi: ma'shuqasining

eri bilan qo'l olishib ko'rishmoqdan, uning vinosini ichib, nonini baham ko'rishdan tortinib turgani yo'q edi – yo'q, u nimadandir qo'rqmoqda edi, lekin nimadanligini o'zi ham bilmasdi.

Uni mehmon kutiladigan xonaga olib kirdilar, u har qachongiday yana kuta boshladi. Keyin eshik ochilib ko'kragiga orden taqqan, yaxshi kiyingan, baland bo'yli, soqollari oqargan, salobatli odam uning qarshisiga yurib keldi-da, nazokat va mulozamat bilan dedi:

– Siz bilan tanishganimdan g'oyatda xursandman, afandim, xotinim siz haqingizda ancha gapirib bergan edi.

Chehrasiga iloji boricha do'stona va samimiy bir ifoda berishga harakat qilgan Dyurua uy sohibiga peshvoz yurdi va atay uning qo'llarini qattiq qisib qo'ydi. Biroq o'tirganlari hamono Dyuruaning tili tanglayiga yopishdi.

– Gazetalarga anchadan beri yozib turasizmi? – so'radi janob de Marel kaminga o'tin tashlarkan.

– Bir necha oy bo'ldi, xolos, – javob berdi Dyurua.

– Shunday deng! Juda tez ko'tarilibsiz!

– Ha, shunday bo'ldi.

Shundan so'ng u gapirayotgan gaplarini o'ylab o'tirmay, birinchi marta uchrashib turgan odamlar kabi umumiy yo'sinda bir undan, bir bundan gapga tushib ketdi. Endi uning ko'ngli o'rniga tushdi, bu suhbat ko'ziga qiziq bo'lib tuyula boshladi. Janob de Marelning ko'rkam oq soqoli va jiddiyat aks etib turgan chehrasi Dyuruaning kulgisini qistatar, unga qarab o'ylar edi: «Seni boplaganman, qariya, seni boplaganman». Bora-bora u tubanlik bo'lsa ham ich-ichdan mamnun bo'la boshladi, u xuddi qo'ldan chiqib ketgan o'g'ri kabi o'zida yo'q shod edi. U to'sindan shu odamga do'st bo'lgisi, uning ishonchini qozongisi, barcha sirlarini bilib olgisi keldi.

Birdan de Marel xonim kirib, ularga mug'ombirona kishi bilmas nazar tashlab, Dyuruaning oldiga bordi. Uning qo'llarini doimgiday o'pishga jur'at etmadi Dyurua sohibi xonadon oldida.

Xonim xursand va vazmin ko'rinardi. Tabiatan va oshkora beqaror bo'lganligidan ko'pni ko'rgan bu xotin yuz bergan uchrashuvga odatdan tashqari bir narsa deb qaramas, nazarida, bu o'zi shunday bo'lishi kerak edi. Lorina kirdi, kutilmagan iy-

manchoqlik bilan Jorjga peshonasini tutdi, – otasidan qimtinardi chog'i.

– Nega uni bugun Azizim demading? – so'radi onasi.

Qizaloq xuddi unga nisbatan g'oyatda kechirib bo'lmas beadablik qilib qo'yishganday, u haqda sira ham aytish kerak bo'lmagan narsani aytib yuborishganday, go'yo uning pinhona va ardoqli, jindek nomunosib sirini oshkor qilishgan kabi lov qizarib ketdi.

Forestelar kelishdi. Hammalari Sharlning ko'rinishidan qo'r-qib, xafa bo'lishdi. Keyingi hafta ichida Sharl o'zini qattiq ol-dirgan, rangida rang kolmagan edi. U tinimsiz yo'talardi. Vrach-ning talabi bilan kelasi payshanba kuni Kannga ketvapmiz, dedi u. Ular uzoq o'tirishmadi.

– Menimcha, uning ahvoli yomon, – dedi bosh chayqab Dyurua, – bu dunyoning odamiga o'xshamay qolibdi.

– Ha, ado bo'libdi, – deb qo'ydi beparvolik bilan de Marel xonim. – Lekin xotindan juda ham omadi kelgan edi.

– Unga ko'p yordam beradimi xotini? – so'radi Dyurua.

– Uning hamma ishini xotini qiladi desa ham bo'ladi. Nima ishi bo'lsa hammasidan xabardor, ko'rinishdan hech kim bilan alo-qasi yo'qqa o'xshasa ham, tanimagan odami yo'q. Nimani istasa shum qiladi, qo'li har joyga yetadi, istagan vaqtida istagan narsasi-ga erisha oladi. O, bunaqa shoxida emas bargida yuradigan hiyla-kor xotin ikki dunyoda ham topilmaydi! Uzoqqa ketaman, degan odamga topilmas bir xazinaning o'zi.

– U keyin yana erga tegishni paysalga solib o'tirmasa kerak? – o'smoqchiladi Dyurua.

– Ha, – dedi de Marel xonim. – Agar u mabodo hozirdanoq bitta-yarimtani ko'z ostiga olib qo'ygan bo'lsa, ajablanmas edim... birorta deputatmi... faqat shunisi borki... u mabodo rozi bo'lgan taqdirda... Yana kim biladi. Bas qilaylik shu gapni.

– Doim gapni o'lda-jo'lda qilasan, shu odatingni sira jinim yoqtirmaydi, – to'ng'illadi janob de Marel, uning ovozidan qittak-kina zarda qilayotgani sezildi. – Hech qachon birovlarining ishi-ga aralashmaslik kerak. Odamlarni o'z vijdoni bilan ish qilishga qo'yib berish kerak. Hamma shu qoidaga rioya etishi lozim.

Dyurua yuragi to'lqinlangan holda uyga jo'nadi: ko'ngli qan-daydir yangi imkoniyatlar tug'ilayotganligini sezib turardi.

Ertasiga u Forestelarnikiga bordi. ular ketishga tayyorgarlik ko'rishayotgan ekan. Sharl divanda yotib, atay qilayotganday og'ir-og'ir nafas olardi.

– Men bir oy oldin ketishim kerak edi. – deyardi u nuqul.

Garchi Valter bilan hammasi kelishib olingan bo'lsa-da, biroq u yana Dyuruaga kerakli maslahatlar berdi.

Jorj xayrlashib ketarkan, oshnasining qo'llarini qattiq qisib qo'ydi.

– Xo'p, tezda ko'rishguncha, qariya!

Foreste xonim uni kuzatgani chiqdi.

– Kelishgan gapimizni unutmadingizni?– biyron qilib so'radi Dyurua. Axir ikkimiz do'st va bir-birimizga ittifoqmiz, shunday emasmi? Basharti shunday ekan, agar mening biron yordamim kerak bo'lib qolsa, qisinib o'tirmang. Telegramma yoki bir og'iz xat yozsangiz, kamina xizmatimizga hozir bo'ladi.

– Rahmat, unutmayman, – deya pichirladi xonim. Uning nigohi ham shunday deb turar, lekin ko'z qarashlari aytgan gaplariga qaraganda mayin va ta'sirliroq edi.

Dyurua zinada o'zi bir marta Forestenikida uchrashgan de Vodrekni ko'rdi, u sekin-sekin chiqib kelmoqda edi. Grafning ko'rinishi ma'yusgina edi – xonim jo'nab ketayotganidan, balki, xafamidi, kim bilsin?

Uning oldida o'zining kibarlarcha tavajjuhini ko'rsatish uchun Dyurua darhol tavoze qildi.

De Vodrek iltifot ko'rsatib, unga kibr-u havo bilan ta'zim qilib o'tdi.

Forestelar payshanba kuni kech bilan jo'nab ketishdi.

VII

Sharl ketgandan keyin Dyuruaning «Fransuz hayoti» tahriri-yatidagi mavqeyi zo'raydi. U bir qancha bosh maqolalar e'lon qildi, ayni zamonda boshliq har bir xodim o'z materialiga javob berishni talab qilganidan xronikaga ham qo'l qo'yib turdi. U mu-nozaralarga ham qo'shilar va har safar bahsni o'z foydasiga hal qilar edi. Shunisi ham borki, davlat arboblari bilan doimo aloqada bo'lib turishi uni juda pishitdi, ko'zlarini o'tkir qildi, aqlini pesh-

ladi – shu tariqa u siyosiy hayot bo'limining xodimiga g'oyatda zarur bo'lgan xislatlarni orttirdi.

Faqat bir narsa Dyuruaning ko'nglini xira qilmoqda edi. «Qalam» nomi bilan chiqadigan g'irt tuhmatchi gazeta tinmay unga yopishar, to'g'rirog'i, uning nomini ro'kach qilib, «Fransuz hayoti»ning xronika bo'limi mudiriga chang solar va uni «janob Valterni anqaytirib qo'yadigan xronika bo'limi» deb atardi. Dyurua har kuni o'sha ipirisqi gazetaning allaqanday bir xodimi yozadigan maqolachalarda g'alati shamalar, zaharli gaplar va turli-tuman tuhmatlarga duch kelardi.

– Juda sabr-toqatli odamsiz-da, – dedi unga bir kuni Jak Rival.

– Hech qisi yo'q, – g'o'ldiradi Dyurua. – Hozircha to'g'ri hujumga o'tmayapti.

Lekin bir kuni hali Dyurua tahririyat zaliga kirib ulgurmasidan Buarenar unga «Qalam»ning yangi sonini uzatdi.

– Qarang, yana sizga yopishibdi.

– Hay! Nima munosabat bilan?

– Bema'ni bir gap. Allaqanday Ober degan xotinm axloq politsiyasi ushlab olgan ekan, shunga.

Jorj gazetani olib «Dyurua ko'ngil ochadi» sarlavhasi bilan berilgan maqolani o'qib chiqdi:

«Fransuz hayoti»ning mashhur muxbiri e'lon qilganimizdek, qabih axloq politsiyasi tomonidan qo'lga olingan Ober xonimni tag-tugida yo'q odam deb aytibdi. Aslida esa biz aytgan xonim Monmart'rda, Ekyurey ko'chasi, 18-uyda turadi. Shunisi ham bor-ki, biz politsiya mahkamasining agentlari Valter bankining ishlariga barmoq orasidan qarab kelayotganligini va nima uchun Valterning odamlari politsiya agentlarini himoya qilayotganliklarini va bunda qanday manfaat, to'g'rirog'i, manfaatlarni ko'zlayotganliklarini yaxshi bilamiz. Reportyorning o'ziga kelganda esa, shuni aytishimiz mumkinki, u yaxshisi bizga cho'pchaknamo gaplardan xabar bersa tuzuk edi – axir u, bunaqa xabarlarga juda ustasi farang bo'lib ketgan, u shunchalar ustaki, birov o'ldi, deb xabar bersa,ertasiga bu gap yolg'on bo'lib chiqadi, jang bo'ldi desa, aslida, hech qanday jang bo'lmagan bo'ladi. U nutq so'zlash xayoliga ham kelmagan podsholarni tantanali nutq so'zlad, deb chiqadi. Bir so'z bilan aytganda, u Valterga mo'may foyda keltiradigan xabarlarning

ustasi bo'lib qolgan. Bo'lmasa, u shubhali ishlari bilan mashhur xotinlamikida o'tadigan kechalardagi beozor g'iybatlardan so'ylasin yoki ba'zi birodarlarimizga qop-qop foydalar keltirayotgan oziq-ovqatlar sifatining ta'rifini keltirib maqtab bera qolsin».

Dyurua dam darg'azab bo'lsa, dam boshi qotdi, lekin bir narsani yaxshi anglab oldi: bu gaplarning oqibati uning uchun voy bo'lishi hech gap emasdi.

– Sizga u ma'lumotlarni kim bergan edi? – so'radi Buarenar.

Dyurua hamma xodimlarining nomlarini bir-bir eslab chiqdi, lekin kimligi sira esiga kelmadi. Nihoyat, esladi:

– E, Sen-Poten bergan edi!

U maqolani qaytadan o'qib chiqib, g'azabi yuziga tepdi: uni sotqinga chiqarib qo'ygan edilar.

– Iye! – deb yubordi u. – Nima, meni pora oladi deydimi...

– Shundayga o'xshaydi. Ular senga ablahlik qilishibdi. Boshliq bunaqa paytlarda ayab o'tirmaydi. Xronikyorlar ko'pincha...

Shu payt Sen-Poten kirib qoldi. Dyurua uni darhol gapga tutdi:

– «Qalam»dagi maqolani o'qidingizmi?

– Ha, meni hozir to'g'ri Ober xonimning oldidan kelayotirman. U haqiqatan ham bor ekan. Lekin qamalmagan ekan. Boyagi gaplar g'irt yolg'on.

Dyurua boshliqning huzuriga yugurdi, boshliq uni sovuqqina qarshi oldi, ko'zlaridan unga ishonqiramay qarayotgani bilinib turardi.

– O'sha xotinning oldiga boring, – dedi Valter uning hamma gaplarini tinglab bo'lgach, – keyin shunday bir raddiya yozingki, boshqa siz haqingizda miq etib og'iz ochmaydigan bo'lishsin. Men maqolaning oxiridagi gapni nazarda tutyapman. Bu gazetaga ham, menga ham, sizga ham sha'mimizga to'g'ri kelmaydigan gap. Jurnalist odam Sezarning xotiniday shubhalardan xoli bo'lmog'i kerak.

Dyurua yoniga Sen-Potenni olib faytonga o'tirdi.

– Monmartr, Ekyurey ko'chasi, o'n sakkiz! – qichqirdi u faytonchiga.

Ular kattakon uyning yettinchi qavatiga ko'tarildilar. Eshikni jun kofta kiygan kampir ochdi.

– Yana keldinglarmi? – dedi u Sen-Potenni ko'rgach, norozi bo'lib.

– Men sizning oldingizga politsiya inspektorini olib keldim. – deb javob berdi unga Sen-Poten. – Siz unga hamma gapni aytib berishingiz kerak.

Kampir ularni uyga kiritdi.

– Sizdan keyin yana ikki kishi qaysi bir gazetadan kelishdi, nomini bilmayman. – deb gap boshladi kampir va Dyuruaga qarab dedi:

– Afandim, qanday voqea bo‘lganligini bilmoqchimisiz?

– Ha. Sizni axloq politsiyasi qamoqqa olgani rost gapmi?

Kampir chapak chalib yubordi.

– Be, qayoqda deysiz, afandijon, bo‘lmagan gap. Voqea shundoq. Men go‘st oladigan qassobning go‘шти yaxshi bo‘ladi, faqat u tarozidan uradi. Buni juda ko‘pdan beri payqab yurardim-u o‘zi-ga aytmadim. Kuni kecha undan qiymali ikki qadoq go‘st so‘rab bordim, qizim bilan kuyovim kelishadigan edi – qarasam, taroziga nuqul laxtak go‘st bilan suyak tashlayapti. To‘g‘ri, qiymali go‘st suyaksiz bo‘lmaydi, bilaman, lekin nuqul suyak tashlab bersa ham odamga alam qilar ekan. Uning bergan go‘stidan ragu qilsa bo‘ladi, lekin men yaxlit qiyma go‘st pishirmoqchi edim-da. Qiyqim-siyqim go‘stini boshimga uramanmi? Olmayman bunaqa go‘stni, dedim. Shunda u meni «qari kalamush» deb so‘kdi, men uni qarib quyulmagan muttaham, dedim. U u dedi, men bu dedim, ishqilib, aytishib qoldik odamlar yig‘ildi. Bo‘ldi qiyqiriq, bo‘ldi qiyqiriq! Innaykeyin politsiyachi kelib bizni komissarning oldiga boshladi. Komissarning oldidan ikkovimiz ham yovlashib chiqdik. O‘shandan beri men go‘stni boshqa joydan oladigan bo‘ldim, hat-to do‘konining ham yonidan o‘tmayman, basharasi qursin, kasofatdan yiroqroq yuray deymanda.

– Shu bilan u o‘z hikoyasini tugatdi.

– Shumi? – so‘radi Dyurua.

– Bor gap shu, afandijon.

Kampir Dyuruaga qora qorag‘atdan qilingan musallasni taklif qildi, Dyurua ichmasligini aytdi. Shunda kampir protokolda qassobning tarozidan urishini ham aytib o‘ting, deb turib oldi.

Dyurua tahririyatga qaytib raddiya yozdi:

«Qalam»ning noma‘lum qalamkashi mening nomimga dog‘ tushirish maqsadida patlarini yulib, keksayib qolgan xotinni ax-

loq politsiyasi qamabdi, deb gap qilibdi. Men buni g'irt yolg'on deb aytaman. Men Ober xonimni o'z ko'zlarim bilan ko'rdim, u kishining yoshi oltmishdan oshib qolgan. Menga qassob bilan jiqlashib qolganligini bir boshdan oqizmay-tomizmay aytib berdi. Janjal qassobning go'sht tortayotganda tarozidan urganligidan kelib chiqibdi. Keyin komissarga borib kim haq, kim nohaqligimi aniqlashibdi.

Faktlar shunday.

«Qalam» xodimining boshqa tuhmatlariga kelganda, ularga javob berib o'tirishni o'z sha'nimga nолоyiq deb bilaman. Buning ustiga bo'hton to'qib chiqaruvchining o'zi niqob tagiga biqinib olgan.

Jorj Dyurua».

Valter hamda shu payt uning xonasiga kirib kelgan Jak Rival shuning o'zi yetarli deb topishdi. Raddiyani yaqin sonlarning birida xuddi xronika bo'limining tagida beradigan bo'lishdi.

Dyurua uyga barvaqt qaytdi, u ancha tashvishlanib qolgan, ko'ngli bezovta edi. Unga anov nima deb javob qaytararkin? U kim o'zi? Nima sababdan bunchalar unga yopishib qoldi? Jurnalistlarning bir jahli chiqsa, chapaqay chiqishini hisobga oladigan bo'lsa, bu ishlarning oxiri zil bo'lib tugamasa edi hali. Dyurua mijja qoqmadi.

Ertasiga o'z maqolasini gazetada o'qib ko'rib maqola juda haqoratimiz yozilgandek bo'lib tuyuldi unga. Qo'lyozmadan bir xil iboralarni olib tashlab, uni salcha yumshatsa bo'lar ekan.

U kuni bilan nash'asi past bo'lib yurdi va yana kechasi bilan to'lg'anib chiqdi. U «Qalam»dan javob toparman degan maqsadda uni tezroq sotib olish uchun tong saharlab o'rnidan turdi.

Havo yana aynib qoldi: juda ham sovuq edi. Yo'lkalarning chetlaridagi ariqchalar muzlab qolgan, xuddi lenta kabi yaltirab turar edi.

Kioskalarga hali gazeta kelmagan ekan. Shunda Dyurua o'zining ilk maqolasi – «Afrika o'qchisining xotiralari» bosilib chiqqan kunni esladi. Qo'li va oyoqlari sovuqdan tarashaday qotib qoldi, barmoqlarining uchi qattiq achishib bormoqda edi. U sal bo'lsa-da, isinay deb kioska atrofida chopqillab aylana boshladi, kioska darchasidan manqal oldiga cho'kkalab o'tirgan sotuvchi

xotinning faqat burni, qizarib ketgan yonoqlari va tivit ro'moli ko'rinib turar edi.

Nihoyat, gazeta tarqatuvchi kelib teshikdan boylam-boylam gazetalarni uzatdi. Shundan so'ng sotuvchi xotin Jorjga «Qalam»ning sahifasi ochiq sonini uzatdi.

Dyurua avval shunday bir ko'z yugurtirib chiqib o'z nomini uchratmadi. U endi yengil nafas olaman, deganda, birdan ikki chiziq orasiga olingan maqolacham ko'rib qoldi:

«Fransuz hayoti»ning xodimi hurmatli Dyurua raddiya yozibdi, lekin u rad qila turib yana yolg'on gapiribdi. Aytganday, u rostdanam Ober xonim borligini va politsiya agenti uni mahkamaga olib borganligini tan oladi. Faqat bunda u «politsiya agenti» so'zlariga yana bir so'z qo'shib ishlatsa, ya'ni «axloq politsiyasi agenti» deganda, hammasi o'z o'rniga tushgan bo'lar edi.

Biroq ba'zi bir jurnalistlarning vijdoni ularning qobiliyatidan sira farq qilmasligi ravshan.

Qo'l qo'ydim:

Lui Langremon».

Dyuruaning yana yuragi o'ynab ketdi. O'zi ham nima qilayotganligini yaxshi anglamagan holda uyga kiyingani ketdi. Shunday uni haqorat qildilar, bu shunaqangi haqoratki, unga bir dam bo'lsin toqat qilib bo'lmaydi. Nimadan boshlandi buning bari? Hech narsadan. Allaqanday bir kampir qassob bilan adi-badi aytishib qolgan, shu xolos.

U tezgina kiyindi va garchi hali soat sakkiz bo'lmagan esa-da, Valteming huzuriga yo'l oldi.

Valter o'midan turgan. «Qalam»ni o'qib ulgurgan ekan.

– Shunday qilib, – deb tantanali suratda gap boshladi u. Dyuruani ko'rib, – siz chekinib o'tirmasangiz kerak, albatta?

Dyurua unga hech narsa demadi.

– Darhol Jak Rivalni toping, – davom etdi noshir, – u hammasini to'g'rilaydi.

Dyurua allanarsa deb g'udranib qo'ydi-da, Jak Rivalni izlab ketdi. U hali uxlab yotgan ekan. Qo'ng'iroqdan dik etib o'midan turdi.

– Ish rasvo! Uning oldiga borishga to'g'ri keladi, – dedi u maqolani o'qib ko'rgach. – Ikkinchi sekundantlikka kim bo'lishni istardingiz?

- Bilmasam.
- Buarenar bo'lsamikan? Nima deysiz?
- Buarenar bo'lsa, Buarenarda.
- Qilichbozlikka qalaysiz?
- Qilich ushlab ko'rmaganman.
- Eh, chatoq! Pistoletni-chi?

– Biroz otib ko'rganman.

– Juda soz. Men ishlaringizni bitirgunimcha siz mashq qilib turing. Andak sabr qiling-chi.

U narigi xonaga o'tib, ko'p o'tmay yuvingan, soqollari qirtishlangan, yaxshilab kiyingan holda qaytib chiqdi.

– Yuring ketdik, – dedi u.

Rival kichkina binoning pastki qavatida turar ekan. U Dyuruani ko'chaga qaragan oynalari butunlay berkitib tashlangan podvalga olib tushdi – podval hayhotday bo'lib, u qilichbozlik va pistoletdan otib mashq qilinadigan tirga aylantirilgan ekan.

Pastga tushganlaridan keyin Rival qator bo'lib tizilib ketgan gaz chiroqlarini yoqdi, chiroqlarning eng oxirida qizil va zangori ranglarga bo'yalgan temirdan ishlangan tulum turardi. U stolga orqasidan o'qlanadigan to'rtta pistolet qo'ydi, keyin xuddi duel tushiladigan maydonga yetib kelishganday, xirqirab buyruq bera boshladi:

– Tayyormisiz? Oting! Bir, ikki, uch!

Dyurua bolalik kezlarida otasining ko'hna uzun to'pponchasi-dan dalada qushlarni otib yurardi. Mana endi shu ham qo'l kelib qoldi: u fikrlab o'tirmasdan qo'lini ko'tarar, mo'ljalga olar, tepkini bosar va ko'pincha tulumning qormiga tekkizardi, shunda Jak Rivaldan maqtovlar eshitardi:

– Yaxshi. Juda yaxshi. Juda yaxshi. Balosiz.

U keta turib dedi:

– Peshingacha mana shunday mashqni qilib turing. Mana o'q-lar, ularni ayab o'tirmang. Sizning oldingizga birga ovqatlangani kelaman va sizga bo'lgan gaplarni aytib beraman.

So'ng u ketdi.

Yana bir necha bor otib ko'rgach, Dyurua o'tirib o'yga toldi.

– Borib turgan ahmoqlik bularning bari, vassalom. Kimga kerak bu? Nahotki pastkash odam duelga chiqqandan keyin pastkash

bo'lmay qolsa? Mana endi allaqanday bir iflosning haqorati tufayli sofdil bir odam ko'kragini o'qda tutib berishi kerak. Nima uchun?

U og'ir o'ylarga toldi va beixtiyor Norber de Varenning inson ongining ojizligi, g'oyalarining hech narsaga arzimasligi, harakatlارimizning bari behuda va puch ekanligi, odamzod axloqining nobopligi to'g'risida so'zlagan gaplari yodiga tushdi.

– Jin ursin, u qanchalar haq ekan-a! – deb yubordi u ovoziini chiqarib.

Uning tomog'i quridi. Qayerdandir suvning tomchilagani esh-tilib turardi, u o'g'irilib qarab, dushga ko'zi tushdi va borib to'g'ri trubaning o'zidan suv ichdi. Keyin yana o'yga botdi. Podval baayni qabrnig o'zi – qop-qorong'i edi. Ko'chadan o'tib borayotgan ekipajlarning gumburlagan sadosi xuddi olisdan kelayotgan momaqalldiroq kabi eshitilardi. Soat necha bo'ldi ekan? Qamoqda vaqtni nazoratchining kelib ketadigan vaqtlaridangina bilish mumkin. Bu yerda ham ayni shunday bo'lib tuyularkan. Uning nazarida bir asr o'tganga o'xshardi.

Mana, oyoqlarning dupur-dupuri ham quloqqa chalinib qoldi va Buarenar bilan birgalikda Jak Rival kirib keldi.

– Hammasi hal bo'ldi! – uzoqdan turib qichqirdi u.

Dyurua uzr so'rab, xat yozaman ekan-da, deb o'yladi dastavval. Yuragi gumurib ketdi.

– Ha-a!.. Tashakkurlar, – ming'irladi u.

– Bu Langremon deganimiz ancha dovyurak odamlardan ekan, – deb gapida davom etdi Jak Rival, – u bizning barcha shartlarimizga rozi bo'ldi. Oraliq masofa yigirma besh qadam, komanda bilan to'pponcha ko'tariladi va otiladi. Shundan qilinsa, qo'l qaltiramaydi. Mana o'zingiz ko'rarsiz, Buarenar, men haqligimni.

Shundan keyin u qo'lga to'pponcha olib, uni pastdan yuqoriga ko'tarib otib ko'rsata boshladi. Shunday qilinsa, mo'ljalga urish qulayroq ekan.

– Endi yuringlar, tamaddi qilib olaylik, soat bir bo'lib qolibdi, – dedi u saldan keyin.

Ular yaqinroq restoranlardan birida ovqatlanib oldilar. Dyurua ovqat paytida miq etib og'iz ochgani yo'q. U qo'rqupti ekan, deb o'ylamasliklari uchungina ovqatdan cho'qilab o'tirdi. Buarenar bilan tahririyatga kelgach, u beixtiyor xayoli g'oyatda

faromush holda ishga o'tirdi. Hamma uning o'zini tutishiga qoyil qoldi.

Choshgohda Jak Rival Dyuruaning qo'lini siqib qo'ygani kirdi va ular ertaga ertalab to'rt kishilik usti ochiladigan landoda soat yettida uchrashajaklari va birgalikda duel o'tadigan Vezine o'rmoniga borajaklari haqida kelishib oldilar.

Bularning bari yoz kuni yoqqan qorday birdan uning ixtiyoridan tashqari ro'y berdi. hech kim undan sen o'zing bu haqda qanday fikrdasan, deb so'rab o'tirgani ham yo'q. hech kimsa rozimisan, yo'qmi, deb qiziqib ham ko'rmedi. Hammasi shu qadar tez, ko'z ochib-yunguncha ro'y berdiki, u hatto hamon o'ziga kelolmaydi, es-hushini yig'ishtirib, nima bo'lganligini mundoq bir tagiga yetolmaydi.

Dyurua xuddi sadoqatli do'st kabi kuni bo'yi uning yonidan jilmagan Buarenar bilan kechki ovqatni birga qildi-da, soat to'qqizlarda uyga qaytdi.

Bir o'zi qolgach, bir necha vaqt uyning u burchagidan bu burchagiga katta-katta qadamlar tashlab borib kela boshladi. U shu qadar qattiq hayajonga tushgan ediki, kallasi g'uvillab, xayoliga hech narsa kelmasdi. Xayolini faqat bir narsa parralab turardi: «Ertaga duel», lekin bu uning yuragida allaqanday anglanmagan tashvishdan boshqa hech narsa tug'dirmas, tashvishi esa borgan sari ortib xavotirga aylana bormoqda edi. Nafsilamrga, u axir askarlikda bo'lgan-ku, bir mahallar arablarni otib yurgan edi-ku. Illo, arablarni otganda, uning o'zi bexavotir edi, axir bu qobon oviga chiqqanday bir omadi gap edi-da.

Nima bo'lganda ham u o'zini yerga urmadi. Shunday qilish kerak edi. U odamlarni qoyil qildi. U endi tilga tushadi, uni ko'klarga ko'taradilar, tabrik va tasanno aytadilar unga. Biroq shularni o'ylarkan, qattiq iztirobga tushgan chog'larda bo'ladigan kabi birdan baqirib yubordi:

– Hayvon ekan u!

Keyin o'tirib xayolga toldi. Stolda raqibining vizit qog'ozi yotar, Rival buni, adresini bilib qo'ying, deb bergandi. U buni yigirma martadan ortiq o'qigan bo'lsa-da, yana bir marta qayta o'qidi: «Lui Langremon, Monmartr ko'chasi, 176». Vassalom.

U tizilib turgan harflarga tikilarkan, ular koʻzlariga gʻoyatda sirli, xatarli, maʼnolarga toʻlib yotgan kabi tuyulardi. «Lui Langremon» – bunisi kim boʻldi? Yoshi nechada? Boʻyi basti qanday? Chehrasi nechuk? Axir bu qanday bedodlikki, qandaydir bir begona odam toʻsatdan hech narsadan hech narsa yoʻq, sizning tinchligina kechayotgan hayotingizni buzadi, gʻulu soladi, yana nimadan deng, allaqanday kampir qassob bilan janjallashib qolganidan?

– Voy hayvon-ey! – dedi u yana ovozi chiqarib.

U qimir etmasdan vizit qogʻoziga yeb yuborguday boʻlib tikilib oʻtirardi. Mana shu bir parcha qogʻozga qarshi uning vujudida gʻazab, yovuz bir gʻazab bosh koʻtarmoqda, bu gazabga yana allaqanday ijtinob ham aralashib ketgan edi. Qanday bemazagar-chilik! U timoq qaychisini oldi-da, xuddi birovga zarba berayotgan, xanjar urayotgan kabi uni qogʻozdagi nomga sanchdi.

Shundoq, u jang qiladi, jang qilganda ham toʻpponcha bilan qiladi! Nega u qilichni tanlamadi? Et-beti tilinsa tilinardi, hozir endi nima boʻladi, kim biladi?

– Ey, boshingni baland koʻtar, qani! – dedi u oʻziga-oʻzi.

U oʻzining ovozidan choʻchib ketdi va atrofga olazarak boʻlib qaradi. Juda asabiylashib ketibman-ey! U bir stakan suv ichdi. Soʻng yechina boshladi.

Keyin yotdi, chiroqni oʻchirdi va koʻzlarini yumdi.

Xonaning ichi salqin boʻlsa ham ustiga adyol yopgach, juda qizib ketdi. Koʻzlariga uyqu kelmadi. Hadeb u yonidan bu yoniga agʻdarilaverdi: chalqancha yotib besh daqiqa oʻtar-oʻtmas oʻng yoniga agʻdarilib olar, keyin yana chap tomoniga qarab yotardi.

Buning ustiga tomogʻi ha desa qaqrab ketmoqda edi. U oʻrnidan turib suv ichdi, shunda uning dilini xavotirlik chulgʻab oldi: «Nima balo, qoʻrqayotgan boʻlmay tagʻin?»

Nima uchun uyda bir narsa sal shitirlab ketsa yuragi qinidan otilib chiqadiganday boʻlib uradi? Devor soatining murvati jom chalishdan oldin salgina tiqirlab ketsa, dagʻ-dagʻ qaltiraydi, havo yetishmaydi, xuddi boʻgʻilib ketayotganday ogʻzini kappa-kappa ochib havo yutadi.

U xuddi psixologlarga oʻxshab oʻzining xatti-harakatlarini birma-bir tahlil qila boshladi: «Qoʻrqapmanmi, yoʻqmi?»

Yo‘q, qo‘rqayotgani yo‘q, endi bu ishni oxiriga yetkazib qo‘ymoq kerak: u jang qiladi, yuraksizlik bilan orqaga chekinmaydi. Lekin u shu qadar hayajonlanmoqda ediki, beixtiyor o‘ziga-o‘zi shunday savol berdi: «o‘z irodangdan tashqari qo‘rqishing mumkinmi?» Shunda uning butun vujudini birdan ishtiboh, tashvish, iztirob va vahima qoplab oldi. Agar uning ixtiyoriga bo‘ysunmaydigan, shaxsiy irodasidan qudratliroq boshqacha yengib bo‘lmas bir kuch uni o‘z hukmiga olsa, unda nima bo‘ladi? Ha, unda nima bo‘ladi?

Albatta, u nishonga chiqadi, u shuni istagan ekan, chiqadi. Xo‘p, agar dag‘-dag‘ titray boshlasa-chi? Hushini yo‘qotib qo‘ysa-chi? Axir uning farog‘ati, obro‘yi, kelajagi – hamma-hammasi o‘zini duelda qanday tutishiga bog‘liq-ku.

U nimagaligini o‘zi ham tushunmagan holda o‘midan turib oynaga qaragisi keldi. U shamni yoqdi. Ko‘zguda aksini ko‘rib bazo‘r tanidi o‘zini – go‘yo bu chehrani birinchi marta ko‘rib turganday edi. Ko‘zlari katta-katta ochilgan, rangida qon qolmagan, bo‘zday oqarib ketgandi.

Birdan xayoliga bir fikr o‘qday otilib kirdi: «Balkim, ertaga men hayot bo‘lmasman». Shundan keyin uning yuragi qafasga tushgan qushday yana patirlay boshladi.

U karavot oldiga keldi, shunda to‘sindan hozirgina ustidan itqitib yuborgan adyol tagida yotgan o‘z holati ko‘z o‘ngida gavalandi. Mana, u chalqancha yotibdi. Uning yuzlari o‘liknikiday ingichka tortib ketgan, qo‘llari qotib qolgan, rangsizgina bo‘zarib yotibdi.

U karavotdan cho‘chib nari ketdi, ko‘zlarimga ko‘rinmay tursin deb, derazani ochdi-da, boshini tashqariga osiltirdi.

Shu zahoti basharasiga muzdek havo urildi, sovgotdi, nafasi siqildi va darhol derazadan o‘zini nari oldi.

U kaminga o‘t yoqish fikriga keldi. Ohista orqasiga qaramasdan olov yoqa boshladi. Nimaga bexos tegib ketsa, shu zahoti qo‘llariga asabiy qaltiroq tushardi. Kallasi po‘la bo‘lib qolgan, boshida parokanda, og‘ir fikrlar g‘ujg‘on o‘ynar, ular tutqich bermay qochar, hushi xuddi mast odamday o‘zida emasdi.

U tinmay o‘ziga-o‘zi shu savolni berardi:

– Nima qilishim kerak? Holim nima kechadi?

U yana xona bo'ylab keza boshladi, xayolida beixtiyor shu so'zlarni takrorlagani takrorlagan edi:

– Men o'zimni qo'lga olishim kerak, nima bo'lganda ham o'zimni qo'lga olishim kerak.

Bir qancha muddat o'tgandan so'ng u to'sindan: «Chol-kampirlarga xat yozishim kerak», deb o'yladi.

U o'tirib bir varaq oq qog'oz oldi-da, yoza boshladi: «Mehribon dada va oyi...»

Lekin fojiona holatlarda xatni bunday boshlash yaramaydi degan fikrga keldi u. Qog'ozni yirtib tashlab, qaytadan yoza boshladi: «Mehribon padarim va volidayi muhtaramam, ertaga tong qorong'isida men duelga chiqyapman, shunday bo'lib qolishi mumkin...»

Xatni oxirigacha yozishga jur'ati yetmay o'midan turib ketdi.

Duel uni qattiq o'rtab bormoqda edi. Ertaga u nishonga turadi. Bu muqarrar. Lekin unga nima bo'ldi o'zi? Uning qarori qat'iy. U jang qilmoqchi, shu istak va qaroridan chekinmaydi. Shunday bo'lsa ham, nazarida o'zini qancha majbur qilmasin, duel bo'ladi-gan joyga yetib borishga holi qudrati yetmay qoladiganday edi.

Ba'zan tishlari bir-biriga tegib shaqillab ketmoqda – tishlari-ning takillashi quruq va sekin eshitilardi.

«Raqibim avval ham duelga tushib yurganmikin? – o'ylardi Dyurua. – Otishni mashq qilib yurganmikin? Zo'r mergan bo'lsa-chi? Uning mergan odamligini biladiganlar bormikin?» – Dyurua u haqda hech narsa bilmaydi, eshitmagan. Biroq u odam sira o'ylanib turmasdan to'pponchada otishaman, deb rozi bo'lgan ekan, demak, bu xatarli qurolning mashqini olgan.

Shunda uning qalbini ifoda qilib bo'lmas bir noumidlik chulg'adi. Endi uning butun jismi dag'-dag' qaltirab varajaga tushdi. U baqirib yubormaslik uchun tishlarini mahkam bosdi, xuddi telba misoli yerga yotib dumalashga, nimaiki qo'lga tushsa, shuni dalva-dalva qilib yirtish va g'ajib tashlashga tayyor edi. Shunda u kamin ustida turgan qadahga ko'zi tushib qolib, javonda hali ochilmagan katta shishada araq borligini esladi. Dyurua harbiy xizmatda har kuni ertalab bosh og'rig'i qilishga o'rgangandi.

U shishani olib, yutoqib uning ogʻzidan qultillatib icha boshladi. Nafasi qaytib ketgandan keyingina uni joyiga qoʻydi. U araqning xiylagina qismini ichib qoʻygandi.

Shu zahoti ichiga olov yugurganday boʻldi, tomirlariga alanga oʻtdi, qizishdi va oʻzini ancha tetik seza boshladi. «Yoʻlini topdim», – deb oʻyladi u.

Uning vujudi alangai otash boʻlib yondi va yana derazani ochib qoʻydi.

Sovuq va sokin tong otmoqda. Subhi sodiq oqarayotgan tomonda goʻyo yulduzlar oʻlib borayotganday edi, temir yoʻlning chuqur oʻyigʻida esa koʻk, qizil, oq signal chiroqlari xira tortib bormoqdaydi.

Depodan ilk parovozlar chiqdi, ular hushtak chala-chala ilk poyezdlar tomon yoʻl oldi. Uzoqlarda esa xuddi qishloq xoʻrozlari kabi boshqa parovozlar tinimsiz qichqirishar va qorongʻi tong sukunatini buzishardi.

«Ehtimol, bularni endi hech qachon koʻrmasman», degan fikr oʻtdi uning boshidan. Lekin shu zahoti bu fikrni nari quvdi, bir kani oʻz holimga achinib yigʻlab oʻtirishim qoluvdi, deb oʻyladi u: «Bas! Endi to duel boshlanguncha hech narsani oʻylamaslik kerak, boʻlmasa oʻzingni yoʻqotib qoʻyasan».

U ustiga engil-boshini ila boshladi. Soqolini olayotganda yuragi lop etib orqasiga tortib ketdi: xayolida goʻyo oynaga oxirgi marotaba qarab turganday boʻldi.

Harqalay, araqdan yana biroz ichdi-da, kiyinib, taranib oldi.

Soʻnggi soatlar uning nazarida juda ogʻir kechdi. U oʻzini tutib olish uchun xona ichida u yoqdan bu yoqqa borib kela boshladi. Eshik taqillagan edi, titrab-qaqshab ketdi va bazoʻr oyoqda turib qoldi. Sekundantlar kelishdi. Vassalom!

Ular ustlariga poʻstin kiyib olgandilar. Jak Rival Dyuruaning qoʻlini siqdi.

- Sibirming sovugʻi boʻlyapti. Xoʻsh, kayfiyatlar nechuk endi?
- Zoʻr.
- Qoʻrqmayapmizmi?
- Yoʻgʻ-ey.
- Oh-ho, demak, hammasi joyida ekan. Ovqatlanib oldingizmi?
- Ha, men tayyorman.

Buarenar bunaqa kun tez-tez bo'lavermasligini sezib chet mamlakatdan olgan zarg'aldoq tusli ordenini taqib olibdi, – Dyurua uning orden taqqanini birinchi marta ko'rib turishi edi.

Ular pastga tushishdi. Faytonda yana bir janob ularni kutib o'tirgan ekan.

– Doktor le Bryuman, – deb tanishtirdi uni Rival.

– Tashakkur, – deb g'o'ldiradi Dyurua salomlasharkan.

U oldinga o'tib o'tirmoqchi bo'lgan edi, tagida qattiq bir narsani his qilib, o'midan dik etib turdi. Bu to'pponchalar solib qo'yilgan quticha ekan.

Bu yerga emas! Duelchi bilan vrach orqaga o'tirishsin! – bir necha marta takrorladi Rival.

Dyurua nihoyat nima demoqchi bo'layotganlarini anglab yetdi va o'zini doktorning yoniga tashladi.

Keyin sekundantlar o'tirishdi va otlar o'midan qo'zg'aldi. Faytonchi qayerga borish kerakligini o'zi bilarkan.

To'pponchalar solingan quti bora-borguncha hammaga xalaqit berib bordi, ayniqsa, Dyuruaning uni ko'rgani ko'zi yo'q edi. Orqaga tashlab qo'ymoqchi bo'lishgandi, yelkalariga urilaverib bezor qildi: Rival bilan Buarenaning o'rtasiga qo'yishgandi – hadesa pastga tushib ketaverdi. Nihoyat, uni o'rindiqning tagiga tiqib qutuldilar.

Doktor latifalar so'ylab berar, lekin baribir gap gapga qovushmasdi. Faqat Rivalgina onda-sonda oraga gap qistirib qo'yardi. Dyurua o'zini hech narsani pisand qilmayotganday ko'rsatgisi kelar, lekin fikrlarimdan chalkashib ketib, gapimni yo'qotib, o'zimni bildirib qo'yaman, deb cho'chirdi. Buning ustiga uni dahshatli bir o'y qattiq qiynamoqda edi: birdan dir-dir qaltiray boshlasa-ya?

Arava ko'p o'tmay shahardan tashqariga chiqdi. Soat to'qqizlar chamasi edi. Mana shu qish tongida butun tabiat yal-yal jimirlab, jilvalanar, go'yo billur shisha kabi edi. Daraxtlarni qirov bosgan, novdalardan sumalaklar osilib yotardi: qadam tashlasang qor g'archillardi: havo shu qadar quruq ediki, salgina ovoz chiqarsang, aks sadosi uzoqlardan eshitilardi; zangori osmon baayni ko'zgu kabi yarqiroq edi, uning bag'rida ko'zlarni qamashtirib sovuq of-tob osilib turar, to'ngib yotgan olamga mehrsiz nur sochardi.

– To‘pponchalarni Gastin-Renetdan sotib oldim, – dedi Dyuruaga qarata Jak Rival. – Uning o‘ziyoq o‘qlab berdi. Quti muhrlangan. Aytganday, qur’a tashlashga to‘g‘ri keladi, kimning to‘pponchalaridan otish masalasida: unikidanmi yo siznikidanmi?

– Tashakkur, – deb faromush javob berdi Dyurua.

Dyurua salcha bo‘lsin yanglishga yo‘l qo‘ymasligi uchun Rival unga hammasini batafsil tushuntirib berdi. U har bir ko‘rsatmasini bir necha martalab qaytarardi:

– «Tayyormisiz?» deb so‘raganlarida baland ovoz bilan: «Ha!» deb javob bering. «Oting!» deb aytishganda, qo‘lingizni tez ko‘tarib, tepkini «Uch» deb qichqirmaslaridan bosing.

«Oting!» – deb aytishganda, men qo‘limni ko‘taraman, – deb o‘zicha pichirlab borardi Dyurua. – «Oting!» deb aytishganda, men qo‘limni ko‘taraman. «Oting!» deb aytishganda, men qo‘limni ko‘taraman».

Rivalning maslahatlarini, yo‘l-yo‘riqlarini esdan chiqarib qo‘ymaslik uchun ularni xuddi maktab bolasidek takrorlab borar: «Oting!» deb aytishganda, qo‘limni ko‘taraman», deyaverib, bu so‘zlar aloha ko‘ngliga urib ketdi.

O‘rmonga kirgach, fayton chap tomondagi xiyobonga burildi, keyin yana o‘ngga burildi. Rival eshikni shitob bilan ochib fayton-chiga:

– Bu yoqqa, mana bu yo‘ldan, – deb qichqirdi.

Ular daraxtzor oralab iz tushgan yo‘ldan ketishdi. Daraxtlarda qurushqoq yaproqlar osilib yotar, ularning chekkalari muz bosib, yiltillab ko‘rinardi.

Dyurua hamon o‘zicha pichirlab borardi:

– «Oting!» – deb aytishganda, men qo‘limni ko‘taraman.

Birdan uning xayolidan, agar fayton ag‘anab tushganda hammasi o‘z-o‘zidan hal bo‘lardi, degan fikr kechdi, qaniydi endi faytondan qulab tushsang-u oyog‘ingni sindirsang, qandoq soz bo‘lar edi-ya!..

Shunda u o‘rmon orasida ochiq sayhon chekkasida turgan ekipajni, undan nariroqda esa sovuq sakratayotgan to‘rt kishini ko‘rdi. Dami ichiga tushib ketdi, og‘zini ochib kappa-kappa nafas oldi.

Foytundan avval sekundantlar, keyin vrach bilan Dyurua tushishdi. Rival to‘pponchalar solingan qutini oldi-da, Buarenar bilan birga ikki notanish odamga tomon yurishdi. Dyurua ularning

bir-birlariga tavoze bilan ta'zim qilishib, keyin xuddi yo'qotib qo'ygan narsalarini qidirgan kabi dam daraxtlarga, dam oyoqlarining tagiga qarashib sayhonlikning o'rtasiga yurganlarini ko'rib turdi. Keyin ular masofani qadamlab o'lchab chiqdilar-da, ikkita cho'pni muzlab qolgan yerga kuch bilan qadab qo'ydilar. Keyin yana hammalari bir joyga yig'ilishib, xuddi chillak o'ynayotganday bir xil harakatlar qila boshladilar.

– O'zingizni yaxshi his qilyapsizmi? – deb so'radi Le Bryuman. – Nima kerak bo'lsa ayting.

– Tashakkur, hammasi joyida.

Dyuruaning nazarida xuddi aqldan ozib qolayotganday, xuddi tush ko'rayotganday, hamma narsa go'yo xayolida bo'layotganday, favqulodda g'ayritabiiy bir narsa uni har tomondan qurshab kelayotgan kabi edi.

– Nima, qo'rquyaptimi? Ha, shundayga o'xshaydi! Buni uning o'zi ham yaxshi bilmaydi. Borliq atrof uning nazarida birdan o'zgarib qoldi.

Jak Rival qaytib keldi-da, chehrasida mamnunlik aks etgan holda uning qulog'iga shipshidi:

– Hammasi tayyor. Bizga to'pponchalarning yaxshisi tushdi.

Dyuruaga buning sariq chaqachalik ahamiyati yo'q edi.

Uning paltosini yechib oldilar. U indamay turaverdi. Keyin u o'zini o'qdan saqlash uchun cho'ntagiga biron narsa solmadimikin degan xayolda syurtugining cho'ntaklarini paypaslab qarashdi.

– «Oting!» deb buyruq berilganda, men qo'limni ko'taraman», – deb takrorlardi Dyurua tinmay, xuddi duo yodlaganday.

Keyin uni yerga suqib qo'yilgan tayoqlardan birining oldiga olib kelishdi va qo'liga to'pponcha tutqazishdi. Shunda u qarshisida oynak taqqan tepakal g'o'labir odam turganligini ko'rdi. Bu uning dushmani edi.

U ko'zlariga yaqqol ko'rinib turar, lekin xayolida «Otinglar!» deb aytishgandan so'ng qo'limni ko'tarib tepkini bosaman», degan gapdan boshqa hech narsa yo'q edi. Birdan o'rmon sukunatini xuddi olisdan kelayotganday bo'lib eshitilgan ovoz buzdi:

– Tayyormisizlar?

– Ha! – deb qichqirdi Jorj.

– Otinglar! – deb qichqirdi yana o'sha ovoz.

Endi Dyuruaning koʻzlariga hech narsa koʻrinmas, u hech narsani ajratolmas, farqiga bormasdi, u faqat qoʻllarini koʻtarayotgani va joni boricha tepkini bosayotganini his qildi.

Lekin u hech narsani eshitmadi. Biroq shu zahoti oʻz toʻpponchasining ogʻzida tutun paydo boʻlganligini koʻrdi. Uning qarshisi-da turgan odam qimir etgani yoʻq, oʻzining holatini oʻzgartirmay tek turdi, keyin uning boshi oldida ham oq tutun koʻrindi.

Ikkovlari ham otishdi. Hammasi tugadi.

Sekundantlar va vrach uni tekshirib koʻrishdi, kiyimlarini yechib qarashdi, tashvishli ovozda:

– Yaralanmadingizmi? – deb soʻrashdi.

– Yoʻq, shekilli, – deb javob berdi u tusmollab.

Langremon ham soppa-sogʻ ekan.

– Bu laʼnati toʻpponchalarning odati shunaqa oʻzi, – deb toʻngʻilladi Rival, – yo tegmaydi, yo shartta qulatadi. Gʻirt rasvo!

Dyurua qimir etmasdi. Shodlik va hayratning zoʻridan tili tanglayiga yopishib qolganday edi. «Duel tamom boʻldi!» U hamon toʻpponchani silkitib turgani uchun qoʻlidan tortib oldilar. Nazarida, endi qoʻyib bersa, butun dunyo bilan otishib koʻradiganday edi. Duel tamom boʻldi. Qanday baxt! U shunchalar botir boʻlib ketdiki, hozir kim boʻlmasin, shuni duelga chaqirishga tayyor edi.

Sekundantlar bir necha soniya gaplashib turdilar-da, bugunoq protokol tuzish uchun yigʻilishadigan boʻlib hammalari aravaga oʻtirdilar va kucher miyigʻida kulganча qamchinni havoda oʻynatdi.

– Men hech narsani sezmay ham qoldim. Sirayam. Aytganday, buni oʻzingiz ham koʻrgan boʻlsangiz kerak?

– Ha, irodangiz kuchli ekan, – dedi Rival.

Dyurua shu kuniyoq protokolni oldi, – uni xronikada berishi kerak edi. U «janob Lui Langremon bilan ikki marotaba otishdi», degan gapdan biroz gʻalati boʻlib ketdi va qisqinib-qimtinib Rivaldan soʻradi:

– Biz bittadan oʻq uzishdik, shekilli?

Rival miyigʻida kuldi.

– Ha, bittadan... ikkovinglar – bittadan... hammasi boʻlib ikkita boʻladi.

Rivalning gapidan keyin Dyuruaning koʻngli joyiga tushdi va bu haqda tortishib oʻtirmadi. Qariya Valter uni quchoqlab qarshi oldi.

– O, shovvoz, obbo shovvoz-ey, yashang, «Fransuz hayoti»ni uyaltirmadingiz, tasanno!

Oqshom Jorj eng mo'tabar gazeta taxririylarida va eng dovruq'i ketgan restoranlarda bo'ldi. U o'z raqibi bilan ikki marta uchrashib qoldi, aftidan, u ham o'zini ko'rsatmoqda edi.

Ular salomlashganlari yo'q. Agar ikkovlaridan birlari yarador bo'lgan taqdirdagina ular bir-birlari bilan qo'l berib ko'rishgan bo'lar edilar. Shunday bo'lsa ham, har ikkovlari o'q quloqlarining tagidan hushtak chalib o'tganini gapirar edilar.

Ertasiga soat o'n birlarda Dyurua «ko'k xat» oldi.

«Yo rabbim, meni bunchalar qo'rqitmasang! Tezroq Konstantinopolga kel, jonginam, seni o'pib qo'yishni istayman. Lochinim!

Sendan jonini ham ayamaydigan Klo».

Dyurua uchrashuvga kelganda, Klo o'zini uning quchoqlariga otdi va yuz-ko'zlaridan o'pa boshladi.

– Jonginam, bugungi gazetalar biram yuragimni yordiki! Qani endi, aytib ber! Boshidan boshlab. Men hammasini bilgim keladi.

U boshdan-oyoq oqizmay-tomizmay aytib berishga majbur bo'ldi.

– Dueldan oldin kechasi bilan qanday qiynalib ketganingni tasavvur qilyapman! – xitob qildi Klo.

– Undaymas. To'yib uxlab oldim.

– Sening o'rningda bo'lganimda ko'z yummay chiqqan bo'lardim. Duelning o'zi qanday o'tdi?

U shu zahotiyoy foje bir manzarani chizib berdi:

– Biz yigirma qadam narida ro'parama-ro'para turdik. Mana shu xonadan to'rt marta kattaroq bo'ladi yigirma metrimiz. Jak, tayyormisizlar, deb so'radi va «Otinglar!» deb buyruq berdi. Shu zahotiyoy men qo'limni ko'tarib oldinga qarab cho'zdim-da, kallasini mo'ljalga ola boshladim. Shu mening xatoyim bo'ldi. Menga tepkisi qattiq pistolet tushibdi, men esa tepkisi yengil bosiladiganlaridan otib yurardim, shunday qilib, tepkini bosgunimcha mo'ljal boshqa yoqqa qarab ketibdi. Lekin harqalay unga sal-pal tekkizdim. U ham juda mergan ekan, qistaloq. O'qi chakkamni yalab o'tdi-ya. Men shamolini sezdim.

Dyuruaning tizzalarida o'tirar ekan, de Marel xonim uni quchoqlariga bosardi, – u xuddi oshig'ining boshiga tushgan kul-fatlarni birga baham ko'rgisi kelardi.

– Oh, sho'rligim, sho'rligim, – deb pichirlardi u.

Dyurua hikoyasini tugatgach, de Marel xonim xitob qildi:

– Bilasanmi, boshqa sensiz turolmayman! Seni ko'rmasam yasholmayman, lekin erim Parijda ekan, buning iloji yo'q. Ertalab biron soatga, hali sen o'rningdan turmasdan, oldingga kelib ketsam ham bo'ladi-yu, lekin men o'sha rasvo uyga sira ham bormayman endi. Nima qilsak ekan?

Dyuruaning xayoliga yaxshi bir fikr keldi.

– Bu xonaga qancha to'laysan? – so'radi u.

– Oyiga yuz frank.

– Menga qara. O'zim bu xonalarga ko'chib kelaman va pulini ham o'zim to'layman. Endi eski uy menga to'g'ri kelmaydi.

– Yo'q. Bo'lmaydi, – dedi bir necha muddat o'ylanib qolgan xonim.

Dyurua hayron bo'ldi.

– Nega?

– Shuning uchunki...

– Tushuntiribroq aytsang-chi. Bu yer menga juda yoqadi.

Tamom. Shu yerda qolaman.

Dyurua kulib yubordi:

– Kvartira ham mening nomimga olingan.

Xonim gapida qattiq turib oldi:

– Yo'q, yo'q, istamayman...

– Nimaga, axir?

Ayol unga javoban erkalanib shivirladi:

– Chunki sen bu yerga xotinlarni olib kelasan, men buni xohla-mayman.

Dyuruaning jahli chiqdi:

– O'lsam ham unday qilmayman! Chin so'zim.

– Yo'q, qilasan.

– Qasam ichaman...

– Rostmi?

– Rost. Chin so'zim. Bu ikkimizning uyimiz – boshqaning keragi yo'q.

Xonim uni qattiq quchoqlab oldi.

– Mayli unda, Azizim. Lekin bilib qo‘y: agar meni bir marta, faqat bir marta aldar ekansan, o‘rtamizda hamma narsa tamom bo‘ladi. Butkul.

Dyurua uni yana ishontirdi, qasam ichdi va nihoyat, u bugun-ning o‘zidayoq ko‘chib keladigan, xonim esa yo‘l-yo‘lakay unga ko‘rinish berib o‘tadigan bo‘ldi.

– Nima bo‘lmasin ertaga biznikiga kel, – deb tavinladi xotin. – Seni ko‘rsa erimning boshi osmonga yetadi.

Dyurua iyib ketdi.

– Shunday degin! Gaping rostmi?..

– Uni maftun qilib qo‘yibsan. Aytganday, menga qara, sen qishloqda katta bo‘lganman devding, shekilli, rostmi?

– Rost, nima qildi?

– Demak, sen dehqonchilikdan biroz bo‘lsa ham xabaring bor, a?

– Ha. Unday bo‘lsa, u bilan bog‘dorchilik, ekin-tikin haqida gaplashsang tuzuk, u bunday gaplarni jonidan ham yaxshi ko‘radi.

– Xo‘p. Shunday qilamiz.

Duel xonimning qalbini unga nisbatan otashin bir muhabbat bilan to‘ldirib yuborgan, ketish oldida ham undan ko‘nglini uzolmay o‘pgani-o‘pgan edi.

Dyurua tahririyatga borarkan uni o‘ylab bordi:

«Juda antiqa xotin-da! Xuddi qushchaday pir-pir uchgani uchgan! Kallasiga nima kelganini, nima didiga mos tushganini hech qachon bilolmaysan! Yana bularning er-xotin topishganini qara! Taqdir hazil-mazax qilganday qari odam bilan bir qaynovi ichida bu xotinni duch qilgani, yopiray! Temir yo‘llar revizori bu sho‘x olov xotinga uylanmasa nimaydi? Kim bilsin! Balki, sevgidir.

«Nima bo‘lganda ham, – deb xulosa qildi u, – g‘oyatda dilbar ma’shuqa. G‘irt ahmoq odamgina uni qo‘ldan chiqarishi mumkin».

VIII

Duel Dyuruani «Fransuz hayoti»ning e’tiborli qalamkashlari qatoriga olib chiqdi. Biroq hadeb yangidan-yangi mavzular topishga nihoyatda qiynalganligi boisidan u endi axloqning buzilib borayotgani, odamlarning maydalashib ketayotganligi, vatanpar-

varlik hislari so'nib borayotganligi, fransuzlarda iftixor tuyg'usi anemiyaga uchraganligi (u «Fransuzlarda iftixor tuyg'usining anemiyasi» degan iborani o'zi o'ylab topdi va bu o'ziga juda xush yoqib ketdi) xususida dabdabali gaplar bilan maqolalar yozishga kirishdi va buni ancha do'ndirib ado eta boshladi.

Ko'pda har narsaga ishonavermaydigan, parijliklarga xos o'tkir, teran zehni, tili achchiq de Marel xonim uning tumtaroq gaplari ustidan kulib, ularni o'tkir bir luqma bilan yo'qqa chiqar-gan choqlarida Dyurua unga kulib turib derdi:

– Mayli. Menga ular kelajakda kerak bo'ladi.

U endi Konstantinopol ko'chasidagi uyda turar edi: bu yerga o'zining chamadoni, cho'tkasi, ustarasi va sovunini olib keldi – uning ko'chishi shundan iborat bo'ldi. Har ikki-uch kun oralab u hali to'shakdan turmasdan de Marel xonim kelar, dildiragan ko'yi apil-tapil yechinar va shu zahoti o'zini uning qo'yninga urardi, ko'rpa tagiga kirib ham anchagacha qaltiragani bosilmasdi.

Payshanba kunlari Dyurua unikida ovqatlanar, erining ko'ngli-ni olish uchun u bilan dehqonchilikka oid gaplardan suhbatlashib o'tirardi. Uning o'zi ham qishloqni sevganidan, ba'zan shu qadar suhbatga berilib ketar edilarki, divanda mudroq bosib o'tirgan o'z xonimlarini unutib qo'yardilar.

Lorina ham ba'zan otasining, ba'zan Azizimning tizzasida ux-lab qolardi.

Jumalist ketgach, janob de Marel o'zining odatdagi nasihato-muz gaplarini boshlar, oddiy gaplarni ham xuddi bir narsani uqti-rayotganday qilib so'zlardi:

– Juda odobli yigit. Miyasi butun.

Fevral oxirlamoqda edi, ertalablari gullar solingan aravachalar yomidan o'tganda binafshalar hidi anqib ketardi.

Dyurua o'z baxtining farog'atini surmoqdaydi.

Kunlardan bir kuni uyga qaytib, eshikning tagida xat yotgan-ligini ko'rdi. Xatning muhrida «Kann» deb yozilgandi. U konvert-ni ochib quyidagilarni o'qidi:

«Kann, «Go'zal» saroyi

Aziz do'stim. Esingizdami, boshingizga nima tushsa, menga suyaning deb aytgan edingiz? Mana endi sizdan bir o'tinchim bor: tezroq yetib keling, meni hayot bilan vidolashayotgan Sharl bilan

yolg'iz tashlab qo'ymang. Garchi u hali oyoqdan qolmagan bo'lsa ham, lekin doktor menga u bir haftaga ham bormasa kerak, deb aytdi.

Bu dahshatga tun-u kun bir o'zim qarab turishga menda na kuch va na yurak bor. Men tobora yaqinlashib kelayotgan so'nggi damlarni o'ylasam, yuragim orqamga tortib ketadi. Erimning qarindosh-urug'lari yo'q. Mening esa sizdan o'zga suyanchig'im yo'q. Siz uning do'stisiz. Tahririyat eshiklarini sizga u ochib bergandi. Tezroq keling, yolvoraman. Sizni chaqirmasam, kimni chaqiraman.

Vafodor do'stingiz Madlena Foreste».

Qandaydir g'alati bir tuyg'u Dyurua yuragidan sarin shabada kabi esib o'tdi: u o'zini yelkasidan tog' ag'danlganday his qildi, ko'z o'ngida ajib bir kengliklar ochilayotganligini tuydi.

– Albatta, boraman, – deb shivirladi u. – Sho'rlik Sharl! Ana sizga insonning umri!

U Foreste xonimning xatini xo'jayinga ko'rsatdi, u to'ng'ir-to'ng'ir qildi-yu, lekin aloha rozi bo'ldi.

– Faqat tezroq qayting, bizga suv bilan havodek zarursiz, – qayta-qayta uqtirdi Valter.

Dyurua ertasiga er-xotin de Marellarga telegramma jo'natdi-da, soat yettida Kannaga boradigan tezyurar poyezdga o'tirdi.

Kannaga u deyarli bir sutkadan so'ng soat kunduzi to'rtlarda yetib keldi.

Xizmatchi uni tog' yon bag'rida, oppoq uylar qad ko'targan qarag'ayzor o'rmon ichidagi «Go'zal» saroyiga kuzatib qo'ydi, o'rmon bu yerda Kannadan to Juan ko'rfazigacha cho'zilib ketar ekan.

Forestelar italyancha qilib qurilgan pastakkina mo'jaz bir uyda turishgan ekan. Uycha daraxtzorlar oralab buralib ketgan va har bir burilishda odamning ko'ziga ajoyib manzaralar tuhfa qiladigan yo'lning naq yoqasida joylashgandi.

Eshikni xizmatkor ochdi.

– E-e, keling-keling, afandim! – chorladi u. – Foreste xonim sizni intizorlik bilan kutib o'tiribdilar.

– Janob Forestening ahvoli tuzukmi? – so'radi Dyurua.

– Mazasi yo'q, afandim! Ramaqijon bo'lib qoldi.

Dyurua kirib borgan mehmonxonaning devorlariga havorang yo'lli pushti chit qoplangandi. Kattakon derazadan shahar va dengiz ko'rinib turardi.

– Oh-o, juda alomat-ku! – deb qo'ydi Dyurua. – Jin ursin, qayerdan olisharkan ular shuncha pulni?

Libosning shildiragani eshitildi, Dyurua o'girilib qaradi.

Foreste xonim unga qo'llarini cho'zdi.

– Qanday yaxshi bo'ldi kelganingiz! Qanday yaxshi!

Dyurua uchun kutilmaganda xonim uni quchoqlab oldi. Keyin ular bir-birlariga termilishdi.

Xonim biroz o'zini oldirgan, rangi siniqqan, lekin hamon o'shanday yosh ko'rinar, – balki hatto husniga husn qo'shilganday yanada nafis va so'lim edi.

– Bilasizmi, ahvoli juda yomon, – shivirlab gapira boshladi u, – uzoqqa bormasligini bilib, meni qiynagani qiynagan. Unga siz kelganligingizni aytdim. Chamadoningiz qani?

– Vokzalda qoldirib keldim, – deb javob berdi Dyurua. – Maslahat bersangiz sizlarga yaqinroq mehmonxonadan joy olsam.

– Shu yerda biz bilan turavering, – dedi biroz taysallanib turgach xonim. – Aytganday, sizga xona tayyorlab qo'yilgan. Uning hozirgi ahvoliga ishonib bo'lmaydi, biron kori hol ro'y bersa, yolg'iz qolmay tag'in. Buyumlaringizga odam yuboraman.

Dyurua ta'zim qildi.

– Ixtiyoringiz.

– Endi yuring, tepaga chiqamiz, – dedi u.

Dyurua unga ergashdi. Ikkinchi qavatga ko'tarilgach, xonim eshikni ochdi, shunda Dyurua adyolga o'ranib olgan chala murdani ko'rdi. Namozgarning qonli shafag'ida Foreste bo'zday oqargan holda deraza oldiga qo'yilgan kresloda o'tirar, ko'zlarini undan uzmasdi. Dyurua o'z ko'zlariga ishonmadi, do'sti shu qadar o'zgarib ketgandi.

Xonadan sil odamlar yotadigan joylarda bo'ladigan bo'g'iqlik, ifodalash qiyin bir hid kelar – ter hidi dori-darmonlar isiga omixta bo'lib ketgandi.

Foreste qo'lini bazo'r ko'tardi.

– E, senmisan! – dedi u. – Mening o'lishimni tomosha qilgani keldingmi? Rahmat.

– Tomosha qilgani deysanmi? – zo'raki kulgiga olib qayta so'radi Dyurua. – Bu tomosha qilish uchun shundan shunga ke-

ladigan narsa emas. Shunchaki, biroz dam olgim keldi, seni ham ko'rib ketay dedim.

– O'tir, – pichirladi Foreste va boshini quyi tashlab, og'ir o'yga cho'mdi.

Bemor tez-tez hirqirab nafas olardi, ba'zan u go'yo atrofdagilarga o'zining qanchalar azob chekayotganligini ko'rsatmoqchi bo'lganday qattiq xo'rsinar, shunda ko'krigidan ingroq bir sas otilib chiqardi.

Foreste xonim u boshqa gapirmoqchi emasligini payqadi-da, deraza raxiga suyanib, boshi bilan ufqni ko'rsatdi:

– Go'zalligini qarang!

Shundoqqina ko'z o'nglarida uylar qalashib yotgan tog' yonbag'ri qirg'oqda taqaday bukilib turgan shaharga tomon tushib borardi, o'ngda, to'g'on tepasida qadimiy minora qad ko'tarib turgan eski shahar joylashgandi, chapdan esa u Leren orollarining naq qarshisidagi Kruazet ko'rfaziga borib taqalardi. Bu orolchalar tip-tiniq moviy suv quchog'ida bir juft ko'k parcha bo'lib ko'rinar-di. Ular kaftdek tekis bo'lganlaridan xuddi oqib ketayotgan ulkan yaproqqa o'xshab qolgan edilar.

Olis-olislarda, ko'rfazning orqa tomonida, to'g'on bilan qasrning tepasida nayzador, beli bukilgan dumaloq tog' cho'qqilari nur va alanga bilan to'la osmon qo'ynida ajib bir surat chizib, cho'zilib ketgan, cho'qqilar baland qirrador qoyaga borganda uzilar, qoya-ni-ning poyini esa ochiq dengiz to'lqinlari o'pib yotardi.

– Bu Esterel, – deb tushuntirdi Foreste xonim. Qoramtir tusga kirgan tog'lar uzra osmon ko'zni qamashtiradigan darajada qirmizi qon tusiga kirgan edi.

Shomning ulug'vor manzarasi Dyuruani o'ziga maftun qilib qo'ydi.

– O, qarang! Juda go'zal! – u o'z qalbini to'ldirgan hislarni ifoda qilish uchun shulardan boshqa so'z topolmadi.

Foreste ko'zlarini xotiniga tashladi va:

– Ochiq havoga chiqqim kelyapti, – dedi.

– Kech bo'lib qoldi-ku, quyosh botyapti, – dedi unga javoban xotini, yana shamollab qolmagin, foydasi yo'q shamollashning, o'zing bilasan.

Foreste, aftidan, stolga mushtlamoqchi bo'ldi, lekin buning o'rniga zaif va besabr bir harakat bilan o'ng qo'lini qimirlatib qo'ydi, uning chehrasi achchiq bir istehzodan burishib ketdi, bunday ifoda ko'pincha jon berayotgan odamlarda bo'ladi, shunda quruqshab ketgan lablari, ich-ichiga botib qolgan chakaklari, bo'rtib chiqqan yonoqlari yanada ayanchliroq bo'lib ko'rindi.

– Senga aytyapman-ku, bo'g'ilib ketyapman deb, – hirqirab so'zladi u, – bir kun oldin, bir kun keyin o'lishimning senga nima ahamiyati bor – baribir g'isht qolipdan ko'chdi...

Foreste xonim derazani lang ochib yubordi.

Shabada uchovlarini erkalab o'tdi. Bu mayin, iliq, ko'ngillarni allalovchi ko'klam shabadasi edi, u o'z ildam qanotida tog' yonbag'irlarida o'sgan dov-daraxt, o't-o'lanlarning muattar islarga to'la nafasini olib keldi. Dimoqlariga oq qarag'ayning o'tkir isi va evkaliptlarning ajib bir bo'yi urildi.

Foreste chuqur-chuqur nafas ola boshladi.

Biroq u birdan o'rindiqning suyanchiqlaridan mahkam ushlab oldi, shu zahoti hushtak chalganday darg'azab ovozi eshitildi:

– Yop derazani. Menga sira ham yoqmaydi bu. Bundan ko'ra podvalda yotib o'lgan ham tuzuk.

Foreste xonim ohista derazani berkitdi va manglayini oynaga tirab uzoqlarga qarab qoldi.

Dyurua o'zini noqulay seza boshladi; u bemor bilan gaplashib o'tirishni, uni ovuntirishni istardi.

Lekin taskin berishi mumkin bo'lgan gap xayoliga kelmas edi.

– Bu yer senga uncha yoqmadimi? – so'radi u botinmay.

Foreste yelkalarini asabiy suratda umidsizlik bilan qisib qo'ydi.

– Ko'rib turibsan-ku, – dedi u va yana boshini quyi egib oldi.

– Qurib ketsin! Bo'lmasa Parijga qaraganda bu yerning o'lsa o'ligi ortiq! U yerda hamon qish ketgani yo'q. Qor, yomg'ir, do'l, soat uch bo'lmasdan qorong'i tushadi, chiroq yoqish kerak.

– Tahririyatda qanday gaplar? – so'radi Foreste.

– Bir navi. Sen tuzalguningcha «Volter»dan anov pakana Lakrenni taklif qilishdi. Lekin u hali g'o'r. Tezroq qaytsang bo'lardi!

– Menmi? – g'o'ldiradi bemor. – Men endi maqolalami qaro yerning tagida yotib yozaman.

U o'lim haqidagi gapni og'zidan qo'ymas, har bir gap orasiga uni qistirib yuborar, har bir ibora, har bir so'z shunga borib taqallardi.

Og'ir va teran sukut cho'kdi. Shafaq alangasi borgan sayin so'nib borar va tog'lar hamon qizarinquirab turgan osmon lavhida tobora qorayib bormoqdaydi. So'nib borayotgan alangadan tushgan soya tun tushayotganini bildirib xonaga kirib keldi va xonaning devorlari, puchmoqlari, buyumlar, mebellarni qora qon tusiga bo'yadi. Kamin uzra turgan ko'zgu olis shafaqning qondagi kabi alvon aksiga to'ldi.

Foreste to'sindan qisqa-qisqa nafas olib, bo'g'iq, odamning yuragini o'rtab yuboradigan tovush bilan so'zlay boshladi:

– Men uchun yana necha marta kun botar ekan?... Sakkiz... o'n... o'n besh... yigirma... balki, o'ttizdan oshmas... Sizlar hali yashaysizlar... Men esa sob bo'ldim... Hammasi yana o'z yo'li bilan ketaveradi... men o'lgandan keyin ham – borimda qanday ketgan bo'lsa, o'lganimda ham shunday ketadi...

– Ko'zim nimaga tushmasin, – deb davom etdi u biroz damini olgach, – hammasi bir necha kundan so'ng bularni endi sira ham ko'rmasligimni eslatadi... Qanchalar dahshat bu... bor narsalarni ko'rmasang, loaqal birontasini ham, eng odmigina narsalarni, hatto... stakanlar... taqsimchalar... rohatijon to'shaklar... ekipajlar... Qanday yaxshi axir kech bilan ekipajda sayr qilib yursang... Men bularni shunchalar yaxshi ko'rar edimki...

Uning barmoqlari suyanchiqda u yoqdan bu yoqqa xuddi royal chalayotganday bo'lib asabiy bir tusda borib kelmoqda edi. U so'zdan to'xtaganda yana ham og'irroq sukunat cho'kar, so'zlab turgani tuzuk ko'rinar, – u so'zdan to'xtab, g'oyatda dahshatli, mudhish bir narsa ustida o'ylayotgani sezilib turardi.

Shunda Dyurua yaqinda Norber de Varen aytgan gaplarni eslatadi: «Endi o'lim sharpasi shundoq yonginamda kezinib yuribdi, ba'zan qo'limni uzatsam-u, uni itqitib yuborsam deyman... Uni har narsada ko'raman. Yo'l o'rtasida majaqlab ketilgan qo'ngiz, qurigan yaproqlar, do'stimning soqoliga tushgan oq tola – bari yuragimni timab o'tadi va «Mana u!» deb qichqirib turadi».

O'shanda u bu gaplarga tushunmagandi; mana endi Forestega qarab turib hammasini angladi. Va uning qalbini shu paytgacha

unga begona bo'lgan bir qayg'u, telba qayg'u chulg'ab oldi: nazari-da, shundoq qo'l cho'zsa, qo'li bemor o'tirgan kreslodagi mudhish va xunuk o'lim sharpasiga tegib ketayotganday edi. O'midan shart turib, bu yerdan qochgisi, iloji boricha tezroq Parijga jo'nab qolgisi keldi. O, agar bunday bo'lishini bilganida sira ham Kanga kelma-gan bo'lardi!

Tun zulumoti xuddi muddatidan ilgari bemor ustiga yopilgan kafan kabi butun xonani chulg'ab kela boshladi. Faqat deraza va uning oldida qotib turgan ayolning gavdasigina ko'zga tashlanardi.

– Xo'sh, nima, bugun chiroq yoqiladimi o'zi? – jahl bilan so'radi Foreste. – Yana bular kasalga qaraydigan odamlar!

Deraza oldidagi soya g'oyib bo'ldi va sal o'tmay uy sukunatini qattiq qo'ng'iroq ovozi buzdi.

Ko'p o'tmay xizmatkor kirib, kaminga chiroq qo'yib ketdi.

– Yotasanmi yoki pastga tushib ovqatlanasanmi? – so'radi eri-dan Foreste xonim.

– Pastga tushaman, – shivirladi u.

Ovqat tayyor bo'lishini kutib uchovlari pastda qimir etmasdan o'tirishdi, ular xuddi uzoq jimib qolsalar bir xatarli narsa ro'y be-radiganday, ba'zan bir-ikki og'iz keraksiz, arzimagan gaplardan gaplashib o'tirishar va shu bilan bu gung sukunat – o'lim in qur-gan xonaning sukunati cho'zilib ketmasligini istagan kabi ko'rinar edilar.

Nihoyat, taom keldi. Dyuruning nazarida ular go'yo bir asr o'tirib ovqatlanganday bo'ldilar. Hammalari jimgina, sas chiqar-masdangina ovqatlandilar, keyin nima qilishni bilmay non uvog'ini o'ynay boshladilar. Poshna tovushi Forestening g'ashiga tekkani-dan, oyog'iga yumshoq chuvak kiyib olgan xizmatkor ohista kirib chiqar, taom tortar edi. Sukunatni faqat soat kaftgirining bir ma-romdagi tovushi buzib turardi.

Ovqatlanib bo'lishgach, Dyurua charchadim, deb o'z xona-siga chiqib ketdi. U deraza raxiga suyanib turib to'lin oyni tomo-sha qildi: oy ko'kda ulkan chiroq kabi bo'zarib turar, oq uylarning devorlarini o'lik bir shu'la bilan yoritir, dengiz sathiga jimir-ji-mir tangalarini sochar edi. Dyurua ketishga chora izlardi – Valter chaqirib qoldi, telegramma oldim desammikin yoki boshqa bir bahona topsammikin, deb boshi qotgandi.

Lekin ertasiga ertalab o'zining barcha bahonalari puch bo'lib eshutilishi, qochib ketib bo'lmasligini tushundi. Foreste xonimni laqillatib bo'lmaydi, qo'rqqulik qilib hamma narsadan ayrilib qolish mumkin. «Albatta, bu yerda odamga yoqadigan narsa yo'q, – deb so'ylardi u o'ziga o'zi, – hay, mayli, hayotda shunday bemaza holatlar ham bo'lib turadi. Buning ustiga uncha uzoqqa cho'zilmaydi».

Bu kun janubning osmoni tiniq zangori tusga kirgan va kishi ko'ngli bundan ajib bir quvonchga to'lgan kun edi. Hali Forestening oldida ko'p o'tiraman, deb u dengizni ko'rgani ketdi.

Dyurua nonushta qilgani kelganda, xizmatkor unga dedi:

– Janob Dyurua, janob Foreste sizni bir necha marta yo'qladi. Janob Forestening huzuriga chiqa olarmikinsiz, janob Dyurua?

Dyurua tepaga chiqdi. Foreste kresloda xuddi mudraganday bo'lib o'tirgan ekan. Xotini divanda kitob o'qib yotardi.

Bemor boshini ko'tardi.

– Qalay, tuzukmisan? – so'radi Jorj. – Bugun ko'rinishing ancha yaxshi.

– Sal tuzukman, – shivirladi Foreste, – o'zimni ancha yaxshi his qilyapman. Tezroq Madlena bilan nonushta qilib olinglar, keyin bir aylanib kelamiz.

– Ko'rdingizmi? – Bugun u o'zini ancha tetik his qilyapti, – Dyurua bilan yolg'iz qolgach, gap boshladi Foreste xonim. – Ertalabdan turli rejalar tuzgani tuzgan. Biz hozir Juan ko'rfaziga boramiz. U yerdan Parijdagi uyimizga chinni asboblarni olmoqchimiz. Uning juda ham borgisi kelib turibdi, men esa bir kori hol bo'lmasaydi, deb qo'rquyapman. U yo'lni azobini ko'tarolmaydi.

Fayton kelgach, xizmatkor qo'ltiqlab olgan Foreste ohista zinadan tushdi. Ekipajni ko'rgan zahoti tepasini ochishni buyurdi.

Xotini qarshilik bildirdi.

– Shamollab qolasan. Telbalik bu, axir.

Lekin eri o'z aytganidan qolmadi:

– Yo'q, bugun ancha tuzukman. Men o'zimni bilaman. Kanni xuddi ingliz bog'lariga o'xshatib turadigan soya-salqin bog'zorlar orasidagi xiyobonlardan o'tgach, arava dengiz qirg'og'i yoqalab ketgan Antik yo'liga chiqdi.

Foreste e'tiborga loyiq joylarni ko'rsatib bordi. Parijlik grafning uyini, keyin boshqalamikini ko'rsatdi. U juda quvnoq ko'rinar, lekin bu atay qilinayotgan mahkum odamning ipiriq quvonchi edi. U biron narsani ko'rsatmoqchi bo'lsa, qo'lini ko'tarishga kuchi yetmas, keyin barmog'i bilan ko'rsatardi.

– Qara, ana Margarita momo oroli, anovinisi Bazen qochgan qasr. Ha, o'shanda toza bo'larimizcha bo'lganmiz!

Keyin u polkda xizmat qilgan chog'larini eslay boshladi, ofitserlarning nomlarini aytar, ular bilan bog'liq bo'lgan voqealarni xotirlardi.

Yo'l tik burilishdan o'tgandan so'ng kutilmaganda ko'zlari-ga keng manzara tashlandi: Juan ko'rfazi ham, narigi qirg'oqdagi qishloqcha ham, oldindagi Antib qo'ltig'i ham – bari birdan kaftda turganday ko'rindi-qoldi.

– Ana, eskadra! Hozir eskadrani ko'rasan! – bolalarcha quvonib shipshidi Foreste.

Rostdan ham ko'rfazning o'rtasida oltitacha katta kemalar turar, ular butalar o'sib yotgan katta qoyalarni yodga solardi. Ko'rimishlari g'alati, bahaybat, qubbador, qirrador bu kemalar suvga yarmilaridan ko'pi botib turardi, aftidan, shu yerda turib ildiz otmoqchiga o'xshardi.

Suvda cho'ng cho'kib turgan bu cho'ng kemalarning qimir-lashiga, bir joydan ikkinchi joyga o'tishiga odam ishongisi kelmasdi. Xuddi observatoriya kabi baland kungurador suzuvchi batareya suv tagidagi qoya ustiga qurilgan mayakni eslatardi.

Harbiy kemalarning yonidan oq yelkanlarini shamolda hilpiratgan kattakon uch machtali kema o'tib ketdi. Suvga og'ir cho'kib turgan turqi sovuq bu harbiy maxluqlar oldida machtali kema nafis go'zalligi bilan ko'zlarini quvontirardi.

Foreste kemalarning nomlarini eslay boshladi:

– «Kolber», «Syufren», «Admiral Dyuperre», «Shiddatli», «Ayovsiz»... Yo'q, yanglishibman, «Ayovsiz» hov anuvnisi. – Ekipaj tepasiga «Juan ko'rfazining badiiy chinni buyumlari», – deb yozib qo'yilgan kattakon pavilon oldiga borib, ko'katlar ekib qo'yilgan joyni aylanib o'tdi-da, eshik qarshisida to'xtadi.

Foreste o'zining Parijdagi kabineti uchun ikkita vaza olmoqchi ekan. U faytondan tusha olmadi, unga har xil vazalarni olib

kelib ko'rsata boshlashdi. U hammasini sinchiklab ko'rar, xotini va Dyurua bilan maslahatlashardi.

– Bilasanmi, bu mening xonamdagi kitob javoniga qo'yiladi. Men kresloda ularga qarab, tomosha qilib o'tiraman. Menga antiqaroq, qadimiy yunon narsalariga o'xshaganrog'i bo'lsaydi.

U vazalarni birin-sirin ko'zdan kechirib, boshqalarini keltirishni talab qilar, keyin yana avval ko'rganlarini qo'lga olardi. Nihoyat, tanlab oldi, pulini to'ladi va ularni to'xtovsiz Parijga jo'natishni tayinladi.

– Men tez kunlarda bu yerdan ketaman, – deb aytardi u nuqul.

Keyin ular ko'rfaz bo'ylab qaytayotgan chog'larida o'r tomondan birdan sovuq shamol esib qoldi-yu, bemor yo'tala boshladi.

Oldin xuddi yengil, shunchaki bir yo'tal tutganga o'xshadi, keyin kam-kamdan u zo'raydi, bemor birpasda hiqillab, xirillab qoldi, uni yomon hiqichoq tutganday edi.

Foreste nafas ololmay bo'g'ila boshladi: har nafas olganida ko'kragidan quvillab yo'tal otilib chiqar, tomoqlari yirtilib ketguday bo'lardi. Yo'talni sira to'xtatib bo'lmadi. Kasalni aravadan uyga qo'lda ko'tarib kirdilar:

Dyurua uning oyoqlaridan ko'tarib oldi. Kasal har yo'talganda uning oyoqlari ham dir-dir titrar edi.

Issiq o'rin ham Forestega yordam berolmadi, yo'tal yarim kechagacha davom etdi. Nihoyat, og'u-dorilardan beribgina yo'talni to'xtata oldilar. Bemor sahargachayin ko'zlarini yummay to'shak ustida o'tirib chiqdi.

Uning ertalab aytgan birinchi gapi shu bo'ldi: «Sartaroshni chaqiringlar» Foreste hamon har kuni ertalab kanda qilmay soqolini olardi. Sartarosh kelganda u o'rnidan qo'zg'alishga kuch topdi, biroq shu zahotiyoq qaytadan yotqizib qo'yishga to'g'ri keldi. Bemorning bazo'r qisqa-qisqa, og'ir nafas olayotganini ko'rgan Foreste xonim qo'rqib ketib, hozirgina yotgan Dyuruani uyg'otib kelishni buyurdi va undan doktorni chaqirishini iltimos qildi.

Dyurua to'xtovsiz doktorni boshlab keldi, uning oti Gavo ekan. Doktor suyuq dori yozib berdi va ayrim ko'rsatmalarni tayinladi. Lekin to'g'risini bilish uchun uni kuzatib chiqqan Jorjga shunday dedi:

– Bu – talvasa. U ertaga ertalab o'ladi. Sho'rlik ayolni ogohlantirib qo'ying, ruhoniycha qiring. Mening bu yerda boshqa

qiladigan ishim yo'q. Shunday bo'lsa ham doimo xizmatigingizga tayyorman.

Dyurua Foreste xonimni chaqirishni buyurdi.

– O'ladi, deydi. Doktor ruhoniycha qurtirishlar, deb maslahat berdi. Nima qilsak ekan?

Xonim uzoq ikkilanib turdi, biroq hammasini aql tarozisiga solib ko'rdi-da, juda sekin so'yladi:

– Ha, shunday qilganimiz tuzuk... Har holda... uni ranjitmaydigan qilamiz, seni ruhoniycha ko'rmoqchi ekan, deb aytaman... Har holda... bir narsa qilaman. Siz esa, baraka toping, ruhoniycha topib keling. Sal kamsuqumrog'idan, ohanjama qilmaydiganidan toping. U kelib duosini o'qisin-u, boshqa narsalarga kelganda bizni tinch qo'ysin.

Dyurua gapga tez ko'nadigan qariyani topib keldi, u nima qilishi kerakligini darhol anglab oldi. Qariya bemor oldiga kirishi bilan Foreste xonim qo'shni xonaga chiqib, Dyuruaning yoniga kelib o'tirdi.

– Aytuvdim, juda o'zgarib ketdi, – dedi xonim, – ruhoniycha og'iz ochishim bilan yuzi shunchalar ham o'zgarib ketdiki... xuddi... xuddi go'yo o'zida... bilasizmi, o'zida... nafasini sezganday bo'ldi. U hammasi tamom bo'lganligini bildi, bir necha soatdan keyin...

Foreste xonimning rangi quv o'chib ketgandi.

– Uning yuzini endi umr bo'yi esimdan chiqarmayman, – davom etdi u. – O'sha daqiqada u o'limni his qilgani aniq. Balki, ko'zlariga ko'ringandir...

Ularga ruhoniycha gapirgani eshitilib turdi, – cholning qu-log'i og'irroq bo'lganidan qattiq gapirarkan:

– Qo'ying, unday demang, yo'q, hali binoyidaksiz. Siz kasalsiz, lekin bu xavfli emas. O'zim shunday, bir ko'rib chiqay, qo'shnim deb kirdim, gapimga ishonang.

Foreste unga nimadir dedi, lekin nima degani eshitilmadi.

– Yo'q, duo o'qimoqchi emasman, – deb davom etardi chol. – Siz tuzalib ketganingizdan keyin shunday qilamiz. Lekin men kelganimdan foydalanib olloga tavba qilmoqchi bo'lsangiz, unda bajonidil. Men cho'bonman, otaginam va o'z qavmlarimni tangri yo'liga solish payida bo'laman har joyda.

Jimlik choʻkdi. Aftidan, Foreste gapirmoqdaydi, uning ovozi zoʻrba-zoʻr eshitilar, xirillab chiqardi.

Keyin cholning ovozi eshitildi, endi u ruhoniylarga oʻxshab soʻzlardi.

– Parvardigorimning karami cheksiz. Confiteorni oʻqing, oʻgʻlim. Agar yodingizdan koʻtarilgan boʻlsa, sizga aytib turaman. Men bilan birga takrorlang: Consiteor Deo omnipotenti: Beatae Mariae semper virgini...

Ruhoniy vaqti-vaqti bilan toʻxtab turar, joni uzilyotgan bemorning duoni takrorlab boʻlishini kutardi.

– Endi tavba qiling... – dedi u nihoyat.

Qattiq hayajonga tushgan, kuta-kuta toqatlari toq boʻlgan Foreste xonim bilan Dyurua qimir etmasdan oʻtirishardi.

Bemor nimalardir deb shivirladi.

– Vijdonga xilof ish qilganman, deysizmi? – takrorladi ruhoniy. – U qanday ish ekan, boʻtam?

Foreste xonim oʻmidan turdi.

– Yuring, birpas bogʻga chiqib kelamiz, – dedi hech narsani bilmagan kishi boʻlib xonim. – Uning sirlarini bilmasligimiz kerak.

Ular bogʻga chiqishdi va ayvoncha oldidagi chappar urib gullagan siren tagiga oʻmatilgan skameykaga oʻtirishdi, shundoqqina oldilarida shabo guli ekilgan gulxonadan toza havoga oʻtkir va tatti is taralib yotar edi.

– Hali Parijga qaytishingizga ancha bordir? – soʻradi birozi jimlikdan soʻng Dyurua.

– O, yoʻq! – javob berdi u. – Hamma ishim bitgach, oʻsha zamon Parijga ketaman.

– Oʻn kunlardan keyinmi?

– Ha, uzogʻi bilan.

– Uning qarindosh-urugʻlari yoʻq ekan-da, a?

– Amakivachchalari bor. Ota-onasi juda erta oʻlib ketishgan.

Ikkovlari ham chinnigullardan shira yigʻib yurgan kapalakka qarab qolishdi: kapalak guldan gulga sakrab qoʻnar, qanotchalari tinimsiz suratda parpirab turardi. Foreste xonim bilan Dyurua bogʻda uzoq oʻtirib qolishdi.

Nihoyat, xizmatkor kelib: «Janob kyure tavba qildirib boʻldilar», deb aytdi. Va ular yuqoriga chiqishdi.

Foreste kechagidan ham orig'lab qolganga o'xshardi.

Ruhoniý uning qo'llarini ushlab o'tirardi.

– Xayr endi, bo'tam, men ertaga erta bilan kelaman.

Keyin u chiqib ketdi.

U eshikdan chiqishi bilanoq bemor hamon og'ir-og'ir nafas olgancha so'nggi kuchlarini yig'di-da, qo'llarini xotiniga tomon uzatdi.

– Meni qutqar... – pichirladi u. – Meni qutqar... jonim... men o'lishni istamayman... men o'lishni istamayman... Meni qutqaringlar! Ayting, nima desangiz shuni qilaman, doktorni chaqiring. Qanday dori bo'lsa ichaman... Men istamayman... istamayman!..

U yig'lardi. Chuqur botgan chakkalaridan yirik yosh tomchilari oqib tusha boshladi, quruqshab qolgan lablarini esa arazlagan bolalarday burib olgandi.

Keyin uning qo'llari to'shakka shilq etib tushdi va uning barmoqlari bir maromda harakat qila boshladi, qarab turgan odamga u xuddi adyoldan bir narsa terayotganga o'xshab ko'rinardi.

Uning xotini ham ko'z yoshi qila boshladi:

– Qo'y, bu bo'lmag'ur gaplar, – piqillardi u. – Har kungi kasaling, ertaga yaxshi bo'lib qolasan, kechagi yo'l seni charchatib qo'ygan.

Forestening nafas olishi yanada tezlashdi, hatto qattiq chopgan itning ham tili bunchalik osilib qolmaydi, nafas olishi shu qadar tez ediki, uni sanab ulgurib bo'lmasdi va shunchalar zaif ediki, eshitish qiyin edi.

U hamon pichirlardi:

– O'lishni xohlamayman!... Yo Xudoyim... Yo Xudoyim... Yo Xudoyim... mening holim nima kechadi? Endi hech narsani ko'rolmayman... hech narsani... hech qachon... Yo Xudoyim!

Uning vahimadan baqrayib qolgan ko'zlari allaqanday – boshqalar ko'rolmaydigan, aql bovar qilmas darajadagi mudhish bir narsani ko'rib turgan kabi edi. Ayni choqda uning barmoqlari hamon adyol uzra qo'rqinchli suratda odamni ezib surinar edi.

Kutilmaganda uning jismida bir qaltiroq turdi:

– Meni... mozorga... meni-ya... Yo Rabbii!.. – ingrab yubordi u.

Va jim bo'ldi. U endi qimirlamay yotar, ko'zlari atrofini saro-simali kezinar, og'zidan kappa-kappa nafas olardi.

Vaqt o'tib borardi: shu atrofdaagi monastirning soati o'n ikkiga jom urdi. Dyurua biroz totinib olish uchun narigi xonaga chiqdi. U bir soatdan so'ng qaytib keldi. Foreste xonim ovqat yemasligini aytdi. Bemor qimir etmay yotardi. Faqat uning oriqlar barmoqlari hamon qimirlab turar, u xuddi yuziga tortib yopmoqchi bo'layotganga o'xshardi.

Foreste xonim uning oyoq tomonida kresloda o'tirardi. Dyurua uning yonidagi kresloga o'tirdi. Ular jimgina kutishar edi.

Deraza oldida vrach yuborgan hamshira mudroq bosib o'tirardi.

Dyuruaning ham ko'zi uyquga ketay degan ekan, shu on, nazarida, bir narsa bo'layotganday tuyuldi. U ko'zlarini ochgan chog'da Forestening ko'zlari tugayozgan shamning alangasiday so'nmoqdaydi. Bemor yengilgina hiql etdi va uning boshi bir yonga qiyshayib qoldi, lablarining ikki chekkasida qon ko'rindi, keyin ko'ylagiga oqib tushdi. Adyol uzra qaltiragan barmoqlar ham harakatdan to'xtadi. U jon berdi.

Foreste xonim hammasini bildi. U bir qichqirdi-da, cho'k tushgancha boshini adyolga bosib yum-yum yig'lay boshladi. Jorj o'zini yo'qotib qo'ydi, shoshib qoldi va bexos cho'qinib oldi. Hamshira uyg'ondi va karavot oldiga keldi.

– Joni uzilibdi, – dedi u.

Dyurua yana odatdagiday xotirjam bo'lib qoldi, o'zini bosib oldi va yengil xo'rsinib pichirladi:

– Men anchaga cho'zilsa kerak deb yuribman.

Hali o'lik sovimay turib, hali ko'zlardagi yoshlari qotmayin turib o'lik chiqadigan uyda bo'ladigan tashvish, yugur-yugurlar boshlandi. Dyurua tong qorong'isigacha chop-chopdan bo'shamadi.

Qaytib kelganida ochlikdan ichini it tatalayotganga o'xshardi. Foreste xonim ham u bilan birga biroz totingan bo'ldi. Ovqatdan so'ng ular marhum yotgan xonaga o'tishdi, tunning qolgan qismini shunda o'tkazishlari kerak edi.

Tungi stolcha ustida ikkita sham yonar, uning yonida suv solingan taqsimchada mimoza shoxchasi liqillab turardi. An'anaga ko'ra solinadigan shamshod shoxchasini topolmadilar.

Navqiron yigit bilan yosh juvon olamdan o'tib bo'lgan marhumning qoshida jimgina unga termilishib o'tirar edilar.

Forestening jasadini qurshagan qorong'ilik Jorjning yuragiga vahima solar, shunday bo'lsa ham undan ko'zlarini uzmasdi. Shamning parpiragan yog'dusida marhumning yuzi yanada kichrayib ko'rinar, Dyurua undan ko'zlarini uzolmas, fikri yodi o'likda edi. Mana, o'zi kechagina gaplashib o'tirgan do'sti Sharl Foreste! Tirik jonzodning butunlay yo'q bo'lib ketishi qanchalar dahshatli, hatto aql bovar qilmaydi bunga! O, o'lim vahimasiga tushgan Norber de Varenning: «Hech bir zot, u yerdan qaytmagan!» – degan so'zlari endi qulog'idan nari ketmaydi. Millionlarcha, milliardlarcha xuddi unga o'xshagan, ko'zi, burni, og'zi, kallasi xuddi unikidan farq qilmaydigan mavjudotlar olamga keladi, lekin hozir mana shu karavotda yotgan odam boshqa qaytib kelmaydi.

U hamma odamlar kabi birmuncha vaqt yashadi, yedi, ichdi, o'ynadi, kuldi, nimalardandir umidvor bo'ldi, kimlarnidir sevdi. Endi bo'lsa hammasi tugadi, butkul barham topdi. Hayot shunday! Yana bir necha kundan so'ng uni butkul yo'qlik dunyosi o'z hukmiga oladi. Olamga kelasan, voyaga yetasan, o'zingni baxtiyor sezasan, nimalarnidir ilhaq kutasan, keyin o'lib ketasan. Sen kim bo'lmagin: erkakmisan, ayolmisan, surishtirib o'tirilmaydi, hayyohuyt deb yer yuzidan yo'q bo'lib ketasan, yorug' dunyoni qaytib ko'rmaysan. Shuni bila turib ham har birimiz o'lmaslikni istaymiz, o'linga chap berishga harakat qilamiz. Har birimiz koinot ichra koinotmiz va har birimiz chirib ketamiz, yangi kurtaklarga ozuqa bo'lamiz. O'simliklar, maxluqotlar, odamzod, yulduzlar, olamlar – bari tug'iladi, o'ladi, boshqa bir narsalarga aylanadi. Lekin bironta ham mavjudot qaytib dunyoga kelmaydi – u qo'ng'iz bo'ladimi, odam yoki sayyora, farqi yo'q!

Dyurua yuragiga anglab bo'lmas, cheksiz qiynoqqa soluvchi dahshat tosh bo'lib cho'kdi, – bu barcha bebaqo umrlarni o'z komiga tortib ketguvchi chek-chegarasiz, omonsiz mulki odam qarshisidagi vahm edi. U ertami kech o'z chekiga tushguvchi narsa oldida endi bosh egmoqda edi. U faqat bir necha soatgina yashaydigan qurt-qumursqalar, faqat bir necha kungina kun ko'radigan jonivorlar, bir necha yilgina umr ko'radigan odamlar, bir qancha asrlargagina dosh beradigan qit'alar haqida o'y surib ketdi. Nima farq bor bularning o'rtasida? Birlariga oftob bir necha marta chiqsa, boshqalari uchun bir marta chiqadi, shu xolos.

U o'likni ko'rmaslik uchun yuzini chetga burdi.

Foreste xonim boshini xam qilgancha o'tirar, aftidan, u ham qayg'uli xayollarga tolqandi. Uning mallarang sochlari kadal-li chehrasini shu qadar chiroyli qilib ko'rsatardiki, buni ko'rgan Dyuruaning qalbida shirin bir tuyg'u uyg'ondi, uning yuragiga umid yorug' nurini tashlab o'tganday bo'ldi. Hali hayot – hammasi oldinda, nimaga boshimizni bukib o'tiribmiz?

U Foreste xonimdan ko'zlarini uzmay tikila boshladi. O'yga tolgan xonim unga qaramasdi. «Dunyodagi birdan-bir lazzat mana shu – muhabbat! – derdi u o'ziga-o'zi. – Bu umrda sevganingni bag'ringga bosmoqdan ortiq farog'at yo'q!»

Mana shunday oqila, dilbar bir xotin bilan yashashga muyassar bo'lgan marhum nechog'li baxtiyor edi! Ular qanday qilib tanishgan ekanlar, a? Shunday xotin manovi Xudo na aql va na davlat bergan odamni nima uchun umr yo'ldoshi qilib tanladiykin? Uni qanday yo'llar bilan odam soniga qo'shdiykin?

Har kimning o'z sir-asrori bor, degan fikrga keldi u. Shunda uning esiga graf Vodrek haqidagi mish-mishlar tushdi, odamlar Vodrek Foreste xonimga mol-mulk berib erga uzatgan, deb yurishardi.

Endi nima qiladi bu xotin? Kimni o'ziga er qilib tanlaydi? De Marel xonim aytganday, deputatnimi yoki kelajagi bor, umid qilsa bo'ladigan ikkinchi bir Forestenimi? U hozir bu haqda nima fikrdaykin, qanday reja, istaklari bor ekan? Bularni bilib olsang yomon bo'lmasdi-ya! Lekin nega uning taqdiri o'zini juda qiziqtirib qoldi? U o'ziga-o'zi shu savolni berdi-yu, ko'nglida noaniq sirli bir orzu nish urib yotganini va o'zini shu narsa bezovta qilayotganligini his qildi, ba'zan ko'nglimizda shunday orzular borligiga hatto o'zimiz ham tan berishni istamaymiz, uni hammadan yashiramiz, faqat ko'nglimizning ko'chasiga chuqurroq kirgan chog'imizdagi-na u orzularimiz o'zimizga aniq bo'ladi.

Ha-ya, uni qo'lga kiritishga nega endi urinib ko'rmasligi kerak? Agar uning madadi, qo'llab-quvvatlashiga erisholsa, tog'larni talqon qilib tashlamasmidi! Hash-pash deguncha zo'r ishlarning boshini tutmasmidi!

Bu jononni qo'lga qo'ndirishga nima monelik qiladi? Axir xonimga yoqib yurganini sezib turibdi-ku, uni yoqtirishgina emas,

balki bir-birlarini o'zlariga juda yaqin ko'rib, o'zlari yaqin olayotganlari, bu yaqinlik tilda bo'lmasa ham dilda qulf urayotganligi ravshan-ku. O'xshatmasdan uchratmas deydilar. Xonim uning aql-li, dadil, tegimonga tushsa, butun chiqishini biladi: unga ishonsa ham ajab emas.

Axir, u og'ir daqiqada unga suyanmadimi? Nega bo'lmasa uni chaqirtirdi? Bu uning yurak amriga bo'ysunganligi, bir qarorga kelganligi va bularni unga rozi dil kabi anglatayotganligi emas-mikin? U o'zi beva bo'lib qolayotgan daqiqalarda birinchi bo'lib uni eslagani bo'lajak umr yo'ldoshi haqida o'ylay boshlaganligini ko'rsatmaydimi?

U bularning hammasini bilishni istar, undan surishtirgisi ke-lar, yashirin fikrlarini uqib olishga intilardi. Indinga u jo'nab ketishi kerak, bu uyda yosh beva juvon bilan yolg'iz qolish unga o'ng'aysiz. Shunday ekan, paysalga solishning keragi yo'q, ket-guncha ehtiyotkorlik bilan sekin uning niyatlarini bilib olishi, uni boshqalarga ildirib yubormaslik, uning fikri o'zgarib qolishiga yo'l qo'ymaslik, og'zidagi oshni oldirmaslik chorasini ko'rishi kerak.

Xonaga teran sukunat cho'kdi: faqat soatning bir maromdagi chiqillashigina eshitilib turardi.

– Juda ham charchadingiz, a? – so'radi undan Dyurua.

– Ha, – javob berdi u. – Charchadim, juda ezilib ketdim.

Xafagazak bu xonada ularning tovushlari g'alati eshitildi, buni har ikkovlari ham sezdilar. Ikkovlari ham o'likka qarab oldilar, nazarlarida bundan bir necha soat oldin qandoq bo'lsa, Foreste shunday uyg'onib, ularning gapiga quloq solayotganday tuyulib ketdi.

– Ha, sizga juda qiyin bo'ldi, – yana gap boshladi Dyurua, – endi hammasini qaytadan boshlash kerak, hamma narsa ostin-ustun bo'lib ketdi, juda-juda qiynalib ketdingiz!

Juvon javob o'rmi-da chuqur xo'rsinib qo'ydi.

– O'n gulidan bir guli ochilmagan juvonga so'qqabosh bo'lib qolish qanchalar og'ir! – qo'shib qo'ydi u.

Juvon indamadi.

– Nima bo'lganda ham kelishgan gapimizni unutmang – shivir-ladi Dyurua. – Kamina qulingiz doimo sizning ixtiyoringizdaman. Sizning hukmingizni kutaman.

Foreste xonim unga ma'yus bir mehr bilan qarab qo'ydi. ayollarning bunday qarashlaridan. odatda, biz erkaklarning jon-u jahonimiz ag'dar-to'ntar bo'lib ketadi.

– Ming rahmat sizga, siz juda mehribon, ajoyib yigitsiz, – dedi unga qo'lini uzatarkan xonim. – Agar siz uchun biron narsa qilish qo'limdan kelsa va bunga jur'at etsam, unda sizga: «Menga ishonning», deb aytgan bo'lardim.

Dyurua xonimning uzatilgan qo'lini oldi, uni o'pishdan o'zini bazo'r to'xtatib, birpas ushlab turdi va qattiq qisdi. Keyin jur'at qilib, uni labiga ohista olib bordi va dudoqlari ayolning nafis, qaynoq, muattar qo'llariga tegdi.

Nazarida, do'stona bu mehribonchilik xiyla uzoqqa cho'zilib ketganday bo'lib, Dyurua ohista uning qo'lini qo'yib yubordi. Foreste xonimning nafis qo'llari shunda bo'shashibgina tizzasidan joy oldi.

– Ha, yolg'iz qoldim, lekin men dadil bo'lishga harakat qilaman, – dedi u qat'iy.

Dyurua, agar siz mening xotinim bo'lishga rozi bo'lsangiz, boshim osmonga yetardi, deb aytgisi kelar, lekin buni qanday aytishni bilmasdi. Turgan gapki, unga buni shu yerda – marhum yotgan xonada hozir ayтолmasdi. Yana kim biladi, balkim, bu gaplarni ochiq aytmadan, tagzaminli qilib, ustalik bilan shama qilsa, shamasiga istagan ma'noda tushunish mumkin bo'lsa, unda maqsadini qaytaga yaxshiroq anglatarmidi.

Lekin, Dyuruaning nazarida, manovi so'vib, qotib qolgan jasad ularning oldilarida emas, ikkovlarining o'rtalarida yotgandek tuyular va u bundan o'zini noqulay sezardi.

Bundan tashqari, nazarida, uyning bo'g'iq havosi o'likning badbo'y hidi, chiriyotgan tananing sassiq isiga to'lib ketgan, marhum o'z jasadining bo'yi bilan yaqinlarini behuzur qilayotganga o'xshardi.

– Derazani ochib qo'ysakmikin? – so'radi Dyurua. – Uyning havosi yomon bo'lib ketganga o'xshaydi.

– Mayli, – dedi juvon. – Menga ham shunday bo'lib tuyuldi.

Dyurua borib derazani ochdi. Xonaga shu zamonoq tungi sarin shabada quyildi, sham alangalarini parokanda qildi. Oy xuddi kechagidek saroylarning oq devorlariga bepoyon dengiz uzra yum-

shoq, tekin nurini sochib yotardi. Dyurua ko'kragini to'ldirib nafas olar, qalbi umid bilan to'lgan, qo'l uzatsa baxtiga yetadiganday, xayoli olib qochgandi uni uzoqlarga.

– Toza havodan nafas oling, – dedi u orqasiga o'girilib. – Ajoyib tun.

Foreste xonim deraza oldiga xotirjam yurib keldi, uning yonida turib deraza raxiga suyandi.

– Quloq soling, – deb shivirlab gapira boshladi u, – meni to'g'ri tushunishingizni so'rayman. Bilaman, hozir bunday gaplarning payti emas, lekin jahlingiz chiqmasin, lekin men indinga ketaman, siz Parijga borguningizcha kech bo'lib qolishi mumkin. Shunday ekan... Men kambag'alman, hozir bir tiyin ham pulim yo'q, qilayotgan ishim ham hali juda tayinli bir ish emas, o'zingizga ma'lum. Lekin men ahd qilgan narsamga erishmay qo'ymayman, ahmoq emasman, tanlagan yo'lim ham to'g'ri. Maqsadiga erishgan odamni yetti chaqirim naridan bilsa bo'ladi. Hayotini endigina boshlagan odam haqida esa bir narsa deyish qiyin. Buning o'ziga yara-sha yaxshi tomoni ham, yomon tomoni ham bor. Xullasi kalom, bir kuni uyingizga borganimda sizga aytgandim, butun umr sizga o'xshagan ayolga uylanishni orzu qilaman, deb. Hozir men o'shanda aytgan gaplarimni yana aytaman. Menga hozircha hech narsa demang. Gapimni oxirigacha eshiting. Men hozir sizga taklifimni aytmayman. Bu yerda va bunday bir daqiqada g'oyatda xunuk eshtilishi mumkin. Birgina so'zingiz meni baxtiyor qilishi, agar istasangiz – meni o'zingizning eng yaqin do'stingiz, istasangiz – eringiz kabi ko'rishingiz mumkin, bu sizning ixtiyoringizda, nima bo'lganda ham shuni yaxshi bilib qo'yingki, mening yuragim va butun hayotim siznikidir. Men shu tobning o'zida menga javob berishingizni istamasdim, men bunday gaplarni hozirgi vaziyatda aytishni o'zimga ep ko'rmasdim. Parijda uchrashganimizda menga o'z fikringizni aytarsiz. Ungacha esa, boshqa bir og'iz ham bu haqda gaplashmaylik, xo'pmi?

U hamma gaplarini uning yuziga qaramasdan, qarshisida yoyilib yotgan tunga to'kkanday aytdi. Juvon ko'rinishdan uning gaplarini eshitmayotganga o'xshardi, – u qimir etmasdan oyning bo'z nuri to'kilib yotgan olislarga faromushgina bo'lib, ayni choqda razm solib tikilib qolgandi.

Ular shu alfozda tirsaklari bir-birlariga tegib yonma-yon uzoq turib qoldilar. Ular jimgina xavolga tolgandilar.

– Salqin tushyapti, – deb shivirladi juvon nihoyat va oʻzini karavot tomonga oldi. Dyurua unga ergashdi.

Murdadan is kelayotganiga endi ishongach, kreslosim nariroq surib oldi: u baribir bu hidga uzoq dosh berolmasdi.

– Ertalab uni tobutga solish kerak, – dedi u.

– Ha, ha, men aytdim, duradgor soat sakkizga yetib keladi.

– Bechora! – xoʻrsinib dedi Dyurua.

Juvon ham ogʻir xoʻrsindi – bu taqdirga tan bergan odamning xoʻrsinishi edi.

Ular endi murdaga kamroq qarashga harakat qilishardi: ular ham bir kun shu ahvolga tushadilar, oʻlim haq, unga tan bermay ilojing yoʻq, shuning uchun ham kechagina ishonmagan narsalariga hozir tan bergan, koʻnikkan edilar.

Ular indamaygina oʻtirishar, odob yuzasidan uxlab qolmaslikka harakat qilar edilar. Biroq tun yarimlaganda Dyurua birinchi boʻlib uxlab qoldi. Koʻzini ochganda esa, Foreste xonim ham mudrab qolganligini koʻrdi va qulayroq oʻlmashib olib, yana koʻzlarini yumdi.

– Jin ursin, toʻshakda yotganga yetmaydi baribir! – deb poʻngʻilladi u.

U qandaydir tovushdan uygʻonib ketdi. Hamshira kirdi. Kun yorishmoqdaydi. Foreste xonim uning roʻparasida oʻtirar, uyqusiraganidan darrov oʻziga kelolmasdi. Uning chehrasi biroz oqarinqiragan, lekin oʻsha-oʻsha dilbar, koʻrkam, navqiron koʻrinardi, – tun uqubati unga aytarli taʼsir qilmagandi.

Dyurua murdaga qarab seskanib ketdi.

– Qaranglar! Soqol! – qichqirdi u.

Buzilib borayotgan marhumning beti bir necha soat ichida shunchalar soqol bilan qoplangandiki, tirik odamning yuzida bunchalar soqol bir necha kunda ham oʻsib ulgurmaydi. Shunda har ikkovlari ham oʻlikda hali saqlangan hayot asoratini koʻrib qotib qoldilar, ularning nazarida, bu mudhish bir asror, oʻlikda tiriklikning horiqulodda bir zuhuri, odamning ich-etini junjiktiradigan odatdan tashqari qoʻrqinchli bir narsa, hayratga soladigan, aqldan ozdiradigan hodisa edi.

Soat o'n birgacha ikkovlari ham dam oldilar. Keyin Sharlni tobutga yotqizdilar. shundan so'ng ular sal yengil tortdilar. Bir-birlari bilan ro'parama-ro'para o'tirishib nonushta qilisharkan. ko'ngil-xushi gaplardan gaplashib o'tirishni istardilar: o'limning ishi bitdi, tezroq hayotga qaytgilari kelardi ularning.

Ochiq derazadan kirgan bahorning mayin va iliq shabadasi xonaga uy oldidagi gulzorda gullab yotgan shaboning bo'yini olib kirardi.

Foreste xonim Dyuruaga bog'ni sayr qilib kelaylik, deb taklif etdi, ular ko'm-ko'k o'tloq atrofini aylanib yurishdi, havoda oq qarag'ay bilan ekvaliptlarning hidi anqirdi.

– Menga qarang, aziz do'stim, men... kecha aytgan gaplaringizni o'ylab ko'rdim, – deb gap boshladi Foreste xonim, kecha Dyurua qanday unga qaramay gapirgan bo'lsa, bu ham shunday so'ylar, so'zlari dona-dona chiqar edi. – Mendan bir og'iz ham javob eshitmay ketib qolishingizni istamasdim. Sizga ha ham, yo'q ham deb aytolmayman.

Sabr qilaylik, ko'raylik, bir-birimizni yaqindan bilaylik. Siz o'zingiz ham yaxshilab o'ylab ko'ring. Hozir qizishib turibsiz, bunga ahamiyat bermang. Bu haqda shuning uchun ham og'iz ochyapmanki, hali Sharl bechorani lahadga qo'yganimiz yo'q, lekin kecha o'zingiz og'iz ochib qolganligingiz boisidan shuni aytib qo'yishim kerakki, mening kimligimni yaxshi bilib olishingiz va mabodo... mabodo menga tushunolmasangiz va meni mana shu turish-turmushimcha qabul qilolmasangiz, unda... unda kecha menga aytgan katta orzularingizni mening nomim bilan bog'lab yurmang deyman.

Meni tushunishga harakat qiling. Men nikohni o'zimga zanjir deb bilmayman, men uchun u ham do'stlik. Ya'ni, men o'z xatti-harakatlarim uchun o'zim javob beraman, mening erkimni cheklashga yo'l qo'ymayman, qilayotgan ishlarim haqida hisob-kitob bermayman, qayerga ketayotganligimni aytib o'tishni shart, deb hisoblamayman. Men orqamdan kuzatib yurishlarini, rashk qilishlarini, nasihat o'qishlarini istamayman. O'z-o'zidan ravshanki, men o'zim familiyasini qabul qilgan kishini uyaltirib qo'ymaslikni, uni g'alati ahvolga solmaslik, nomini bulg'atmaslikni bo'yningizga olaman. Lekin u ham meni mute, har narsaga

bo'yin egadigan xotin deb emas. o'ziga hamdard, har narsada unga teng bo'lgan odam deb bilishi kerak. Men xizmatkor emasman. Bilaman, mening bunday gaplarim ko'p odamlarga juda erish tuyulishi mumkin. Lekin shu gapim – gap va men undan qaytmayman. Vassalom.

Yana bir narsani xuddi siz kabi qo'shimcha qilib qo'yay: men-ga hozir javob bermang, o'zni emas, foydasi ham yo'q. Biz yana ko'rishamiz va ehtimol, bu haqda gaplashamiz. Endi o'zingiz bir-pas aylanib yuring. Men uning oldiga kiraman. Kechqurun ko'ri-shamiz.

Dyurua uning qo'llarini uzoq o'pib turdi, keyin indamasdan nari ketdi.

Ular oqshom tushganda kechki taom ustida ko'rishdilar.

Ikkovlari ham nihoyatda holdan toygan edilar, tezroq har kim o'z xonasiga qaytishga shoshildi.

Sharl Foresteni ertasiga Kann mozoristoniga dabdabasiz ko'mib keldilar. Jorj Dyurua soat bir yarimdagi kuryer poyezdi bilan jo'naydigan bo'ldi. Foreste xonim uni vokzalga kuzatib chiqdi. Poyezd kelguncha ular perronda undan-bundan gaplashib aylanib yurishdi.

Kuryer poyezd keldi: bu chinakam kuryer poyezd bo'lib, vagonlari ozgina – beshta edi.

Dyurua vagondan joy olgach, yana bir necha daqiqa Foreste xonim bilan birga bo'lish uchun pastga tushdi: uni tashlab ketayotganini o'ylaganda xuddi undan butunlay ajralib qoladiganday yuragi uvushar, ma'yuslanar edi.

– Marsel–Lion–Parijga boradiganlar, joylaringizni egallang-lar! – qichqirdi konduktor.

Dyurua vagonga kirib unga yana bir narsalar deyish uchun boshini derazadan chiqardi. Parovoz hushtak chaldi va poyezd ohista o'rnidan jildi.

Dyurua vagondan boshini chiqarib Foreste xonimga qarab turardi: u esa perronda qimir etmas, ko'zlari bilan uni kuzatardi. To'sindan, hali juvon ko'z o'ngidan yo'qolmay turib, u ikkala qo'lini labiga bosdi-da, unga o'pich yubordi.

Juvon ham unga shu javobni qildi, faqat u yo'llagan o'pich bilinar-bilinmas, hurkak va iboli edi.

IKKINCHI QISM

I

Jorj Dyurua o'zining eski odatlariga qaytdi.

Konstantinopol ko'chasidagi pastki qavatda joylashgan o'sha mo'jazgina uyda yashar, taqdirida o'zgarish ro'y berishini kutayotgan odam kabi kamsuqum, kamtaringina hayot kechirardi. Hatto uning de Marel xonim bilan bo'lgan munosabatlari ham er-xotin o'rtasidagi munosabatlarga o'xshab keta boshladi, go'yo u o'zini oldindan yangi bir turmushga chog'layotganga o'xshar, ma'shuqasi ham aloqalarining bunchalar izga tushib qolganidan taajjubga tushib, kula-kula derdi:

– Sen mening erimdan ham oilamandroq chiqib qolding. Uni senga almashtirmasam ham bo'lar ekan.

Foreste xonimdan hamon darak yo'q edi. U Kannda ushlanib qoldi. Xonim aprelning o'rtalarida qaytajagini unga yozib yuborgandi, biroq xayrlashayotganlarida bir-birlariga aytgan gaplaridan birontasini ham tilga olmagan edi. Dyurua toqat bilan kuta boshladi. U, agar xonim paysalga soladigan bo'lsa, qo'lidan nimaiki kelsa, barini qilishga va qanday bo'lmasin unga uylanishga qaror berdi. U o'zining tole yulduzi balqiganiga ishonar, odamlarni rom qilish qobiliyati borligini bilar, o'zida hech bir ayol zoti tob berolmaydigan sirli va yengib bo'lmas bir kuch qulf urib turganligini his qilardi.

Kunlardan bir kuni u qisqagina xat oldi va hal qiluvchi damlar kelganligini angladi:

«Men Parijga keldim. Bir kelib keting.

Madlena Foreste».

Vassalom. U xatni ertalabki soat to'qqizda keladigan pochta orqali oldi. Soat uch bo'lganda u xonimning oldida hozir bo'ldi. Xonim uni dilbarlik bilan latif jilmayganicha qarshi oldi, gul-gul

ochilib unga ikki qo'lini uzatdi. Ular bir necha daqiqa bir-birlariga tikilishib qoldilar.

– Boshimga og'ir qayg'u tushganda hamdam bo'lganingiz qanday yaxshi bo'ldi! – deya shivirladi u.

– Doimo sizning amringizga muntazirman, xonim, – dedi Dyurua.

O'tirdilar. Xonim yangiliklardan so'ylab berishni, Valterlarni, xodimlar, gazetada nima gapligini so'radi. U gazeta haqida ko'p o'ylagan ekan.

– Menga nimadir yetmayotganday, sira-sira gazetasiz yasholmayman, – dedi u. – O'zimni muxbir deb his etaman. Nima demang, bu ishni jonimdan yaxshi ko'raman.

Xonim indamay qoldi. Dyurua uning tabassumi, gaplarining ohangi nimagadir sha'ma qilayotganligini angladi va ishni ilgari mo'ljallagan fikridan qaytib, tezlashtirmasa bo'lmasligini sezdi.

– Juda soz!.. Ayting-chi... bu ish bilan... endi bu ish bilan Dyurua familiyasini olib mashg'ul bo'lsangiz qanday bo'lar ekan? – tutila-tutila dedi Dyurua.

Foreste birdan jiddiylashib qoldi.

– Hozircha bu haqda gaplashmaylik, – dedi ohista xonim qo'lini uning yelkasiga tashlab.

Biroq xonim taklifiga rozi ekanligini sezib, Dyurua uning oyoqlariga tiz cho'kdi.

– Rahmat, ming rahmat, sizni shu qadar sevamanki! – dedi uning qo'llarini ehtiros bilan o'parkan Dyurua.

Xonim o'rnidan qo'zg'aldi. Dyurua ham oyoqqa turdi va xonimning yuziga qarab uning rangi oqarinqirab ketganligini ko'rdi. Shunda u o'zining xonimga yoqishini, balki bu anchadan beri davom etib kelayotganligini angladi. Ular bir-birlariga tikilganча turishardi; Dyurua vaziyatdan foydalanib, xonimni bag'riga tortdi va uning manglayidan ehtirom va mehr bilan uzoq o'pib turdi.

– Gap bunday, azizim, – deb sipolik bilan so'z boshladi xonim uning bag'ridan sirg'ilib chiqib, – men hali bir qarorga kelganim yo'q. Biroq, balkim, sizga «xo'p» deb aytarman. Lekin siz to'xo'p demagunimcha bu narsani mutlaqo hech kimga aytmassligingiz kerak.

Dyurua unga soʻz berdi va ogʻzi qulogʻiga yetgancha chiqib ketdi.

Shu kundan boshlab Dyurua xonim bilan gʻoyatda siqollik bilan gaplashar. undan tayin bir gapni aytishni talab qilmasdi, chunki xonimning barcha gap-soʻzlarida, kelajak hayotlari xususida chizgan va u bilan oʻrtoqlashgan rejalarida «roziman» degan javobdan ham chuqurroq, dilkashroq bir maʼnoni uqish mumkin edi.

Dyurua jonini jabborga berib ishlar, toʻygacha biroz boʻlsa ham pul yigʻish niyatida tejab-tergab sarflardi. uning bugungi xassisligi kechagi taralla-bedod yugurishlariga sira oʻxshamasdi.

Yoz ham, kuz ham shu zaylda oʻtdi, ular kam uchrashishar va oʻzlarini shu qadar beparvo tutar edilarki, hech kimda zarracha shubha uygʻonmasdi.

Bir kuni kechqurun Madlena uning koʻzlariga tik boqqanicha soʻrab qoldi:

– Siz oʻrtamizdagi gaplarni de Marel xonimga aytmabmidingiz?

– Yoʻq, jonim. Sizga, hech kimga aytmayman deb soʻz bergan edim, bironta kimsa bu haqda hech nima bilmaydi.

– Unda endi aytsangiz boʻlaveradi. Valterlarga esa oʻzim aytaman. Shu hafta aytaman. Maylimi?

Dyurua qizarib ketdi:

– Mayli, ertagayoq aytganim boʻlsin.

– Agar istasangiz, – dedi xonim davom etib, koʻzlarini uning uyalganini koʻrmaslik uchun sekin chetga olarkan, – biz mayning boshlarida toʻy qilishimiz mumkin. Shunda el-yurtning koʻziga yaxshi boʻladi.

– Siz nima desangiz shu.

– Menga qolsa oʻninchi may, shanba kuni oʻtkazsak devdim. Men shu kuni tugʻilganman.

– Oʻninchi may, juda yaxshi boʻladi.

– Sizning ota-onangiz Ruan atrofida turishadi, shundaymi? Menga shunday deganday boʻluvdingiz.

– Ha, Ruan tomonda, Kantleda.

– Ular nima bilan shugʻullanishadi?

– Ulaming... kichikroq mulklari bor.

– A! Ular bilan tanishib olishni orzu qilaman.

Dyurua qisinib gʻalati ahvolga tushdi, chaynalib qoldi: – Biroq... mayli-yu, gap shundaki...

Keyin o'ziga-o'zi mard bo'lish kerak, deb o'yladi-da, gapning po'skallasini aytib qo'ya qoldi:

– Jonim, ular dehqon odamlar, kichik qovoqxona ochganlar, meni odam qilish uchun o'lib-tirilib urinishgan. Men ular bilan faxrlanaman. Ular... sodda, sal... to'pori odamlar... sizga yoqmasliklari mumkin.

Xonimning chehrasiga dilbar bir tabassum yoyildi, uning ko'zlarida mehr-shafqat porlab turardi.

– Undaymas. Ularni boshimga ko'taraman. Borib ko'rib kelimiz. Albatta, boramiz. Hali bu haqda yana siz bilan gaplashamiz. Mening ota-onalarim ham sodda odamlar edi... Lekin ular o'lib ketishgan. Dunyoda mening hech kimim yo'q sizdan boshqa, – deb qo'shib qo'ydi xonim va unga qo'llarini uzatdi.

Dyurua to'liqinlanib ketdi, yuragi iliq hissiyotlarga to'ldi, – shu paytgacha hech bir ayol uning yuragini bunchalar eritmagan, maftun etmagandi.

– Xayolimga ba'zi bir fikrlar kelgandi, – dedi xonim, – lekin buni tushuntirish qiyin.

– Ya'ni, masalan?

– Bilasizmi, jonim, men ham xuddi boshqa ayollarga o'xshaganman... O'zimning kamchiliklarim, g'alati odatlarim bor, yaltiroq va jarangdor narsalarni yaxshi ko'raman. Men asilzodalarga xos familiyam bo'lishini orzu qilardim. Bizning nikohdan o'tishimiz munosabati bilan siz... siz dvoryan bo'lolmasmikinsiz?

Xonim loladay qip-qizarib ketdi, xuddi bir uyat ish qilgan bolaga o'xshab qoldi.

– Men o'zim ham shuni o'ylab yurgan edim, – dedi soddadirlik bilan Dyurua, – lekin, menimcha, bu juda qiyin bo'lsa kerak.

– Nega endi?

Dyurua kulib yubordi.

– Odamlar mayna qilishadimi, deb qo'rqaman.

Xonim yelkasini qisib qo'ydi.

– Qo'ying-e, undaymas! Hamma shunday qiladi, buning kulgili yeri yo'q. Familiyangizni bo'g'inlarga ajratasiz, vassalom: «Dyu Rua» bo'lasiz. Juda chiroyli!

– Yo‘q, uncha chiroyli emas, – deb e‘tiroz bildirdi Dyurua o‘zini bilimdon ko‘rsatib. – Bu judayam odmi, boshqalarning cho‘ntagidan tushib qolgan yo‘l. Men o‘zim avval adabiy taxallus sifatida tug‘ilgan yerimning nomini olsam-u, keyin imi-jimida asta unga familiyamni qo‘shsam devdim. Ana unda vaqt-soati bilan siz aytgan yo‘lni ham qilish mumkin.

– Sizning qishlog‘ingiz Kantle deb ataladimi? – so‘radi xonim.

– Ha.

Xonim o‘ylanib qoldi.

– Yo‘q. Menga uning oxirgi bo‘g‘ini yoqmaydi. Menga qarang, bu so‘zni salgina o‘zgartirsak nima qilarkan... Kantlemidi?

Foreste xonim stoldan pero olib turli familiyalarni yozib ko‘ra boshladi, u so‘zlarning qanday ko‘rinishiga e‘tibor bermoqdaydi.

– Topdim, qarang, qarang! – birdan xursand bo‘lib xitob qildi xonim va Dyuruaga «Dyurua de Kantel xonim» deb yozilgan varaqni uzatdi.

– Ha, juda chiroyli, – dedi bir necha daqiqa o‘ylanib turgach Dyurua dimog‘dorlik bilan.

– Dyurua de Kantel, Dyurua de Kantel, Dyurua de Kantel xonim. Ajoyib! Ajoyib! – o‘zida yo‘q shodlanib takrorladi Foreste xonim.

– Mana ko‘rarsiz, hech kim hech narsa demaydi, – deb ishontirardi xonim. – Faqat temimi qizig‘ida bosish kerak. Pay-salga solish yaramaydi. Maqolalaringizni ertadan boshlaboq «Dyurua de Kantel» nomi bilan chiqaravering, oddiy maqolachalar bo‘lsa, unda soddagina qilib «Dyurua» deb qo‘ying. Qalam-kashlar ko‘pincha shunday qilishadi, sizning taxallusingiz birovga xalaqit bermaydi. To‘y kunimizgacha biz yana ba‘zi bir narsalarni ham o‘zgartiramiz, do‘stlarimizga esa siz shu paytgacha kamtarinlik qilib «dyu» yuklamasini ishlatmaganligingizni tushuntiramiz, vaziyatingiz shuni taqozo qilganligini aytamiz, ehtimol, tushuntirib ham o‘tirmasmiz. Otangizning ismlari nima?

– Aleksandr.

– Aleksandr, Aleksandr, – bir necha bor takrorladi xonim so‘zining ohangdor chiqayotgani, chiqmayotganiga quloq solib, keyin toza oq qog‘oz oldi-da, yozdi:

«Janob Aleksandr dyu Rua de Kantel va xonim o‘z farzandlari Jorj dyu Rua de Kantelning Madlena Foreste xonim bilan nikohdan o‘tayotganlarini sizga kamoli ehtirom bilan ma‘lum qiladilar».

Xonim o'z yozganlariga ko'zini uzoqqa olib qochib qaradi va xursand bo'lib dedi:

– Ozingina ustalik qilsangiz, hamma narsaga erishuvingiz mumkin.

Dyurua xonimnikidan ketarkan, endi o'zini «dyu Rua» va hatto «dyu Rua de Kantel» deb atashini o'ylab borar va nazarida, o'zini butunlay boshqacha odam bo'lib qolganday his qilardi. Qadam tashlashlari yana ham dadilroq, boshi yanada balandroq bo'lib qoldi, mo'ylablari-ku, mo'ylablari endi yanada dikkayibroq turardi – uningcha dvoryan mana shundoq ko'rinishga ega bo'lishi kerak edi. Uning ko'ngli quvonchdan to'lib-toshgandi, duch kelgan o'tkinchiga:

– Meni dyu Rua de Kantel deydilar, – degisi kelar edi.

Lekin uyga qaytgach, esiga de Marel xonim tushib, bezovta bo'lib qoldi va shu zahoti o'tirib unga xat yozdi, ertaga uchra-shishlarini so'radi.

Keyin o'zining odatdagi boqibeg'amligi ustun kelib, bariga qo'l siltadi-da, yangi soliqlar haqida chaqqon bir maqola yozishga o'tirdi, u davlat byudjetini mustahkamlash maqsadida qator soliqlar solishni taklif qilmoqda edi.

U dvoryanlarga tegishli bo'lgan yuklama so'z uchun yiliga yuz frank, barondan boshlab knyazlik unvonlariga esa yiliga besh frankdan ming frankkacha soliq solishni yoqlab yozdi.

Maqola tagiga «D. de Kantel», deb qo'ydi.

Ertasiga u ko'k xat oldi, ma'shuqasi soat birda kelajagim xabar bergandi.

Dyurua uni yuragi po'killab urgan holda kuta boshladi, hammasini boshdanoq to'kib solaman, gapning po'skallasini ayta-man-qo'yaman, deb o'yladi u, sal shashtidan tushgandan keyin unga hammasini birma-bir tushuntiraman, bir umr tirik bo'ydoq bo'lib o'tolmasligimni, hamonoki, janob de Marel bu dunyodan ketishni istamayotgan ekan, mening uylanishdan boshqa choram qolmadi, deyman deb o'ylandi.

Shundoq bo'lsa ham u o'zini o'ng'aysiz sezmoqdaydi. Qo'ng'iroq chalinganda uning yuragi qinidan otilib ketay dedi.

Ma'shuqasi o'zini uning quchog'iga otdi:

– Salom, Azizim!

De Marel xonim Dyuruadagi sovuqlikni sezdi.

– Senga nima bo'ldi? – deb so'radi u Dyuruaga diqqat bilan tikilarkan.

– O'tir, – dedi Dyurua. – Biz yaxshilab gaplashib olishimiz kerak.

De Marel xonim boshidan shlyapasini olmay, yuzidagi to'mni sal ko'tarib qo'ydi-da, o'tirdi.

Dyurua boshini quyi egib oldi, u fikrlarini jamlamoqda edi.

– Jonginam, – deb ohista so'z boshladi u, – men hozir senga aytadigan gapimni o'ylasam, o'zimni qo'yarga joy topolmayman, juda qiynalib ketdim. Men seni juda ham yaxshi ko'raman, sen mening jon-u jahonimsan, seni jinday bo'lsin xafa qilishim mumkinligini o'ylasam, olam ko'zimga qorong'i bo'lib ketadi.

De Marel xonimning rangi o'chdi, qaltiray boshladi.

– Nima bo'ldi? Bo'l, gapir! – shivirladi u.

Shunda u qayg'uli qilib, ayni zamonda, qat'iylik bilan o'zi uchun yoqimli, lekin bировga yoqimsiz narsani xabar qilayotgan odamday zo'raki bir ma'yuslik bilan dedi:

– Gap shundaki, men uylanyapman.

Juvonning ko'krigidan ingragan sas otilib chiqdi, – xotimlar hushdan ketish oldidan, odatda, mana shunday ingranadilar, unga nafas yetishmay qolgan, ko'kragi dam sayin ko'tarilib tushar, gapirishga majol qolmagandi unda.

– Shu qarorga kelguncha boshimdan nimalar kechganligini bilsang edi, – deb davom etdi u ma'shuqasi indamay qolganligini ko'rib. – O'zing ko'rib turibsan, menda na pul, na tuzukroq mavqeim bor. Parijda o'zimni yolg'izlikdan xasday his qilaman. Men yonimda odam bo'lsa, qo'ltig'imga kirsam, yordam bersa, yaxshi-yomon kunimga yarasa, suyanchiq bo'lsa, deyman. Men shunday odamni topdim!

Dyurua u biron narsa der degan umidda jim bo'ldi, – mayli edi jahli chiqsa, baqirsa, haqorat qilsa, qarg'asa.

Juvon xuddi yuragim otilib ketmasin, deganday qo'lini ko'ksiga mahkam bosib turardi. U hamon og'ir-og'ir nafas olar, ko'kragi ko'tarilib tushar, boshi qaltirardi.

Dyurua uning kreslo suyanchig'idagi qo'lidan tutdi, lekin u qo'lini tortib oldi.

– O, Xudoyim! – deya shivirladi u iztirob bilan. Dyurua uning oldida tiz choʻkdi, lekin unga qoʻl tekkitishga qoʻrqdi: juvon qichqirsa, dod-voy qilsa, qargʻasa u bunchalik qoʻrqmasdi, lekin u indamas, shu Dyuruani choʻchitib turardi.

– Klo, farishtam Klo, – galdirab gapirardi Dyurua, – axir, oʻzing ahvolimga tushun, nima qilay boʻlmasa, oʻzing ayt. Qaniydi senga uylanolsam, – men uchun bir dunyo baxt boʻlardi bu! Lekin sening oilang bor. Men nima qilishim kerak, axir? Ayt oʻzing, ayt, nima qilay?! Men jamiyatda oʻz mavqeim boʻlishini istayman, buning uchun oila qurishing kerak. Sen bilsayding?! Eringni oʻldirishga tayyor boʻlgan paytlarim boʻlgan...

Uning ovozi zamzama boylab chiqar, u xuddi ajib bir mungli kuy kabi jaranglardi.

Juvonning bir nuqtaga tikilib qolgan koʻzlaridan ikki yirik yosh yumalab tushdi, koʻzlari, kipriklari jiq yosh bilan toʻldi.

– Yigʻlama, Klo, yigʻlama, yolvoraman, yalinaman, yigʻlama! – pichirlardi u. – Yuragim yorilib ketadi mening.

Hamiyat, ayollik kibri ustun chiqdi, u zoʻr bilan oʻzini qoʻlga oldi.

– Kim u? – deb soʻradi yigʻlamsiragan, yigʻidan boʻgʻilgan ovoz bilan de Marel xonim.

Dyurua bir dam sukut qildi va baribir aytish kerakligini bilib javob berdi:

– Madlena Foreste.

De Marel xonim qattiq bir seskanib tushdi, keyin yana toshday qotib qoldi. U oʻz qaygʻusi bilan boʻlib, Dyurua hamon uning qarshisida tiz choʻkib turganligini unutgandi.

Koʻz yoshlari esa tinmay oqib tushardi ikki yuzidan.

U oʻmidan turdi. Dyurua uning bir ogʻiz gapirmay, taʼna toshini otmay, ayni zamonda uni sira ham kechirmay joʻnab ketmoqchiligini bildi. Dyurua qattiq xafa boʻldi, oʻzini ogʻir haqoratlanganday sezdi. Uni ketkizmaslik, qoʻyib yubormaslik maqsadida boʻliq oyoqlaridan quchoqlab oldi va mato tagidan boʻlsa ham uning oyoqlari qattiq boʻlib qolgani, qarshilik qilganligini sezdi.

– Ketma bunday qilib, yalinaman, ketma, – yolvorardi Jorj.

Juvon yosh gʻiltillagan koʻzlarini unga qaratdi, bu qarashda ayriliqning achchiq alam, iztiroblari aks etib yotardi.

– Men... nima derdim, – pichirladi u, – men... bu yerda ortiqchaman... Sen... sen haqsan... sen... sen... sen yaxshi xotin tanlabsan...

U siltanib uning qoʻlidan chiqdi va eshik tomon yurdi, Dyurua uni boshqa tutib turishga harakat qilmadi.

Jorj oʻrnidan turarkan, goʻyo kallasiga ogʻir bir narsa bilan urilgan odamga oʻxshab qolgandi. Biroq u darhol oʻzini qoʻlga oldi.

– Hay, mayli, battar boʻlsin, oyning oʻn beshi yorugʻ, oʻn beshi qorongʻi, – dedi u oʻziga-oʻzi. – Ishqilib... janjalsiz boʻldi-ku. Menga yana nima kerak.

U koʻkragini bosib yotgan toshdan xalos boʻlganday, yangi turmushni boshlashga xalaqit beradigan barcha zanjirlardan qutulganday his qilib, quvonchidan esankiragan holda tanasida joʻshurgan kuchini qayerga qoʻyishini bilmaganday devorni zoʻr berib mushtlay ketdi, nazarida, taqdiming oʻzi bilan yakkama-yakka olishuvga tushgandi.

U Foreste xonimning:

– Siz de Marel xonimga aytib qoʻydingizmi?– degan savoliga beparvogina qilib:

– Albatta... – deb qoʻydi.

Xonim uni sinamoqchi boʻlib zehn solib qaradi.

– U kishi xafa boʻlmadilarmi?

– Aslo. Aksincha, juda yaxshi boʻlibdi, deb xursand boʻldi.

Xabar tez tarqaldi. Birovlar hayron boʻlsalar, boshqalari, shunday boʻlishiga ishonchimiz komil edi, deyishar, uchinchi birovlar esa buning nimasiga hayron qolasizlar, deganday qilib kulib qoʻya qolishardi.

Jorj endi oʻz felyetonlarining tagiga «D. de Kantel», maqolachalariga «Dyurua», vaqti-vaqti bilan chiqib turadigan siyosiy maqolalariga «Dyu Rua» degan imzo chekardi, u kunning yarmini qalligʻining oldida oʻtkazar, qalligʻi xuddi singil kabi samimiy, sodd muomalada boʻlar, lekin shu soddagina muomala tagida yashirin, biroq chinakam bir mehr balqib koʻrinar, ayni choqda oʻzining unga nisbatan koʻngli borligini bildirib qoʻyar, lekin buni ojizlik nishonasi, deb yashirishga urinardi. Ular nikohlariga uch-toʻrttagina odam chaqirishga va nikoh oʻqilgan kuni kech-qurunoq Ruanga ketajaklari haqida kelishib qoʻydilar. Xonim bir necha kun uning ota-onasinikida mehmon boʻlishni istardi.

Dyurua uni bu safardan qaytarishga harakat qildi, lekin foydasi bo'lmadi, oxiri noiloj ko'ndi.

Ular hech kimni taklif qilmaganliklari sababli cherkovga borib o'tirmadilar, kelin-kuyov o'ninchi mayda meriyaga kirib chiqishdi, keyin narsalarini yig'ishtirgani uyga borishdi, kechqurun Sen-Lazar vokzalidan chiqqan, poyezd ularni Normandiya tomonga olib ketdi.

To vagonda yolg'iz o'zlari qolmaguncha ularning xoli gaplashishga fursatlari bo'lmadi. Nihoyat, yo'lga tushganlariga amin bo'lishgach, ular bir-birlariga termulib olishdi va o'rtadagi o'ng'aysizlikni ko'tarish uchun piqillab kulib yuborishdi.

Mana, nihoyat poyezd uzundan-uzoq Batinol debarkaderidan o'tib, vodiya chiqdi, – vodiylar so'lg'in bo'lib, u shahar istehkomlaridan to Senaga qadar davom etardi.

Jorj xotini bilan onda-sonda bir-yarim gaplashib qo'yar, keyin ikkalasi yana derazaga tikildilar.

Aner ko'prigidan o'tayotganlarida ular kemalar, baliqchi qayiq-lari bilan to'lib ketgan daryoni ko'rib quvonib ketdilar. Kemalar, oqshomning porloq ranglariga belangan sokin, osuda daryo botayotgan qudratli may oftobining shu'lalariga g'arq bo'lib yotardi. Ikki oppoq uchburchak ulkan yelkanlarini shamol yozgan qayiq uchishga shay turgan bahaybat qushga o'xshardi.

– Men Parij atroflarini sevaman, – dedi sekingina – Dyurua, – bu yerlarda qanday qilib baliq yeganlarim esimga tushsa, quvonib ketaman.

– Qayiq-larni qarang! – unga qo'shildi xotini. – Quyosh botayotganda suvda suzib yurish juda ham maza-da.

Ular o'tgan narsalarni, o'tgan kunlarni haddan oshirib maqtab yuborishdan o'zlarini tiyib, gapdan to'xtadilar; ular o'z o'ylariga cho'mdilar, armon bo'lib qolgan narsalarni mayus bo'lib eslab ketdilar.

Dyurua xotinining ro'parasida o'tirgan edi, uning qo'lini olib ohista o'pdi.

– Parijga qaytganimizdan so'ng biz Shatoga ovqatlangani borib turamiz, – dedi u.

– Qiladigan ishlarimiz shu qadar ko'pki! – dedi xotini. U buni «foydali ishlarni ko'proq ko'zlash kerak», degan ma'noda aytgani sezildi.

Dyurua hamon xotinining qo'llarini ushlab o'tirar, qanday qilib erkalasam yoqarkan, deb ko'nglidan o'tkazar, bezovta bo'lardi. Agar qarshisida soddagina bokira qiz o'tirganda u nima qilishini o'zi bilgan bo'lardi, biroq Madlenaning tirik, zukko zehni uni cho'chitar, u kalavaning uchini yo'qotib qo'ymoqdaydi. U qovun tushirib qo'yishdan, haddan tashqari latta bo'lib ko'rinishdan yoki buning aksicha, o'ta shilqim, tepsa-tebranmas yoki aksincha, hovliqmachoq ko'rinishdan juda qo'rqardi.

U xotinining qo'llarini ohistagina siqib qo'yar, biroq xotini xuddi buni sezmaganday edi.

– Men haliyam sizning o'z xotinim ekanligingizga ishonolmayapman, – dedi u.

Aftidan, bu gap juvonim hayratga soldi.

– Nega unday deysiz?

– Bilmadim. Menga bu juda g'alati bo'lib tuyulyapti. Men sizni o'pgim keladi va yana hayron bo'lamanki, bunga haqim bor-ku, deb.

Xotini unga yonoqlarini bamaylixotirgina tutib berdi va u xuddi singlisini o'payotganday qilib o'pib qo'ydi.

– Sizni birinchi marta ko'rganimda, – deb davom etdi Dyurua, – esingizdadir. Foreste chaqirganda borganim, «qaniydi mening ham shunaqa xotinim bo'lsa», deb orzu qilgandim. Orzuyimga yetdim. O'zim tilagan xotinni topdim.

– Juda ham maqtab yuboryapsiz, – deya shivirladi xotini uning ko'zlariga tik boqqancha mug'ambirona kulimsirab.

«Juda ham so'xtasi sovuq bo'lib ketibman. Tentak. Dadilroq bo'lish kerak», – ko'nglidan o'tkazdi Dyurua va unga qarab so'radi:

– Foreste bilan qanday tanishgan edingiz?

– Nahotki, biz Ruanga o'lgan odam haqida gaplashib olgani ketayotgan bo'lsak? – dedi ko'zlarini makkorona o'ynatib, sho'xlik bilan xonim.

Dyuruaning lavlagisi chiqib ketdi.

– Borgan sari aqldan ozib boryapman. Sizning oldingizda men o'zimni yo'qotib qo'yaman.

Xonim bundan iyib ketdi.

– Qo'ying-e! Nega unday?

Dyurua uning yonginasiga o'tdi.

– Kiyik! – qichqirib yubordi birdan xonim.

Poyezd Sen-Jermen o'rmonlaridan o'tib borardi. Xonim qo'rqib ketgan kiyik bir sakrab xiyobonning narigi tomoniga o'tib ketganligini ko'rib qoldi.

Madlena ochiq derazadan tashqariga tikilib o'tirar ekan, Dyurua birdan engashib yuzlarini uning bo'yniga bosdi, – bu jazmanning bo'sasiday cho'ziq bo'sa bo'ldi.

Bir necha daqiqa Madlena qimir etmay o'tirdi, keyin boshini ko'tardi:

– Bo'ldi qiling, qitig'im kelyapti.

Biroq hislarni qitiqlaydigan erkalash davom etardi: Dyurua o'zining dikkaygan mo'ylablarini uning oppoq badani uzra ohista suykalardi.

Madlena qaddini rostladi:

– Bas qiling deyapman!

Shunda Dyurua uning boshini o'ng qo'li bilan quchoqladi-da, yuzini o'ziga qaratdi. Keyin o'ljaga tashlangan qirg'iy kabi yutoqib uning dudoqlariga yopishdi.

Madlena o'zini olib qochar, itarib tashlar, uning qo'lidan chiqishga urinardi. Nihoyat, uning quchog'idan chiqdi.

– Bas qiling-e, qanaqa odamsiz! – takrorladi u.

Lekin Dyuruaning qulog'iga gap kiradigan payt emasdi; uni bag'riga bosgancha hirs bilan o'par, lablari titrab turar, Madlenani yostiqa bosishga harakat qilardi.

Madlena uning quchoqlaridan arang qutulib, shartta o'midan turdi.

– Menga qarang, Jorj, bu nima qiliq! Bolalarga o'xshamaylik, Ruanga borguncha sabr qilaylik.

Dyurua ustidan sovuq suv sepilganday shilqillab tushdi, uning yuzlari bo'g'riqib ketgandi. Saldan so'ng o'zini bosib olib dedi:

– Mayli, sabr qilaman, lekin Ruangacha og'zimni miq, etib ochmayman, jazosi shu. Aytib qo'yay: biz endi Puassidan o'tib borayotirmiz.

– Men gapiyman, – dedi Madlena.

Shundan so'ng u erining yoniga bamaylixotir o'tirib oldi-da, qaytib kelganlaridan so'ng nima ishlar qilajaklari haqida birma-bir so'zlay ketdi. Ular Madlenaning ilgarigi uyida yashayverishadi,

bundan tashqari Forestening tahririyatdagi o'rin moyanası bilan birga Dyuruaniki bo'ladi.

Shunisi ham borki, yangi oilaning sarf-xarajatlarini Madlena koraftalik bilan mayda-chuydasigacha hisoblab, reja tortib chiqqan ekan.

Ularning qo'llaridagi mablag'lari har biriniki o'ziga tegishli hisoblanib, hayotda bo'ladigan hamma hodisalar hisobga olingandi – inchunin, o'lim, ajralish, bir yoki bir necha farzandlar ko'rilishi – hammasi ko'zda tutilgandi. Dyurua o'zining gapiga qaraganda, to'rt ming frank puli bo'lib, shundan bir yarim mingini qarzga olgandi. Qolganlari bir kunimga yarar, deb uylanish fikriga tushgandan keyin jamg'arib yurgan pullari edi. Madlenaning qirq ming frank puli bo'lib, buni o'zining gapiga qaraganda, unga Forreste qoldirgandi.

Sharl esiga tushdi-da, Madlena uni maqtab ketdi:

– U tiyinni bekor sarf qilmasdi, o'zini bosib olgan, mehnatdan qochmasdi. U sal fursatda katta sarmoyaga ega bo'lib qolishi mumkin edi.

Dyuruaning xayoli butunlay boshqa narsalar bilan band, uni eshitmasdi.

Ba'zan Madlena gapdan to'xtab, bir narsa ustida fikrga tolar, keyin chala qolgan joyidan boshlardi.

– Siz uch-to'rt yildan keyin yiliga o'ttiz mingdan qirq ming frankkacha pul ishlashingiz mumkin. Sharlning umri uzun bo'lganda, u shuncha topgan bo'lardi.

Uning maslahatlari Jorjning joniga tegib ketdi va xotinining gapini bo'ldi:

– Bilishimcha, biz Ruanga o'lgan odamni gaplashgani ketmayotibmiz, shekilli.

Madlena uning yuziga shapatilab qo'ydi.

– Rost-a, butunlay esimdan chiqibdi, – dedi u kular ekan.

Dyurua oyisining gapidan chiqmaydigan bolalarday ikkala qo'lini tizzasiga qo'ydi.

– O'zingizni tentaklikka solmang, – deb tanbeh berdi Madlena.

– O'zingiz meni shu ko'ygga soldingiz, – deb e'tiroz bildirdi Dyurua, – endi shu alfozda o'lib ketaman.

– Nimaga?

– Negaki, siz xoʻjaligimizni boshqaribgina qolmay, menga ham rahbarlik qilib turasiz. Aytganday, beva xotin sifatida ovingiz yurmasa ham dovingiz yuradi!

Madlena hayron boʻlib qoldi:

– Bu bilan nima demoqchisiz oʻzi?

– Shuni aytmoqchimanki, sizning bilimdonligingiz mening nodonligimga chek qoʻyishi, er koʻrib tajriba orttirgan xotin sifatida esa mening maʼsum boʻydoq hayotimga taʼm berishingiz kerak, ana shu, xolos!

– Juda haddingizdan oshib ketdingiz! – dedi Madlena.

– Yoʻq, bu xuddi men aytganday boʻladi, – deb eʼtiroz bildirdi Dyurua. – Men xotinlarni bilmayman, toʻgʻrimi? Siz esa erkaklarni besh qoʻlday bilasiz, axir, siz bevasiz-ku, toʻgʻrimi? Va siz mening tarbiyam bilan mashgʻul boʻlasiz... – bugun kechqurun, toʻgʻrimi? Menimcha, bu tarbiyani hozirning oʻzidayoq boshlab yuborilsa, soz boʻlar edi, agar istaklari boʻlsa.

– O, bunaqa ishlarda agar mening oʻrgatishimga muhtoj boʻlib qolgan boʻlsangiz, unda!.. – deb yubordi Madlena shoʻxlik qilib.

– Albatta, sizning oʻrgatishingizga muhtojman, – deb javob berdi Dyurua darsda javob berayotgan maktab bolasining ovozi-ga oʻxshatib. – Eng muhimi, men yigirma darsdan keyin... men butkul maʼlumotli kishi qilib chiqarishingizga ishonaman... Oʻnta dars asosiy predmetlarga... oʻqish va grammatikaga... oʻn soat dars – mashqlar va nutq madaniyatiga... Axir, men gʻirt savodsizman-da!

– Sen tentaksan! – dedi borgan sari ochilib shoʻxligi tutgan Madlena.

– Meni sensiray boshlaganing munosabati bilan, – deb davom etdi gapida Dyurua, – men ham shu ondan boshlab senga ergashaman va senga shuni maʼlum qilamanki, azizim, yuragimda muhabbat alangasi borgan sari joʻsh urib, qoʻrqaymanki, Ruanga yetguncha yonib ketmasam deb!

U endi aktyorlarga oʻxshatib gapirar, yuz harakatlariga shundayin bir kulgili tus berar ediki, yuqori adabiy doiralarda qiziq-qiziq gaplarga oʻrganib qolgan yosh juvon qotib-qotib kulardi.

Madlena eriga qiyo boqib oʻtirar va chindan ham u koʻzlariga maftunkor boʻlib koʻrinar, dilida mayl qoʻzgʻatardi, odam gʻarq pishgan nokni koʻrganda shunday ahvolga tushadi, uni darhol olib

yegisi keladi, biroq shuurimiz shoshma, deydi, uni ovqatdan keyin uzib yesang mazasi boshqacha bo'ladi.

Yosh juvon xayoliga kelgan bunday gaplardan qizarib ketdi.

– Jonim shogirdim, – dedi Madlena, mening tajribamga, katta tajribamga ishoning. Vagondagi o'pichlarning narxi arzon bo'ladi. U ishtahangni bo'g'adi, xolos.

– Ha, bilaman, uni menga aytgan eding. Undan ko'ra o'zingdan tur, seni deb men ham turolmay qoldim...

Dyurua karavotdan sakrab turdi va paypoqlarini kiya boshladi.

– Ularning oldilarida juda g'alati ahvolga tushib qolmasak deymen. Men yotadigan xonada eski karavot bor, unga ichiga xashak solingan to'shak yozilgan, boshqa hech vaqo yo'q. Kantleda shundan boshqacha to'shak borligini bilishmaydi.

Madlena xursand bo'lib ketdi:

– Juda soz ekan. Dunyoda shundan yaxshi narsa bormi... Sen bilan... mijja qoqmay chiqsak-da... birdan xo'rozlarning qichqirganini eshitsak!

Madlena oq flaneldan tikilgan chorsi pepyuarini kiyib oldi. Dyurua darhol bu ko'ylakni esladi va g'ashi keldi. Nega? U xotining ertalabga kiyadigan liboslari to'lib-toshib yotganligini yaxshi bilardi. Xo'sh, bundan chiqdi xotini endi o'ziga yangi sep olsinmi? Sep oladimi, olmaydimi, bu uning ishi, lekin Dyurua uning ilgarigi eridan qolgan turli usti bosh tungi ko'ylaklar, asbob-anjom deganday, ya'ni mana shu barcha maishat uchun kiyiladigan mayin va issiqqina bu matoda Foreste qo'llarining izlari qolganday bo'lib tuyulardi.

Dyurua papiros tutatib deraza oldiga bordi.

Keng, azim daryo yengil yelkanli kemalarga to'lib ketgan, ulkan kemalar pristanda yuk tushiradigan mashinalar yordamida shovqin-suron bilan yuklarini bo'shatishardi. Gavannaning ko'rinishi va daryo manzarasi, garchi unga eskitdan tanish bo'lsa-da, unda kuchli taassurot qoldirdi.

– Qurmagur-ey, muncha chiroyli bo'lmasa! – deb yubordi u.

Madlena yugurgilab kelib, ikkala qo'lini erining yelkasiga tashladi va uni tortinmay quchoqlab olgancha, ko'z oldida yastanib yotgan manzaradan ko'z uzolmay, hasrat ichida tikilib qoldi.

– Oh, muncha ham chiroyli, muncha chiroyli! – deb takrorlardi u. – Daryoda birdaniga shuncha kemalar boʻlishini bilmagan ekanman!

Ular kelishlarini chol-kampirga oldindan xabar qilib qoʻyishgan, nonushtani ham hozir ularning oldilariga borgach qilmoqchi edilar. Bir soatlardan soʻng ular usti ochiq shalldiroq aravada yoʻlga tushishdi, oldin uzundan-uzoq xiyobondan borishdi, keyin oʻrtasidan soy oqib yotgan oʻtloqlar boshlandi, soʻngra yoʻl togʻga koʻtarildi.

Madlena horgʻin koʻrinardi, u daqqiyunusdan qolgan aravaning bir chetiga suqilib oldi, charaqlagan oftob unga tushib turar, jismini erka nurlari bilan goʻyo eritib yuborayotganday boʻlardi, iliq oftob va qishloq havosi unga tez taʻsir qildi, tezda pinakka ketdi.

Uni eri uygʻotdi.

– Qara, – dedi u.

Togʻ yoʻlining yarmidan koʻpini oʻtishgach, ular ajib bir manzara koʻzga tashlanadigan yerda toʻxtashdi, odatda, hamma sayohatchilarga shu yerda toʻxtab atrofni tomosha qildirishardi.

Pastda keng, uzoqlarga choʻzilib ketgan bepoyon vodiya yarqiragan daryo buralib-buralib oqardi. Son-sanoqsiz orolchalarni bagʻriga olgan daryo koʻz ilgʻamas, yiroqlardan boshlanib, Ruan-ga yetmasdan yoyday buralib ketardi. Daryoning oʻng qirgogʻida oʻzining oftobda tillarang bir jilo bilan zarhallangan ulkan va noyob toshlar kabi binolari, ignador va yapasqi, nozik va yiltiroq, koʻk toqida muallaq turgan jomelari, asilzodalarning tamgʻalari tushirilgan chorsi gumbazlari, jomxonalari bilan shahar tuman ichra qad koʻtarib turar va gotik uslub bilan qurilgan ushbu cherkovlar izdihomi uzra bosh jomening kishini hayratga soladigan, favqulodda xunuk va beoʻxshov, dunyodagi eng yuksak oʻtkir ignasi boʻy choʻzgandi.

Shaharning qarshisidagi narigi qirgʻoqda uzoqlarga choʻzilib ketgan Sen-Sever qasabasidagi zavodlarni ingichka va yumaloq, yuqorisiga tomon kengayib boradigan trubalari tepaga koʻtarilib turardi.

Jomxona qubbalaridan ham koʻproq qalashgan, bu gʻishtin trubalar zangori osmonga qora dud purkab yotar, ularning keti koʻrinmas, keng dalalar ichra yoʻqolardi.

Misli Xeops ehromiday yuksak (inson qo'li bilan yaralgan ikkinchi bir mo'jiza) va bosh jomening takabburlik bilan bo'y cho'zgan ignasiga deyarli baravar «Yashin» suv bosim minorasi – mehnatkash, doimo ko'kka tutun purkab turuvchi zavodlar qabilasining malikasi bo'lib ko'rinsa, uning qo'shnisi ibodatxonalar to'dasining malikasiga o'xshardi.

Ishchilar shaharchasidan narida qarag'ayzor o'rmon cho'zilib ketardi. Sena esa eski va yangi shaharlar orasidan, ilonizi bo'lib ketgan, o'rmon bilan qoplangan tik qirg'oqlardan o'tib borar, qirg'oqning ba'zi joylarida suv yalang'och oq toshlarni yalab o'tar, keyin daryo keng quloch tashlab aylanardi-da, olislarda ko'zdan g'oyib bo'lardi. Daryodan pastga ham, yuqoriga ham bu yerdan pashshaday bo'lib ko'ringan kemalar o'tib turar, ular barjalarini sudragancha quyuq tutun chiqarib borardilar. Orolchalar esa goh marjonday tizilishib, goh har xil kattalikdagi tasbeh donalari kabi bir-birlaridan juda yiroqlashib ketardilar.

Kucher yo'lovchilar qachon tomosha qilib bo'lishlarini kutib turardi. U sayohatchilarning qaysi tabaqasi bu yerda qancha vaqt turib tomosha qilishini yaxshi bilar edi.

Lekin ular endi yo'lga tushgan edilar hamki, Dyurua bir necha yuz qadam narida qarshisidan kelayotgan chol-kampimi ko'rib qoldi va aravadan sakrab tushib qichqirdi:

– Bu ular! Tanidim!

Erkak va ayol ikki dehqon alpang-talpang qadam tashlab, bir-birlarining yelkalariga urila-urila kelishardi. Cholning bo'yi past, girdig'um, yuzlari qip-qizil, qorin solgan – yoshiga qaraganda u juda baquvvat ko'rinar edi, ayol – baland bo'yli, oriqli, yelkalari bukilgan, g'amgin, ona suti og'zidan ketmay mehnatga o'rganagan, hazilvon eri umr bo'yi sho'xlik qilib, xo'randalarning yonida o'tirib birga ichishgani holda, bu umr bo'yi kulish nimaligini bilmagan chinakam qishloqi xotin edi.

Butkul puturdan ketgan chol-kampimi ko'rgach, Madlena o'zi ham sezmagan holda yuragi achishdi. Ular po'rim va olifta janob o'z o'g'illari ekanini bilmay qolishdi, oppoq ko'ylak kiygan manovi chiroyli juvon esa kelingiz, deb aytishsa ishonishmas edi.

Ular aravaini orqada qoldirib kelayotgan shaharlik bu odamlar bilan ishlari bo'lmay, ko'zlari to'rt bo'lib kutgan o'g'illarini qar-

shi olgani shosha-pisha ketib borishardi. Ular sal bo'lmasa bilmay o'tib ketishar edi.

– Omonmisiz, Dyurua ota! – kulib qichqirdi Jorj.

Chol-kampir azbaroyi shoshganlaridan angrayib, og'izlarini ochgancha taxta bo'lib qolishdi. Birinchi bo'lib kampir o'ziga keldi va turgan joyidan qimirlamay so'radi:

– O'g'lim, senmisan?

– Xuddi o'zi-da, boshqa kim bo'lardi, oyijon! – deb javob berdi Jorj va unga peshvoz borib onasining ikkala yuzidan cho'lpillatib o'pdi. Keyin boshidan qora ipakdan tikilgan, xuddi jalloblarni-kiga o'xshash baland ruan shapkasini qo'lga olvolgan otasining yuzlariga yuzini bosdi.

– Bu mening xotinim, – deya tanishtirdi Jorj.

Chol-kampir Madlenaga qarashdi. Unga xuddi g'aroyib bir narsani ko'rayotgan kabi qo'rqib, xavotirlanib qarasharkan, cholning ko'zlarida mamnunlik va qoniqish ifodasini, kampir esa o'g'lini g'ash ko'rib, kelinini yoqtirmaganligini ko'rish mumkin edi.

Tabiatan quvnoq odam bo'lgan, buning ustiga ozroq araq otib olgan chol sherbachchalarday bo'lib, mug'ambirona ko'z qisib qo'ydi-da, so'radi:

– Bir o'pib qo'ysak bo'larmikin, a, nima deysan?

– Istaganingizcha, – deb javob berdi o'g'li.

Nash'asi pasayib boyadan beri o'zini qo'yarga joy topolmay turgan Madlena cholga yuzini tutib berishga majbur bo'ldi va chol uning ikki betidan cho'lpillatib o'pdi-da, lablarini kafti bilan artib oldi.

Kampir ham kelinini o'pib qo'ydi, lekin bu adovat soya solgan o'pich edi. Axir, shundoq kelinni u orzu qilganmidi: kelining bo'lsa lozar, ferma qizlariday sog'lom, ikki yuzi olmaday, zotdor baytalday yarqirab turgan qiz bo'lsaydi. Manavi atir-upa sepib olgan, laxta ko'ylak kiygan oyimtilla qo'lma-qo'l yuradigan anov-naqalarga o'xshaydi. Gap shundaki, kampirning nazarida, hamma atirlardan mushkning isi kelardi.

Hammalari yosh er-xotinning chamadonini olib borayotgan arava orqasidan yo'lga tushishdi.

Chol o'g'lini qo'ltiqlab oldi-da, qadamini sekinlatib qiziqsinib so'radi:

– Xo‘sh, ishlar qalay‘?

– Mixday!

– Balli, balli! Qancha qalin tegdi xotindan?

– Qirq ming frank, – deb javob berdi Jorj.

Chol kamoli xursand bo‘lganidan hushtak chalib yubordi.

– Obbo azamat-ey, balosan-ku! – deya oldi chol sho‘rlilik, shunchalar lol qilib qo‘ygan edi buncha pul uni.

Keyin salmoqlanib ishonch bilan dedi:

– Juda ketvorganini topibsan!

Kelini unga chindan ham yoqib qoldi. Qachonlardir bunaqa ishlarda undan oldinga o‘tadigan yo‘q edi-ya.

Madlena qaynonasi bilan yonma-yon indamay borishardi. Ota-bola ularga yetib olishdi.

Ular yo‘lning ikki chetida joylashgan kichkinagina qishloqqa kirib borishdi, yo‘lning bir tomonida o‘nta, ikkinchi tomonida ham o‘nta uy joylashgandi: bundagi ba‘zi uylar shahar uylariga o‘xshatib solingan, boshqa ba‘zilari tepasi xashak va shifer bilan yopilgan hamda loydan, g‘ishtdan qurilgan kulbalar edi. Qishloqning chekkasida chap tomonda boloxonali uy qad ko‘targan bo‘lib, Dyurua cholning «Go‘zal manzara» degan qovoqxonasi shu edi. Qadimgi udum bo‘yicha eshik tepasiga qoqib qo‘yilgan qarag‘ay butasi tomog‘i taqillab qolganlar bo‘lsa, bemalol kirib uni ho‘llab chiqishlari mumkinligini bildirardi.

Zalda bir-biriga taqab qo‘yilgan ikki stolga noz-ne‘matlar qo‘yilgan, ustiga dasturxon tashlangandi. Uydagi mayda-chuyda ishlarga yordam berib yurgan qo‘shni xotin yasan-tusan qilgan chiroyli xonimni ko‘rib bukilib ta‘zim qildi, keyin Jorjga ko‘zi tushdi-da:

– Voy Xudoyim-ey, sen o‘zingmisan, bolakay? – deb yubordi.

– Xuddi o‘zi, topdingiz, Bryulen xola! – dedi sho‘xlik bilan Jorj va uni ham ota-onasini qanday o‘pgan bo‘lsa, shunday o‘pib qo‘ydi.

Keyin Jorj xotiniga qarab dedi:

– Yur, o‘zimizning xonamizga chiqamiz, u yerda shlyapangni qo‘yadigan joy topilib qolar.

O‘ng tomondagi eshikdan u xotinini tagi g‘ishtin salqin xonaga boshladi – xonaning devorlari ohak bilan oppoq qilib oqlan-

gan, karavot tepasida esa, kolenkor ro'yja osilgandi. Bu ovoz va ko'rimsizgina xonada xoch tepasiga o'rnatilgan sanam bilan zangori palma ostida Pol hamda Virginiyaning tasviri tushirilgan surat va Napoleonning jiyron ot minib tushgan rasmidan boshqa bezaklar yo'q edi.

Ikkovlari yolg'iz qolgan hamono Jorj Madlenani o'pib qo'ydi.

– Salom, Mad. Men chol-kampimi ko'rganimdan juda baxtiyorman. Parijda yurganingda ular esingga ham kelishmaydi, bari-bir ularni ko'rsam, boshim osmonga yetadi.

Biroq shu payt otasi devorni taqirlatib ularni chaqirdi:

– Tezroq bo'la qolinglar, sho'rva tayyor!

Zalga chiqishga to'g'ri keldi.

Qishloqchasiga uzoq o'tirib shoshilmay ovqatlanishdi: od-di-ygina taomlar tortildi – qo'y go'shtidan keyin kolbasa, kolbasadan so'ng tuxum yedilar. Bir necha stakan sharbat bilan vino ichib olgandan keyin chol juda ochilib ketdi, u tinmay hazillashar, sho'xlik qilardi, katta bayramlarda aytadigan gaplarini ham bugun o'rtaga to'kib soldi, o'rtoqlarimizning boshidan kechgan, deb ancha beparda latifalar ham aytib berdi. Jorj bu latifalarni ko'p eshitganidan yoddan bilar, lekin shundoq bo'lsa ham qotib-qotib kulardi. Kulganining sababi, tug'ilib o'sgan yerlarini ko'rib behad shavq-zavqqa to'lgandi, shu tobda uning qalbi yana ona yurtga bo'lgan muhabbat bilan to'lib-toshgandi, bolalikdan besh qo'lday tanish yerlarni ko'rib mehri tovlanib ketgan, ko'zi hozir nimaga tushmasin, hammasi ilgari boshidan kechirganlarini xotirlatib turardi: eshikdagi chiziqmi, allaqanday arzimagan bir voqeani eslatgan uch oyoqli stulmi, yerning isimi, shu o'rtadagi o'rmondan anqib kelayotgan daraxtlar, yelimlarning hidlarimi, uydan, ko'lmak suvlardan, tezaklardan kelib turgan g'alati bo'ylarni – bari unda eskidan tanish hissiyotlarni qayta uyg'otar edi.

Kampir hamon qovog'i soliq, g'amgin ko'rinar, miq etib og'iz ochmas, keliniga yeb yuborguday bo'lib o'qrayib qaragani qaragan edi, qo'llari qadoq, qaddi og'ir mehnatdan bukilgan zahmatkash dehqon ayol shaharlik oyimtillarni ko'rganda shundan boshqacha qarolmagan bo'lardi, albatta.

Bu juvon uning nafratini keltirar, nazarida, allaqanday harom, buzuq, pes-moxov bir narsani ko'rib o'tirganday bo'lardi, – bular

uning e'tiqodicha, takasaltanglik va zinoga berilish tufayli paydo bo'lgan illatlar edi. Kampir tinmay o'midan turar, ovqat keltirar, stakanlarga nordon rangsiz musallas quyar, sharbat tortar, sharbat esa xuddi limonadga o'xshab tiqinlarini shishaning og'zidan otib yuborardi.

Madlena ma'yus tortib qoldi; u hech narsa yemas, gapga aralashmasdi; lekin uning lablaridan hamon tabassum arimas, lekin bu tabassum hammasidan zerikib, hammasiga tan berib qo'yilgan tabassum edi. Uning tarvuzi qo'ltig'idan tushgan, u bunday bo'ladi deb o'ylamagandi. Nega? Axir, uning o'zi xohlamadimi bu yerga kelishni. U soddagina dehqon oilasiga borayotganligini bilgan edi-ku. Hech qachon havoyi gaplarga berilmagan odam nega endi bu safar boshqacha bir odamlarni ko'raman, deb xomxayol qildi, nega?

Nima, u bularni o'ylamaganmidi? Xotinlar doimo hayotda bor narsalardan boshqacharoq, antiqaroq narsalarni orzu qiladilar!

Balki, shaharda turib bularning hayoti uning ko'zlariga boshqacha bo'lib ko'rinib ketgandir? Boshqachasi qanaqa, kim biladi-yu, lekin u bundan ko'ra shirinroq, bundan ko'ra olijanobroq, xandon-xushxon, ko'z tushsa quvonadigan narsalarni ko'raman, deb o'ylagandi. Shunisi ham borki, u dehqonlarni xuddi romanlarda tasvirlanganidek odobli, xushtavoze holda ko'rishni istamasdi. Nega unda arzimagan narsalar g'ashiga tegib o'tiribdi, andak to'porilik, ularning dehqoncha qiliqlari, so'zlari, harakatlari, kulgilari nega muncha unga ozor beradi?

U o'z onasini eslab ketdi, buni hech zotga hech qachon gapirmagandi, onasi Sen-Denida o'qigan tarbiyachi-guvernanka edi, uni kimdir laqillatdi va u Madlena o'n ikkiga kirganda g'am-alam, yo'qchilikdan o'lib ketdi. Qandaydir notanish bir odam Madlenani o'qitdi. Balki, o'qitgan odam otasidir? Kim edi u? Bu unga butkul va baniy qorong'i bo'lib qoldi, g'ira-shira bir narsalarni sezganday bo'lardi, xolos.

Mehmondorchilikning keti ko'rinmasdi. Birin-ketin xo'randalar kelisha boshladi, ular cholga salom berib, Jorjga ko'zlari tushgach, og'izlari ochilib qolar, yosh juvonga zimdan nazar solib go'yo: «Obbo, qistaloq Jorj-ey, boplabdi-ku! Qandini ursin, shunday xotinni qo'lga kiritibdi», deganday bo'lishardi.

Unchalik tanish bo'lmagan xo'randalar yog'och stollarga o'tirib olib: «Bir litr!», «Krujkal», «Ikkiti konyak!», «Bir stakan rapayl bering!» – deb qichqirishar va taraqlatib domino o'ynagani tutinishardi.

Kampir dam-badam kirib-chiqib turar, horg'in bir alfozda xo'randalarga xizmat qilar, haq olar, ko'k peshbandining etagi bilan stollarning ustini artardi.

Xonani sopol trubkalardan, arzon sigaralardan chiqqan tutun chulg'adi. Madlena yo'tala boshladi.

– Bo'ldi qilmaymizmi? Chidab bo'lmayapti.

Lekin udumga ko'ra hali nonushta oxirlamagandi. Chol norozi bo'ldi. Shunda Madlena erkaklar konyak bilan kofe ichib bo'lishlarini kutib o'midan turdi-da, chiqaverishdagi eshik oldiga borib kursiga o'tirdi.

Sal o'tgach, Jorj uning oldiga keldi.

– Yur, Senani ko'rib kelamiz.

– Bo'pti, yur! Ketdik! – dedi quvonib ketgan Madlena.

Ular tepadan tushib, Kruasseda qayiq oldilar. Bahor nashidasi-ga cho'mgancha qolgan paytni ikkalasi yolg'iz orolcha yonida, tollarning salqinida o'tkazdilar, bahorning iliq oftobi ularni erkalar, daryoning mayin shabadasi, badanlariga rohat bag'ishlar, allalardi.

Ular uyga qorong'i tushganda qaytishdi.

Sham yorug'ida qilingan kechki ovqat Madlenaga nonushtadan ham zerikarliroq bo'lib tuyuldi. Chol shirakayf bo'lib o'tirar, og'zini ochmasdi. Onasi xafa bo'lgan odamga o'xshab o'tirardi.

Xiragina shu'la tushib turgan devorda g'alati burundor soyalar ko'rinar, ular almoyi-jalmoyi qimirlardi. Shamning xira sarg'imir qaltiroq shu'lasini bironing yuziga tushishi bilan shu zahoti devorda panshaxaday vilka ko'targan kattakon qo'l ko'rinar, keyin xuddi dahshatli maxluqnikiday og'iz ochilardi.

Ovqatni yeb bo'lganlari hamono Madlena bu g'ira-shira, ach-chiq tamaki tutuni, to'kilgan ichimliklarning hidiga to'lgan xonadan erini ochiq havoga olib chiqib ketdi.

– Darrov zerikib qolding-a? – dedi Jorj tashqariga chiqqanlaridan keyin.

Madlena, undaymas, deb aytmoqchi edi, eri gapini og'zidan ilib ketdi:

– Yo‘q. Hammasini ko‘rib turibman. Agar istasang, ertagayoq bu yerdan ketamiz.

– Ha. Ketaylik. – deya shivirladi xotini.

Ular ohista ilgarilab borishardi. Cheksiz iliq, mayin erkalagan tun quchog‘i yengil shivirlash, shitirlagan, xo‘rsingan tovushlarga to‘lib ketgandi. Ular qorong‘i zulmatli tun qo‘ynida yotgan ikki o‘rmon oralig‘idagi baland daraxtlar ostidan o‘tgan so‘qmoqdan yurib borardilar.

– Qayerda yuribmiz? – so‘radi xotini.

– O‘rmonda. – javob berdi u.

– Katta o‘rmonmi?

– Juda katta. Fransiyadagi eng katta o‘rmonlardan.

Yer, daraxt, moxlar, chirigan xazonlar hidi, amalga kirgan kurtaklarning hidi – chekka, ovloq o‘rmonning mana shu butun ko‘hna va toza muattar nafasi bu yerda mudrab yotganga o‘xshardi. Madlena boshini ko‘tarib, daraxtlar orasidan miltillab turgan yulduzlarni ko‘rdi. qilt etgan shamol esmayotgan esa-da, u atrofini qurshagan yaproqlar izdihomining ohista shivirlab turganligini his qildi.

Jismida o‘zi anglab yetmagan bir titroq turdi, yuragi uvushdi: allanechuk bo‘lib ketdi. Nimaga? U buning sababini bilolmadi. Biroq nazarida atrof-javonibda o‘zi uchun bir xatar yashirinib yotganday tuyuldi, xuddi bu olam ichra yo‘qolib ketayotganday, hamma uni tashlab ketganday, tiriklay ko‘milganday, o‘tkir nafas olayotgan, yuksakda bilinar-bilinmas to‘lqinlanib yotgan o‘rmon gumbazi ostida yakka-yolg‘iz qolganday edi.

– Qo‘rqib ketyapman. Ketaylik, – deya shivirladi Madlena.

– Mayli, ketsak ketaylik.

– Parijga... ertaga ketamizmi?

– Ha, ertaga.

– Ertaga ertalab!

– Mayling, ertalab ketsak ham bo‘ladi.

Ular uyga qaytishdi. Chol-kampir yotib qolishgan ekan.

Madlena tuni bilan uxlo olmay chiqdi, o‘zi o‘rganmagan qishloq saslari: boyqush qichqirig‘i, og‘ilxonadagi megajinning xirqirashi, yarim kechadan beri tinmay qichqirayotgan xo‘rozning tovushi uni dam savin uyg‘otib yuborardi.

Hali oftob chiqmasdan tong oqarishi bilanoq u oʻmidan turib oldi va yoʻlga hozirlik koʻra boshladi.

Jorj chol-kampirga ketamiz, deb aytganda, ular angrayib qoʻlishdi, lekin shu zahoti bu kimdan chiqqan gap ekanligini fahmlashdi.

Chol faqat soʻradi:

– Yana qachon koʻrisharkinmiz?

– Koʻrishamiz. Yoz kelsin.

– Hay, mayli.

– Ishqilib, oxirida afsuslanib qolmasang boʻldi, bolam, – deya oldi kampir.

Biroz boʻlsa ham chol-kampirning koʻnglini olish uchun Jorj ularga ikki yuz frank berdi. Bir bolani arava olib kelishga joʻnatgan edilar, arava soat oʻnga keldi, keyin chol-kampiri oʻpishib, farzand bilan kelin joʻnab ketishdi.

Ular tepadan pastga tushayotganlarida Dyurua kulib yubordi.

– Ana, – dedi u, – senga aytmovdimmi? Seni chol-kampir Dyurua de Kantellar bilan tanishtirmasligim kerak edi.

Madlena ham kulib yubordi.

– Ularni koʻrib, boshim osmonga yetdi, – deya eʼtiroz bildirdi xotini. – Ajoyib odamlar, ularni doimo yuragimning toʻrida saqlashga harakat qilaman. Parijdan ularga sovgʻa-salomlar yuboraman.

Keyin biroz jim turdi-da, davom etdi:

– Dyurua de Kantel... Mana koʻrarsan, bizning taklifnomalarimizni yaxshi qabul qilishadi. Biz, bir hafta ota-onamizning mulkida turib keldik, deb aytamiz.

U erining pinjiga suqildi va lablarini uning moʻylabi uchiga tekkizib qoʻydi:

– Salom, Jorj!

– Salom, Mad, – dedi javoban eri va uning belidan quchdi.

Uzoqda – vodiyning qoq oʻrtasida ertalabki quyosh nurlarida kumushday tovlanib daryo buralib oqardi, barcha zavodlarning trubalaridan osmonga qop-qora dud oʻrlab chiqardi, eski shahar uzra jomxonalarning ignaday choʻqqilari koʻkka qadalib turardi.

Er-xotin Dyu Rualar poytaxtga qaytib kelishganidan beri ikki kun o'tdi. Jorj o'z vazifalarini bajarishga kirishdi, u meni xronika bo'limidan olib Forestening o'rniga qo'yishadi, o'shanda o'zini butunlay siyosatga bag'ishlayman, deb ko'nglining bir chetiga tugib qo'ygandi.

Bu oqshom u ko'tarinki bir kayfiyatda ilgari sobiq do'sti istiqomat qilgan uyga ishdan keyin ovqat qilish uchun bormoqda edi, tezroq xotinini o'pgisi, bag'riga olgisi kelardi, xotini uni o'ziga butunlay maftun qilib qo'yan. Jorj o'zi ham bilmagan holda unga asir bo'lib qolgandi. U Notr Dam de Loret muyulishida turgan gulchining yonidan o'tib keta turib, Madlenaga gul taqdim qilgisi keldi va shu zahoti hidlari gurkirab turgan atirgul g'unchalaridan bir dastasini sotib oldi.

U o'zining yangi pillapoyalaridan ko'tarilarkan, zina maydonchalarida turib, qaddi-qomatini oynaga solib qarar va bu yerga ilk bor qadam qo'yan paytlarini eslardi.

U kalitni uyda qoldirib kelgan ekan, unga eshikni o'sha eski xizmatchi ochdi, Jorj Madlenaning gapi bilan uni o'z joyida qoldirgandi.

– Dyu Rua xonim uydamlar? – so'radi u.

– Ha, afandim.

U yemakxonadan o'tib borarkan, stolda uch kishilik idish qo'yilganligini ko'rib hayron bo'ldi. Mehmonxona bilan yemakxona o'rtasidagi parda ko'tarib qo'yilgan bo'lib, uning ko'zlari Madlenaga tushdi, u xuddi Jorj olib kelganga o'xshagan atirgullar dastasini kamin ustidan vazaga qo'yayotgan ekan. Dyurua xafa bo'lib, dili shu qadar vayron bo'lib ketdiki, go'yo uning fikrim birov o'g'irlab olganday, undan e'tibor va mehr-oqibat ko'rsatish huquqini tortib olishganday bo'ldi. Madlenani xursand qilishni ko'z o'ngiga keltirib, u qanchalar quvongan edi-ya.

– Bitta-yarimta keladiganmi? – deb so'radi u Madlenadan ichkariga kirarkan.

– Bo'lishi mumkin, – deb javob berdi xotini unga qaramasdan hamon gullarni joylashtirish bilan ovora bo'lib. – Xonadoni-

mizning odatiga ko'ra, mening eski do'stim graf de Vodrek keladi: u ilgari har dushanba kuni biznikida mehmon bo'lib ketardi.

– A! Juda yaxshi, – deya to'ng'illadi Jorj.

U qo'lida guldasta bilan xotimning orqasida turar, gullarni tashlab yuborishini ham, berkitishini ham bilmasdi.

– Qara, senga gullar olib keldim, – dedi u nihoyat. Madlena unga tabassum porlagan chehra bilan boqdi. – Muncha yaxshisan! – dedi u va yurakdan chiqqan bir quvonch bilan eriga qo'llarini uzatdi, lablarini cho'zdi, Jorjning ko'ngli shu zamonog o'rniga tushdi.

Keyin gullarni qo'lga olib, uni bolalarday quvonib hidladi va boya gul qo'ygan vazasi yonidagi bo'sh idishga ularni joylab qo'ydi.

– Judayam xursandman! – deya shivirladi u gullarga qarab. – Mana endi kaminga qaragan odamning ko'zi quvonadi.

Keyin ishonch bilan qo'shib qo'ydi.

– Bilasanmi, Vodrek juda ajoyib kishi, u bilan tezda chiqishib ketasizlar.

Qo'ng'iroq jiringlab, grafning kelganligini ma'lum qildi. Graf xuddi o'z uyiga kelganday bamaylixotir, ishonch bilan ichkariga kirdi. U qaddini g'oyatda nazokat bilan bukib Madlenaning barmoqlarini o'pdi, keyin Jorjga qaradi-da, unga ochiq chehra bilan qo'l berib so'radi:

– Ishlaringiz yaxshimi, azizim Dyu Rua?

Unda ilgarigi kibr va kalondimog'likdan asar ham yo'q, bu vaziyatning o'zgarib qolganligini ko'rsatardi. Bularning bari jurnalistni taajjubga soldi va uning iltifotiga yarasha xushmuomala bo'lishga qaror qildi. Besh daqiqalardan so'ng ularga qaragan odam bular o'n yillardan beri bir-birlarini bilishar ekan, bir-birlaridan jonlarini ham ayashmasa kerak, degan xayolga borishi mumkin edi.

– Gaplashib o'tiringlar, – dedi charaqlagan chehra bilan Madlena. – Men oshxonadan xabar olay.

Ikkala erkak uning izidan qarab qolishdi.

Madlena qaytib kelganda ular allaqanday yangi pyesa munosabati bilan teatr haqida suhbatlashib o'tirishardi, ularning fikrlari

bir joydan chiqqan va o'rtada tug'ilgan bu hamfikrlilik ikkovlarida o'zaro yaqinlikka o'xshash bir narsa paydo qilgandi, bu ularning xuzlarida ham o'z ifodasini topgandi.

Chaqaqlashib o'tirib ovqatlandilar. Graf bu xonadonda o'zini shu qadar yaxshi his qilar ediki, uyning ajoyib sohiblari bilan gaplashib tuymasdi, u allavaqtgacha qolib ketdi.

U ketgandan keyin Madlena eriga qarab dedi:

– Juda ajoyib odam, to'g'rimi? Yaqindan tanish bo'lib olsang, u senga juda yoqib qoladi. U chinakam, ko'p sinovlardan o'tgan, vafodor va sadoqatli do'st. Oh, agar u bo'lmaganda...

U gapini oxirigacha aytmadi.

– Rost, u juda dilkash ekan, – deb qo'ydi Jorj. – Memmcha, u bilan yaxshi o'rtoq bo'lib qolsak kerak.

– Bilasanmi, – deb yana gap boshladi Madlena, – biz uyqu kelguncha yana o'tirib ishlashimiz kerak. Graf Vodrek kelib qolganidan senga hali aytib ulgurmagan edim. Bugun men Marokashda muhim voqealar ro'y berganligini bildim. Buni menga bo'lajak Vazir, deputat Larosh-Mate aytdi. Katta shov-shuvga sabab bo'ladigan maqola yozishimiz kerak. Raqam va faktlar menda bor, hoziroq ishga o'tirishimiz kerak. Chiroqni ol.

Jorj chiroqni ko'tarib oldi va ular kabinetga kirdilar.

Kitob javonida o'sha-o'sha kitoblar turar, tepada esa Foreste o'limi oldidan Juan ko'rfazida sotib olgan uchta chiroyli vaza qo'yilgandi. Marhum Sharlning oyoqqa to'shalgan yumshoq gilamchasi Dyu Ruaning qadam qo'yishiga mahtal bo'lib turganga o'xshardi. Jorj o'tirdi va qo'lga qalam oldi, qalamning ikkinchi uchi Sharlning tishlariga tegib, andak kemtilgandi.

Madlena kaminga suyanib olib papiros tutatdi va yangiliklarni gapirib bera boshladi, keyin o'zining fikri mulohazalarini aytdi va yozilajak maqolaning planini tuzdi.

Jorj uni diqqat bilan tinglar va yo'l-yo'lakay fikrlarini qog'ozga tushirib borardi. Xotini hamma gapini tugatgach, Jorj bu masalada o'z fikrlarini bildirdi, uni chuqurlashtirdi va o'z rejasini ma'lum qildi, uningcha, hozirgi Vazirlikka qarshi bitta emas, bir necha maqola yozish kerak ekan. Bu hujum faqat ishning boshlanishi bo'ladi. Jorjning fikr-mulohazalarida chuqur imkoniyatlarni ko'rgan Madlena hatto chekishdan ham to'xtab qoldi.

– Ha... ha... Juda yaxshi... Ajoyib... O'tkir fikr... – shivirlab qo'yardi u o'qtin-o'qtin.

Jorj gapini tugatgach, u dedi:

– Ke, endi yozishni boshlaymiz.

Biroq u doim boshlashga qiynalardi, bu safar ham kerakli so'zlarni zo'rg'a topardi. Madlena uning qiynalayotganini payqab qoldi-da, uning yelkasiga pichagina suyanib, qulog'iga birin-sirin jumlama-jumla shipshiy boshladi.

U ba'zan to'xtab, botinmaygina undan so'rab qo'yardi.

– Sen shunday demoqchimiding?

– Ha, xuddi o'zi, – deb javob berardi u.

U Vazirlar sovetining raisi sha'niga achchiq zaharxandalar, ayovsiz kinoyalar yog'dirdi, raisning tashqi ko'rinishi ustidan u yuritayotgan siyosatga bog'lab shunday istehzoli so'zlarni aytardiki, bunaqa ta'rif-tavsif faqat xotinlar og'zidan chiqadi, odam beixtiyor kulib yuborar, ayni zamonda kuzatishlarining bu qadar o'tkirligiga qoyil qolmasdan iloj yo'q edi.

Dyu Rua uning zahar-zaqqum so'zlari ichiga ba'zan-ba'zan bir necha so'z qo'shib qo'yar, shunda mulohazalar yanada o'tkirroq, yanada ma'nodorroq chiqardi. Bundan tashqari, gapning tagiga nim kosasini yashirish san'atini mukammal egallagan, so'z bilan bunday hiylakorlik qilishga u xronika materiallarini ishlab yurib o'rganib ketgandi. Agar u Madlena aytayotgan biron gapga unchalik ishonqiramasa va u birovning sha'niga bo'hton bo'lib eshiti-lishini sezsa, unda bu gapning jindak uchini chiqarish, shama qilish bilan cheklanar, natijada gazetalar ko'z o'ngida bu shamaning go'yo ma'lum bir ahamiyati borday qilib ko'rsatardi, shuni shama qilmay to'g'ri aytsa, uncha ta'sirli chiqmasligini u bilardi.

Maqola yozib bitirilgach, Jorj uni ovozini chiqarib, ta'sirlanib o'qib chiqdi.

Maqola ikkovlariga ham juda yoqib ketdi va bir-birlarini endigina topganday bo'lib, suyunib, shodlanib tabassum qildilar Ular bir-birlariga qarab to'yishmas, nigohlari mehr-muhabbat bilan to'liq edi, keyin ruhiy inoqlik qalblarini to'lqinlartirgancha bir-birlarining quchoqlariga otildilar, paydar-pay o'pishdilar.

Dyu Rua chiroqni oldi.

– Endi allo qilamiz, – dedi u ko'zlari yongan holda.

– Qani boshlang, sultonim, axir siz yo‘limizning charog‘-bonisiz, – dedi Madlena.

Jorj xos xonaga yurdi, xotini orqasidan barmoqlari bilan uning gardanini qitiqlab bordi, eri qitiqdan qo‘rqqani uchun ular xonaga tez kirib bordilar.

«Jorj Dyū Rua de Kantel» imzosi bilan chiqqan maqola ko‘p shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. Palatada to‘polon boshlandi. Qariya Valter muallifni tabriklab qo‘ydi va shu zahotiyoy uni «Fransuz hayoti»ning siyosiy bo‘limiga mudir qilib tayinladi. Xronika yana Buarenar zimmasiga tushdi.

Shu kundan e‘tiboran «Fransuz hayoti» Vazirlikka qarshi uzoqni ko‘zlangan ashaddiy hujumga o‘tdi. Bahs ustalik bilan, dalillarga suyangan holda olib borildi. Hammani bahsning dam achchiq, dam jiddiy, dam hazil, dam darg‘azab ohangi o‘ziga jalb qildi, ayni zamonda bahs avtori chegaradan chiqmas, yo‘lidan ham toymas edi. Boshqa gazetalar «Fransuz hayoti»dan ko‘chirmalar oladigan bo‘lib qolishdi, hokimiyat tepasida turganlar esa, noma‘lum shaddod g‘animlarining payini politsiya yordamida qirqishga urinardilar.

Dyū Rua siyosiy doiralarda ma‘lum va mashhur odam bo‘lib qoldi. O‘zining mavqeyi o‘sib borayotganligini u bo‘layotgan qo‘l qisishlar-u, ta‘zim-tavozelardan sezib turardi. Xotiniga kelganda, Jorj uning teran aqliga, hamma narsadan favqulodda xabardorligiga va aloqalarining zo‘rligiga qoyil qolib kelardi.

Kechqurun uyga qaytib kelganda, har kuni mehmonxonada yo senator, yo deputat, yo sudya, yo general o‘tirgani ustidan chiqar, ular Madlena bilan eski oshnalarday gaplashayotganligini ko‘rar edi. Qayerda tanishgan u bular bilan. Jamiyat, yig‘inlarda, deb javob berardi xotini. Biroq qanday qilib ularning ishonchini qozondiykin, nimasi bilan ularga yoqib qolganiykin? Bu uning uchun sir edi.

«Undan o‘tkir diplomat chiqishi mumkin edi», – deb o‘ylardi Jorj.

Madlena ko‘pincha kechki ovqatga kechikib kelar, keyin halloslab, qizarib ketgan, hayajonlangan holda kirib shlyapasini yechmay turiboq yangiliklarni to‘kib sola boshlardi:

– Bugun yana oshig‘imiz olchi. Buni qara, adliya Vaziri ilgari-gi aralash komissiyaning sobiq ikki a‘zosini sudyalikka tayinlabdi. Boplab adabini bermasak bo‘lmaydi – umrbod eslab yursin.

Shundan keyin bir necha kun Vazirning adabi beriladi. Deputat Larosh-Mate Fontan ko‘chasidagi uyda seshanba kunlari mehmon bo‘lar va graf Vodrekka o‘xshab er-xotin ikkovlarining qo‘llarini qisib qo‘yar, behad quvonch bildirardi.

– Mana, buni hamkorlik desa bo‘ladi! – derdi u har safar. – Agar shu safar ham g‘alaba qilmasak...

U anchadan beri ko‘z ostiga olib yurgan amaliga – tashqi ishlar Vaziri lavozimiga erishajagiga chin yurakdan ishonardi.

Bu odam o‘rtacha bir siyosiy arbob bo‘lib, uning na o‘z qiyofasi, na o‘z mustaqil fikri bor edi, qobiliyati ham el qatori bo‘lib, yuraksiz, bilimi sayoz edi. U chekka shaharchalardagi advokatlar-ga, mahalliy sherbachchalarga o‘xshardi, u o‘zining iezuit ekan-ligini jumhuriyat partiyasi bilan niqoblar, o‘zaro nizolashayotgan partiylar o‘rtasida ustamonlik bilan harakat qilardi, bu shunda umumiy saylov huquqlari degan axlat ustidan unib chiqayotgan yuzlab sassiq, zaharli liberal qo‘ziqorinlarning bittasi edi. U o‘zi-ning sotqinligi, riyokorligi bilan hamkasblari – o‘sha deputat deb ataladigan chala murtadlar ichida dono bo‘lib ko‘rinardi. Sirti yal-tiroq, ichi qaltiroq bu odam ancha tuzukkina tarbiya ko‘rgan, hech narsadan tortinib o‘tirmas, xushmuomala kishi bo‘lib, jamiyatga bir narsaga erishish uchun shularning o‘zi yetarli edi. Uncha-mun-cha narsani nazar-pisand qilib o‘tirmaydigan, ishi yo‘q, turli-tu-man, har toifadagi odamlardan iborat jamiyatda, tasodif bilan yu-zaga chiqib qolgan katta mansabdorlar ichida uning obro‘-e‘tibori baland edi.

«Larosh Vazir bo‘ladi», – degan gapni har joyda eshi-tish mumkin edi, uning o‘zi ham bu gapga hammadan ko‘proq ishonardi.

U qariya Valter gazetasining asosiy paychilaridan bo‘lib, cholning ko‘pgina moliyaviy operatsiyalarida sherik kabi ishtirok etardi.

Dyu Rua Larosh-Mateni qo‘llab-quvvatlar edi: unga ishonar va kelgusida kerak bo‘lib qolar deb o‘ylar, unga umid bog‘lar-

di. Aytganday, u faqat Foreste boshlagan ishni davom ettiriyapti, Larosh-Mate unga kelajakda Faxriy legion ordeni olib berishga va'da bergandi, endi bu ordenni Madlenaning ikkinchi eriga berish mo'ljallanmoqdaydi, xolos. Axir, mohiyat e'tibori bilan qaraganda hech narsa o'zgargani yo'q-ku.

Shunday bo'lishi turgan gap edi va Dyu Ruaning hamkasblari shuni pesh qilib, uning ko'ziga cho'p tiqishar, qonini qaynatishardi.

Endi uni «Foreste» deb chaqirishadigan bo'lib qolishgandi.

U tahririyatga qadam qo'yishi bilanoq allakim qichqirib qolardi:

– Foreste, buyoqqa qara!

U o'zini eshitmaganga solar va qutidagi xatlarni ko'rishda davom etardi.

Yana o'sha odam qattiqroq qilib chaqirardi:

– Hoy, Foreste!

Xodimlar qiqlashardi.

Dyu Rua noshirning kabinetiga qarab yurar, shunda hamkasabasi uni to'xtatib derdi:

– Eh, kechirasani! Men seni chaqiruvdim. Ahmoqligimni qara, seni doimo Sharlga adashtirib yuraman. Sening maqolalaring Sharlnikiga juda o'xshab ketgani uchun shunday ko'rinsa kerak. Bunaqada adashmay ilojing yo'q.

Dyu Rua bunga javob bermas, lekin ich-ichidan g'azabi jo'sh urib kelardi. Shu tariqa u endi marhumni yomon ko'rib qoldi.

Bir kuni kimdir siyosiy bo'lim mudirining maqolalari shaklan va mazmunan ilgari mudirlikidan farq qilmasligi haqida hayron qolib gapirganda, qariya Valterni o'zi shunday degan edi:

– Ha, bu Foreste, lekin bunisi unga qaraganda yoniqroq, mar-donaroq, barkamolroq.

Bir kuni Dyu Rua jvonini tasodifan ochib qolib, Forestening shari qora tasma bilan o'rab qo'yilganini, Sen-Poten bilan birga o'zi o'ynab yuradigan shar pushti lenta bilan bog'lab qo'yilganligini ko'rdi. Hamma sharlar katta-kichikligiga qarab o'sha yerning o'ziga qator terib qo'yilgandi. Muzeylarda bo'ladigan tushuntirish xatiga o'xshatib yozilgan qog'ozda shunday so'zlar bor edi: «Foreste va K⁰ sobiq kolleksiyasi. Vorisi – Foreste Dyu Rua. Patenti bor. Hamma vaqt hayotda foydalanish mumkin bo'lgan mustahkam narsa, hatto yo'lga ham yaraydi».

U javonni xotirjam yopdi va atay baland qilib dedi:

– Ahmoqlar va g'alamislar har yerda topiladi.

Ammo hamma adabiyotchilar kabi izzat-nafsi kuchli bo'lgan. g'ururi baland Dyu Rua bu narsalarga befarq qaray olmasdi, adabiyotchi odam, odatda, oddiy reportyor bo'ladimi yoki ulug' shoir, baribir, undagi nozik shuhratparastlik va izzat-nafs doimo tez xafa bo'lishga, har narsaga shubhalanib qarab, o'ziga olishga undaydi.

«Foreste» so'zini eshitsa, qulog'i shang'illaydigan bo'ldi: shu so'zni eshitishdan qo'rqadigan bo'lib qoldi, u qulog'iga chalinganda qizarib ketayotganini sezardi.

Bu nom tilga olinganda uning ustidan mazax qilib kulishayotganga, undan ham battarroq haqorat qilib so'kishayotganga o'xshardi. Bu nom uning basharasiga qarata qichqirayotgan kabi bo'lardi: «Senga hammasini xotining qilib berayotibdi, u avval ham birovga shunday qilib berardi. U bo'lmasa, sen halok bo'larding».

Madlena bo'lmasa, albatta, Foreste halokatga uchrashi aniq edi, lekin bu gapning Jorjga sira aloqasi yo'q, kechirasiz, ha!

Shu dilsiyohlik uyda ham davom etardi. Endi bu yerdagi hamma narsa: jihozlar, mebellar, turli mayda-chuydalar, ya'ni u nimagaki qo'l urgan bo'lsa, bari marhumni eslatib turardi. U oldinlari bu haqda sira bosh qotirib o'tirmasdi, biroq hamkasabalari achitib olishlari uning jonidan o'tib ketdi, ko'ksini yaralab qo'ydi, ilgari u ahamiyat ham berib o'tirmaydigan arzimagan narsalardan endi bu yaraning usti ko'char, yangilanardi.

Nimaga qo'l urmasin, hammasida Sharlning sharpasi kezgan-day bo'lib tuyulaverardi. U nimaga qaramasin, nimani qo'liga olmasin, bari oldin Sharlga tegishli narsalar bo'lib chiqardi. Sharl ularni sotib olgan, ulardan foydalangan, ularni avaylagan. Shu darajaga bordiki, hatto Madlena ilgari Sharl bilan birga bo'lgan-ku, degan fikrdan u butkul tinchligini yo'qotib qo'ydi.

Goho ich-etini kemirib borayotgan bu norozilikdan o'zi ham hayratga tushib, ichida derdi: «Menga nima bo'lyapti o'zi? Axir, men Madlenani uning atrofidagi odamlardan rashk qilmayman-ku? U kuni bilan nima qilib yuradi, u bilan ishim bo'lmaydi. Undan qayoqqa ketyapsan, qachon kelasan, deb surishtirib ham o'tirmayman, lekin molga o'xshagan o'sha Foreste esimga tushishi bilan asabim buzilib, qonim qaynay boshlaydi!»

«Aslini olganda, Sharl g'irt tentak ekan, – deb mulohaza qilishda davom etardi u, – hammasidan ham mana shu narsa mening jonimni hiqildog'imga keltiradi. Madlena qanday qilib bu eshshakka turmushga chiqdi ekan, deb xafa bo'lib ketaman».

U o'ziga-o'zi: «Bu molga o'xshaganning nimasi Madlenaga yoqib qolgan ekan?» – deb savol bergani bergan edi.

Arzimagan narsalar yuragiga ignaday sanchilaverib, Madlena, xizmatkor, xodimlarning har bir so'zidan Sharlning nomini eshitganday bo'laverib, uning g'azabi tobora to'lib-toshardi.

Dyu Rua tabiatan shirinlikka o'ch edi.

– Nega biznikida hech shirinliklar yo'q? – so'radi bir kuni kechqurun u. – Sen oldirib kelmaysan.

– To'g'ri, esimdan chiqib qoladi, – sho'xlik bilan javob berdi Madlena. – Gap shundaki, Sharl sira og'ziga olmasdi...

– Menga qara, juda jonimga tegib ketdi-ku, – jahlini yashiro olmay dedi uning so'zini bo'lib Jorj. – Qachon qarama: Sharl, Sharl... uni yaxshi ko'rardi. Sharl buni yaxshi ko'rardi. Sharl o'ldi, endi uni tinch qo'yinglar.

Birdan g'azabi qaynab ketgan eriga Madlena hayratlanib, g'alati bir alfozda qarab qoldi. Lekin ziyrak xotin erini tushundi. Uning ichini marhumga bo'lgan rashk kemirib kelayotganligini va bu har bir daqiqada, har zamon uni eslaganda yanada zo'rayayotganligini fahmladi.

Balki, bu Madlenaga bolalik bo'lib ko'ringandir, lekin ayni zamonada uning qalbi bundan iftixor tuyg'usi bilan to'ldi va u indamay qo'ya qoldi.

Dyu Rua o'zining qilg'idan o'zi uyalib ketdi, lekin o'zini hech idora qilolmay qoldi. O'sha kuniyoq, kechki ovqatdan keyin ular yangi maqolaga o'tirganlarida Jorj gilamchaga qoqilib tushdi. Gilamchani oyog'i bilan to'g'rilay olmagach, uni tepib yubordi.

– Sharlning oyoqlari doim sovqotib yurgan bo'lsa kerak, a? – so'radi u kulib.

Madlena ham kulib yubordi:

– Ha, u doim shamollab qolaman deb qo'rqardi! O'pkasining mazasi yo'q edi.

– Shundayligini u oxirida isbot qildi, – deb jahl bilan uning gapini ilib ketdi Jorj, – bu ham mening baxtimga, deb qo'shimcha qildi u oliftalik bilan va Madlenaning qo'lini olib o'pdi.

Lekin uxlagani yotishayotganda hamon o'sha gap uning miyasidan ko'tarilmagandi.

– Balki Sharl, qulog'imga shamol kirmasin, deb kechasi qalpoq kiyib yotgan bo'lsa kerak, a? – yana to'ngilladi u.

– Yo'q, u boshini shohi ro'mol bilan bog'lab yotardi, – dedi gapni hazilga aylantirish uchun Madlena.

Jorj yelkalarini qisib qo'ydi va o'zining ustunligini sezgan odam qilg'ini qilib, nafratomuz gijjib dedi:

– Voy ahmog'-ey!

Shu kundan e'tiboran Sharl uning og'zidan tushmay qoldi. Bo'lsa-bo'lmasa uni gap ichida tilga olib o'tar, g'oyat achingan kishi bo'lib, «bechora Sharl», deb qo'yardi.

Tahririyatda har kuni uni bir necha bor «Foreste» deb chaqirishar, uyga qaytganda bularning alamini marhumni tahqirlab chiqarganday bo'lardi. U Forestening kamchiliklarini, uning kulgili qiliqlarini, zaifliklarini eslab ketar, ulami birma-bir sanab chiqib lazzatlanganday bo'lar, xuddi xotinining yuragidan marhum haqidagi xotiralarni yulib tashlashga jazm qilganday bechoraning go'riga g'isht qalar edi.

– Menga qara, Mad, – deb gap boshlardi u, – esingdami, bir kuni so'xtasi sovuq Sharl, semiz erkaklar oriqlarga qaraganda kuchli bo'ladi, deb gap so'qigan edi?

Yana biroz vaqt o'tgandan keyin u xotinidan marhumning kishi bilmas nozik tomonlarini surishtirib qolardi. Lekin Madlena uyalib, javob bermasdi. Biroq u aytganidan qolmasdi:

– Voy bo', aytib bera qolsang-chi! Bunaqa vaqtlarda u juda tumtayib, suvga tushgan tovuqdek bo'lib qolgan bo'lsa, kerak, a, to'grimi?

– Bo'ldi, bas qil, tinch qo'y uni endi, – derdi toqati toq bo'lgan Madlena.

Lekin u bo'sh kelmasdi:

– Yo'q, aytib ber menga! To'shakda juda epsiz bo'lsa kerak, a, to'g'rimi? Voy ho'kiz-ey, – deb qo'shimcha qilib qo'yardi har safar.

May oyining oxirlari edi, bir kuni kechqurun u deraza oldida turib papiros chekardi; havo juda ham dim edi, u aylanib kelishni juda istadi.

– Mad, qo'zim, Bulon o'rmoniga bormaymizmi, a?

– Mayli, jonim bilan.

Ular usti ochiq aravaga o'tirishdi. Yelisey maydonlaridan o'tib Bulon o'rmonining xiyobonlariga kirishdi. Parij hammomidek dim bo'lib ketdi, qilt etgan shamol esmasdi, havo shu qadar qizib ketgan ediki, go'yo odam issiqxona ichida turganday bo'lardi. Faytonlar paydar-pay sevishtganlarni tashlab ketardi. Quchoqlashib yurganlarning son-sanog'i yo'q.

Madlena bilan Jorj aravalarda bir-birlari bilan quchoqlashib o'tirgan qora kiygan erkaklar bilan och rangda kiyingan ayollarni qiziqsinib tomosha qilib borishardi. Osmonda yulduzlar charaqlab yotar, havo misday qizib ketgan. Bulon o'rmoniga qarab bir izdihom, jazmanlar izdihomi ketib borardi. Atrofda arava g'ildiraklarining bo'g'iq sasidan boshqa tiq etgan sado eshitilmasdi. Faytonlarda hamon oshiq-ma'shuqlar yelgandan yelib borishar, ular bir-birlarining pinjlariga kirib ketgan, yumshoq o'rindiqlarga o'zlarini tashlagan, oldinda surilajak lazzatli damlarga o'zlarini chog'lagan, o'sha mufarrah damlarning orzusini surgan holda borardilar. Qizib yotgan, g'ira-shira tun bamisoli bo'salarga to'lib ketganga o'xshab ko'rinardi. Kecha ishqning talvasalariga, hirsning o'yinlariga ko'pirib toshganidan havo yanada bo'g'iqroq, og'irroq bo'lib tuyulardi. Yuraklari bir ishtiyoqda o'rtanayotgan, bir gulxanning alangasida yonayotgan oshiq-ma'shuqlarning hammasi atrofga o'zlarini titratgan, jo'sh urdirgan, tinch qo'ymayotgan ehtirosiga to'liq bir hayajon sochib ketmoqda edilar. Isha maskan qurgan aravalar uzra go'yo erka bir ilohalar uchib yurganday bo'lar, ular kishida hayajon qo'zg'ar, odam allanarsalarni qo'msab qolardi.

Jorj bilan Madlenaga ham o'tdi bu behudlik. Ular issiqdan behol bo'lishib, yuraklarini xumor kechani hayajoni chulg'adi, sassizgina qo'llarini ushlab oldilar.

Shahar qo'rg'onlaridan keyin keladigan burilishga yetganda, ular o'pishdilar.

– Huv, Ruan yo'lidagiga o'xshab yana bolalik qilyapmiz, – uyalinqirab shipshidi Madlena.

O'rmonzorga kiraverishda tirband bo'lib borayotgan aravalar ikkiga ajraldi. Bular ketayotgan Ko'l xiyobonida foytunlar ancha siyraklashib qoldi, daraxtlarni qurshagan ko'z ilg'amas tun,

jildiragan jilg'alar, shivirlagan barglardan tozargan havo, yulduzlar sochilib yotgan tungi osmondan quyilib kelayotgan salqin – bularning hammasi oshiq-ma'shuqlarning o'pichlariga o'zgacha bir tarovat, sirli lazzat bag'ishlar edi.

– Qo'zichoqqinam Mad! – deya shivirladi Jorj uni bag'riga tortar ekan.

– Qishlog'ingiz yonidagi o'rmon esingdami, judayam qo'r-qinchli ekan! – Menga hamma yoqdan yovvoyi hayvonlar chiqib kelayotgan bo'laverdi, keyin hech oxiri yo'qqa o'xshab ko'rindi. Bu yer esa juda chiroyli. Shabada xuddi seni erkalayotganday bo'ladi, sen o'rmonning narigi tomonida Sevr borligini bilsang kerak.

– Mening o'rmonimda faqat kiyiklar, tulkilar, echkilar va qobonlar bo'ladi. – deb e'tiroz bildirdi Jorj, – unda-bunda o'rmonchilarning kulbalari uchrab turadi.

Shu bir og'iz so'z, og'zidan bexos otilib chiqqan so'z – marhumning familiyasi uni xuddi o'rmon quchog'idan birov baqirib aytganday Jorjni hayratga soldi va u tilini tishlab qoldi: yana yuragi uvushdi, yana o'sha g'alati va xira, odamning ich-etini yeb yuboradigan, g'ingshib azob beradigan, yengib bo'lmas, hayotini zaharlab kelayotgan rashk chulg'adi xayolini.

– Sen bu yerga hech Sharl bilan kelganmisan? – so'radi Jorj birpas indamay turgach.

– Kelganman, ko'p kelganman, – deb javob berdi Madlena.

Shunda Jorjning yuragi orziqib tushdi, ko'zi tinib ketdi, shu zahoti uyga qaytib ketgisi kelib qoldi. Forestening sharpasi yana xayolida hokim bo'lib o'mashdi, yana unga mislsiz azob bera boshladi. Dyu Rua endi faqat u haqda o'ylab, u haqdagina gapirishi mumkin edi.

– Menga qara, Mad... – g'ingshidi u.

– Ha, jonim.

– Bechora Sharlga muguz qo'yganmiding hech?

– Yana boshladingmi, esingni yeb qo'yibsan! – ijirg'anib debdi Madlena.

Lekin Jorj so'zida turib oldi.

¹ O'rmonchi fransuzchasiga «foreste» bo'ladi.

– Qoʻzichogʻim, qani, rostini ayt! Boshqalar bilan don olisharmiding, aʼ? Ayt, don olishardim, de!

Madlena unga javob bermadi, – hamma xotinlar kabi u ham bu soʻzni yoqtirmas edi.

– Jin ursin, uning boshi muguzga yarashadigan boshlardan edi, – hamon qoʻymasdi Dyu Rua. – Ha, ha, ha! Foreste shu kunga tushganini bilganimda boshim osmonga yetardi. Uning kulgili yuziga muguz nechogʻlik yarashgan boʻlardi, toʻgʻrimi?

Xotini allanimalarni oʻylab jilmayganligini koʻrib Jorj oʻz gapini yana takrorladi:

– Ayta qol! Nima qilibdi aytsang? Boshqa birovga emas, menga aytsang, koʻnglim oʻrniga tushardi-da, lekin.

U chindan ham Sharl, oʻsha soʻxtasi sovuq, qurib ketgur marhum Sharl aldangan erlardan ekanligini juda ham bilgisi kelardi. Shu bilan birga boshqa, hali toʻla anglab yetilmagan bir his unda oʻzgacha qiziqish uygʻotgandi.

– Mad, qoʻzichoqqinam Mad, iltimos qilaman, menga ayt! – gapidan qolmasdi u. – Axir, u shunga sazovor erkak edi-ku. Agar sen shunday qilmagan boʻlsang, hayotingda juda katta xatoga yoʻl qoʻygan boʻlib chiqasan. Qani endi, Mad, boʻyningga ol!

Madlenaga, aftidan, uning bu gaplari ermak boʻlib tuyulmoqdaydi, uning qisqa, asabiy kulib qoʻyishi shundan dalolat berib turardi.

Jorj lablarini uning quloqlari tagiga olib bordi.

– Qani, boʻla qol... qani... ayt! – Madlena siltanib, undan oʻzini nari oldi.

– Buncha tentaksan! – dedi jahli chiqib. – Kim bunaqa savolga ha, deb aytadi?

Bu soʻzlarini u shunday bir ohangda aytdiki, Dyu Rua birdan junjikib ketdi; u tosh boʻlib qoldi, tili kalimaga kelmadi, odamning boshiga toʻsindan ogʻir koʻrgilik tushganda mana shunday boʻlib qoladi, nafas olay desa havo yetishmaydi.

Endi arava koʻl yoqalab ketib borar, osmon goʻyo uning sathidan dona yulduzlarini terayotganday koʻrinardi. Koʻl yuzida oqqush sekingina suzib yurar, ular qorongʻida elas-elas koʻrinardi.

Jorj izvoshchiga: «Qaytar!» – deb baqirdi va foytun orqaga burildi, qarshidan hamon aravalar oʻtib turardi, ularning katta-kon chiroqlari tun qorongʻisida koʻzga oʻxshab yaltirardi.

«Juda g'alati qilib aytdi-ya boyagi gapini! Nima, bu ha, dega-nimi?» – o'zidan so'rardi Dyū Rua. Uning birinchi eriga xiyonat qilganligiga endi u chippa-chin ishonar va bundan tobora quturib ketmoqdaydi. Uni o'lası qilib kaltaklagisi, bo'g'ib tashlagisi, sochlarini yulgisi kelmoqda edi.

O, basharti xotini: «Yo'q, jonim, agar men Sharlga xiyonat qiladigan bo'lganimda ham faqat sen bilan birga bo'lardim», desaydi. Jorj uni erkalagan, keyin boshiga ko'tarib yurgan bo'lardi!

Dyū Rua qo'llarini ko'kragida chalmashtirgancha qimir etmay o'tirar, osmonga qarardi: shu qadar qattiq hayajonlangan ediki, uning zo'ridan boshiga fikr kelmasdi. U faqat yuragida g'azab va qahr bosh ko'tarib kelayotganligim sezib turar – bu xotin kishi-ning injiq ishlari bilan to'qnashganda har bir erkakda yetiladigan bir hissiyot edi. U birinchi marta er sifatida qattiq tashvishga tushib qoldi, yuragini shubhalar bezovta qila boshladi. Bundoq olib qaraganda, u marhum uchun, Foreste uchun rashk qilmoqda edi, bu dahshatli, favqulodda kuchga ega bo'lgan rashk edi, shu rashk tufayli u hozir Madlenani ko'rgani ko'zi, otgani o'qi bo'lmay qoldi. U o'zini Sharlning o'miga qo'yib ko'rди, u Sharlga xiyonat qilgan ekan, Dyū Rua unga nima deb ishonadi endi?

Biroq asta-sekin uning xayoli joyiga tusha boshladi va qalbini timdalab yotgan og'riqni yengishga harakat qilib o'y o'ylab ketdi: «Hamma xotinlar – cho'ltoq supurgi, ularning xizmatidan foydalanish kerak, lekin ularga yurakning qo'rini bermaslik kerak».

Bu so'zlarni, haqoratomuz fikrlarni u alamidan aytmoqdaydi. Lekin ichida aytsa ham, sirtiga chiqarmaslikka harakat qilmoqda edi. «Kim kuchli bo'lsa dunyo shuniki, – derdi u o'ziga o'zi. – Kuchli bo'lish kerak. Bunaqa narsalardan baland turish kerak».

Arava borgan sari tezroq yelib borardi. Shahar qo'rg'onlari orqada qoldi. Dyū Rua oldinda go'yo juda ham katta qo'radan chiqayotganday oq shu'lalami ko'rib ketmoqdaydi. Uning qu-loqlariga elas-elas tinimsiz guvillab turgan shovqin chalinar, bu shovqinga turli-tuman tovushlar chatishib ketgan, u dam yaqinginadan, dam yiroqlardan kelayotganday bo'lar, eshitilar-eshtilmas, ayni choqda hayotning qudratli bu sasi Parijdan kelardi – bu han-

sirab turgan, shu yoz kechasida horg'in yastangan devkor bir nafas Parijning nafasi edi.

«Ahmoq bo'lmasam, shuni deb qonimni buzib o'tiramanmi, – xayol surardi Jorj. – Har kim o'zi uchun javob beradi. G'alaba mardona odamlarga yor bo'ladi. Faqat o'zingni o'ylashing kerak. Lekin boylik va shuhrat orttirish uchun o'zini o'ylash xotinlarning sevgisi va erkalashlari uchun intilgandan ming karra a'lodir».

O'zining bahaybat panjalariga tayangan Zafar arki ko'rindi, – xuddi ulkan bir maxluq shaharga kiraymi, kirmaymi deb turganga o'xshardi, go'yo u oldida turgan yo'ldan hali zamon yurib ketadiganday edi.

Jorj bilan Madlena yana aravalar to'dasi ichiga tushib qolishdi, ularda bir-birlariga chirmashib ketgan oshiqlar sas-sadosiz, o'zlari orziqib intilgan to'shaklar sari ketib borishardi. Ularning tevaragida shodlik, baxt va lazzatdan mahrum bo'lgan barcha odamzod harakatga kelib turganday bo'lib ko'rinardi.

Madlena erining yuragidan kechayotgan narsalami har holda anglab turardi.

– Muncha xayol surib qolding, jonim? – deya so'radi odatdagi mayinlik bilan Madlena. – Boyadan beri indamay kelyapsan.

– Anov takasaltanglarning quchoqlashib ketishini tomosha qilyapman, – dedi miyig'ida kulib Jorj, – rostini aytsam, hayotda ko'p qiziq narsalar ham bor ekan.

– Haa... lekin ba'zan buning o'zgacha lazzati bo'ladi, – sekingina deb qo'ydi xotini.

– Lazzat... lazzat... boshqacha lazzat bo'lmagandan keyin shuda!

Jorjning xayoli uni uzoqlarga olib ketmoqda edi, u dahshatli bir qahr-g'azabga to'lgan holda xotinining hayotini qoplagan yaltiroq niqoblarini yulib tashlamoqda edi. «Tortinchoq bo'lib, o'zingni har narsadan siqib yuborishdan ham rasvo narsa yo'q, keyingi paytlarda ich-etimni yeb, qonimga tashna bo'lib ketdim, o'zimni qiynab tashladim, hammasi ahmoqligimdan». Uning ko'z o'ngida Forestening siymosi gavdalandi, lekin bu endi unga zarracha ta'sir qilmadi. Nazarida, ular hozirgina yarashib olganga, yana o'rtoq bo'lib ketishganga o'xshardi. Uning: «Omonmisan, qariya!» – deb qichqirib yuborishiga oz qoldi.

Uning indamay borishi Madlenani bezovta qilib qo'ydi.

– Yo'l-yo'lakay Tortoniga kirib muzqaymoq olib chiqsak yaxshi bo'lardi, – deb taklif qildi u.

Jorj unga qirg'iy qarash qilib qo'ydi. U qaragan onda kafe-shan-tanga chaqirib chorlagan marjondek terilgan gaz chiroqlarning shu'lasini Madlenaning nafis, nozik yuzlariga va go'zal sochlariga tushib porlab ketdi.

– «U juda chiroyli, – deb o'yladi u. – Mayli, bu ham yaxshi. Sen bilan ikkimizni, kaptarim, ovi yurmasa ham dovi yurganlardan deyish mumkin. Biroq xizmatdoshlarim yana jonimga tegishadigan bo'lsa, ularning boplab ta'zirini beraman, bir umr eslaridan chiqmaydigan bo'ladi».

Keyin xotiniga qarab: «Jonim bilan, azizim», – dedi-da, uning ko'nglini joyiga tushirish uchun o'pib qo'ydi.

Madlenaga erining lablari muzdek bo'lib tuyuldi. Ammo kafening eshigida turib, xotinini ekipajdan tushirar ekan, u odatdagiday jilmayib turardi.

III

Ertasiga tahririyatga kelib Dyu Rua Buarenarga uchrashdi.

– Aziz do'stim, – dedi u, – sendan bir iltimosim bor. Keyingi kunlarda ba'zi bir hazilvonlar meni «Foreste» deb chaqirishni yoqtirib qolishibdi. Bu g'ashimga tega boshladi. Jon do'stim, ularga aytib qo'y, kimdakim yana shunday qilsa, basharasiga tarsaki tortib yuboraman. O'yindan o'q chiqargilari kelayotgan bo'lsa, ularning ishi. Buni senga aytayotganimning sababi, sen o'zini bosib olgan odamsan, bu ishni urish-janjalsiz bosti-bosti qila olasan. Ikkinchi tomondan, bir marta mening sekundantim bo'lib ko'rgansan.

Buarenar bu topshiriqni bajarishni bo'yniga oldi.

Dyu Rua turli ishlar bilan ovora bo'lib ketib, bir soatdan so'ng qaytib keldi. Endi hech kim uni «Foreste», deb chaqirmadi.

Uyga kelsa, mehmonxonadan xotinlarning gaplashib o'tirgan ovozlari eshitildi.

– Kim keldi? – so'radi u.

– Valter xonim bilan de Marel xonim, – javob berdi xizmatkor.

Jorjning yuragi bir hapriqib tushdi. lekin shu zahoti o'ziga o'zi: «E. nima bo'lsa bo'lar!» – deb taskin berdi va eshikni ochdi.

Klotilda kamin oldida o'tirgan ekan, derazadan unga yonug' tushib turardi. Jorjni ko'rib biroz oqarib ketganday bo'ldi. Oldin ikki qizini ikki yoniga soqchiday qilib olib o'tirgan Valter xonimga ta'zim qilib, keyin o'z ma'shuqasiga o'girildi. Klotilda unga qo'lini uzatdi, Jorj uning qo'llarini olib, «Sizni hamon ilgarigiday sevaman», degan ma'noda siqib qo'ydi. Klotilda buning ma'nosini tushundi.

– Yaxshi yuribsizmi? – so'radi Jorj. – Ko'rishmaganimizga ham ancha bo'lib ketdi.

– Yaxshi. O'zingiz-chi, Azizim? – hech narsa bo'lmaganday so'radi u o'z navbatida va Madlenaga qarab dedi: – Uni avvalgiday Azizim deb aytсам maylimi?

– Bemalol, jonim, senga hammasiga ruxsat beraman.

Uning ovozida andak kinoya ham yo'q emasdi. Valter xonim Jak Rival o'z uyida o'tkazmoqchi bo'lib yurgan yig'in haqida hikoya qilib berdi, unda zo'r qilichbozlik bo'larkan, kibor xonimlar ham bu yig'inda ishtirok etisharkan.

– Juda ajoyib bo'ladi, – dedi u. – Lekin men nima qilishimni bilmay qoldim. Kim bilan borishimni bilmayman, erim o'sha kunlari bir joyga ketadigan.

Dyu Rua darhol, men olib boraman, dedi. Valter xonim rozi bo'ldi.

– Qizlarim bilan hammamiz sizdan juda minnatdor bo'lar edik.

Dyu Rua opa-singillarning kenjasiga qarab: «Bu kichkina Suzannasi tuzukkina ekan, popukdakkina ekan», deb xayolidan kechirdi. Qiz mo'jazzgina, juda kelishgan, chikka bel, ko'kraklari endigina bo'rtgan, ajib bir musavviming qalami bilan chizilganday yuzlari nafis, mayin, moviy ko'zlari yonib turgan bu qiz oppoq, nozikkina qo'g'irchoqni eslatardi, uning sut kabi oq, benihoya tinliq va silliq badani va ataylab to'zg'itib qo'yilgan jingala jamalak sochlari qimmatbaho chiroyli qo'g'irchoqlarnikidan farq qilmas, lekin bunaqa qo'g'irchoqlarni ko'tarib yuradigan bolalardan u ancha bo'ydorroq edi.

Uning opasi Roza xunuk: oriq, ko'rimsiz, odam qaragisi, gaplashgisi kelmaydigan odmi qizlardan edi.

Valter xonim o'rnidan turdi.

– Demak, umidimiz sizdan, – dedi u Jorjga. – Kelasi hafta payshanba kuni soat ikkiga.

– Bosh ustiga, xonim afandim, – dedi Jorj.

Ular chiqib ketishlari bilanoq de Marcel xonim o'rnidan turdi.

– Ko'rishguncha, Azizim.

Bu safar endi u Jorjning qo'lini uzoq mahkam siqib turdi. Bu qo'l olishuv Jorjga ko'p narsalarni anglatdi, u to'liqlanib ketdi, shunda birdan u yana shu do'lti, oqko'ngil do'ndiqcha bilan birga bo'lgisi keldi, balki meni chinakam sevadigan birdan bir xotin shudir, deb ko'nglidan o'tkazdi u.

«Ertagayoq uning oldiga boraman», degan qarorga keldi Jorj.

Er-xotin yolg'iz qolishgach, Madlena quvnoq, samimiy kulib yubordi va eriga zehn solib qarab, so'radi:

– Bilasanmi, Valter xonim senga oshiqi beqaror bo'lib qolibdi.

– E. qo'ysang-chi! – ishonqiramay dedi Jorj.

– Rost, rost, chin so'zim: seni tilga olsa og'zidan bol tomadi. U hech bunaqa emas edi! Qaniydi qizlarimning erlari ham Jorjga o'xshagan bo'lsa deydi!.. Yaxshiyamki, o'zi bunaqa ishlardan ancha uzoqda.

Xotini bu bilan nima demoqchi bo'lganligini u tushunmadi.

– U nima deganing?

– O, Valter xonim umrida biron marta ham g'iybat bo'ladigan ishlarni qilmagan, tushundingmi? Hecham, hecham! – qattiq ishonch bilan dedi Madlena. – Chinakam qo'y og'zidan cho'p olmagan xotin. Erini ham yaxshi bilasan. Lekin o'zi – butunlay boshqacha. Darvoqe, yahudiyga turmushga chiqdim, deb juda o'ksinib yurardi, lekin unga sira ham xiyonat qilmadi. Juda ham esli xotin.

Dyu Rua hayron bo'ldi:

– Men uni ham yahudiy deb yuribman.

– Umi?! Hecham-da. U Madlen mavzedagi barcha xayriya jamoalarining ishiga bosh-qosh bo'lib yuradi. U hatto nikohini ham cherkovda o'qitgan. Faqat xo'jayinning yo'liga cho'qinganmi yoki ruhoniylar bunga barmoq orasidan qarashganmi, bilmayman.

– U... rostdan ham... meni... Yaxshi ko'rib qolibdimi? – g'o'ldiradi Jorj.

– Es-hushini yo‘qotgan. Agar sen salt bo‘lganingda, senga Syuzannaga uylan... deb maslahat bergan bo‘lardim, to‘g‘rimi, u Rozadan chiroyli, a?

– Oyisi ham hali binoyiday! – dedi u murtlarini burab.
Madlenaning jahli chiqdi:

– Oyisiga kelganda, jonim, senga bir narsani aytay: bekor ovora bo‘lma. Bundan cho‘chiydigan joyim yo‘q. U zino qiladigan yoshdan o‘tgan. Oldinroq esing qayerda edi?

«Nahot, men rostdan ham Syuzannaga uylanishim mumkin edi!» – derdi o‘ziga-o‘zi Jorj.

Keyin u yelkalarini qisib qo‘ydi:

«E, bo‘lmagan gap!.. Otasi bunga o‘lsayam rozi bo‘lmas!»

U o‘ziga qanday naf tegishiga hali yaxshi hisob qilmagan holda, omadi bir gap deb Valter xonimni ko‘z ostiga olib yurishni yuragiga tugib qo‘ydi.

Kechasi bilan u Klotilda ikkovlari o‘tkazgan kunlar haqida shirin xotiralarga berilib chiqdi, tuyg‘ulari yana junbushga keldi. Uning sho‘xliklari, noz-karashmalari, erkalashlari, birgalikda kechirgan lazzatli onlarini eslab yotdi. «Juda dilbar xotinda, – derdi u o‘ziga o‘zi. – Ertagayoq uning oldiga borganim bo‘lsin».

Ertasiga u nonushtadan keyin chindan ham Verney ko‘chasiga qarab ravona bo‘ldi. Eshikni yana o‘sha xizmatkor qiz ochdi va bunaqa xonadonlardagi xizmatkorlarga odat bo‘lib ketgan beparvolik bilan so‘rab qo‘ydi:

– Yaxshi yuribsizmi, afandim?

– Juda yaxshi, qizaloq, – deb javob berdi Jorj va mehmon-xonaga kirdi. Kimdir fortepianoni ting‘illatayotgan edi. Lorina ekan. Jorj u meni achomlab olsa kerak, deb o‘ylagandi. Biroq u jiddiy qiyofada o‘midan turib, kattalarday sipolik bilan salomlashdi-da, mag‘rur yurib chiqib ketdi.

Lorina o‘zini diliga ozor yetgan xotinlarday tutdi, bu narsa Jorjni hayratga soldi. Onasi kirdi. Dyu Rua uning qo‘lini o‘pdi.

– Es-hushim doimo sizda bo‘ldi! – dedi u.

– Meniki esa, sizda, – dedi Klotilda ham.

Ular o‘ltirdilar. Bir-birlariga qarab to‘yishmas, og‘izlaridan tabassum arimasdi, ikkovlarining ham o‘pishgilari kelib turardi.

– Azizim, erkam Klo, sizni sevaman.

– Men esa, seni.
– Unda... unda... mendan xafa emasmisan?
– Nima desam ekan... Avvaliga qiynaldim, keyin sen haq ekanligingni tushundim va o'zimga o'zim: «Hechqisi yo'q, erta-mi-kech yonimga, albatta, qaytib keladi», deb taskin berdim.

– Men oldingga kelishga qo'rqqdim, qay yuz bilan boraman dedim, haydab yuborsa kerak, deb o'yladim. Shuncha qo'rqqanim bilan, baribir, hadeb kelgim kelaverardi. Aytganday, bu Lorinang-ga nima bo'ldi? U zo'rg'a salomlashib, qovog'ini solgancha chiqib ketdi.

– Bilmadim. Lekin uylanganingdan beri seni ko'rarga ko'zi bo'lmay qolgan. Yana seni rashk qilarmikin deyman.

– Qo'y-e!

– Chin gap, jonim. U seni endi Azizim deb emas, «janob Fo-reste» deb ataydi.

Dyu Rua qizarib ketdi.

– Ke, lablaringni ber, – dedi u Klotildaga yaqin surilib.

Uning istagi bajo etildi.

– Endi qayerda uchrashamiz? – so'radi Dyu Rua.

– Ha-ya... Konstantinopolda-da.

– Iye!.. Kvartirani haliyam topshirmaganmisan?

– Yo'q... Saqlab qo'ydim!

– Saqlab qo'yding?

– Ha, men qaytib kelishingga ishonuvdim.

Shu tobda uning yuragini to'ldirgan shodon tuyg'ularni sig'di-rishga ko'krak qafasi torlik qilib ketdi. Demak, bu xotin uni sevadi, demak, bu nishona.

– Seni jonimdan ham sevaman, – deya shivirladi u va jim bo'lib qoldi, keyin so'radi: – Eringning ishlari yaxshimi?

– A'lo. U bir oy turib, yana ketdi, uch kun bo'ldi.

Dyu Rua o'zini kulgidan to'xtatolmadi:

– Ayni muddao!

– Ha, ayni muddao! – soddadillik bilan qo'shildi Klotilda. – Darvoqe, o'zi borligida ham menga halaqit bermaydi. Bilasan-ku!

– Ha, to'g'ri. Rostini aytsam, u juda ham yaxshi odam.

– O'zing qalaysan? Oila qurish qanday bo'lar ekan? – so'radi u.

- Yomon emas, Xotinim – menga hamdam, yordamchi.
- Shu xolosmi?
- Shu xolos. Yurak esa...
- Tushunarli. Lekin u dilbar xotin.
- Shunaqa, lekin ko'nglim birdek. Endi qachon ko'rishamiz? –

Klotildaga yana ham yaqinroq surilib so'radi Jorj.

- Mayli, menga desa... ertaga agar xohlasang?
- Yaxshi. Ertaga soat ikkida, a?
- Ikkida.

Jorj o'z midan qo'zg'aldi va keta turib tortingan holda dedi:

– Bilasanmi, Konstantinopoldagi uyni men o'z nomimga o'tkazmoqchiman. Gap shu. Sen endiyam men uchun to'lab yurishingni istamayman!

Klotilda mehri toshib, uning qo'llaridan o'pdi.

– Sen nima desang shu, – shivirladi u. – Uni saqlaganimning o'zi menga yetadi, sen bilan ko'rishib tursak bas.

Dyu Rua g'oyatda mamnun bo'lib chiqib ketdi.

U fotografning vitrinasi yonidan o'tib keta turib, shahlo ko'z lozar bir xotinning suratiga ko'zi tushdi va bu surat unga Valter xonimni eslatdi. «Chakki emas, – dedi u o'ziga-o'zi, – hali chiqitga chiqishiga ancha bor. Nega shu paytgacha unga e'tibor bermabman-a! Qiziq, meni payshanba kuni u qanday kutib olarkin?»

U xursand bo'lib ketganidan qo'llarini bir-biriga ishqab borardi, har yerda omadi kelib turganidan boshi osmonga yetgandi, nazarda, hozir tog'ni ura talqon qilishga chog'i yetardi, bundan tashqari hozirgi xandon-xushon yurishiga xotinlar o'rtasida orttirgan e'tibori ham sabab bo'lgandi, bundan u o'zini yettinchi osmonda yurganday his qilar, qongan nafsoniyat unda g'urur hissini uyg'otardi.

Payshanba kuni u Madlenadan so'radi:

– Sen Rivalnikiga borasanmi?

– O, yo'q! U yerga borgim kelmay turibdi, men deputatlar palatasiga boraman.

Havo juda charaqlab turar, shuning uchun Dyu Rua Valter xonimni olib ketgani usti ochiq ekipajda bordi.

Valter xonimni ko'rib uning og'zi ochilib qoldi, – ko'zlariga juda ham yosh ko'rinib ketdi. Xonim kiygan yorqin ko'ylakning

korsaji oppoq to'rlar bilan qoplangan, to'rlar tagida bo'liq baland ko'kraklar bo'rtib ko'rinardi. Dyū Rua uni bu qadar yasharib ketgan holda ko'raman deb sira o'ylamagandi. Ichida do'ndiqqina ekan, deb qo'ydi. Lekin uning butun qiyofasidan yaxshi tarbiya ko'rgan, o'zini bosib olgan, bolalariga mehribon xotin ekanligi ko'rinib turar, unda erkaklarning shashtini qaytarib turadigan al-lanima ham bor edi. Buning ustiga uning aqli hushi joyida, qu-yushqondan tashqari chiqmas, har bir so'zini o'ylab, mulohaza bilan gapirar, gapirganda ham, barchaga ma'lum gaplarni hech kimning nafsoniyatiga tegmaydigan qilib aytardi.

Boshdan-oyoq pushti rang kiyingan Syuzanna rassom Vatto-ning hozirgina lak berilgan kartinasini eslatar, opasi Roza esa bu go'zal qo'g'irchoqqa qarab turadigan guvernantkaga o'xshardi.

Rivalning uyi oldida ekipajlar qatorlashib ketgan ekan. Dyū Rua xonimga qo'lini uzatdi va ular ichkari kirdilar.

Turnir Parijning oltinchi okrugidagi yetim-yesirlar foydasi-ga o'tkazilayotgan ekan. Uni o'tkazishda «Fransuz hayoti» bilan bog'liq bo'lgan senator va deputatlar-nng xotinlari bosh-qosh bo'lib turishgan ekan.

Valter xonim qizlarim bilan birga qatnashaman, lekin unga bosh-qosh bo'lmayman deb aytgan ekan: chunki u ruhoniylar to-monidan fatvo berilgan xayriya ishlaridagina qatnasharkan. Bunda gap uning Xudojo'yligida emasdi, aslida, u yahudiya turmush-ga chiqqanligidan o'zini ma'lum darajada dindor qilib ko'rsatish majburiyatini bo'yniga olgan, shunday qilsam yaxshi bo'ladi deb ishonardi. Jurnalist tomonidan uyushtirilgan yig'in esa, respublika miqyosiga chiqar va g'ayridiniy yig'in taassurotini qoldirishi mumkin edi.

Turnirdan uch hafta ilgariyoq gazetalarda quyidagi gaplar bosib chiqarilgandi:

«Muhtaram kasbdoshimiz Jak Rival porloq va olijanob bir fikrni ma'lum qildi: u o'z uyidagi ajoyib qilichbozlik qilish mum-kin bo'lgan zalda katta turnir o'tkazmoqchi va undan tushgan foy-dani oltinchi Parij okrugining yetim-yesirlariga iona qilmoqchi.

Taklifnomalarni senatorlarimizning ahli ayollari bo'lmish: Lalan Remontel pa Risolen xonimlar hamda mashhur deputat-larimizdan Larosh-Mate, Perserol va Firmenlarning xonimlari

tarqatadilar. Ionalar antrakt paytida yig'iladi va shu zahoti oltinchi okrugning meri yoki uning yordamchisiga topshiriladi».

Bunday zo'r reklamani ustamon jurnalist o'z g'arazi yo'lida o'ylab chiqargan edi.

Jak Rival mehmonlarni uyining oldida peshvoz turib kutib olar, shundoq kiraverishda bufet tashkil etilgan bo'lib, uning xarajatlari o'rta taga tushgan puldan qoplanar edi.

Jak Rival kelganlarni qilichbozlik zali bilan tir joylashgan podvalga taklif etar, podvalga torgina zina orqali tushilardi.

– Pastga, xonim afandim, pastga tushasiz. Turnir yer osti zalida bo'ladi.

Rival o'z noshirining xotinini ko'rib qolib, unga tomon peshvoz chiqish uchun yugurdi. Keyin Dyu Ruaning qo'lini siqdi.

– Salom, Azizim.

Dyu Rua hayron bo'lib qoldi.

– Sizga kim aytdi...

Rival uni gapirtirmadi:

– Mana, Valter xonim o'zlari. Ukishiga laqabingiz juda yoqar ekan.

Valter xonim qizarib ketdi.

– Rostdan ham, agar biz yaqinroq tanish bo'lganimizda sizni xuddi Lorinaga o'xshab Azizim deb chaqirgan bo'lar edim. Sizga bu juda yarashadi.

Dyu Rua kulib yubordi.

– Bemalol, bemalol, xonim afandim, chaqiravering.

Xonim ko'zlarini yerga tikdi.

– Yo'q. Buning uchun siz bilan yaqin bo'lishimiz kerak.

– Men fursati bilan yaqin bo'lib ketishimizga ishonsam bo'ladimi? – deya so'radi Dyu Rua ovozi pasaytirib.

– Kelajak ko'rsatadi, – deb javob berdi xonim.

Dyu Rua xonimni oldinga o'tkazib, gaz chiroqlar yoqib qo'yilgan zinadan pastga tusha boshladi. Kunduzning yorug'idan birdan gazning sarg'ish shu'lasiga kirganda; odam g'alati bo'lib ketarkan. Aylanma zinadan tushayotganda dimoqlariga yerto'laning namxush, zax, ili-miliq hidi urildi. Devorlar mehmonlarning kelishiga artib, tozalab qo'yilgandi, buhur olovining dudi, iris, oq qarag'ay, binafsha isli atirlarning hidlari anqib yotardi...

Pastki zaldan tomosha bo'lishini kutayotganlarning vag'ir-vug'ur sadolari eshitilib turardi.

Zalning hamma yog'iga shoda-shoda gaz chiroqlar va Venetsiya fonarlari osib tashlangan, chiroqlar mog'or bosgan g'isht devor ko'rinmasligi uchun to'sib qo'yilgan ko'k o'tlar ichidan yiltirashib turishardi. Qayerga qaramang, hammayoqni shox-shabbalar bosib ketgandi. Zalning shiftiga paparotniklar osib tashlangan, polga gullar bilan barglar to'shalgandi. Yig'ilganlar zalning bezagidan va g'aroyib ko'rinishidan qoyil bo'lib, mezbonni maqtashardi.

Zalning ichkarisida yana kichikroq bir zal bo'lib, unda sahna joylashgan, sahnaning ikki tomoniga qator qilib jyuri uchun kursilar qo'yilgandi.

Tomoshabinlar uchun zalning ikki tomoniga har qatorda o'ntadan qilib stul qo'yilgan, joy ikki yuz kishiga mo'ljallangan. To'rt yuz odam taklif qilingandi. Sahnaning oldida qilichbozlarning kiyimlarini kiyib olgan qo'llari uzun-uzun, baland bo'yli, qotmadan kelgan yosh yigitlar mo'ylablarini burab, ko'krak kerib turishardi. Tomoshabinlar ularning nomlarini aytib, bir-birlariga ularning qaysi birlari havaskor-u qay birlari professional, qaysilari mashhur ekanligini ko'rsatishardi. Qilichbozlarnikiga o'xshab ketadigan maxsus kiyim va syurtuk kiygan yosh-qari aralash erkaklar ularning tevaragida o'zaro suhbatlashib turishardi. O'zini vallomat va qilichbozlikdan xabardor deb bilgan bu kishilar ham o'zlarini odamlarga ko'rsatib qo'ygilari kelib turardi. Ular ham odamlar o'z nomlarini tilga olishlarini istardilar.

Deyarli barcha o'rirlarni egallab olgan xonimlar chug'ur-chug'ur qilishar, ko'ylaklarining shildiragani eshitilardi. Yaprog'-u shox-shabbaga to'lgan zalda havo yetishmas, xonimlar xuddi teatrdagi o'tirgandek o'zlarini yelpig'ichlar bilan yelpib o'tirishardi.

– Orshad! Limonad! Pivo! – deb qichqirib qo'yardi ba'zi bir hazilkash.

Valter xonim qizlari bilan o'zlariga olib qo'yilgan birinchi qatordagi joyga o'tib o'tirdi. Dyu Rua ularni o'tqazdi-da, ketmoqchi bo'lib dedi:

– Men boshqa yerda bo'laman, erkaklarga o'tirishga ruxsat yo'q.
– Menga qolsa, yonimizda bo'lishingizni istardim, – botinqiramaygina – dedi Valter xonim. – Siz menga tumir qatnashchilarini

tanishtirib turar edingiz. Balki, shu o'rtada tursangiz hech narsa qilmas, xalaqit ham bermaysiz-ku.

Xonim unga o'zining olxo'riday katta-katta muloyim ko'zlarini tikib turardi.

– Rostdan ham, biz bilan qoling, janob... janob Azizim, – qo'ymasdan so'rardi u. – Siz yonimizda bo'lishingiz kerak.

– Bosh ustiga, xonim afandim... jonim bilan, – dedi Jorj.

– Juda boplashibdi, juda chiroyli qilib bezatishibdi, – degan gap-so'zlar eshitilardi.

Jorj bu kungurali zalni yaxshi bilardi. U duel bo'ladigan kuni ertalab bu yerda yolg'iz o'zi qolganini esladi, o'shanda ikkinchi zalchaga qo'yilgan oq karton doira ulkan maxluqning ko'zlariday unga lo'q bo'lib tikilib turgandi.

– Xonim afandilar, hozir boshlaymiz, – zinadan tushib kelayotgan Jak Rivalning ovozi eshitildi.

Shu zahoti syurtuklari badanlariga yopishib turgan oltita erkak sahnaga chiqib, jyuriga qo'yilgan stullarga borib o'tirishdi.

Bir zum ichida zalga ularning nomlari ma'lum bo'ldi. Bular: ushoqqina shopmo'ylov kishi, jyuri raisi general Reynaldi, novchadan kelgan, tepakal, uzun soqol qo'ygan rassom Jozefen Rude, Mateo de Yujar, Simon Ramonsel va Per de Karven uchovi kelishgan yosh yigitlar va taniqli master Gaspar Merleron edi.

Sahnaning chap va o'ng tomonlariga ikkita plakat osildi. Ularning birida: «Janob Krevker», boshqasida, «Janob Plyumo» deb yozib qo'yilgandi.

Bular ikkinchi kategoriyali chinakam masterlar edi. Ularning har ikkovlari ham qotma, o'zlarini harbiycha tutgan, harakatlari tezkor edi, ular sahnaga ko'tarildilar. Bir-birlariga avtomatlarga o'xshab salom berdilar-da, hujum boshladilar. Ular polotno va oq teridan kostyum kiyib olishgan, xalqqa ermak uchun soldat kiyimini kiyib olgan masxarabozlarga o'xshashib ketardilar.

Vahti-vahti bilan «Tegdi!» degan so'z eshutilib qolar, shunda sudyalar ham bilag'onlik bilan boshlarini qimirlatib qo'yishardi. Tomoshabinlar sahnada qo'llarini cho'zib yurgan ikki tirik qo'g'irchoqdan boshqa hech narsani ko'rmasdi; ular hech narsaning fahmiga ham borishmasdi, lekin hammalari mamnun edilar. Shunday bo'lsa ham ular har holda bu ikki tirik tovonlar unchalar nafis

harakat qilmayotganligini, buning ustiga biroz kulgili bo'lib ko'rinayotganligini sezib turar edilar. Esga, beixtiyor, Yangi yil arafasida xiyobonlarda sotiladigan yog'och polvonlar tushib ketardi.

Birinchi qilichbozlar o'ringa Karapen va Plapton degan janoblar chiqishdi – ularning biri harbiy, ikkinchisi jaydari odam edi. Metr Planton pakana, Metr Karapen – semiz edi. Xuddi birinchi zarbadayoq bu odam dami chiqarib yuborilgan rezina filday pis etib o'chadiganga o'xshardi. Tomoshabinlar kulib yuborishdi. Planton janoblari xuddi maymunga o'xshab dikillardi. Janobi Karapen faqat qo'li bilan harakat qilar, semizligidan gavdasini qimirlatolmasdi. U har besh daqiqada xuddi favqulodda bir qarorga kelgan odamga o'xshab bazo'r qo'lini qimirlatib hujum qilib qo'yardi. Shundan so'ng u har safar zo'rg'a qaddini rostlab olardi.

Biladigan odamlar u o'yinni shoshmasdan, ishonch bilan olib boradi deyishardi. Har narsaga ishonaveradigan tomoshabinlar boshlarini liqillatib bu fikrga qo'shilishardi.

Keyin Poron va Lapalm degan janoblar chiqishdi – ularning biri professional, ikkinchisi havaskorlardan edi, vahshiyona bir gimnastika boshlanib ketdi: ular bir-birlariga shiddat bilan hujum qilishar, sudyalar qo'rqib stullarini ko'tarib o'zlarini chetga olishardi. Sahnaning u burchidan bu burchiga yugurib borib qolishar, biri hujum qilganda ikkinchisi dikonglab sakrab qochardi, odamning kulgisi qistardi. Ular mayda-mayda sakrashib orqaga chekinganlarida xonimlar hiringlab kulishar, shitob bilan hujumga o'tganlarida esa odamlar hatto hayajonlanib ham qo'yishardi. Bitta hazilvon bu badantarbiya mashqlarni ko'rib:

– Muncha jon kuydirasizlar, soatbay haq to'lashadi-ku! – deb qo'ydi.

Tomoshabinlar bu odobsizning qilig'idan norozi bo'lishdi. Ekspertlarning fikrlari tomoshabinlar o'rtasida tarqaldi: qilichbozlar juda jonbozlik ko'rsatishibdi, lekin ularga andak topqirlik yetishmabdi.

Birinchi bo'lim Jak Rival bilan taniqli belgiyalik qilichboz Lebeg o'rtasidagi porloq bir jang bilan tugadi. Xonimlarga Rival juda yoqib qoldi. U chindan ham o'zidan oldin sahnaga chiqqanlarga qaraganda chaqqonroq, ustaroq, kelishganroq, xushbichim kishi edi. U o'zining kiborlarcha nozik, nafis harakatlari, hujum va

himoyada o'ziga xos yo'sinda harakat qilishi bilan jur'atli, lekin o'yini siyqa harifidan ancha ajralib turardi:

– Tarbiya ko'rgan odamning sadag'asi ketsang, arziydi,– deyishardi tomoshabinlar.

G'alaba Rivalga tegdi. Unga qarsaklar chaldilar.

Biroq tomoshabinlar tepadan eshitilayotgan shovqin-suronga birmuncha vaqtdan beri bezovta bo'lib quloq solishardi. Guldiragan qah-qahalar, tapir-tupur oyoq tovushlari tinmasdi. Taklif qilinganlardan ikki yuz chog'li odam pastga tushishning ilojini topolmay o'zlariga ermak topib olganga o'xshardilar. Tor aylanma zinada elliktacha odam uymalashib turishardi. Pastda nafas olib bo'lmay qoldi. «Havo beringlar!», «Suv!» degan baqiriq-chaqiriqlar eshitilib turardi. Boyagi hazilvonning hamon chinqirgan ovozi eshitilardi: «Orshad! Limonad! Pivo!»

Qip-qizarib ketgan, hali qilichbozlik kiyimini yechib ulgurmagan Jak Rival paydo bo'ldi.

– Men muzdek ichimliklar keltirishlarini aytaman, – dedi u va zina tomonga yugurgilab ketdi.

Lekin birinchi qavatga o'tib bo'ladiganga o'xshamasdi. Zinalarda uymalangan izdihomdan o'tgandan ko'ra shiftini teshib chiqish osonroq edi.

– Aytinglar, xonimlarga morojniy keltirishsin! – qichqirdi Rival.

– Hoy, muzqaymoq keltiringlar! – guldiradi birdan ellik chog'li ovoz.

Nihoyat, patnis ko'rindi. Lekin uning ustidagi stakanlar bo'm-bo'sh edi, muzqaymoqni yo'lda ilib ketishibdi.

– Bu yerda bo'g'ilib o'lasan, – kimningdir yo'g'on xirqiragan ovozi eshitildi, – tugasa ham bo'lardi, uyga ketaylik.

– Pul yig'ing! – qichqirdi kimdir.

Shunda og'ir nafas olayotgan, lekin hamon shod-xurram tomoshabinlar baravariga baqira boshlashdi:

– Yig'ilsin! Yig'ilsin! Yig'ilsin!

Oltita xonim qatorlar oralab yura boshladilar, sumkachalarga tushayotgan kumush tangalarning jiringlashi eshitila boshladi.

Dyu Rua Valter xonimga mashhur kishilarni tanishtira boshladi. Bular kiborlar, qadimdan beri nashr qilinib kelinayotgan gaze-

talarning xodimlari. «Fransuz hayoti»ga unchalar mensimay, tajribada koʻrganlari uchun uning ishlariga ishonqiramay qaraydigan jumalistlar edi. Baʼzan aldam-qaldam bilan yuzaga chiqib qolib, soʻng ishi kasodga uchragan Vazirlikning vayronalari tagida yoʻq boʻlib ketgan siyosiy-moliyaviy varaqalarning qancha-qanchasini koʻrishdi ular! Koʻpchilik rassom va haykaltaroshlar sportga juda qiziqadilar, shuning uchun ham bu yerda har ikkita kasbning namoyandalari bor edi: yigʻilganlar ichida akademik shoir ham boʻlib, hammaning koʻzi unda edi, yana ikkiga kompozitor bilan ancha-muncha chet elliklar ham boʻlib, Dyū Rua ularning familiyalari yoniga ashaddiy («ashaddiy firibgar» soʻzidan) soʻzini qoʻshib aytardi, buni u tashrif qogʻozlarida familiyalari oldiga «esk¹» soʻzini qoʻshib yozadigan mglizlardan oʻrganganman derdi.

– Salom, qadrdon doʻstim! – dedi unga kimdir.

Graf de Vodrek ekan. Dyū Rua xonimlardan uzr soʻrab uning oldiga bordi.

– Vodrek xoʻp gʻalati-da,– deb aytdi u qaytib kelgach – Nasli tozaligi shundoq bilinib turadi!

Valter xonim javob bermadi. U biroz charchab qolgandi, Dyū Rua uning har nafas olganda koʻtarilib tushayotgan koʻkraklaridan koʻzlarini uzmas, dam-badam qarab qoʻyardi. Goho-goho xonimning botinmaygina oʻziga qarab qoʻyayotganligini sezib qolar, uning nazarida sarosima va hadiksirash aks etar, soʻng darhol koʻzlarini olib qochardi. «Xoʻsh, xoʻsh, xoʻsh... – derdi u oʻziga oʻzi. – Nahotki, bunisi ham ilindi?»

Pul yigʻuvchilar butun zalni aylanib chiqishdi. Ularning sumkachalari kumush bilan oltinga toʻlib ketgandi. Endi sahnaga qandaydir «zoʻr oʻyin» haqida yangi plakat osib qoʻyildi. Tomoshabinlar ilhaq boʻlib kuta boshladilar. Jyuri aʼzolari oʻz oʻrinlarini egalladilar

Qilichbozlik kiyimidagi ikki xotin qoʻllarida qilich bilan paydo boʻlishdi: koʻylaklari qora trikodan boʻlib, yubkalari tizzalaridan yuqori, baland plastronda boʻlganlaridan kallalarini yuqoriga silkib-silkib qoʻyardilar. Ularning ikkovlari ham yosh, xushbichim edilar. Ikkovlarining ham yuzlaridan tabassum arimas, tomoshabinlarga taʼzim qilishardi. Ularga uzoq qarsak chalishdi.

¹ Esk – inglizcha eskvayr soʻzidan, boy-badavlat zodagon.

Biroq mana, ular o'z o'rinlarini egallashdi na tomoshabinlar o'rtasida sho'x pichir-pichir boshlandi, kulgilar eshitildi.

Sudyalar har bir zarbaga «balli», deb qo'yishar, og'izlari quloqlariga yetguday bo'lib jilmayishardi.

Bu ikki qilichboz tomoshabinlarga juda ham yoqib qoldi: ular erkaklarga qalblarining nozik torlarini chertib yoqib ketgan bo'lsa-lar, xotinlarga yaxshi, odatdan tashqari ermak tomosha ko'rsatganlari uchun ma'qul tushdilar, bunaqangi biroz bepardaroq o'yinlarga havas parijliklarning qonida bor bo'lib, ularga qanday bo'lmasin ermak bo'lsa, yasama bo'lsa ham chiroyli va nafis bo'lsa bas. Ularning yengil-yelpi qo'shiqlar, kafe-shantanlarning qo'shiqchilarini sevishlari ham shundan.

Har safar qilichbozlik qilayotganlardan biri zarba bersa, zal jonlanib, to'lqinlanishardi. Bunday paytda ikkinchi qilichboz tomoshabinlarga orqa o'girib turgan bo'lar, shunda tomoshabinlarning ko'zlari to'rtta bo'lib ketar, og'izlarini ochib qolishar, ularning xayolini butunlay boshqa narsalar olib qochgani shundoq bilinib turardi. Qarsak-qiyqiriq bo'lib ketdi.

Keyin rostakam qilich musobaqalari boshlandi, lekin endi bunga hech kim e'tibor bermay qo'ydi, hammaning xayolini tepadagi shovqin-suron egallab olgandi. U yerdan bir necha daqiqadan beri mebellarning surilgani eshitarlar, xuddi birov ko'chib ketayotganga o'xshardi. Keyin birdan royal sadolari yangradi va raqs tushayotganlarning bir maromdagi tapir-tupuni boshlandi. Turnirga kirolmaganlar o'zlarini ovutish maqsadida bal tashkil qilib yuborgandilar.

Tomoshabinlar xaxolab kulib yuborishdi, xommlarning raqsga tushgilari kelib qoldi, – ular sahnaga qaramasdan ovozlarini baralla qo'yib gaplashib o'tirishardi.

Tepada boshlangan bal hammaning e'tiborini tortib qo'ydi. Kechga qolganlar, aftidan, ko'ngillarini chog' qilmoqda edilar. Tomoshabinlarning juda ham ularga qo'shilgilari kelib turganligi sezilardi.

Lekin, mana, ikki harif bir-birlariga ta'zim qilishib jangga o'zlarini chunonam shayladilarki, darhol o'tirganlarning diqqatini tortdilar.

Ular dam egilishar, dam qadlarini rostlar, xatti-harakatlari shu qadarli nozik, mardona, o'z kuchlariga ishonch, usullari nafosat,

tahsinga sazovor me`yor bilan to`lib-toshgan ediki, hatto o`tirgan befahm tomoshabinlar ham ularga mahliyo bo`lib qoldilar.

Ularning chaqqonligi, g`ayrat-shijoati, kuchlarini tejamkorlik bilan sarflashlari, har bir harakatlarini hisobga olib turganliklari, shitob bilan, ayni choqda shoshmasdan hujumga o`tishlari chinakam san`at bo`lib ko`rinar va hammani beixtiyor o`ziga jalb qilardi. Tomoshabinlar ko`z o`ngilarida tengsiz go`zallikka to`la bir san`at namoyon bo`layotganligini, ikki yuksak mahorat egasi bo`lgan barkamol va qudratli san`atkorlar o`z san`atlarini namoyish qilayotganliklarini sezib turardilar. O`z kasbining ulug`vor ustalari odamlarga nimalarga qodir ekanliklarini, tajribakorliklari, nazariya bilan mustahkamlangan ustomonliklarini ko`rsatib qo`yishga, harakatlaridagi go`zallik bilan lol qilishga ahd qilganday edilar.

Zalda tiq etgan tovush eshitilmas, hammaning ko`zi ularga qadalgan edi. Biroq oxirgi yakunlovchi zarbadan so`ng ular, bir-birlari bilan qo`l siqishdilar va shunda zalda «Yashanglar!» degan ovozlar yangrab ketdi. Tomoshabinlar qiyqirishar, oyoqlarini tapilatishardi. Hamma bir zumda qilichbozlarning nomlarini bilib oldi: bular Serjan bilan Ravinyak edi.

Erkaklarda jangarilik kayfiyatlari junbishga keldi. Ular bir-birlariga o`qrayishib qarab qo`yishardi. Hozir tasodifan jilmayib qo`ygan odam darhol duelga chaqirilgan bo`lardi. Umrida qo`liga rapira ushlamagan odamlar qo`llaridagi tayoqchalari bilan havoda zarba berayotganday, hujumni qaytarayotganday chiziqlar chizishardi.

Ko`p o`tmay tomoshabinlar tor zinadan birin-ketin yuqoriga ko`tarila boshladilar. Nihoyat, tashna yuraklarni qondirish pallas kelgandi. Lekin tepadagilar, ikki yuzta odamni chaqirib kelib ularga tomosha ko`rsatmaslik g`irt cho`chqalikning o`zi bo`ldi, devishibdi-da, bufetni butkul quritib, ship-shiydam qilib jo`nab qolishibdi. Pastdan chiqqanlar norozi bo`lishdi.

Na bir somsa, na bir qatra shaman, na bir tomchi sharbat, na bir qultum pivo, na konfet, na olma – hech vaqo. Bari yeyilgan, ichilgan, nes-nobud qilingandi.

Xizmatkorlarni qiyin-qistovga olishdi, – ular o`zlarini xafa bo`lganday ko`rsatsalar-da, lekin lablarini kulgidan zo`rg`a yig`ishtirib turardilar. «Xonimlar ovqatga erkaklardan ham chaqqonroq

ekan, – devishardi ular, – keyin tag'in bir gap bo'lib o'tirmasin, deb borini yeb-ichib ketishibdi». Dushman lashkarlari tomonidan talon-taroj qilingan, vayrona shaharda bitta-yarimta omon qolgan odamlarning gapiga o'xshardi ularning aytayotganlari.

Ketishdan o'zga chora qolmagandi. Erkaklar iona qilingan yigirma franklariga achinib qo'yishdi: tepada bir tiyin to'lamasdan yeb-ichib ayshini surib ketganlardan darg'azab edilar.

Yig'in mutasaddilari bo'lmish xonimlar uch ming frankdan ortiq pul to'pladilar. Hamma sarf-xarajatlarning o'mi qoplangach, oltinchi okrugning yetim-yesirlariga ikki yuz yigirma frank qoldi.

Valterlarni olib yurgan Jorj Dyu Ruaga arava berishdi.

Yo'lda ketisharkan, Jorj noshirning xotini qarshisida o'tirib, yana xonim o'ziga erka bir nazar tashlaganligini va darhol qimtinib ko'zini olib qochganligini sezdi. «Eh-e, cho'qiyotganga o'xshaydi-kul!» – deb o'yladi u va xotinlar chindan ham menga tob berolmaydilar, deb kulib qo'ydi: axir, de Marel xonim yana munosabatlari izga tushgandan beri telbalarcha giriftor bo'lib yuribdi-ku.

Uyga dimog'i g'oyatda chog' bo'lib qaytdi. Madlena uni mehmonxonada kutib o'tirgan ekan.

– Senga aytadigan yangiliklarim bor, – dedi u. – Marokashda vaziyat murakkablashmoqda. Fransiya u yerga bir necha oydan keyin askar yuborishi kutilmoqda. Hozir mana shu vaziyatdan hukumatni ag'darish uchun foydalanishmoqchi. Larosh temirni qizig'ida urib, tashqi ishlar Vaziri lavozimini egallamoqchi.

Dyu Rua xotinining g'ashiga tegish uchun o'zini bu gaplarga ishonmagan kishi qilib ko'rsatdi.

– Tunisda ro'y bergan ahmoqqarchilikni yana bir karra takrorlash tentaklikning o'zginasi bo'ladi, – dedi u.

Xotini toqatsizlanib yelkalarini qisdi.

– Men senga aytamanki, mana shunday bo'ladi! Xuddi shunday bo'ladi! Demak, sen ular uchun mablag' masalasi, pul masalasi shu narsa bilan bog'liq ekanligini tushunmas ekansan. Bizning zamonamizda, azizim, siyosiy nayrangbozliklarni kuzatib yurganda, «xotin qidirmang», «foйда qidiring», deb gapirish kerak.

– Shunaqa de! – deb po'ng'illadi Dyu Rua xotinining jahlini chiqarish uchun nafratomuz suratda.

Xotini o'zini bosib turolmadi:

– Menga qara, sen yosh bola ekansan, xuddi Foreste kabi yosh bola ekansan-ku.

Madlena uni chaqib olmoqchi edi, jahli chiqib ketadi, deb o‘ylagandi. Biroq eri tabassum qilgancha qayta so‘radi:

– Aldangan Forestega o‘xshabmi?

Xotini lol bo‘lib qoldi.

– Jorj! – deya pichirlay oldi u.

– Ha, nima? – deb davom etdi Dyū Rua masxara qilganday bo‘lib uning jig‘iga tegish uchun. – O‘zing anov kuni tan olding-ku? Bechora yigit!– qo‘shib qo‘ydi u yurakdan achinib.

Madlena unga javob bermay orqasini o‘girib oldi.

– Seshanba kuni mehmonlar kelishadi, – dedi u birpas jimlikdan so‘ng. – Larosh-Mate xonim bilan vikontessa de Persmyur kelishadi. Sen Rival bilan Norber de Varenni chaqirsang. Men ertaga Valter xonim bilan de Marelga aytaman. Balki, Risolen xonim ham kelar.

Keyingi paytlarda erining siyosiy doiralardagi obro‘yidan foydalanib, Madlena kiborlar ichidan tanish-bilish orttirishga tirishar va nima qilib bo‘lmasin, «Fransuz hayoti»ning ko‘magiga muhtoj bo‘lgan senator va deputatlarning xotinlarini o‘z yoniga tortishga urinardi.

– Juda soz, – dedi Dyū Rua. – Men Rival bilan Norberni chaqiraman.

Jorj mamnun bo‘lib qo‘llarini ishqab qo‘yardi, endi u xotinidan qanday qilib alaminini olishni biladi, u o‘shanda Bulon o‘rmonida sayr qilib yurganlarida barcha boshidan kechirganlari, yuragini o‘rtagan, azob bergan narsalarning bari uchun o‘ch olish yo‘lini topdi. Endi qachon Forestedan gap ochilsa, uni aldangan er deb ataydi. U bundan xotinining jon-poni chiqib ketishini bilardi. Shu bir kechanning davomidayoq u o‘n martadan ortiq gap orasiga soddadillik bilan kinoya qilib: «E, anov aldangan Forestemi?...» – deb qo‘shib qo‘ydi.

Endi uning ko‘nglida marhumga nisbatan gidir qolmagan – faqat uning uchun o‘ch olmoqda edi.

Madlena erining ro‘parasida o‘tirgancha o‘zini eshitmaganga solar, har doimgiday beparvo jilmayib o‘tirardi.

Ertasiga Madlena Valter xonimni taklif qilmoqchi bo‘lganligini esladi va u yerga xotinidan oldinroq borib kelishni mo‘ljal-

ladi, vaziyatdan foydalanib Valter xonimning yuragiga qo'l solib ko'rmoqchi edi. Agar u chindan ham ilakishib qolgan bo'lsa, bir ermakda, ikkinchi bir tomondan, bundan u faxrlanardi. Undan keyin... nima qilibdi... g'unajin ko'zini suzmasa, buqa arqonini uzmaydi-ku?

Soat ikkida u Malzerb ko'chasida hozir bo'ldi. Uni mehmonxonaga olib kirdilar. U kutib turdi.

Mana, nihoyat. Valter xonim keldi va ochilib-sochilib unga qo'lini uzatdi:

– Xush kelibsiz!

– Sizni juda ham ko'rgim keldi. Kelmasam, turolmasdim, o'zim ham bilmayman, qandaydir bir kuch meni hol-jonimga qo'ymay ostonangizga boshladi, tushuntirib berishim qiyin buni. Mana, qoshingizga keldim – vassalom! Umid qilamanki, mening bu gustohligim sizga og'ir botmas, ochig'ini aytganim uchun meni kechirasiz?

Bularning barini u tabassum bilan, sho'xlik va nazokatni omixta qilib gapirdi, lekin uning gapi tagida jiddiy bir narsa borgan o'xshab tuyulardi.

Valter xonim hayrat ichida qoldi, yuziga nim qizillik yugurdi.

– Lekin men... rosti... bilmayman... hayron bo'lib qoldim...– dedi u tutila-tutila.

– Buni izhori muhabbat deb biling, lekin sizni cho'chitib yubormaslik uchun uni hazilga olib aytyapman, – qo'shib qo'ydi Dyu Rua.

Ular yonma-yon o'tirishdilar. U buni hazil deb o'ylagan ekan.

– Demak, bu demak... rostdanmi?

– Rost bo'lmay-chi! Men anchadan beri aytmoq-chi bo'lib yurardim, ha, anchadan beri. Lekin haddim sig'ib aytoilmadim. Siltab tashlaysiz, deb qo'rqardim, yaqiningizga ham yo'latmaysiz, derdim...

Valter xonim o'zini qo'lga oldi.

– Nega xuddi shu bugun aytyapsiz bo'lmasam?– so'radi u.

– Bilmadim,– deb javob berdi Dyu Rua va ovozi pasaytirib dedi: – To'g'risi, kechadan beri sizni o'ylaganim-o'ylagan.

Xonim birdan rangi o'chib dedi:

– Bas, bularning bari bolalik. boshqa narsalar haqida gaplashaylik.

Shunda Dyū Rua oʻzini uning oyoqlariga tashladi, bu shunchalar kutilmaganda sodir boʻldiki, xonim qoʻrqib ketdi. U oʻrnidan turib ketmoqchi boʻldi, lekin Jorj uning belidan mahkam quchoqlab olib ketkizgani qoʻymadi.

– Rost, rost aytyapman, – derdi u ehtiros toʻla tovush bilan, – sizni sevaman, aqldan ozib qolay deyapman, koʻpdan beri sevaman. Hozir hech narsa demang. Hushim boshimdan uchgan boʻlsa nima qilay axir! Men sizni sevaman... Sizni qanchalar sevishimni bilsangiz edi!

Xonim hansirar, nafas ololmay qiynalar, bir narsa demoqchi boʻlar, lekin tili kalimaga kelmasdi. U Jorjni ikkala qoʻli bilan nari itarar, keyin uning lablaridan oʻzini olib qochish uchun sochlaridan mahkam ushlab oldi. Shu bilan birga uni koʻrmaslik uchun koʻzlarini chirt yumib olgan, boshini dam u tomonga, dam bu tomonga tashlardi.

Kutilmaganda Jorj oʻrnidan turib uni quchoqlamoqchi boʻldi, lekin bir damgina uning qoʻlidan qutulgan xonim, siltanib chiqib xonada charx urib qocha boshladi.

Uning orqasidan quvib yurishning iloji yoʻqligini sezgan Jorj oʻzini kursiga tashladi-da, oʻkrab yigʻlab yuboradigan odamday yuzini qoʻllari bilan toʻsib oldi.

Keyin oʻrnidan sakrab turdi. «Alvido, alvido!» – degancha qichqirib xonadan yugurib chiqib ketdi.

Xonadan chiqqach, u hech narsa sodir boʻlmaganday tayoqchasini oldida, koʻchaga chiqdi.

«Jin ursin, ish pishganga oʻxshaydi!» – deb oʻyladi u va Klo-tildaga koʻk xat yuborish uchun telegrafga qarab yoʻl oldi, u bilan ertaga uchrashish tayin qilmoqchi edi.

Uyga odatdagiday oʻz vaqtida qaytdi.

– Ha, mehmonlaring keladigan boʻlishdimi? – soʻradi u xotinidan.

– Ha, – javob berdi xotini, – faqat Valter xonim vaqt topsam borarman, dedi. U nimagadir ikkilanib turibdi, allaqanday axloqiy burch, vijdon haqida gapirdi. Umuman, koʻrinishi juda gʻalati edi. Shunday boʻlsa ham, u kelsa kerak, deb oʻylayman.

Eri yelkasini qisdi.

– Shubha qilmasang ham bo‘ladi bunga.

Lekin u yuragining tubida bunga ishonmas va kuni bilan o‘zini qo‘ygani joy topolmay yurdi.

Ertalab Madlena Valter xonimdan xat oldi: «Men bir amallab vaqt topishga muvassar bo‘ldim, siznikiga boraman. Lekin erim kelolmaydi».

«Yaxshiyam uning oldiga boshqa bormaganim! – deb o‘yladi Dyū Rua. – Mana, ancha o‘ziga kelib qolibdi. Ko‘ramiz buyog‘i nima bo‘larkin?»

Shunday bo‘lsa ham ko‘z-ko‘zga tushganda nima deyman, degan xayolga borib biroz tashvishlanmoqda edi. Mana, nihoyat u paydo bo‘ldi. – chehrasidan juda xotirjam ko‘rinar, ayni choqda yuz ifodalarida birmuncha sovuqlik va kibr jilva qilardi. Jorj darhol o‘zini kamsuqum, itoatgo‘y va mo‘mintoy qilib ko‘rsatdi.

Larosh-Mate va Risolen xonim ikkovlari ham erlari bilan birga tashrif buyurishdi. Vikontessa de Persmyur kiborlar doirasiga oid yangiliklardan so‘zlay boshladi. De Marel xonim g‘oyatda jozibador edi; qora-sariq rangli g‘alati ispancha kostyumi ingichka bellarini sirtmoqlab turar, durkun ko‘kraklari va oyday qo‘llarini bo‘rttirib ko‘rsatar, qushlamikiga o‘xshagan boshiga allaqanday sho‘x bir ifoda bag‘ishlar edi.

Dyū Rua Valter xonimning o‘ng biqinida o‘tirar, butun mehmondorchilik davomida u bilan faqat jiddiy narsalar haqida o‘zga-cha tavoze ko‘rsatib gaplashardi. O‘qtin-o‘qtin u Klotildaga nazar tashlab qo‘yar, «Klotilda bundan chiroyliroq va yoshroq», degan fikrni ichidan o‘tkazib qo‘yardi. So‘ng xotiniga ko‘z qirini tashlardi: garchi, unga nisbatan ko‘nglida chuqur yashiringan adovat va g‘azab tuyg‘usidan voz kechmagan bo‘lsa-da, baribir ko‘zlariga u ko‘rkam xotin bo‘lib ko‘rinardi.

Uning Valter xonimga osilayotganligining boisi, uni rom qilish qiyinligidan bo‘lsa, ikkinchi bir yoqdan, yangicha bir taassurotlar olishga o‘zida yengib bo‘lmas bir ishtiyoq sezar edi.

Valter xonim uyiga erta ketadigan bo‘lib qoldi.

– Sizni kuzatib qo‘yaman, – deb taklif qildi Dyū Rua.

Xonim, kerakmas, dedi.

– Nega endi unday deysiz? – qo‘ymasdi uni Jorj. – Meni qattiq ranjitmang. Nahotki haliyam mendan xafa bo‘lsangiz? Men qanchalar o‘zimni tutib olganligimni ko‘rib turibsiz-ku.

– Siz mehmonlarni tashlab ketsangiz yaxshi bo‘lmaydi, – deb e‘tiroz bildirdi u.

Jorj miyig‘ida kuldi.

– Hechqisi yo‘q, men darrov qaytib kelaman, hech kim sezmaydi ham. Agar menga yo‘q desangiz qattiq ozor bergan bo‘lasiz.

– Mayli roziman, – dedi xonim ohista.

Lekin ular karetaga chiqqanlari hamonoq Jorj uning qo‘llaridan ushlab oldi va hirs bilan o‘parkan, derdi:

– Men sizni sevaman, sizni sevaman. Buni sizga aytmadan turolmayman. Men sizga tegmayman. Siz bilan faqat yuragimdagi ishq haqida gaplashmoqni istayman.

– Oh... siz va‘da beruvdingiz-ku... Yaxshimas... Yaxshimas, – deya pichirlardi xonim.

Dyu Rua o‘zini bazo‘r bosib olganday qilib ko‘rsatdi.

– Menga qarang, men o‘zimni qanchalar qo‘lga olib turganligimni ko‘rib turibsiz, – deb bo‘g‘iq ovoz bilan yana gap boshladi Dyu Rua. – Shunday bo‘lsa ham... Bir og‘iz gapimni eshiting: men sizni sevaman... menga har kuni shu so‘zlarni takrorlashga ijozat eting... Mayli, har kuni xoki poyingiz bo‘layin, faqat sizning ma‘sum chehrangizni ko‘rib to‘ysam va to‘lguncha shu uchta so‘zimni takrorlasam.

Valter xonim hamon qo‘llarini tortib olmasdi.

– Yo‘q, unday qilolmayman, istamayman, – dedi u bazo‘r nafas olar ekan. – Keyin odamlar nima deydi, xizmatkorlarim, qizlarim... Yo‘q, yo‘q, iloji yo‘q...

– Men sizsiz yashay olmayman, – davom etardi Dyu Rua. – Siznikidami yoki boshqa biron yerdami, mayli, qayerda bo‘lmasin, sizni har kuni ko‘rib turishim kerak, bir daqiqa bo‘lsa ham mayli, qo‘llaringizni ushlasam, yeldek etaklaringizga ilashsam, jismingizga to‘yib-to‘yib boqsam, shahlo ko‘zlaringizga termulib o‘zimni yettinchi osmonda yurganday his qilsam, aql-hushimni yo‘qotsam.

Xonim ishq degan savdoning shu yengiltak musiqasini tinglarkan, qalt-qalt titrab takrorlardi:

– Yo‘q... Yo‘q... sira iloji yo‘q. Bas qiling!

Dyu Rua bu soddagina xotinni asta-sekin qo‘lga kiritish lozimligini bilardi, – ular uchrashib turishsa bas, mayli, avval xonim o‘zi biron joyni tayin qilsin, keyin uchrashuvlarni o‘zi belgilaydigan bo‘ladi.

– Menga qarang... uchrashmasak sira iloji yo‘q... – uning quloqlariga shipshidi Dyu Rua, – sizni ko‘ray... men eshiklaringizning tagida turaman... tilanchiday bo‘lib... Agar oldimga chiqmasangiz, uyingizga kiraman... Lekin sizni ertaga... ertaga ko‘raman.

– Yo‘q, yo‘q, kelmang. Sizni uyga kiritmaydilar. Qizlarimni o‘ylang.

– Unda ayting, sizni qayerda ko‘rsam bo‘ladi... ko‘chadammi yo... istagan joyingizda... soatining menga farqi yo‘q... sizni ko‘rsam bo‘lgani... Sizga ta‘zim qilaman, «sevaman», deyman-u keyin ketaman.

Xonim butunlay o‘zini yo‘qotib qo‘ygandi, javob berishga qiyinalardi.. Lekin birdan kareta o‘z uylariga yaqinlashib qolganligini ko‘rib tez-tez shivirlay boshladi:

– Mayli, ertaga soat uch yarimda Trinite cherkovida bo‘laman. Keyin aravadan tushib kucherga:

– Janob Dyu Ruani uyiga eltib qo‘ying, – dedi.

U qaytib kelganda xotini so‘radi:

– Qayerga g‘oyib bo‘lding?

– Shoshilinch bir telegramma berib kelyapman, – deb javob berdi Jorj ovozi pasaytirib.

Uning oldiga de Marel xonim keldi.

– Siz meni kuzatib qo‘yasizmi, Azizim? Men, axir, uzoq joylarga faqat shu shart bilan mehmon bo‘lgani boraman, – dedi u va uy bekasiga murojaat qildi: – Sen rashk qilmaysanmi?

– Yo‘q, unchalar emas, – deb javob berdi so‘zlarini atay cho‘zib talaffuz qilgan Dyu Rua xonim.

Mehmonlar tarqala boshlashdi. Larosh-Mate xonim mahalliy oqsochlarga o‘xshagan xotin ekan. U erga chiqqanda Larosh hali hech kimga ma‘lum bo‘lmagan advokat edi. Tannoz kampir Risolen xonim o‘quv zallarida ma‘lumot orttirgan daqqiyunusdan qolgan hamshiralarni eslatardi. Vikontessa de Persmyur ularga kibr-havo

bilan boqardi. Vikontessa «oq panjasi»ni bu xashaki xotinlarga uzatganda afti burnishib ketardi.

Klotilda to'r ro'moliga o'ranib oldi-da, eshik oldida Madlena bilan xayrlasharkan, dedi:

– Ziyofatni juda quyuq qilib yuboribsan. Tez orada seniki Parijda yagona siyosiy salon bo'lib qoladi.

Klotilda Jorj bilan yolg'iz qolgach, uning bo'ynidan quchoqlab oldi.

– O Azizim, kundan kunga seni battarroq yaxshi ko'rib qolayotirman!

Ular tushgan arava dengiz kemalariday chayqalib borardi.

– O'z uyimizda bo'lganiga nima yetsin! – dedi Klotilda.

– O, nimasini aytasan! – ma'qulladi Jorj.

Lekin shu tobda uning es-hushi Valter xonimda edi.

IV

Charaqlagan iyul kuni edi. Trinite maydoni deyarli kimsasiz edi. Oftob Parijni kuydiraman derdi: issiq odamning damini qaytarib yuborar, og'ir, dim, suyak-suyakkacha qizdirib yuboradigan saraton havosi shaharni ezib yotganga o'xshardi.

Cherkov qarshisida imillab fontan otilib turar, suvning ham otilishga holi qolmagan kabi ko'rinar, horg'in ko'tarilib tushardi. Hovuz ichidagi quyuq ko'k suvda qog'oz parchalari, yaproqlar suzib yurardi.

Bir it tosh to'siqdan oshib o'tib o'zini xira jimirlab turgan suvga otdi. Cherkov peshtoqi atrofidagi bog'chada o'tirganlar itga havaslanib tikilishardi.

Dyu Rua soatini olib qaradi. Soatining kichkinagina mili uch raqami uzra turardi. Vaqtidan yarim soat ilgari kelib qolibdi.

Valter xonim bilan bo'lajak uchrashuv uning dimog'ini chog'qilib yuborgandi. «Ko'ngliga nima kelsa, o'rtaga cherkovni qo'shib turar ekan, – deb o'ylardi u. – Cherkov uning yahudiylarga turmushga chiqib qilgan gunohini yuvib ketadi, siyosiy doiralarda esa uni oqimga qarshi borayotgan xotin sifatida ko'rsatadi, kiborlar ichida uning obro'-e'tiborini oshiradi, bulardan tashqari cherkov

unga uchrashuv joyi sifatida ham xizmat qiladi. Dinga soyabon-day qarash uning qon-qoniga singib ketgan. Havo yaxshi bo'lgan kezlar soyabonga suyanib yurish mumkin, issiqda oftobdan asray-di, havo buzilganda yomg'irdan saqlaydi, uyda o'tirganingda esa, eshik oldida to'mtayibgina turaveradi. Shunisi ham borki, unga o'xshaganlar yuzlab topiladi; o'zlari xudovandi karimni ikki pulga olmamdilar-u kezi kelganda, u bilan boshqalarning og'ziga uradilar va yana kerak bo'lib qolganda undan qo'shmachi bo'lishni talab qiladilar. Qani, ularni nomerlarga taklif qilib ko'ring-chi, buni ular o'zlariga nisbatan haqorat deb anglashadi, vaholanki, mehrob qar-shisida don olishmoqni odatdagi bir gap deb bilishadi».

U hovuz atrofini asta-sekin kezib chiqdi, keyin cherkov soatiga qaradi. Cherkovning soati ikki daqiqa oldinda ekan: unda uchdan besh daqiqa o'tgandi.

U, yaxshisi, cherkovda o'tirib kutgan ma'qul deb, cherkov ichiga kirdi.

Uning dimog'iga salqin yerto'la hidi urilganday bo'ldi, salqin havoda rohatlanib nafas oldi, keyin ibodatxonani tomosha qilish uchun uning ichini keza boshladi.

Ibodatxonaning keng sahmda uning qadamlari aks sado berib turar, xuddi yana bir odam u bilan bab-baravar qadam tashlab, to'xtasa, to'xtab turayotganga o'xshardi. Uning qadam tovush-lari baland ravoqlardan jaranglab eshitilardi. Cherkovda u yoq-dan bu yoqqa borib kelayotgan odam Dyu Ruani qiziqtirib qoldi. Unga tomon yurdi. Qo'lidagi shlyapasini orqasiga qilib olgan boshi kal, to'ladan kelgan bir janob dimog'idan qurt yog'ib aylanib yurardi.

Bir-birlaridan ancha nariga o'tirib olgan kampirlar tizzalarini bukib, yuzlarini kaflari orasiga olgancha Xudoga yolvorardilar.

Yolg'izlik, kimsasizlik, sukunat yurakni o'z hukmiga oldi. Darchalardagi rangdor oynalar oftobning nurini yutib yumshatar, ko'zlarni qamashtirmasdi.

Bu yer Dyu Ruaga g'oyatda yoqib qoldi.

U eshik oldiga keldi-da, yana bir karra soatiga qaradi. Endi uch-dan o'n besh daqiqa o'tgandi. Ichkarida chekish mumkin emasligidan ranjib, eshik oldiga chiqdi-da, o'tirdi. Ibodatxonaning narigi yog'ida – mehrob yonida boyagi semiz janob hamon kezinmoqdaydi.

Allakim ichkariga kirdi. Dyū Rua oʻgʻirilib qaradi. Tivit koʻylak kiygan, engil-boshi nochorgina, bechorahol bir xotin ekan; u birinchi kursi oldiga borib tiz choʻkdi, qoʻllarini koʻkragiga qoʻydi va koʻzlarini koʻkka qadab ibodatga berildi.

Dyū Rua unga qiziqsinib qarar, bu shoʻrlikni qanday gʻam-gʻussa, qaygʻular bu yerga boshlab kelganligini anglashga harakat qilardi. Juda ham nochor yashashi shundoq koʻrimb turibdi. Bularning ustiga, aftidan, eri kaltaklab tursa, ajabmas, balki, bolasi ham ogʻir betob boʻlib yotgandir.

«Bechoralar! Dunyoda qancha-qancha kadbaxt odamlar bor!» – derdi u oʻziga-oʻzi. Shunda uning qalbida rahmsiz tabiatga qarshi isyon bosh koʻtarib kelardi. Keyin bu shoʻrliklarning hammasi oʻzi koʻrinmas allakim ularning gʻamini yeyayotgan, koʻk hisobxonasida yaxshiliklar va yomonliklarni alohida bir kitobga qayd qilib borayotgan, keyin ularni tarozining ikki pallasiga tashlab oʻlchab koʻrayotgan boʻlsa kerak, deb ishonadilar... Lekin osmon yiroq... Unda, qayerda hisobga oladiganlar maskani, qayerda?

Ibodatxonada hukm surgan sukunat odamni yuksak xayollarga eltar, shunda Dyū Rua xayolan koinotni kezib chiqib, soʻng tishlarini gʻijirlatib derdi:

– Bu qadar nobop qurilgan dunyo!

Koʻylak shildirashi qulogʻiga chalindi, titrab ketdi. U keldi.

Dyū Rua oʻmidan turib uning huzuriga bordi.

– Men darrov ketaman, – dedi xonim unga qoʻlini uzatmasdan sekingina. – Men uyga borishim kerak. Mening yonimda tiz choʻkib turing, boʻlmasa bizni tanib qolishlari mumkin.

Shu soʻzlarni aytib u oʻzini ichkariga oldi va qulayroq joy qidira boshladi, bu cherkov unga besh qoʻlday tanishligi shundoq bilinib turardi. U yuziga qalin parda tutib olgan, oyoqlarining uchginasida avaylab qadam tashlardi.

U mehrob oldiga borgach, orqasiga oʻgirildi.

– Chekkaroqqa oʻtganimiz yaxshiroq, shekilli. Bu yerdan hammasi koʻrinib turadi, – odatda, cherkovlarda gapiriladigan past tovushda sirli shivirladi xonim.

Mehrob oldiga borgach, u toʻxtadi, boshini quyi bukib oldi, tiz choʻkmoqchi boʻldi-yu, lekin kutilmaganda oʻngga burilib, eshik

tomonga bir-ikki qadam tashladi. keyin. aftidan. bir qarorga keldi chog'i, kursichani yoniga surdi-da. tiz cho'kdi.

Jorj o'ziga boshqa bir kursichani olib tiz cho'kdi, ikkovlari ham duo o'qiladigan holatni olganlaridan so'ng. gap boshladi:

– Tashakkur sizga, tashakkur. Sizsiz turolmayman. Men buni tinimsiz takrorlashga tayyorman, sizga qanday maftun bo'lib qol-ganimni aytib bermoqchi, bir qarashda meni asir-u muftalo qil-ganingiz haqida dilimni yormoqchi edim... Qachon dilimdagini sizga to'kib solsam dodimga yetasiz, qachon?

Xonim chuqur o'yg'a cho'mgan, uning gaplari qulog'iga kir-mayotganga o'xshardi.

– Sizga bunday gaplarni gapirishga erk berib men tentaklik qil-yapman, – hamon yuzidan qo'llarini tushimasdan dedi xonim. – Bu yerga kelib o'tirishim ham tentaklik, qilayotgan hamma ishlarim boshdan-oyoq tentaklik, o'rtanizda... o'rtanizda tug'ilgan narsa-ning davom etishiga sizni umidlantirib qo'yganim ham tentaklik. Hammasini unuting. shundoq bo'lsin va boshqa hech qachon men bilan bu haqda gaplashmang.

U bir narsani kutganday to'xtab qoldi. Dyu Rua bo'lsa, unga nima deb javob berish ustida bosh qotirar, shiddatli, ehtirosiga to'liq so'zlar topishga urinar, biroq qo'llarini harakatlantirishdan mahrum bo'lganida, hozircha qanday yo'l tutishni bilmasdi.

– Men dunyodan umidsiz o'taman... hech narsa kutmayman ham, – yana gapga tushdi u,– men sizni sevaman. Siz nima qil-mang, nima demang, men shu so'zlarimni aytganim aytgan, toki tanda jonim bor ekan, ularni sizning oldingizda takrorlaganim takrorlagan, bora-bora menga rahmingiz kelar, deb o'ylayman. Mening har bir so'zimdanda kelib turgan muhabbat nafasi sizning yuragingizga yo'l topishini istayman, u kundan-kun, soatma-soat shu nafas bilan to'la bo'lishini, unga sof shudring tomchilari kabi singishini, qalbingizni yumshatishini istayman, toki aloha bir kun-mas bir kun rahm-shafqat qilib menga: «Men ham sizni sevaman», deb aytishingizni xohlayman.

Dyu Rua uning yelkalari titrab turganligini, ko'kraklari ko'tarilib tushayotganligini his qilib turardi. Shunda birdan u sho-sha-pisha shipshigan tovushni eshitdi:

– Men ham sizni sevaman.

U boshiga zo'r to'qmoq bilan urilganday bo'lib qaltirab ketdi.

– O. Xudoyim... – degan nido chiqdi uning ko'ksidan va orqasidan xo'rsinib qo'ydi.

– Nega ham buni sizga aytdim? – og'ir-og'ir nafas olarkan davom etdi Valter xonim. – Men jinoyatkor, men zinogar... men axir... ikki qizning onasiman-ku... Yo'q, istamayman... istamayman... Men hech qachon ishonmagan bo'lardim... hech qachon o'ylamasdimki... lekin bu mendan... kuchliroq... kuchliroq ekan. Sizga aytsam... sizga aytsam... men hech qachon hech kimsani yaxshi ko'rmagan edim... sizdan o'zga... qasam ichaman... Men sizni bir yil bo'ldi, yashirin suratda sevaman, sevgimni shu paytgacha yuragimning tubiga berkitib keldim. O, men qanchalar azob chekkanimni, o'z-o'zim bilan olishib yotganligimni bilsangiz edi, lekin endi tamom bo'ldim, boshqa kuchim qolmadi: men sizni sevaman...

U yuzlarini qo'llari bilan berkitib olgancha yig'lar, a'zoyi badani qaltirar, tug'yon ichra o'rtanardi.

– Menga qo'lingizni bering, – deya shivirladi Jorj, – uni ko'zlarimga surtay, lablarimga bosavin...

Xonim qo'llarini ohista yuzlaridan oldi. Yuzlari yig'idan ho'l bo'lib ketgan, kipriklariga yosh tomchilari ilinib qolgandi.

Dyurua uning qo'llarini siqdi:

– O, qani edi, sizning ko'z yoshlaringizga tashna yuragimni g'arq qilsam!

– Meni yo'ldan urmang... – dedi xotin ingragan bir ovoz bilan. – Men ado bo'ldim!

Jorj sal bo'lmasa kulib yuboray dedi. Uni shu yerda yo'ldan urib bo'larkanmi? U bor ishqiy so'zlarini aytib tugatayozgandi, shuning uchun xonimning qo'llarini ko'kragiga bosdi va so'radi:

– Qanday urayotganligini eshityapsizmi?

Bundan sal oldinroq semiz janobning bu tomonga kelayotgan bir maromdagi qadam tovushlari eshitilgan edi. U hamma mehroblarni birma-bir aylanib chiqib, endi yana bir karra tor o'ng qanotni qarab-qarab kelardi. Qadam tovushlari bular tomonga borgan sari yaqinlashib kelayotganligini sezgan, kolonna ortida o'tirgan Valter xonim Jorjdan qo'llarini tortib oldi va yana yuzlarini yashirdi.

Bir zum o'tgach, har ikkovlari ham cho'k tushgancha qimir etmay turishar, go'yoki birgalikda ko'klarga tavallo qilishardi. Semiz janob ularga yo'l-yo'lakay parvosiz nazar tashlab, shlyapasini boyagiday orqasida ushlagancha, ibodatxonaning chap qanotiga o'tib ketdi.

Dyu Rua bu paytda boshqa bir yerda uchrashishning yo'lini qidirmoqda edi.

– Ertaga sizni qayerda ko'rsam bo'ladi? – shivirladi u.

Valter xonim javob bermadi. U toshday qotib qolgandi, – u hozir haykaltarosh «Munojot» deb nom berishi mumkin bo'lgan haykalga o'xshab qolgandi.

– Xonim istasangiz, ertaga Monso bog'ida uchrashamiz, – qo'ymasdi Jorj.

Xonim qo'llarini tushirib, unga chidab bo'lmas iztirobdan o'zgarib ketgan, rangida qon qolmagan yuzlarini o'girdi.

– Meni o'z holimga qo'ying... – titroq ovoz bilan gap boshladi xonim. – Keting... keting... meni biroz vaqtga yolg'iz qo'ying... faqat besh daqiqaga... siz bilan o'tirish hozir menga juda og'ir... men ibodat qilmoqchiman... kuchim yetmaydi.. keting... meni ibodat qilishga qo'ying... besh daqiqagina... istamayman... Xudoyimdan gunohimni kechirishni yolvorib so'rayman... meni xalos etishini tilayman undan... Yolg'iz qoldiring... besh daqiqaga.

Xonimning yuziga shu qadar iztirob cho'kkan, u o'zini shunchalar yo'qotib qo'ygan ediki, Dyu Rua indamay o'rnidan turdi-da, birmuncha taysallanib, keyin so'radi:

– Men tezda qaytib kelaman. Maylimi?

U rozi bo'lib boshini silkidi. Dyu Rua nari ketdi.

Xonim o'zini zo'r lab bo'lsa ham ibodat qilishga urinib ko'rdi. O'zini favqulodda kuch bilan qo'lga oldi va alamli ingrab, butun jismi qaltiragancha ko'kka nido qildi:

– Yo Rabbim, panohingda asra!

U yonidan turib ketgan odamning izidan qaramaslik uchun ko'zlarini pirpiratib yumib ochardi. U haqda mutlaqo o'ylamaslikka, unga qarshi turishga zo'r berib tirishardi, biroq yaralangan qalbi intizor-u tashnakom bo'lgan, ilohiy sharpa o'rniga uning ko'z o'ngida Jorjning dikraygan mo'ylablari gavdalangani gavdalangan edi.

Yil bo'yi, kun-tunlar u mana shu tobora zo'rayib borayotgan vasvasa bilan, uning butun xayolini o'g'irlab olgan, jismi hirsini bezovta qilgan, hatto tushlarida ham uni tinch qo'ymagan kishi bilan kurashib chiqdi. U xuddi o'zini to'rga ilinib qolganday his qilardi, nazarida, uni boshlab mana shu narra sherning ko'zlari, mayin mo'ylablari bilan uni o'ziga rom qilib olgan erkakning quchog'iga itqitganday edilar.

Hozir esa, mana, Xudoning uyida ham u o'zini shunchalar ojjiz, yakka, himoyasiz qolganday his qilar, hatto o'z uyida ham hech qachon bunday ahvolga tushmagandi. Ibodat qilay desa, tili kalimaga kelmas – butun es-hushi u bilan band edi. Hozir u turib ketdi-yu, mana endi shunga ham azoblanib o'tiribdi. Shunga qaramasdan u bor kuchi bilan qarshilik ko'rsatar, Xudoga qutqarishni so'rab bor vujudi bilan yolvorardi. Uning eri oldida doimo yuzi yorug' edi, shuning uchun ham kirgan yo'li unga o'limdan battar bo'lib tuyulmoqda edi. U uzuq-yuluq pichirlab duo o'qir, lekin xayoli Jorjning ravoqlar ostida uzoqlashib borayotgan qadamlarida edi.

U adoyi tamom bo'lganligini anglar, qarshilik ko'rsatish foydasiz bo'lib qolgandi. Baribir hamon taslim bo'lgisi kelmasdi. Aloha asablari portlab, u behush bo'lib qoldi, bunday behushlik qaltiragan, iztirob ichra to'lg'angan, ingrab-mungranayotgan xotinlarda bo'ladi, ularni yerga parchinlab tashlaydi. U xuddi bezgak tutayotgan kabi dir-dir titrar, hozir yuztuban qulab faryod ko'tarajagim his qilib turardi.

Kimdir shu tomonga tez-tez yurib kela boshladi. U o'girilib qaradi. Kashish ekan. Uni ko'rib o'midan turdi va qo'llarini iltijo bilan uzatgancha unga tomon otildi.

– Qutqaring! Qutqaring meni! – pichirladi u.

Kashish hayronlikda to'xtadi.

– Nima bo'ldi sizga, xonim afandim?

– Meni qutqaring. Menga rahmingiz kelsin. Agar menga yordam bermasangiz, halok bo'laman.

Kashish unga qarab, telba bo'lib qolibdi, deb xayol qildi.

– Sizga qanday yordam berishim mumkin?

Kashish baland bo'yli, to'ladan kelgan, yuzlari go'shtdor, soqollari qirtishlab olingan yosh yigit edi – badavlat cherkovning

xushqomat bu vikariysi o'z qavmidagi ayollarning saxiylik bilan qiladigan tuhfalariga o'rganib qolgandi.

– Mening gunohlarimni so'rang, – dedi xonim, – menga yo'l ko'rsating, menga madad bering. ayting. men nima qilay?

– Gunohlarni shanba kunlari soat uchdan oltiga qadar so'rayman, – deb e'tiroz bildirdi u.

– Yo'q! Yo'q! Yo'q! – uning qo'llarini qisib olgancha takrorladi xonim. – Hozir! Hozir! Menga juda zarur! U shu yerda! Cherkovda! U meni kutib turibdi!

– Sizni kim kutyapti? – so'radi kashish.

– O'sha, meni ado qiladigan... meni qutqarmasangiz, u meni adoyi tamom qiladi... Undan qochib qutulib bo'lmaydi... Men bir ojizman... ojizman... shunchalar ojizmanki...

Ho'ngrab yig'lagancha u kashishning oyoqlariga yiqildi.

– Menga rahmingiz kelsin, padarim! Xudo haqqi, meni qutqaring, qutqaring!

Xonim kashish ketib qolishidan qo'rqib, uning qora ridosiga yopishib oldi. Kashish esa o'zining oyoqlariga yiqilib yotgan bu xotinni bitta-yarimta ko'rsa nima deydi, deb tevarak-atrofga bezovtalanib qarab qo'yardi.

– Turing o'zingizdan, – dedi nihoyat kashish unday qutulib ketishning iloji qolmaganligini ko'rgandan keyin, – yaxshi ham kalit yonimda ekan.

U cho'ntagini kovlab bir shoda kalit oldi va o'ziga keragini topib, yog'ochdan ishlangan o'yinchoq uylarga o'xshaydigan xonalarga qarab tez-tez yurib ketdi, – dindorlar bu xonalarga kirib yuraklarida yig'ilib qolgan g'uborni to'kib chiqadilar.

Kashish o'rtadagi eshikka kirdi va uni yopib oldi, Valter xonim esa yon tomondagi qo'shni katakka o'zini urdi va shu zahoti uning ko'krigidan bir nido otilib chiqdi:

– Meni kechiring, padarim, men zinoga may'l bildirdim.

Dyu Rua voiz o'tiradigan kursini aylanib o'tib, kalisonning chap qanotiga o'tdi. O'rtaoqqa yetganda u hamon bemalol aylanib yurgan semiz kal janobni ko'rdi.

«Bu kishim bu yerda nima qilib yuribdi o'zi?» – o'yladi Dyu Rua.

Janob ham qadamlarini sekinlatib, gaplashish ishtiyoqida Jorjga qaradi. U yaqinroq kelib, ta'zim qildi va g'oyatda nazokat bilan so'radi:

– Afandim, bezovta qilganim uchun uzr, bu kaliso qachon qurilganini bilmaysizmi?

– Ochig'i, men ham bilmayman, – deb javob berdi Dyū Rua, – chamamda, yigirma-yigirma besh yillar bo'lgan bo'lsa kerak. Men bu yerga birinchi marta kelishim.

– Men ham. Bu yerga ilgari kelmagan ekanman.

Jumalist qiziqsinib qoldi.

– Siz anchadan beri tomosha qilib yuribsiz, – dedi u. – Siz kalisoni boshdan-oyoq o'rganib chiqmoqchisiz, shekilli.

– Unday emas, afandim, men xotinimni kutyapman, – ma'yuslik bilan e'tiroz bildirdi boyagi kishi, – o'zi meni uchrashuvga chaqirib, o'zi kechikib o'tiribdi.

Keyin bir fursat jim bo'lib qoldi-da, so'ng qo'shib qo'ydi:

– Ko'chada issiqdan chidab bo'lmaydi.

Oqko'ngil kishi ekanligi shundoq ko'rimib turgan bu odamning yuziga tikilarkan, Dyū Rua ichida, u Forestega o'xshar ekan, deb qo'ydi.

– Siz viloyatdan emasmisiz? – so'radi u.

– Shundoq. Men Reno tomondanman. O'zingiz bu yerda tomosha qilib yuribsizmi deyman, afandim?

– Yo'q. Bir xonimni kutib turibman.

Dyū Rua ta'zim qilib yo'lida davom etdi. Cherkovga kira-verishda uning ko'zi yana bechorahol xotinga tushdi: – u hamon tiz cho'kib Xudoga yolvorardi. «Rosa Xudojo'y ekan-ku!» – deb o'yladi u. Lekin endi bu xotin uning dilida boyagidan rahm-shafqat hislarini uyg'otmadi.

Uning yonidan o'tib Dyū Rua o'ng qanotga qarab yo'l oldi, Valter xonim uni o'sha yerda kutishi kerak edi.

Lekin u uzoqdan turib boya xonimni qoldirib kelgan yerida hech kim yo'qligini ko'rib hayron bo'ldi. Bu boshqa joy bo'lsa kerak, deb o'ylab oxirigacha bordi va yana qaytib keldi. Demak, ketib qolibdi-da? Bu uni hayratga soldi, jon-poni chiqib ketdi. Lekin, balki, meni qidirib yurgandir, deb cherkov ichini yana bir marta aylanib chiqdi. Uni hech yerdan topmagach, u, balkim, shu

yerga qaytib kelsa kerak. degan xayolda boya xonim o'tirgan kursiga o'tirdi. U kutishga qaror qildi.

Uning diqqatini qandaydir shivirlagan ovoz o'ziga tortdi. Biroq cherkovning bu tomonida hech bir zotning qorasi ko'rinmasdi. Qayerdan keldi u ovoz? U kursidan turib gunohkorlar tavba qiladigan xonalarning eshiklarini ko'rdi. Eshiklardan birining tagidan xotin kishining etagi ko'rinib turardi. Bu Valter xonim edi. U gunohlarini to'kayotgan ekan!..

Uning yelkalaridan tutib buyoqqa sudrab olib chiqqisi keldi. Lekin yana o'ylab qoldi: «Mayli! Bugun navbat kashishniki, ertaga meniki bo'ladi». Bu sarguzasht ustidan ichida kulib, tavbaxona eshigi qarshisiga o'tirib olgancha kuta boshladi.

Uzoq kutishga to'g'ri keldi. Nihoyat, Valter xonim o'midan turdi, uni ko'rib oldiga keldi. U sovuq boqar, tumtayib olgandi.

– Marhamatli afandim, – dedi u, – meni ta'qib etmang, orqamdan yurmang va mening huzurimga hech qachon yolg'iz o'zingiz kelmang, sizdan shuni so'rayman. Men sizni qabul qilmayman. Alvido!

Shunday deb, u mag'rur yurib chiqib ketdi.

Dyu Rua uni tutib o'tirmadi: u mevani vaqti bo'lmasdan yemaslikka odatlanib qolgandi. Boya kirib ketgan xonasidan biroz talmovsirab qolgan kashish chiqib keldi. Dyu Rua uning oldiga bordi-da, ko'zlariga tik boqqancha ilonday vishilladi:

– Egningizda manovi zanchalish kiyimingiz bo'lmaganda, palid basharangizga qarab tushirgan bo'lardim!

Shundan so'ng u shart orqasiga burilib, cherkovdan hushtak chalgan ko'yi chiqib ketdi.

Kaliso oldida endi shlyapasini boshiga qo'ndirib olgan semiz janob qo'llarini orqasiga qilgancha turar, keng maydon va atrofda-gi ko'chalami loqaydlik bilan kuzatardi.

Ular tavoze bilan xayrlashdilar.

Jumalistning bu atrofda qiladigan ishi qolmadi va tahririyatga qarab yo'l oldi. Tahririyatga kirib ulgurmasdanoq u xizmatchilarning tashvishli chehralaridan kutilmagan bir hodisa ro'y berganligini fahmladi va to'g'ri noshiming kabinetiga qarab yurdi.

Qariya Valter tik turgancha qisqa-qisqa jumalar bilan maqola aytirib yozdirar va yangi bir fikrini aytishdan oldin atrofni qursha-

gan muxbirlarga topshiriqlar berar. Buarenarga vazifalar topshirar va oldida yotgan xatlarni ochib o'qir edi.

– Eh, ana, o'zi ham kelib qoldi, juda asqatib turuvdingiz. Azizim! – deya xitob qildi uni ko'rgan zahoti chol. lekin birdan tilini tishlab olganday jim bo'lib qoldi, keyin xijolat chekib uzr so'ray boshladi: – UZR, uzr, og'zimdan chiqib ketibdi, shunday gaplar ro'y berdiki, hayajonlanmay ilojing yo'q. Buning ustiga xotinimning ham, qizlarimning ham og'zidan nuqul: «Azizim, Azizim», tushmaydi, beixtiyor o'rganib ketar ekansan. Mendan xafa bo'lmadingizmi?

– Yo'g'-ev – kulib javob berdi Jorj. – Bu xafa bo'ladigan laqab emas.

– Juda soz, unda men ham sizni Azizim deb chaqiraman, gapi-ni davom ettirdi qariya Valter. – Shunday qilib, biz muhim hodi-salar arafasida turibmiz... Uch yuz, undan ortiq ovoz bilan Vazir-likka ishonchsizlik bildirilgan, bir yuz ikki kishi qarshi bo'lgan. Parlament ta'tili qoldirilgan, hozircha qancha vaqtga qoldirilgani ma'lum emas, bugun esa yigirma sakkizinchi iyul. Ispaniya Ma-rokash tufayli bizga tishini qayramoqda, shuning uchun ham o'z shotirlari bilan birga Dyuran de Lenning oyog'i osmondan bo'ldi. Toza hangoma bo'ladiganga o'xshaydi. Yangi kabinet tuzish Ma-roga topshirilgan. Harbiy Vazirlik lavozimini u Buten d'Akriga taklif qilyapti. tashqi ishlar Vazirligini bizning do'stimiz Larosh-Matega bermoqchi. O'zi ichki ishlar Vazirligi bilan Vazirlar sove-tining raisligini olmoqchi. Bizning gazetamiz hukumatning rasmiy organi bo'lib qoladi. Men bosh maqolada bizning umumiy qarash-larimizni bayon qilaman va yangi Vazirlarga yo'l-yo'riq ko'rsata-man. Zotan, – deb qo'ydi u samimiy jilmayib, – bu ularning o'zlari tanlagan yo'l bo'ladi. Lekin menga Marokash masalasida qiziq bir maqola kerak, u o'tkir, shu kunning talabiga javob beradigan, shov-shuv ko'taradigan maqola bo'lishi kerak. Qani, siz bunga nima deysiz?

– Hammasini tushundim, – dedi mulohaza bilan Dyu Rua. – Bizning Afrikadagi mustamlakalarimiz – bu – o'rtada Jazoir. Chapdan Tunis va o'ngdan – Marokash; men sizga ushbu mustam-lakalardagi siyosiy vaziyatni ko'rsatib beradigan, bepoyon yerlarda istiqomat qiladigan qabilalarning tarixini yoritadigan maqola bera-

man. unda hali yevropaliklarning qadami yetmagan Fiqig' vodiysigacha, ya'ni Marokash chegaralarigacha bo'lgan yurishimizni tasvirlab beraman. axir, hozirgi mashmashaning boisi ham o'zi shu narsa-ku. Qalay, sizga ma'qulmi?

– Ayni muddao! – xitob qildi qariya Valter. – Sarlavhasi-chi, sarlavhasi nima bo'ladi?

– «Tunisdan Tanjergacha».

– Qoyil.

Dyu Rua «Fransuz hayoti»ning eski sonlarini qarab o'zining birinchi maqolasi «Afrika o'qchisining xotiralari»ni topishga ahd qildi, uning nomini o'zgartirilsa kifoya, ba'zi bir yerlarni tuzatish va to'g'rilash mumkin, maqola hali toza ish ko'rsatishi turgan gap, chunki u yerda mustamlakachilik siyosati, Jazoir aholisi va Oran viloyatiga bo'lgan yurish haqida ancha narsalar yozilgan.

Qirq besh daqiqa deganda maqola qayta ishlangan, ko'rib chiqilgan, lab-lunji to'g'rilangan, yangi kabinet sha'niga maqto'v va tabriklar bilan to'ldirilgan holda tap-tayyor qilindi.

– Balli, balli, balli, – deb qo'ydi maqolani o'qib chiqqan noshir. – Tilla yigitsiz. Sizdan g'oyatda minnatdorman.

Kechqurun kun ko'p ajoyib o'tganidan og'zi qulog'iga yetgan Dyu Rua uyga qaytdi. Trinite cherkovida ovi yurishmaganidan qayg'urib o'tirmadi: u o'zining yutib chiqqanligini sezib turardi.

Madlena uni toqati toq bo'lib kutayotgan ekan. Dyu Rua kirib kelishi bilanoq uning aytgan so'zlari shu bo'ldi:

– Larosh tashqi ishlar Vaziri bo'ldi, bildingmi?

– Eshitdim, shu munosabat bilan men Jazoir haqida maqola yozib berdim.

– Qanaqa maqola?

– O'zing bilasan, o'sha ikkalamiz yozgan «Afrika o'qchisining xotiralari» degan maqola. Men uni vaziyatga moslab o'zgartirib, tuzatib berdim.

Madlena iljaydi.

– E! Ha, hozir juda kerak maqola, – deb qo'ydi u, biroz o'tgach, qo'shimcha qildi. – Men uning davomini o'ylayapman, sen yozmoqchi bo'lib yuruvding o'shanda... keyin yozmay qo'yganding. Endi uni davom ettirsak ko'p yaxshi ish bo'ladi. Hozirgi sharoitda

juda mos tushadigan bir qancha o'tkir maqolalar yozish mumkin o'sha mavzuda.

– Juda soz, – dedi Dyu Rua va kursiga o'tirdi. – Endi bizga hech kim xalal bermaydi, laqma Foreste ham o'lib ketdi.

Bu Madlenaga tegib ketdi.

– Hazilning o'mi emas, sendan bunga chek qo'yishni so'rayman, – dedi quruqqina qilib Madlena. – Hadeb jig'imga tegaverma.

U xotinini yana bir chaqib olmoqchi bo'lib turgan edi, shu payt unga imzo qo'yilmagan bir og'izgina gap yozilgan telegramma keltirib qolishdi: «Men butunlay es-hushimdan ayrilib qoldim, meni kechiring va ertaga soat to'rtida Monso bog'iga keling».

U hammasiga tushundi va yuragi qinidan chiqquday bo'lib suyunib ketdi.

– Mayli, boshqa gapirmayman, jonim. Tentaklik bu. Tan olaman, – dedi u ko'k varaqni cho'ntagiga yashirarkan.

Keyin ovqalanishga tutindi.

Ovqatlanarkan xayolidan boyagi so'zlar ko'tarilmasdi: Men butunlay es-hushimdan ayrilib qoldim, meni kechiring va ertaga soat to'rtida Monso bog'iga keling». Taslim bo'lar ekan-ku. Axir, bu: «Men sizning ixtiyoringizdaman, meni nima qilsangiz o'zingiz bilasiz, qayerda, qachon, qanday, istaganingizcha», deganida. U kulib yubordi.

– Nima bo'ldi? – so'radi Madlena.

– Hech narsa. Men bir kashishni uchratib qoluvdim, esimga uning biqqi yuzlari tushib ketdi.

Ertasiga Dyu Rua uchrashuvga rosa soat to'rtida keldi. Monso bog'idagi hamma skameykalar issiqdan bezori jon bo'lib ketgan boyvachchalar va beg'am enagalar bilan band edi, yo'lkadagi qumda bolalar o'mbaloq oshib o'ynashar, enagalarning ular bilan zarracha ishlari yo'q edi.

U Valter xonimni chashma oldidagi yasama vayronalar ichidan topdi. U uncha katta bo'lmagan tosh ustunlar orasida qo'rqib ketgan, baxtsiz bir qiyofada kezib yurgan ekan.

– Muncha odam ko'p ekan bu yerda! – dedi u hali Dyu Rua salomlashib ulgurmasdan.

Dyu Rua gapni ilib ketdi.

– To'g'ri aytasiz. Boshqa yerga boramizmi?

– Qayerga ham borardik?

– Farqi yoʻq, kareta olishimiz mumkin. Pardasini tushirib qoʻyasiz-u, tamom, sizni hech kim koʻmaydi.

– Unda meni tashqi xiyobonlarga chiqiladigan eshik oldida kutib turing. Besh daqiqadan keyin ekipaj olib kelaman.

U chopib ketdi.

Ekipajda yolgʻiz qolishgan zamono Valter xonim oʻzi tomondagi darchaning pardasini yaxshilab yopib qoʻydi.

– Izvoshchiga nima dedingiz? – soʻradi u.

– Bezovta boʻlmang, u qayerga borish kerakligini biladi, – deb javob berdi Jorj.

U izvoshchiga Konstantinopol koʻchasiga olib borishni aytgan edi.

– Siz bilmaysiz, sizni deb qanchalar qiynalganlarimni, jonimda jon qolmadi, halovatimni yoʻqotib qoʻydim, – derdi xonim. – Kecha cherkovda sizni qiynab qoʻydim, men qanday qilib boʻlmasin qochib ketmoqchiydim. Siz bilan yolgʻiz qolishdan shunchalar qoʻrqamanki! Mendan xafa emasmissiz?

Jorj uning qoʻllarini gʻijimlardi.

– Mayli, mayli. Nega xafa boʻlay, axir, sizni shunchalar ham sevaman!

Xonim unga yolvorib termilardi.

– Menga qarang, menga tegmaslikka soʻz bering, tegmaysiz va... va... boʻlmasa, biz boshqa koʻrishmaymiz.

Dyu Rua avval hech narsa demadi, biroq uning moʻylablarida xotinlarni bu qadar hayajonga soladigan tabassum yashirinib yotardi.

– Kamina sizning qulingizman, – deya shipshidi u nihoyat.

Shunda Valter xonim uning Madlenaga uylanishini eshitib, birinchi marotaba oʻzining sevib qolganligini aytib berdi. U turli voqealarni, kunlarni eslar, oʻzining boshidan kechirganlarini soʻylardi.

Birdan u jimib qoldi. Kareta toʻxtadi. Dyu Rua uning eshigini ochdi.

– Qayerga keldik? – soʻradi xotin.

– Aravadan tushing va toʻgʻringizdagi uyga qarab yuring, – deb javob qildi Dyu Rua. – Bu yerda bemalol gaplashamiz.

– Qayerga keldik o‘zi?

– Menikiga. Bu mening bo‘ydoqlik paytlarimdagi uyim... men uni... bir necha kunga oldim... shu yerda ko‘rishib turamiz, dedim.

Valter xonim o‘rindiqla yopishib oldi.

– Yo‘q, yo‘q, istamayman! Men istamayman! – u bilan yolg‘iz qolishdan joni hiqildog‘iga kelgan holda hayajon bilan so‘ylardi.

– Sizga tegmayman, chin so‘zim, – qat‘iy qilib dedi Dyu Rua. – Yuring. Ko‘ryapsizmi, bizga qarashyapti, odam yig‘iladi... Tez... Tez... chiqing. Chin so‘zim, sizga tegmayman, – yana takrorladi u.

Qovoqxona egasi eshik tagida turib ularga qiziqsinib qaramoqda edi. Xonim qo‘rqib ketdi va chopib bino ichiga kirdi.

U zinadan ko‘tarilmoqchi bo‘lib turgan edi, Dyu Rua uning qo‘lidan tutdi.

– Bizniki shu yerda, – dedi u va xonimni uyga oldi.

Dyu Rua eshikni qulflab, o‘ljaga yopishgan vahshiydek unga tashlandi.

Xotin o‘zini olib qochmoqchi bo‘lar, qarshilik ko‘rsatar, «Voy Xudoyim-ey!... Voy Xudoyim-ey!...» deya pichirlardi.

Jorj ehtiros bilan uning bo‘yni, ko‘zlari, lablaridan o‘par, xotin uning quturgan qo‘llaridan qutulib chiqolmasdi: uni qo‘llari bilan itarar, o‘zini o‘pichlardan olib qochmoqchi bo‘lar, lekin beixtiyor lablari uning lablari bilan qovushib ketardi.

– Chin so‘zim... chin so‘zim... shu birinchi marta, birinchi marta.

Yoshgina qizlar o‘zlari haqida mana shunday: «Chin so‘zim, menga hali hech kim tegmagan», deb aytishadi.

«Menga buning sira ham farqi yo‘q», deb o‘yladi Jorj.

V

Kuz keldi. Dyu Rualar oilasi butun yozni shaharda o‘tkazdi, qisqagina davom etgan parlament ta‘tili paytida «Fransuz hayoti» sahifalarida yangi hukumatni astoydil yoqlaydigan maqolalar bilan chiqib turishdi.

Marokashda vaziyat keskinlashib ketmoqda edi, shuning uchun ham har ikkala palata oktyabring boshlaridanoq o‘z majlislarini boshlab yubormoqchi edi. To‘g‘risini aytganda, hech kim Tanjerga bo‘ladigan yurishga ishonmasdi. Parlament ta‘tilga tarqaladi-

gan kuni o'ng deputat graf de Lamber-Sarazan hatto markazning olqishlariga ham sazovor bo'lmish g'oyatda o'tkir nutq so'zlab, bahs boylashaman, dedi va bir mahallar Hindiston vitse-qiroliga o'xshab, o'zimning mo'ylabimni Vazirlar soveti raisining bakenbardiga tikaman, lekin yangi kabinet hech ilojsiz suratda eski hukumatning izidan borishga majbur bo'ladi va Tunis yurishiga qo'shimcha qilib Tanjerga ham ekspeditsion qo'shinlar jo'natadi, buni har narsaning juft bo'lgani yaxshi, degan hikmatga amal qilishni yaxshi ko'rganligidan qiladi, kamin ustiga ham bitta emas, ikkita vaza qo'yadilar, deb aytgan edi. Lekin baribir bu gaplarga hech kimsa ishonmasdi.

Graf yana o'sha nutqida o'z fikrini davom ettirib, «Gapning po'skallasini aytganimizda ham, janoblar, Afrika deganimiz, – bu – Fransiyaning kaminidir, bu kaminda bizning eng sara o'tinlarimiz yonib bitadi, bu shamol tortishi nihoyatda zo'r kamin, uni bank cheklari bilan qizdiradilar.

Siz chiroyli chiqsin deb kaminning chap tomoniga Tunis degan o'yinchoqni qo'ydingiz, bu o'yinchoq sizga juda ham qimmatga tushgan edi, – mana, endiyam ko'rib turarsiz, Maro janoblari ilgari o'z o'rinlarida o'tirgan odamdan orqada qolmaslik uchun kaminning o'ng yog'iga Marokash degan o'yinchoqni qo'yishga harakat qiladilar», degan edi.

Grafning bu nutqi juda mashhur bo'lib ketgandi va Dyu Rua unga suyanib turib Jazoir haqida ketma-ket o'nlab maqolalar e'lon qildi, bu o'zi tahririyatga ishga kirgan chog'da yozilmay qolib ketgan maqolalarning davomi edi. U garchi harbiy ekspeditsiya bo'lishiga imoni komil bo'lmasa-da, lekin shu g'oyani qizg'in qo'llab-quvvatlardi. U vatandoshlarining tuyg'ularini sezib, ularga yoqadigan gaplarni yozar, Ispaniyaga hujum qilar edi, o'zi biron mamlakatning manfaatlari bizning manfaatlarimiz bilan to'qnash kelganda mana shunday yo'l tutiladi, unga qarshi barcha hajv, kinoya, istehzo vositalarini ishga solgan holda muomala qilinadi.

«Fransuz hayoti» hukumat doiralari bilan ochiqdan ochiq aloqa bog'lab turar va bu uni o'zgacha bir suratda salmoqli qilib ko'rsatardi. U boshqa eng obro'li gazetalardan ham ilgari hukumat va siyosiy yangiliklardan xabar berar va turli shamalar bilan o'z gazetxonlariga o'ziga yaqin Vazirlarning niyatlarini ma'lum

qilardi. Boshqa barcha poytaxt va viloyat gazetalarini uchun axborot manbayi bo'lib qolgandi. O'z fikrlarini uning ma'lumotlari bilan tasdiqlashar, undan hayiqishar, u bilan hisoblashishga majbur edilar. Bir to'lda o'tkinchi betayin siyosatdonlarning organi bo'lgan bu gazeta hukumatning e'tiborini qozongan gazetaga, hukumat gazetasiga aylandi. Larosh-Mate – gazetaning joni bo'lsa, Dyū Rua – uning jarchisi edi. Sasini chiqarmaydigan deputat va ustomon noshir, kerak paytda o'zini chetga olishga ustasi farang qariya Valter shu shovqin-suron ichida indamay o'z ishini bitirmoqda, mish-mishlarga qaraganda, Marokash mis konlari bilan bog'liq katta bir ishga yeng ichida kirishmoqda edi.

Madlenaning mehmonxonasi har hafta yangi hukumat a'zolaridan ba'zi birlari yig'ilib turadigan e'tiborli yerga aylandi. Vazirlar soveti raisining o'zi ham ikki marta unikiga mehmon bo'lib keldi. Kechagina uning uyiga qadam bosishni ham xayoliga keltirmagan davlat arboblarning xotinlari endi Madlena bilan bordi-keldi qilishib turganlaridan faxrlanishar, unikida tez-tez mehmon bo'lib turishardi. Hatto Madlenani ulamikiga kamroq boradi, deb ham o'ylash mumkin edi.

Tashqi ishlar Vaziri esa o'zini bu xonadonda xuddi xo'jayinday tutardi. U xohlagan paytida kelaverar, telegrammalar, turli-tuman ma'lumotlar olib kelar, dam Dyū Ruaga, dam xotiniga xuddi o'zining kotiblariga qaraganday, axborotlar aytib turib yozdirardi.

Vazir jo'nab ketishi bilan Dyū Rua Madlena bilan yolg'iz qolgach, bu kaltafahm arbobni bo'ralab so'kib ketar, uning gap ohanglaridan do'q-po'pisa ham sezilar, har bir gapi zahar-zaqqumga to'la bo'lardi.

Biroq Madlena yelkalarini nafratomuz qisib qo'yardi.

– Qandini ursin, qo'lingdan kelsa, sen ham qil, – derdi u. – Avval Vazir bo'lib ko'rgan, keyin dimog'ingni ko'tararsan. Ungacha, yaxshisi, og'zingni yumib yurgin.

Jorj mo'ylablarini buragancha xotiniga sarasof solib o'tirardi.

– Men hali ko'rsatib qo'yaman, – deya e'tiroz qilardi u, – ha, hali ko'rsatib qo'yaman, kimligimni bilib olishadi.

– Omon bo'lsak ko'rarmiz, – derdi donolik qilib Madlena. Parlament ochiladigan kuni Jorj hukumatning rejalari va maqsad-

lari rasmiy suratda bayon qilinishi kerak bo'lgan, ertaga chiqadigan bosh maqolaga ma'lumot olish niyatida majlis boshlanmasdan burun Larosh-Mate bilan ko'rishib olmoqchi edi, u kiyinish bilan ovora ekan. Madlena, hali o'rnidan turmasdan, eriga gap uqtirib yotardi.

– Eng muhimi, ular ilgari o'ylaganlaricha general Belonklni Oranga jo'natishadimi, yo'qmi, shuni so'rab ol, – derdi u, – bu katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

– E, aravangni tortsang-chi, – jahli chiqdi Jorjning. – Nima qilish kerakligini o'zim yaxshi bilaman.

– Qadrdonim, sendoimomening Vazirgabergan topshiriqlarimning yarmini bora-borguncha unutib borasan, – xotirjam e'tiroz qildi xotini.

– Jonimga tegib ketdi shu Vazirning! – to'ng'illadi Jorj. – G'irt to'ntkaning o'zginasi.

– Nega endi meniki bo'lar ekan, og'zingga qarab gapir, – sovuqqonlik bilan tanbeh berdi Madlena. – Mendan ko'ra u ko'proq senga kerak.

– Ma'zur ko'radilar, u kishim menga ilakishib yurgani yo'q, – dedi Jorj boshini picha u tomonga burib masxaraomuz.

– Unda mening ketimdan ham yurgani yo'q, lekin uning yordamida mavqeyimizni mustahkamlayapmiz, – jo'rttaga gapini cho'zib aytdi Madlena.

– Agar sening muxlislaringni men tanlaydigan bo'lganimda, – deb gap boshladi Jorj bir necha muddat jim qolgach, – unda qari merov Vodrekni tanlagan bo'lardim. Aytganday, unga o'zi nima bo'ldi? Bir haftadan beri ko'rinmay qoldi.

– U kasal, – dedi hech narsa bilmagan kishiday Madlena, – u bodi qo'zib yotib qolganligini menga yozib yuboribdi. Uni bir ko'rib kelsang ma'qul bo'lardi. O'zing bilasan-ku, u seni juda ham yaxshi ko'radi, borsang, boshi osmonga yetadi.

– Rost aytasan, – ko'ndi Jorj, – uning oldiga shu bugunoq borganim bo'lsin.

U kiyinib-taranib bo'lgach, boshiga shlyapasini ildi, biron narsani esdan chiqarmadimmikin, deb u yoq bu yoqqa qaradi. Hammasi joyida ekanligiga ishongach, karovat tomonga borib xotini-ning manglayidan o'pdi-da:

– Xayr, jonim, soat yettilarda kelaman, – dedi.
Chiqib ketdi.

Larosh-Mate uni kutib turgan ekan: Vazirlar soveti parlament ochilishidan avval soat o'n ikkida majlis o'tkazar ekan, shuning uchun ham u nonushtasini soat o'nda qilayotgan ekan.

Larosh-Mate xonim nonushtani boshqa paytga ko'chirishga unamaganligi boisidan ulamikida Vazirning shaxsiy kotibidan boshqa hech kim yo'q edi. Ular stolga o'tirishlari bilanoq Dyū Rua o'z maqolasi haqida gap ochdi: vizit kartochkalariga qayd qilingan yozuvlariga qarab u maqolada ko'tariladigan asosiy fikrlarini bayon qila boshladi.

– Sizning qanday takliflaringiz bor, muhtaram Vazir? – so'radi u oxirida.

– Hammasi joyida, aziz do'stim. Menimcha, siz Marokash masalasida aniq gapirmaganingiz ma'qul. Ekspeditsiya haqida go'yo u bo'lishi mumkin bir hodisaday yozing, shuning bilan birga u yuz bermasligi ehtimoldan xoli emas, deb ko'rsating, bu narsaga sizning ishonchingiz komil emasligini bildiring. Avom biz bu shubhali ishga bosh qo'shmasligimizni gapning nim kosasidan uqib olsin.

– Juda soz. Gaplaringizni tushundim, men ham tushunarli qilib yozishga harakat qilaman. Aytganday, xotinim Oranga general Belonkl yuborilarmikin, deb so'rayapti. Hozir aytgan gaplaringizga qaraganda, yuborilmasa kerak, deb o'ylab qoldim.

– Yo'q, – deb gapga nuqta qo'ydi davlat arbobi.

Keyin suhbat ochilajak parlament sessiyasi ustida bordi. Larosh-Mate bir necha soatdan keyin hukumat odamlari o'rtasida so'zlaydigan nutqidan hozirdan mutaassir bo'lgan holda og'zining tanobi qochib so'ylay boshladi. U o'ng qo'lini silkir, dam pichoq, dam vilka, dam non ko'targan holda qo'llarini havoda o'ynatar va hech kimga qaramasdan xuddi halizamon yig'iladigan majlisga qarata so'zlayotgan kishi bo'lib suxandonlik qilar, chuchmal gaplarini to'kib solardi, uning bu suxandonligi sartaroshlamikiga o'xshaydigan basharasiga g'oyatda mos edi. Uning qo'ng'iznikiday mo'ylablari chayonning dumiga o'xshab gajak bo'lib turar, o'rtasidan farqi ochilgan, brilliantin surtilgan sochlari xuddi qishloqdan kelgan oliftalarniki kabi ikki chakkasida jingalak bo'lib

turardi. Yosh bo'lishiga qaramasdan u halitdan semira boshlagan. eti yog' bosib yiltiray boshlagandi: nimchasi qappaygan qornida tarang tortilgan edi.

Aftidan, bunaqa suxandonlikka o'rganib ketgan shaxsiy kotib bemalol yeb-ichib o'tirar, Dyū Rua bo'lsa Laroshning shuhratidan g'ashi kelgan holda g'ijinib, o'ziga-o'zi: «Voy to'nka-ey! Bu siyosiy arbob deganlarining hammasi toza pandavaqi bo'lar ekan-ku!» – derdi.

O'zini bu mahmadona taviya bilan solishtirib ko'rarkan, shunday xulosaga kelardi: «Eh, qaniydi, mening ham yuz ming frank pulim bo'lganda, o'zimning qadrdon Ruanimdan deputatlikka nomzodimni qo'ygan bo'lar edim, o'zimning azamat, pixini yorgan, aql-hushi joyida, boqibeg'am normandiyaliklarimni iydirdigan bo'lardim shuncha pul bilan, keyin manovi kallaravamlarga dunyoda siyosiy arboblarni qanday bo'lishini ko'rsatib qo'yardim!»

Larosh-Mate to kofe kelgunicha ham og'zi tinmadi. Keyin vaqt bo'lib qolganligini ko'rib, qo'ng'iroqni jiringlatib o'ziga kareta berishlarini buyurdi va jurnalistga qo'lini uzatdi:

– Gaplarimni tushundingizmi, qadrdon do'stim?

– Tushunganda qandoq, muhtaram Vazir, xotirjam bo'ling.

Soat to'rtgacha Jorjning boshqa qiladigan ishi yo'q edi, u maqolani yozgani shoshmasdan tahririyatga qarab yo'l oldi. Soat to'rtta u Konstantinopolda de Marel xonim bilan uchrashadigan edi, xonim bu yerga haftada ikki marta: dushanba va juma kunlari kelardi.

Lekin u tahririyatga kirib ulgurmasidan qo'lga telegramma tutqazishdi. Telegramma Valter xonimdan kelgan bo'lib, quyidagi mazmunda edi:

«Seni bugun, albatta, ko'rishim kerak. Juda ham zarur, g'o'yatda zarur. Soat ikkida meni Konstantinopolda kutib tur. Senga katta yordamim tegishi mumkin.

O'lmay turib ayrilmasing

Virjini».

«Obbo, shayton urgur-ey! Zulukning o'zi-ya!» – g'o'ldiradi u...

Kayfiyati buzildi-qoldi, bunaqa dilsiyohlik bilan ishlab bo'lmas edi, shuning uchun u shosha-pisha tahririyatdan chiqib ketdi.

Keyingi bir yarim oy ichida bir necha marta u bilan aloqani uzishga harakat qilib ko'rdi. lekin uni o'zidan sovutolmadi, yuragidagi alangani so'ndirolmadi.

Xonim o'zining tuban tushganidan qattiq qiynalardi, u uch safardan buyon har uchrashuvga kelganida jazmaniga ta'na-tazarrurlar, qarg'ish-nadomatlar yog'dirardi. Xonimning bunaqa qiliqlari uning joniga tegib ketdi va bu yoshi o'tib borayotgan yig'loqi xotindan to'yib, o'rtalaridagi oshiq-ma'shuqlik shoyad o'z-o'zidan yo'qqa chiqsa degan niyatda xommdan o'zini olib qochib yurdi. Lekin jonholatda xotin Dyu Ruaning etagiga osilib oldi, xonim bo'yniga og'ir tosh osib, suvga tashlagan odamday o'zini shu muhabbat nahriga tashladi. Jorjning unga rahmi kelib, achinib, xo'jayinning hummatini qilib, odob yuzasidan uni o'ziga qo'yib berdi va shunda xonim odamni bezorijon qilib yuboradigan, quturib ketgan hissining chohiga qamab oldi, jazmanini ko'ngliga urgan erkalashlari bilan ta'qib qila boshladi.

Xonim uni kunda bir ko'masa turolmas, to'xtovsiz telegrammalar bilan chaqirtirib olar, ko'cha muyulishlarida, magazinlarda, shahar bog'larida uchrashuvga undar edi.

Va har safar usiz yashay olmasligi, unga jonini ham fido qilishga tayyorligi haqida bir xildagi gaplar bilan qasam ichar va visoldan so'ng ketar ekan, «Juda ham baxtliman, seni ko'rganimdan baxtliman», deb aytardi.

U Jorj xayol qilgandan butunlay boshqacha xotin bo'lib chiqdi: u o'zini ishq balosiga giriftor bo'lgan qizchalarday qilib ko'rsatar va uning yoshida kulgili bo'lib ko'rinadigan bolalarcha qiliqlar qilib Jorjning ko'nglini ovlamoqchi bo'lardi. Shu paytgacha bu ehtiros nimaligini bilmagan, hirsning yutag'on ko'chasiga kirmagan, yuragiga g'ara tushmagan yaxshi xotin edi, mana, aqlli, tadbirkor, risoladagi qirq yashar xotinning hayotida sovuqqina yozi o'tib ili-miliq, oftobi kulmagan kuz kirdi va kuzi kutilmaganda nimjongina bahor bilan almashdi, lekin bu chechaklari so'lg'in, g'unchalari ochilmagan, maysalari to'ng'ib turgan bahor edi, uning qizlik muhabbati juda kech gulga kirdi, balki bu duvarak gullar edi, u o'zining alangali ishq bilan mast, uning domida pitirlab yotar, shu ishq tufayli u o'zi umri bino bo'lib ko'rmagan ko'chalarga kirib chiqar, kutilmagan qiliqlar qilar, xuddi o'n olti yashar qizlar-

ga o'xshab qichqirib qo'yadigan odat chiqargan, yasama erkalanar. noz-karashma qilar, uning tuyg'ulari yoshlik nimaligini bilmagan, lekin darrov qarib, qarimsiq bo'lib qolgan tuyg'ular edi. Jorj undan har kuni o'nlab maktub olar, ular chuchmal, hashamdor, kulgili, hindularning gaplariga o'xshagan ohanjamali, hayvonlar va qushlarning nomlariga to'liq xatlar bo'lardi. Ikkovlari yolg'iz qolishlari bilan u jazmanini paydar-pay o'pa ketar, bo'liq ko'kraklarini selkillatib dikonglar, harakatlari qovushmagan o'spirinlar kabi sho'xlik qilar, Jorjning kulgisini qistatib, lablarini cho'chchaytirib olardi. U Jorjni «sichqoncham», «mushukcham», «kuchukcham», «qushcham», «bebahoyim» deb erkalar, bundan Jorjning joni halqumiga kelar, u to'shakka yotishdan oldin o'zini qizchalarday uyalganga solar, aftidan, o'ziga juda yoqsa kerak, picha qo'rqib ketganday bo'lar, buzilib ketgan xotinlar singari turli hunarlarni o'ylab chiqarar, bularning bari Jorjning ko'ngliga zig'ir yog'day urib ketgandi.

«Bu kimning og'izchasi?» – deb so'rardi u va jazmani to «meni» demaguncha ko'ngli joyiga tushmas, bu Jorjning qahr-g'azabini keltirardi.

Nahotki, u ishq o'yini odamdan nazokatli, nozik, ehtiyotkor, sezgir bo'lish kerakligini talab qilishini anglamasa, deb hayron bo'lardi. Jorj jazmani bilan birga bo'lgan chog'larida: kap-katta xotin, ikki bolaning onasi, tuppa-tuzuk oilaning bekasi bo'lmish xonim o'zini yerga urmasligi, bosiq, jiddiy tutishi kerakligiga fahm-farosati yetmasa, mayli, ko'z yoshi qilsin, lekin Julyettaga o'xshab emas. Didona kabi yosh to'ksin, derdi ichida u.

– Seni shunchalar yaxshi ko'ramanki, oppog'im! – deb tinmay takrorlardi xonim. – Sen ham meni sevasanmi, qo'zichog'im?

Mana shunday paytlarda Dyu Rua «oppog'im», «qo'zichog'im» deb og'zidan bol tomgan xotinga javoban «ha, yaxshi ko'raman, kampirim», degisi kelardi.

– Sening qo'lingga tushib tentaklik qildim, – derdi xonim. – Lekin afsuslanmayman. Yaxshi ko'rish – juda soz bo'lar ekan!

U nima demasin Jorjning tepa sochini tikka qilardi.

«Yaxshi ko'rish – juda soz bo'lar ekan», – xonim bu gaplarni xuddi sahnadagi oyimchalar singari aytardi.

Buning ustiga uning erkalashlari shunchalar ham qovushmagan bo'lar ediki, Jorj ulardan qochgani joy topolmay qolar-

di. Bu ko'rkam yigitning o'pichlari xotinning qonini ko'pirtirib yuborgan, o'lgan hirslarini qayta qo'zg'atgan bo'lsa ham, biroq u Jorjni allaqanday qovushmagan, o'ziga yarashmagan ehtiros bilan quchoqlar, uning berilib qattiq achomlashlari Jorjning kulgisini qistatar, xayolida uni qarigan chog'da alifboga o'tirgan odamlarga o'xshatardi.

Qaniydi, endi u ham so'lgan, lekin so'nggi muhabbatida yal-yal yashnab, ochilib ketgan xotinlarga o'xshab jazmaniga to'ymay, xuddi uni yutib yuborguday tikilib, hirs bilan termilgan ko'zlarini o'ynashidan uzmay, o'z quchoqlarida ezib tashlasa, nafas olishga ham imkon bermasa: qaniydi endi u tashna kom dudoqlarini uning lablariga bosgancha, uni o'zining lo'mbillagan, qaynoq, tolma, ammo to'y-magan, to'y-maydigan to'shlariga yopishtirib tashlasa, lekin buning o'rniga u qizchalarday o'ynoqlar, tamtamlanar, aftidan, shunda o'zini g'oyatda dilbar bo'lib ketgan, deb tasavvur qilardi.

– Seni shunchalar yaxshi ko'ramanki, bo'talog'im! Qush-changni, qani, shirin-shirin erkalab qo'y!

Bunaqa paytlarda Dyū Rua uni bo'ralab so'kkisi kelar, shlyapasini olib shartta chiqib ketay deb qolardi.

Ular oldin Konstantinopol ko'chasidagi uyda uchrashib turishdi, lekin Dyū Rua de Marel xonim bilan tasodifan to'qnash kelib qolishlaridan qo'rqib, endi bu uchrashuvlardan nima bo'lmasin qutulish chorasini qidira boshlagandi.

Lekin u har kuni xonimning oldiga dam nonushtaga, dam kechki ovqatga borishi kerak edi. Xonim stol tagidan uning qo'lini qisib qo'yar, eshikning orqasida o'pich berardi. Jorjning esa ko'proq Syuzanna bilan hazillashgisi kelar, ikkovlari qolganlarida vaqtini qahqaha-kulgi bilan o'tkazar edilar. Qo'g'irchoqqa o'xshab ketadigan bu qizning aqli juda o'tkir bo'lib, odamni kutilmaganda chaqib olar, xuddi maydonlarda odamlarni kuldirib yuradigan masxarabozlar kabi bir zum ichida o'tirganlarni ichaklarini uzguday kuldirib yuborardi. U hammaning ustidan bir kulgili gap topar, odamlarni kulgili qilib ko'rsatardi, Jorj uni fisqi-fasod gaplarga rag'batlantirar, unda kinoya bilan gapirishga mayl uyg'otardi, ular bir-birlarini juda yaxshi tushunishardi.

Syuzanna damba-dam unga gap qotar, «Menga qarang, Azizim!», «Bu yoqqa keling, Azizim!» – degani degan edi.

Jorj shu zahoti onasini tashlab qizining oldiga chopardi: Syuzanna uning qulog'iga biron kulgili gapni shipshir. shunda ikkovlari qotib-qotib xandon tashlashardi.

Bu orada onasi shu qadar ham uning joniga tegib ketdiki, hatto undan hazar qilish darajasiga yetdi: uni ko'rgani toqati qolmadi, uni eslasa fe'li ayniydigan bo'ldi. Endi unikiga bormaydigan, xatlariga javob bermaydigan, chaqirsa, eshitmaganga oladigan bo'ldi.

Nihoyat, xonim jazmani undan ayniganligini, ko'ngli sovib ketganligini fahmladi. Qattiq iztirob cheka boshladi. Lekin baribir ham bo'sh kelmasdi: Jorjning ketidan poylab yurar, kun bermas, karetaga o'tirib olib pardalarini tushirib qo'yardi-da, tahririyat eshigidami, uyning oldidami, ko'cha-ko'ydami, ishqilib, qayerdaki, Jorj bilan ko'rishish imkoni bo'lsa, o'sha yerda hozir-u nozir turardi.

Jorj uni qattiq siltab tashlagisi, boplab so'kkisi, kaltaklagisi kelar, «Bas, jonimga tegib ketdingiz», deb to'g'risini aytib qo'ya qolsammikin, degan xayolga borardi, lekin tahririyatdagi ishim unda nima bo'ladi, deb mulohazaga borar, shuning uchun u bilan adi-badi qilib o'tirmas, lekin uni ko'rganda atay tumtayib olar, qovog'ini solar, chegaradan chiqmagan holda ba'zan qattiq gapirib, bu narsalarga chek qo'yish kerakligini anglatardi.

Xonim Jorj bilan Konstantinopol ko'chasidagi uyda uchrashish uchun turli hunarlarni o'ylab topar, Jorj bo'lsa bir kunmas bir kun ikkala xotin to'qnash kelib qolishidan o'lguday cho'chirdi.

De Marel xonimga kelganda, yoz davomida Jorj unga yanada kuchliroq bog'lanib qoldi. Jorj uni «To'palonchim» deb atar, uni ko'rsa chehrasi ochilardi. Ular bir-birlariga juda mos tushgan, biri uzuk bo'lsa, ikkinchisi ko'z deyish mumkin edi: ikkovlari ham daydigan, sarguzashttalab odamlar qavmidan edilar, ular o'zlari tan bermasalar ham, lekin katta yo'llarda kezinadigan, boshpanasiz daydilarga xiyla o'xshashib ketar edilar.

Ular yoz bo'yi miriqib o'ynab olishdi: har doim dam Arjanteyl, dam Bujival, dam Mezon, dam Paussiga ovqatlangani jo'nashar, soatlarcha qaviqlarda sayr qilib yurishar, qirg'oqda gullar terardilar. Klotilda Senadan hozirgina ushlangan baliqdan pishirilgan taomlarni yaxshi ko'rar, quyon go'shtini sevar, shahar tashqarisidagi qovoqxonalardagi suhbat qurib o'tiriladigan xonalarni, esh-

kakchilarning baqirgan-chaqirgan tovushlarini tinglab o'tirishni sevardi. Jorj oftob charaqlab turgan kunlari shahar tashqarisiga olib boradigan konkiga tushib, u bilan valaqlashib Parij atroflarini tomosha qilib yurishni xush ko'rardi, bu ko'rimsiz yerlarga badavlat odamlar bog'-uylar solib tashlashgandi.

U Parijga qaytarkan, o'zini birga ovqatlanish uchun kutib o'tirgan Valter xonimni o'ylaganda qoni qaynab ketar, qari ma'shuqasidan nafratlanardi, hozirgina daryo bo'yida o't-o'lanlar ichra uning hirsini qondirgan, u bilan to'yib ishqibozlik qilgan yosh ma'shuqasini o'ylaganda battar nafrati qo'zirdi.

U o'zicha Valter xonimning kavushini to'g'rilab qo'ydim deb yurardi, – axir, nihoyat, bo'ldi, joningga tegib ketdi, deb unga aytgandim-ku, mana endi bo'lsa yana tahririyatga telegramma jo'natib o'tiribdi, soat ikkida yana Konstantinopolga borishi kerak!

Yo'l-yo'lakay u telegrammani yana bir karra o'qib chiqdi; «Seni bugun, albatta, ko'rishim kerak. Juda ham zarur, g'oyatda, zarur. Soat ikkida meni Konstantinopolda kutib tur. Senga katta yordamim tegishi mumkin. O'lmay turib ayrilmasing Virjini».

«Bu boyqushga yana nima kerak bo'lib qoldiykin? – o'ylardi u. – Yana bekorga ovora bo'ladiganga o'xshaydi. Yana sensiz dunyo ko'zlarimga qorong'i bo'lib ketdi, deydigandir-da. Har holda bilish kerak. Muhim gapim bor debdi-ku, yordami tegarmish, – balki, rost aytayotgandir. Klotilda bo'lsa soat to'rt-da keladi. Demak, manov shilqimni soat uchga qolmay jo'natib yuborishim kerak. Jin ursin, ishqilib, nima bo'lsa ham uchrashib qolmasalar bas! Boshingga bitgan balo bu xotinlar!»

Shunda u beixtiyor Madlenani esladi: hech narsa bilan ishi yo'q, bilganingni qil, deb yuraveradi. Birga turishadi, bir yostiqqa bosh qo'yishgan, Jorjni yaxshi ko'rsa ham kerak, lekin yaxshi ko'rishga u ma'lum bir vaqtlarni ajratib qo'yan, shu chizgan chizig'idan chiqmaydi, uni ishdan qoldirishlarini juda yomon ko'radi.

Jorj ichida Valter xonimni so'kib, ohista visol uyiga ketib borardi: «Agar meni yana aldagan bo'lsa, toza ta'zirini beraman. Kambronning tili mening so'zlarim oldida ip esholmay qoladi. Senikiga endi hech ham bormayman, uyingni yelkamning chuquri ko'rsin, deyman».

U uyiga kirib Valter xonimni kuta boshladi.

Sal o'tmay xonim ham kirib keldi va uni ko'ra solib: – Voy, mening telegrammamni oldingmi? Qanday yaxshi! – deb xitob qildi.

Jorj aftini burishtirdi.

– Ha, rosa boplabsan, endi parlamentga jo'namoqchi bo'lib turuvdim, kelib qoldi. Qani, nima gaping bor, ayt?

Xonim uni o'pib qo'yish uchun yuzidagi to'mni ko'tardi va kaltaklangan itday bo'lib oldiga keldi.

– Muncha menga sitam qilasan... Muncha dilimni og'ritasan... Senga nima qildim? Meni qanchalar xafa qilayotganligingni o'zing ham bilmaysan!

– Yana boshladingmi? – to'ng'illadi Jorj.

Valter xonim uning oldida turar, uning tabassum qilishini, yumshashini kutar, shunda quchoqlariga olgisi kelardi.

– Sendan shunday qilasan deb kutmagan edim, – sekin gap boshladi u. – Nega unda meni yo'ldan urding, meni o'z holimga qo'ymading, qanday baxtiyor va toza edim ilgari. Cherkovda gapirgan gaplaring esingdami? Meni bu uyga zo'rlab olib kelganingda-chi? Endi bo'lsa to'ningni teskari kiyib olding! Meni xo'rlaganing xo'rlagan! Xudoyim-ey, voy Xudoyim-ey, meni ne ko'y-larga solding o'zi, Jorj!

Jorj g'azab bilan yer tepindi:

– Bas-bas! Jin ursin! Men bilan shu ashulangni aytmasdan turolmaydigan bo'lib qolibsana. Xuddi men seni yigirma yashar chog'ingda olganday gapirasan, o'zingni farishta, mohpora qilib ko'rsatasan. Yo'q, azizim, gapning po'skallasini aytib qo'ya qolaylik: men yosh bolani yo'ldan urganim yo'q. Mening qo'ynimga kirganingda aqli hushing o'zingda edi. Sendan g'oyatda minnatdorman, ming rahmat senga, lekin men umrimning oxirigacha sening etagingga bog'lanib o'tirolmayman, bunga rozi emasman. Sening ering, mening xotinim bor. Sen ham, men ham erkin qush emasmiz. Bir-birimizning ko'nglimizni yozdik, buni hech kimsa bilmaydi, – bo'ldi-da, yana senga nima kerak.

– O, bunchalar qo'pol bo'lmasang! Gaplaringni qara, uyal-maysanmi?! Rost, men qiz bola emasdim, lekin hech qachon birovni yaxshi ko'rmagan, hech qachon xiyonat qilmagandim...

Jorj uning gapini bo'ldi:

– Bilaman, bu gaplaring bilan miyamni qoqib qo‘limga berding. Lekin sening ikkita bolang bor... demak, menga qiz tekkaning yo‘q.

Valter xonim butkul o‘zini yo‘qotib qo‘ydi.

– Jorj, bu pastkashlik!..

Uning o‘kirib-o‘kirib yig‘lagisi keldi va ikkala qo‘llari bilan ko‘kraklarini changallagancha, piqillay boshladi.

Bu yog‘iga endi ko‘z yoshlari boshlanishini sezgan Jorj ketmoqchi bo‘lib kamindan shlyapasini oldi.

– A-a, yana diydioni boshladingmi? Unda xayr, men ketdim. Demak, yana bir tomosha ko‘rsatging kelib meni chaqirgan ekan-san-da, a?

Xonim uning yo‘lini to‘sish uchun bir qadam oldinga tashladi va shosha-pisha kissasidan ro‘molchasini olib, tezgina ko‘z yoshlarini artib oldi. U bor kuchi bilan o‘zini qo‘lga olishga harakat qilar, biroq shu qadar qattiq alamda ediki, ovozlari titrab, qaltirab chiqar edi.

– Yo‘q... men senga... bir gap topib keldim... siyosiy gap... men ellik ming frank pul ishlab olgin demoqchiydim, agar istasang, undan ham ko‘p topishing mumkin...

Jorj shu zahoti yumshab, chehrasi ochildi.

– Qanday qilib? Nima demoqchisan o‘zi?

– Kecha kechqurun erimning Larosh bilan gaplashayotganini tasodifan eshitib qoldim. Ular mening oldimda bemalol suhbatlashib o‘tiraverishdi. Valter Vazirga bu gaplarni Dyū Rua bilmasin, deb aytdi, bo‘lmasa, sirlarini fosh qilib qo‘yishing mumkin ekan.

Dyū Rua shlyapasini stolga tashladi. Darhol hushyor tortdi.

– Xo‘sh, qani, ular nima deyishdi?

– Ular Marokashni bosib olishmoqchi!

– Bo‘lmagan gap! Bugun Larosh bilan nonushta qildim, u menga yangi mahkamaning siyosatini gapirib berdi.

– Yo‘q, jonginam, ular seni laqillatishibdi. Ular o‘zlari o‘ylagan ishdan boshqalar xabardor bo‘lib qolishmasin, deb qo‘rqish-yapti.

– O‘tir, – dedi Jorj va o‘zi kresloga cho‘kdi.

Valter xonim kichkinagina kursichani oldiga tortib jazmani-ning tizzalari orasiga joylashib o‘tirib oldi.

– Men doimo seni o‘ylaganim-o‘ylagan. – yaltoqlanib so‘z boshladi u. – shuning uchun ham atrofdan nima gaplar bo‘layotganini yaxshilab eshitib olishga harakat qiladigan bo‘lib qoldim.

Shundan keyin u oxirgi paytlarda Jorjni chetga chiqarib qo‘yishga urinayotganlari, unga aytmay yeng ichida ish bitirayotganlari, uning mehnatidan foydalanib, lekin boshqa ishlariga aralashtirmaslikka harakat qilayotganliklarini oqizmay-tomizmay aytib berdi.

– Bilasanmi, yaxshi ko‘rganingdan keyin mug‘ambirlik qilishga o‘rganar ekansan, – dedi u yana.

Nihoyat, kecha unga hammasi ravshan bo‘libdi. Imi-jimida juda zo‘r ishlar bitirilayotgan ekan. Valter xonim endi tabassum qilib o‘zining ularni qanday boplaganligi, hamma gaplarini qanday bilib olganligini maroq bilan so‘zlab berardi, sarmoyadoming xotini ko‘zi o‘ngida birjani alg‘ov-dalg‘ov qilib yuboradigan rejalar ishlab chiqilgan, aksiyalarning qimmatini tushirilgan, boshqa birlarining bahosi ko‘tarilgan, barcha jamg‘armalarini biron foydali ishga qo‘ygan, bir og‘iz gap bilan aytganda, ming-minglab mayda burjua, kamquvvat yer egalari xonavayron qiladigan, ko‘z ochib-yumguncha to‘satdan barcha jamg‘armalaridan ayiradigan ishlar pishirilgandi. Bu sho‘rliklar esa, biz jamg‘armamizni muhtaram zotlar – bankirlar va siyosiy arboblardan boshqarayotgan, foyda keltiradigan ishlarga tikdik, deb yurishibdi xomcho‘t qilib.

– Ha, ishqilib, juda boplashmoqchi. G‘oyatda puxta o‘ylashgan, – deya takrorlardi xonim. – Aytganday, bularning barini ilonning yog‘ini yalagan Valter o‘ylab topdi, bunga kelganda juda kallasi ishlaydi uning. Tan berish kerak, juda ichdan pishgan ustomon odam.

Bu gaplar Jorjning ensasini qotira boshladi, u tezroq gapning daromadini eshitgisi kelardi.

– Bo‘l, gapir tezroq.

– Shunday qilib desang, Tanjerga harbiy yurish qilish qarori Larosh tashqi ishlar Vaziri bo‘lgan kundayoq hal bo‘lgan ekan. Ungacha Marokash bo‘yicha chiqarilgan zayomlarning obligatsiyalari oltmish to‘rt-oltmish besh frankkacha tushib ketgan, bu zayomlarning hammasini ular bitta qo‘ymay sotib olishgan. Sotib olishganda ham har xil qalang‘i-qasang‘i, mayda birja korchalon-

lari orqali asta-sekin, hech kimda shubha tug'dirmaydigan qilib olishgan. Rotshildlar Marokash zayomi bunchalik chaqqon bo'lib qolganidan hayron bo'lishgan, lekin ular ham nimaligini bilolmay dog'da qolishgan. Ularga zayomlarni kimlar sotib olayotganligini aytishgan ekan, hammasi qo'li egri, betaym odamlar ekan, deb xotirjam bo'lishibdi. Mana endi ertami-indin harbiy yurish qilinadi va biz Tanjerga kirgan zamonimiz, fransuz hukumati darhol zayom bilan ta'minlaydi. Bizning do'stlarimiz ellik-oltmish million foyda ko'rishadi. Gap nimadaligini endi bildingmi? Ularning nega har narsadan cho'chib, g'oyatda ehtiyotkorlik qilayotganliklarini endi tushundingmi?

U Jorjning nimchasiga boshini qo'yib olgach, qo'llarini uning tizzalari ustiga tashlagan edi: u endi Jorjga kerakligini anglab turar, shuning uchun ham unga erkalanar, suykalar, uning bir erkala-shiga, bir og'iz shirin so'ziga, tabassumiga butun joni jahonini tikib yuborishga tayyor edi.

– Sen adashayotganing yo'qmi? – so'radi Jorj.

– Topgan gapingni qara-chi! – deya xitob qildi xonim o'z so'zlariga ishonch bilan.

– Ha, juda boplashibdi, – tan oldi Jorj. – Lekin bu muttaha-m Laroshga hali ko'rsatib qo'yaman. Hali shoshmay tursin, ablah! Hali ko'radi!.. Seni Vazirlikdan oyog'ingni osmondan qilib yubor-masam, otimni boshqa qo'yaman!

U o'ylanib qoldi.

– Nima bo'lmasin, lekin bundan foydalanib qolinsa, yomon bo'lmasdi, – deya g'o'ldiradi Jorj.

– Zayomlarni hali sotib olsa bo'ladi, – dedi xonim. – Har bir obligatsiya bor-yo'g'i yetmish ikki frank turadi.

– Shundog'-u, biroq hozir ortiqcha pulim yo'q, – deb e'tiroz bildirdi Jorj.

Xonim Jorjga yalingannamo qilib qaradi.

– Men buni ham o'ylab ko'rdim, qo'zichog'im, agar meni jindakkina sevsang, baraka topkur, baraka top, senga ozgina qarz berib turishimga ijozat et.

– Bekorlarni aytibsiz, – deya siltab tashladi Jorj.

– Menga qara, – yalinardi Valter xonim, – shunday qilishimiz ham mumkinki, sen qarz olib o'tirmaysan. O'zimning ham ozgina

pulim bo'lsin deb, men o'n ming frankka o'sha obligatsiyalardan sotib olmoqchi bo'lib yuruvdim. Endi bo'lsa, o'n mingga emas, yigirma mingga sotib olaman! Buning yarmi seniki bo'ladi. O'zing bilasanki, bu pullarga Valterning sira aloqasi yo'q. Shuning uchun ham menga hozir u pullar kerakmas. Agar ish o'ngidan kelsa, sen yetmish ming frank bersang, o'zing bilasan.

– Yo'q, bu menga to'g'ri kelmaydi, – deb e'tiroz bildirdi Jorj.

Shunda Valter xonim unga, aslida, mendan o'n ming olasan, mening gapim bilan, demak, sen tavakkal qilgan bo'lasan, men shaxsan o'zim senga bir frank ham bermayman, lekin obligatsiyalarning haqini «Valter banki» to'laydi, deb uni ishonтира boshladi.

U gapining oxirida o'zing shunday bo'lsin deb «Fransuz hayoti» sahifalarida tinmasdan yozib turuvding, shu ishning ro'yobga chiqishiga o'zing ham sababchi bo'lding, endi bundan foydalanib qolmaslik g'irt tentaklik bo'ladi, deb aytdi.

Jorj hamon ikkilanib turardi.

– Mundoq o'zing o'ylab ko'r, – deb qo'shimcha qildi xonim, – rostim aytganda, o'n ming frankni senga Valter bergan bo'lib chiqadi, sening unga ko'rsatgan xizmatlaring bundan yuqoriroq turadi.

– Bo'pti! – dedi Jorj. – Teng o'rtada sherik bo'lamiz. Agar biz yutqizsak, senga o'n ming frank beraman.

Bundan o'zida yo'q xursand bo'lib ketgan xonim o'midan dik etib turdi-da, uning boshini achomlab olib yutoqlik bilan o'pa boshladi.

Avval Jorj indamay qo'yib berdi, qarasa, u juda haddidan oshib ketadigan, shunda Jorj saldan keyin boshqa biri kelajagini esladi va o'zini tiymasa, kuchi kampirga ketib, yoshga kelganda so'ljayib qolajagini angladi.

U sekingina xonimni o'zidan nari itardi.

– Bas, bo'ldi, o'zingni bos!

Xonim unga och nazar bilan tikildi.

– Oh, Jorj, meni endi o'pgani ham qo'ymaysan.

– Faqat bugun emas, – dedi Jorj. – Boshim og'rib turibdi, bundan yana beshbattar bo'lishim mumkin.

Shunda Valter xonim itoat bilan uning oyoqlari tagiga o'tirdi.

– Ertaga biznikiga mehmonga kel, – dedi xonim. – Boshim osmonga yetadi!

Jorj bir necha muddat ikkilanib turdi, lekin baribir oxirida unga, yo‘q, borolmayman, deb aytolmadi.

– Yaxshi, boraman.

– Rahmat, jonim.

Xonim erkalanar ekan, yuzlarini uning ko‘kragiga ohista surtardi, bu to uning sochlari Jorjning nimchasi tugmachalariga ilinib qolgunchayin davom etdi. Shunda buni sezgan xotinning kallasiga bir fikr kelib qoldi, bunday bo‘lmag‘ur xayollar xotinlarning kallasiga odatdan tashqari ko‘p kelib turadi. U ilinib qolgan sochini tugma atrofida ohista o‘ray boshladi. Keyin boshqa soch tolalarini ham xuddi shu yo‘sinda o‘rab aylantirib chiqdi. Har bir tugmachaga uning sochlari bir-bir o‘ralib qoldilar.

Mana hozir Jorj o‘rnidan turadi va sochlarini yulib oladi. Jorji uning joniga ozor beradi. – qanday baxt bu! O‘zi ham bilmagan holda ma‘shuqasidan xotira olib ketadi, soch tolalarini ola ketadi, lekin uning o‘zi sochingni tolalaridan ber, deb hech qachon so‘ramagandi. Mana shu sirli ko‘rinmas tolalar bilan uni o‘ziga bog‘lab, rom qilib oladi. Sochining tolalari unga bir tumor bo‘ladi va u o‘zi istamasa ham ma‘shuqasini o‘ylaydigan, uni tushlarida ko‘radigan bo‘lib qoladi va ertaga uni ko‘proq yaxshi ko‘radi, erkalatadi.

– Men borishim kerak, – deb qoldi Jorj to‘sindan, – majlis tugaganda meni palatada kutib turishmoqchi edi. Bormasam bo‘lmaydi.

– Oh, muncha tez! – dedi xonim xo‘rsinib va itoatgo‘ylik bilan qo‘shib qo‘ydi: «Mayli, boraqol, jonim, lekin ertaga, albatta, biznikiga kel, xo‘pmi?» – dedi-da silkinib kallasini orqaga tashladi.

Bir zum uning ko‘z o‘ngi qorong‘ilashib ketdi, boshiga sonsiz ignalar sanchilganday bo‘lib tuyuldi. Yuragi hapriqib ketdi. U Jorj uchun bunday og‘riqqa chidaganidan behad shod edi.

– Xayr! – dedi u.

Jorj ma‘shuqasiga marhamat yuzasidan tabassum qildi, quchdi va istar-istamas uning ko‘zlaridan o‘pib qo‘ydi.

Biroq mana shuning o‘zidanoq Valter xonim telbalanib, hushini yo‘qotib qo‘yar darajaga keldi.

– Muncha tez! – yana pichirladi u.

Uning yolvorib boqqan ko'zlari yotoqning qiya ochilgan eshiklarini ko'rsatib turardi.

Jorj uni qo'li bilan nari itardi.

– Tez bormasam bo'lmaydi, kechga qolaman, – deb g'o'ldiradi u tashvishli chehra bilan.

Shunda Valter xonim unga dudoqlarini tutdi. lekin Jorj ularga labini pichagina bosib qo'yish bilan cheklandi va xonim unutayozgan shamsiyasini uning qo'llariga tutqazib dedi:

– Ketdik, ketdik, vaqt bo'lib qoldi, soat to'rt bo'lay deyapti.

Valter xonim uning oldiga tushib borardi va tinmay takrorlardi:

– Ertaga soat yettida.

– Ertaga yettida – tasdiqlab qo'ydi Jorj.

Ular ajralishdilar. Xonim o'ng tomonga, Jorj chapga ketdi.

Dyu Rua tashqi bulvargacha bordi. Keyin shoshmasdan Malzerb bulvari bo'ylab ketdi. Qandolatxonaning yonidan o'tib borarkan, billur vazaga solib qo'yilgan, shakar sepilgan kashtan danaklarini ko'rib qoldi. «Klotildaga olib boray», – deb o'yladi u va Klotilda jonidan ham yaxshi ko'radigan bu shirinlikni sotib oldi. Soat to'rtida u uyga qaytib keldi va suyuqli ma'shuqasini kuta boshladi.

Klotilda biroz kechikib keldi. Eri bir haftaga uyga qaytgan ekan.

– Ertaga biznikiga kel, – deb taklif qildi Klotilda. – U seni ko'rsa juda xursand bo'lib ketadi.

– Yo'q, ertaga meni xo'jayin ziyofatga aytgan. Juda ishimiz boshimizdan oshib ketdi, siyosiy, moliyaviy masalalarni ko'rib chiqishimiz kerak.

Klotilda shlyapasini yechdi. Keyin o'ziga torroq kelib qolgan korsajini yecha boshladi.

Jorj ko'zlari bilan kamin ustida turgan paketga ishora qildi.

– Senga shirin kashtan olib keldim.

Klotilda chapak chalib yubordi:

– Muncha yaxshi! Oh, o'zimning jonginam-ey! U paketni olib danakdan yeb ko'rdi-da, – dedi:

– Yeb to'ymasan! Hali buningni birpasda yeb qo'ymasam deyman.

Keyin Jorjga sho'xlik va hirs to'la ko'z bilan qararkan, qo'shib qo'ydi:

– Yurgan yo‘lingda meni o‘ylab yurarkansan-da, a. to‘g‘rimi?

U kashtanlarni ohista chaynab yer va tamom bo‘lmayaptimi deganday qilib dam-badam paket ichiga qarab qo‘yardi.

– Kel, kresloga o‘tir, – dedi u, – men bo‘lsam, oyoqlaringga o‘tirib olib konfet yeyman. Menga shu juda yoqadi.

Jorj o‘tirdi va hozirgina Valter xonim bilan o‘tirganday qilib uni tizzalari orasiga oldi.

Klotilda unga gapirganda dam-badam boshini ko‘tarib qo‘yardi.

– Bilasanmi, tasadduq, – og‘zini shirinlik bilan to‘ldirgan holda so‘ylardi Klotilda, – seni tushimda ko‘rdim: tushimda ik-kalamiz tuyaga o‘tirib uzoqlarga ketayotgan emishmiz. Tuyaning ikki o‘rkachi bor ekan: bittasiga sen o‘tirib olibsan, boshqasiga men, sahrolardan o‘tib borayotgan emishmiz... Qog‘ozga o‘rog‘li go‘shimiz, shishada vino bor ekan, o‘rkachda o‘tirib olib ulardan tanovul qilayotgan emishmiz. Lekin men boshqa qiladigan ish bo‘lmaganligidan zerikib ketibman. Biz bir-birimizdan uzoqda o‘tirganimizdan tuyadan tushgim kelib qolibdi.

– Mening ham tushgim kelib turibdi, – deya tan oldi Jorj ham.

Ma‘shuqasining hikoyasidan u zavqlanar, Klotildani hazil-huzulga qistar, uning sho‘xlik bilan undan-mundan gapirib o‘tirishiga qo‘yib berar, valaqlashiga jon qulog‘ini osib tinglardi, bunaqa suhbatlar, odatda, faqat oshiq-ma‘shuqlar o‘rtasida-gina bo‘ladi. Bunaqa valaqlashishni Valter xonimning og‘zidan eshitganlarida uning jon-poni chiqib ketsa, de Marel xonimning og‘zida bular shirin kalom bo‘lib tuyular, og‘zingga shakar, deb yuborgisi kelib ketardi uning.

Klotilda ham Jorjni «Tasadduq, bolajon, mushugim», deb atardi. Shunda bu so‘zlar uning qulog‘iga moyday yoqar, ajib bir lazzat bag‘ishlardi diliga. Vaholanki, boyagina shu so‘zlar bosh-qasining og‘zidan chiqqanda tepa sochi tikka bo‘lib ketay derdi. Muhabbatning tili doimo bir xilda, faqat ularni talaffuz qilguvchi mahbubalargina har turlidir.

Lekin Dyu Rua ma‘shuqasi bilan kulib o‘ynashib o‘tirarkan, o‘zi yutishi mumkin bo‘lgan yetmish ming frank xayolidan ko‘tarilmagandi. Shunda u barmog‘ini ma‘shuqasining boshiga tekkizdi-da, kutilmaganda uning gapini bo‘ldi:

– Eshit, jonim. Sening eringga tegishli bir gap bor. Unga mening nomimdan ayt: ertagayoq o'ng ming frankka Marokash zayomini sotib olsin, har bir obligatsiya yetmish ikki frank turadi. Uch oy o'tar-o'tmas u oltmish mingdan sakson ming frankkacha foyda ko'rishi mumkin, bunga men kafil bo'laman. Lekin buni biron kimsa bilmasligi shart, qattiq tayinlab qo'y. Mening nomimdan Tanjerga harbiy yurish qilinajagi va fransuz hukumati Marokash zayomini ta'min etajagini ma'lum qil. Biroq biron zot bu haqda bilmasin. Senga davlat sirini aytyapman.

Klotilda uning so'zlarini diqqat bilan eshitib oldi.

– Rahmat, – deya shivirladi u. – Erim bilan shu bugun kechqurun gaplashaman. Unga bemalol ishonsa bo'ladi, u valdirab yuradigan odam emas. U ishonchli kishi. Odamni uyaltirmaydi.

Klotilda kashtanlarni yeb bo'ldi. U paketni g'ijimlab kaminga tashladi.

– Qani, endi o'ringa sho'ng'iymiz, – dedi u va o'midan turmay Jorjning nimchasini yecha boshladi...

Keyin birdan engashib ikki barmog'i bilan tugmachaning teshigidan soch tolasini sug'urib oldi.

– Buni qara, – dedi u kulib. – Senga Madlenaning sochi ilashib qolibdi. Vafodor ermi topib olganlarini qarang!

To'sindan u qovog'ini soldi va kaftida zo'rg'agina ko'rinib turgan sochni tomosha qila boshladi.

– Yo'q, bu Madlenaniki emas, uning sochi qora, – pichirladi u. Jorj kuldi.

– Balki, xizmatkor qiznikidir.

Biroq Klotilda xuddi ayg'oqchiga o'xshab nimchani zehn solib tekshira ketdi: tugmachaga o'ralgan boshqa soch tolasini topdi, keyin yana boshqa birini. Uning rangi qum o'chdi, keyin badani uvushganday cho'chib tushdi.

– A-a – xitob qildi u. – Sen o'ynashing bilan yotibsan, u sochlarni tugmachalaringga o'rab qo'yibdi!

Jorj hayratda qotdi.

– Undaymas. Esingni yeb qo'yibsan, – g'o'ldirardi u. Lekin shunda esiga Valter xonim tushdi va nima bo'lganiga tushundi, oldin biroz tili tutilib turdi, keyin kulib, bo'lmagan gap, deb turib oldi, zotan, Klotilda uni xotinboz yigit, deb o'ylashiga qarshi emasdi.

Klotilda hamon qidirishda davom etar, yana sochlar topar va ularni polga olib tashlardi.

U tajriba ko'rgan xotin emasmi, darrov gap qayoqda ekanligini fahmladi va jon-poni chiqib ketdi.

– U seni yaxshi ko'rarkan... – g'azab bilan hiqillab derdi Klotilda. – Sen bilan sochi ketishini istab qolibdi... Sotqin!

Kutilmaganda uning bo'g'zidan zaharxanda chinqiriq otilib chiqdi:

– A! A! E, bu kampir ekan-ku... mana, oq soch... A! A, endi kuning kampirlarga qolibdi-da... Ular senga pul berishadimi?... Ayt, pul berishadimi?... A-a! Sen hali kampirlar bilan o'ynashib yurgan ekansan-da! Demak, senga boshqa keragim bo'lmay qolibdi-da?... Mayli, o'sha kampirlaring bilan donlashaver...

U o'midan sakrab turdi va kursida yotgan korsajini olib, sho-sha-pisha kiyina boshladi.

Jorj uni olib qolishga urinardi.

– Undaymas, axir, Klo... – xijolat bo'lib ming'irlardi u. – Tentak bo'lma... O'zim ham bilmayman... Menga qara, ketma... ketma deyapman senga!

– O'sha kampiring bilan donlashaver... kampiring bilan donlashaver... – derdi u nuqul... – O'zingga uning sochlaridan uzuk yasatib ol... oq sochlaridan... bunaqa sochlarni istagancha topa olasan...

U tez kiyinib oldi, shlyapasini kiydi, yuzidagi to'mni tushirdi. Jorj uni ushlab qolaman, degan edi, Klotilda qulochkashlab shapaloq tushirdi va Jorj hali o'ziga kelmay turib, eshikni ocha tashqariga otilib chiqib ketdi.

Yolg'iz o'zi qolgach, Jorj qari megajin Valter xonimni o'ylab qattiq jahli chiqdi. Mana endi, unga ko'rsatib qo'yadi, adi-badi aytishib o'tirmaydi endi, qayerga borsa, shu yerga borsin.

Uning yuzi lovillab yonmoqdaydi, yuzini suv bilan ho'lladi. Keyin qandoq o'ch olishini o'ylab ko'chaga chiqdi. Buni endi kechirmaydi. Sira kechirmaydi, tamom!

U bulvarni aylanib yurarkan, tilla magazinining oynasi oldida to'xtadi, oyna, ortida xronometr yaraqlab turardi. Dyu Rua necha zamonlardan beri uni sotib olmoqchi bo'lib yurar, lekin puli chaqib turar, xronometrnig bahosi bir ming sakkiz yuz frank edi.

Birdan uning yuragi shod gumurib ketdi: «Yetmish ming yutsam, o'shanda sotib olaman». Shundan keyin u yetmish ming frank pulga nimalar qilishi mumkinligi haqida xayol surdi.

Oldin deputat bo'ladi. Keyin xronometr sotib oladi, keyin bir-jada o'ynaydi, keyin, keyin...

Tahririyatga borgisi kelmadi: oldin Madlenani ko'ray, keyin Valterlar bilan gaplashaman, undan so'ng maqolaga o'tiraman, deb uyga tomon yo'l oldi.

Dyurua «Druo» ko'chasiga yetganda birdan to'xtab qoldi: u graf Vodrekni ko'rib chiqmoqchi edi, unutayozibdi, graf d'Anten shossesida turardi. Salanglagan yurish bilan u yana orqasiga qaytdi, ko'p ajoyib, yoqimli, laziz narsalar borligi haqida shirin xayol-larga botdi, tez orada boyib ketishini o'yladi, shular orasida esiga anovi palid Larosh va qari megajin Valter xonim ham tushib qolar, ta'bi tirriq bo'lardi. Klotildaga kelganda, u xotirjam edi: Klo jahli-dan tez tushishini bilardi.

Graf Vodrekning uyiga kelib qorovuldan so'radi:

– Janob de Vodrekning sog'liqlari yaxshimi? U kishining tob-lari yo'q deb eshitgan edim.

– Grafning juda mazalari qochgan, afandim, – dedi qorovul. – Ertaga ham bormasa kerak deyishyapti, bodi yurakka urib ketibdi.

Dyu Rua shamday qotdi, u nima qilishini bilmasdi, Vodrek o'layotganmish! Uning miyasida noaniq, majhul, hayajonga so-ladigan fikrlar g'ijimladi, bular shunday fikrlar ediki, ularni hatto o'ziga aytishga ham cho'chirdi.

– Tashakkur... Yana kelaarman... – deya ming'irladi nima deyayotganini o'zi ham anglamay.

Keyin aravaga o'tira solib uyga jo'nadi. Madlena uyda ekan. U xotining oldiga hansirab, hovliqqancha kirib keldi. Da'fatan turib:

– Eshitganing yo'qmi? Vodrek o'layotibdi, – dedi.

Madlena xat o'qib o'tirgan edi. Bu so'zlarni eshitib ko'zlarini eriga tikdi-da, uch qaytalab so'radi:

– A? Nima deding?... Nima deding?... Nima deding?..

– Vodrek o'lim to'shagida yotgan ekan, bodi yuragiga urib ketibdi. Endi sen nima qilmoqchisan? – qo'shib qo'ydi yana.

Madlenaning rangida rang qolmadi, yonoqlari tinmay uchdi. U o'rnidan turdi va qo'llari bilan yuzini to'sib, kuyinib yig'lay bosh-

ladi. Musibatning zoʻridan u bir muddat taxta boʻlib qoldi, faqat sassiz yigʻidan uning yelkalari silkinib turardi.

Lekin birdan oʻzini bosdi va koʻz yoshlarini artди.

– Men boray... men uning oldiga boray... Sen tashvish tortma... bilmayman, qachon kelaman... kutib oʻtirma...

– Mayli, bora qol, – dedi eri.

Ular bir-birovlarining qoʻllarini siqib qoʻyishdi va Madlena shoshib, qoʻlqopini ham unutgancha chiqib ketdi.

Jorj bir oʻzi oʻtirib ovqatlanadi, keyin maqolaga oʻtirdi. Maqola Vazirning koʻrsatmalariga butkul amal qilgan holda yozildi. Marokashga harbiy yurish qilinmasligi imo-ishoralar vositasida gazetxonlar oʻzlari anglab oladigan darajada maʼlum qilindi. Keyin uni tahririyatga olib bordi, xoʻjayin bilan bir necha muddat gaplashib oʻtirdi, soʻng negaligini oʻzi ham bilmay, kayfiyati chogʻ boʻlib papiros tutatgancha uyga qaytdi.

Xotini hali ham qaytmagan ekan. U yotib uxlab qoldi.

Madlena yarim kechalarga borganda keldi. Jorj koʻzini ochib oʻrin ustiga oʻtirdi.

– Ha, nima boʻldi? – soʻradi u.

U xotinini hech qachon bunchalar rangi oqargan, dili vayron boʻlgan holda koʻrmagandi.

– Oʻldi, – shivirladi xotini.

– A! Oʻzi... senga hech narsa demadimi?

– Hech narsa. Men borganimda u hushidan ayrilib yotgan ekan.

Jorj oʻylanib qoldi. U xotinidan allanimalamidir soʻramoqchi boʻlar, biroq jurʼat etmasdi.

– Yotib uxla, – dedi u xotiniga.

Xotini bir zumda yechindi-da, uning yoniga shoʻngʻidi.

– Oʻlayotganda bironta qarindosh-parindoshlari ham bormidi? – soʻrashdan toʻxtamasdi Jorj.

– Bittagina jiyani bor edi.

– A! Nima, jiyani uning oldiga tez-tez borib turarmidi?

– Hech bormasdi. Ular oʻn yildan beri yuz koʻrishmasdilar.

– Uning yana boshqa qarindoshlari ham bormi?

– Yoʻq... Boʻlmasa kerak.

– Unda... hammasi jiyaniga qolar ekan-da?

– Bilmadim.

– Vodrek badavlatmide?

– Ha, juda ham boy edi.

– Bilmaysanmi, taxminan qancha davlati bo'lishi mumkin uning?

– Anig'ini bilmayman. Bir-ikki million puli bo'lsa kerak, shunga yaqinroq.

U xotinidan boshqa hech narsa so'ramadi. Madlena shamni o'chirdi. Ular indamasdan o'z xayollariga berilgan holda hayajon ichida yonma-yon yotar edilar.

Dyu Ruaning uyqusi qochib ketdi. Valter xonim aytgan yetmish ming frank endi uning ko'zlariga urvoqcha ham ko'rinmay qoldi. Birdan nazarida Madlena yig'layotganday bo'lib tuyuldi. To'g'rimi, yo'qmi ekanligini bilish uchun uni chaqirdi.

– Uxladingmi?

– Yo'q.

Xotinining ovozi yig'laganligidan qaltirab chiqar edi.

– Senga Vaziring bizni laqillatib ketmoqchi bo'lganligini aytishni unutibman.

– Qanday qilib?

U Valter bilan Laroshning ko'zlab yurgan ishlarini birma-bir oqizmay-tomizmay gapirib berdi.

– Sen buni qayerdan bilasan? – so'radi Madlena u gapini tamom qilgach.

– Bunisi endi sir, – javob qildi Jorj. – Sening o'z ma'lumot yig'adigan joylaring bor va ularni men surishtirmayapman. Memki ham bor, lekin buni senga aytib o'tirmayman. Biroq haligi gapning to'g'riligiga kalam bilan javob beraman.

– Rost, to'g'ri bo'lsa kerak... – pichirladi Madlena. – Ular bizdan yashirib bir nimalar qilib yurganlarini sezgandim.

Jorjning uyqusi o'chdi, u xotiniga yaqinroq surildi-da, ohista uning quloqlaridan o'pdi. Madlena uni itarib tashladi.

– O'tinaman, meni tinch qo'y! Ko'nglimga hech narsa sig'may turibdi.

Dyu Rua itoatgo'ylik bilan orqasini o'girib oldi, ko'zlarini yumdi va aloha uxlab qoldi.

Cherkovga qora matolar osib tashlangandi: eshik tepasiga oʻrnatilgan va katta toj surati tushirilgan lavha dvoryanlarga mansub odam dafn qilinayotganidan darak berib turardi.

Dafn marosimi hozirgina tugab, unga kelganlar tobut va graf de Vodrekning jiyani atrofidan aylanib oʻtib, tarqalishmoqda edi; Vodrekning jiyani hammaga taʼzim qilib, qoʻllarini qisib qoʻyardi.

Jorj bilan Madlena uyga birgalikda qaytdilar. Ular nimadandir tashvishlanganday koʻrinishar, indamay borardilar.

– Har holda juda qiziq! – oʻzi bilan oʻzi gaplashganday dedi Jorj.

– Nimasi qiziq ekan, jonim? – soʻradi Madlena.

– Vodrekning bizga hech narsa qoldirmaganida.

Madlena birdan qizarib ketdi. – goʻyo yuziga tutgan toʻri lola-day qizil tusga kirib, uning oppoq chehrasini toʻsib qolganday edi.

– Umuman, nega endi u bizga biror narsa qoldirishi kerak ekan? – dedi Madlena. – Bunga uning hech bir asosi yoʻq edi.

Keyin biroz jimlikdan soʻng yana qoʻshib qoʻydi:

– Shunisi ham borki, vasiyatnoma bironta notarius qoʻlida saqlanayotgan boʻlsa ham ajabmas. Hali hech narsa maʼlum emas.

– Boʻlsa, bordir, – deya uning fikriga qoʻshildi mulohaza qilib koʻrgan Jorj, – nima boʻlganda ham u bizning eng yaqin doʻstimiz edi, senga ham, menga ham. Haftasiga ikki marta biznikida mehmon boʻlar, istagan paytida oʻz uyiga kelganday kirib kelaverardi. Biznikida yurganda oʻz uyida yurganday his qilardi oʻzini. Seni u oʻz qiziday eʼzozlardi, oilasi yoʻq edi: na farzand, na aka-uka, na opa-singil, shu yolgʻiz jiyanidan boshqa hech kimi yoʻq edi, jiyanining oʻzi ham tugʻishgan qarindoshlardan emas buning ustiga. Rost, vasiyati boʻlsa, ehtimol. Men juda katta narsaga koʻz tikayotganim yoʻq, lekin soʻnggi daqiqalarda ham bizni oʻylagani, bizni jonidan yaxshi koʻrgani, unga oʻz farzandlariday bogʻlanib qolganligimizni bilgani hurmati yuzasidan bularga oʻzimdan biron yodgor qoldiray degan boʻlishi kerak. Har holda u bizga yetti yot begona emasdi, shuning uchun undan biron narsa kutayotgan boʻlsak, asosimiz yoʻq emas.

– Rostdan ham, u biron nima vasiyat qilib qoldirgan bo'lsa ajabmas, – dedi Madlena o'yg'a tolgan holda befarqqina qilib

Uyga kelganlarida xizmatkor Madlenaga xat berdi. Madlena uni o'qib chiqib, eriga uzatdi.

«Notarius Lamaner idorasi, Vogeov ko'chasi, 17.

Marhamatli xonim, Sizni lutfan mening idoramga seshanba, chorshanba, payshanba kunlari soat ikkidan to'rtgacha tashrif buyurishingizni o'tinaman, Siz taalluqli bo'lmish ish yuzasidan.

Hurmat ila, Lamaner».

Bu safar Jorj qizarib ketdi.

– Bu o'sha narsa bo'lsa kerak. Lekin qizig'-a, meni – qonuniy oila boshlig'ini chaqirmasdan seni chaqiribdi.

Madlena avval unga hech narsa demadi, keyin o'ylab ko'rgach, aytdi:

– Istasang, u yerga hozirning o'zida birga borib kelamiz?

– Istaganda qandoq.

Nonushtadan keyin ular notariusning huzuriga yo'l olishdi.

Ular Lamanerning idorasiga kirib borishlari bilanoq katta xizmatchi o'rimdan sakrab turib, ularni tavozelar bilan xo'jayinining oldiga boshlab kirdi.

Notarius kichkinagina, dum-dumaloq odam ekan. Kallasi boshqa bir sharga o'rnatib qo'yilganga o'xshar, o'z navbatida bu har ikkala shar ikki kalta, kichkina oyoqlariga mahkamlab qo'yilganday ko'rinardi, nafsilamrga oyoqlari ham sharsimonroq edi.

U ta'zim qildi, o'tirishga o'rin ko'rsatdi va Madlenaga qarab dedi:

– Xonim afandim, sizni graf de Vodrekning sizga taalluqli vasiyati bilan tanishtirgani chaqirtirgan edim.

– O'zim ham shunday devdim-a, – deya pichirladi o'zini to'xtata olmay qolgan Jorj.

– Hozir men qisqagina bu hujjatni sizga o'qib beraman.

Notarius papkadan vasiyatnomani oldida, quyidagilarni o'qidi:

«Men, quyida imzo chekkan, Pol-Emil-Siprien-Gontran graf de Vodrek, aqli hushim joyida, xotiram salomat mahalida ushbu bilan o'zimning so'nggi xohishimni ma'lum qilaman.

O'lim doimo oyoqning ostidan chiqadi, shuning uchun ham, o'lim haq deb bilib, oldindan ushbu vasiyatnomani tuzib qo'yishga azm etdim, u notarius Lamaner qo'lida saqlanajak.

O'z vorislarim bo'lmaganligi sababdan men merosimni, u foyda keltiradigan qog'ozlar bo'yicha olti yuz ming frankni va mol-mulk bo'yicha farazan besh yuz ming frankni tashkil etadi. Kler-Madlena Dyū Rua xonimga qoldiraman, buning evaziga uning bo'yniga hech qanday shart va majburiyat yuklamayman. Undan marhum do'stining bu tuhfasini sadoqatim va behad ehtiromimning belgisi sifatida qabul etishini tamanno etaman».

– Vassalom, – deb qo'ydi notarius. – Vasiyatnoma o'tgan yilning avgustida tuzilgan va u ikki yil burun Kler-Madlena Foreste xonim nomiga tuzilgan xuddi shunday hujjatning o'miga yozilgandi. Birinchi vasiyatnoma ham menda saqlanadi va marhumning qarindoshlari norozilik bildiradigan bo'lsalar, graf de Vodrekning xohishi o'zgarmay qolganligiga dalolat bo'lib xizmat qilajak.

Madlena bo'zday oqarib ketgancha, boshini yerdan ko'tarmay o'tirardi. Jorj esa mo'ylablarini asabiy suratda burab-burab qo'yar edi.

– O'z-o'zidan ravshanki, – dedi notarius biroz jimlikdan so'ng, – sizning ijozatingiz bo'lmagan taqdirda xotiningiz bu merosni qabul qilishga haqli emas.

Dyū Rua o'midan turdi.

– Men o'ylab ko'rishim kerak, – dedi u quruqqina qilib.

Notarius yoqimtoygina tirjayib boshini qimirlatib qo'ydi.

– Bilaman, afandim, siz oriyat tufayli ikkilanib turibsiz. Shuni ham sizga ma'lum qilib o'tishim kerakki, graf de Vodrekning jiyani bugun ertalab vasiyatnoma bilan tanishib chiqdi va agar unga yuz ming frank berilgan taqdirda uni tamomila tan olishini ma'lum qildi. Mening nazarimda, vasiyatnoma shaksiz kuchga ega, biroq ish qo'zg'aladigan bo'lsa, turli mish-mishlar tug'ilishi mumkin, aftidan, siz buni istamasangiz kerak. Jamiyat buni o'zicha turli yo'sinda talqin qiladi. Har nechuk, menga barcha masalalar bo'yicha shanba kunigacha aniq javob berolmaysizmi?

Dyū Rua tasdiqlab bosh irg'adi:

– Yaxshi, afandim.

U tavoze bilan xayrlashdi, shu paytgacha miq etib og'zini ochmagan xotinini oldinga o'tkazdi va hamiyati yerga urilgan odam kabi to'mtayib chiqib ketdi, notarius uning bu holatini ko'rib kulgisini yig'ishtirib qo'ydi.

Uyga kelgach, Dyū Rua eshikni tarsillatib yopdi va shlyapasini karavotga irgʻitdi.

– Nima, Vodrek bilan oʻynashib yuramidingʻ?

Madlena yuzidagi toʻrni olarkan, shu zahoti aftini unga burdi.

– Menmi? Oʻ!..

– Ha, sen. Kim xotin kishiga oʻzining butun merosini qoldiradi, agar u...

Madlena qalt-qalt titrar, shaffof toʻr qadalgan toʻgnagʻichini sira chiqarolmasdi.

– Boʻldi... boʻldi... – bir soniya oʻylab olgach, qaltiragan toʻvush bilan gapirdi u. – Esingni yeb qoʻyibsan... Sen... sen... oʻzing hozirgina... aytmadimgmi... menga hech narsa qoldirmabdimi debʻ?

Jorj qoʻlga tushgan odamni gapdan ilintirish uchun harakat qilayotgan tergovchiga oʻxshab, xotining yuzidan koʻzlarini uzmay tikilardi, undan oʻziga kerakli gaplarni uqib olishga urinardi.

– Ha... Vodrek menga biron narsa qoldirishi mumkin edi... – har bir soʻzini chertib-chertib dedi u, – menga, yaʼni sening ering boʻlmish odamga. Menga, yaʼni oʻzining oʻrtogʻiga, tushunarlimi?... Lekin senga emas... senga emas... sen doʻsti boʻlgan taqdiringda ham... sengamas, sen mening xotinimsan-ku... Jamiyatda odob-axloq yuzasidan qaraganda, buning katta, juda ham boshqacha farqi bor.

Madlena ham uning tiniq feruza koʻzlariga tikilib turar, nigo-hini undan uzmas, gʻalati qilib tikilar, goʻyo ulardan bir narsa oʻqimoqchiday, inson miyasining hech kim yetolmaydigan qorongʻi puchmoqlariga yetib bormoqchiday boʻlardi. Bu puchmoqlar, odatda, biz oʻzimizni tutolmay qolgan kezlarda fikrimiz chalgʻib turgan mahallarda, oʻzimizni idora qilolmay qolganlarimizda, shu koʻz ochib-yumguncha oʻtib ketadigan va yuragimizning tub-tublarida saqlanayotgan sirlarni oshkor qilib qoʻyadigan damlarda birdan oʻz pardasini koʻtarib qoʻyadi.

– Shunday boʻlsa ham, menimcha... – sekin, toʻxtab-toʻxtab soʻylay boshladi Madlena, – agar bunchalar katta meros – boylik senga qoldirilganda, undan ham gʻalatiroq boʻlib tuyulmasmidiʻ?

– Nega endi? – keskin soʻradi Jorj.

– Chunki... – Madlena tilini tishlab qoldi, lekin darhol gapini eplab oldi. – Chunki sen mening erimsan... chunki u, rostini aytgan-

da, seni uncha yaxshi bilmasdi... chunki biz u bilan uzoq zamonlardan beri yaqinmiz... sen emas... chunki, Foreste hayot ekanligida tuzilgan birinchi vasiyatnoma ham mening nomimga edi.

Jorj katta-katta qadam tashlab xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi.

– Sen merosdan voz kechishing kerak, – dedi u.

– Mayli, – bamayli xotir dedi Madlena, – unda shanbagacha kutishning keragi yo‘q. Lamanerga hozir borib aytsak ham bo‘la-veradi.

Jorj uning oldida to‘xtadi. Shunda ular yana bir-birlariga tiki-lishib qoldilar. ikkalasi ham bir-birining yuragida ko‘milib yotgan simi bilishga, gap nimaga burilayotganligini anglashga, yashirin fikrlarini uqishga urinardilar, ularning ko‘zlari bir-birlarining vij-donlarini yalang‘och qilib ko‘rsatadigan sassiz, lekin alangali bir so‘roq bilan yiltirab turardi. Bu bir yostiqqqa bosh qo‘yib ham bir-birlariga begona bo‘lib qolgan odamlarning g‘alati, sirli ku-rashining naq o‘zi edi, zotan, ular doimo bir-birlaridan shubha-lanib, bir-birlarini kuzatib, qadam olishlarini ta‘qib etib yuradigan kishilar qavmidan bo‘lsalar-da, lekin baribir birining balchiqqqa botgan yuragi ikkinchisiga mudom noma‘lum bo‘lib qolaveradi.

– Menga qara, sen Vodrekning o‘ynashi bo‘lgansan, rostini ayt, – ovozini ko‘tarmasdan, to‘sindan uning basharasiga qarab tu-rib dedi Jorj.

Madlena yelkalarini qisib qo‘ydi.

– Ahmoqona gaplar... Vodrek meni o‘ziga juda ham yaqin ko‘rar edi, juda... lekin boshqa hech nima... hech qachon.

Jorj yer tepindi.

– Yolg‘on. Bunday bo‘lishi mumkin emas!

– Baribir, gap shu, – xotirjam e‘tiroz bildirdi xotini.

Jorj yana xonani charx urib keza boshladi, keyin yana to‘xtadi.

– Unda menga tushuntirib ber, nega u butun davlatini senga qoldiradi...

– Buning nimasiga hayron qolasan, – beparvogina qilib, mensimaganday gapirdi Madlena. – O‘zing aytding-ku, bizdan boshqa, to‘g‘rirog‘i, mendan boshqa uning sadoqatli do‘stlari yo‘q edi, meni u bolalik paytlarimdan beri biladi. Mening onam uning qarindoshlari qo‘lida ishlagan. U biznikiga kanda qil-

may kelib turardi, boshqa vorislari bo'lmagandan keyin u meni o'ylagan. U meni jindek yaxshi ko'rgan bo'lsa bordir. Lekin qaysi xotinni bunaqa sevishmagan? Balki, uning mana shu hech kimga bildirmagan yashirin muhabbati so'nggi xohishini ifodalash uchun qo'lga qalam olgan chog'da mening nomimni uning diliga solgandir, buning nimasi yomon? Har dushanba kunlari u menga gullar olib kelardi. Sen bunga sira hayron bo'lib o'tirmasding-ku, u gullarni senga olib kelmasdi-ku, to'g'rimi? Endi u yana o'sha sabab bilan menga merosini qoldiribdi, boshqa kimga qoldirsini edi, bo'lmasa. Aksincha, senga qoldirganda, juda ham g'alati bo'lib ko'ringan bo'lardi. To'g'ri emasmi? Sen unga kim bo'lasan?

U shu qadar xotirjam, samimiy gapirardiki, Jorj ikkilanib qoldi.

– Baribir, – dedi u, – bunaqa shartlar bilan biz merosni qabul qilmasligimiz kerak. Bu bizga katta zarar keltirishi mumkin. Har xil gap-so'z, shivir-shivirlar boshlanib ketadi, mening ustimdan kuli-shadi, mazax qilishadi. Birga ishlaydigan odamlar hali ham meni ko'rolmay yuradilar, ularning og'ziga bir gap tegmasin, boshingni ko'tarolmay qolasan. Men boshqalarga qaraganda yuz chandon o'z obro'yim ustida o'ylashim, uni saqlashim, yerga urmasligim kerak. Men xotinim tiliga kuchi yetmaganlar unga o'ynash, deb gapirib yurgan kishining qo'lidan bunaqangi sovg'a qabul qilishini istamayman. Foreste, balki, bunga ko'nib ketgan bo'lardi, lekin men rozi bo'lolmayman.

– Mayli, jonim, – mayinlik bilan dedi Madlena, – nari borsa bir million pulimiz kamroq bo'lar, nima qipti.

Jorj hamon u burchakdan bu burchakka borib kelar, ovozini chiqarib fikrlardi; u bevosita xotiniga gapirmayotgan bo'lsa ham, lekin uning gapi xotiniga qaratilgani ravshan ko'rinib turardi.

– Ha, bir million!.. Boringki, shundoq bo'la qolsin... Nima qilsak ekan... Vasiyatnomani shu tarzda tuzayotganda buning qanchalar nozik masala ekanligini, barcha odob qoidalarini bu bilan chilparchin qilganligini nahotki anglamagan bo'lsa. Meni qanchalar kulgili ahvolga solib qo'yajagini xayoliga ham keltirmagan... Juda-juda nozik gap... Mabodo yarmini mening nomimga yozganda ham butunlay boshqa masala edi.

U o'tirdi, oyoqlarini bir-biriga chalmashtirdi va xafa bo'lgan, dili og'rikan, ensasi qotib turgan, qattiq hayajonlangan paytlarida qiladigan odati bo'yicha mo'ylablarini buray boshladi.

Madlena o'qtin-o'qtin tikib turadigan ishini qo'liga oldi va kavlavani chuvatarkan, dedi:

– Meni bu ishga aralashtirma. Sen nima desang, shu.

Jorj anchagacha unga javob bermadi, keyin botinqiramaygina dedi:

– Odamlar hech qachon nima uchun Vodrek seni o'zining birdan bir merosxo'ri qilib tayinlaganligini va nega men bunga rozi bo'lganligimni to'g'ri tushunishmaydi. Ahvol shundoq bo'lib qoldiki, agarda biz merosni qabul qilsak, unda sen odamlar ko'zida o'zing jinoiy aloqada bo'lganligingni tasdiqlaganday bo'lasan, men esam shunga yo'l qo'yib bergan bo'lib chiqaman... Bizning rizoligimiz nimalarga olib borajagini endi bildingmi? Shuning uchun bu yerda ustalik qilish, bir yo'lini topish kerakki, keyin toki odamlar ko'zimizga cho'p tiqmaydigan bo'lishsin. Aytaylik, misol uchun, o'z merosining yarmini eriga, yarmini xotiniga qoldiribdi, deb gap tarqatish mumkin.

– Vasiyatnomada boyagiday qilib yozilgan holda sening bu gapingni qanday qilib amalga oshirish mumkin, bilmayman, – dedi Madlena.

– O, buning yo'li juda oson! Sen mening nomimga merosning yarmini o'tkazishing mumkin. Bolalarimiz bo'lsa yo'q, shuning uchun ham e'tirozlarga o'rin qolmaydi. Shunday qilganimizda og'ziga kuchi yetmaganlar miq etolmay qolishadi.

– Men yana sira tasavvur qilolmayapman, Vodrek qo'l qo'ygan hujjat bu yoqda tursin-da, biz qanday qilib g'iybatchilarning og'izlariga uramiz, – dedi sabrsizlik bilan Madlena.

– Bo'lmagan gap! – deya qizishib ketdi Jorj. – Kim bizga vasiyatni menga ko'rsat yoki uni devorga osib qo'y deyapti? Biz graf Vodrek o'z merosini ikkimizga teng bo'lib bergan, deb aytamiz... Vassalom... Axir, men ijozat bermasam, sen merosni qabul qilolmaysan-ku. Ruksatimni esa faqat bir shart bilan, ya'ni meros o'rta-da teng bo'lingan taqdirdagina beraman, bo'lmasa, umr bo'yi ham-maga kulgi bo'lib o'taman.

Madlena yana bir karra unga sinovchan nazar tashladi.

– O‘zing bilasan. Men roziman.

Buni eshitgan Jorj o‘rnidan turib ketdi va yana xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Aftidan, u yana shubhalar girdobiga tushganga o‘xshar, hozir o‘zini xotinining sinovchan boqayotgan ko‘zlaridan olib qochayotgandek edi.

– Yo‘q... – dedi u. – Yo‘q, yo‘q, yo‘q... Yaxshisi, butunlay voz kechgan ma‘qul... Bu halolroq... insofliroq... isnodsizroq bo‘ladi... Ha-ya, shundog‘am kim bizga nima deb ta‘na qilardi, hech bunga o‘rin yo‘q-ku. Hatto eng nozikmijoz kishilar ham buni qoralashga jur‘at etolmaydilar.

U Madlenaning oldiga borib to‘xtadi.

– Gap bundoq, azizim, agar xohlasang, men Lamanerning oldiga bir o‘zim borib uchrashaman, gap nimaligini tushuntiraman. Unga o‘zimda tug‘ilgan ishtibolarni aytaman va odob yuzasidan, ortiqcha gap-so‘zlarga qolmaslik uchun merosni bo‘lib olishga qaror qilganimizni ma‘lum qilaman. Hamonoki, men merosning yarmini ular ekanman, o‘z-o‘zidan ravshanki, bironing tish oqini ko‘rsatishga ham o‘rin qolmaydi. Bu, men hammaga eshittirib, «Mening xotinim merosni o‘zim ham olganim uchun qabul qilyapti, xotin kishining sharafigini erdan o‘zga himoya qiladigan odam yo‘q», deganim bo‘ladi. Bo‘lmasa janjal chiqadi.

Madlenaning javobi qisqa bo‘ldi.

– O‘zing bilasan, – sekingina dedi u.

Jorj yana uzundan uzoq gapga tushib ketdi:

– Ha, mana shunday qilib bo‘linganda hammasi o‘z o‘rniga tushadi. Biz bir-birimizga birday munosabatda bo‘lgan, ikkovimizga ham ko‘ngli yaqin, o‘z vasiyatnomasi bilan: «Men o‘lganimdan keyin ularning birini deymen, tirikligimda ham bittasini deganman», deb aytmagan do‘stimizdan meros olgan bo‘lib chiqamiz. Albatta, u ko‘proq xotinimni yaxshi ko‘rgan, lekin merosni ikkalalariga qoldirish bilan u o‘z muhabbati bulg‘anch bo‘lmaganligini isbotlagan. Menga ishon, agar, u bu haqda o‘ylab ko‘rganda edi, xuddi men aytganday qilgan bo‘lardi. U bularni xayoliga keltirmagan, oqibatini o‘ylab ko‘rmagan. Sen boya u har hafta menga gullar keltirardi, oxirgi sovg‘asini ham menga atagan, deb juda to‘g‘ri aytding, u buning oqibatini bilmagan...

– Gap bitta bo‘ladi, – deb uning so‘zini bo‘ldi Madlena: uning tovushidan ensasi qotayotganligi bilinib turardi. – Men hammasini tushundim. Gapni bunchalar cho‘zib o‘tirishning hojati yo‘q. Tez-roq notariusga borib uchrash.

– To‘g‘ri aytasan, – dedi u qizarib ketgan holda g‘o‘ldirab, keyin qo‘liga shlyapasini oldi va keta turib yana dedi:

– Men uning jiyanini ellik mingga ko‘ndirishga harakat qilaman. Maylimi?

– Yo‘q, – dedi kibr bilan Madlena. – Unga qancha so‘ragan bo‘lsa, ya‘ni yuz mingni berasan. Istasang, buni mening hisobimdan bera qol.

Jorj uyalib ketdi.

– Qo‘y-e, o‘rtada bo‘lamiz. Agar har birimiz ellik mingdan berganimizda ham yana bizga bir million qoladi. Xo‘p, ko‘rishguncha, jonginam, – qo‘shib qo‘ydi Jorj.

U notariusning oldiga kelib, xotinim shunday qilish kerak, deyapti degan mulohazani bildirdi.

Ertasiga Madlena Dyū Rua eriga besh yuz ming frankni xatlab berdi.

Havo juda ajoyib edi, kontoradan chiqqach, Jorj Madlenani sayrga taklif qildi. U juda ham mehribon, muloyim bo‘lishga, xotiniga e‘tibor ko‘rsatishga urinardi. U quvonch bilan to‘lgan, yayrab-yashnab ketgandi, xotini esa o‘ychan, jiddiy qiyofada edi.

Sovuq kuz kunlaridan biri edi. O‘tkinchilar qayoqqadir shoshayotganday tez-tez yurib borishardi. Dyū Rua xotinini o‘zi ko‘p tomosha qiladigan magazinga, o‘zi orzu qilib yurgan xronometr turgan magazinga olib bordi.

– Senga biron narsa sovg‘a qilay, xo‘p de, – dedi Dyū Rua.

– O‘zing bilasan, – dedi hafsalasizlik bilan Madlena.

Ular magazinga kirdilar.

– Nima olib beray: zirakmi, uzukmi, bilakuzukmi? Tilla taqinchochlar va turli qimmatbaho toshlarni ko‘rgandan keyin Madlenaning boyagi tundligidan asar ham qolmadi va turli zargarlik buyumlari bilan to‘lib-toshgan vitrinalarni qiziqib tomosha qila boshladi, uning chehrasi ochildi.

– Manavi chiroyli bilakuzukni ko‘r, – dedi u juda ham olgisi kelib.

G'oyatda nozik ishlangan bu zanjirchaning har bir bo'g'ini o'zgacha bir qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan edi.

– Bu bilakuzuk qancha turadi? – so'radi Jorj.

– Uch ming frank, – dedi zargar.

– Ikki yarim mingga bering, olaman.

– Yo'q, afandim, berolmayman, – dedi biroz ikkilanib turgandan keyin zargar.

– Menga qarang, men sizdan yana mana bu xronometrni ham bir yarim mingga olaman, hammasi bo'lib to'rt ming bo'ladi, naqd to'layman. Bo'ldimi? Istamasangiz, o'zingiz bilasiz, men boshqa magazinga boraman.

Zargar oyog'ini tirab turdi, lekin aloha rozi bo'ldi:

– Mayli, ola qoling, afandim!

Jumalist o'z manzilini berdi va dedi:

– Xronometrqa baron tamg'asini bosishga buyuring, past tomonida yozma qilib nomimning bosh harflari tushirilsin: J.R.K.

Madlena ajablandi, og'zining tanobi qochib jilmaydi. Ular magazindan chiqqanlarida Jorjni mehri iyib qo'ltiqlab oldi. U chindan ham erining kuchli va usta odam ekanligiga ishonadi. Hamon endi uning puli bor ekan, unvon kerak bo'ladi, aqli balo.

Zargar ularni ta'zim qilgancha kuzatib qoldi.

– Xotirjam bo'ling, baron janoblari, payshanba kuniga hammasi tayyor bo'ladi.

Ular Vodevilning yonidan o'tib borishardi. Bu yerda yangi pyesa qo'yilayotgan ekan.

– Istasang, kechqurun teatrga tushamiz? – taklif qildi Dyu Rua. – Lojadan joy olishga harakat qilaman.

Lojadan joy bor ekan, olishdi.

– Bir restoranga bormaymizmi, a? – so'radi Jorj.

– Mayli, jonim bilan.

U podsholar kabi baxtiyor edi, nuqul biron narsa o'ylab topishga harakat qilmoqda edi.

– De Marel xonimning oldiga borsak-chi, kechani birga o'tkazamidik? Menga uning eri kelganligini aytishuvdi. U bilan bir ko'rishgim kelib turibdi.

Ular de Marellarnikiga jo'nashdi. Jorj ma'shuqasi bilan bo'ladigan birinchi uchrashuvdan cho'chib turar, shuning uchun

ham yonida xotini borligidan xursand edi, jillaqursa, adi-badi aytishib o'tirishdan qutuladi-ku.

Biroq Klotilda, aftidan, uni kechirgan, shuning uchun o'zi erini birga o'tirishga ko'ndirdi.

Ziyofat quyuq bo'ldi, vaqtni juda ham ko'ngilli o'tkazdilar.

Jorj bilan Madlena uyga kech qaytishdi. Zinadagi chiroq allaqachon o'chib qolgan edi. Jurnalist dam-badam sham gugurt chaqib, uyga ko'tarildilar.

Ikkinchi qavat maydonchasiga chiqqanlarida chaqilgan gugurtning yorug'i qarshidagi ko'zguga tushdi va unda ikki kishining gavgasi aniq ko'rinib ketdi.

Xuddi to'sindan ikki sharpa osmondan tushgan va yana shu ondayoq qorong'ilik ichra sho'ng'ib ketadiganday edi.

Sharpalar yorug'roq ko'rinsin deb, Dyu Rua qo'lini baland ko'tardi va g'olibona ravishda kulib dedi:

– Ana, ikki millioner kelayotir!

VII

Marokash istilo qilingandan beri ikki oy o'tdi. Tanjermi ham bosib olgandan so'ng Fransiya Afrikaning O'rta yer dengizi sohil-laridan to Tripoliga qadar hukmron bo'lib qoldi va tobe mamlakat zayomini ta'minladi.

Shularning vositasida ikkita Vazir yigirma millionga qadar pul ishlab olishgani haqida mish-mishlar yurar va bu gap-so'zlar orasi-da Larosh-Matening nomini ochiq tilga olib o'tishardi.

Valterga kelganda, butun Parij uning bir o'q bilan ikki quyon otganligini bilardi: zayom bo'yicha u o'ttiz-qirq million, mis va temir konlaridan, hamda u mamlakat egallanmay turib, arzon-garovga sotib olingan mulklarini fransuz okkupatsiyasining erta-sigayoq yangi joylarni egallash kompaniyalariga pullaganligidan yana sakkiz milliondan o'n milliongacha daromad qilgandi.

U ko'z ochib-yumguncha o'tib ketgan bir necha kun ichida qi-rollardan ham qudratliroq sarmoyadorlarning biriga, jahonga o'z hukmini o'tkazishga qodir hukmdorlarning biriga aylanib qoldi, – bunday sarmoyadorlar qarshisida egilmagan boshlar, odatda, egiladi, odam gapiradigan gapini ham gapira olmaydigan bo'lib qola-

di, chillaki chillakini ko'rib chumak uradi, deganlariday, bularni ko'rib, bulardan ibrat olib, shu tobgacha inson yuragida yashirib yotgan pastkashlik, tubanlik va ko'rolmaslik kabi illatlar birdan bosh ko'tarib qoladi.

Bu endi ilgari hech kim ishonmaydigan, betayin, tundmijoz, turli-tuman palid ishlarga aralashib yuradigan juhud noshir Valter emasdi. Endi bu odamni badavlat yahudiy Valter janoblari deb atashardi. Uning o'zi ham buni rosmiyan isbotlashga kirishdi. U Fober-Sent-Onore ko'chasida joylashgan, bog'i tomonidan Yelisey dalalariga chiqiladigan hashamatli saroylarning sohibi knyaz Karlsburg nochorroq ahvolda qolganligidan xabar topib, yigirma to'rt soat ichida saroyini birona ashyoni ham o'rtidan jildirmagan holda unga uch millionga sotishni taklif qildi. Katta pulga uchgan knyaz bunga rozi bo'ldi.

Valter ertasigayoq yangi joyga ko'chib o'tdi. Lekin shunda Valterning kallasiga boshqa bir fikr ham kelib qoldi, bunaqa fikr faqat Parijni egallab olish ishtiyoqida bo'lgan muzaffar bir odamgagina kelishi mumkin edi, bu hatto Bonapartga yarashadigan bir fikr edi.

O'sha paytlarda butun shahar Jak Lenoblning magaziniga venger rassomi Karl Markovichning «Suv kechayotgan Iso» degan suratini tomosha qilgani borib turar edi.

San'atshunos tanqidchilar bu suratni og'izlarini ko'pirtirib maqtashar, uni asrimizning eng noyob durdonalaridan biri deb baholashardi.

Valter bu suratni besh yuz ming frankka sotib oldi, shu tariqa, odamlarning diqqatini o'z xonadoniga jalb qildi, butun Parij endi unga havas va hasad ko'zlari bilan boqadigan bo'ldi, mayli, so'kadimi, maqtaydimi, baribir, o'zi haqida gapirishga majbur etdi.

Keyin u gazetalarda yaqin kunlardan birida Parij jamoatchiligining ko'zga ko'ringan vakillarini chet ellik rassomning nodir asarini tomosha qilishga taklif qilmoqchi bo'layotganligi haqida e'lon berib chiqdi, toki Valter san'at asarini yashirib o'tiribdi, degan gap-so'zga qolib o'tinmay debdi.

Uyning eshiklari hamma uchun ochiq ekan. Marhamat qilyaysiz. Faqat kirayotgan maholda taklifnomani ko'rsatib kirilar ekan.

Taklifnomada quyidagilar yozilgandi: «Janob Valter bilan Valter xonim sizni oʻttizinci dekabr soat kechki toʻqqizdan oʻn ikkigacha Karl Markovichning «Suv kechayotgan Iso» kartinasini elektr chirogʻining nurlarida kelib tomosha qilishingizni tamanno ila soʻraydilar».

Buning tagiga kichkina harflar bilan: «Soat oʻn ikkidan soʻng raqs», deb qoʻyilgan edi.

Yaʼni, istaganlar qolishlari mumkin, qolganlar ichidan esa Valterlar oʻzlariga yangi tanish-bilishlar orttirishni koʻzlashgandi.

Boshqalar kiborlarga xos qiziqsinish bilan kartinaga, saroyga, saroy sohiblariga bepisand va beparvo nazar tashlaydilar-u tarqalishadilar. Biroq qaniya Valter koʻp oʻtmay ular bu yerga yana qaytib kelishlarini yaxshi bilardi, xuddi unga oʻxshab boyib ketgan musaviy birodarlari huzuriga ular shunday tashriflar buyurgan edilar.

Hammasidan burun uning uyiga nomlari gazeta sahifalaridan tushmaydigan kazo-kazolar kelsa boʻlgani. Ular hech shak-shubhasiz unikiga qadam ranjida qiladilar, – ular bir yarim oy ichida ellik million pul ishlab olgan odamni koʻrishga, uning mehmonlariga zehn solib qarashga keladilar, ular bani isroil farzandi odob va ziyraklik bilan injil mavzularida ishlangan suratni namoyish qilishga chorlagani uchun keladilar.

Valter goʻyo ularga qarata derdi: «Oʻz koʻzlaringiz bilan koʻrib olinglar, men xristian sanʼatining durdonasi boʻlmish ushbu rasimga, Markovichning «Suv kechayotgan Iso»siga besh yuz ming frank toʻlab sotib oldim. Endi bu durdona shu kundan eʼtiboran har kuni mening koʻz oʻngimda turadi va butkul yahudiy Valternikida qoladi».

Kiborlar doirasida, gersoginya xonimlar oʻrtasida va Jokeyklubda bu taklifnoma uzoq muhokama qilindi va nihoyat, borsak boribmiz-da, asakamiz ketarmidi, degan qarorga kelindi. Ilgari Pti janoblarinikiga akvarel suratlarni tomosha qilgani qanday borgan boʻlsalar, bu yerga ham barchalari shunday qilib boradilar. Durdona sanʼat asari Valterlarga tegishli ekan; ular bir kecha uylarining eshiklarini ochib qoʻyisharkan, kim istasa kelib koʻrsin deb. Yana nima kerak?

«Fransuz hayoti» ikki hafta mobaynida jamoatchilikni qiziqtirish uchun har kuni bu kecha haqida xabarlar berib turdi.

Xo'jayinning muvaffaqiyati Dyū Ruaning ko'zini chiqarmoqda edi.

Xotinidan besh yuz ming frankni yulib o'zini davlatmand bo'lib ketdim, deb yurgan ekan, mana endi shu zig'irdak boyligini yomg'irdak yog'ilib turgan millionlar bilan, o'zi bexabar qolgan millionlar bilan solishtirib ko'rarkan o'zini faqirdan faqir bir odamga chiqarardi.

Hasad, ichi qoralik kundan-kunga ich-etini tatalab bormoqdaydi. Dunyo ko'zlariga qorong'i ko'rina boshladi: uning Valterlarini ko'rgani ko'zi yo'q edi, ularnikidan qadam uzib ketdi, xotinini ko'rsa jini qo'ziydigan bo'ldi, u Laroshning gapiga laqqa tushib erini Marokash zayomlarini sotib olishdan aynitdi, lekin hammadan burun Vazirning o'zini g'ajib tashlagisi kelardi, u bularni laqillatib ketganligiga qaramasdan hamon uning xizmatidan foydalanar va haftasiga ikki marta unikida ovqatlanardi. Jorj Laroshga yugurdaklik qilar, unga kotiblik vazifasini ado etar va u aytib turib yozdirayotgan mahallarda bu g'olib laqashiqildoqni bo'g'ib o'ldirgisi kelardi. Vazir sifatida Larosh katta obro'-e'tibor qozonolmadi, shuning uchun ham u Vazirlik portfelini saqlab qolish uchun portfelini oltinga to'latib yurar va buni zo'r berib yashirardi. Biroq Dyū Rua oltin nimalarga qodir ekanligini ko'rib turardi: bu amalparast advokat keyingi paytlarda dimog'idan qurt yog'iladigan bo'lib qolgan, hech kimni mensimay qo'yan, hovliqmachoqlik bilan fikr yuritar, o'ziga g'oyatda qattiq bino qo'ygandi.

Dyū Ruaning uyida Larosh o'zi xon, o'zi bek bo'lib qoldi: u graf Vodrekning o'mini egalladi, u ham Vodrek keladigan kunlari kelib ovqatlanar va uy xizmatchilari bilan uyning egasiday muomala qilardi.

Uning basharasiga qarashga Jorjda toqat qolmagandi: Laroshning huzurida u qopaman, deb qopishga jur'ati yetmay turgan it kabi dir-dir qaltirar, qahr-g'azabini bazo'r ichiga yutardi. Ayni zamonda u Madlenaga qo'pol, qattiq muomala qilar, lekin xotini faqat yelkalarini qisibgina qo'yar va unga tarbiya ko'rmagan boladay qarardi.

– Senga tushunib bo'lmay qoldi-ku o'zi, – derdi u. – Sen doim shikoyat qilganing qilgan. Vaholonki, ishlaring zo'r bo'lib boryapti, senga hammaning havasi keladi.

Jorj indanay unga orqasini o'girib olardi.

Oldin u xo'jayinnikidagi yig'inga bormayman, deb turib oldi, shu churuk juhudning uyini yelkamning chuquri ko'rsin, dedi.

Valter xonim ikki oydan beri unga har kuni yozar, kel, deb volvorar, bo'lmasa, o'zing istagan yeringga ayt, men borib senga zayomdan yutilgan yetmish ming frankni berib kelaman, deb qo'ymasdi.

Jorj bu yalinib-volvorib yozilgan xatlarning hammasini o'tga tashlar, ularga javob bermasdi. U o'rtada yutilgan pullarning o'z ulushidan sira ham voz kechmoqchi emasdi, faqat ma'shuqasini nafratining o'tiga qovurmoqchi, uni ezib, majaqlab tashlamoqchi edi. Millioner xonim! Senga millionerlikni ko'rsatib qo'yaman, derdi u.

Kartina namoyish etiladigan kun kelgach, Madlena agar bormasang, juda katta xatoga yo'l qo'ygan bo'lasan, deb ishontira boshladi.

– Tinch qo'y meni, – to'ng'illadi Jorj. – Men hech qayoqqa bormayman.

Lekin ovqatlanib bo'lgach, u kutilmaganda dedi:

– Odamni o'z holiga qo'ymadilarning qo'ymadilaring, boramiz, keyin.

Madlena shuni kutib o'tirgandi.

– O'n besh daqiqada tayyor bo'laman, – dedi u.

Dyu Rua kiyinayotgan chog'ida ham tinmay to'ng'illab turdi, hatto karetaga chiqqanda ham jag'i tinmadi.

Karlsburg saroyini old hovlisining to'rt burchagida elektr chiroqlari yonib turar, ular mo'jazgina moviy oyga o'xshab ko'rinar-dilar. Yuksak peshayvonga chiqiladigan zinalarga noyob bir gilam tashlangan, har zinada haykalday qotgan maxsus lakeylar turish-ardi.

– Obbo ko'zbo'yamachilar-ey! – deb to'ng'illadi Dyu Rua. U yelkasini nafratlanib qisib qo'yar, lekin ichidan zil ketardi.

– Avval o'zing shunday uy sotib olgin-da, keyin gapir, ungacha og'zingni yumib yur, – deb tanbeh berdi xotini.

Ichkariga kirishgach, oldilariga chopqillashib kelgan lakeylar-ga og'ir ustki kiyimlarini berishdi.

Bunda ancha-muncha xonimlar erlari bilan to'planishib turishar, ustlaridagi mo'ynalarini yechmoqda edilar.

– Bebaho ekan, bebaho! – degan shivir-shivirlar eshitilardi.

Kiraverishdagi keng zalning devorlari qimmatbaho gilamlar bilan bezangan, ularda Mars bilan Veneraning sarguzashtlari tasvirlangan edi. O'ng va so'l tomonlarga hashamatli zinalar ko'tarilib ketgan, ular ikkinchi qavatda birlashardilar. Quyma temirdan yasalgan zina panjaralari g'oyatda nodir qilib ishlangandi: panjaralarga yugurtirilgan tilla suvi qorayibroq qolgan, aqiqday marmar zinalarda xira aks etib turardi.

Zallarga kiraverishda ikki qizcha – biri harir pushti ko'ylakda, ikkinchisi feruzarang ko'ylak kiygan holda xonimlarga gullar taqdim qilib turishardi. Bu barcha mehmonlarga juda yoqib tushdi.

Zallar mehmonlar bilan to'lgandi.

Xonimlarning aksariyati bo'g'ma ko'ylaklar kiyib olishgandi, aftidan, ular bu bilan o'zlarini oddiy shaxsiy ko'rgazma tomoshasiga kelgan kabi ko'rsatishni istar edilar. Raqs kechasiga qolishni istaganlar yoqasi keng ochilgan liboslar kiyishgandi.

Valter xonim dugonalari qurshovida ikkinchi zalda o'tirar va mehmonlarning tabrik-ta'zimlariga javob berardi. Bu yerga kelganlarning ko'pchiligi uni tanishmas, shuning uchun ham ular uy sohiblariga e'tibor bermay, muzeyga kelganday aylanib yurmoqda edilar.

Dyu Ruani ko'rganda Valter xonimning rangi quti o'chib ketdi va xuddi unga peshvoz otilmoqchi bo'lganday o'rnidan qo'zg'alib qo'ydi, lekin darrov o'zini bosib oldi: u Dyu Ruaning o'zi oldinga keladi, deb chama qildi, shekilli, Dyu Rua unga takalluf bilan ta'zim qildi, Madlena bo'lsa, uni maqtovlarga ko'mib yubordi, dilxohliklar ko'rsatdi. Dyu Rua xotinini Valter xonimning huzurida qoldirib, o'zi odamlar ichiga aralashib ketdi: u Valterning g'animlari nima deyishlarini eshitmoqchi edi, zotan, bu yerga yig'ilganlar orasida bunday g'animlar ancha-muncha topilar edi.

Qimmatbaho matolar, italyan palaklari, rango-rang Sharq gilamlari, qadim rassomlarning kartinalari bilan bezatilgan muzayyan beshta zal biri biriga ulanib ketar edi. Tomoshabinlarga Lyudovik XVI usulida bezatilgan, xuddi xos xonalar kabi ipaklarga chulg'angan, ipaklarga havorang dala ichra pushti gullar tasviri tushirilgan mo'jazgina xona, ayniqsa, ma'qul bo'ldi. Nihoyatda

nozik san'atkorlik bilan tilla suvi yugurtirib og'ochdan ishlangan mebellar ham mana shunday ipak bilan qoplangandi.

Jorj aylanib yurar ekan, gersoginya de Ferrachini, graf va grafinya de Revenel, general knyaz d'Andremon, husnda tengsiz markiza de Dyun singari mashhuri zamon bo'lgan kishilarni va teatr preymeralariga kanda qilmay tushib turadigan boshqa xonimlarni ko'rib qolardi.

Kimdir uning qo'lidan ushlab oldi va navqiron, sho'x bir to'vush qulog'iga pichirladi:

– Ha, kelar ekansiz-ku, yaramas Azizim! Nega buncha ko'rinmay ketdingiz?

Jingalak malla sochlari boshida bulut yanglig' ko'pirgan Syuzanna Jorjga chaqnoq ko'zlarini tikib turardi.

Dyu Rua uni ko'rib chehrasi ochildi va qizning qo'llarini ko'ngli yayragan holda qisib, kechirim so'ray boshladi:

– Hech vaqtim bo'lmadi. Ikki oydan beri ishim shu qadar boshimdan oshib ketdiki, hech qayerga chiqolmay qoldim.

– Yaxshimas, yaxshimas, juda ham yaxshimas, – jiddiy ohangda davom ettirdi gapini qiz. – Bizni juda ham xafa qilyapsiz, axir, men ham, oyim ham sizni juda yaxshi ko'ramiz. Misol uchun men sira ham sizsiz turolmayman. Siz bo'lmasangiz, zerikib, o'lar holatga kelaman. Sizga ochig'ini aytayotganimning sababi, bundan buyon bu qilig'ingizni tashlang, zim-ziyo bo'lib ketmang. Qo'lingizni bering, «Suv kechayotgan Iso»ni sizga o'zim ko'rsataman, u oranjereyaning orqasidagi xonaga qo'yilgan. Otam uni atay o'sha yerga qo'ydirdi, mehmonlar avval boshqa zallarni ko'rib, keyin u yerga o'tisharkan. Otam o'zining saroyiga shunchalar berilib ketdiki, asti qo'yaverasiz!

Ular odamlar orasidan ohista o'tib borishardi. Hamma bu go'zal yigit bilan latofatli qizchaga qarab qolar edi.

– Bunchalar chiroyli ekan bular! Ofarin! – deb qo'ydi bir mashhur rassom.

«Men rostdan ham usta odam bo'lganimda, manovinga uylangan bo'lardim, – deb o'ylardi Jorj. – Bu unchalar qiyin ham emasdi. Nega ilgari kallamga kelmagan ekan-a? Qanday qilib men anovinga uylanib qoldim o'zi? Toza rasvo bo'ldi-da! Oldin xo'p orqa-oldini o'ylab, keyin bu ishga bosh tiqish kerak edi».

Hasad, tomchilab turgan hasad uning yuragini to'ldirmoqda, uning borlig'ini bir og'u kabi tinimsiz zaharlamoqda, hayotini ko'zlariga butkul qorong'i qilib ko'rsatmoqda edi.

– Rost aytaman, Azizim, tez-tez kelib turing, – derdi Syuzanna. – Otam boyib ketdi, endi mazza qilib o'ynaymiz. Yallo qilamiz.

Lekin Dyu Ruani hamon boyagi fikr o'rtamoqda edi.

– Mana endi siz erga chiqasiz! O'zingizga kelishgan, lekin biroz kambag'allashib qolgan shahzodani topib olasiz, keyin bizga yo'l bo'lsin.

– O, yo'q, hali erta bunga! – samimiy dedi qiz. – Men faqat o'zimga yoqqan odamgagina turmushga chiqaman, avval yoqtirishim kerak. Mening davlatim ikki kishiga yetib ortadi.

Dyu Rua nafrat bilan masxaraomuz iljaygan ko'yi qizga yonverlaridan o'tib turgan odamlarning nomlarini shipshiy boshladi – bularning ko'pchiligi oliy kibor doira odamlari bo'lib, ular o'zlarining eski, zang bosgan yuksak unvonlarini Syuzannaga o'xshagan badavlat sarmoyadorlarning qizlariga sotishgan, endi esa, xotinlari bilan yoki ulardan ajralgan holda taralla bedod qilib yashashar, hurmat-e'tiborlari joyida edi.

– Bahs boylab aytishim mumkin, yarim yil o'tar-o'tmas siz ham shu qarmoqqa ilinasiz, – dedi Jorj. – Markizami, gersoginyami, knyaginyami bo'lib, oyim, keyin menga ham burningizni ko'tarib qaraydigan bo'lib qolasiz.

Qiz, bo'lmagan gap der, yelpig'ichi bilan uning qo'llariga shapatilar, faqat o'zim sevgan odamgagina turmushga chiqaman, deb pisanda qilardi.

– Ko'ramiz, ko'ramiz, siz buning uchun juda ham boysiz, – deya uni gijgijlardi Jorj.

– Siz ham boysiz, axir o'zingiz ham meros olibsiz-ku, – gapni burdi qiz.

– Topgan gapingizni qarang! – yuzini nordon narsa yeganday burishtirib dedi Jorj. – Yiliga yigirma ming renta. Hozir urvoq ham bo'lmaydi bu pul.

– Ammo xotiningiz ham merosxo'r bo'libdi-ku.

– Ha. Hozir ikkovimizning pulimiz bir million. Yiliga qirq ming foyda keltiradi. Bunga hatto tuzukroq sayr qilib kelish ham qiyin.

Ular so'nggi zalga kirdilar, shunda ko'z o'nglarida yuksak tropik daraxtlar ostida chappar urib gullab yotgan noyob gullar o'sgan qishki bog' – oranjereya ochildi. Quyuq yashil barglar orasidan kumush to'lqin solib nurlar sizib o'tar, namxush yer hidi anqir, o'simliklarning anvoyi hidlari taralardi. Bu shirin muattar bo'ylarda odamning asabini qitiqlaydigan, toliqtiradigan, sun'iy, sog'lom bo'lmagan allanima bor edi. Ikki qator o'sgan butalar orasiga to'shalgan gilamlar favqulodda suv o'tlarini eslatardi. Bog'chaning chap tomonida palmalarning qubbasi tagida Dyū Rua oq marmardan ishlangan hovuz borligini ko'rdi, hovuz shunchalar katta ediki, unda bemalol cho'milish mumkin edi, uning chor burchaklariga chinni oqqushlar o'matilgan edi; oqqushlarning tumshuqlari yarim ochilgan, ulardan suv oqib turmoqdaydi.

Hovuzning tagiga qizil qum sochilgan bo'lib, kattakon qizil xitoy baliqlari suzib yurardi. Bu g'alati baliqlarning ko'zlari bo'rtib chiqqan bo'lib, tangalari ustida zangori tasmalari yiltirab turardi, ushbu suv mandarinlari jimjimador xitoy kashtalarini eslatardi: ularning ba'ziları suvda suzib yurishar, boshqa birlari hovuzcha tagiga muallaq qotib qolganday edilar.

Dyū Rua to'xtadi, yuragi gupillab urib ketdi. «Mana buni hashamat desa bo'ladi! – derdi u o'ziga-o'zi. – Kiroyi mana shunaqa uylarda yashasang. Lekin bularning bari birovniki. Nima, shunday saroylarga ega bo'lish mening qo'limdan kelmaydimi?» U buning yo'lini topishga urinar, lekin kallasiga hozir durustroq bir fikr kelmas va u o'zining ojizligidan darg'azab bo'lardi.

Uning hamrohi ham o'z xayollariga berilib ketib, jim bo'lib qolgandi. Dyū Rua unga zimdan razm soldi. «Mana bu tirik qo'g'irchoqqa uylansang, hammasi joyida bo'lib ketgan bo'lardi-ya!» – o'yladi u. Syuzanna birdan o'ziga keldi.

– Diqqat! – dedi u va yo'llarini to'sib turgan odamlar orasidan o'tib, kutilmaganda chap tomonga burildi.

G'aroyib o'simliklar orasida, ularning xuddi barmoqlari nozik titroq qo'llar kabi ochilgan yaproqlari orasida dengiz to'lqinlaridan ko'tarilib kelayotgan odam gavdalanardi.

Buni ko'rganda kishining hayratdan og'zi ochilib qolardi. Chor atrofi parpirab turgan yaproqlar ichra ko'rinmay turganidan karti-

na xayoliy, yiroq manzillar sari chorlayogan ajib bir qora tuynuk bo'lib ko'rinar.

Suratga razm solib qaralganda, hammasi oydinlashardi. Chayqalib turgan qayiqning yarmi ramadan tashqarida qolgandi, unda fonaning xira yorug'ida avliyolar ko'rinar, ulardan biri qayiq chetida o'tirib, chiroqni yaqinlashib kelayotgan Iso alayhissalomga tutib turmoqdaydi.

Iso alayhissalom bir oyog'ini to'lqinlar uzra tashlagandi, to'lqin musallam bo'lib, mayinlik bilan quyi tushgan, ilohiy maqdam oyoqlarni o'pib cho'kkan. Odamxudoning tevaragini zimistonlik qoplagan. Yuksak koinot ichra yulduzlargina miltillab ko'rinadi.

Isoga tutilgan chiroqning xira, parishon ziyosida sahobalarining yuzlari ilohiyot qarshisida qo'rquvdan bujmayib ketgan kabi tuyulardi.

Bu chinakam qudratli, yuksak xayol kuchi bilan yaratilgan asar edi, u bir umrga inson xayolxonasida muhrlanib qolar, oliy o'ylar uyg'otar, sarosimaga solardi.

Odamlar miq etmay kartinaga tikilishar, so'ng xayolga tolgan holda nari ketishar va ancha vaqt o'tgandan keyingina u haqida fikrlasha boshlar edilar.

Dyu Rua kartinani ko'rgach, dedi:

– Shunday antiqa narsani sotib olishga qurbi yetibdimi, yashavorsin-ey!

Uni suratni ko'rgisi kelgan boshqa odamlar nari surib yuborishdi, shundan keyin u hamon Syuzannaning nozik qo'llaridan ushlab olgancha, o'zini chetga oldi.

– Shampan ichasizmi? – so'radi Syuzanna. – Yuring, bufetga boramiz. Otamni o'sha yerdan topamiz.

Ular yana zallardan o'tib orqaga qaytishdi, odamlar tobora ko'payib borar, yasan-tusan qilgan bu sershovqin odamlar o'zlarim bu yerda jamoat sayilgohida yurganday his qilishardi.

Birdan Jorjning qulog'iga:

– Ana Larosh bilan Dyu Rua xonim, – degan ovoz chalinganday bo'ldi.

Bu so'zlar uning qulogiga shamol yiroqlardan keltirib shivirlagan payg'om kabi eshitildi. Kim aytdi bu so'zlarni?

U atrofiga nazar tashlab, chindan ham xotinini ko'rdi, — u Vazir bilan qo'ltiqlashgan holda kelardi. Ular bir-birlariga termilishgan ko'yi sekin sirli bir narsani gaplashardilar.

Jorjga hamma ularga qarab pichirlashayotgandek bo'lib tuyuldi. Shunda unda bema'ni vahshiy bir mayl uyg'ondi, borib ularni o'lasini qilish uchun, yerga parchinlab tashlagisi keldi.

Xotini uni kulgili ahvolga solib qo'yimoqda edi. U Foresteni esladi. Balki, endi o'zi haqida ham «Aldangan Dyū Rua», deb valaqlay boshlashar. Xotini o'zi kim bo'libdi? Martabaga berilgan ustamon bir xotinda, aslini surishtirib kelganda, aytarli tilga oladigan joyi ham yo'q. To'g'ri, uning uyiga mehmondorchilikka kelib turishadi, lekin kelsalar, Dyū Ruadan qo'rqqanlaridan, uning kuchidan hayiqqanlaridan keladilar, biroq orqavoratdan ularni o'rtamiyona jurnalist deb og'izlariga siqqancha yomonlab gapiradiganlar ham topiladi. Bunaqa xonadon sha'nini bulg'aydigan, doimo o'zining obro'sini to'kib yuradigan, har kimlarning qo'lidagi o'yinchoq bo'lishdan or qilmaydigan, etagini eplolmagan xotin bilan hech qachon kosasi oqarmaydi, biri ikki bo'lmaydi. Endi u bo'yniga osilgan toshning o'zi bo'ldi-qo'ydi. Eh, qaniydi, endi bularni ilgariroq bilsa, oldinroq anglagan bo'lsa!

Unda nima qilishini o'zi bilardi, unda tog'larni ag'darib talqon qilgan bo'lardi! Syuzannani qo'ldan chiqarmaganda hozir qanday odam bo'lib ketar edi, eh-he! Nega uning ko'zlari shunchalar ko'rgan ekan, nega oldinroq bu narsalar xayoliga kelmadi ekan?

Ular yemakxonaga kirishdi. Bu hayhotday bir xona bo'lib, marmar ustunlar qo'yilgan, devorlari qadimiy gilamlar bilan qoplangandi.

Valter o'zining xodimiga ko'zi tushib, unga tomon quchoq ochib peshvoz yurdi. Baxtiyorlikdan boshi osmonga yetgandi uning.

— Siz hammasini ko'rdingizmi? Syuzanna, sen unga ko'rsatdingmi? Odamlarni qarang, odamlarni, Azizim! Knyaz Gershga ko'zingiz tushdimi? U hozirgina bu yerga bir stakan punsh ichgani kiruvdi.

Lekin Valter shu zahoti senator Risolenni ko'rib qolib, unga tomon quchoq ochib bordi. Senator o'zining chorbozorchilarday bejanib olgan xotinini boshlab kelardi, xotini g'oyatda faromush ko'rinardi.

Syuzannaga baland bo'yi, oriqlar, mallarang bakenbardlar qo'ygan, sochlari endi to'kilib kela boshlagan yigit ta'zim qildi. U siyqasi chiqqan kibor so'taklarga o'xshashib ketardi. Kimdir «Markiz de Kazol» deb uning ismini aytdi, shunda Dyu Rua darhol Syuzannani undan qizg'andi. Ular anchadan beri tanishmikinlar? Albatta, Syuzanna boyib ketgandan keyin tanishishgan. Jorj unga o'ziga raqib deb qaray boshladi.

Kimdir Jorjning qo'ltig'idan oldi. Norber de Varen ekan. Keksa shoimning sochlarini yog' bosgan, egnidagi frak urinib qolgan, o'zi loqayd va horg'in ko'rinardi.

– O'zlaricha xursandchilik qilishyapti, – dedi u. – Hozir raqs boshlanadi, keyin hammalari uxlagani yotadilar, qizchalar xursand bo'lishadi. Ajoyib shampan bor, ichmaysizmi?

U qadahga o'ziga may quydi, Jorj ham qo'liga qadah oldi.

– Ruhiy boylikning millionlardan ustun kelishi uchun ichaman, – dedi Norber unga tavoze bilan, keyin mayinlik bilan qo'shib qo'ydi: – Ular menga to'g'anoq bo'lishayotgani yo'q, ularga havas ham qilmayman, men nafsilamriga aytyapman.

Dyu Rua unga endi quloq solmay qo'ydi. U Markiz de Kazol bilan allaqayoqqa ketib qolgan Syuzannani ko'zlari bilan qidir-di-da, Norberga chap berib, ularni izlashga tushdi.

Surat ko'rishga ishqivoz bo'lganlarning izdihomi uning yo'lini to'sib qo'ydi. Nihoyat u odamlar orasidan yorib o'tib er-xotin Marellar bilan yuzma-yuz to'qnashdi.

Xotini bilan tez-tez uchrashgan, lekin o'zini anchadan beri endi ko'rishi edi. Janob de Marel unga ikkala qo'lini cho'zdi:

– Qadrdonim, Klotildadan aytib yuborgan gapingiz uchun sizdan behad minnatdorman! Men Marokash zayomidan yuz mingga yaqin yutdim. Buning hammasi siz tufayli. Sizdan o'la-o'lguncha qarzdorman. Shuni aytadilar-da, bebaho do'st deb!

Erkaklar lobar, nafis, qoracha juvonga tikilib-tikilib o'tishardi.

– Sizdan ugina, bizdan bugina, azizim, – dedi Dyu Rua, – sizdan xotiningizni tortib olaman, to'g'rirog'i, unga qo'limni taklif qilaman. Er-xotinni doimo bir-birlaridan ajratish kerak.

Janob de Marel boshini egdi:

– Rost aytasiz. Agar sizlarni yo'qotib qo'ysam, bir soatdan keyin shu yerda uchrashamiz.

– Juda soz.

Dyu Rua va Klotilda odamlar ichiga kirib ketishdi: eri ularning orqalaridan ergashdi.

– Valterlarning rosa omadi yurganda, – derdi Klotilda. – Usta korformo deb shuni aytadilar.

– Nima bo‘libdi! Kuchli odamlar qanday qilib bo‘lmasin, o‘z aytganlarining uddasidan chiqadilar, – deb qo‘ydi Jorj.

– Har bir qiziga yigirma-o‘ttiz milliondan qalin beradi, – deb davom etdi Klotilda. – Yana Syuzanna qurmag‘urning biram shirin ekanligini aytmaysanmi.

Jorj indamadi. O‘zining xayoliga kelgan fikrni boshqa odamning og‘zidan eshitsa, uning fe‘li aynirdi.

Klotilda «Suv kechayotgan Iso»ni hali ko‘rmagan ekan. Jorj unga o‘zi ko‘rsatadigan bo‘ldi. Yo‘l-yo‘lakay undan-mundan gaplashib, odamlar ustidan kulib borishdi. Ularning yonidan frak yoqasiga bir to‘da ordenlarini osib olgan Sen-Poten o‘tib ketdi, bu ularning kulgilarini qistatdi. Hatto uning orqasidan kelayotgan sobiq elchida ham buncha ko‘p orden yo‘q edi.

– Jamiyat emas bu – ola bayroq! – deb qo‘ydi Dyu Rua.

Ularning oldilariga salomlashgani kelgan Buarenaming yoqasida ham o‘sha duel kuni taqqan zarg‘aldoq tasma hilpirab turardi.

Xoli xonalardan birida yasan-tusan qilib olgan semiz vikontessa de Persmyur allaqanday bir gersog bilan suhbatlashib o‘tirardi.

– Sevgi izhor qilyapti, – deya shipshidi Jorj.

Oranjereyada bo‘lsa uning xotini Larosh-Mate bilan yonma-yon o‘tirishardi, – o‘simliklar orqasidan ular deyarli ko‘rinishmasdi. Ularning butun vajohatlaridan: «Biz bir-birimiz bilan hammaning ko‘z o‘ngida visol topishamiz. Kim nima desa, deyaversin, biz naqa gaplarga tupurdik», degan ma‘noni uqish mumkin edi.

Karl Markovichning «Iso» kartinasi de Marel xonimga qattiq ta‘sir qildi. Keyin ular kelgan izlariga qaytdilar. Janob de Marelni yo‘qotib qo‘ydilar.

– Lorina haliyam mendan xafa bo‘lib yuribdimi? – so‘radi Jorj.

– Haliyam xafa. Seni ko‘rgisi yo‘q, sen haqingda gap ochilishi bilan o‘midan turib ketadi.

Jorj indamadi. Qizchani to'sindan uni bu qadar yomon ko'rib qolgani yuragini g'ash qilib turar edi. Eshik oldida ularni Syuzanna to'xtatdi.

– E, bu yoqda ekansan-ku! Ana endi. Azizim, bir o'zingiz qolasiz. Go'zal Klotildani men o'g'irlab ketaman, unga o'z xonamni ko'rsatmoqchiman.

Shundan keyin har ikkovlari odamlar orasidan ilondek bilanglab, tez-tez yurib ketdilar, to'da ichida faqat xotinlargina mana shunday chaqqon yura oladilar.

Xuddi shu zamonAQ kimdir shivirladi:

– Jorj!

Valter xonim ekan.

– Munchalar ham berahm ekansan! – zo'rg'a shivirladi xonim. – Nega meni munchalar qiynaysiz! Sizga aytadigan uch-to'rt og'iz gapim bor edi, Syuzettadan hamrohingizni olib ketishni so'radim. Bilasizmi, men bugun... bugun kechqurun siz bilan gaplashib olishim kerak... bo'lmasa... bo'lmasa... juda yomon bo'ladi. Oranjereyaga boring. Chap tomonda bog'ga chiqiladigan eshik bor. Xiyobondan to'g'ri yurib boraverasiz. Eng oxirida shiypon bor. U yerga men o'n daqiqadan keyin boraman. Agar bormayman desangiz, qasam ichamanki, hozir shu yerning o'zida janjal-to'polon chiqaraman!

– Bo'pti, – dedi unga takabburona qarab qo'ygan Jorj. – O'n daqiqadan keyin aytilgan yerda bo'laman.

Shunday deb ular ajralishdilar. Jorj sal bo'lmasa, Jak Rivalni deb kechga qolay dedi. Rival uni qo'ltiqlab olgancha hayajonlangan holda yangiliklarni so'ylab bera boshladi. U, aftidan, hozirgina bufetdan chiqqanga o'xshardi. Aloha, Dyu Rua uni eshikda ro'para kelib qolgan Janob de Marelning izmiga topshirdi-da, o'zi g'oyib bo'ldi. Hali yana xotini bilan Laroshning oldidan bildirmay o'tib ketish ham kerak edi. Bu unchalik qiyin ham bo'lmadi, ular bir-birlariga juda berilib gaplashib o'tirishar, uncha-munchani payqaydigan alfozda emas edilar. Jorj bog'ga chiqdi.

Ochiq havoga chiqqan Jorj ustidan muzdek suv ag'darilganday junjikib ketdi. «Jinni, shamollab qolmasam edi hali», deb o'yladi u va bo'ynini dastro'moli bilan bog'lab oldi. Keyin xiyobondan ohista yurib ketdi. Ichkarining yorug'idan ko'zi qamashgan, hech narsa ko'rmasdi.

Xiyobonning ikkala yog'ida barglari to'kilgan yalang'och butalar chayqalib turardi. Derazalardan tushayotgan shu'lalar butalar uzra parcha-parcha sarig' dog'larga o'xshab ko'rinardi. Birdan yo'lkada allaqanday oq sharpa ko'rindi va shu zahoti Jorj Valter xonimning titroq ovozi eshitildi. u yoqalari keng ochilgan yengsiz ko'ylakda unga tomon shoshib yurib kelardi.

– Senmisan? Nima, meni tiriklay go'rga tiqmoqchimisan o'zi? – pichirladi u.

– Menga qara, adi-badini qo'y, – bamaylixotir gapirdi Jorj. – Bo'lmasa, hozirning o'zida ketib qolaman.

U Jorjning bo'ynidan ikkala qo'li bilan achomlab oldi va lablarini uning labiga juda ham yaqin olib borib dedi:

– Axir, senga nima qildim? Nega meni hadeb qiynayverasan? Senga nima yomonlik qildim?

Jorj uni o'zidan chetlatishga urindi.

– Keyingi ko'rishgan kunimiz sen sochlaringni tugmalarimga o'rab ketibsan, xotinim bilan qo'ydi-chiqdi bo'lishimizga oz qoldi.

U avval hayron bo'ldi, keyin boshini sarak-sarak qildi.

– Yo'q, xotiningning bunaqa narsalar bilan sira ishi yo'q. Birona o'ynash-po'ynashning g'idi-bidi qilgandir.

– Mening o'ynashlarim yo'q.

– Yaxshisi, og'zingni yum! Nega hech menikiga kelmay qo'yding? Nega, juda bo'lmasa, haftada bir marta mehmon bo'lib kelmaysan? Butun fikri xayolim senda, ko'z o'ngimda turganing turgan, har damda og'zimdan noming chiqib ketishidan qo'rqaman, seni shunchalar yaxshi ko'raman. Yo'q, sen buni tushunmay-san! Men xuddi iskanjaga tushib qolgandayman, qanorga qamalib qolganga o'xshayman: menga nima bo'ldi o'zi, bilmayman. Seni o'ylaganim o'ylagan, o'ylagan sayin yuragim siqiladi, tars yorilib ketadiganga o'xshab turaman, tizzalarim qaltirab, oyoqlarim chalishib ketaveradi, yurolmay qolaman. Kun bo'yi bir joyda o'tirib seni o'ylayman.

Jorj unga ajablanib qaradi. O'zini biqqigina sho'x qizcha qilib ko'rsatadigan ilgari xonimdan asar ham qolmagan edi, uning bag'rida turgan juvon alamidan telba bo'lib qolgan, dunyo ko'zlariga tor kelib, hozir har narsaga qodir edi.

Shu tobda Jorjning xayolida allaqanday yangi fikr, rejalar uygʻonib kelmoqda edi.

– Jonginam, dunyoda abadiy sevgi-muhabbat yoʻq, – deya boshladi u. – Odamlar oldin bir-birlarini yaxshi koʻrishib, keyin ayrilib ketaveradilar. Lekin oʻrtamizda bu uzoqqa choʻziladigan boʻlsa, odamning koʻkragiga tosh osilganga oʻxshab qoladi. Men nima qilay axir? Senga ochigʻini aytyapman. Biroq sen aql-hushingni yigʻib, menga doʻst kabi qaraydigan, doʻst deb munosabat qiladigan boʻlsang, yana avvalgidek tez-tez uyingga kelib turaman. Nima deysan, oʻzingni tiyib olishga kuching yetadimi?

– Mening har narsaga kuchim yetadi, faqat seni koʻrib tursam, bas, – deya pichirladi Valter xonim yalangʻoch qoʻllarini uning yelkalariga tashlagancha.

– Demak, kelishdik, bundan soʻng doʻst boʻlib qolamiz, – dedi Jorj.

– Ha, kelishdik, – shivirladi xotin va unga dudoqlarini tutdi. – Yana bitta oʻp... oxirgisi.

– Yoʻq, – deya muloyimlik bilan eʼtiroz bildirdi Jorj. – Soʻzning ustidan chiqish kerak.

Xotin yuzini burdi, koʻz yoshlarini artib oldi va korsajining ostidan pushti ipak lenta bilan bogʻlangan paket olib Dyū Ruaga uzatdi.

– Ol, Marokash zayomidan yutilgan sening ulushing. Sen uchun yutganimdan juda ham xursandman. Ola qol...

Jorj olmayman deb turib oldi:

– Yoʻq, men bu pulni olmayman!

Shunda xotinining jahli chiqib ketdi:

– O, bunisi endi ortiqcha, bunga chidab boʻlmaydi! Bu pullar seniki, vassalom. Agar olmasang, axlatga tashlab yuboraman. Lekin, Jorj, jonim, qoʻlimni qaytarma, xoʻpmi, qaytarmaysan-a?

Dyū Rua pulni oldi va choʻntagiga soldi.

– Yur, endi ketaylik, – dedi u, – koʻkragingni shamollatib qoʻyasan.

– Oh, qaniydi! – sekingina dedi u. – Oh, qaniydi oʻlib keta qolsam!

U Jorjning qoʻllariga oʻzini tashladi, uni ehtiros ichra vahshatomez bir hirsning zoʻri bilan oʻpib oldi va uyga qarab chopib ketdi.

Jorj o'z xayollariga cho'mgancha, uning ortidan ohista uy to-monga yo'l oldi. Oranjereyaga qaddini g'oz tutib, ko'krak kergan holda kirib bordi, uning lablarida tabassum o'ynamoqdaydi.

Xotini bilan Larosh qaygadir g'oyib bo'lishibdi. Odamlar siy-raklashib qolibdi. Balga ko'pchilik qolmasligi ko'rinib turardi. To'sindan u opasi bilan qo'ltiqlashib yurgan Syuzannani ko'rib qoldi. Ular Jorjning oldiga kelib birinchi raqsga graf de Latur-Ive-len bilan birga to'rtovi tushishga taklif etishdi.

– Bu kim bo'ldi? – so'radi u hayron bo'lib.

– U opamning yangi do'sti, – deb javob berdi Syuzanna mu-g'ambirona kulgancha.

Roza duv qizarib ketdi.

– Uyalmasanmi, Syuzetta, nega endi u meniki bo'lar ekan!

– Men bilaman.

Roza jahli chiqib ketib qoldi.

Dyu Rua Syuzannani eski qadrdonlarday qo'ltiqlab oldi.

– Menga qarang, qo'zichog'im, – deya gap boshladi u, uning ovozidan xuddi bol tomayotganga o'xshardi, – siz meni o'zingizga do'st deb bilasizmi?

– Bo'lmasam-chi, Azizim?

– Menga ishonasizmi?

– Ishonaman.

– Bugun gaplashgan gapimiz esingizdami?

– Nimaydi?

– Sizning turmushga chiqishingiz haqida, to'g'rirog'i, siz tur-mushga chiqadigan odam haqida.

– Esimda.

– Unday bo'lsa, menga bir narsaga va'da berolmaysizmi?

– Xo'p. Lekin o'zi nima gap?

– Agar birov qo'lingizni so'raydigan bo'lsa, menga bir og'iz aytib qo'yasiz, mening fikrimni bilmay turib, hech kimga rozilik bermaysiz, shunga so'z berasizmi?

– Mayli, roziman.

– Bu gap o'rtamizda qolsin. Na otangiz, na onangiz buni bil-masliklari kerak.

– Bo'pti, aytmayman.

– So'z berasizmi?

– So'z beraman.

Ularning oldilariga bir narsa aytmoqchi bo'lib Rival chopqillab keldi.

– O'yingiz, otangiz sizni balga kelsin deyaptilar.

– Yuring, Azizim. – dedi qiz.

Lekin Jorj bormadi, uning bu yerdan ketgisi, yolg'iz qolib, yaxshilab o'ylab olgisi keldi. Antiqa gaplar, g'alati taassurotlar yuragini to'ldirantirmoqda edi. U xotinini qidirib ketdi va ko'p o'tmay uni bufetdan topdi, u allaqanaqa ikki erkak bilan o'tirib shokolad ichayotgan ekan. Madlena ularga erini tanishtirdi, lekin ularning nomlarini eriga aytgani yo'q.

– Ketamizmi? – so'radi Jorj birozdan so'ng undan.

– O'zing bilasan.

Madlena erini qo'ltiqlab oldi va ular kimsasiz bo'lib qolgan zallardan o'tib ketishdi.

– Bekaning o'zlari qayerdalar? – so'radi xotini. – Men u kishi bilan xayrlashmoqchiydim.

– Hojati yo'q. U bizni balga qolinglar, deb qistaydi, men esa charchadim.

– Ha, rost aytasan.

Ular yo'l bo'yi indamay borishdi. Lekin o'z xonalariga kirishlari bilan Madlena hali yuzidagi to'mni ham olmay tabassum bilan unga dedi:

– Bilasanmi, senga bir ajoyib sovg'am bor.

– Yana qanaqa sovg'a? – g'ashi kelib so'radi Jorj.

– Top-chi.

– Boshimmi qotirma.

– Xo'p, mayli. Indinga birinchi yanvar.

– Ha.

– Sovg'a qilishning ayni payti.

– Ha.

– Mana senga Yangi yil sovg'asi, uni hozirgina menga Larosh berdi.

Shunda Madlena unga tilla narsalar solib qo'yiladigan g'ilofga o'xshaydigan mo'jazgina qora quticha uzatdi.

Dyu Rua qutichani loqaydlik bilan ochdi va uning ichida faxriy legion ordenini ko'rdi.

U andak oqarinqiradi, keyin iljayib dedi:

– Menga qolsa, mundan o'n million pul tuzuk edi. Bu unga juda arzon tushgan.

Xotini uning o'zida yo'q xursand bo'lib ketishini kutgan bo'lsa kerak, bu qadar sovuqqonlik qilishidan fig'oni chiqdi.

– Sen bilan yashash juda og'ir bo'lib ketyapti. Senga hech yoqmay qoldik.

– Bu odam bizning oldimizdagi qarzini uzyapti, boshqa gap yo'q, – deya sovuqqina so'yladi Jorj. – U mening oldimdagi qarzlarini hali uzganicha yo'q.

Madlena uning gapidan hayron bo'lib qoldi.

– Lekin sening yoshingda bu yomon emas-ku, – dedi u.

– Nisbatan yomon emas, – e'tiroz qildi Jorj. – Men hozir ko'proq narsalarga erishgan bo'lishim mumkin edi.

U qutichani kamin ustiga qo'ydi-da, yarqiroq yulduzchani tomosha qila boshladi. Keyin qutichani yopdi va yelkasini qisib qo'yib yechina boshladi.

Birinchi yanvar kuni chiqqan «Hukumat axboroti»da chindan ham publitsist Prosper-Jorj Dyu Rua janoblariga ko'rsatgan katta xizmatlari evaziga Faxriy legion ordeni kavaleri unvoni berilganligi xabar qilindi. Uning familiyasi ikki so'zga bo'lib bosilgan edi, Jorj ordendan ham shunga ko'proq xursand bo'ldi.

Ijtimoiy ahamiyat kasb etgan bu xabarni gazetada o'qigandan bir soatlar keyin unga Valter xonimdan xat keltirishdi: u Jorjni xotini bilan birga kelib bu mukofotni bayram qilib ketishni yalinib-yolvorib so'ragandi. Jorj avval ikkilanib turdi, keyin ma'nodorroq qilib yozilgan xatni o'tga tashlab yubordi-da, Madlenaga dedi:

– Bugun Valterlarnikida mehmon bo'lamiz.

Madlena hayron bo'ldi.

– Rostdanmi? Kechagina o'zing aytmovdingmi, u yerni yelkamning chuquri ko'rsin, deb?

– Gapni aylantirma, – xotinining undan eshitgan gapi shu bo'ldi.

Ular kelsalar, Valter xonim yaqin kishilar bilan suhbatlashiladigan xos xonada bir o'zi o'tirgan ekan. U boshdan oyoq qora kiyingan, sochlariga upa sepgan va bu unga g'oyatda yarashgan edi. Uzoqdan qariga o'xshab ko'rinar, yaqindan – yosh bo'lib tuyulardi, ziyrak odam ko'zni aldaydigan bu holatni sezib olishi mumkin edi.

– Qora kiyinib olibsiz? – soʻradi Madlena.

– Nima desam ekan. – maʼyus dedi juvon. – Hamma xesh-aq-rabolarim sogʻ-salamat. Lekin mening yoshim oʻtib qoldi. oʻtgan yoshligimga kiygan qoram shu. Bu men uchun qutlugʻ motam. Bundan buyon men uni yuragimda saqlayman.

«Tishingni bos, chida», dedi oʻziga Dyu Rua.

Mehmondorchilik zerikarliligina boʻlib oʻtdi, faqat Syuzannagi-na tinmay gapirib oʻtirardi. Roza nima uchundir tashvishli koʻri-nardi. Hammalari jurnalistni qizgʻin tabriklashdi.

Kechqurun hammalari gangur-gungir gaplashganlaricha zallar-ni, qishki bogʻni kezib yurishdi. Dyu Rua orqada Valter xonim bi-lan kelardi, xonim uning qoʻlidan tutib oldi.

– Menga qarang, – dedi u ohista. – Men sizga boshqa hech narsa demayman, hech qachon... Faqat menikiga kelib turing, Jorj. Koʻryapsizmi, sizni endi «sen» deyotganim ham yoʻq. Le-kin men sizsiz yashay olmayman, yasholmayman. Men dahshatli jazoga giriftor boʻldim. Men kechasi-yu kunduzi sizni oʻylayman, koʻz oʻngimdan bir soniya boʻlsin nari ketmay, xayolimda turasiz, men sizning siymoyingizni qalbimda, jismimda saqlayman. Men-ga xuddi bir ogʻu berib qoʻyganga oʻxshaysiz, u aʼzoyi badanimni kemirib tashlayapti. Boshqa chidolmayman. Yoʻq, chidolmayman. Meni, mayli, bir kampirday koʻring, roziman. Men atay sochlar-imni oqartirdim, koʻzingizga kampir boʻlib koʻrinay deb. Faqat meni oʻzingizga doʻst tutib kelib turing, onda-sonda boʻlsa ham bir yoʻqlab keting.

U Jorjning qoʻllarini gʻijimlab ezar, timoqlarini botirardi.

– Bunga kelishganmiz, – dedi bamaylixotir Jorj. – Boshqa bu haqda gapirib oʻtirishning keragi yoʻq. Oʻzingiz koʻrib turibsiz-ku, men xatingizni olgan zahoti yetib keldim.

Valter qizlari hamda Madlena bilan oldinroqda borishardi: «Suv kechayotgan Iso» qarshisiga borgach, Valter toʻxtadi, Dyu Ruaning kelishini kutdi.

– Buni qarang, – dedi u kulgancha, – kecha qarasam, xotinin surat qarshisida tiz choʻkkancha ibodat qilyapti. Kula-kula oʻlib-man!

– Iso siymosi gunohlarimni yuvadi, – dedi ishonch bilan Valter xonim, uning ovozi yashirin bir narsadan faxrlanayotgan kabi

jarangli eshitalardi. – Har safar unga qarasam, kuchimga kuch qoʻshilayotganday boʻladi.

Dengiz toʻlqinlari uzra qad koʻtargan odamxudoga boqib, u yana shivirlagancha qoʻshib qoʻydi:

– Qanchalar goʻzal malak u! Anovi odamlar undan qanchalar qoʻrqishadi, qanchalar sevishadi uni! Uning boshiga, uning koʻzlariga qarang, hammasi biram ilohiyki!

– Muni qaranglar, u sizga oʻxshar ekan, Azizim! – deya xitob qildi Syuzanna. – Rostdan, juda ham oʻxshaydi. Agar sizning ozgina soqolingiz boʻlganda yoki boʻlmasam, uning soqoli qirdirilgan boʻlganda, bir-biringizdan ajratib boʻlmasdi. Voy tavba!

Jorjdan surat bilan yonma-yon turishni soʻradi. Shunda hammalari ularning yuzlarida oʻxshashlik borligini koʻrishdi.

Hammalari gʻovur-gʻuvur qilib bundan hayron boʻlishdi. Valterga bu, ayniqsa, juda ham gʻalati boʻlib koʻrindi. Madlena kulib, Isoning koʻrinishi mardonaroq, dedi.

Valter xonim turgan yerida sham boʻlib qoldi, u dam sevgilisining yuziga, dam Isoning chehrasiga sinchiklab tikilardi. Shunda uning chehrasi sochlari kabi oppoq oqarib ketdi.

VIII

Qish oxirlariga kelib er-xotin Dyu Rualar Valterlarnikiga tez-tez borib turishadigan boʻlib qolishdi. Hatto koʻpincha u yerda bir oʻzi mehmon boʻlar, chunki Madlena charchadim, deb uydan chiqmasdi.

Jorj juma kunlari Valterlarnikiga kelar va shu kuni Valter xonim boshqa hech kimni qabul qilmasdi. Bu kun faqat yolgʻiz Azizimga bagʻishlanardi. Taomdan soʻng karta oʻynashar, xitoy baliqlarini xoʻrak bilan boqishar, vaqtlarini xushkoʻngillik bilan kechirishardi. Biron eshikning orqasidami, qishki bogʻning butalari orasidami, xullas, duch kelgan xilvatroq joyda Valter xonim Jorjni mahkam quchoqlab olar va uni bor kuchi bilan toʻshlariga bosarkan, quloqlariga shivirlardi:

– Men seni sevaman!.. Men seni sevaman!.. Jinni boʻlib qolaman!

Lekin Jorj uni sovuqqonlik bilan chetga surar va quruqqina qilib:

– Agar yana oʻz bilganingizdan qolmasangiz, bu yerga qadam bosmayman, – derdi.

Martning oxirlarida kutilmaganda opa-singillar turmushga chiqishayotganmish degan gaplar tarqaldi. Rozaga kuyov deb graf de Latur-Velenni, Syuzannaga esa Markiz de Kazolning nomlarini tilga olishardi. Bu har ikkala janob ham Valterning uyiga kanda qilmay tashrif buyurishar, ularga oila aʼzolariga qaralganday munosabatda boʻlinar, allada aziz, toʻrvada mayiz qilinar edilar.

Jorj bilan Syuzanna oʻrtasida esa, doʻstona bir yaqinlik tugʻilgan, bir-birlariga aka-singilday muomala qilardilar. Ular bir-birlari bilan gaplashib zerikishmas, gaplari ham tamom boʻlmas, odamlarning gʻiybatini qilib, ularni mazax qilib oʻtirishar, aftidan, yulduzlari yulduzlariga rosa toʻgʻri kelib qolgan, irq-lari bir-birlariga oʻtirishgan edi.

Ikkovlari ham na boʻlajak toʻy va na kim kuyov ekanligi haqida miq etib ogʻiz ochishardi.

Bir kuni ertalab xoʻjayin Dyū Ruani oʻzinikiga sudrab olib ketdi, nonushtadan soʻng Valter xonimni allaqanday bir korchalon bilan muzokaraga chaqirib ketishgach, Jorj Syuzannaga:

– Yuring, tilla baliqlarni boqamiz, – deb qoldi.

Ular stoldan bir burdadan oq non olishib qishki bogʻ tomon ketishdi.

Marmar hovuz tevaragida baliqlarni tiz choʻkib oʻtinib koʻrishga qulayroq boʻlsin deb, yostiqlar tashlab qoʻyilgan edi. Syuzanna bilan Dyū Rua yonma-yon turib tizzalarini yostiqa qoʻnish-gancha nonni ushoqlab hovuzga tashlay boshlashdi. Baliqlar xoʻrakni sezib yaqin kelishdi. Ular dum-lari bilan qanotlarini yelpigancha, katta-katta koʻzlarini aylantirib atrofda kezishar, suv tubiga choʻkkan non ortidan shoʻngʻishar, keyin yana yuqoriga suzib chiqib, xoʻrakka ilhaq boʻlib turishardi.

Baliqlar ogʻizlarini kulgili suratda qimirlatishar, oʻljani koʻrganda unga shiddat bilan oʻqdek tashlanishardi. Ular hovuzning tagiga solingan qizil qumda qon-qirmizi rangda tovlanishar, shi-tob bilan suzganlarida esa, hovuzning shaffof suvlarida olov parchalari kabi yarqirab ketar edilar, suvda muallaq qotgan chogʻla-rida tangalaridagi moviy tasma koʻrinib ketardi.

Jorj bilan Syuzanna oʻzlarining suvdagi akslariga tikilishar va akslariga qarab jilmayishardi.

Shunda kutilmaganda Jorj dedi:

– Mendan gap bekitadigan boʻlibsizmi, Syuzanna, bu yaxshimas.
– Qanaqa gaplarni berkitibman, Azizim? – soʻradi qiz.
– Hov esingizdami, ziyofat kechasi mana shu yerda menga soʻz berganingiz?

– Yoʻq.

– Bitta-yarimta sizning qoʻlingizni soʻraydigan boʻlsa, menga aytadigan boʻlgan edingiz.

– Nima boʻlibdi?

– Sizga ega chiqmoqchi boʻlgan odamlar bor ekan.

– Kim ekan u?

– Oʻzingiz yaxshi bilasiz.

– Yoʻq, Chin soʻzim.

– Bilasiz! Anov olifta, naynov markiz de Kazol.

– Birinchidan, u olifta emas.

– Balki, shundaydir. Lekin u gʻirt ahmoq. Bor bud-shudini qimorga boy bergan, ishratga muk ketib, hozir dirvanglab qolgan. Siz kabi navqiron, oʻn gulidan bir guli ochilmagan, husndor va oqila qiz shundoq odamning qoʻliga tushsa yaxshimi!

– Nega siz unga qarshi boʻlib qoldingiz, xusumatingiz bormi? – kulib turib soʻradi qiz.

– Menmi? yoʻq.

– Yoʻq, bor. Lekin u siz aytganday odam emas.

– E, qoʻying-e. Tentak va dajjol.

Qiz suvdan koʻzini olib, boshini u tomonga pichagina burdi.

– Menga qarang, sizga nima boʻldi?

– Men... men... men sizni rashk qilaman, – dedi u goʻyo yuragi qatnashda maxfiy yotgan sirni fosh qilishga majbur boʻlib qolgan odamday.

Qiz bundan unchalar ajablanmadi.

– Siz-aʼ?

– Ha, men!

– Ana xolos! Nega endi?

– Chunki men sizni sevaman, siz esa, aftingizni yel urmasin, buni oʻzingiz ham yaxshi bilasiz.

– Siz jinni bo‘lib qolibsiz, Azizim! – jiddiy qilib dedi siz.

– Jinni bo‘lib qolganimni o‘zim ham bilaman, – dedi Jorj, – Uylangan odam sizday bir qiz bilan bunday gaplashishga qanday haddi sig‘sin! Jinni deb sekinroq aytasizmi, men undan ham bat-tarroqman, rostini aytganda, men jinoyatchiman, ablah bir odam-man. Men hamma umidlarimdan ayrilganman, shuning uchun ham aql-hushim boshimdan uchib turibdi. Mening oldimda sizning erga tegayotganligingizni aytishsa, jonim bo‘g‘zimga keladi, bit-ta-yarimtasini o‘ldirib qo‘yishga tayyor bo‘laman. Meni kechiring, Syuzanna!

U jim bo‘lib qoldi. Baliqlarga xo‘rak berish ham eslaridan chiqdi, baliqlar xuddi ingliz soldatlariga o‘xshab bir qator bo‘lib suvda muallaq turib ularga qarashardi, lekin suvga akslari tusha-yotganlarning xayoli endi butunlay boshqa yerda edi.

– Esizgina, bekor uylanib qo‘ygansiz-da, – dedi yarim hazil, yarim chin qilib qiz. – Nima ham qilib bo‘lardi? Buning iloji yo‘q. Hammasi tamom bo‘lgan!

Jorj birdan yuzini qizga burdi, unga juda ham yaqin bordi va so‘radi.

– Agar hozir erkin bo‘lganimda menga xotin bo‘larmidingiz?

– Ha, Azizim, men sizga turmushga chiqqan bo‘lardim: siz menga hammadan ko‘proq yoqasiz, – deb samimiy javob berdi qiz.

– Rahmat... rahmat... – shivirladi Jorj. – Sizdan iltijo qilib so‘rayman: hech kimga va‘da berib qo‘ymang. Yana biroz sabr qiling. Yalinaman! So‘z berasizmi?

– So‘z beraman, – dedi biroz uyalinqiragan qiz unga buning nimaga kerak bo‘lib qolganligini anglamagan ko‘yi.

Dyu Rua qo‘lidagi bor nonni suvga tashladi-da, xuddi chindan ham telba bo‘lgan odamday, hatto xayrlashmasdan ham yugura jo‘nadi.

Suv yuzida qalqigan nonga baliqlar urra yopishishdi, talab, tortisha ketishdi. Ular non burdasini hovuzning narigi tomoniga sudrab olib borishdi va uning tagida g‘uj bo‘lib uymalasha bosh-lashdi. Ular shu alfozda chir aylanayotgan jonli gultojga o‘xshar-dilar.

Hayajonlangan, hayratga tushgan Syuzanna o‘midan turib ohista ichkariga qarab yurdi. Jurnalist ko‘rinmasdi.

Jorj uyga kelganda o'zini bosib olgan, xotirjam ko'rinardi, u xat yozib o'tirgan Madlenaga qarata dedi:

– Sen juma kuni Valterlarnikiga ziyofatga borasanmi? Men boraman.

– Yo'q, – bo'shashibroq javob berdi xotini. – Nimagadir tobim qochibroq turibdi. Men, yaxshisi, uyda qolaman.

– O'zing bilasan. Zorimiz bor, zo'rimiz yo'q, – dedi eri va shu zahoti shlyapasini olib chiqib ketdi.

Jorj anchadan beri uning iziga tushgan, kuzatib, razm solib har bir qadamini tekshirib yurardi. Mana, nihoyat, uzoq kutilgan damlar keldi. U «men, yaxshisi, uyda qolaman» degan gapning ma'nosini darrov tushunib yetdi.

Keyingi kunlar ichida u xotiniga yumshoq, mehribon muomala qilib yurdi. Hatto odatdan tashqari o'zini shod-xurram qilib ko'rsatdi.

– Ana endi ilgarigi asl Jorjga o'xshayapsan, – derdi Madlena.

Juma kuni u erta kiyina boshladi: o'zining aytishiga qaraganda, xojayinnikiga ziyofatga borishdan oldin qiladigan talay ishlari bor ekan.

Soat oltilarda xotinini o'pib qo'ydi va uydan chiqib Notrdam-Loret maydoniga borib, kareta oldi.

– Siz Fontan ko'chasiga borib, o'n yettinchi uyning qarshisida to'xtaysiz va men yuring demaguncha kutib turasiz. – dedi kucherga. Jorj. – Keyin meni Lafayet ko'chasidagi «Qirg'ovul» restoraniga olib borasiz.

Ot erinchoqlik bilan lo'killab keta boshladi. Dyu Rua daricha pardalarini tushirib qo'ydi. O'z uyining to'g'risida to'xtab eshikdan ko'z uzmay kuta boshladi. O'n daqiqalardan keyin Madlena uydan chiqib tashqi bulvarlar tomonga yurib ketdi. U sal nariroq ketishi bilan Jorj boshini darchadan chiqarib qichqirdi:

– Ketdik!

Birmuncha vaqt o'tgach, foytun uni «Qirg'ovul» restoraniga olib keldi, bu shu atrofda ancha tuzuk, o'rtacha restoranlardan edi. Jorj umumiy zalga kirib o'ziga taom buyurdi. U shoshilmasdan ovqatlandi, dam-badam soatiga qarab qo'yardi. Nihoyat, kofe bilan ikki qadah konyak ichib oldi-da, huzur qilib a'lo navli sigaret chekdi, soat roppa-rosa yetti yarimda restorandan chiqdi,

o'tib ketayotgan aravani ushladi va Laroshfuko ko'chasiga yurishga buyurdi.

Dyu Rua eshikdagi qorovulga indamasdan o'zi aravadan tushgan uyning to'rtinchi qavatiga ko'tarildi. Xizmatkor qiz eshikni ochgach, so'radi:

– Janob Giber de Lorn uydamlar?

– Ha, afandim.

Uni mehmonxonaga olib kirdilar, bu yerda u biroz kutib turdi. So'ng uning oldiga baland bo'yli, qomatdor, ordenlar taqqan, sochlariga erta oq oralagan azamat bir odam chiqdi.

Dyu Rua ta'zim qildi.

– Taxminim to'g'ri chiqdi, janob politsiya komissari, – dedi Dyu Rua, – mening xotinim shu tobda o'z o'ynashi bilan Martir ko'chasida o'zlari yollagan xonada ulfatchilik qilyapti.

Tartib-intizomning sarvari boshini egib qo'ydi.

– Xizmatingizga tayyorman, afandim.

– Biz hammasini soat to'qqizga qadar ulgurishimiz kerak, shunday emasmi? – davom etdi Jorj. – Soat to'qqizdan so'ng siz zinoni qayd etish uchun xususiy uylarga kirishga haqli emassiz, to'g'rimi?

– Biroz boshqacharoq, afandim: qishda – soat yettigacha, o'ttiz birinchi martdan e'tiboran esa – soat to'qqizgacha. Bugun beshinchi aprel, demak, soat to'qqizgacha bizning vaqtimiz bor.

– Unday bo'lsa, janob komissar, pastda meni arava kutib turibdi, biz yo'l-yo'lakay sizning agentlaringizni ham ola ketamiz, keyin eshikda biroz kutib turamiz.

Qancha kechroq kirsak, ularni jinoyat ustida qo'lga tushirishimiz shuncha osonroq bo'ladi.

– Ixtiyor sizda, afandim.

Komissar chiqib ketdi va paltosini kiyib kirdi, uch xil rangdagi kamari paltosining tagida ko'rinmay qoldi. U Dyu Ruani oldinga o'tkazish uchun chetlandi, lekin o'y-xayollari bilan band bo'lgan Dyu Rua birinchi bo'lib chiqishdan bosh tortdi va bir necha bor:

– Sizdan keyin... sizdan keyin... – deb takrorladi.

– Yuravering, afandim, men o'z uyimdaman, – dedi komissar.

Dyu Rua shundan keyin ta'zim qildi-da, ostona hatlab tashqari chiqdi.

Jorj hozirgi bo'ladigan ishdan ularni kunduzi ogohlantirib qo'ygan edi. shuning uchun ham ular komissariatga kelishganda kishilik kiyimidagi uchta agent ularni kutib o'tirishgandi. Ulardan biri kucher yoniga, qolgan ikkisi kareta ichiga o'tirishdi. keyin izvosh ularni Martir ko'chasiga olib bordi.

– Menda kvartiraning plani bor, – dedi yo'lda ketisharkan Dyū Rua. – Uchinchi qavatda joylashgan. Eshikdan kiraverishda kichikroq xona, undan yotoq bilan oshxonaga o'tiladi. Uchala xona ham bir-biri bilan bog'langan. Qochib chiqadigan eshik yo'q. Qocholmaydilar. Shu atrofda slesar ham bor. U sizning buyrug'ingizga muntazir.

Ular aytilgan uyga kelishganda soat sakkizdan chorak o'tgan edi. Yigirma daqiqaga yaqin eshikda miq etmay kutib turishdi. Lekin Dyū Rua o'n beshta kam to'qqiz bo'lib qoldi degandan keyin komissar:

– Endi yuringlar, – dedi.

Ular qorovulga e'tibor ham berib o'tirishmadi, qorovul ularni payqagani ham yo'q, zinadan tepaga ko'tarila boshladilar. Agentlardan biri pastda qoldi.

To'rt kishi uchinchi qavatga chiqib to'xtadi. Dyū Rua eshikka qulog'ini tutib ichkarini tingladi, keyin kalit teshigidan qaradi. Lekin hech narsa ko'rinmas, hech narsa eshitilmasdi. Shunda u qo'ng'iroq tugmasini bosdi.

– Sizlar shu yerda tayyor bo'lib turinglar, – dedi o'z odamlariga komissar.

Ikki-uch daqiqalardan so'ng Jorj yana bir necha marta qo'ng'iroq tugmasini bosdi. Uy ichida qandaydir harakatlar boshlandi, yengil qadam tovushlari eshitildi. Kimdir eshik tomonga yurdi. Jumalist barmog'ini bukib eshikni qattiq taqillatdi.

– Kim? – tovush eshitildi eshik ortidan: bu ovozini o'zgartirishga harakat qilgan xotin kishining tovushi edi.

– Qonun nomi bilan – oching eshikni, – dedi komissar.

– Siz kim bo'lasiz? – so'radi yana boyagi ovoz.

– Politsiya komissari. Oching, bo'lmasa, eshikni buzishga buyuraman.

– Sizga nima kerak?

– Bu men, – dedi Dyū Rua. – Endi qo'lga tushdilaring.

Yalang oyoqdan chiqqan qadam tovushlari uzoqlashdi.

Lekin yana bir soniyadan so'ng eshik orqasidan keldi.

– Agar ochmasangiz, eshikni buzamiz, – dedi Jorj.

U eshikning mis qabzasini bosib turar, yelkasi bilan eshikni ichkariga itarar edi. Hamon javob yo'q edi: shunda Jorj eshikni bor kuchi bilan itardi, mebelli xonaning eski kaliti bunga dosh berolmadi. Qulfnig mixlari har tomonga uchib tushdi va Dyū Rua sal bo'lmasa Madlenaning naq ustiga qulayozdi. Madlena xonada oyoqyalang, sochlari yoyilib ketgan, ichki ko'ylak-yubkada, qo'li-da sham ushlagan bir alfozda turgan ekan.

– Xuddi o'zi, ularni ushladik! – deya qichqirdi jurnalist va o'zini ichkari xonalarga urdi.

Komissar shlyapasini qo'lga olib uning ketidan yurdi. Madlena dovdirab qolgan, orqadan sham ko'targancha kelardi.

Yemakxonada stol ustida har xil qolgan-qutgan taomlar sochilib yotardi: shampandan bo'shagan shishalar, bir idishda ozgina yeyilgan pashtet, tovuq suyaklari va burda-burda nonlar ko'zga tashlanardi. Bufet ustida ikki likop to'la ustritsa chig'anoqlari ko'rinardi.

Yotoqxonada hamma narsa ayqash-uyqash bo'lib ketgandi. Stul suvanchig'ida xotin kishining ko'ylagi, kreslo ustida erkak kishining shimi osilib yotardi. Biri katta, boshqasi kichikroq ikki juft botinka karavot yonida sochilgandi.

Bu odatdagi mebelli uylarning yotoqxonasi edi, undan mehmonxonalarni odamning ko'nglini aynatadigan sassiq chuchmal hidi anqir, stullar, devorlar, to'shaklar, darpardalardan dimoqni yoradigan yomon bo'y kelardi, kimda kim bu yerga bir kungami, yarim yilgami kirgan bo'lmasin, hammasi o'ziga yarasha bir hid, odam badanining hidini qoldirib ketgandi, mana shularning hammasi bir-biriga omixta bo'lib, g'alati, chuchmal va odam chidab turib bo'lmaydigan sassiqqa aylangandi.

Kamin ustida pirojniy solingan likop, shartrez shishasi va ikki chala ichilgan qadah betartib yotardi. Bronza soat ustiga silindr tashlab qo'yilgandi.

Komissar shartta orqasiga o'girilib, Madlenaga tik ko'z tashladi.

– Siz shu yerda hozir bo'lgan janob publitsist Prosper-Jorj Dyū Ruaning qonuniy xotini Kler-Madlena Dyū Rua bo'lasizmi, xonim?

– Ha, afandim, – deb aniq javob berdi Madlena bo'g'ilgan to'vush bilan.

– Bu yerda nima qilib yuribsiz?

Madlena javob bermadi.

– Bu yerda nima qilib yuribsiz? – takrorladi politsiya komissari. – Bu yer uyingiz bo'lmasa, mebelli xonalarda nima ish qilib yuribsiz, ust-boshingiz ham ochiq buning ustiga. Nega bu yerga keldingiz?

Komissar javob kutardi. Lekin Madlena miq etmasdi.

– O'zingiz bo'yingizga olmas ekansiz, tekshirib ko'rishga majburman, – dedi komissar.

Karavotda adyol tagida odam borligi bilinib turardi. Komissar karavot oldiga bordi.

– Marhamatli janob! – qichqirdi u.

To'shakda yotgan odam qimirlamadi. Aftidan, u yuzini devorga burib, boshiga yostiqlik bostirgan holda yotardi.

Komissar ko'rinishdan yotgan kishining yelkasi bo'lsa kerak, ushlab, dedi:

– Marhamatli janob, meni kuch ishlatishga majbur qilmang.

Biroq o'ranib olgan kishi o'lib qolganday qimir etmay yotardi.

Shunda Dyu Rua sakrab karavot oldiga bordi-da, adyolni tortib oldi, yostiqlikni itqitib yubordi. Larosh-Matening qum o'chib ketgan basharasi ko'rindi. Dyu Rua uning ustiga engashdi va hozir bo'g'ib o'ldiradiganday tishlarini g'ijirlatib vishilladi:

– Pastkashligini ham bo'yniga olgisi kelmaydi-ya buning.

– Ismingiz? – so'radi komissar.

Bo'laricha bo'lgan oshiq miq etmasdi.

– Men politsiya komissari bo'laman, nomingizni aytishni talab qilaman.

– Ayt nomingni, tirraqi, bo'lmasa o'zim aytaman! – dedi quturib ketgan, dag'-dag' qaltirayotgan Dyu Rua baqirib.

– Janob komissar, – ming'illadi to'shakda yotgan kishi, – manov kishi meni haqorat qilmasin, ayting. Men kimga javob berishim kerak, sizgami yoki ungami? Siz mendan so'rashingiz kerakmi yoki umi?

Aftidan, uning tomog'i qaqrab ketgandi.

– Menga, faqat menga, afandim, – dedi komissar. – Men sizdan kimligingizni so'rayapman.

Oshiq indamasdi. U adyolni dahanigacha tortib olib, dovdirab atrofga qarardi. Uning gajaklangan qo'ng'iz mo'ylabi o'liknikiday oqarib ketgan yuzida yanada qoraroq bo'lib ko'rinar edi.

– Demak, siz javob berishni istamaysizmi? – davom etdi komissar. – U taqdirda sizni qamoqqa olishga majburman. Har holda o'ringizdan turing. Kiyinib olganingizdan so'ng sizni so'roq qilaman.

To'shakda yotgan kishi qimirlab qo'ydi, uning lablaridan pichirlagan ovoz chiqdi:

– Lekin siz qarab tursangiz men o'rnimdan turolmayman.

– Nega? – deb so'radi komissar.

– Negaki... negaki... men qip-yalang'ochman, – tutila-tutila dedi oshiq.

Dyu Rua kuldi va yerda yotgan ko'ylakni olib karavotga irg'itdi.

– Hechqisi yo'q!.. Turavering!.. – qichqirdi u. – Agar mening xotinim oldida turib bemalol yechingan ekansiz, mening oldimda turib bemalol kiyinib olsangiz hech narsa qilmaydi.

Shu so'zlarni aytgach, u orqasiga o'girilib kamin tomonga yurdi.

Madlena endi o'zini bosib olgandi: u hammasi tamom bo'lganligini tushunib turardi, shu tobda og'ziga siqqanini gapirishdan toymasdi. O'ladigan ho'kiz boltadan toymas deb, u chimirilib turar, ko'zlari g'alati yiltirab ketardi. U bir parcha qog'ozni g'ijimlab kamin chetida turgan qo'polroq shamdonlardagi o'nta shamning barini xuddi mehmon kutayotganday yoqib qo'ydi. Keyin kaminning marmar taxtasiga suyanib, yalang'och oyoqlarini yonib tugayozgan olov alangasiga tutdi, shunda egnidan tushib ketay deb turgan yubkasi orqadan ko'tarilib qoldi, u pushti qutidan papiros olib tutatdi.

Komissar uning sherigi o'midan turguncha Madlenaning oldiga keldi.

– Bunaqa ishlar bilan tez-tez shug'ullanib turasizmi, marhamatli afandim! – chimirilib so'radi xotin.

– Iloji boricha kamroq shug'ullanaman, xonim afandi, – deb jiddiyat bilan javob berdi komissar.

Madlena nafratlanganday tirjayib qo'ydi:

– Yaxshi qilarkansiz, o‘zi yoqimsiz ishda.

U o‘zini erini ko‘rmayotganga solib turardi.

Bu orada yotgan afandi kiyina boshladi. U shimini kiyib, botinkasini oyog‘iga ildi va nimchasini kiyarkan, ularning qoshiga keldi.

Komissar unga qarab dedi:

– Marhamatli afandim, endi aytarsiz kimligingizni?

U javob bermadi.

– Unda sizni qamoqqa olishga majburman, – dedi komissar.

– Tegmang menga! – kutilmaganda baqirib yubordi u janob. – Men shaxsan daxlsizman.

Dyu Rua bir urib ag‘daradigan odamday otilib uning qarshisiga keldi.

– Siz qo‘lga tushdingiz... qo‘lga tushdingiz... – vishilladi u. – Men istasam, sizni qamoqqa olaman... ha, shunday.

Shunda u hayajondan titragan ovoz bilan qichqirdi:

– Bu odam Larosh-Mate, tashqi ishlar Vaziri!

Politsiya komissari hayrat bilan orqasiga tisarildi.

– Bo‘la qoling, marhamatli janob, menga kim ekanligingizni aytasizmi, yo‘qmi? – o‘zini yo‘qotib qo‘ygan holda g‘o‘ldiradi u.

Janob nafasini ichiga yutib, nihoyat, hammaga eshittirib dedi:

– Bu ablah rost aytyapti. Men chindan ham Vazir Larosh-Mate bo‘laman.

U Jorjning ko‘kragida yonib turgan yulduzni ko‘rsatib qo‘shib qo‘ydi:

– Yana men bu palidga orden berib yuribman, taqib olibdilar.

Dyu Ruaning rangida rang qolmadi. U ko‘kragidagi tasmsni shartta yulib kaminga uloqtirdi, tasma alanganing tiliday bir bukildi-da, olovga borib tushdi.

– Sizga o‘xshagan muttahamlar beradigan ordenning bahosi shu.

Ular tishlarini g‘ijirlatib, mushtlarini qisganlaricha qahrg‘azabdan qaltirashib bir-birlariga do‘layib turishardi: ularning biri – mo‘ylablari dikraygan, qotma, ikkinchisi – qo‘ng‘izdakkina mo‘ylabchasi burab qo‘yilgan, semiz edi.

Komissar shu zahoti ularning o‘rtasiga tushdi.

– Janoblar, bas qilinglar, o‘zingizni bosing!

Ular indamay teskari qarashib oldilar.

Madlena hamon joyidan jilmagan, iljayib papirosini chekardi.

– Janob Vazir, – deb boshladi politsiya komissari, – siz bu yerda Dyu Rua xonim bilan yolgʻiz yotganlarningizda ustingizdan chiqib qoldik: siz toʻshakda yotgan ekansiz, u kishi esa ichkiyimda ekan. Sizning kiyimlaringiz hamma yoqda sochilib yotibdi. Bularning bari zino roʻy berganligini koʻrsatadi. Siz buni tan olmay ilojingiz yoʻq. Nima deysiz?

– Mening gapiradigan gapim yoʻq, nima lozim boʻlsa qilavering, – deya toʻngʻilladi Larosh-Mate.

Komissar Madlenaga qaradi:

– Marhamatli xonim, bu janob sizning oʻynashingiz ekanligini tan olasizmi?

– Tan olaman, u mening oʻynashim! – hayosizlik bilan dedi xotin.

– Shuning oʻzi yetarli.

Komissar uyning koʻrinishi, ahvoli haqida yana baʼzi bir narsalarni yozib oldi. Bu orada Vazir tamomila kiyinib boʻldi, palatosini qoʻliga tashladi, shlyapasini oldi va komissar yozishdan toʻxtagach, soʻradi:

– Men sizga kerakmanmi? Nima qilishim kerak? Ketaversam boʻladimi?

Dyu Rua unga oʻgirilib qaradi va surbetlarcha iljayib dedi:

– Bemalol, endi hojati yoʻq, shekilli? Biz tugatdik. Marhamatli janobim, yana toʻshakka kiraversangiz ham boʻlaveradi. Sizlarni yolgʻiz qoldiramiz.

U politsiya komissarining yengiga barmogʻini tekkizdi-da, qoʻshib qoʻydi:

– Yuring endi, komissar janoblari, bizning bu yerda boshqa qiladigan ishimiz qolmadi.

Komissar biroz hayron qolib uning ortidan yurdi. Biroq uy ostonasida Jorj toʻxtadi, komissarni oldinga oʻtkazmoqchi boʻldi. Komissar odob yuzasidan koʻnmadi.

– Yuring, yuring, afandim, – takalluf qilardi Jorj qoʻymasdan.

– Sizdan keyin, – dedi komissar.

Shunda jurnalist taʼzim qildi, hurmat-hazil ohangi bilan dedi:

– Bu safar sizdan boʻlsin, janob komissar. Bu yerda men oʻz uyimda turgandayman.

Shundan soʻng u eshikni ohista kamsuqumgina boʻlib yopdi.

Bir soatdan soʻng Jorj Dyū Rua «Fransuz hayoti» tahririyatiga kirib bordi.

Valter shu yerda ekan. «Fransuz hayoti» keyingi paytlarda keng tarqala boshlagan, gazeta Valterning tobora zoʻrayib borayotgan bank operatsiyalariga yanada koʻproq xizmat qilayotgan bir payt edi, shuning uchun ham Valter gazetaga hali ham katta eʼtibor bilan qarar, unga jiddiy turib rahbarlik qilardi.

Noshir unga boshini koʻtarib qaradi:

– E, sizmisiz? Nega koʻrinishingiz gʻalati! Nega biznikiga ovqatlangani kelmadingiz? Qayerdan kelyapsiz?

Dyū Rua oʻzi aytadigan soʻzlar unga qanday taʼsir etishini oldindan bilib, dona-dona qilib dedi:

– Men hozirgina tashqi ishlar Vazirini qulatib kelyapman.

Valter u hazillashyapti, shekilli, deb oʻyladi.

– Vazirni qulatdingiz... Yaʼni qanday?

– Men mahkama aʼzolarini oʻzgartiraman. Vassalom! Bu palidlarni allaqachon ketiga tepish kerak edi.

Cholning tili tanglayiga yopishdi, mast boʻlsa kerak degan qarorga keldi.

– Menga qarang, jinni boʻlib qolibsiz, – deya gʻoʻldiradi u.

– Sira ham. Men hozir xotinimni janob Larosh-Mate bilan qoʻlga tushirdim. Politsiya komissari zino roʻy berganligini aniqladi. Vazirning kuni bitdi.

Valter hech narsa tushunmasdan koʻzoynagini manglayiga koʻtarib qoʻydi.

– Qoʻying, hazillashmang, – dedi u.

– Hazil qilayotganim yoʻq. Men hatto bu haqda gazetaga xabar ham beraman.

– Nima maqsadda?

– Men bu muttaham, ablahni, jamiyatga xavfli bir yaramasni qulatmoqchiman! Mening yoʻlimga toʻgʻanoq boʻladiganlarning shoʻri quriydi! Jazosi! Men hech qachon bunaqa narsalarni kechirmayman! – shlyapasini kresloga tashlab qoʻshib qoʻydi Jorj.

Noshir gap nimada ekanligini sira tushuna olmasdi.

– Xoʻsh, xotiningiz... nima boʻladi? – soʻradi u.

– Men ertagayoq ajralish haqida ish boshlayman. Uni marhum Forestening yoniga qoʻshmozor qilaman.

– Nima, ajralmoqchimisiz?

– Bo‘lmasam-chi? Shuncha kulgi bo‘lganim ham yetar. Lekin uni qo‘lga tushirish uchun o‘zimni go‘llikka solib yurdim. Endi hammasi joyida bo‘ladi. Endi mening deganim degan, aytganim aytgan.

Valter hali ham o‘ziga kelmagandi: u Dyu Ruaga talmovsi-ragan holda qarab: «Jin ursin! Bu azamatning mushugini pisht de-maslik kerakka o‘xshab qoldi», deb o‘ylardi.

– Endi men erkin qushman... – deb davom etardi Jorj. O‘zimga yarasha davlatim bor. Oktyabr oyida yangi saylovlar oldidan men o‘z tug‘ilgan yerimdan nomzodimni ko‘rsataman, u yerda meni yaxshi bilishadi. Bunaqa odamning ko‘ziga cho‘p tashlab yuradigan xotin bilan jamiyatda durustroq mavqega ko‘tarilib bo‘lmaydi, obro‘-e‘tibor orttirish qiyin. U meni xo‘p laqillatib o‘z domiga ilintirgan edi. Lekin uning nayranglari-ni sezgan zamonim yaramasning ketidan tushib, qilg‘iliqlarini fosh qildim.

U xaxolab kuldi.

– Sho‘rluk Foreste o‘la-o‘lguncha aldanib ketdi... U sho‘ring qurg‘ur dunyoni suv bossa to‘pig‘iga chiqmaydigan boqibeg‘am, laqmagina yigit edi, shu ko‘yi olamdan o‘tdi. Men bo‘lsam, un-dan mahrimga qolgan chipqondan qutuldim. Qo‘llarimni bog‘lab turgan kishanlar chilparchin bo‘ldi. Endi men ko‘p ish ko‘rsata-man.

U stulga ot minganday qilib o‘tirib oldi-da, o‘ziga-o‘zi orzula-rini bayon qilayotgan kishi kabi takrorladi:

– Uzoqqa ketaman...

Qari Valter hamon ko‘zoynagini manglayidan olmasdan suh-batdoshiga baqraygancha tikilib qolgan va ichida o‘ziga-o‘zi: «Ha, bu muttaham hali ko‘p ish ko‘rsatadi», derdi.

Jorj o‘rnidan turdi.

– Men hozir maqola yozaman. Buni juda ham ehtiyotkorlik bi-lan qilish kerak. Lekin bilib qo‘ying: bu Vazirga berilgan dahshat-li zarba bo‘ladi. U o‘nglanmaydi. Hech kim uni jardan qutqarib chiqolmaydi. «Fransuz hayoti»ga uni yoqlashdan endi hech qan-day manfaat yo‘q.

Chol bir qancha fursat ikkilanib turdi, lekin oxiri qo‘l siltadi.

– Mayli, – dedi u, – o‘zidan ko‘rsin.

Oradan uch oy o'tdi. Dyū Rua bu vaqt ichida xotinidan ajralib oldi. Madlena yana Foreste familiyasiga o'tdi. O'n beshinchi iyulda Valterlar Truvilga jo'nab ketadigan edilar, xayrlashuv kechasini shahardan tashqarida o'tkazadigan bo'ldilar.

Bu payshanba kuniga belgilangandi. Soat to'qqizda kattakon olti o'rinli to'rt ot qo'shilgan lando yo'lga chiqdi.

Sen-Jermenda, Genrix IV pavilonida nonushta qilish mo'ljalangan edi. Azizim markiz de Kazolning aftini ham ko'rishni istamaganligidan sayohatda xonimlarni kuzatib boraturgan birdan bir kavalər o'zi bo'lib qoldi. Lekin so'nggi daqiqalarda ertalab azonda yonlariga graf de Latun Ivelenni ham oladigan bo'ldilar. Unga aytib qo'yilgan ekan.

Otlar Yelisey dalalarini kesib o'tgan yo'ldan yo'rtib ketmoqda edi. Keyin Bulon o'rmonidan o'tdilar.

Ajoyib yoz kuni edi, issiqning tafti uncha bilinmasdi. Moviy ko'k osmon bag'rida yuksaklarda qaldirg'ochlar arg'amchi solib charx urishar, ular qoldirgan izlar havoda uzoq erib ketayotganday bo'lib tuyulardi.

Xonimlar orqada o'tirishardi: onasi ikkala qizini ikki yoniga olgan: erkaklar ularning ro'parasida yuzma-yuz joylashishgan, mehmonlar esa qari Valterning ikki qanotida edi:

Senadan o'tib, Mon-Valerendan burilishdi, Bujivalni orqada qoldirishgandan keyin to Pekka yetguncha daryo yoqalab ketgan yo'ldan borishdi.

Yoshi o'tinqirab qolgan, ikki chakkasidagi siyrak uzun bakenbardlarini shamol tortqilab turgan (Dyū Rua shu munosabat bilan «Shamol uning soqollarini o'ynoqlab tortqilaydi», deb qo'ygan edi) graf de Latur-Ivelen hadesa Rozaga mahramona nazar tashlab qo'yardi. Ular bundan bir oy ilgari unashilgan edilar.

Jorj ko'zlarini Syuzannadan uzmasdi: ikkovlarining ham ranglari o'chgan edi. Ularning ko'zlari to'qnashib qolar, faqat o'zlarigagina ayon bo'lgan ma'no bilan bir-birlariga termulishar, o'g'rincha boqishar, so'ng yana tezlik bilan ko'zlarini chetga olishardi. Valter xonim baxtiyor va osuda edi.

Nonushta choʻzilib ketdi. Parijga qaytishdan avval Dyū Rua ayvonda aylanishni taklif qildi.

Oldin atrof manzarasini tomosha qilish uchun toʻxtadilar. Hammalari devor oldida qator turib oldilar-da, yiroq-yiroq manzaralarga suq bilan tikila boshladilar. Sena xuddi uzun togʻ yon bagʻrida koʻkatlar uzra yastanib yotgan ulkan ajdar misoli Mezon-Latif tomonga oqib yotardi. Oʻng tomonda balandlik tepasida Marli sardobasi qad koʻtarib turardi: uning koʻklarga boʻy choʻzgan tarxi ulkan panjaralarga suyanib turgan qurtga oʻxshardi. Marlining oʻzi esa pastda, quyuq oʻrmon ichida koʻrinmasdi.

Ularning koʻz oʻnglarida yastanib yotgan bepoyon vodiya onda-sonda qishloqlar koʻrinib qolardi. Kichkinagina, unchalik qalin boʻlmagan daraxtzorning oʻrtasida parcha-purcha boʻlib Vezine koʻlchalari koʻrinardi. Chap tomonda juda uzoqlarda Sartruvil jomxonasining yuksak ignalari osmonga boʻy choʻzgandi.

– Bunaqa manzara dunyoda boshqa topilmaydi, – dedi Valter. – Hatto Shveysariya ham uchramaydi.

Sayohatchilar ohista ilgari yurishdi, hammalarining yana biroz aylangilari, atrof-tumonatni tomosha qilgilari kelib turardi.

Jorj bilan Syuzanna orqada kelishardi. Ular boshqalardan bir necha qadam orqada qolishlari bilanoq, Jorj qizga ohista shivirlab dedi:

– Men sizni sevaman, Syuzanna. Meni telba qilib qoʻydingiz.

– Men ham sizni, Azizim, – deya shivirladi qiz ham.

– Agar menga xotin boʻlmasangiz, Parijdan ham, Fransiyadan ham boshimni olib ketaman.

– Otam bilan gaplashib koʻring. Balki, u rozi boʻlar.

U bilinar-bilinmas sabrsiz bir harakat qildi.

– Yoʻq, men sizga necha marta aytdim: buning foydasi yoʻq deb. Uyingizning eshiklari men uchun berkiladi, meni tahririyatdan boʻshatib yuboradilar, hatto biz koʻrishib turishdan ham mahrum boʻlib qolamiz. Men otangizga aytadigan boʻlsam, hech shak-shubhasiz buning oqibati mana shunday boʻlib chiqadi. Sizni markiz de Kazolga unashib qoʻyishgan, ota-onangiz bir kunmas bir kun siz rozi boʻlarsiz, deb umid qilib yurishibdi.

– Unda men nima qilay? – soʻradi qiz.

Jorj javob berishga shoshilmadi, qizga qiyos boqib qaray boshladi.

– Sizga nima desam, menga xoʻp dermidingiz?

– Ha.– dedi qat'iyat bilan qiz.

– Nima desam ham-a'?

– Ha.

– Dunyoda eng qilib bo'lmaydigan ishni aytsam hammi?

– Ha.

– Otangiz bilan onangizning irodalariga qarshi borishga jur'atingiz yetadimi?

– Ha.

– Rostdanmi?

– Unda, birdan bir yo'l bor. Hamma narsani faqat go'yo volg'iz sizning xohishingiz bilan bo'layotgan kabi ko'rsatish kerak. Siz uyning erka qizisiz, siz nima demang, urishishmaydi, yana bir sho'xlik qilsangiz, bunga birov hayron bo'lib o'tirmaydi. Shunday bo'lgach, mening gaplarimga yaxshilab quloq soling. Shu bugun kechqurunoq uyga qaytgandan keyin onangizni volg'iz topib uning oldiga kiring. Unga menga xotin bo'lmoqchi ekanligingizni ayting. U juda ham qo'rqib ketadi, baqirib-chaqiradi, o'zini yo'qotib qo'yadi...

– O, oyim rozi bo'ladi! – uning gapini bo'ldi Syuzanna.

– Yo'q! – deb qati'y e'tiroz bildirdi Jorj, – siz uni bilmaysiz. Otangizning achchig'i chiqadi. Lekin bu, oyingizning g'azabi oldida urvoq ham bo'lmaydi. Mana, qarab turarsiz, u sizga o'lsam ham rozi bo'lmayman, deb aytadi. Lekin siz so'zingizda qattiq turing, orqaga chekinmang, agar erga tegadigan bo'lsam, faqat unga tegaman, boshqa hech kimga tegmayman, deb turib oling. Xo'pmi?

– Xo'p.

– Oyingizga aytganingizdan so'ng otangiz oldiga kirasiz va jiddiy turib o'z fikringizni unga ma'lum qilasiz.

– Ha. Keyin-chi?

– Eng muhimi keyin boshlanadi. Agarda siz mening xotinim bo'lishga juda-juda qattiq ahd qilgan bo'lsangiz, jonginam, mening jajjiginam Syuzanna... unda men... unda men sizni olib qochib ketaman!

Qiz xursand bo'lib ketganidan chapak chalib yuboray dedi.

– Qanday baxt! Siz meni olib qochasiz! Qachon!

Kitoblardan o'qilgan tungi olib qochishlarning ko'hna jozi-basi, pochta karetalari, g'alati mayxonalar, odamning aqlini sho-

shiradigan ajoyib sarguzashtlar birdan uning koʻz oʻngida sehrli tush yangligʻ gʻavdalanib oʻtdi. tush esa halizamon rost kelishi aniqqa oʻxshab turardi.

– Qachon olib qochasiz? – takror soʻradi qiz.

– Istasangiz... bugun kechasi... tunda, – sekin javob berdi Jorj.

– A, qayoqqa ketamiz? – aʼzoyi badani qalt-qalt titrab soʻradi qiz.

– Bunisi mening sirim. Mana shularni oʻylab koʻring. Shum bilib qoʻyingki, men bilan ketganingizdan keyin siz boshqa hech bir odamga erga chiqolmaysiz! Bu birdan bir soʻnggi yoʻl, lekin u... gʻoyatda xatarli, siz uchun.

– Men roziman... – dedi qiz. – Siz bilan qayerda uchrashaman?

– Uydan bir oʻzingiz chiqishga qoʻrqmaysizmi?

Men eshikni ochishni bilaman.

– Unda qorovul uxlagani yotgandan soʻng yarim kechalarda ittifoq maydoniga kelasiz. Men sizni dengiz Vazirligining qarshisida karetda kutib oʻtiranman.

– Men kelaman.

– Chindan-a?

– Chindan.

Jorj qizning qoʻlini qisib qoʻydi.

– O, sizni shunchalar sevamanki! Qanchalar ajoyibsiz, mard-siz! Demak, siz markiz de Kazolga turmushga chiqishni istamay-siz?!

– O, yoʻq!

– Siz yoʻq, deb aytganingizdan keyin otangizning qattiq jahli chiqdimi?

– Jahl ham gapmi? U meni monastirga joʻnataman, dedi.

– Mana koʻrdingizmi, dadil harakat qilmasa boʻlmaydi.

– Men dadil boʻlaman.

Butun fikr-u xayoli qochishda boʻlib qolgan qiz ufqlarga koʻz suzib chiqdi. U bilan... Yiroq-yiroqlarga ketadi! U oʻzini olib ketadi!.. Qiz bu bilan faxrlanardi. U oʻzining obroʻsi haqida, bu narsa boshiga sharmisorliklar keltirishi mumkinligi ustida oʻylamasdi. Umuman, u nima qilayotganligini bilarmidi oʻzi? Gap nima ustida borayotganligini salcha boʻlsin anglarmidi?

Valter xonim orqasiga o'girildi.

– Bu yoqqa kel, bolajon! – qichqirdi u. – Azizim bilan u yerda nima qilayotibsizlar?

Ular boshqa hamrohlariga borib qo'shildilar. Gap Valterlar boradigan dengiz kurorti ustida ketayotgan ekan.

Yana eski yo'ldan qaytmaslik uchun ular Shato orqali ketishga qaror qildilar.

Jorj indamay borardi. U o'yga botgandi. Shunday qilib, agar-da qizchanning jur'ati yetsa, nihoyat, Jorj o'z tilagiga erishadi! U uch oydan beri qizni o'z domiga ilintirish maqsadida uning boshini butkul aylantirib tashladi. Uni yo'ldan urdi, o'ziga asir-u mubtalo qildi, nihoyat, tobe etdi. U qizni o'ziga shunchalar qiziqtirib qo'ydi, shunchalar o'ziga rom qilib oldiki, bunaqasi faqat uning qo'lidan kelardi. U bu havoyi qo'g'irchoqning yuragiga osongina yo'l topoldi.

Avval boshda qizni markiz de Kazoldan aynitdi. Endi esa o'zi bilan birga qochishga ko'ndirdi. Ko'ndirmay iloji yo'q edi, boshqa chora qolmagandi.

Valter xonim o'la qolsa ham unga qizini berishga rozi bo'lmaydi – u buni yaxshi biladi. U hali ham Jorjni sevadi, uni bundan keyin ham o'la-o'lguncha sevadi, zotan, uning muhabbati o'chmas, tuganmas bir muhabbat, bedavo sevgi. Hali ham uni Jorjning o'zini chetga tortib sovuqqonlik bilan qilayotgan muomalasi ushlab turibdi, lekin uning yuragini jilovlab bo'lmas toshqin daryo misol hirs kemirib yotganligini Jorj sezadi. U shunday bedavo dardga chalinganki, endi Jorj uni bu yo'ldan aslo qaytarolmaydi, uning qo'lidan kelmaydi. Shunday ekan, u hech qachon Jorjni Syuzanna-ga uylanishiga yo'l qo'ymaydi.

Biroq qizcha qo'lga kirishi bilanoq uning otasidan tap tortmay hisob-kitob boshlaydi.

O'z xayollariga berilib ketgan Dyu Rua o'ziga aytilayotgan gaplarni eshitmas, yo ha yo yo'q, deb qo'ya qolardi. Shaharga kirib kelganlaridagina u sergak tortdi.

Syuzanna ham o'yga toldi. Aravaga qo'shilgan to'rtala ot qo'ng'iroqlarini jingillatgancha ketib borar, qo'ng'iroqning sadosi xayoliga oy nur to'kib yotgan uzundan uzoq katta yo'llarni keltirar, uning tasavvurida qop-qorong'i zulmat qo'yniga cho'mgan

o'rmonlar, yo'l orasida kirib o'tiladigan mayxonalar, otlarni shosha-pisha almashtirayotgan kucherlar jonlanardi, hamma jonsarak bo'lib turgan, chunki qochoqlarning ketlaridan quvib kelishyapti-da.

Landa saroy hovlisiga kirib borgandan so'ng Valterlar Jorjni qo'yarda-qo'ymay birga ovqatlanishga qistay boshladilar. Lekin u qolgisi kelmay uyga jo'nadi.

Uyda ozgina ovqat totinganday bo'ldi, keyin olis sayohat tadorigini ko'rishga kirishdi, o'z qog'ozlarini tartibga keltirdi. Yuzini yerga qaratishi mumkin bo'lgan xatlarni yoqib yubordi, boshqa birlarini yashirdi, ba'zi do'stlarga ikki enlik xat yozdi.

U o'qtin-o'qtin soatiga qarar va: «Hozir u yerda toza hangoma qizib yotgandir», – deb o'ylab qo'yardi. U asta-sekin xavotirlana boshladi. Ish o'ngidan kelmasa-chi, unda nima bo'ladi? Lekin u nimadan qo'rqishi kerak o'zi? Bir epini qilib ketar, axir. Ammo yomon baland dorga osildi-da o'ziyam!

Soat o'n birlarda uydan chiqdi, biroz aylanib yurdi, keyin arava yolladi-da, Ittifoq maydonidagi dengiz Vazirligining peshtoqlari oldida to'xtadi.

U damba-dam gugurt chaqib soatiga qarab qo'yardi. Soat o'n ikkilarga yaqinlashganda bezgak tutayotganday qaltiray boshladi. U dam sayin darchadan boshini chiqarib Syuzanna kelmayotganmikin deb qarab qo'yardi.

Allaqayerlardan, uzoqdan soatning o'n ikkiga jom urgan sasi keldi, keyin boshqa yaqinroqdagi soatlardan ham jom tovushi eshitildi, so'ng bir paytning o'zida ikkita soat zang urdi. Keyin yana bir, lekin bu safar juda olisdan zang sadosi chiqdi. Oxirgi zang sadosi yangrab bo'lgach, u: «Hammasi tamom. Rasvo bo'ldi. U endi kelmaydi», deb o'yladi.

Shunday bo'lsa ham u ertalabga dovur kutishga qaror qildi. Bunaqa paytlarda sabr-toqat qilish kerak.

Birozdan keyin o'n ikkidan chorak o'tganiga urilgan zangni eshitdi, keyin yarim bo'ldi, keyin o'n besh daqiqa kam bir va nihoyat, boyagidek yana barcha soatlar birin-sirin bir bo'lganligiga jom chaldilar. U endi qizni keladi deb kutmas, balki, nima bo'lganligini o'ylab boshi qotardi. Kutilmaganda, kareta darchasida qiz bolaning boshi ko'rindi.

– Shu yerdamisiz. Azizim?

U sapchib oʻmidan turib ketdi. Yuragi birdan urishdan toʻxtab qolganday boʻldi.

– Sizmisiz. Syuzanna?

– Ha, menman.

Jorj foytun eshigining qabzasini sira buray olmas va hadeb:

– E, sizmisiz... sizmisiz... chiqing bu yoqqa, – derdi. Qiz faytonga chiqdi va uning yoniga – oʻrindiqa quladi. Jorj kucherga: «Ketdik!» – deb qichqirdi va kareta yoʻlga tushdi.

Syuzanna ogʻir-ogʻir nafas olar, tili kalimaga kelmasdi.

– Qani, endi nima boʻlganligini aytib bering? – soʻradi Jorj.

– O, asti qoʻyaving, juda yomon boʻldi, ayniqsa, oyim dod-faryod qilib hamma yoqni buzib yubordi, – deya shivirladi qiz aql-hushdan ogʻayozgan bir alfozda.

Jorj azbaroyi hayajonlanib ketganidan dagʻ-dagʻ qaltirardi.

– Oyingizmi? U sizga nima dedi? Aytib bering.

– Siz soʻramang, men aytmay! Qiyomat qoyim boʻldi! Men hammasini yaxshilab oʻylab olib, keyin oyimning oldiga kirdim va gapning rostini aytib qoʻya qoldim. Oyimning rangi quv oʻchib ketdi va: «Hech qachon! Hech qachon!» – deb qichqira boshladi. Men boʻlsam, yigʻladim, jahl qildim, undan boshqa hech kimga erga chiqmayman, deb qasam ichdim. Oyim menga shapaloq tortib yuboradimi, deb qoʻrqdim. U xuddi telbalarga oʻxshab qoldi, seni ertagayoq monastirga joʻnataman, deb doʻq qildi. Men hech qachon uni bu ahvolda koʻrmagan edim, hech qachon! Lekin shunda uning gapi ustiga otam kirib qoldi, u oyimning baqirib-chaqirgan ovozi eshitgan boʻlsa kerak. Otam oyimga oʻxshab qattiq dargʻazab boʻlgani yoʻq, lekin u odam senga unchalar mos emas, dedi. Ular meni shunchalar jahlimni chiqarib yuborishdiki, ular-dan ham koʻproq oʻzim baqirib-chaqira boshladim. Otam oʻziga yarashmagan foje bir tovush bilan bor, chiq, dedi. Shundan keyin men siz bilan qochib ketish qaroriga keldim. Mana, kelib turibman. Endi qayoqqa boramiz?

Dyu Rua ohista uning belidan quchdi; qizning hikoyasini qattiq berilib tingladi va shunda uning yuragida qizning ota-onasiga nisbatan kuchli bir gʻazab uygʻondi. Lekin mayli, qiz endi uning qoʻlida. Ularga hali koʻrsatib qoʻyadi.

– Biz poyezdga kechikdik, – dedi u. – Kareta bizni Sevrga eltib qoʻyadi, kechani oʻsha yerda oʻtkazamiz. Ertaga Larosh-Giyonga joʻnaymiz. U Mant bilan Boner oʻrtasida Senaning qirgʻogʻida joylashgan juda ham soʻlim qishloq

– Lekin men oʻzim bilan hech narsa ololganim yoʻq. Men juda yupun kiyinganman, – dedi Syuzanna.

Jorj begʻamlik bilan kulib qoʻydi:

– Hechqisi yoʻq, hammasini toʻgʻrilaymiz!

Arava koʻchalardan ketib borardi. Jorj qizning qoʻllarini oldida, ohista eʼzozlab oʻpa boshladi. Bunaqa quruqdan quruq erkalashlarga uning tobi toqati yoʻq edi, shuning uchun ham endi qiz bilan nima haqida gaplashsam ekan, deb boshi qotmoqda edi. Birdan nazarida qiz yigʻlayotganday boʻldi.

– Sizga nima boʻldi, jonim? – deya qoʻrqib ketib soʻradi u qizdan.

– Oyim bechora, mening yoʻq boʻlib qolganimni bilgan boʻlsa, hozir uxlamay oʻtirgandir, – dedi qiz yigʻi aralash.

Valter xonim chindan ham mijja qoqmagan edi. Syuzanna xonadan chiqib ketgandan keyin er-xotin yolgʻiz qolishdi. Xonim juda ezilgan, dili vayron edi.

– O, Xudoyim-ey! Endi nima boʻladi?

– Nima boʻlardi, anov loʻttiboz qizingning bosh-koʻzini aylantirib qoʻygan, – qizishib dedi Valter. – Kazoldan aynitgan ham oʻsha. Qizingning sepiga koʻz tikkan u muttaham!

Valter dargʻazab bir holda xonada u yoqdan bu yoqqa borib kela boshladi.

– Hammasini qilding, sen qilding, qoʻygani joy topolmay qolganding, aylana qolay, oʻrgila qolay, deb juda haddan oshirib yubording. Ertalabdan kechgacha ogʻzilaringdan: «Azizim-chi, Azizim» tushmaydi. Ana endi oʻzing pishirgan oshni oʻzing ichasan.

Xonim oqarib ketdi.

– Nima... men uni haddidan oshiribmanmi?

– Ha, sen! – deya uning basharasiga qichqirdi eri. – Hammalaring u desa oʻlib boʻlasanlar: anovi Marel ham, Syuzanna ham, hammalaring, hammalaring. Nima, usiz bir kun ham yasholmay qolganingni bilmaydi, deb oʻylaysanmi?

Valter xonim qaddini ko'tardi.

– Men bilan bunday gaplashishingizga yo'l qo'ymayman, – dedi u qo'rqinchli tovush bilan. – Men sizga o'xshab do'konda katta bo'lgan emasman. bilib qo'ying.

Eri tilini tishlab qoldi, keyin g'azab bilan: «E, hammalaringni jin ursin!» – deb qichqirdi-da, eshikni tarsillatib yopib chiqib ketdi.

Valter xonim bir o'zi qolishi bilanoq beixtiyor oyna oldiga chopdi – nazarida, bir zum ichida butkul qarib qolganday edi, yetti uxlab tushiga kirmagan bu dahshatli hodisani u sira ham aqliga sig'dira olmayotgan edi. Syuzanna Azizimni sevib qolibdi! Azizim Syuzannaga uylanmoqchi! Yo'q, bo'lmagan gap, men yanglishayotgandirman! Bunday bo'lishi mumkin emas! Qizi tushmagur u go'zal yigitga ko'ngil qo'ygandir, o'zini unga turmushga beradilar, deb ishonganidir, shaydoyi bo'lib yurgandir, lekin buning ajablanadigan yeri yo'q, tabiiy bir narsa. Biroq Azizim-chi? Axir, u qizaloq bilan til biriktirmagandir-ku! Valter xonimning xayollari boshiga og'ir g'am tushgan odamlarniki kabi to'zgib ketgandi. Yo'q, Azizim, aftidan, Syuzannaning bu qilig'idan bexabar bo'lsa kerak.

Xonim o'z jazmani bu ishga bosh qo'shganmi yo qo'shmaganmi, deb uzoq bosh qotirdi. Agar u qizchani yo'ldan urgan bo'lsa, qanchalar ablah odam ekan! Endi nima bo'ladi? Hali oldinda yana qanchadan-qancha xavf-xatarlar, g'am-alamlar bor ekan, o Xudoyim-ey!

Agar bunga Azizim aralashmagan bo'lsa, unda hali chipqonning oldini olsa bo'ladi. Syuzannani yarim yilga sayohatga olib ketilsa bas, keyin hammasi esdan chiqadi. Biroq shuncha gapdan keyin endi u bilan qanday yuz ko'rishadi? Axir, uni hamon sevadi-ku. Bu ishq uning yuragiga kamon o'qidek sanchilib yotibdi, uni sug'urib tashlamoqlikning sira imkoni, iloji yo'q.

Uningsiz bir dam ham yashay olmaydi. Undan ko'ra o'lgan afzalroq.

U butkul qayg'u-g'amga, shubha-ishtibohlarga botdi. Boshi noaniq, og'ir o'ylardan tars yorilib ketay derdi, a'zoyi badani zirqirab turardi. U qanday bo'lmasin bir yo'l topishga urinar, endilikda nima bo'lishini bilmay alamidan dod deb yuboray derdi. U soatga qaradi: ikkiga yaqinlashib qolibdi. «Adoyi tamom

bo'ldim. – dedi u o'ziga o'zi. – men aqldan ozib qolayotirman. Men hammasini bilishim kerak. Borib Syuzannani uyg'otaman-da, bor gapni so'rab olaman».

U taqir-tuqur qilmaslik uchun oyog'idan botinkasini yechib oldi-da, qo'lida sham ko'targancha qizining yotog'i tomon yo'l oldi. Eshikni sekingina ochdi va karavotga qaradi. O'rin buzilgan-gancha turardi. Avval hech bir shubhaga bormadi, qizaloq otasi bilan hamon janjallashib o'tirgandir. deb o'yladi. Lekin birdan kallasiga yalt etib yashin urganday dahshatli bir fikr keldi va u erining oldiga chopdi. Uning oldiga halloslab, rangida rang qol-may, talvasa ichida kirib bordi. Valter o'rni-da kitob o'qib yotgan ekan.

– Nima bo'ldi? Senga nima bo'ldi? – so'radi u qo'rqib ketib.

– Syuzannani ko'rmadingmi? – tutila-tutilla so'radi xotini.

– Menmi? Yo'q. Nima qildi?

– U... U... ketib qolibdi. Xonasida yo'q.

Valter gilamga sakrab tushdi, shippagini kiydi va ko'ylakchan qizining xonasiga qarab yugurdi.

Xonaga kirgan zamon u hammasiga tushundi. Qizi qochib ketibdi.

Valter kresloga og'ir cho'kdi va qo'lidagi chiroqni polga qo'ydi.

Xotini uning orqasidan kirib keldi.

– Nima bo'libdi? – zaif bir tovush bilan bazo'r so'radi u eri-dan.

Valterning hatto javob berishga ham, g'azablanishga ham ma-joli qolmagan edi.

– Hammasi tamom bo'ldi, – dedi u nihoyat ingrab, – qizcha uning tuzog'iga ilinibdi. Endi holimizga maymunlar yig'laydi.

Xotini uning basharasiga nima deyapsan o'zi deganday qaradi.

– Nega endi maymunlar yig'lar ekan?

– Buning nimasiga ajablanasan? Endi qandoq bo'lmasin, u qizimizga uylanishi kerak.

Xotini so'yilayotgan molday bo'kirib yubordi:

– U-ya? Hech qachon! Sen esingni yeb qo'yibsan.

– Ming dod-faryod qilganing bilan endi foydasi yo'q, – dedi noxushlik bilan Valter. – U qizchani olib qochib ketdi, uning no-

musiga tegdi. Endi qizimizni unga bermoqdan o'zga choramiz yo'q. Agar hammasini aql-hushimizni bir yerga qo'yib qilsak, unda hech kim is bilmaydi.

– Hech qachon, hech qachon unga Syuzannani bermayman! – dedi dahshat ichida dag'-dag' qaltiragan xotini. – Men hech qachon rozi bo'lmayman!

– Rozi bo'lasanmi, bo'lmaysanmi, qiz endi uning qo'lida, – alam va umidsizlik bilan dedi Valter. – G'isht qolipdan ko'chgan. U qizchani to bizdan rozilik olmaguncha yashirib olib yuradi. Shunday ekan, janjal, shov-shuvlarning oldini olish uchun hozirdanoq rozilik berishimiz kerak bo'ladi.

Valter xonimning yuragi taqdiming bu jafosidan yorilib ketadigan bir holga kelgan, lekin ko'kragini parmalab yotgan alamni hech kimsaga ayto'lmasdi.

– Yo'q, yo'q! Men hech qachon rozi emasman! – deya takrorlardi u.

Erining jahli chiqib ketdi.

– Oh-vohming o'mi emas! Shunday qilishimiz shart. Eh, muttaham, toza bizni dog'da qoldirdi-da... Juda pixini yorgan tullak ekan ammo! Biz unga qaraganda mavqeyi zo'rroq odamni topishimiz mumkin edi, lekin undan ko'ra aqlliyoq, undan ko'ra o'sadiganroq odamni topolmasdik. Uning kelajagi porloq. U hali deputat bo'ladi, Vazir bo'ladi.

– Unga hech qachon Syuzannani bermayman... – battollik bilan dedi Valter xonim. – Eshitdingmi?.. Hech qachon!

Valterning nihoyat sabri tugab, g'azabi qo'zg'adi, u ishing ko'zini biladigan odam sifatida Azizimning yonini ola boshladi.

– Bo'ldi, bas qil-e... Senga aytyapman-ku, shunday qilishimiz shart, deb, bundan qochib qutulib bo'lmaydi. Yana kim biladi? Ehtimol, keyin pushaymon qilishga o'rin qolmas. Bunaqa odamlar bugun ostingda bo'lsa, ertaga ustingda bo'ladi. O'zing ko'rdingku, u anov tentak Larosh-Mateni uchta maqola bilan po'stagini qoqib tashladi, buning ustiga sira ham hamiyatini yerga urmadi, vaholanki, o'zining ahvoli nihoyatda og'ir edi. Mayli, boshga tushganini ko'z ko'rar. Hozircha bizni qo'g'irchoq qilib o'ynatadi. Undan osonlikcha qutulib bo'lmaydi.

Valter xonim dod-faryod ko'targisi, yerga dumalab dodlagisi, sochlarini yulgisi kelardi.

– Qizimni unga bermayman!.. – oyog'ini tirab turib oldi u. – Men... men... istamayman!..

Valter o'rnidan turdi va yerdan chiroqni olib dedi:

– Menga qara, sen hamma xotinlarga o'xshagan noqusul aql ekansan. Xayolingizga bir narsa qattiq o'tirishib qolsa, tamom. Sizlar sharoitga qarab ish yuritishni bilmaysizlar... ahmoqlar. Senga aytyapman-ku, u qizingga uylanadi, deb. Vassalom.

Valter shippagini shippillatgancha xonadan chiqdi. U uyquga cho'mgan ulkan saroyning koridoridan ko'ylakchan holda odamning kulgisini qistatadigan sharpa yang'lig' o'tib bordi, so'ng sas-siz xonasiga kirib ketdi.

Valter xonim turgan joyida qotib qoldi, – chidab bo'lmaydigan bir azob qalbini vayron qilib tashlamoqda edi. U yuz bergan voqeani hali to'la anglab ulgurmagandi. U hozir faqat uqubati-ni iskanjasida o'rtanmoqda edi. Keyin ertalabgacha shu alfozda tik oyoqda turishga qurbi yetmasligini his qildi. Uning bu yerdan bosh olib ketgisi, hayyo-huyt deb etak silkib qayga bo'lmasin qochgisi keldi, bir hamroz topgisi, unga dardlarini aytib yozilgisi keldi. Bir xaloskor istadi.

U kimga aytsam ekan, deb o'ylanib qoldi. Kimga? Kallasi-ga bir fikr kelmasdi. Ruhoniy-chi! Ha, ruhoniya boradi! O'zini uning oyoqlariga tashlaydi, gunohlarini unga to'kib soladi, o'z dardini aytib iltijo qiladi. U bu muttahamning Syuzannaga uylanishi mumkin emasligini tushunadi va bunga yo'l qo'ymaydigan bir chora ko'rsatadi.

Ruhoniy topish kerak, hoziroq, shu damning o'zida topish kerak!

Lekin shu tobda uni qayerdan topasan? Boshingni qayerga urasan? Biroq bir damga bo'lsin bu yerda endi turib bo'lmaydi, bunga uning hozir kuchi yetmaydi.

Shunda ko'z o'ngida suv kechayotgan Isoning porloq siymosi gavdalandi. Uni xuddi rasmga qaraganday ko'rib turardi. Demak, Iso uni chaqiryapti. Unga: «Kel, mening qoshimga. Poyimga tiz cho'k. Men senga taskin va orom beraman, senga rohi haqiqatni ko'rsataman», demoqda.

Valter xonim qoʻliga sham oldi va pastki qavatga tushib, qishki bogʻ sari ketdi. Iso uyning eng chekkasidagi kichkina mehmonxonaga qoʻyilgan, surat namiqib qolmasligi uchun, odatda, xonaning oynaband eshigini yopib qoʻyar edilar.

U xuddi gʻalati bir sirli oʻrmon ichra turgan jomxonaga oʻxshardi.

Valter xonim shu paytgacha qishki bogʻni charogʻon holda koʻrgan edi, hozir bogʻga choʻkkan qorongʻi zulumotdan u dong qotib qoldi. Jazirama mamlakatlarning hashamdor quyuq oʻsimliklari oʻtkir, boshni aylantiradigan hidlar taratib yotar edilar. Eshiklar yopib qoʻyilganidan oynaband qubba ostidagi daraxtlar taratgan muattar islardan odamning koʻkragi toʻlib ketar, — bu hidlar koʻzni tindirar, mast qilar, tanga bir ogʻriq qoʻzgʻab, laz-zat bagʻishlar, aʼzoyi badaningni allaqanday ifodalab boʻlmaydigan xumor kayfiyat bilan toʻldirar, oʻlim oldida boʻladigan bir tol-gʻinlikka solardi.

Shoʻrlik xotin qoʻrqib ohista-ohista qadam bosardi: uning qoʻlida qaltiragan shamning nuri dam sayin gʻaroyib oʻsimliklarni yoritir, shunda xotinning nazarida allaqanday maxluqotlar, qandaydir shaffof maxluqlar, gʻaroyib bir mavjudotlar vahimali suratda chiqib kelayotganday boʻlar edi.

Shunda uning koʻzlari birdan Isoga tushdi. U eshikni ochib uning siymosi qarshisida tiz choʻkdi.

Oldin Xudoga muhabbat izhor qilib, zoʻr berib ibodat qildi, yolbordi, tavallo qildi. Keyin ibodat qilib biroz koʻngli oʻrmiga tushgach, unga boshini koʻtarib qaradi, qaradi-yu, shu zahoti dahshatga tushdi. Shamning titroq alangasi Isoni xiragina yoritib turar, shu onda u Azizimga chunonam oʻxshab ketgan ediki, nazarida hozir unga Xudo emas, oshigʻi tikilib turganday edi. Yo Rabbim, bu uning koʻzlari, uning qarashlari, uning sovuq va kibrli nazari edi!

«Iso! Iso! Iso!» — pichirladi u. Lablarida esa Jorjning nomi takrorlanardi. Shunda birdan uning xayoliga, balki, mana shu damlarda Jorj qizim bilan yotgandir, degan fikr yalt etib keldi. Qizi hozir u bilan birga, biron xonada birga yotibdi. U, u — Syuzanna yonida!

«Iso!.. Iso!» — pichirladi xotin. Lekin qizi bilan seviklisini oʻylardi! Ular xonada yolgʻiz oʻzlari... hozir esa tun.

«Yo Masihim!.. Yo Masihim!» – kalima qaytarardi Valter xonim. Biroq u qizini va uni olib qochib ketgan seviklisini o'ylagani o'ylagan edi! Ular hozir biron go'shada yolg'iz yotishibdi... Yana qorong'i kechada. Valter xonim ularni shundoq ko'rib turganday edi. Mana shu devordagi suratni qandoq ko'rib turgan bo'lsa, ularni ham xuddi shunday ravshan ko'z o'ngiga keltirmoqdaydi. Ana, ular bir-birlariga qarab tabassum qilishmoqda. Ana, ular o'pisha boshlashdi. Xona qop-qorong'i. To'shak ustidagi adyol pastga sidirilib tushgan. Valter xonim o'midan turdi: hozir ularning oldilariga boradi va Syuzannaning sochlaridan tortib, uni Jorjning quchoqlaridan yulib oladi. U o'sha odam bilan qochib ketgan basharang qurg'ur qizni hozirning o'zida bo'g'ib o'ldiradi. Valter xonim nazarda qizining bo'g'zidan ushlab olganday edi... lekin ushlagani surat edi. Uning qo'li Masihoning oyoqlariga tegib ketgandi.

Xonim vahima ichida bir qichqirdi-yu, yuztuban yerga quladi. Sham to'ntarilib tushdi va o'chib qoldi.

Keyin nima bo'ldi deysizmi? U vasvasa, g'alati qo'rqinch ichra alahlab chiqdi. Bir-birlari bilan quchoqlashib olgan Jorj bilan Syuzanna uning ko'z o'ngidan nari ketmasdi. Masih esa ularning sharmsiz muhabbatlariga oq fotiha berib turganday edi.

Xonim o'z xonasida emas boshqa yerda yotganligini elas-elas xotirlardi. U o'midan turmoqchi bo'lar, qochib ketgisi kelar, lekin qimirlashga majoli qolmagandi. Butun vujudi allaqanday karaxt bo'lib qoldi, jismi zo'r bir yukning tagida qolgan kabi edi, hali hushi o'zida edi, uning hushini favqulodda xayoliy dahshatli ro'yolar eltgandi, u qo'rqinch bezovta bir uyquga cho'ma bormoqdaydi, odatda, issiq mamlakatlarning o'tkir isli g'aroyib o'simliklari kishining ko'zini mana shunday eltadi, ba'zan shunda odam o'zining abadiy uyquga cho'mib ketganligini sezmay ham qoladi.

Ertalab Valter xonimning holati razmga borib qolgan behush gavdasini «Suv kechayotgan Isoning» oldidan topishdi. Uning ahvoli juda ham og'ir deb topildi. U faqat ertasi kuni ko'zini ochdi va shunda yig'lay boshladi.

Uydagi xizmatkorlarga Syuzanna to'satdan monastirga ketdi, deb aytili. Valter janoblari Dyu Ruadan uzundan uzoq xat oldi va uning Syuzannaga uylanishiga rozilik berdi.

Azizim bu xatni qochib ketmaslaridan sal burun yozgan va Parijdan chiqib ketayotganlarida pochtaga tashlagan edi. Xatda u o'zining anchadan beri Syuzannami sevishini, lekin bu narsaga til biriktirmaganliklarini, biroq qizning o'z ixtiyori bilan kelib: «Men sizning xotiningiz bo'lishni istayman», degandan keyin uni o'zi bilan birga olib qolishga majbur bo'lganligini va tokim, ota-onasi rozi bo'lmaganlaricha yashirinib turajaklarini yozgan edi; oxirida, men uchun qaylig'imning gapi gap, men boshqa hech narsani tan ololmayman, deb qo'shib ham qo'ygandi.

U janob Valterdan javob xatini o'zi pochtdan talab qilib oladigan tarzda yozishni so'ragan, keyin uni do'stlarim menga jo'natib yuborishadi, deb aytgan edi.

Dyu Rua istagan narsasiga erishgach, Syuzannani Parijga olib keldi-da, uyiga jo'natib yubordi, lekin o'zi vaqt-soati kelguncha uning ota-onasiga ko'rinmaslikka qaror qildi.

Bungacha ular Sena sohillaridagi Larosh-Giyonda olti kun birga turishgan edi.

Syuzanna o'zida yo'q xursand, quvonchi ichiga sig'masdi. U o'zini cho'pon qiziday tasavvur qilardi. Jorj uni odamlarga singlim deb tanishtirar, chindan ham o'rtalarida aka-singillarday oddiy, yaqin, ayni choqda juda samimiy pokiza munosabat tug'ilgan edi: odatda, sevishgan habib va mahbuba mana shunday munosabatda bo'ladilar. Jorj o'z manfaatini ko'zlab atay qizning nomusiga tegmadi. Larosh-Giyonga kelganlarining ertasigayoq Syuzanna o'ziga kiyim-kechak va qishloqda asqatadigan narsalar sotib oldi va dala chechaklari taqilgan kattakon poxol shlyapasini kiyib olib baliq ovlagani ketdi. Bu yerlar uning ko'zlariga beqiyos go'zal bo'lib ko'rinar edi. Bu yerda o'zining ajoyib gilamlari bilan mashhur bo'lgan ko'hna minora va qadimiy qal'a bor edi.

Jorj shu yerdan sotib olgan kurtkasini kiyib Syuzanna bilan daryo qirg'oqlarida kezar, daryoda qayiqda sayr qilishardi. Ular damba-dam o'pishishar, – qizning o'pichlari ma'sum va toza. Jorj esa hirsning olovida kuyardi. Lekin u yuragini o'rtab yotgan hirsni ustalik bilan yashirardi. U Syuzannaga: «Ertaga biz Parijga qaytadigan bo'ldik, otangiz nikohimizga rozi bo'ldi», – deb aytganda, qiz soddadillik bilan so'radi:

– Darrov-a? Sizga xotin bo'lish menga juda ham yoqib qoldi!

Konstantinopol ko'chasidagi mo'jazgina kvartiraning ichi qorong'i edi. Dyu Rua bilan xona eshigida uchrashgan Klotilda de Marel uy ichiga otilib kirdi-da, darhol uni qiyin-qistovga ola ketdi. Jorj hatto deraza pardalarini tortishga ham ulgurmadi.

– Demak, sen Syuzanna Valterga uylanadigan bo'libsang-da?

Jorj boshini xam qilgancha buni bo'yniga oldi.

– Nahotki, eshitmagan bo'lsang? – deb qo'shib qo'ydi u.

– Sen Syuzanna Valterga uylanasanmi? – deb davom etdi tusi o'zgarib quturib ketgan xonim. – Kurakda turmaydigan gap! Bema'nilik! Uch oydan beri mening oldimda dikonglab qolganing shuning uchun ekan-da, ko'zimni bo'yab laqillatib yurgan ekan-sang-da. Mendan boshqa hamma eshitibdi. Menga buni erim aytdi!

Dyu Rua zo'raki iljaydi va shlyapasini kaminning chetiga osib kresloga o'tirdi.

– Demak, xotining bilan ajrashganing hamono qarmoq tashlay boshlagan ekan-sang-da, a? Men bo'lsam uning o'rniga vaqtinchacha tab bosti bo'lib yurgan ekanman-da, a? – dedi uning yuziga tik qaragancha u g'azab bilan shivirlagan xonim. – Muncha ablah bo'lmasang!

– O'zi nima gap? – so'radi Jorj. – Xotinim meni aldab yurgan ekan, uni jinoyat ustida qo'lga tushirdim, ajralib ketdik, mana endi boshqasiga uylanyapman. Buning nimasi yomon ekan?

– Ilonning yog'ini yalagan ayyor, tovlamachi ekan-sang! – deb pichirladi qaltiragan tovush bilan xonim.

– Jin ursin! Bu dunyoda shalvirab og'zidan oshini oldirib yuradiganlar laqillab qolaveradilar.

Lekin Klotildaga hamon boyagi fikr azob bermoqda edi.

– Nega sening bunaqaligingni avvaldan bilmagan ekanman-a? Yo'q, men hech qachon seni bunchalar iflos odamligingni bilmagan edim.

– Iltimos, tilingni tiysang yaxshi bo'lardi, – dedi g'urur bilan Jorj.

Klotilda bu so'zlardan yorilar holga keldi:

– Nima! Sen bilan hali oq qo'lqop kiyib gaplashishim ham kerakdir? Sen doimo mening shoximni sindirganing sindirgan, nima

endi, miq etib og`zimni ocholmaymanmi? Hammani aldaydigan, hammani o`ziga malay qilib olgan, qayerga bormasin tarallabedod qilib yuradigan, katta-katta pul-daromad o`maradigan odam bilan shundan boshqacha yana qanday gaplashish mumkin, koshki tuzuk odam bo`lsang ekan!

Jorjning lablari gezarib, titradi, u o`rnidan turdi.

– Og`zingni yum, bo`lmasa haydab chiqaraman.

– Hali haydayman degin... Haydaysanmi... Sen meni hayday-sanmi... sen... sen...

Klotilda shu qadar darg`azab bo`lib ketdiki, nima deyishini bilmay qoldi, biroq uning g`azabini bosib turgan to`g`on birdan quladi, og`zidan bodi kirib, shodi chiqa boshladi.

– Meni haydar emish! Bu uyning pulini kim to`lab kelayotgan-ligini unutdingmi? Eh-a, unda-munda men ham to`lab turganman degin! Xo`sh, uyni kim ijaraga olgan edi?... Men... Kim uni saqlab o`tirdi? Men... Yana sen meni haydamoqchimisan? Gapirma, vij-donsiz! Vodrek Madlenaga qoldirgan merosning qoq yarmini o`g`irlaganingni bilmaydi deysanmi meni? Syuzannani o`zingga xo-tin qilib olish uchun uni zo`rlaganingni bilmaydi deysanmi meni?..

Jorj uning ikkala yelkasidan ushlab olib silkita boshladi.

– U haqda gapirma! Senga aytyapman, gapirma!

– Sen u bilan yotgansan, men bilaman! – qichqirardi Klotilda.

Jorj u nima demasin hammasiga chidab berardi, lekin bu gap juda o`tib tushdi. Klotilda rost gapni aytayotganida yuragi gursillab urib ketgandi, lekin o`z qaylig`iga nisbatan aytilayotgan bo`hton uning qonini qaynatib yubordi, sal bo`lmasa Klotildani urib yubo-ray derdi.

– Tilingni tiy... tilingni tiy... Yaxshisi, tilingni tiy... – deya tak-rorlardi u va mevali shoxni silkitganday Klotildani siltalardi.

Sochlari to`zg`ib ketgan, ko`zlari telbavor Klotilda bor ovozi qo`yib qichqirdi:

– Sen u bilan yotgansan!

Jorj uni qo`yib yubordi va chunon shapaloq tortdiki, Klotil-da devor tomonga uchib ketib yiqildi, lekin shu zahoti unga qa-rab o`girildi-da, gavdasini verdan salgina ko`tarib yana bir karra qichqirdi:

– Sen u bilan yotgansan!

Jorj unga tomon tashlandi va tagiga bosib olib xuddi erkak odamni urganday kaltaklab ketdi. Klotilda darrov jim bo'lib qoldi. – faqat kaltak zarbidan ingrab yotardi. U qimir etmasdi. Yuzini xonaning burchagiga qaratgancha inqillab yig'lardi.

Nihoyat, Dyu Rua uni urishdan to'xtab, o'midan turdi. O'ziga kelish uchun xonada u yoq-bu yoqqa yurib ko'rdi. Keyin o'ylab turdi-da, yotoqxonaga o'tib tosga sovuq suv quydi va unga boshini tiqdi. So'ngra qo'llarini yuvdi va sochiqqa yaxshilab artingancha, nima bo'lganini bilish uchun Klotildaning tepasiga bordi.

Klotilda qimir etmasdi. U hamon yerda yotgancha piqillardi.

– Yana qachongacha diydiyo qilmoqchisan? – so'radi u.

Klotilda javob bermadi.

U uyning o'rtasida yerda chilparchin bo'lib yotgan ma'shuqasiga tikilib turar, biroz sarosimaga tushgan, ko'ngli buzilgan edi.

Keyin o'zini qo'lga oldi-da, kamindan shlyapasini oldi.

– Men ketdim. Ketayotganingda kalitni qorovulga berib ket. Qachon turarkansan, deb kutishga toqatim yo'q.

U eshikni ochib chiqdi, borib qorovulga uchrashdi.

– Xonim hali ichkarida, – dedi u. – U birpasdan keyin ketadi. Xo'jayinga aytib qo'ying, birinchi oktyabrda e'tiboran men uyni boshqa ijaraga olmayman. Bugun – o'n oltinchi avgust, demak, men vaqtida aytib qo'yyapman, – dedi-da, darhol jo'nab qoldi. U magazinlarga kirib qaylig'iga sovg'alar xarid qilmoqchi edi.

To'y yigirmanchi oktyabrda, parlament kanikullari tugagan kuni bo'lishi kerak edi. Nikoh marosimi Madlen cherkovida o'qiladigan edi. To'y haqida har kim og'ziga sig'gancha gapirar, lekin hech kim tayinli bir gap bilmasdi. Turli mish-mishlar yurardi. Qiz o'g'irlash haqida shivirlab gaplashishar, lekin hech kim aniqlikni aytolmasdi.

Valter xonim o'z bo'lajak kuyovi bilan gaplashmasdi; xizmatkorlar to'y ma'lum bo'lishi bilanoq, o'sha kuni Syuzannani monastirga jo'natgani, o'zi esa zahar ichgani haqida gapirib berishardi.

Uni behush ahvolda topishibdi. Endi uning o'ziga kelishi qiyin ekan. Ko'rsangiz, kampir bo'lib qolibdi deysiz; sochlari butunlay oqarib ketibdi. Boshini toat-ibodatdan ko'tarmaydigan bo'libdi, har yakshanba cherkovga borib tavba-yu tazarru qilishni kanda qilmaydi.

Sentyabrning boshlarida «Fransuz hayoti» janob Valter faqat noshir boʻlib qolajagi, bosh muharrir lavozimini baron Dyu Rua de Kantel ado etajagi haqida eʼlon qildi.

Shuning barobarida gazeta maʼlum mashhur felyetonchilar, muxbirlar, publitsistlar, adabiy va teatr tanqidchilarini ishga tortdi. Ular katta pullar evaziga eʼtiborli, katta gazeta tahririyatlaridan ogʻdirib olindi.

Keksa, hurmatli, kekkaygan jurnalistlar endi «Fransuz hayoti» haqida gap ketganda yelkalarini qisib qoʻyishmasdi. Gazeta bir zumda toʻla gʻalaba qozondi, jiddiy adabiyotchilar ham endi ilgari-giday mensimay qarashmasdi.

Jorj Dyu Rua bilan Valterlar oilasi birmuncha vaqtlardan beri hammaning diqqatini oʻziga jalb qilgandi. Mana shuning uchun ham «Fransuz hayoti» bosh redaktorining toʻyi Parij mavsumining guli hisoblanardi. Xronikalarda nomlari muttasil qayd qilinib yuradiganlarning hammalari ham nikoh marosimida qatnashishga mavl bildirdilar.

Bu hodisa begʻubor kuz kunlaridan birida boʻlib oʻtdi.

Ertalab soat sakkizda Qirol koʻchasida Madlen cherkovining xizmatchilari cherkov eshigi oldidagi baland zinlarga keng qirmizi poyandoz toʻshadilar, bunga oʻtkinchilarning diqqati jalb boʻldi va bugun bu yerda muazzam tantana boʻlajagidan darak berdi.

Idoralariga oʻtib borayotgan xizmatchilar, kamsuqum ishchi xotinlar, magazin sotuvchilari – hammalari bu yerda bir toʻxtab oʻtishar va boylar oʻz nikoh toʻylariga qanchadan qancha pul sovrishlari ustida fikr qilishardi.

Soat oʻnlarda tomoshabinlar yigʻila boshladi. Ular tezda boshlansa kerak, deb bir qancha muddat kutib turishar, keyin joʻnab qolishardi.

Soat oʻn birda politsiya keldi va xaloyiq dam sayin toʻdalashayotganligini koʻrib, shu zahoti ularni haydashga kirishdi.

Tezda taklif qilinganlar – yaxshiroq joyni egallab, hammasini oziqmay-tomizmay koʻrib olish ishtiyoqida yonganlar birin-sirin keldilar. Ular katta zal devorlari yoqalab oʻtirib oldilar.

Odam tobora koʻpaya boshladi: ipak liboslari shildiragan xonimlar bilan tepakal boʻlib qolgan, xatti-harakatlarida kiborlar-cha bir savlat yogʻilib turgan, bugun kechagidan ham dimogʻdor-roq boʻlib qolgan mutakabbir erkaklar kelishdi.

Cherkovning ichi odamga to'lib borardi. Keng ochib qo'yilgan darvozalardan tushgan oftob nurlari birinchi qatorlarni yoritib turardi, shamlar bilan charog'on mehrob atrofga sarg'imitil ziyo taratib turar, eshik tomondan quyilib turgan yarqiroq oftob nurlari qarshisida uning ziyosi xira va g'arib bo'lib ko'rinar, shuning uchun ham mehrob tomon nimqorong'i bo'lib tuyulardi.

Mehmonlar har tomonga nazar tashlab o'tirishar, bir-birlarini imlab chaqirishardi, biron yerga to'dalashib yig'ilishardi. Kiborlar kabi savlat to'kmagan adabiyotchilar esa sekin gaplashib o'tirishardi. Erkaklar xotinlarni tomosha qilishardi.

Tanishlarini qidirayotgan Norber de Varen o'rtada o'tirgan Jak Rivalni ko'rib uning oldiga bordi.

– Shunday qilib, – dedi u, – bu dunyo firibgarlar dunyosi bo'lib qolar ekan-da!

Rival ichi qora odam emasdi.

– Qandini ursin, – deya e'tiroz bildirdi u. – Jorj narvonning tepasiga chiqib oldi.

Ular shundan keyin kimlar yig'ilganligini nazardan kechira boshladilar.

– Uning oldingi xotini nima qilayotibdi, bilmaysizmi? – so'radi Rival.

Shoir miyig'ida kuldi:

– Nima desam ekan. Eshitishimga qaraganda, u Monmartr tomonda go'shanishin yashayotganmish. Lekin... bir «lekin»i bor... Yaqin kunlardan beri «Qalam» gazetasida bir qancha siyosiy maqolalarga ko'zim tushdi, buni qarangki, ular Foreste bilan Dyu Ruaning maqolalariga quyib qo'ygandek o'xshash. Ularga Jan Ledol, degan bir kimsaning ismi qo'yilgan. Juda kelishgan, aqlli, do'stimiz Jorjga o'xshagan bir yigit ekan. Yaqinda Jorjning sobiq xotini bilan tanishib olgan emish. Shundan kelib chiqib aytamanki, Madlena doim havaskorlarni sevib kelgan, bundan keyin ham shundoq bo'lib qoladi. Buning ustiga u juda ham badavlat, Vodrek bilan Larosh-Mate bekorga uning uyiga tanda qurib olishmagan, axir.

– O'ziyam qurmag'ur oydakkina, – dedi Rival. – Juda pixini yorgan! Yaqindan tanish bo'lgan odamga juda jozibali bo'lib ko'rinsa kerak. Lekin ayting-chi, Dyu Rua rasmiy ravishda ajrashgandan keyin qanday qilib yana cherkovda nikoh o'qittiryapti?

– Cherkovda nikoh o‘qitayotganligining boisi, cherkov uni hali uylanmagan, deb hisoblaydi, – deb javob berdi Norber de Varen.

– Qanday qilib?

– Dinga loqayd qaragani uchunmi yoki pulni ko‘zi qiymaganmi, bizning Azizim Madlena bilan faqat meriyaning o‘zidan-gina o‘tgan ekan. Gap shuki, u birinchi nikohini cherkovda qayd qildirmagan, shunday bo‘lgach, bizning onaxon cherkovimiz nazarida uning ilgarigi uylanishi rasman er-xotinchilikka kimmas ekan. Shunday qilib, bugun u cherkov nazarida bo‘ydoq yigit. Bunchalar as‘asa-yu dabdaba ham unga atalgan, darvoqe, bularning bari qari Valterga ancha chaqaga tushadi.

Ravoqlar ostida to‘plangan odamlarning g‘ovuri kuchaygandan kuchayib borardi. Ba‘zilar ovozlari baralla qo‘yib gaplashar edilar. Odamlar qarshisida hammaga ko‘z-ko‘z bo‘lib turgan, kishilar bir-birlariga ularni ko‘rsatayotgan, odamlarning nigohi o‘zlarida ekanligidan g‘oyatda mamnun bo‘lgan mashhur shaxslar turishardi: ular o‘zlarining har bir xatti-harakatlarini o‘lchovga solib olishgan, o‘zlarini bu anjumanning zaruriy bezagi deb bilishar, o‘zlariga ajoyib bir san‘at asariga qaraganday qarashar va ular bu yerda ham, boshqa barcha bayramlarda bo‘lganday yulduz kabi porlab turar edilar.

– Azizim, siz xo‘jayinning oldida ko‘p bo‘lasiz, – davom etdi Jak Rival, – Valter xonim Dyu Rua bilan gaplashmas emish, shu rostmi?

– Rost. U Dyu Ruaga qizimni bermayman, debdi. Lekin Dyu Rua cholni qattiq qo‘lga olib qo‘ygan ekan, cholni Marokashda ko‘milgan allaqancha o‘liklar bilan qo‘rqitganmish, deb eshitaman. Qisqasi, u cholga agar qizingni bermasang, hamma jinoyatlarni fosh qilaman, deganmish. Valter Larosh-Matening holiga maymunlar yig‘laganligini eslab darhol rozi bo‘la qolibdi. Biroq hamma xotinlar kabi qaysar bo‘lgan onasi, agar kuyovim bilan bir og‘iz gaplashsam odam emasman, debdi. Ular bir yerda o‘tirganlarida ahvollariga qarab odamning kulgisi qistaydi. Valter xonim xuddi Qasos ilohasining haykaliga o‘xshaydi, Dyu Rua esa o‘zini juda o‘ng‘aysiz sezadi, lekin sira bilintirmaydi. Kim-kim, lekin u ichidagini sira sirtiga chiqarmaydi.

Ularga adabiyotchilar salom berib o'tishardi. Siyosiy mavzularda borayotgan gaplar uzoq-yuluq quloqqa chalinardi. Eshikdan esa xuddi dengiz to'lqinlarining g'uvullashi kabi cherkov oldida yig'ilgan odamlarning shovqini kirib kelar, gumbazlar uzra ko'tarilib kaliso ichida yig'ilgan asilzodalarning tovushlarini bosib ketar edi.

Lekin, mana, eshik og'asi hashandor aso bilan uch marta yerga urdi. Hamma o'girilib qaradi, kursilar taraq-turuq surildi, ipak liboslar shuvulladi. Eshikda esa quyosh nurlariga g'arq bo'lgan holda navqiron qiz otasi yetakehiligida paydo bo'ldi.

Qiz hamon qo'g'irchoqqa o'xshardi – ha, ajoyib mallarang sochli, sochlariga oq gullar qo'ndirgan qo'g'irchoqqa o'xshardi.

U kiraverishda bir necha soniya to'xtab qoldi, keyin kaliso ichiga qadam qo'ydi – shu ondayoq organ sadolari yangradi, uning qudratli saslari kelin kelganligidan mujda berdi.

Latif va dilbar qo'g'irchoqday nozanin kelin biroz to'lqinlangan holda boshini yerga qaratib kelardi, lekin ko'rinishdan sira iymanib turganga o'xshamasdi. Xonimlar unga qarab jilmayishar, shivir-shivir gaplashishar edi. «Juda ham dilbar, juda ham yoqimtoy ekan», – deya pichirlashardi erkaklar. Valterning yuzi oqargan, haddan tashqari o'zini salobatli qilib ko'rsatar, ko'zoynaklari yalt-yult qilardi.

Bu qo'g'irchoq malikaning ketidan uning to'rt dugonasi kelishar, ularning hammalari bir xilda pushtirang liboslarga burkanihgan, hammalari g'oyatda chiroyli edilar. Bir-biriga monand qilib tanlangan to'rt kuyov navkar xuddi ularning harakatlarini baletmeyster boshqarib turganday yurib kelar edilar.

Ular ketidan Valter xonim o'zining qudasi – yetmish ikki yashar markiz de Latur-Ivelen bilan qo'ltiqlashib kelardi. U qadamlarini bazo'r bosmoqda edi. Xuddi yana bir qadam tashlaydigan bo'lsa, yerda qulab qoladiganga o'xshardi. Unga qaragan odam oyoqlari pol plitalariga yopishib qolmayotganmikin, deb o'ylardi, u o'limga ketayotgan odamga o'xshar, yuragi esa qafasga tashlangan jonivordek pitirlardi.

U ozib cho'p bo'lib qolgandi. Chehrasi iztirob, alamning zo'ri-dan o'zgargan, sochlari oqarib ketganidan yuzi ham yanada rang-par bo'lib ko'rinar edi.

U, aftidan, odamlarga ko'zim tushmasin, debmi yoxud yuragini o'rtab yotgan qayg'uli fikrlardan chalg'imaslik uchunmi, to'g'riga tik qarab borardi.

Kevin allaqanday qari, hech kim tanimaydigan kampirni qo'ltiqлагan Jorj Dyu Rua ko'rindi.

U boshini baland ko'targancha, qoshlarini andak chimirgan holda to'g'riga qarab go'yo bir nuqtaga tikilganday bo'lib jiddiy yurib borardi. Mo'ylablarining ikki uchi yuqoriga dikrayib turardi. Hamma yig'ilganlar uni juda kelishgan yigit deb topishdi. Uning sarvdek adl qomati, kelishgan oyoqlari hammaning diqqatini o'ziga jalb qilgan edi. Ko'kragiga Faxriy legion ordenining alvon lentasi taqilgan frak unga g'oyatda yarashgan edi.

Kevin senator Risolen bilan kelayotgan Roza ko'rindi. U bir yarim oy ilgari turmushga chiqqan edi. Graf de Latur-Ivelen vikontessa de Persmyumi qo'ltiqlab kirib keldi.

Hammadan orqada Dyu Ruaning o'rtoqlari va yor-birodarlari kelishdi, Jorj bularni o'zining yangi urug'lariga tanishtirgan edi, bular qorishiq Parij jamiyati ichida tanilgan odamlar bo'lib, ular darhol odamga el bo'lib ketishar, bechorahol bir ahvolga tushib qolganlarida esa yangi chiqqan boylarga o'zlarini qarindosh-u xesh-aqrabo qilib ko'rsatishardi, – bir so'z bilan aytganda, bular puturdan ketgan, kasod bo'lgan, pullarmi sovurib ado qilgan, har turli gap-so'zlarga, malomatlarga qolgan, undan ham xunukrog'i, uylanib qo'ygan dvoryanlar edi. Ular orasida janob de Belvin, markiz de Banjolen, graf va grafinya de Ravenal, gersog de Ramorano, knyaz Kravalov, Shevale Valreali hamda Valterning mehmonlari: knyaz de Gresh, gersog va gersoginya de Ferrachini va go'zal markiza de Dyun bor edi. Marosimda ishtirok etayotgan Valter xonimning qarindosh-urug'lari o'zlarining viloyatdan kelganliklarini shundoqqina bildirib turar edilar.

Hamon organ sadolari yangrab turardi: karnaylarning yarqiroq bo'g'izlaridan yer yuzidagi lazzatlar va azob-uqubatlardan darak beruvchi sadolar otilib chiqar, butun kalisoga yangroq ohanglar taralardi.

Qo'sh tavaqali zalvorli eshik yopildi, xuddi bu yerdan birov o'tobni quvib chiqargandek shu zahoti qop-qorong'i bo'lib qoldi.

To'rdi, yop-yorug' mehrob oldida Jorj xotini bilan yonma-yon tiz cho'kib turardi. Bu yerga yaqindagina kelgan yepiskop Tanjer mitra kiyib, aso ushlagan holda Tangri taolo nomidan ularni qovushtirmoqlik uchun ichkaridan chiqib keldi.

Yepiskop kelin-kuyovga odatdagi savollarni berdi, uzuklarni almashtirdi va xristian xulqi borasida kelin-kuyovga nutq irod etdi, uning so'zlari odamni xuddi kishanlab tashlayotganday eshitarlardi. U vafo-sadoqat haqida uzundan-uzoq tumtaroqli va'z o'qidi. Yepiskop baland bo'yli, to'ladan kelgan, sal chiqqan qorni o'ziga savlat bag'ishlagan prelatlardan edi.

Kimdir o'kirib yig'lab yubordi, ba'zi odamlar o'girilib qarashdi. Yuzini qo'llari bilan to'sib olgancha Valter xonim yig'lamoqda edi.

U yon berishga majbur bo'ldi. Qo'lidan boshqa nima ham keldi? Ammo qaytib kelgan qizini o'pib qo'yishdan voz kechgan va uni o'z xonasidan quvib chiqargan, Dyu Ruaning tavoze bilan qilgan ta'zimiga javoban: «Siz dunyodagi eng pastkash odam ekansiz, endi hech qachon menga gapirmang, men esa sizga hech qachon javob bermayman», – degan kundan boshlab, ha, xuddi shu kundan e'tiboran, hayot uning uchun hayot emas, qiynoqxona, uqubatxonaga aylandi. U Syuzannani ko'rarga ko'zi, otarga o'qi yo'q edi: uning tuyg'ulari g'oyatda g'alati, murakkab edi, bunda telba bir muhabbat dahshatli rashk hissi bilan qorishib ketgan, bu ona va ma'shuqaning favqulodda, yashirin, ayovsiz va bitmagan jarohat kabi qon silqib yotgan rashki edi.

Mana endi yepiskop cherkovda ikki ming odamning o'rtasida, uning shundoqqina ko'z o'ngida qizi bilan seviklisining nikohini o'qimoqda! Qani endi miq etib og'zini ocholsa! To'xtating, deb ayta olsa! «Bu yigit mening yigitim, mening seviklim! Siz harom nikoh o'qiyapsiz!» – deb ayyuhannos sololsa, yo'q, buning iloji yo'q!

Ba'zi bir xonimlar achinib pichirlashardi:

– Onasi bechora adoyi tamom bo'libdi!

– Siz bu bebaqo olamning sara odamlari jumlasidansiz, siz eng badavlat hurmatli zotlardan birisiz, – deya takallum o'qirdi yepiskop. – Sizning iqtidoringiz, marhamatli afandim, sizni avomdan farqli o'laroq sarafroz qildi, siz qalam tebratib xalqqa ibrat bo'lmoqdasiz, uni o'z orqangizdan ergashtirmoqdasiz, shun-

day bo'lgach, sizning zimmangizda sharaflı bir burch turibdi, siz kishilarni oliyjanob yo'llarga boshlamog'ingiz darkor...

Dyu Ruaning qalbi iftixor tuyg'ulari bilan limmo-lim bo'ldi. Axir, bu gaplarning barini rim-katolik cherkovining padari buzruklaridan bo'lmish bir odam unga qarata aytmoqda edi. Uning orqasida esa faqat uni deb bu yerga kelgan nomdor korchalonlar turishibdi. Nazarida, allaqanday kuch uni o'z hukmiga olib yuksaklarga ko'tarib ketayotganday edi. U endi dunyosini tebratib turadigan zotlardan biriga aylanmoqda. Ha, bu uning xuddi o'zi, boshqa hech kim emas, uning o'zi – Kantledan chiqqan Xudo be-xabar dehqonning bolasi!

Shunda birdan u keng Ruan vodiysi uzra qad ko'targan tepalik ustida joylashgan ko'rimsizgina qovoqxona ichida otasi bilan onasi o'z hamqishloqlariga qanday xizmat qilayotganliklarini ravshan ko'z o'ngiga keltirdi. Dyu Rua Vodrekdan tekkan merosning besh ming frankini ularga yuborgan edi. Mana endi ularga ellik ming frank jo'natadi, ular bunga ko'rkam mulk sotib olishadi. Boshlari osmonga yetib, xursand bo'lib yurishadi.

Yepiskop so'zini tugatdi. Tillarang yepitraxil kiygan ruhoniylar mehrob tomonga o'tdi. Shunda yana organ sadolari yangradi, endi u yangi kelin bilan kuyovni muborakbod qilardi.

Ba'zan uning sadosi guvullab yashin guldiragan kabi yangrar, xuddi qudratli dengiz to'lqinlari misoli ko'k sari qaldirab o'rlar, mana hozir zo'r kuch bilan pastga quyilib, binoni o'pirib ketadiganday ko'rinar, so'ng feruzarang osmon sathida yoyilib taralardi. Bu guvlangan ohanglar kalisoni zirillatib turar, odamning jismi, qalbini larzaga solardi. Keyin u birdan o'chib qolar, shunda qu-loqlarga xuddi mayin sazo sasidek orombaxsh yengil parvoz qilgan kuylar chalinardi. Kuy havolanib, erkanib uchar, sharshara tomchilaridek parchinlanib ketar, dam esa qushlar kabi parvoz qila boshlardi. Keyin yana to'sindan xuddi butun bir olamga aylanishi mumkin bo'lgan tomchi kabi bag'rini keng ochar va yengib bo'lmas kuchga aylanar, olamni cheksiz qudratga ega bo'lmish ohanglar tutib ketardi.

Keyin quyi egilgan boshlar uzra inson ovozi yangradi. Opera solistlari – Vori va Landek qo'shiq boshlab yuborishgan edi. Bu-

xur dudi nafis hid tarata boshladi. Bu payt mehrob tomonda ilohiy o'yin ado etilmoqda edi: o'z ruhoniysining chorlovi bilan odam Xudo baron Jorj Dyū Rua nikohi sharafiga yerga tushib kelmoqda edi.

Syuzannaning yonida tiz cho'kib turgan Azizim boshini quyi egdi. U hozir o'zini Xudoga ishonadigan dindor odamday his qilmoqda edi, u o'ziga shunchalar muruvvatlar qilgan, boshidan marhamatining nurini sochgan, unga mol-mulk, davlat inoyat qilgan ilohiy vujudining hidoyatiga shukur qilmoqda edi. Kimga qarata aytayotganligini o'zi ham aniq tasavvur qilmagan holda u izhori minnatdorchilik bildirmoqda edi.

Rasm-rusum tamom bo'lgach, u o'rnidan turdi, xotiniga qo'lini uzatdi va odamlar turgan tomonga qarab yurdi. Jorjning quvonchi ichiga sig'masdi, – u o'zini xalqning salomiga chiqqan qirolday his qilmoqda edi. U ta'zim qilar, uzatilgan qo'llarni siqar, allanarsalar deb minnatdorchilik bildirardi. «G'oyatda minnatdorman, g'oyatda minnatdorman», – deb javob berar edi u tabriklagan odamlarga.

Shunda kutilmaganda de Marel xonimni ko'rib qoldi va u bilan qilgan sho'xliklari, erkalashlar, o'pichlar esiga tushgan zamon, ovozi, bo'salarining ta'mini tasavvur qilgan oni yana u bilan birga bo'lgisi, ehtirosli quchoqlariga otilgisi keldi. Xonim o'sha-o'sha latofatli, go'zal edi, uning ko'zlari o'sha-o'sha sho'x olov sochib turardi.

«Baribir, qurmagur juda ofatijon-da!» – deb xayolidan kechirdi Jorj.

U hurkak ohuday Jorjning oldiga kelib, unga qo'lini uzatdi. Jorj uning qo'llarini qo'yib yuborgisi kelmasdi. Shu zahoti u Klotildaning barmoqlari ham titrab ketganligini, uni yana o'ziga chorlayotganligini his qildi, uning mayin qo'llari seni kechirdim, yana yonimga kel, deyayotganday edi. Jorj bu ipakday qo'llarni «Men hamon seni sevaman, men senikiman!» degan ma'noda qisib qo'ydi.

Ular bir-birlariga kulib, charaqlab, suyukli bir nigoh bilan tikilib turishardi. – Ko'rishguncha, afandim, – dedi Klotilda nafis ovozi bilan. – Ko'rishguncha, xonim, – deya sho'xlik bilan javob berdi Jorj. Shundan keyin Klotilda nari ketdi.

Jorjning atrofidan hamon tabriklagani kelganlar arimasdi. Odamlar uning oldidan daryo bo'lib oqmoqda edi. Nihoyat, odamlar siyraklasha boshladi. Hamma tabriklab bo'ldi. Kevin Jorj Syuzannani qo'ltiqlab oldi-da, cherkovning katta zaliga chiqdi.

Cherkov odam bilan liq to'la edi. Hamma kelin-kuyovning o'tib borishini tomosha qilish uchun o'z joyini egallagandi. Dyu Rua boshini baland ko'tarib cherkov eshigidan otilib kirayotgan oftob nurlari tomon ohista qadam tashlab borardi. Uning jismini sarin bir shabada siypalab o'tdi – bu cheksiz, intihosiz baxtning shabadasi edi. U hech kimni payqamasdi. Yolg'iz o'zini o'ylab bormoqdaydi.

U eshikka yetganda to'dalashib turgan odamlar izdihomini ko'rdi, bu sershovqin odamlar faqat uni deb, uni tabriklagani kelgan edilar. Butun Parijning ko'zi unda, unga havas bilan boqar edi.

Keyin u boshini baland ko'tardi va yiroqlarda, Ittifoq maydonidan narida deputatlar palatasini ko'rdi. Shunda nazarida hozir mana shu Madlen cherkovining eshigidan Burbon saroyigacha bir sakrashda yetib olishga qodir sezdi o'zini.

U baland pillapoyalardan ohista tushib borarkan, zinaning ikki tomonida odamlar uni qarshilashar edi. Lekin u odamlarni ko'rmasdi. Xayolan orqasiga o'girilib qarar va uning oftob nurlaridan qamashib ketgan ko'zlariga oyna qarshisida jamalak sochlari to'g'rilayotgan de Marel xonimning siymosi gavdalanardi, to'shakda uning bu sochlari doimo yonoqlariga to'kilib yotardi.

Adabiy-badiiy

Gi de Mopassan

AZIZIM

Roman

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent – 2020

Muharrir	<i>Laylo Hasanova</i>
Badiiy muharrir	<i>Shavkat Ilhomov</i>
Rassom	<i>Bahodir Ibrohimov</i>
Texnik muharrir	<i>Umida Yaxshiboyeva</i>
Kichik muharrir	<i>Zilola Mahkamova</i>
Musahhirlar	<i>Akbarjon Abduraimov</i>
Sahifalovchilar	<i>Surayyo Sunnatullayeva</i> <i>Dilafruz Yunusova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 160, 14.08.2009.

10.02.2020da bosishga ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi 84x108 ¹/₃₂. Ofset qog'oz.

«Times» garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 19,32. Nashriyot-hisob tabog'i 19,55.

Adadi 5 000. Shartnoma № 10–18.

Buyurtma raqami № 53

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti.

100011, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Toshkent, 100128. Labzak ko'chasi, 86.

Gi De MOPASSAN

Azirim

R O M A N

18+



«O'ZBEKISTON MILLIY ENSIKLOPEDIYASI»
DAVLAT ILMIY NASHRIYOTI



Toshkent, 100011,
Navoiy ko'chasi, 30- uy,
tel.: 71 244 09 36,
fax: 71 244 34 38.



fb.com/uzmedin



dinuzme



t.me/Ensiklopediya_DIN



ISBN 978-9943-07-651-8



9 789943 076518